

**M. Hamroev, D. Muhammedova, D. SHodmonqulova,
X. G`ulomova, SH. Yo`ldasheva,**

ONA TILI

TOSHKENT-2008

**M. HAMROEV, D. MUHAMEDOVA, D. SHODMONQULOVA,
X. G`ULOMOVA, SH. YO`LDOSHEVA,**

ONA TILI

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi oliy
o`quv yurtlarining boshlang`ich ta`lim, defektologiya, pedagogika
va psixologiya, maktabgacha tarbiya fakultetlari talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya qilgan**

**Filologiya fanlari nomzodi M.A.HAMROYEV ning
umumiy tahriri ostida**

Toshkent - 2008

Taqrizchilar:

Nizomiy nomidagi TDPU “O`zbek tilshunosligi”

kafedrasi professori filologiya fanlari nomzodi

R.YUNUSOV

Respublika ta'lim markazi "Ona tili va adabiyoti"

bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari nomzodi,

M.ABDURAXIMOVA

Oliy ta'lim jonkuyari, chin inson,

*marhuma Ra'no opa Ikromovaning
porloq xotirasiga bag'ishlaymiz.*

So'z boshi

Mazkur darslik Nizomiy nomidagi TDPU professorlari D.A.Muhamedova va D.X.Shodmonqulovalar tomonidan tuzilgan "Ona tili" dasturi (2006-y.) asosida yozildi. Bu darslik oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim metodikasi, defektologiya, pedagogika-psixologiya, maktabgacha ta'lim kabi nofilologik (ya'ni o'zbek tilini chuqur o'rganishga ixtisoslashmagan) fakultetlar talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, umumiy tilshunoslikdan hamda ona tili fanining barcha bo'limlari bo'yicha shu mutaxassisliklar fan dasturlari hajmida ma'lumot beradi.

Bu darslikni yozishda «Ta'lim haqidagi Qonun», "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" kabi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatlar va jahon hamda o'zbek tilshunosligi bo'yicha keyingi yillarda yaratilgan ilmiy ishlar dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Darslikda tilshunoslik fani, uning o'rganish ob'ekti, tilning ijtimoiy mohiyati va tuzilishi, tilshunoslik fanining boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni, dunyo tillarining tasnifi, o'zbek tilining fonetikasi, lug'at boyligi, leksikografiyasi, grammatik qurilishi, uslubiyati va tinish belgilari haqida keng ma'lumot beriladi. Darslik an'anaviy tilshunoslikning boy tajribasidan hamda sistem-struktur tilshunoslikning keyingi yillarda qo'lga kiritgan ijobiy yutuqlaridan unumli foydalangan holda yaratildi. Darslikni yozishda mualliflarning ishtiroki quyidagicha bo'ldi:

"Sintaksis" bo'limi **D.A.Muhamedova** tomonidan, "Fonetika", "Leksikologiya", "Leksikografiya", "Orfografiya", "Orfoepiya" bo'limlari **X.G'ulomova** tomonidan, "Frazeologiya", "Morfemika", "Olmosh", "Modal so'zlar", "Undov so'zlar", "Taqlid so'zlar", "O'zga gap", "Uslubiyat", "Ishorat qoidalari" bo'limlari **M.A.Hamroyev** tomonidan, "Ot", "Sifat", "Son", "Fe'l", "Ravish" bo'limlari **D.X.Shodmonqulova** tomonidan, "Yordamchi so'zlar" bo'limi **Sh.Yo'ldosheva** tomonidan yozildi.

1-§. Tilshunoslik fani haqida ma'lumot

Ma'lumki, hozirgi zamon fanlari tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlardan tarkib topgan:

1. Tabiiy fanlar.
2. Texnika fanlari.
3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar.
4. Matematika fanlari.¹

Tilshunoslik fani kishilar tili haqidagi fan sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar guruhiga kiradi. "Tilshunoslik til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi; muayyan tillarning ish ko'rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan"². Tilshunoslik fani hozirgi zamon fanining barcha asosiy turlari bilan bog'liq.

Tilshunoslik – ko'p qirrali fan. U fan sifatida umumiy va xususiy, nazariy va amaliy tilshunoslikka ajratiladi.

Umumiy tilshunoslik barcha tillar bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni umumlashtiradi va turli tillarga tatbiq etiladigan nazariyani yaratadi. Umumiy tilshunoslikning maqsadi: 1) tilning tabiatini, mohiyatini aniqlash; 2) til haqidagi fanning sathlarini va ularni o'rganuvchi sohalarni belgilash; 3) tillarning tasnifini yaratish; 4) lingvistik tahlil metodikasini ishlab chiqish va boshqalar.

Xususiy tilshunoslik – alohida, ayrim til haqidagi fan; jumladan, o'zbek tilshunosligi - o'zbek tili haqidagi fan, qozoq tilshunosligi - qozoq tili haqidagi fan, rus tilshunosligi – rus tili haqidagi fan va h.k.

O'z-o'zidan ayonki, har bir xususiy tilshunoslik ma'lum bir konkret tilga xos bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Nazariy tilshunoslik til haqidagi nazariyani o'rgansa, **amaliy tilshunoslik** lingvistik bilimlarni amalda qo'llash bilan shug'ullanadi.

2-§. Til ijtimoiy hodisadir

Til kishilarning o'zaro muloqotga kirishuvi va fikr almashuviga bo'lgan ehtiyoj natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy hodisadir.

Til paydo bo'lgandan keyin (bu, olimlarning taxminicha, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yuz bergan) jamiyat tez rivojlana boshlagan. Til jamiyat uchun, uning a'zolari bo'lmish insonlar uchun xizmat qiladi, shuning uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi, ya'ni til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo'lib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllantirilib, rivojlanib boradi.

¹ 1. A.Nurmonov, B. Yo'ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –T.: 2001, 11-bet.

² A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2002, 107-bet.

Shu tufayli ham tilning taqdiri jamiyatning taqdiri bilan chambarchas bog‘liq. Til bo‘lmasa, jamiyatning bo‘lishi mumkin emas, ya’ni til odamlarni jamiyat sifatida jipslashtirib turuvchi buyuk ne’matdir. Jamiyatsiz tilning mavjud bo‘lishi mumkin emas. Jamiyat a’zolari ham tilning yashashi, rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shadi. Shu munosabat bilan o‘tgan asrning 80-90-yillaridagi o‘zbek tilining ahvolini eslash o‘rinlidir. Bu davrda o‘zbek tilining faoliyat ko‘rsatish doirasi juda torayib, uning yo‘q bo‘lib ketish xavfi paydo bo‘ldi.

Ana shunda jamiyatimizning ilg‘or vakillari ona tilimizni himoya qilib, uning taqdiri uchun qayg‘urib, amaliy harakatlarni boshlashdi va buning natijasida 1989 yil 21-oktyabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi Qonun qabul qilindi. Aytish mumkinki, bu Qonunning qabul qilinishi istiqlol tomon qo‘yilgan dastlabki qadamlardan biridir.

Til tafakkur bilan, kishining fikrlash faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Har qanday fikr til materiallari asosida shakllanadi.

3-§. Tilning tuzilishi

Til tuzilishiga ko‘ra murakkab hodisa bo‘lib, u bir-biri bilan uzviy bog‘langan quyidagi qismlardan iborat:

1. Tovushlar tizimi.
2. Lug‘at boyligi yoki leksika.
3. Grammatik qurilishi.

Ma’lumki, inson tili tovush tilidir. Har bir tilning o‘z tovushlar tizimi mavjud. Tovushlar so‘zlarni, iboralarni, grammatik shakl va ko‘rsatkichlarni shakllantiradi.

Tovushlardan iborat bo‘lgan so‘z va iboralar yig‘indisi tilning **lug‘at boyligini** tashkil qiladi.

Lug‘at boyligidagi so‘z va iboralar fikrni ifodalovchi gap uchun qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi. Gap, uni qurish qonun-qoidalarini tilning **grammatik qurilishi** belgilaydi.

Demak, tilning tarkibiy qismlari sanalmish tovushlar tizimi, lug‘at boyligi, grammatik qurilishi o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, biri ikkinchisining bo‘lishini talab qiladi. Har bir konkret til o‘zining ana shu uzvlari bilan bir butun tizimni, sistemani, til tizimini tashkil etadi.

4-§. Til – taraqqiy qilib, o‘zgarib boruvchi hodisa

Til to‘xtovsiz ravishda o‘zgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi ijtimoiy hodisadir. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq. Tilning taraqqiyoti birinchi navbatda uning lug‘at boyligida o‘z aksini topadi. Kishilar hayotidagi o‘zgarishlar, ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti leksikani boyitib boradi. Tilning tovushlar tizimi va grammatik qurilishi esa juda sekinlik bilan o‘zgaradi. Buni til tarixini o‘rganish orqaligina sezish mumkin.

O‘zbek tili - o‘zbek millatining tili, o‘zbek tili - O‘zbekiston Respublikasining davlat tili. Davlat tili sifatida o‘zbek adabiy tilining mavqei

beqiyos darajada o'sdi, xizmat doirasi kengaydi, lug'at tarkibi boyidi, fonetik tizimi, grammatik qurilishning takomillashuvida katta o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbek milliy tili hozirgi o'zbek millatiga mansub bo'lgan barcha kishilarning umumiy va yagona tilidir. U o'zbek millatining shakllanishi bilan bevosita bog'liq. O'zbek millati shakllangunga qadar u urug' tili, qabila tili va xalq (elat) tili tarzida yashab, rivojlanib keldi.

O'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasining kengayishi natijasida uning lug'at tarkibida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tilning leksikasi ichki imkoniyatlar bilan yangi yasalgan so'zlar va boshqa tillardan qabul qilingan so'zlar hisobiga boyib borishi ko'zga tashlanmoqda. Kishilar ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi, xalq xo'jaligidagi, madaniyat, fan-texnika sohasidagi ko'pgina o'zgarishlar yangi tushunchalarni, yangicha munosabatlarni keltirib chiqardi. Bularning hammasi o'zbek tili leksikasining ko'pgina yangi so'zlar hisobiga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar hisobiga boyishiga sabab bo'ldi. Masalan: *broker, diler, makler, kompyuter, menejer, fermer, biznes* va h. Ayrim o'zbekcha so'zlarning ma'nosida o'zgarishlar ro'y berib, ular boshqa ma'nolarda qo'llana boshladi. Masalan: *ishbilarmon* va *tadbirkor* so'zlari ilgari sifat turkumiga mansub bo'lib, belgi ifodalagan bo'lsa, hozirgi paytda bu so'zlar ot turkumiga o'tdi va shaxs ma'nosini ifodalaydigan bo'ldi. Bu jarayonlarning barchasi o'zbek tili lug'at boyligini yangi pog'onaga ko'tardi.

O'zbek tilining fonetik tizimida, grammatik qurilishida ham ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Jumladan, fonetik tizimda, o'zlashma so'zlarda o'zbek tiliga xos bo'lmagan bo'g'inning yangi turlari (so'z boshida va so'z oxirida ikki yoki undan ortiq undoshning qator kelishi) paydo bo'ldi: *sport, stol, traktor, shkaf, magistr, kongress* kabi. Shuningdek, o'zlashma so'zlarda ikki unlining o'zbek tili uchun xos bo'lmagan ketma-ket kelish holatlari kuzatiladi: *aeroport, bionika, geologiya, teatr, poema* kabi.

Grammatik qurilishda kelishik shakllari, ayrim ko'makchilarning ma'nosi va vazifasi kengaydi, kelishikli boshqaruv va ko'makchili boshqaruv me'yorlari belgilandi. Ot boshqaruvi asosida tuzilgan so'z birikmalari ko'proq qo'llana boshladi.

O'zbek tilining bundan keyingi taraqqiyoti leksikaning yana ham boyishi, grammatik qurilishning ichki qonuniyatlar asosida takomillasha borishi bilan bog'liq ravishda davom etadi.

5-§. Milliy til va uning tarkibiy qismlari

Ma'lumki, o'zbek xalqi Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo'lib, uning tili XI-XII asrlarda ma'lum ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga ko'ra xalq tili sifatida shakllana boshladi va asta-sekinlik bilan rivojlanib keldi.

Qayerda yashashidan qat'i nazar o'zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til **milliy (umumxalq) o'zbek** tili deb yuritiladi. Milliy til o'z tarkibiga adabiy til, sheva, so'zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so'kish,

qarg'ish so'zlari), varvarizm (tilda o'rinsiz ishlatilgan chet so'zlar) kabi guruh so'zlarni qamrab oladi.

Jamiyatning muayyan tarixiy rivojlanish sharoitida xalqlar (elatlari) taraqqiy qilib, millatga, xalq tillari esa milliy tillarga aylandi. Demak, milliy til millatning paydo bo'lishi bilan birga yuzaga keladi.

Milliy til millat uchun umumiy bo'lgan tildir. Milliy til tushunchasi juda keng bo'lib, u mahalliy dialektlarni (lahja)larni va barcha shevalarni o'z ichiga oladi. **Sheva** bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Sheva adabiy tildan quyidagi xususiyatlariga ko'ra farq qiladi:

1. Fonetik (ya'ni tovush) jihatdan: *yo'q (ad.) – jo'q (sheva), keldi (ad.) – geldi (sheva), bahor(ad.) – bohor(sheva).*

2. Leksik (ya'ni so'z) jihatdan: *ota (ad.) – ada(sheva), chumchuq(ad.) – secha(sheva), sigir(ad.) – inak(sheva).*

3. Grammatik (ya'ni, qo'shimchalar va gap qurilishi) jihatdan: *kelyapti (ad.) – kevotti – kelopti – kelutti.*

Xalq shevalarining faqat **og'zaki** shakli mavjud.

Shevalarning bir-biriga yaqin bo'lgan guruhlari **lahja** deb ataladi (**dialekt** so'zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi.). Jumladan, o'zbek milliy tilining uchta lahjalar (dialektlar) guruhi mavjud:

1. Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).
2. Qipchoq lahjasi (janubiy-g'arbiy guruh).
3. O'g'uz lahjasi (shimoliy-g'arbiy guruh).

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini o'z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro). Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

- 1) so'z oxiridagi **k** tovushi **y** tarzida aytiladi: *elak - elay, terak - teray*
- 2) **o** lashish yuz beradi: *aka - oka, nahor – nohor.*

3) Bu lahjada qaratqich kelishigining qo'shimchasi yo'q bo'lib, uning o'rniga ham tushum kelishigi qo'shimchasi **-ni** ishlatiladi: *ukamni(ng) daftari.*

Qipchoq lahjasi shevalari O'zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari). Belgilari quyidagilar:

- 1) **y** o'rnida **j** ishlatiladi: *yo'l - jo'l, yo'q - jo'q.*
- 2) **g'** o'rnida **v** ishlatiladi: *tog' - tov, sog' - soy* va b.
- 3) so'z oxirida **k, q** tovushlari tushiriladi: *quru(q), sari(q).*

O'g'uz lahjasi Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo'shko'pir, Shovot tumanlari) bir qancha shevalarni o'z ichiga oladi. Belgilari:

- 1) unlilar qisqa va cho'ziq aytiladi: *at (hayvon), aad (ism).*
- 2) **t** tovushi **d, k** esa **g** tarzida aytiladi: *tog' - dog', keldi - galdi.*

3) **-ning** qo'shimchasi **-ing** tarzida, **-ga** qo'shimchasi esa **-a, -na** tarzida aytiladi: *yoringa – yorima, alina (qo'liga).*

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg'ona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi **fonetik**

jihatdan, Farg‘ ona shevasi **morfologik** jihatdan adabiy tilga asos bo‘lgan. Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi.

Milliy til va adabiy til tushunchalari bir xil emas. Milliy til millatning maydonga kelishi bilan paydo bo‘lsa, adabiy til milliy tildan oldin, xalq tili mavjud bo‘lganda ham yuzaga keladi.

Milliy tilning ma‘lum qoidalarga bo‘ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, san‘atkorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqshatirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Umuman, millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo‘lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo‘lgan. Milliy o‘zbek tilida shevalarning ko‘pligi adabiy tilga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam bo‘lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo‘q.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko‘radi. Adabiy tilning **og‘zaki** va **yozma** shakllari mavjud.

Adabiy tilning og‘zaki shakli nisbatan qadimiy bo‘lib, u nutq tovushlari, urg‘u, ohang (ohang) kabi fonetik vositalarga asoslanadi. Talaffuzga oid qoida va me‘yorlarni orfoepiya belgilab beradi.

Adabiy tilning yozma shakli grafik vositalarga asoslanadi. Yozuvga doir qoida va me‘yorlarni orfografiya (imlo) va punktuatsiya (ishorat) belgilaydi.

6-§. Tillarning tasnifi

Olimlarning taxmin qilishlaricha, yer yuzida 5000 dan ortiq til bor. Bu tillar tarqalishi va ijtimoiy vazifalariga ko‘ra ham, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ko‘ra ham o‘zaro farq qiladi. Jahon tillarining ko‘pchiligini milliy tillar va xalq tillari tashkil qiladi, tillarning ayrimlari esa qabila tillari, hatto urug‘ tillari hisoblanadi.

Milliy tillar o‘zining tarqalish hududi jihatidan hamda ulardan foydalanuvchi aholining miqdori, soni jihatdan bir xil emas: ayrim tillarda kichik hududdagi oz miqdorli aholi gaplashadi, ba’zi tillar esa juda katta hududlardagi ko‘p sonli aholi orasida tarqalgan. Bunday tillarga ingliz, fransuz, nemis, ispan, xitoy, hind, arab, rus va shu kabi tillar kiradi.

Jahon tillarini tasniflash, ularning psixologiyasini ishlab chiqish umumiy tilshunoslikning vazifasiga kiradi.

Yer yuzidagi tillarni o‘rganish XVIII asrdan boshlandi. XIX asrning birinchi yarmida tillarni bir-biriga qiyoslab tekshirish keng tus oldi. Natijada tillarni tekshirishda qiyosiy usul vujudga keldi; bunda tillarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari bir-biriga solishtiriladi. Bu usul bilan tillarning faqat hozirgi holatigina emas, balki ularning tarixiy holati ham o‘rganiladi. Shuning uchun ham o‘rganishning bu yo‘li **qiyosiy-tarixiy usul** deb yuritiladi. Tillarni shu yo‘l bilan o‘rgangan va o‘zlarining ilmiy asoslari bilan jahonga tanilgan tilshunoslar sifatida daniyalik Rasmus Rask (1787-1832), olmoniyalik Frans Bopp (1791-1967) va

Yakob Grimm (1785-1863), rus olimi Aleksandr Vostokov (1781-1864) kabi buyuk tilshunoslarni ko'rsatish lozim.

Tilshunoslikda tillarning qator tasniflari mavjud:

- 1) tillarning geneologik tasnifi; 2) tillarning morfologik tasnifi;
- 3) tillarning areal (geografik) tasnifi; 4) tillarning funktsional tasnifi.

7-§. Tillarning geneologik tasnifi

Geneologik tasnif tilshunoslikda tillarni tarixiy-qiyosiy usul bilan tekshirishning mahsuli bo'lib maydonga keldi. Bu tasnifga ko'ra, tillar bir umumiy manbadan kelib chiqqanligi, materiali (so'z, undagi tovushlar, o'zak va qo'shimchalar) jihatidan yaqinligi, o'xshashligiga asoslanib guruhlariga ajratiladi. Bir umumiy manbadan kelib chiqqan tillar qarindosh tillar oilasini tashkil qiladi.

Tillar oilasi qarindosh tillarning juda yirik guruhi hisoblanadi. Tilshunoslik tomonidan tekshirib aniqlangan til oilalari quyidagilardan iborat: 1) hind-evropa tillari; 2) semit tillar; 3) xamit tillar; 4) dravid tillari; 5) ugor-fin tillari; 6) xitoy-tibet tillari; 7) iberiy-kavkaz tillari; 8) oltoy tillari; 9) avstroneziya tillari; 10) yapon tili; 11) koreys tili va boshqalar.

Bular o'z navbatida yana shoxobchalarga bo'linadi.

Masalan, eng yirik tillar oilasi sanalmish **hind-yevropa** tillar oilasi quyidagi tillar guruhlariga ajratiladi:

1. Hind tillari. 2. Eron tillari. 3. German tillari. 4. Roman tillari. 5. Slavyan tillari. 6. Kelt tillari. 7. Boltiq tillari. 8. Grek tili. 9. Alban tili. 10. Arman tili.

1. Hind tillariga qadimiy hind yoki sanskrit tili (o'lik til), o'rta hind tili, hozirgi hind tillari (panjob tili, gujarat tili, bengal tili) kiradi.

2. Eron tillariga tojik tili, afg'on (yoki pushtu) tili, osetin tili, kurd tili, so'g'd tili (o'lik til), qadimgi fors tili, o'rta fors (yoki pahlaviy) tili, yangi fors tili kiradi.

3. German tillariga got tili (o'lik til), shved, daniya, norveg, island tillari (shimoliy german tillari), ingliz, nemis, golland, flamand, friz tillari (g'arbiy german tillari) kiradi.

4. Roman tillariga italyan, frantsuz, ispan, portugal, rumin, moldavan, provansal, katalan, sardiniya tillari kiradi. Roman tillari tarixan lotin tilidan kelib chiqqan. Bundan ikki ming yilcha oldin jonli til bo'lgan lotin tili hozir o'lik tilga aylangan.

5. Slavyan tillariga rus, belorus, ukrain tillari (sharqiy slavyan tillari), polyak, slovak, chex, lujik tillari (g'arbiy slavyan tillari), bolgar, makedon, serb, xorvat, sloven tillari (janubiy slavyan tillari) kiradi.

6. Kelt tillariga irland, shotland, uels, breton tillari kiradi.

7. Boltiq tillariga qadimgi prus tili (o'lik til), litva tili, latish tili, latgal tili kiradi.

Grek, alban, arman tillari biror guruhga kiritilmaydi, ularning har biri yakka-yakka holda olinadi.

O'zbek tili oltoy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning turkiy tillar guruhiga kiradi. Oltoy tillar oilasi quyidagi tillar guruhlariga bo'linadi:

1. Turkiy tillar. 2. Mo'g'ul tillari. 3. Tungus-manchjur tillari.

Turkiy tillar oltoy tillar oilasining ko'p sonli va rang-barang guruhidir. Turkiy tillar ikki guruhga ajratiladi: 1) g'arbiy turkiy tillari; 2) sharqiy turkiy tillari.

G'arbiy turkiy tillari tarmog'i o'z navbatida yana to'rt guruhga bo'linadi: a) bulg'or tillari (chuvash tili), b) o'g'uz tillari (gagauz, turkman, turk, ozarbayjon tillari), v) qipchoq tillari (tatar, boshqird, qumiq, no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tillari), g) qorluq tillari (o'zbek, uyg'ur tillari).

Sharqiy turkiy tillari tarmog'i ikki guruhga bo'linadi: a) uyg'ur-to'kyuy tillari (tuva, yoqut, shor, xakas tillari), b) qirg'iz-qipchoq tillari (qirg'iz, oltoy tillari).

Mo'g'ul tillariga mo'g'ul, buryat, qalmiq tillari (shimoliy mo'g'ul tillari guruhi), dagur, dunsyan, mengir tillari (janubiy-sharqiy mo'g'ul tillari guruhi) kiradi.

Tungus-manchjur tillariga evenk, even, negidal tillari (tungus guruhi) va manchjur, nanay, udegey, ulch, oroch tillari (manchjur guruhi) kiradi.

8-§. Tillarning morfologik tasnifi

Jahon tillarining morfologik tasnifi nisbatan keng tus olgan, chunki morfologik tizim tilning eng barqaror sathi hisoblanadi. Morfologik tasnif so'zning tuzilishidagi o'zak va qo'shimchalarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi.

Bu tasnifga ko'ra tillarning qarindoshligidan qat'i nazar, so'zlarning tuzilish turi asos qilib olinadi.

Morfologik tasnifga muvofiq jahon tillari to'rt guruhga bo'linadi:

1) amorf (so'z o'zgartuvchi qo'shimchasiz) tillar; 2) agglyutinativ tillar; 3) flektiv tillar; 4) polisintetik tillar.

Amorf tillarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda gap tarkibidagi so'zlar hech qanday so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarsiz, to'g' ridan-to'g' ri birikib, bog'lanib keladi. Bunday tillarda grammatik ma'no yordamchi so'zlar, so'z tarkibi, muzikal urg'u va ohang (ohang) orqali ifodalanadi. Mazkur vositalar so'zlar orasidagi sintaktik munosabatni o'rnatish uchun xizmat qiladi. Amorf tillarga xitoy, tibet, birma, vetnam va xitoy-tibet oilasiga mansub bo'lgan boshqa tillar misol bo'la oladi.

Agglyutinativ tillarda har bir grammatik ma'no odatda alohida affiks bilan, ma'lum bir grammatik ko'rsatkich bilan ifodalanadi. Masalan, *maktablarga* so'z shakli tarkibidagi *-lar* qo'shimchasi ko'plik ko'rsatkichi, *-ga* affiksi jo'nalish kelishigi ko'rsatkichidir. *Bormadilar* so'z shakli *bor* - o'zak, *-ma* - bo'lishsizlik shaklini yasovchi affiks, *-di* - yaqin o'tgan zamon shaklini yasovchi affiks, *-lar* - III shaxs ko'plikni ifodalovchi affiksdur. Bunda biror affiks o'zakka yoki ma'lum bir affiksga qo'shiladi.

Agglyutinativ tillarga turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tili, fin-ugor tillari, dravid, indonez, hindu tillari va boshqalar, shuningdek, alohida tillar hisoblanmish yapon va koreys tillari kiradi.

Flektiv tillarda birdan ortiq grammatik ma'no odatda birgina grammatik ko'rsatkich orqali ifodalanadi. Masalan, rus tilidagi *kniga* so'zshakli tarkibidagi – *a* affiksi (tugallanmasi) uch grammatik ma'noni: 1) jinsni (jenskiy rod), 2) bosh kelishikni (imenitelniy padej), 3) birlik sonni (yedinstvennoye chislo) bildirib kelgan; rus tilidagi *uchu* so'z shakli tarkibidagi –*u* affiksi ham uch grammatik ma'noni: 1) aniqlik (xabar) maylini; 2) hozirgi zamonni; 3) 3-shaxs birlikni ko'rsatish uchun xizmat qilgan.

Flektiv tillardagi bunday grammatik ko'rsatkich (tugallanma) **fleksiya** deb yuritiladi. Fleksiya ikki xil bo'ladi: **tashqi fleksiya** va **ichki fleksiya**.

Tashqi fleksiya so'z oxiriga qo'shilib kelsa, ichki fleksiya so'zning o'zagida bo'ladi. Fleksiyaning ikkala turi ham so'zni grammatik jihatdan o'zgartiradi. Tashqi fleksiyali tilga **rus** tili misol bo'la oladi: *zeml-ya, vod-a, pol-e, oblak-o, lyud-i* so'zlari oxiridagi unlilar, tugallanmalar so'zning grammatik ma'nosini ko'rsatib turadi.

So'z o'zagi ichidagi tovushni, unli tovushni o'zgartirish yo'li bilan grammatik ma'noni ifodalash ichki fleksiya sanaladi. Masalan, inglizcha *woman* (ayol) so'zshakli tarkibidagi *a* unlisi birlik sonni, *women* (ayollar) so'zshaklidagi *e* unlisi ko'plik sonni ko'rsatuvchi fleksiyadir.

Flektiv tillarga hind-yevropa, semit, xamit tillari kiradi.

Polisintetik tillarning xususiyati shundan iboratki, ularda butun bir gap bir so'z holida yoziladi. Polisintetik tillarga **chukot** tili kiradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tilshunoslik fani nimalarni o'rganadi?
2. Tilshunoslik fanining qanday turlari bor va ular o'zaro qanday farqlanadi?
3. Nima uchun til ijtimoiy hodisa sanaladi?
4. "Jamiyatsiz til, tilsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas", degan fikrni qanday izohlaysiz?
5. Tilning tarkibiy qismlari deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Tilda yuz beradigan o'zgarishlar birinchi navbatda uning qaysi bo'limida (sathida) yuz beradi va nima uchun?
7. Keyingi paytlarda o'zbek tili sathlarida (leksika, fonetika, grammatikasida) qanday o'zgarishlar yuz berdi?
8. Milliy til nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
9. Shevalar adabiy tildan qaysi jihatlariga ko'ra farqlanadi?
10. O'zbek tilida qanday lahjalar mavjud va ular qanday belgilarga ega?
11. Tilshunoslikda tillarning qanday tasniflari mavjud?
12. Tillarning geneologik tasniflanishiga ko'ra yer yuzida qanday til oilalari bor?
13. Oltoy tillar oilasi va turkiy tillar guruhi haqida nimalarni bilasiz?
14. Morfologik tasnif bo'yicha bo'lingan amorf va agglyutinativ tillar guruhlari haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
15. Flektiv va polisintetik tillar haqida nimalarni bilasiz?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Shevalar adabiy tildan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

A) fonetik B) leksik C) grammatik D) fonetik, leksik va grammatik

2. Adabiy tilning qanday shakli bor?

A) xalq shevalari va adabiy til B) og‘zaki adabiy til va yozma adabiy til C) so‘zlashuv uslubi va kitobiy uslub D) so‘zlashuv, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar

3. Tilshunoslikda lahja atamasi qanday tushunchani anglatadi?

A) ma‘lum shevaning kichik bir qismi B) bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalar yig‘indisi C) sheva atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi D) xalq tilining ma‘lum bir me‘yorlarga keltirilgan shakli

4. Qaysi qatorda adabiy tilning yozma shakliga xos xususiyat noto‘g‘ri ifodalangan?

A) Yozma nutq kishilar orasidagi bevosita aloqa vositasi hisoblanadi B) yozma shaklda orfografik va tinish belgilariga oid qonun-qoidalarga amal qilinadi C) yozma shakl og‘zaki shaklga qaraganda til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida joriy qilingan D) yozma shakl uchun masofa va zamonning ahamiyati yo‘q

5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun qaysi lahjaga kiradigan shevalar asos qilib olingan?

A) qarluq lahjasi B) qipchoq lahjasi C) o‘g‘uz lahjasi
D) qarluq va qipchoq lahjalari

6. Xalq shevalarining qanday shakli bor?

A) faqat og‘zaki shakli B) faqat yozma shakli C) faqat adabiy til shakli

7. O‘zbek tili qaysi til oilasining qaysi guruhiga mansub?

A) turkiy tillar oilasining oltoy guruhiga B) hind-evropa oilasining turkiy guruhiga C) oltoy oilasining turkiy guruhiga D) eron oilasining hind-yevropa guruhiga

8. Ijtimoiy hayotda ro‘y bergan o‘zgarishlar hammadan avval va ko‘proq tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘z ifodasini topadi hamda unda ayrim o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keladi?

A) orfoepiyada B) leksikologiyada (lug‘at tarkibida)
C) grammatikada D) so‘z yasashida

9. Eski o‘zbek adabiy tili qaysi asrlarda shakllangan edi?

A) X-XI asrlarda B) XI-XII asrlarda C) XIII asrda D) XIV asrda

10. O‘zbek adabiy tili qaysi jihatdan Toshkent shahar shevasiga asoslanadi?

A) fonetik B) morfologik C) sintaktik D) leksik

11. Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun qaysi shevalar asos qilib olingan?

A) Andijon-Shahrixon B) Xorazm-Urganch C) Toshkent-Guliston
D) Farg‘ona-Toshkent

12. Qaysi qatordagi izoh noto‘g‘ri?

A) adabiy til shu xalq tilida so‘zlashuvchilar uchun umumiy bo‘ladi B) xalq tili tarkibida adabiy til ham bo‘ladi C) xalq tili o‘zbek adabiy tili hisoblanadi D) xalq tili o‘zbek xalqining so‘zlashuv nutqidir

13. Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi –ing, jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi –a shaklida qo‘llanishi qaysi lahjaning morfologik belgisi hisoblanadi?

A) qarluq lahjasi B) qipchoq lahjasi C) o‘g‘uz lahjasi D) A va B

14. Tilning rivojlanib borish belgilaridan biri noto‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

A) o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan bo‘g‘in turlari paydo bo‘ldi B) unli tovushlarning yonma-yon kelish holatlari paydo bo‘ldi C) so‘z o‘rtasida ikkita undoshning yonma-yon kelish holatlari paydo bo‘ldi D) ayrim o‘zbekcha so‘zlarning ma’nolarida o‘zgarish yuz berib, ular yangi ma’nolar kasb qilish holatlari paydo bo‘ldi.

15. Qaysi lahjada jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi - a shaklida qo‘llanadi?

A) shahar shevalarida B) o‘g‘uz C) qipchoq D) qarluq

16. Ko‘pincha so‘z oxiridagi g‘ tovushi o‘rnida v aytilishi qaysi lahjada so‘zlashuvchilar nutqiga xos?

A) qarluq lahjasida so‘zlashuvchilarga B) qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilarga C) o‘g‘uz lahjasida so‘zlashuvchilarga

D) shahar shevalarida so‘zlashuvchilarga

17. Xalq shevalari nima?

A) qo‘llanish doirasi ma‘lum hudud bilan chegaralangan umumxalq tilining bir qismi B) adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari mavjud bo‘lib, uning og‘zaki shakli xalq shevalari

hisoblanadi C) umumxalq tilining me'yorga solingan shakli D) o'zbek millatining hamma uchun umumiy bo'lgan tili

18. Quyidagi tillardan qaysi biri oltoy tillar oilasiga mansub emas?

A) yapon tillari tarmog'i B) barchasi oltoy tillari oilasiga mansub.

C) turkiy tillar tarmog'i D) eron tillari tarmog'i

19. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra yer yuzida nechta til mavjud?

A) 2000 dan ortiq B) 2000 ga yaqin C) 3000 dan ortiq D) 5000 ga yaqin

20. Quyidagi topishmoqning javobini toping. Og'izdan chiqquncha meniki, og'izdan chiqqani elniki.

A) gap B) til C) so'z D) ilm

21. Nima sababdan til ijtimoiy hodisa sanaladi?

A) chunki til jamiyatga xizmat qiladi B) chunki til insonlarning o'zaro munosabatga kirishuviga xizmat qiladi C) chunki til jamiyatlar o'rtasidagi aloqa uchun xizmat qiladi D) A, B.

22. Nutq nima?

A) so'zlar orqali ma'lum fikr bayon qilish nutq hisoblanadi

B) so'zlash orqali ma'lum fikr bayon qilish nutq hisoblanadi

C) yozish orqali ma'lum fikr bayon qilish nutq hisoblanadi D) B, C.

23. O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarashning taqiqlanganligi "Davlat tili haqida"gi qonunning qaysi moddasida yozilgan?

A) 1-moddasida B) 2-moddasida C) 24-moddasida

D) 14-moddasida

24. Quyidagi maqolni davom ettiring: Ovqatni tuzi mazali qiladi, odamni - ...

A) yuzi B) ko'zi C) o'zi D) so'zi

25. Nutq so'zlovchining qaysi xususiyatlariga qarab turli xil bo'lishi mumkin?

A) saviyasiga va uslubiga B) o'rin va mavqeiga C) yoshiga va jinsiga D) A va B.

26. Og'zaki nutqdan qaealarda foydalaniladi?

A) o'zaro suhbatlarda va ma'ruzalarda B) radio va telefonda

C) uy-oila muomalasida D) barchasi to'g'ri.

27. Har qanday nutqning bosh fazilati to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) qisqa va ixcham bo'lishi B) jumlaning to'g'ri ravon hamda ta'sirli tuzilishi C) fikrning aniq va tushunarli bo'lishi D) B, C.

28. Hozirgi kunda til oilalari soni...

A) 10 dan ortiq B) 30 dan ortiq C) 6 ta D) 20 dan ortiq

29. Quyidagi maqolni davom ettiring: Tilingda bo'lsa boling, ...

A) kulib turar iqboling B) yorug'dir istiqboling C) yaxshi bo'lar ahvoling D) daryodan o'tar soling.

30. Umumiy tilshunoslik fanining maqsadlari noto'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) tilning tabiatini, mohiyatini aniqlash; tillarning tasnifini yaratish; B) til haqidagi fanning sathlarini va ularni o'rganuvchi sohalarini belgilash;

C) lingvistik bilimlarni tajribada qo'llash D) lingvistik tahlil metodikasini ishlab chiqish .

31. Tilning tarkibiy qismlari noto'g'ri berilgan javobni aniqlang.

A) tovushlar tizimi. B) harflar tizimi C) grammatik qurilishi. D) lug'at boyligi.

32. Morfologik tasnif bo'yicha o'zbek tili qaysi guruhga kiradi?

A) agglyunativ tillarga B) amorf tillarga C) flektiv tillarga

D) polisintetik tillarga

F O N E T I K A

1-§. Fonetika va fonologiya haqida umumiy ma'lumot

Fikr gap orqali ifoda qilinadi. Gap, odatda soʻzlardan tashkil topadi. Gap tarkibida soʻzlar va shu soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishini taʼminlovchi grammatik vositalar (qoʻshimchalar, yordamchi soʻzlar) maʼlum nutq tovushlari orqali shakllanadi. Masalan: *Biz ulugʻayyomni mana shu choʻlda kutib olyapmiz* (Y. Shamsharov). Bu gapni tuzishda *biz, ulugʻ, ayyom, mana, shu, choʻl, kutib, olmoq* soʻzlari, ularning oʻzaro bogʻlanishini taʼminlovchi *-ni* (tushim kelishigi qoʻshimchasi), *-yap* (zamon maʼnosini ifodalovchi qoʻshimcha), *-miz* (shaxs-son qoʻshimchasi) qoʻshimchalari qatnashgan; har bir soʻz va qoʻshimcha esa nutq tovushlari vositasida (masalan, *biz* - *b, i, z*; *ulugʻ* - *u, l, u, gʻ*; *-ni* - *n, i*; *-da* - *d, a* kabi) shakllandi.

Koʻrinadiki, nutq tovushlari soʻz va gaplarni tuzishda moddiy baza hisoblanadi, chunki inson tili tovush tilidir.

Fonetika tilshunoslikning bir boʻlimi boʻlib, unda nutq tovushlari, ularning hosil boʻlishi, turlari, oʻzgarishi, urgʻu, boʻgʻin, ohang kabilar oʻrganiladi. **Fonetika** grekcha *phone* soʻzidan olingan boʻlib lugʻaviy maʼnosi *tovush* demakdir.

Fonologiya soʻzi tarjima qilinganda “tovush haqidagi taʼlimot” degan maʼnoni bildiradi (*phone* – tovush, *logos* - taʼlimot). Bu boʻlimda tovushlarning soʻz va morfemalar maʼnolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar fonetika boʻlimida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada, taʼbir joiz boʻlsa, tovushning ijtimoiy mohiyati oʻrganiladi.

2-§. Tovush va fonema

Tovush bilan fonemani oʻzaro farqlash zarur. **Tovush** nutqning fonetik jihatdan boʻlinmaydigan eng kichik birligidir, u maʼno ifodalamaydi, lekin har qanday soʻz tovushlar vositasida shakllanadi. Masalan, *a, d, m, o* tovushlarini maʼlum bir tartibda talaffuz qilish orqali *odam, omad, moda* singari boshqa-boshqa maʼnodagi soʻzlar hosil qilinadi. Soʻzlar tovush tarkibiga koʻra turlicha boʻladi.

1. Bir tovush bilan farq qiladigan soʻzlar: *ot – ol, ol – oq, oq – osh, osh – ov, ov – oz, oz – on, on – or, or – os, os – och, och – ogʻ, ogʻ – ox; oz – iz, iz – uz, uz – ez, davlat – savlat, koʻza – gʻoʻza* kabi.

2. Tovushlarning joylashish tartibiga koʻra farq qiladigan soʻzlar. Masalan: *qoʻy – yoʻq* (birinchi soʻz tarkibidagi birinchi tovush ikkinchi soʻzning oxirida qoʻllanadi.)

3. Biror tovushning ortiqligi bilan farq qiladigan soʻzlar: *oʻlka – yoʻlka, et-bet, sava – savat, tana – tashna, taxt – taxta, oʻroq – soʻroq* kabi.

Demak, soʻzlar tovushlardan tuziladi, ular bir, ikki, uch, toʻrt va hokazo miqdordagi tovushlarning tartiblashishidan hosil boʻladi.

Fonema soʻz maʼnosini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush turidir. Masalan: *bal - bel –bil –bol – boʻl* soʻzlari tarkibidagi *a, e, i, o, oʻ* tovushlari soʻz maʼnolarini belgilash (ajratish)ga xizmat qiluvchi fonemalardir: *bor, dor, zor, kor, nor, tor, xor, chor, qor* soʻzlari tarkibidagi birinchi tovushlar (*b, d, z, k, n, t, x, ch, q*) ham shunday vazifa bajargan.

Fonemalarning uch belgisi bor: 1. Akustikasi (eshitilishi). 2. Artikulyatsiyasi (aytilishi yoki talaffuzi). 3. Maʼno farqlashi (baʼzi darsliklarda “lingvistik tomoni” deyiladi)³.

Bular ichida fonemaning maʼno ajratish belgisi muhim hisoblanadi. Aks holda tovush fonema sanalmaydi.

3-§. Fonetik akustika

Fonetik akustika nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini tekshiradigan sohadir. Akustik jihatdan har qanday tovush havo oqimining tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari esa oʻpkadan kelayotgan havo oqimining un paychalari tebranishidan hosil boʻladigan ovoz va nutq organlarida hosil boʻladigan shovqinning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari akustikasida koʻyidagilar farqlanadi:

1. Nutq tovushlarining balandligi yoki pastligi maʼlum vaqt ichida un paychalarining tebranish miqdoriga koʻra har xil chiqishidir: un paychalari koʻp tebransa, tovush baland boʻladi, aksincha, un paychalari kam tebransa, tovush past chiqadi.

2. Nutq tovushlarining kuchi maʼlum kenglikdagi maydondan maʼlum vaqtda oʻtadigan energiya miqdoridir. Bu haqda tilshunos olim H.Jamolxonov shunday yozadi: “Tovushning kuchi (intensivligi) - 1 sm² maydondan 1 sekunda oʻtadigan energiya miqdoridir”⁴ Demak, nutq tovushlarining kuchi un paychalari tebranishi kengligiga bogʻliq: tebranish kengligi katta boʻlsa, tovush kuchli chiqadi, bu kenglik kichik boʻlsa, tovush ham kuchsiz chiqadi.

3. Nutq tovushlarining tembri (sifati) – asosiy ton bilan hosil boʻladi. Tovushlarning tembri ogʻiz boʻshligʻi va burun boʻshligʻining hajmi, shakliga, tovush paychalarida shovqinning qanday hosil boʻlishiga bogʻliq.

4. Tovushning choʻziqlik darajasi un paychalarining tebranishi davom etgan vaqt bilan oʻlchanadi. Tebranish uzoq davom etsa, tovush choʻziq; tebranish qisqa davom etsa tovush qisqa boʻladi.

4-§. Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan organlar **nutq aʼzolari** deb yuritiladi. **Artikulyatsiya** deganda esa nutq aʼzolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi faoliyati anglashiladi.

³ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.: “Oʻzbekiston” nashriyoti. 1992, 15-bet.

⁴ Jamolxonov H.A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. - T.: “Talqin” nashriyoti. 2005, 25-bet.

Nutq a'zolariga quyidagilar kiradi:

1. Nafas apparati: o'pka, bronxlar (bir juft), nafas yo'li (traxeya).

2. Bo'g'iz bo'shlig'ida xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'aylar hamda un paychalari joylashgan.

3. Og'iz bo'shlig'ida til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar joylashgan .

4. Burun bo'shlig'i.

5. Markaziy nerv sistemasi.

Nutq a'zolarining jami **nutq apparati** deyiladi. Endi har bir nutq a'zosining vazifasi xususida to'xtalib o'tamiz.

O'pka inson organizmini kislorod bilan ta'minlovchi a'zo ekanligi hammaga ma'lum. Nutq a'zosi sifatida esa o'pka nutq tovushlarining hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan havo oqimini yetkazib beradi, ya'ni inson nafas olganida o'pka va undagi bronxlar havoga to'ladi va bu havo oqimi tashqariga qaytib chiqish jarayonida tovush hosil qiluvchilik vazifasini ham bajaradi. Havo oqimi **nafas yo'li** orqali **bo'g'izga** tomon harakatlanadi. Bo'g'izdagi **cho'michsimon, uzuksimon, shoxsimon, xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'aylar** un paychalarini ushlab turuvchi a'zoldir. **Un paychalari** esa ovoz manbai hisoblanadi, chunki ular dutor yoki soz torlariga o'xshab havo urilishi natijasida ovoz chiqaradi (simyog' ochga tortilgan simlarning shamol kelib urilishi natijasida chiyillab ovoz chiqarishini ko'z oldingizga keltiring). **Og'iz bo'shlig'i** tovushni kuchaytirib berishga yordam beradigan a'zodir. **Til** juda ko'p tovushlarni hosil qilishda ishtirok etadigan a'zodir. Tilning turlicha harakati va holati natijasida unli va undosh tovushlar hosil bo'ladi. **Kichik til** ham ayrim tovushlarning (*q, g', x*) hosil bo'lishida qatnashadi. **Lablarning** keng ochilishi, cho'chchayishi, jipslashishi yoki pastki labning ustki tishlarga tegishi natijasida turli tovushlar hosil bo'ladi. Ayrim tovushlar havo oqimining **tishlar** orasidan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladi. *M, n, ng* tovushlari hosil bo'lishida havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'i orqali o'tib, tashqariga chiqadi. **Markaziy nerv sistemasi** nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi, bu harakatni bevosita boshqarib turadi. Ana shu tariqa har bir nutq a'zosining tovushlarni hosil qilishda o'z vazifasi bor.

So'z ma'nolarini ajratish, chegaralash uchun xizmat qiladigan vositalar **fonetik vositalar** sanaladi. Bunday vositalar qatoriga **nutq tovushlari, urg'u, ohang (ohang)** kiradi. So'z ma'nolarini farqlashga xizmat qiladigan fonemalar xususida yuqorida fikr yuritildi. Lug'at tarkibidagi barcha so'zlar, grammatik shakllar ana shu fonemalarining ma'lum tartibda ketma-ket joylashishi orqali shakllanadi. Ayrim hollarda o'xshash bo'lgan (omonim) so'zlarning ma'no va grammatik shakllarini farqlashda **urg'u** (leksik urg'u) fonetik vosita bo'lishi mumkin. Masalan: *olmá* (predmet, mevaning bir turi), *ólma* (harakat, *olmoq* fe'lining bo'lishsiz shakli, *-ma* qo'shimchasini ajratish mumkin); *akademík* (predmet, ot), *akademik* (belgi, sifat); *gullár* (ot, "ko'p gul" ma'nosida), *gúllar* (fe'l, "gullamoq").

Gapning maqsadga ko'ra turini ajratishda esa **ohang** (ohang) fonetik vosita bo'lishi mumkin. Masalan: *Dars boshlandi. (darak gap) Dars boshlandi? (so'roq gap).*

Takrorlash uchun savollar:

1. Fonetika nimani o'rganadi?
2. Tovush va fonemaning farqini ayting.
3. Fonologiya haqida nimalarni bilasiz?
4. Fonema qanday belgilarga ega?
5. Fonetik akustika haqida qanday ma'lumotga egasiz?
6. Nutq tovushlari artikulyatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Nutq a'zolarining vazifalari nimalardan iborat?
8. O'zbek tilining fonetik vositalariga nimalar kiradi?

“Fonetika” bo'limi yuzasidan test savollari:

1. Fonetika o'rganadigan masalalar noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) nutq tovushlarining hosil bo'lishi B) urg'u, bo'g'in, ohang C) nutq tovushlarining turlari, o'zgarishi D) nutq tovushlarining so'z ma'nolarini ajratishdagi roli.

2. Fonetika bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?

A) lingvistik xususiyatlari B) ijtimoiy mohiyati C) fizik-akustik xususiyatlari D) ma'no farqlash xususiyatlari

3. Fonologiya bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?

A) qay tarzda hosil bo'lishi B) sifat tomonlari C) kuchi va cho'ziqligi D) ma'no farqlash xususiyatlari.

4. Tovushning xususiyatlari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) so'z va qo'shimchalar bir-birlaridan tovushlari bilan farq qiladi B) har qanday so'z tovushlardan tashkil topadi C) nutqning eng kichik bo'linmas ma'noli qismi D) birchasi to'g'ri.

5. Bir xil tovushlarning turlicha joylashuvidan hosil bo'lgan so'zlar qaysi javobda berilgan?

A) kitob, maktub, maktab B) suvrat, tasvir, tasavvur, musavvir C) uchqur, chuqur, urchuq D) ahbob, habib, muhib.

6. Bir tovushi bilan farq qiladigan so'zlar berilgan javobni toping.

A) kalom, qalam, malak B) borlik, borliq, torlik C) jodu, jodi, juda D) sohib, hisob, solib

7. Tovushlarning ortiqligi bilan farqlanadigan so'zlar berilgan javobni toping.

A) adab, abad, odob B) alam, qalam, a'lam C) stol, ustol, ustul D) mulk, molik, komil.

8. Fonemaning belgilari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) eshitilishi B) aytilishi C) ma'no farqlashi D) tuzilishi.

9. Fonemaning eng muhim belgisi ko'rsatilgan javobni toping.

A) ma'no ajratishi B) akustikasi C) artikulyatsiyasi D) aytilishi va eshitilishi.

10. Nutq tovushlarining balandligi nima bilan ta'minlanadi?

A) un paychalarining ko'p tebranishi bilan B) un paychalarining kuchli tebranishi bilan C) un paychalarining past tebranishi bilan D) un paychalarining kam tebranishi bilan

11. Nutq tovushlarining kuchi nimaga bog'liq?

A) un paychalarining tebranish vaqtiga B) un paychalarining tebranish o'rniga C) un paychalarining tebranish amplitudasiga D) un paychalarining tebranish joyiga

12. Nutq a'zolaridan qaysi birining hajmi va shakli nutq tovushlarining tembriga ta'sir qilmaydi?

A) og'iz bo'shlig'ining shakli B) burun bo'shlig'ining hajmi C) bo'g'iz bo'shlig'ining shakli D) tovush paychalarida shovqinning qanday hosil bo'lishi.

13. Nutq tovushlarining un paychalari tebranadigan vaqt bilan o'lganadigan xususiyati qaysi javobda berilgan?

A) tembri B) cho'ziqligi C) kuchi D) balandligi

14. Qaysi javobda nutq a'zosi nomi noto'g'ri berilgan?

A) o'pka, bronxlar, nafas yo'li B) xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon va nayzasimon tog'aylar, un paychalari C) burun bo'shlig'i, markaziy nerv sistemasi. D) til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar

15. Qaysi nutq a'zosi tovushni kuchaytirib berishga yordam beradi?

A) til B) un paychalari C) og'iz bo'shlig'i D) bo'g'iz bo'shlig'i

3. Qaysi nutq a'zosi ovoz manbasi hisoblanadi?

A) til B) un paychalari C) og'iz bo'shlig'i D) bo'g'iz bo'shlig'i

16. Qaysi javobda markaziy nerv sistemasining vazifasi to'g'ri ko'rsatilgan?

A) nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi B) nutq a'zolarining harakatini boshqarib turadi C) markaziy nerv sistemasi nutq a'zolari sirasiga kirmaydi D) A,B

17. Qaysi tovushlar talaffuzida havo oqimining yo'nalishi o'zgaradi

A) y, z, s B) m, n, ng C) v, f, r D) sh, j, g'

18. Fonetik vositalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) urg'u, bo'g'in, tovush B) nutq tovushlari vergul, nuqta C) ohang, nutq a'zolari, pauza D) fonemalar, urg'u, ohang

19. Urg'uning vazifasi noto'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) hozir (ravish) - hozir (sifat) V) qo'llar (a'zo) - q'llar (fe'l) C) nufuz (obro') - nufus (aholi) D) ko'zlar (a'zo) - k'zlar (fe'l)

20. So'z ma'nosini farqlashda urg'uning qaysi turi ishtirok etadi?

A) logik urg'u B) leksik urg'u C) gap urg'usi D) ma'no urg'usi

6-§. Nutq tovushlarining tasnifi

Nutq tovushlari ikki xil: **unli tovushlar, undosh tovushlar.** Bular quyidagicha farqlanadi: 1) unli tovushlar hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tadi, undosh tovushlarni hosil qilishda esa o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchraydi va buning natijasida shovqin hosil bo'ladi; 2) unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish mumkin, undoshlarni esa cho'zib talaffuz qilib bo'lmaydi; 3) unli tovushlar talaffuzida tovush paychalari albatta titraydi, undoshlar talaffuzida esa tovush paychalari titrashi ham (jarangli va sonorlarda), titramasligi ham (jarangsizlarda) mumkin.

7-§. Unli tovushlar va ularning tasnifi

Har bir til o'zining unli tovushlar tizimiga ega. Bu tizim **vokalizm** deb ataladi. O'zbek tilidagi unli tovushlar (**a, i, o, u, o', e**) uch tomondan tasnif qilinadi:

1. Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko'ra.

Og'iz bo'shlig'ida eng faol organ tildir. U unli tovushlarni talaffuz qilishda oldinga (tish yoki milkka tomon) va orqaga qarab harakat qiladi. Tilning bu harakati **gorizontal** harakat hisoblanadi. Shuning uchun unlilar tilning gorizontal harakatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) old qator unlilar: **a, e, i;**

2) orqa qator unlilar: **o, o', u.**

2. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra.

Unli tovushlar talaffuzida tilning tanglayga tomon ko'tarilishi va tushishi **vertikal** harakatdir. Bu harakat tufayli og'izning ochilish darajasi har xil bo'ladi. Chunonchi, **i, u** unli tovushlarini hosil qilishda til tanglayga yaqin turadi, shuning uchun ham og'izning ochilish darajasi tor bo'ladi; aksincha, **a, o** tovushlarini hosil qilishda til tanglaydan ancha uzoqlashadi (quyida turadi), shuning uchun til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq keng bo'ladi; **e, o'** tovushlarini hosil qilishda esa til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq o'rtacha (tor ham emas, keng ham emas) bo'ladi. Ko'rinadiki, tilning vertikal harakati og'izning ochilish darajasini (tor, keng, o'rta keng) belgilaydi. SHuning uchun unlilar tilning vertikal harakati (yoki og'izning ochilish darajasi)ga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- 1) yuqori tor unlilar: **i, u**;
- 2) o'rta keng unlilar: **e, o'**.
- 3) quyi keng unlilar: **a, o**.

3. Lablarning ishtirokiga ko'ra.

Unlilar talaffuzida lablarning roli ham kattadir. Ayrim unlilar talaffuzida lablar albatta qimirlaydi, ya'ni ular doira shaklini oladi, ayrimlarida esa nisbatan kam qimirlaydi. Shunga ko'ra unlilar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) lablangan unlilar: **u, o', o**;
- 2) lablanmagan unlilar: **i, e, a**.

Unli tovushlar tasnifini quyidagi jaldvalda aks ettirish mumkin:

Lablarning ishtirokiga ko'ra	Tilning gorizontal harakatiga ko'ra		Tilning vertikal harakatiga ko'ra
	Old qator	Orqa qator	
Lablanmagan	i		Yuqori tor unlilar
Lablangan		u	
Lablanmagan	e		O'rta (keng) unlilar
Lablangan		o'	
Lablanmagan	a		Quyi (keng) unlilar
Lablangan		o	

8-§. Ayrim unli tovushlar tavsifi

I unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*ipak*), so'z o'rtasida (*tilak*) va so'z oxirida (*tulki*) keladi.
- 2) so'z ichida ikki jarangsiz undosh orasida nihoyatda qisqa aytiladi: *bilan, sira*.
- 3) **k, g, x** undoshlaridan keyin kelganda orqa qator unli kabi aytiladi: *qir, G'iro, oxir*.
- 4) cho'ziq varianti bor: *muhim, musiqa*.
- 5) **e** tovushiga moyil varianti bor: *mix-mex*.

U unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*urmoq*), so'z o'rtasida (*tugun*) va so'z oxirida (*urg'u*) keladi.
- 2) til oldi varianti ham uchraydi: *kuch, gul*;
- 3) *qulf, g'ulg'ula, tuxum* so'zlarida esa til orqa varianti qo'llangan.

4) *i* tovushi kabi kuchsizlanishi, ya'ni qisqarishi ham mumkin: *tuxum, bulbul, tutun* kabi.

E unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

1) soʻz boshida, soʻzning birinchi boʻgʻinida keladi: *eshik, elak, e'tibor, kel, bet* kabi.

2) jonli nutqda sheva ta'sirida *i* tovushiga moyillashadi: *deydi – diydi*.

3) oʻgʻuz shevalarida *a* tovushiga oʻtish holati ham mavjud: *eshik – ashik, deb – dab, kel – gal* kabi. Lekin adabiy tilda *e* tarzida talaffuz etiladi.

A unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

1) soʻz boshida (*ari*), oʻrtasida (*daftar*) va soʻz oxirida (*qora*) keladi.

2) *q, x, gʻ* tovushlaridan keyin kelganda til orqaroq - orqa qator unlisi kabi talaffuz qilinadi: *gʻazab, xabar*.

3) baʼzi soʻzlarda sheva ta'sirida *o* tovush kabi aytiladi: *baho – boho, shavla – shovla*. Adabiy tilda *a* tarzida talaffuz etiladi.

O unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

1) soʻz boshida (*olim*), oʻrtasida (*toza*) va soʻz oxirida (*bobo*) keladi.

Oʻ unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

1) sodda soʻzlarning asosan birinchi boʻgʻinida uchraydi: *oʻgʻil, boʻri, toʻgʻri, oʻrin, boʻyin*.

2) oʻzlashma soʻzlarning oxirgi boʻgʻinida ham keladi: *roʻbaroʻ, xushroʻy, gulroʻ, kubok, (kuboʻk)*.

3) til oldi varianti ham bor: *oʻrik, koʻl, choʻl*.

9-§. Undosh tovushlar va ularning tasnifi

Undosh tovushlar tizimi tilda **konsonantizm** deb yuritiladi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush mavjud: *b, v, g, d, j* (*jurnal* soʻzidagi birinchi tovush), ***j*** (*joy, jiyda* kabi soʻzlardagi birinchi tovush), ***z, y, k, l, m, n, ng*** (*tong* soʻzidagi oxirgi tovush), ***p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, gʻ, h***. Sirgʻaluvchi *j, f* tojik va boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarda keladi: *foyda, oqtoʻb, fabrika, tafakkur, jurnal, ajdar*. Undoshlar ham uch tomondan tasnif qilinadi:

1. Hosil boʻlish oʻrniga koʻra undosh tovushlar uch asosiy guruhga boʻlinadi:

1) lab undoshlari bevosita lablar ishtirokida hosil boʻluvchi tovushlar boʻlib, ularga ***b, p, m, v, f*** undoshlari kiradi.

Lab undoshlarining baʼzilari ikki lab orasida paydo boʻladi: baʼzilari esa (masalan, *avtobus, avtor, vagon, virus, passiv* kabi soʻzlardagi *v*; *telefon, kefir, fabrika, fakt, fazo, farmon, fason* kabi soʻzlardagi *f*) pastki lab bilan ustki tishlar orasida hosil boʻladi. Shunga koʻra lab undoshlarini ikki turga boʻlish mumkin:

a) lab-lab undoshlari: ***b, m, p***;

b) lab-tish undoshi: ***v, f***.

2) til undoshlari bevosita til ishtirokida hosil qilinuvchi tovushlar boʻlib, ularga quyidagi undoshlar kiradi: ***g, d, j*** (*gijda* soʻzidagi kabi), ***j*** (*jiyda* soʻzidagi kabi), ***z, y, k, l, n, ng*** (*ong*), ***r, s, t, x, ch, sh, q, gʻ*** (jami 18 ta).

Undoshlar tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi: *t, d, n* kabi tovushlar tilning old qismi bilan tish va milk orasida; *k, g* kabi undoshlar tilning orqa qismi bilan qattiq tanglayning orqa qismi orasida; *y* undoshi tilning o'rta qismi bilan qattiq tanglayning orqa qismi orasida; *q, g'* tovushlari esa til ildizi bilan yumshoq tanglayning orqa qismi orasida (bo'g'izga yaqin joydi) hosil bo'ladi. Shunga ko'ra, til undoshlari o'z navbatida 4 guruhga bo'linadi.

- a) til oldi undoshlari: *d, j (jurnal), j (jahon), z, l, n, r, s, t, ch, sh* (jami 11 ta);
- b) til o'rta undoshi: *y*;
- d) til orqa undoshlari: *k, g, ng (jang)*;
- e) chuqur til orqa undoshlari: *q, g', x*.

3) bo'g'iz undoshi. Bo'g'iz undoshi faqat bitta *h* tovushidan iborat bo'lib, u bo'g'iz bo'shlig'ida un paychalari orasidagi tor oraliqda hosil bo'ladi (jadvalga qarang).

E s l a t m a : Shuni aytish kerakki, *v* tovushining lab-lab varianti ham mavjud: *ov, qovun, bevosita, birov*. Shuningdek *f* tovushining ham lab-lab varianti bor: *vafu, puf, tufurmoq, juft*. Tilshunos H.A.Jamolxonov "lab-tish *v* ni lab-lab *v* ning fakultativ varianti deb qarash to'g'riroq bo'ladi" degan fikrni bildirgan.⁵

2. Hosil bo'lish usuliga ko'ra undosh tovushlar uch turga bo'linadi:

1) portlovchi undoshlar (jami 9 ta) ikki nutq a'zosining o'zaro jipslashuvi va o'pkadan chiqayotgan havo oqimining ana shu nutq a'zolariga ma'lum zarb bilan urilib, portlab o'tishidan hosil bo'ladigan tovushlar bo'lib, ularga: *b, g, d, j (jo'ja so'zidagi), k, p, t, ch, q* undoshlari kiradi. Portlovchi tovushlardan *b, p* undoshlarini hosil qilishda havo oqimi ikki lab orasidagi to'siqdan, *d, j (jajji so'zidagi), t, ch* undoshlarini hosil qilishda tilning old qismi bilan tishlar va milk orasidagi to'siqdan, *k, g* undoshlarini hosil qilishda esa tilning orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi orasidagi to'siqdan portlab o'tadi. Bu undoshlardan *ch, j (jadval so'zidagi)* o'ziga xos murakkab artikulyatsiyasi bilan boshqalardan ajralib turadi. Masalan, *ch* undoshining hosil bo'lishida tilning old qismi milkka taqaladi, lekin odatdagi portlash yuz bermay, og'iz bo'shlig'iga kelgan havo, asosan, sirg'alib chiqadi. Natijada, to'la bo'lmagan portlash (*t + sh = ch* kabi) qorishiq (**affrikativ portlovchi** ham deyiladi) portlovchini vujudga keltiradi. Qorishiq *j* tovushi esa portlovchi *d* va sirg'aluvchi *j* tovushlari oralig'idagi tovushdir, shuning uchun *Juma, Jahongir* so'zlari rus tilida *Djuma, Djaxongir* shaklida yoziladi va shunday talaffuz qilinadi. Shu jihatdan portlovchilar ikki turga ajratiladi.

- a) sof portlovchilar: *b, g, d, k, p, t, q*;
- b) qorishiq portlovchilar: *ch, j (jahon)*

2) sirg'aluvchi undoshlar (jami 9 ta) ikki nutq a'zosining o'zaro yaqinlashishi va havo oqimining ana shu nutq a'zolari orasidan sirg'alib chiqishi bilan hosil bo'ladigan tovushlar bo'lib, ularga *v, j (jurnal, vijdon), z, y, s, f, x, sh, g', h* undoshlari kiradi.

⁵ 1. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 59-bet.

Havo oqimining ikki lab o'rtasidagi yoki pastki lab bilan yuqori tishlar orasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi *j* (*jirafa*), *z*, *s*, *sh* undoshlarini; til o'rta qismi bilan qattiq tanglayning o'rta qismi orasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi *y* undoshini; tilning orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi o'rtasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi *g'*, *x* undoshlarini; bo'g'izdagi un paychalari orasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi esa *h* undoshini vujudga keltiradi.

3) portlovchi-sirg'aluvchi undoshlar (jami 5 ta) bir vaqtning o'zida ham portlash, ham sirg'alish jarayonlarining ro'y berishi natijasida hosil bo'ladi. Ularga *m*, *n*, *ng*, *l*, *r* undoshlari kiradi. Bunday undoshlar hosil bo'lish usuliga ko'ra boshqa undoshlar (portlovchilar, sirg'aluvchilar)dangina emas, o'zaro ham farq qiladi va uch guruhga bo'linadi:

a) burun tovushlari: *m*, *n*, *ng*. Bulardan *m* undoshining hosil bo'lishida o'pkadan kelayotgan havo oqimining bir qismi og'iz bo'shlig'idan lablarning to'sqinligiga uchrab, qisman portlab, havo oqimining qolgan qismi burun bo'shlig'idan sirg'alib chiqadi, *n* undoshining hosil bo'lishida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib, yarim portlash ro'y beradi, burun yo'li ochiq bo'lgani uchun, havo oqimining qolgan qismi burun bo'shlig'i orqali sirg'alib chiqadi. Tilning orqa qismi qattiq tanglayning orqa qismiga tegib, havo oqimining qisman portlashi va havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'i orqali sirg'alib chiqishi *ng* tovushini vujudga keltiradi.

b) yon tovush *l* undoshini hosil qilishda til uchi yuqoriga tomon bukilib, milkka tegadi, ammo havo oqimining tilning ikki yonidan sirg'alib o'tishi uning og'iz bo'shlig'idan qisman portlab, qisman sirg'alib chiqishiga sabab bo'ladi.

d) titroq tovush *r* undoshini hosil qilishda o'pkadan chiqayotgan havo to'lqini tilning uchiga zarb bilan kuchli uriladi va uni titratadi, tilning titrab turishi esa havo oqimining og'iz bo'shlig'idan portlab-sirg'alib chiqishiga olib keladi.

Demak, portlovchi-sirg'aluvchi undoshlarning hosil bo'lishida ham portlovchilarga xos bo'lgan ikki a'zoning jipslashuvi, ham sirg'aluvchilarga xos bo'lgan ikki nutq a'zosi orasidagi tor oraliqdan (yoki burun bo'shlig'idan) sirg'alib o'tishi sodir bo'ladi.

3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undosh tovushlar dastlab ikki turga bo'linadi:

1) shovqinli undoshlar (jami 19 ta) tarkibida shovqinning miqdori ovozga nisbatan ko'p yoki ovoz mutlaqo qatnashmagan tovushlar bo'lib, bu guruhga *b*, *v*, *g*, *d*, *j* (*ajdar*), *j* (*jiyan*), *z*, *y*, *k*, *p*, *s*, *t*, *f*, *x*, *ch*, *sh*, *q*, *g'*, *h* undoshlari kiradi. Shuning uchun ham shovqinli undoshlar un paychalarining ishtirokiga, tarkibida ovozning ishtirok etish-etmasligiga ko'ra, ikkiga bo'linadi:

a) jarangli undoshlarni (jami 9 ta) talaffuz qilish paytida un paychalari titraydi, shuning uchun uning tarkibida ovoz qatnashadi, lekin ovoz miqdori shovqinga nisbatan ozroqdir. Jaranglilar shu bilan sonorlardan farq qiladi: *v*, *b*, *g*, *d*, *j* (*garaj*), *j* (*jo'xori*), *z*, *y*, *g'*.

b) jarangsiz undoshlar (jami 10 ta) talaffuzida un paychalari qatnashmaydi, bu undoshlar faqat shovqinning o'zidan iborat bo'lgan, tarkibida ovoz mutlaqo ishtirok etmaydigan tovushlardir: *k*, *p*, *s*, *t*, *f*, *x*, *ch*, *sh*, *q*, *h*. Ba'zi jarangli va

jarangsiz undosh tovushlar hosil bo'lish o'rni jihatdan juftlik (8 ta) hosil qiladi: *b – p, v – f, g – k, d – t, j(qorishiq) – ch, j(sirg'aluvchi) – sh, z – s, g' – x*.

2) **sonor (yoki shovqin ishtirok etgan ovozdor) undoshlar** (jami 5 ta) tarkibida ovozning miqdori shovqinga nisbatan ortiq bo'lib, ularga *m, n, ng, l, r* undoshlari kiradi. Bunday ovozdor undoshlarning hosil bo'lishida un (ovoz) paychalari faol ishtirok etadi – bu tovushlar un paychalarining titrashidan hosil bo'ladi, shuning uchun ham ular unli tovushlarga birmuncha yaqin turadi. Ammo bu undoshlar o'pkadan chiqib kelayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrab, qisman shovqin hosil qilishi natijasida hosil bo'ladi.

Undosh tovushlarning tasnifini quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra		Hosil bo'lish usuliga ko'ra		Hosil bo'lish o'rniga ko'ra							
				Lab undoshlari		Til undoshlari				Bo'g'iz undoshi	
				lab-lab	lab-tish	til oldi	til o'rta	til orqa	chuqur til orqa		
Shovqinlilar	Jarangli	Portlovchilar	Sof portlovchilar	B		d		g			
	jarangsiz			P		t		k	q		
	jarangli		Qorishiq portlovchilar			j					
	jarangsiz					ch					
	jarangli		Sirg'aluvchilar		V	v ^l	j ^l , z	y		g'	
	jarangsiz				F	f ^l	s, sh			x	h
Ovozdor (sonor)lar	jarangli	Portlovchi-Sirg'aluvchi-lar	Burun tovushlari	M		n		ng			
			Yon tovush			l					
			Titroq tovush			r					

10-§. Undosh tovushlar tavsifi

B tovushi - lab-lab, sof portlovchi, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*bahor*), o'rtasida (*abadiy*) va oxirida (*kitob*) uchraydi. Bu tovush so'z oxirida kelganda jarangsizlashadi va *p* tovushi bilan almashadi: *maktab – maktap, odo-bodop*. Bu tovush ko'pincha ikki unli orasida kelganda yoki ikki fe'l birikib talaffuz qilinganda, *v* tovushi kabi aytiladi va ba'zan shunday yoziladi: *kabob – kavob, qobirg'a – qovurg'a, sabil – savil, qurbaqa – qurvaqa, ko'ra ber – ko'raver* kabi.

So'z boshida kelgan *b* tovushi ayrim shevalarda talaffuz paytida *m* tovushiga o'tadi: *murch > burch* (garmdori – Xorazm shevasida). Tarixan *b* va *m* tovushlarining almashinuvi turkiy tillarda kuzatiladi: *ben – men, bunga – munga* va h.

V tovushi – lab-lab va lab-tish, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshida (*vazifa, vafo*), o'rtasida (*sovun, lavlagi, taqvim*) va oxirida (*o'tov, birov*) kela oladi. Sof o'zbekcha so'zlarda bu tovush so'z boshida deyarli qo'llanmaydi.

M tovushi - lab-lab, portlovchi-sirg'aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*mehr, mo'ylov, mulk*), o'rtasida (*omon, umr*) va oxirida (*tom, bodom, qadam*) kela oladi.

P tovushi - lab-lab, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*pilla, po'choq, parda*), o'rtasida (*opa, qipiq, to'piq*) va oxirida (*cho'p, top, sop*) kela oladi. Ko'p bo'g'inli so'zlarning oxirida bu tovush deyarli uchramaydi.

F tovushi - lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, faqat o'zbek tiliga arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan so'zlarning boshida (*faqir, o'ftob, fabrika*), o'rtasida (*qofiya, iffat, kofe*) va oxirida (*sarf, urf*) kela oladi. Ba'zi so'zlarda talaffuzda p tovushi bilan almashadi: *foyda > poyda, Farida > Parida*. Bunday o'zgarishlar hozirgi orfografiyada aks ettirilmaydi.

11-§. Til undoshlari

T tovushi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*to'ti, tuxum*), o'rtasi (*katta, vatan*) va oxirida (*savat, qavat, harakat*) kela oladi. O'zbek milliy tilining o'g'uz lahjasiga mansub shevalarda *t* ba'zan *d* ga o'tadi: *tuz > duz, o't > o'd* kabi. Bu o'tishlar adabiy orfografiyada ifodalanmaydi.

Arab, rus yoki fors-tojik tillaridan o'zlashtirigan so'zlardagi qo'sh undoshlar tarkibidagi t tovushi talaffuzda ko'pincha tushib qoladi: *g'isht > g'ish, pastqam > pasqam, taksist > taksis* kabi. Bu o'zgarish yozma nutqda aks etmaydi.

D tovushi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*devor, do'kon, dala*), o'rtasida (*shabada, sodda, to'da*) va oxirida (*qasd, hudud, gard*) kela oladi. So'z oxirida kelgan *d* tovushi talaffuzda hamma vaqt jarangsizlashadi va *t* tovushiga o'tadi: *Asad>Asat, Samarqand>Samarqant, Xo'jand>Xo'jant* kabi. Bu tovush ham o'zlashma so'zlar tarkibidagi qo'sh undoshlar ichida kelganda tushib qolishi mumkin: *farzand>farzan, baland>balan*.

N tovushi til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*nom, nima, nusxa*), o'rtasida (*aniq, tiniq*) va oxirida (*un, to'n, son*) kela oladi. Bu tovush ayrim so'zlar tarkibida *b* yoki *m* tovushlaridan oldin kelganda, shu tovushlar ta'sirida talaffuzda (yozuvda aslicha yoziladi) *m* tovushiga o'tadi: *manba>mamba, tanbal>tambal, ko'nmadi >ko'mmadi* kabi.

S tovushi til oldi, sirg'aluvchi, shoqinli, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*soat, semiz, sabr*), o'rtasida (*asar, mustaqil, osma*) va oxirida (*tus, mos, tovus*) kela oladi. Bu tovush o'zbek tilidagi eng faol qo'llanadigan tovushlardan biridir.

Z tovushi til oldi, sirg'aluvchi, shovqinli, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*zahar, zehn, zina*), o'rtasida (*Aziza, andoza, qiziq*) va so'z oxirida (*tig'iz, qarz, yulduz*) kela oladi; bu tovush sof o'zbekcha so'zlarda so'z boshida deyarli qo'llanmaydi. Ayrim so'zlar tarkibida yonidagi jarangsiz tovushlar ta'sirida ko'pincha s tovushiga o'tadi: *rizq > risq, tuzsiz>tussis*. Bu tovush ba'zi so'zlarda

y tovushiga mos kelishi mumkin: *sizlamoq>siylamoq, so‘zlamoq > so‘ylamoq, yozmoq > yoymoq*, kabi.

Sh tovushi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*shar, shahar, sholi*), o‘rtasida (*hashar, o‘sha*) va oxirida (*qish, yosh, tashvish*) keladi. Bu tovush so‘zlarning turli o‘rinlarida ko‘p qo‘llanadi.

J til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovushi arab, fors-tojik va rus tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarning boshida (*janr*), o‘rtasida (*vijdon, sajda, furajka*) oxirida (*garaj*) uchraydi.

Ж til oldi, qorishiq portlovchi, jarangli undosh tovushi so‘zning boshida (*jamalak, jabr, jilov*), o‘rtasida (*kajava, ojiz, o‘jar*) va oxirida (*xorij, xiroj, saj*) keladi. Bu tovush o‘zbekcha so‘zlar oxirida deyarli qo‘llanmaydi. O‘zlashma so‘zlar oxirida qo‘sh undoshlar tarkibida kelgan **ж** tovushi **ch** tovushiga o‘xshab talaffuz qilinadi: *mavj>mavch, avj>avch*.

Ch tovushi til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘zning boshida (*chaqa, chigit, chuqur*), o‘rtasida (*achchiq, ochiq, ko‘cha*) va oxirida (*och, uch, kech*) keladi. Ayrim so‘zlarda o‘zidan keyingi jarangsiz undoshlar ta‘sirida talaffuzda **sh** tovushiga o‘tadi: *kechdi>keshti, qochdi>qoshti, sochdi>soshti*.

L tovushi til oldi, portlovchi-sirg‘aluvchi, jarangli (sonor) undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*lagan, latifa, lof*), o‘rtasida (*olis, uloq, belgi*) va oxirida (*kasal, kel, yo‘l*) keladi. Bu tovush so‘z o‘rtasida kelganda so‘zlashuv nutqida ko‘pincha tushib qoladi: *olsa>osa, kelsa>kesa, bo‘lsa>bo‘sa, kelgan>kegan*.

R tovushi til oldi, portlovchi-sirg‘aluvchi, titroq, sonor, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*randa, rang, ruh*), o‘rtasida (*arra, mo‘ri, baraka*) va oxirida (*bozor, hozir, huzur*) keladi. Bu tovush sof o‘zbekcha (turkiycha) so‘zlar boshida qo‘llanmaydi.

Y tovushi til o‘rta, sirg‘aluvchi va jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*yigit, yo‘l, yil*), o‘rtasida (*sayr, qayir*) va oxirida (*to‘y, uy, oy*) keladi.

K tovushi til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*katta, kim, ko‘p*), o‘rtasida (*ikki, aka, uka*) va oxirida (*tilak, yuk, to‘k*) keladi. Bu tovush bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga unli bilan boshlanuvchi qo‘shimcha qo‘shilganda, **k** tovushi **g** tovushiga o‘tadi va bu holat yozuvda ham aks etadi: *malak>malagi, ko‘ylak>ko‘ylagim*.

G tovushi til orqa, sof portlovchi, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*gulxan, gilam, go‘zal*), o‘rtasida (*tugun, agar, egri*) va oxirida (*barg, biolog, pedagog*) keladi. Bu tovush sof o‘zbekcha so‘zlar oxirida deyarli qo‘llanmaydi. **G** tovushi bilan boshlanadigan qo‘shimchalar **k** tovushi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda **k** tovushiga aylanadi: *ko‘k+ga > ko‘kka, boq+gan >boqqan*. O‘zlashma so‘zlarda bunday o‘zgarish bo‘lmaydi: *geologga, biologga*.

Ng tovushi til orqa, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun, jarangli, sonor undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida mutlaqo uchramaydi. So‘z o‘rtasida (*yangi, bangi*) va oxirida (*bodring, ong*) keladi.

Q tovushi chuqur til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*qadr, qovoq, qo‘l*), o‘rtasida (*oqil, baqir, chuqur*) va oxirida (*o‘roq, yo‘q*) keladi. Bu tovush ayrim ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar oxirida kelganida unli bilan

boshlangan qo‘shimchalar qo‘shilsa, **g‘** tovushiga almashadi: *quloq+im>qulog‘im, to‘yoq+i>tuyog‘i. To‘qson, maqtov, maqsad* kabi so‘zlarda esa **x** tovushiga o‘xshab talaffuz qilinadi.

G‘ tovushi chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*g‘azab, g‘ildirak, g‘o‘za*), o‘rtasida (*dag‘al, og‘ir, o‘g‘ri*) va oxirida (*tog‘, bug‘, tig‘*) keladi.

X tovushi chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*xabar, xurjun, xol*), o‘rtasida (*paxta, axir*) va oxirida (*six, mix*) qo‘llanadi.

H tovushi bo‘g‘izda hosil qilinadigan, sirg‘aluvchi, jarangsiz tovush bo‘lib, so‘z boshida (*halol, hikoya, hukumat*), o‘rtasida (*sayohat, ohu*) va oxirida (*sayyoh, eh*) qo‘llanadi. Bu tovush asosan arab, fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlarda uchraydi.

12-§. Qo‘sh tovushlar va ularning qo‘llanilishi

Ma‘lumki, unli tovushlar so‘zlarni shakllantirishda yakka holda, qo‘sh holatda va ketma-ket holda qo‘llanadi. Unlilarning yakka holatda kelishi o‘zbek tili tabiatiga xos bo‘lib, turli tipdagi ikki unli ketma-ket bir o‘rinda kelishi yoki bir xil unlining bir o‘rinda qo‘sh holda qo‘llanishi (*poema, doim, sanoat, taajjub, matbaa*) turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida boshqa tillarning ta‘siri, xalqlarning o‘zaro aloqasi tufayli paydo bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *ao, oa, oi, ia, io* kabi turli unlilarning ketma-ket bir o‘rinda kelish hollari mavjud: *jamoat, faol, doira, ...*

Bir xil unlilarning *aa, uu, ii, oo* kabi qo‘sh kelish hollari uchraydi: *taalluqli, shuur, badiiy, inshoot*. Deyarli barcha undoshlar qo‘sh holatda (*g, x, h, g‘* undoshlari bundan mustasno) qo‘llanadi: *qubba, avval, sodda, mijja, lazzat, tayyor, ikki, alla, omma, anneksiya, oppoq, burro, issiq, o‘ttiz, iffat, achchiq, ishshaymoq, to‘qqiz*. Bu undoshlar talaffuzda ham qo‘sh tarzda aytiladi. Bu hodisa aloqalarning kengayishi tufayli yangi so‘zlar hisobiga boyimoqda: *musson, Anna, Emma, milliard, affiks*. Qo‘sh unlilar so‘zning o‘rtasida (*manfaat*), so‘z oxirida (*mutolaa*), qo‘sh undoshlar esa so‘z boshida (*ssenariy*), o‘rtasida (*qattiq*) va oxirida (*kongress*) qo‘llanadi.

Turkiy tilga turli tipdagi undoshlarning so‘z oxirida ketma-ket (qator) kelishi qo‘sh undoshlarga nisbatan ancha ilgari o‘zlashdi: *daraxt, g‘isht, payvand, Samarqand, baxt, xursand* kabi.

O‘zbek tilida oldin so‘z boshida undoshlarning ketma-ket kelish hollari yo‘q edi, rus tili va boshqa tillarning ta‘sirida adabiy tilimizda bu holat ham paydo bo‘ldi: *brom, drezina, ftor, grek, krem, stol, traktor, xrom, shkaf* kabi.

13-§. Nutqning asosiy fonetik birliklari

Inson nutqi uzluksiz va to‘xtovsiz davom etadigan tovushlar oqimidan iborat emas. U turlicha hajmdagi intonatsion birliklarni o‘z ichiga oladi. Fraza, takt, fonetik so‘z, bo‘g‘in, tovush ana shunday fonetik birliklardir.

1. Fraza nutq oqimida kattaroq pauza bilan ajratib aytiladigan nutq birligidir. U ohang va fikriy tugallikka ega bo‘lganligi uchun ko‘pincha gapga teng

keladi. Masalan: *Dunyoda boladan aziz narsa yo‘q // Bo‘lmaydi // Bolalar – kelajagimiz // (O‘. Hakimali)*. Bu nutqiy parchada uchta fraza bor. Frazalar hajm jihatidan har xil bo‘lib, ular bir, ikki, uch va undan ortiq so‘zdan tashkil topishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan misoldagi birinchi fraza beshta, ikkinchisi bitta, uchinchi ikkita so‘zdan tashkil topgan. Yana qiyoslang: *Ularning uyi qishloqning eng chekkasida, hovlilari baland tog‘ning shundoqqina etagida. // Bahavo. // Bog‘larining ortidan shovullab soy o‘tadi. (To‘lqin)*.

2. Takt frazaning bir qismi bo‘lib, qisqa pauza bilan ajratib aytiladi. Buning tarkibidagi so‘z yoki so‘zlar bir bosh urg‘u (bir havo oqimi) bilan talaffuz qilinadi. Masalan: *Dunyoda / xushfe‘l, / olijanob, / hamisha ezgu niyat bilan ish qiladigan odamlar / juda ko‘p (O.Husanov)*. Bu fraza tarkibida 6 ta takt bo‘lib, birinchi, ikkinchi, uchinchi, beshinchi taktlar bir so‘zdan, to‘rtinchi takt olti, oltinchi takt esa ikki so‘zdan tashkil topgan.

Fraza ba‘zan bir taktga teng bo‘ladi. Masalan, *Kech kuz edi. // Qo‘qqisdan qorasovuq boshlanib, / cho‘ponlarni tashvishga solib qo‘ydi (M.Qoriyev)*. Bunda birinchi fraza – *Kech kuz edi* bir taktga tengdir.

3. Fonetik so‘z o‘z urg‘usiga ega bo‘lgan so‘z yoki bir urg‘uga birlashadigan (bir urg‘u bilan talaffuz etiladigan), ikki va undan ortiq so‘zshaklidir. Takt tarkibidagi fonetik so‘zlar soni undagi so‘zlarning umumiy miqdori bilan emas, urg‘uli so‘zlar miqdori bilan belgilanadi, ya‘ni takt ichida urg‘uli so‘z qancha bo‘lsa, fonetik so‘z ham shuncha bo‘ladi: *Dashtda / odam aqli shoshadigan / buyuk ishlar / qilinadi // (Y.Shamsharov)*. Bu fraza tarkibida to‘rtta takt bo‘lib, birinchi taktda bitta, ikkinchi taktda uchta, uchinchi taktda ikkita, to‘rtinchi taktda esa bitta fonetik so‘z qatnashgan. Bu frazadagi so‘zlarning umumiy soni fonetik so‘zlarning umumiy soniga teng.

Mustaqil urg‘uga ega bo‘lmagan yordamchi so‘zlar o‘zlari tobe bo‘lgan mustaqil so‘z bilan birga bir urg‘uga ega bo‘ladi va bir fonetik so‘zni tashkil etadi: *Dilda saqlangan adovat temir zangiga o‘xshaydi, zang temirni yegani kabi, adovat qalbni azob va iztirob bilan yemiradi (Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur)*. Bunda 14 ta fonetik so‘z bo‘lib, bularning ikkitasi (*yegani kabi, iztirob bilan*) ning tarkibida ko‘makchi so‘zlar qatnashgan.

Bir tushunchani ifodalaydigan qo‘shma so‘zlar ham, tarkibidagi so‘zlarning umumiy miqdoridan qat‘i nazar, bir fonetik so‘z sanaladi: *Qo‘pol va dag‘al barmoqlar torlarni shunday chertar ediki, oddiygina qildan taralayotgan bu ohang dillarni rom qilib olgandi. (To‘lqin)* Fraza tarkibidagi *rom qilib olgandi* bo‘lagi bitta fonetik so‘z deb qaraladi.

4. Bo‘g‘in o‘pkadan chiqib kelayotgan havo oqimiga berilgan bir zarb bilan aytiladigan tovushlar yoki ayrim bir tovushdir. Unli tovush bo‘g‘in hosil qiluvchi tovushdir. Shuning uchun so‘zda nechta unli tovush bo‘lsa, bo‘g‘inlar soni ham shuncha bo‘ladi. Masalan, *adolat* so‘zida uch bo‘g‘in bor: *a-do-lat*. Birinchi bo‘g‘in bir tovushdan, ikkinchi bo‘g‘in ikki tovushdan, uchinchi bo‘g‘in uch tovushdan iborat. Demak, bo‘g‘inlar bir tovushli, ikki tovushli va ko‘p tovushli bo‘lishi mumkin. Chunonchi: *o-ta, o-na, a-ka* so‘zlarining birinchi bo‘g‘ini bir tovushdan, ikkinchi bo‘g‘ini ikki tovushdan, *a-dir, o-qil, e-shit, i-dish* so‘zlarining ikkinchi bo‘g‘ini uch tovushdan, *a-van-gard, ak-sent, e-le-ment, an-ti-fa-shist, ar-*

tist, ge-o-graf soʻzlarining oxirgi boʻgʻini toʻrt tovushdan, *a-le-bastr, a-git-punkt* soʻzlarining oxirgi boʻgʻini besh tovushdan iborat. Boʻgʻinning tuzilishi quyidagicha ifodalanadi: *ona: V – C*. Bunda *V* belgisi lotincha **vokalis** soʻzidan olingan boʻlib, aslida **unli** (ovoz) degan maʼnoni bildiradi. *C* belgisi esa inglizcha **constant** soʻzidan olingan boʻlib, **undosh** degan maʼnoni bildiradi. Bir tovushli boʻgʻinlar unli tovushdangina iborat boʻlsa, ikki tovushli va koʻp tovushli boʻgʻinlar unli va undosh tovushlardan tuziladi. Boʻgʻinlar qanday tovushlar bilan boshlanishi va qanday tovushlar bilan tugashiga qarab turlarga ajratiladi. Qanday tovush bilan tugashiga koʻra ikki xil: **1) ochiq boʻgʻin** – bir tovushli yoki oxiri unli tovush bilan tugagan boʻgʻin: *o-vo-za, o-i-la, ba-ho, bi-no, de-le-ga-tsi-ya, ja-zi-ra-ma, Ra-hi-ma*; **2) yopiq boʻgʻin** undosh tovush bilan tugagan boʻgʻin: *zard-dor, zum-rad, id-rok*. Boʻgʻinlari qanday tovush bilan boshlanishiga koʻra ham ikki xil boʻladi: **1) berkitilgan boʻgʻin** undosh bilan boshlanadi: *ta-lab, tinch-lik*. **2) berkitilmagan boʻgʻin** unli bilan boshlanadi: *oʻ-qish, aʻ-lo*.

Tarkibidagi boʻgʻinlar soniga koʻra soʻzlar bir boʻgʻinli (*ish, koʻk, kam, oz, besh, yuz, sen, pisht, ol, yoz*); ikki boʻgʻinli (*da-la, qush-cha, yax-shi, shar-bat, qizil, ik-ki, ol-ti, oʻt-tiz, ni-ma, ham-ma, oʻ-qi, ish-la, bor-di, bu-gun, se-kin, bi-lan, xud-di, ...*); koʻp boʻgʻinli (*qoʻ-gʻir-choq, a-ra-va-cha, pla-ne-ta-riy, ...*) boʻladi.

Soʻzlarni boʻgʻinlarga toʻgʻri ajrata bilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi: 1) yozuvda soʻzning bir qatorga sigʻmay qolgan qismi ikkinchi qatorga boʻgʻin asosida koʻchiriladi; 2) barmoq vaznida yoziladigan sheʼr misralari boʻgʻin sonining teng boʻlishiga asoslanadi; 3) birinchi sinf oʻquvchilarini savodga oʻrgatish davrida ham asosiy diqqat soʻzlarni boʻgʻinlab oʻqish va yozishga qaratiladi.

5. Tovush nutqning boʻgʻin (yoki soʻz) tarkibidagi eng kichik, fonetik jihatdan boʻlinmaydigan birligidir: ***bola*** soʻzi 4 ta tovushdan (*b,o,l,a*) iborat.

14-§. Urgʻu

Soʻz boʻgʻinlaridan birining yoki gap tarkibidagi soʻzlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq yoki choʻziqroq talaffuz qilinishi **urgʻu** deb ataladi.

Urgʻu, odatda, boʻgʻindagi unli tovushga tushadi. Soʻz nechta boʻgʻindan tuzilganligidan qatʼi nazar, unda bitta urgʻu boʻladi (gap boʻlaklaridan birini ajratib koʻrsatish ham xuddi shunday xususiyatga ega). Soʻz tarkibidagi urgʻu olgan boʻgʻin **urgʻuli boʻgʻin**, urgʻu olmagan boʻgʻinlar esa **urgʻusiz boʻgʻin** deyiladi. Masalan: *Sizlarning matonatli mehnatlaringiz Ulugʻ Vatan urushi yillaridagi muqaddas gʻalabamizni yaqinlashtirdi. (S. Karomatov)* Bu gapdagi har bir soʻz oʻz urgʻusiga ega (chunonchi, «*sizlarning*» soʻzida uchta boʻgʻin boʻlib, oxirgi boʻgʻin (*-ning*) urgʻu olgan; «*matonatli*» soʻzida toʻrtta boʻgʻin boʻlib, oxirgi boʻgʻin (*-li*) urgʻu olgan va hokazo). Bundan tashqari, shu gap tarkibidagi *sizlarning* soʻzi boshqa soʻzlarga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinadi. Demak, har xil obyektga – soʻz tarkibidagi biror boʻgʻinga ham, gap tarkibidagi ayrim soʻzga ham urgʻu tushishi mumkin. Shunga koʻra, urgʻu ikki turga ajratiladi:

1) so‘z urg‘usi (yoki leksik urg‘u) so‘z bo‘g‘inlaridan biriga tushadigan urg‘udir. Yozuvda urg‘u bo‘g‘indagi unli ustiga qo‘yiladigan maxsus belgi (´), orqali ko‘rsatiladi. Masalan: *Áslida insón tabiatníng oltindán hámmá bebahó mo‘jizásí -ku! Dunyodá insondán azíz, insondán qimmatlí narsá bórmí o‘zí?* (O.Husanov). Leksik urg‘u so‘zning qaysi bo‘g‘iniga tushishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: **a) bog‘liq urg‘u;** **b) erkin urg‘u.**

O‘zbek tilida so‘z urg‘usi asosan so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga (masalan, *daftár, ovóz, sariq, burún* kabi) tushadi. Shuning uchun so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shila borishi bilan urg‘u ham so‘z oxiridagi bo‘g‘inga ko‘cha boradi. Masalan: *imzó-imzolá- imzolamóq, paxtá -paxtakór- paxtakorlár.* So‘zning biror bo‘g‘ini (masalan, oxirgi) bilan bog‘liq bo‘lgan urg‘u **bog‘liq urg‘u** deyiladi.

O‘zbek tilining so‘z urg‘usi, asosan, bog‘liq urg‘u hisoblanadi. So‘zning turli bo‘g‘inlariga tushishi mumkin bo‘lgan urg‘u esa **erkin urg‘u** deyiladi. Bu asosan ruscha-internatsional so‘zlarga xos. Masalan, *vitamín, abzás, avangárd, batón, operatív, bufét, gigánt* (oxirgi bo‘g‘inida), *avantyúra, aviátsiya, proféssor, akrobátika, geólog* (o‘rtadagi bo‘g‘inda), *áriya, vánna, nóta, máksimum, váxta, sintaksis, áksiya* (birinchi bo‘g‘inda).

Bundan tashqari, o‘zbek tilida urg‘usi birinchi bo‘g‘inga (*bárcha, hámma, dóim, áslo, lékin* kabi, o‘rtadagi bo‘g‘inga (*hamísha, afsúski, albátta*) tushadigan so‘zlar ham bor. Demak, o‘zbek tilida bog‘liq urg‘u bilan bir qatorda, qisman erkin urg‘u ham mavjud.

Shuni ham aytish kerakki, o‘zbek tilida urg‘u olmaydigan elementlar ham bor. Masalan: *-ku, -u, -yu, -da, -mi, -chi, -dir, gina, -oq(-yoq)* yuklamalari; o‘xshatish ma‘nosini ifodalaydigan *-day (-dek); -cha* shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar; *-dir, -man, -san, -miz, -siz* kabi kesimlik qo‘shimchalari; bo‘lishsizlik ma‘nosini ifodalovchi *-ma* qo‘shimchasi shular jumlasiga kiradi. Leksik urg‘u muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki u, birinchidan, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish normalarini belgilaydi; ikkinchidan, so‘z ma‘nolarini farqlash uchun xizmat qiladi: *órgan* - organizmning bir qismi, *orgán* – cholg‘u asbobi; uchinchidan, so‘z shakllarini ajratishga yordam beradi: *qushchá* – kichraytish oti, *qúshcha* – “qushdek” ma‘nosini ifodalovchi ravish; *tarbiyachimíz* (bizning tarbiyachi) – *tarbiyachímiz* (biz – tarbiyachi).

Demak, leksik urg‘u adabiy talaffuz (orfoepiya) bilan bog‘liq. Chunki so‘zning urg‘uli bo‘g‘ini buzilsa, so‘zni tushunish qiyinlashadi.

2) gap urg‘usi (yoki mantiqiy urg‘u, ma‘no urg‘usi) gap bo‘laklaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishidir. Bu urg‘u, odatda, individual xarakterga ega bo‘lib, so‘zlovchi o‘zicha muhim sanagan so‘zni mantiqiy urg‘u bilan talaffuz qiladi va bu bilan tinglovchining e‘tiborini shu bo‘lak bilan ifodalangan ma‘noga tortadi, yoki o‘sha bo‘lakning ma‘nosini bo‘rttirib, kuchaytirib ko‘rsatadi. Masalan: *Ilmda ko‘p narsani bilish – olimlik fazilati.* (S.Karomatov) gapida mantiqiy urg‘u quyidagicha tus olishi mumkin: 1) *Ilmda* (boshqa narsada emas) *ko‘p narsani bilish – olimlik fazilati.* 2) *Ilmda ko‘p narsani* (oz narsani emas) *bilish – olimlik fazilati.* 3) *Ilmda ko‘p narsani bilish* (bilmaslik emas) – *olimlik fazilati.* 4) *Ilmda ko‘p narsani bilish – olimlik fazilati*

(boshqalarning fazilati emas). Yozuvda mantiqiy urg‘u olgan bo‘lak kesim oldida keladi.

Urg‘u sifatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) **dinamik urg‘u** so‘z bo‘g‘inlaridan birining kuchli aytilishi: o‘zbek va rus tili urg‘usi kiradi; 2) **musiqail urg‘u** so‘z bo‘g‘inlaridan birining balandroq aytilishidir. yapon, xitoy tillari urg‘usi shunday xususiyatga ega.

Takrorlash uchun savollar:

1. Urg‘u nima? Uning qanday turlari bor?
2. Leksik urg‘u nima? Uning qanday turlari bor? Ular o‘zaro qanday farq qiladi?
3. Leksik urg‘uning qanday amaliy ahamiyati bor?
4. Mantiqiy urg‘u nima? U leksik urg‘udan qanday farq qiladi?

NUTQ TOVUSHLARINING O‘ZGARISHI

Har qanday tilda ham tovushlar yozuvda yozilganidek talaffuz qilinavermaydi. Tovushlar kompleksini (tizimini) birga talaffuz qilish natijasida ayrim tovushlar o‘zaro bir-biriga ta’sir qiladi va bu ta’sir tovush o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, *yurt* so‘ziga o‘rin-payt kelishigi affiksi *-da*, chiqish kelishigi affiksi *-dan* qo‘shilganda, so‘z oxiridagi *t* tovushi affiksdagi *d* undoshiga ta’sir qilib, uni *t* tovushiga aylantiradi: *yurt+da=yurtda*, *yurt+dan=yurttan kabi* (yozilishi: *yurtda*, *yurtdan*). *Bir* sanoq soniga *dona* son affiksi *-ta* qo‘shilganda, affiksdagi *t* undoshning ta’siri bilan so‘zning oxiridagi *r* tovushi *t* ga o‘tadi: *bir+ta=bitta* kabi.

So‘z tarkibidagi tovushlar nutq jarayonida bir-biriga ta’sir qilmagan holda ham o‘zgarishga uchrashi mumkin. Bunda tovushning so‘z tarkibidagi o‘rni (qanday tartibda joylashganligi); so‘zning boshida yoki oxirida, urg‘uli yo urg‘usiz bo‘g‘inda kelishi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *odob*, *javob*, *niqob*, *maktab* so‘zlari oxirida kelgan *b* jarangli undosh talaffuzda jarangsiz *p* tarzida talaffuz qilinadi; *negativ*, *normativ* *pozitiv*, *operativ* kabi ruscha-internatsional so‘zlarning oxirida kelgan *v* jarangli undosh jarangsiz *f* tarzida; *voleybol*, *olimpiada* kabi ruscha-internatsional so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inida kelgan *o* unlisi esa *a* tarzida talaffuz qilinadi: *valeybol*, *alimpiada*. Bunday hodisalarning sodir bo‘lishiga nutqda ixchamlikka intilish, bo‘g‘inda urg‘uning tushishi yoki tushmay qolishi, shoshilib talaffuz qilish, boshqa tillardan o‘tgan so‘zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar sabab bo‘lishi mumkin.

Demak, nutq tovushlarining o‘zgarishi ikki turga bo‘linadi.

1-§. Kombinator o‘zgarishlar

So‘z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o‘zaro ta’siri natijasida ro‘y beradigan tovush o‘zgarishi (fonetik o‘zgarish) **kombinator o‘zgarish** deyiladi. Bunga **assimilyatsiya**, **dissimilyatsiya**, **metateza** kabi hodisalar kiradi.

1. Assimilyatsiyada tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o‘ziga aynan yoki qisman o‘xshatib oladi. Masalan, *xat-ni* – *xatti* (o‘zakdagi *t* tovushi affiks

tarkibidagi **n** ni aynan o‘ziga o‘xshash tovush – **t** ga aylantiradi (yozilishi: *xatni*); *ish+ga* – *ishka* (bunda o‘zakdagi jarangsiz undosh **sh** affiks tarkibidagi jarangli undosh **g** ni o‘ziga qisman o‘xshatadi, ya‘ni jarangsiz **k** ga aylantiradi (yozilishi *ishga*). Shunga ko‘ra assimilyatsiya ikki xil bo‘ladi: **1) to‘liq assimilyatsiya** so‘z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni aynan o‘zi kabi tovushga aylantirishidir: *to‘k+gan =to‘kkan*, *yet+di=yetti*, *chiq+gan = chiqqan*, *tuz+siz=tussiz*, *o‘ris+cha=o‘richcha* (yozilishi: *yetti*, *sizni*, *chiqqan*, *tuzsiz* o‘*rischa*). Bunda tovushlar o‘zaro moslashadi; **2) to‘liqsiz assimilyatsiya** so‘z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni o‘ziga qisman o‘xshatib olishidir: *o‘ch+gan=o‘chkan*, *shosh+di=shoshti*, *tush+ga=tushka* ... (bularda jarangsiz *ch*, *sh* undoshlari affiks tarkibidagi jarangli **g** ni jarangsiz **k** ga, **d** ni esa **t** ga aylantirgan; yozilishi: *o‘chgan*, *shoshdi*, *tushga*). To‘liqsiz assimilyatsiyada ba‘zan tovushlar o‘r>niga ko‘ra ham moslashadi: *shanba* > *shamba*. Bunda *b* lab tovushining ta‘sirida **n** til tovushi lab-lab **m** tovushiga aylanadi. Demak, to‘liqsiz assimilyatsiyada tovushlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra qisman moslashish holatiga o‘tmaydi. Bunda yonma-yon kelayotgan tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra va hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra moslashadi. Oldin kelgan tovush o‘zidan keyin kelgan tovushni (masalan, *o‘t+di=o‘tti*), shuningdek, keyin kelgan tovush o‘zidan oldin kelgan tovushni (*o‘n bir - o‘mbir*) o‘ziga o‘xshatishi mumkin. Shunga ko‘ra assimilyatsiya yana ikki turga bo‘linadi: **1) progressiv assimilyatsiyada** oldingi tovush o‘zidan keyingi tovushni o‘ziga o‘xshatadi: *ot+da = otta* (yozilishi *otda*), *bilak+ga – bilakka* (yozilishi: *bilakka*). **2) regressiv assimilyatsiyada** keyingi tovush o‘zidan oldingi tovushni o‘ziga o‘xshatadi: *tanbur – tambur*, *yigit+cha = yigichcha*, *non+voy = novvoy*, (yozilishi: *tanbur*, *yigitcha*, *novvoy*).

2. Dissimilyatsiyada ikkita aynan yoki qisman o‘xshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda o‘zgarib, noo‘xshash tovushga aylanib qoladi. Masalan, *zarur – zaril* (*zarar* so‘zi tarkibidagi ikkita bir xil **r** undoshining biri talaffuzda **l** ga aylangan). Yana qiyoslang: *koridor>kalidor*, *devor>devol*, *nodon>lodon*, *biror>biron* (yozilishi: *zarur*, *koridor*, *devor*, *biror* yoki *biror*, *nodon*).

3. Metateza so‘z tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda o‘rin almashuvidir. Masalan: *daryo – dayro* (bunda **r** va **y** undoshlarining o‘zaro o‘rin almashuvi yuz bergan); *ahvol – avhol* (hv-vh), *aylanay – aynalay* (ln-nl), *tuproq-turpoq* (pr-rp); *yog‘mir-yomg‘ir* (g‘m- mg‘); yozilishi: *daryo*, *ahvol*, *aylanay*, *tuproq*, *yomg‘ir*.

2-§. Pozitsion o‘zgarishlar

Tovushning so‘z tarkibidagi o‘rni (joylashish tarkibi) uning **pozitsiyasini** tashkil qiladi. Tovush so‘zning turli o‘rinlarida kela oladi. Masalan, **d** undoshi *dono*, *dehqon*, *doston* so‘zlarining boshida; *abadiy*, *aerodrom*, *badiiy*, *bayroqdor* so‘zlarining o‘rtasida; *taqlid*, *obod* so‘zlarining esa oxirida kelgan. Shu so‘zlarni talaffuz qilganimizda, ularning ayrimlari (masalan, *dono*, *dehqon*, *doston*, *abadiy*, *aerodrom*, *badiiy*, *bayroqdor*...) tarkibidagi **d** undoshi hech qanday o‘zgarishga uchramaydi, ammo *taqlid*, *obod* so‘zlari tarkibidagi bu undosh jarangsiz **t** tarzida (*taqlit*, *obot*) aytiladi. Demak, mazkur undoshning talaffuzda o‘zgarishi – jarangli

tovushning jarangsizlanishi uning ma'lum bir pozitsiyada – so'z oxirida kelishi bilan bog'liq. *Kosmonavt, kosmodrom, limonad, mikrofon, orkestr* so'zlarining urg'usiz bo'g'inida kelgan *o* unlisi *a* tarzida (*kasmanavt, kasmadrom, limanad, arkestr, mikrafon* kabi) talaffuz qilinsa, *kartoshka, direktor, lektor, diktir, agressor* so'zlarining urg'usiz bo'g'inida kelgan *o* unlisi qisqa *i* tarzida (*kartishka, direktir, lektir, diktir, agressir* kabi) talaffuz qilinadi. Bu tipdagi ruscha-internatsional so'zlar tarkibidagi *o* tovushining goh *a*, goh *i* kabi aytilishi ularning urg'usiz bo'g'inda kelishi bilan bog'liqdir.

Tovushning so'zdagi o'rni, urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishi bilan bog'liq holda yuz beradigan o'zgarishlar **pozitsion o'zgarishlar** deyiladi. Pozitsion o'zgarishlarning quyidagi turlari bor:

1) **proteza** so'z boshida bitta unlining orttirilishidir. Odatda, aksariyat sonor *r* tovushidan oldin *o'* unlisi orttiriladi: *ro'mol - o'ramol, ro'za - o'raza*. Ayrim holatda so'z boshida sirg'aluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda *i* yoki *u* unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf-ishkaf, stol-ustol, stul-ustul*.

2) **epenteza** so'z boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, unli tovushning orttirilishidir: *fikr - fikir, hukm - hukum, uzr - uzur*.

3) **epiteza** so'z oxirida bir o'rinda kelgan ikki undoshdan so'ng *a* tovushining qo'shilish hodisasidir: *disk - diska, bank - banka, tank - tanka, kiosk - kioska* kabi.

4) **prokopa** so'z boshida unli yoki undosh tovushning tushib qolish hodisasidir: *yigna - igna, yog'och - og'och, yirik - iri*.

5) **sinkopa** hodisasiga binoan so'z o'rtasidagi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi: *traktor - traktir, direktor - direktir, generator - generatir* kabi.

6) **apakopa** so'z o'zigidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: *do'st - do's, xursand - xursan* va hokazo.

7) **sinerezis** hodisasiga ko'ra so'z o'rtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi, ikkinchi unli fonema esa cho'ziq talaffuz qilinadi: *maorif - mo:rif, saodat - so:dat, qiroat - qiro:t, jamoat - jamo:t*.

8) **reduksiya** so'zning birinchi bo'g'inida biror unlining (odatda tor unlining) kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, *bir, bil, til* so'zlari bir bo'g'inli bo'lganligi va urg'u shu so'zdagi *i* unlisiga tushganligi tufayli bu so'zlardagi *i* unlisi normal holda talaffuz qilinadi va normal holda eshitiladi. Lekin shu so'zlarning oxiriga ikkinchi bir bo'g'in qo'shilishi bilan, urg'u ham ikkinchi bo'g'inga ko'chadi. Natijada birinchi bo'g'indagi *i* unlisi kuchsizlanadi va eshitilar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: *bilak, tilak, biroq*. Reduksiyaning ikkinchi bo'g'inda kelish hollari ham uchrab turadi. Bu hodisa so'zga uchinchi bo'g'in qo'shilganda sodir bo'ladi – ikkinchi bo'g'indagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, *burun - burni, bo'yin - bo'yni, egin - egni* singari.

9) **eliziya** unli bilan tugaydigan va unli bilan boshlanadigan ikki so'zning qo'shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi so'z oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi*; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so'zning bosh

unlisi tushib qoladi: *borar ekan – borarkan, borar emish – borarmish, yozgan ekan – yozgankan* kabi; d) *Abdusalom* soʻzining *Absalom, Abdujabbor* soʻzining *Abjabbor, olib kel* soʻzining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi hodisasi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan shakli hisoblanadi. Bunday hollarda eliziyaning murakkablashishi natijasida soʻzlarning qisqargan shakllari hosil boʻladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqdagi tovush oʻzgarishlari nima? Nima uchun nutqda tovush oʻzgarishi roʻy beradi?
2. Tovush oʻzgarishlarining qanday turlarini bilasiz?
3. Kombinator oʻzgarish nima? Uning qanday turlari bor?
4. Assimilyatsiya nima va uning qanday koʻrinishlarini bilasiz?
5. Dissimilyatsiya nima?
6. Metateza haqida nimalarni bilasiz?
7. Pozitsion oʻzgarishlar deganda nimani tushunasiz?

GRAFIKA VA IMLO

2-§. Grafika haqida umumiy maʼlumot

Tilshunoslik lugʻatlarida grafika tushunchasiga ikki xil taʼrif berishadi:

“1. Grafika (*yun.* graphike - yozma). 1. Nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan tizimi. 2. Tilshunoslikning alifbodagi harflar tarkibini, shaklini, harf va nutq tovushlari orasidagi munosabatni belgilash bilan shugʻullanuvchi amaliy sohasi”⁶.

Grafika grekcha **grafikos** soʻzidan olingan boʻlib, **yozuv** degan maʼnoni bildiradi.

Grafika ogʻzaki nutqni turli shakllar, belgilar, raqamlar va chiziqlar yordamida aks ettiruvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Grafik vositalarga harflar, belgilar va tinish belgilari kiradi. Harf – tovush ifoda etuvchi shakl.

15-§. Til va yozuv

Til va yozuv oʻzaro uzviy bogʻliq va aloqador hodisadir. Til jamiyat bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. U jamiyatning boʻlishida muhim omillardan biridir. Tilsiz jamiyat boʻlmaydi.

Yozuv – jamiyatning madaniy yutuqlaridan biri. U jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida hayotiy zarurat natijasi sifatida yuzaga keldi, yaratildi. Yozuv ham til kabi jamiyat aʼzolarining aloqa-aralashuvida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Koʻp hollarda yozuv tilning oʻrnini bosadi. Lekin til va yozuvning oʻziga xos ahamiyatli tomonlari bor. Yozuv fikrni yetkazishda masofa jihatidan chegara bilmaydi. Til esa vaqt va makon jihatdan chegaralangan. U yaqin masofada turgan suhbatdoshiga eshitiladi.

⁶ A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. T.: “Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 33-bet.

Yozuv madaniy, ma'rifiy va adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga meros sifatida qoldirish imkoniyatiga ega. Og'zaki nutq esa aytilayotgan paytdagina qabul qilinadi. Biroq yozuv maxsus yozuv qurollari, sharoit, vaqt va shartli belgi shakllarni talab etadi. U tilni barcha nozikliklari bilan aks ettira olmaydi. Shunga qaramay, jamiyatda yozuvning o'z o'rnini bor; yozuv masofa bilan ajralgan odamlar orasida aloqa munosabatini ta'minlashda, barcha uchun tushunarli bo'lgan adabiy tilning yuzaga kelishida, madaniy-adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga yetkazishda katta imkoniyatlarga ega.

Tarixchilarning aniqlashicha, yozuv dastlab Messopotamiya degan joyda paydo bo'lgan va bu yozuv tarixga **mixxat** nomi bilan kirgan. Bu xat eramizdan oldingi V–IV asrlarda O'rta Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida ishlatilgan. Hozirgi eramizdan boshlab taxminan VI asrgacha **so'g'd** yozuvi ishlatilgan. V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar **runik** yozuvidan foydalanishgan. Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari dastlab Janubiy Sibirning Enasoy daryosi havzalarida va Mo'g'ulistonning O'rxun vodiysida topilgan. Shunga nisbatan qadimgi turkiy yozuv O'rxun-Enasoy obidalarining yozuvi deb ham yuritiladi. 1893-yili daniyalik olim N. Tomsen va rus olimi V. V. Radlov qadimgi turkiy yozuvni o'qishga muvaffaq bo'ldilar. O'rxun-enasoy yozuvlari Rim yozuvlariga o'xshab ketganligi uchun **run (runik)** yozuvlari yoki **dulbarchin** deb ham yuritiladi.

O'rta Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi mahalliy xalqi sak va massaget urug'lari bo'lib, ularning ham o'z yozuvlari mavjud edi. Ana shu yozuvdan qadimiy **xorazmiy** va **so'g'd** yozuvlari yaratilgan. **Xorazmiy** yozuvi ham o'zbek xalqi ajdodlari tomonidan qo'llanilgan yozuv bo'lib, bu yozuv II asrning oxiri III asrning boshlarida xorazmshoh chiqargan pullarda uchraydi.

1970-yillargacha turkiy yozuv eramizning VI-VII asrlarida shakllangan degan fikr yetakchi edi. Keyingi topilmalar turkiy yozuvning ildizlarini ikki yarim ming yillik o'tmishdan izlamoq kerak, degan xulosani chiqarishga asos bo'ldi. 1988-yilda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Lo'mbitepa yodgorligidan ko'za topildi. Uning bandi sirtiga qadimiy turkiy bitik o'yib tushirilgan ekan. Bu bitik VII-VIII asrlarga oid turkiy obidalardan yosh jihatidan qariyb I-II asrcha qadimyroqdir.

VI-VII asrlardan to XV asrlargacha turkiylar va mo'g'ullar uyg'ur yozuvidan foydalanishgan. Bu yozuvda bitilgan yodgorliklarning eng qadimgisi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Vena kutubxonasidagi nusxasidir. Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni"), Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Lutfiy va boshqa shoirlarning ayrim she'rlari **uyg'ur** yozuvida yozilgan. Uyg'ur yozuvi X-XV asrlarda mavjud bo'lib, arab yozuvi bilan ma'lum davrgacha baravar ishlatilgan.

720-yildan boshlab **arab** yozuvi tarqala boshlagan. Arab yozuvida bitilgan eng qadimgi turkiy yodgorliklar XI asrga taalluqlidir. Bular Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Namangan va Qohira nusxalaridir. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu-lug'otit-turk" nomli asari ham arab yozuvida yozilgan. Xalqlarimiz taxminan 1200 yildan ko'proq vaqt davomida arab alifbosidan foydalangan. 1929-yildan **lotin** alifbosi asosidagi yangi yozuvga o'tilgan edi.

1940- yildan boshlab esa **rus (kirill)** grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga o'tildi.

Bizning davrimizda jahondagi xalqlar 220 xil yozuvdan foydalanadilar. Shu yozuvlardan juda keng tarqalgani **lotin** yozuvi bo'lib, jahon xalqlarining 30 foizidan ziyodi shu yozuvni qo'llaydilar. 1993 yil 2-3 sentyabrda bo'lib o'tgan Oliy Kengash yig'ilishida o'zbek yozuvini lotin alifbosiga o'tkazish to'g'risida qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-maydagi Oliy Majlis sessiyasida bu alifboga ayrim o'zgarishlar kiritildi va bu yozuvga to'liq o'tish muddati 2005-yil sentabr oyi deb belgilandi. 2004-yilda chiqarilgan qonunga ko'ra esa lotin yozuviga to'liq o'tish muddati 2010-yil sentabriga qadar cho'zildi⁷. Isloh qilingan yangi o'zbek alifbosida 29 ta harf bor. Shulardan 3 tasi harfiy birikma: sh, ch, ng:

Aa(1) Bb(2) Dd(3) Ee(4) Ff(5) Gg(6) Hh(7) Ii(8) Jj(9) Kk(10) Ll(11) Mm(12) Nn(13) Oo(14) Pp(15) Qq(16) Rr(17) Ss(18) Tt(19) Uu(20) Vv(21) Xx(22) Yy(23) Zz(24) O'o' (25) G'g' (26) Sh sh(27) Ch ch(28) Ng ng(29).

Muayyan tartibda joylashtirilgan shakllar yig'indisi **alfavit** deyiladi.

16-§. Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi

Kirill yozuviga asoslangan alfavitda 35 ta shakl bo'lib, bu shakllardan 33 tasi harf, 2 tasi belgidir. Har bir harfning bosh va kichik shakli (Aa), bosma va yozma shakllari bor. Har bir harf o'z nomiga ega. Harf nomini bilish va uni to'g'ri talaffuz qilish muhim amaliy orfoepik ahamiyat kasb etadi, chunki tildagi qisqartma so'zlarni to'g'ri o'qish uchun harf nomlarini bilish zarur. Masalan: *BMT – be – em – te.*

Kirill grafikasi asosidagi alifbo quyidagicha tartiblashtirilgan:

Аа, Бб, Вв, Гг, Дд, Ее, Ёё, Жж, Зз, Ии, Йй, Кк, Лл, Мм, Нн, Оо, Пп, Рр, Сс, Тт, Уу, Фф, Хх, Цц, Чч, Шш, Ъъ, Ьъ, Ээ, Юю, Яя, Ўў, Ққ, Ғғ, Ҳҳ.

Bu alifboda 10 ta unli harf (*a, o, u, y, ъ, э, е, ё, ю, я*) bo'lib, ular 6 ta unli tovushni ifodalaydi. Bularidan to'rttasi (*e, ё, ю, я*) yolashgan (grafema) tovushlar bo'lib, ularning 2 holati farqlanadi:

1. Ba'zi so'zlarda undoshdan keyin kelib, u bilan birga bitta bo'g'inni hosil qiladigan va bir tovushni (*a, u, e, o*) ifoda etadigan holati: *ter-ter, syujet-sujet, sentyabr-sentabr, rejissyor-rejissor* kabi.

2. So'z boshida va bo'g'in boshida kelib, ikki tovushni (*yэ, yu, ya, yo*) ifoda etadigan holati: *yostiқ - yostiқ, yurak - yurak, quyosh - quyosh, yanvar - yanvar* va hokazo.

Yuqoridagi alfavitga o'zbek tilining tovushlari tabiatidan kelib chiqib, 4 ta harf (*ѣ, қ, з, х.*) qo'shilgan. Kirill yozuvida 2 ta belgi (*ѣ, ъ*) bo'lib, ular tovush bildirmaydi. Ayirish belgisi (') unlidan keyin kelganda o'sha unlining cho'ziq aytilishi (*ma'no, e'lon* kabi), undoshdan keyin kelganda bo'g'inlarni ajratib aytilishini (*sur'at, jur'at* kabi); yumshatish (*ѣ*) belgisi esa ruscha-internatsional

⁷ "Qalqon" jurnali, 2004-yil, 7-son.

soʻzlarda oʻzidan oldingi undoshning yumshoq aytilishi uchun (*альбом, циркуль*) xizmat qiladi.

Alfavitdagi *j* harfi 2 tovushni, portlovchi *j* (*jayron*) va sirgʻaluvchi *j* (*jurnal*) tovushini ifodalaydi. Alfavitdagi *n* va *g* harflari alohida *n* va *g* tovushlarini yozuvda ifodalash bilan birga, birikma shaklida sayoz til orqa burun tovushini (*ng*) ifodalash uchun ham xizmat qiladi (*tong, bodring* kabi).

16-§. Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalar

1996-yildan boshlab lotin alifbosi asosidagi oʻzbek yozuvi joriy etildi. Bu alifboda 29 ta shakl boʻlib, ular 30 ta tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Hozirgi oʻzbek yozuvidagi undosh harflar bir tovushni ifoda etadi. (*Jj* harfi bundan mustasno). Ikkita tovushni ifodalash uchun *Jj* ishlatiladi: 1) qorishiq, portlovchi *j* (*d+j*) tovushini (*joʻja, jayron, avj* kabi) va 2) sirgʻaluvchi *j* tovushini (*jurnal, jirafa*) bildiradi.

Mazkur yozuvda uchta harf birikmasi mavjud: *ng, sh, ch*. Ular soʻz tarkibida ajratilmaydi va boʻlinmas bir tovushni ifoda etadi: *ng* sayoz til orqa, portlovchi-sirgʻaluvchi, sonor undosh tovushini (*tong, ohang, chang. manglay*), *ch* til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovushni (*charos, tinch, sinch, choynak*), *sh* til oldi, sirgʻaluvchi, jarangsiz undoshni (*shabada, shar, shahar, toshqin, bosh*) ifodalaydi.

Tovushlar ikki turga boʻlinadi: 1) unli tovushlar, 2) undosh tovushlar. Ular unli va undosh harflar bilan belgilanadi. Hozirgi oʻzbek alifbosida 6 unli tovush va 6 ta unli harf bor (*a, o, u, i, oʻ, e*). 24 ta undosh tovush 23 ta undosh harf bilan belgilab koʻrsatiladi (*b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, r, s, t, v, x, y, z, sh, ch, ng*). Har bir harfning bosh va kichik, bosma va yozma shakllari bor.

Harflarning alfavit tartibini bilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki turli lugʻatlar, davlat idora organlarida, arxivlarda saqlanadigan hujjatlar, roʻyxatlar alfavit tartibida tuziladi.

Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilar: (.) (,) (?) (!) (:) (;) (...) («») (-) (') ham qoʻllanadi. Urgʻu (') belgisi soʻz boʻgʻinlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilish uchun unli harf ustiga qoʻyiladi. Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilarning ham roli katta. Tinish belgilari yordamida fikr yozuvda aniq, ravshan va tushunarli qilib beriladi. Ogʻzaki nutqning fikrini toʻliq ifodalash uchun xizmat qiladigan ohang va pauzalari yozuvda tinish belgilari orqali ifoda etiladi.

Tutuq belgisi (') ham grafik vositalardan biri sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) soʻzda unli tovushdan keyin kelib, uning choʻziq aytilishini (*a'lo, e'tibor, iste'mol*); 2) soʻzda undoshdan keyin kelib, oldingi boʻgʻin bilan keyingi boʻgʻinning ajratib aytilishini bildiradi; 3) soʻz ma'nolarini farqlab beradi (*ta'na – malomat, tana – organism*); 4) s va h tovushlarini sh tovushidan farqlaydi: *Is'hoq*.

19-§. Orfografiya (imlo)

Orfografiya grekcha **orphos** (to‘g‘ri) va **grapho** (yozaman) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, «to‘g‘ ri yozaman» degan ma‘noni bildiradi.

Jamiyatning har bir a‘zosidan to‘g‘ri so‘zlay olish va savodli yoza bilish talab etiladi. O‘quv muassasalari oldida turgan asosiy vazifa ham shu talab asosida kelib chiqadi. Adabiy tilning ikki shakli bo‘lib, ulardan biri yozma nutqdir. Bu nutq orfografiya qonun-qoidalariga asoslanadi. Demak, **orfografiya** adabiy tilning yozma shakliga xos bo‘lib, u tildagi o‘zak-negiz va qo‘shimchalarni yagona tarzda to‘g‘ri yozish haqidagi qoidalar yig‘indisidir. Kirill grafikasi asosidagi imlo qoidalari 1956-yilda tasdiqlangan. Bu imlo qoidalari quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga olgan:

1. Ayrim harflar imlosi;
2. O‘zak-negiz va qo‘shimchalar imlosi;
3. Qo‘shma so‘z va so‘z birikmalari imlosi;
4. Bo‘g‘in ko‘chirilishi;
5. Bosh harflarning yozilishi.

1995-yil 24-avgustda lotin grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvining imlosiga doir qoidalari tasdiqlandi. Bu imlo qoidalari quyidagi bo‘limlardan iborat:

1. Ayrim harflar imlosi: unlilar imlosi, undoshlar imlosi.
2. Asos va qo‘shimchalar imlosi.
3. Qo‘shib yozish.
4. Ajratib yozish.
5. Chiziqcha bilan yozish.
6. Bosh harflar bilan yozish.
7. Ko‘chirish qoidalari.

Oldingi imlo qoidalari bilan hozirgi imlo qoidalari o‘rtasida quyidagi ayrim o‘zgarishlar mavjud:

1) juft so‘zlar orasida bog‘lovchi bo‘lib kelgan yuklamalar o‘zi bog‘langan so‘zdan chiziqcha bilan ajratiladi: *dost-u dushman, kecha-yu kunduz*;

2) yil, oyni ko‘rsatuvchi raqamlardan keyin ham chiziqcha qo‘yiladi: *1995-yil 24-avgust, 1993-yil 2-sentabr*;

3) kirilchadagi **u** harfi so‘z boshida va oxirida **s** harfi bilan beriladi: *цурк – sirk, абзац – abzas*. So‘z o‘rtasida unlidan keyin **ts** harfiy birikmasi, undoshdan keyin esa **s** harfi bilan beriladi: *лицей – litsey, акция – aksiya*.

4) **-ga** qo‘shimchasi **g’** tovushi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda morfologik yozuv bo‘yicha asliga muvofiq yoziladi: *bog’+ga= bog’ga, tog’+ga= tog’ga*.

5) oldin shakliy yozuv qoidasiga muvofiq yozib kelingan juda ko‘p chet tili so‘zlari endilikda fonetik yozuv bo‘yicha yoziladigan bo‘ldi (bu o‘zgarish asosan tarkibida **ë, ю, я** harflari qatnashgan so‘zlarga tegishlidir) : *sentabr (сентябрь), oktabr (октябрь), budjet (бюджет), rejissor(режиссёр), likor (ликёр)*.

6) ayrim so‘zlar esa oldin fonetik yozuv bo‘yicha yozilgan bo‘lsa, yangi alifboda morfologik yozuvga ko‘ra yoziladigan bo‘ldi: *ertalabki* emas *ertalabgi*.

Imlo qoidalari orfografiyaning fonetik, morfologik, shakliy, an'anaviy va differentsiatsiya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan. Fonetik va morfologik tamoyillar o'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillaridir.

Fonetik tamoyil (fonetik usul). Bu tamoyil bo'yicha so'zlar, so'z tarkibidagi qo'shimchalar qanday talaffuz etilsa, xuddi o'shanday yoziladi. Bu tamoyil asosida ayrim harflar imlosi, asos va qo'shimchalar imlosidagi ayrim qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan, 1) *son* so'ziga fe'l yasovchi **-a** qo'shimchasi qo'shish bilan yasalgan so'z *sona* emas, *sana* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. *Yosh*, *ot* so'zlariga fe'l yasovchi **-a** qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasalgan *yosha*, *ota* so'zlari *yasha*, *ata* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. *Ong* so'ziga fe'l yasovchi **-la** qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan so'z *ongla* emas, *angla* tarzida talaffuz qilinadi va yoziladi. 2) *o'yin* so'ziga **-a** fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilishi bilan yasalgan so'z *o'yna* tarzida (**i** tovushi tushirilib) aytiladi va shunday yoziladi; 3) *sariq*, *ulug'* so'zlariga fe'l yasovchi **-ay** qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasalgan so'z *sarg'ay*, *ulg'ay* tarzida aytiladi va shunday yoziladi; 4) *o'qi*, *tani*, *tashi* kabi fe'l formalariga **-v** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan so'z *tashuv*, *o'quv*, *tanuv* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 5) *tara*, *bo'ya* so'zlariga ot yasovchi **-q** qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan so'z *taroq*, *bo'yoq* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 6) **q** va **k** tovushi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **q** tovushi **g'**, **k** tovushi **g** tovushiga almashadi va shunday yoziladi: *taroq+i=tarog'i*, *kurak+i=kuragi*, *istak+i=istagi*, *o'rtoq+i=o'rtog'i*.

I z o h: **q** va **k** undoshi bilan tugagan ayrim so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **q** va **k** tovushlari asliga muvofiq aytiladi va yoziladi: *ishtiroki*, *ishtiyiqi*, *zavqi*, *shavqi*, *choki*, *cheki*.

7) *og'iz*, *qorin*, *o'rin*, *singil*, *ko'ngil*, *burun*, *shahar* kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi **i**, **u**, **a** unilari talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: *og'iz+im=og'zim*, *qorin+im=qornim*, *o'rin+im=o'rnim*, *singil+im=singlim*, *ko'ngil+im=ko'nglim*, *burun+im=burnim*, *shahar+im=shahrim* (bu so'z *shaharim* tarzida aytilishi va yozilishi ham mumkin. Bu ikki holat tilda parallel ishlatiladi.);

8) adabiy tilda jo'nalish kelishigining **-ga** qo'shimchasi shakli qabul qilingan. Ba'zan bu shakl **-ka**, **-qa** tarzida eshitiladi. Masalan: *bilakka*, *go'dakka*, *qishloqqa*, *toqqa* kabi. Ko'rinib turibdiki, so'z **q** yoki **k** undoshi bilan tugaganda jo'nalish kelishigi **-qa**, **-ka** shaklini olyapti. Og'zaki talaffuzda so'z qanday tovushlardan tashkil topgan bo'lsa, bu tovushlar yozuvda ham shu tovushlarga mos harflar bilan aks ettirilyapti.

9) **q** va **k** undoshi bilan tugagan fe'l shakllariga ravishdosh hosil qiluvchi **-gach** qo'shimchasining **-qach** va **-kach** variantlari qo'shib, *chiqqach*, *ekkach* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

10) rus tilidan o'zlashgan *kiosk*, *disk* so'zlari o'zbek tilida *kioska*, *diska* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

11) o'zlashma *rama*, *para*, *minuta*, *sekunda*, *konfeta* kabi so'zlarning oxiridagi **a** unlisi o'zbek tili og'zaki nutqida talaffuz etilmaydi va yozuvda ham aks ettirilmaydi (*rom*, *par*, *sekund*, *minut*, *konfet* kabi).

12) o‘zlashma *shyotka, podnos* so‘zlari esa *cho‘tka, patnis* tarzida aytiladi va yoziladi.

13) *u, bu, shu, o‘sha* olmoshlariga *–da, –dan, –ga, –gacha, –cha* qo‘shimchalari qo‘shilganda *i* tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, undan, ungacha* va hokazo.

14) *zachyot, syujet, sentyabr* so‘zlari og‘zaki nutqda *zachot, sujet, sentabr* tarzida talaffuz qilinadi va talaffuzga mos shaklda yoziladi.

Fonetik tamoyil yozuvni jonli talaffuzga yaqinlashtiradi, ular o‘rtasida umumiylilikni vujudga keltiradi.

Demak, fonetik tamoyilga ko‘ra yozuvda talaffuzdagi tovushga muvofiq keladigan, aynan mos tushadigan harf qo‘llanadi.

Morfologik tamoyil. Bu tamoyilga ko‘ra so‘zlarning tarkibiy qismlari: o‘zak-negiz va qo‘shimchalari og‘zaki nutqda qanday talaffuz qilinishidan qat’i nazar, ya’ni og‘zaki talaffuz shakliga qarab emas, asliga muvofiq yoziladi. Bu tamoyil so‘z o‘zagini, unga qo‘shiladigan qo‘shimchalarni muayyan bir sistema asosida aks ettiradi, tildagi variantlilikka, har xillikka barham beradi. Bu tamoyilga ko‘ra variantlardan biri tanlanib, yozuvda tanlangan variant asos qilib olinadi. O‘zbek orfografiyasining asosiy imlo qoidalari, ya’ni ayrim unli harflar imlosi, ayrim undosh harflar imlosi hamda asos va qo‘shimchalar imlosi shu tamoyilga tayanadi. Masalan: 1) *uzum, uzuk, tugun, turmush* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida *u* kelsa, keyingi bo‘g‘inida *u* unlisi *i* tarzida aytilsa ham, *u* yoziladi. 2) jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar (*b, d, v, g, j(jim), j(juri), g‘, z*) so‘z oxirida jarangsiz (*p, t, f, k, ch, sh, s*) tarzida talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq yoziladi: *maktab, ozod*; 3) *shanba, sunbul, manba, vatanparvar* kabi so‘zlar o‘rtasida kelgan *n* undoshi o‘zidan keyin kelgan *b, n, m* undoshlari bilan yonma-yon kelganda, og‘zaki talaffuzda *shamba, sumbul, mamba* kabi *m* tarzida aytilsa ham, *n* shaklida yoziladi. 4) *do‘st, go‘sht, to‘rt, Toshkent* kabi so‘zlarda so‘z oxirida yonma-yon kelgan undoshlarning oxirgisi talaffuz qilinmaydi, ammo yozuvda saqlanadi; 5) *pastqam* so‘zi o‘rtasida ketma-ket kelgan ikki undoshning (*st*) keyingisi talaffuz qilinmaydi, lekin yozuvda saqlanadi; 6) *–lar* ko‘plik qo‘shimchasi so‘z oxirida kelganda, og‘zaki nutqda *–la* tarzida aytilsa ham, yozuvda *–lar* shaklida yoziladi. 7) *uch, to‘rt* sonlariga *–ta, –ala* qo‘shimchalari qo‘shilganda, *ushta, uchchala, to‘rttala* tarzida aytiladi, lekin yozuv uchun tanlangan varianti yoziladi: *uchta, uchala, to‘rtala* kabi.

Shuningdek, qo‘shimchalarning asosiy qismi morfologik tamoyil asosida yoziladi, ya’ni kelishik qo‘shimchalari og‘zaki nutqda *maktabta, ishtan* tarzida aytilsa ham, *maktabda, ishdan*; fe’llardagi *–di* shaxs-son hamda yaqin o‘tgan zamon qo‘shimchasi *–ti* tarzida (*aytipti, aytti*) aytilsa ham, *aytibdi, aytdi* kabi yoziladi.

Morfologik tamoyil o‘zbek orfografiyasining asosiy va yetakchi tamoyili sanaladi va yozuvda bir xillikni ta’minlaydi.

Demak, morfologik tamoyilga ko‘ra so‘zning tovush tarkibi og‘zaki nutqda qanday aytilishidan qat’i nazar o‘zining morfologik shaklini o‘zgartirmagan holda yoziladi.

Shakliy an'anaviy tamoyil (tarixiy-an'anaviy tamoyil deb ham yuritiladi). Bu tamoyilga ko'ra boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar hozir ham o'tmishdagi shakliga muvofiq yoki o'zi mansub bo'lgan tildagi shaklini o'zbek imlosida ham saqlagan holda yoziladi. Bu tamoyil asosida quyidagi kabi imlo qoidalari ishlab chiqilgan:

1. *Manfaat, matbaa, mutolaa, taajjub, taassurot* kabi arab tilidan o'zlashgan so'zlarda bitta cho'ziq a talaffuz qilinsa ham, arab imlosini saqlagan holda yozuvda ikkita **a** yoziladi.

2. *Mubolag'a, muzokara, munosabat, muhokama* kabi arabcha so'zlarning urg'usiz bo'g'inida **a** og'zaki nutqda qisqa **i** tarzida aytilsa ham, an'anaga ko'ra **a** yoziladi.

3. *Tadbir, tatbiq* so'zlarining birinchi bo'g'ini oxiridagi **d** va **t** undoshlari bir xil **t** tovushi tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda **d** va **t** undosh harflari saqlanadi.

4. *Dorboz, torozibon* kabi so'zlardagi fors-tojik tilidan o'zlashgan *-boz, -bon* qo'shimchalari og'zaki nutqda *-voz, -von* tarzida aytilsa ham, uning an'anaviy shakli yozuvda saqlanadi.

5. An'anaviy tamoyil *taqozo, hokazo* kabi so'zlarning tovush tarkibiga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bu so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi **o** va **a** unlilari ba'zan **a**, ba'zan **o** unlisi kabi talaffuz qilinadi. Tarixan *o (taqozo), a (hokazo)* yozib kelingani uchun hozir ham yoziladi.

6. *Ocherk, tonna* kabi so'zlarining urg'uli bo'g'inida **o** unlisi o'zbek tilidagi **o'** unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi shakliga muvofiq yoziladi.

7. *Direktor, traktor, ekspeditor* kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi **o** unlisi og'zaki nutqda qisqa **i** unlisi tarzida aytilsa ham, rus tilidagi shakli saqlanadi.

8. *Motor, otryad, limonad, konsert, konspekt* kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kelgan **o** unlisi talaffuzda **a** unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi kabi **o** unlisi bilan yoziladi.

9. *Zachyot, syujet, rejissyor, sentyabr* so'zlari og'zaki nutqda *zachot, sujet, rejissor, sentabr* tarzida talaffuz qilinsa ham, kirill alifbosida rus tilidagi shakli saqlanadi.

10. *Rayon, mayor, Nyu-York* so'zlaridagi *yo* harfiy birikmasi og'zaki nutqda *yo'* tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda o'sha tildagi an'ana saqlanadi.

Bu tamoyil mumtoz adabiyot tiliga ham tatbiq etiladi. Qadimda hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi *-r (-ar)* ning *-ur* shakli ishlatilgan. Bu shakl ba'zan hozirgi she'riyatda ham saqlanadi.

*Ba'zan tirnoqlar bezagi uchun
Sahardan shomgacha qilursiz toqat,
Ammo eringizni kutgali nechun
Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat. (A.Oripov)*

Mazkur she'rdagi maqsad ma'nosini ifodalovchi *-gani* qo'shimchasi *-gali* tarzida qo'llangan.

Eski o‘zbek tilida chiqish kelishigi –*din* ba‘zan hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi –*dan* o‘rnida qo‘llaniladi: *Sendin o‘zgani desam...*

So‘roq ma‘nosini ifodalash uchun –*mi* yuklamasi ba‘zan –*mu* tarzida, ya‘ni qadimgi shaklda qo‘llanadi. Masalan:

Demak, bu tamoyilga ko‘ra so‘zlar talaffuzidagi hozirgi holatiga qarab emas, balki an‘ana tusiga kirib qolgan shaklini saqlagan holda yoziladi.

Differensiatsiya tamoyili. Bu tamoyilga ko‘ra, shakli yoki talaffuzi bir xil bo‘lgan so‘zlar yozuvda turli shartli belgilar vositasida (yoki ba‘zan ma‘noga ko‘ra) farqlanadi. Masalan:

1. Urg‘u vositasida farqlash: *atlás* - mato, material. *Átlas* - geografik atlas, xarita. *Akadémik* - ot, *akademík* - sifat (masalan, *akademík litsey*).

2. Unlining cho‘ziq-qisqaligi orqali farqlash (bunday so‘zlarda unlining cho‘ziqligini tutuq belgisi ta‘minlaydi, demak bunday so‘zlarning shakli va ma‘nosi tutuq belgisiga ko‘ra farqlanadi): *tana* – *ta’na*, *surat* – *sur’at*, *qala* – *qal’a* kabi.

3. Boshqa-boshqa tovush ifodalovchi harflar vositasida so‘z ma‘nosini farqlash: *xol* (yuzdagi xol) – *hol* (ahvol, holat).

Grafik tamoyil. Bu tamoyil asosidagi imlo qoidalari tovush bilan uning yozuvdagi shakli o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalashga asoslanadi. Masalan, sirg‘aluvchi *j* tovushi bilan qorishiq portlovchi *j* tovushlari yozuvda bitta shakl – harf bilan berilishi (*jo’ja-gijda* kabi), sayoz til orqa –*ng* tovushini ifodalovchi harflar birikmasi *ng* hamda *n* va *g* tovushlarini ifodalovchi *n* va *g* harflari yonma-yon kelganda ham *n* va *g* talaffuz etilishi grafik tamoyil asosida belgilangan: *ko’ngil* – bitta tovush, *senga* - ikkita tovush.

Fonetik tahlil namunasi:	
1. So‘zda nechta tovush va nechta harf bor?	4. So‘z bo‘g‘inlarga ajratilib, bo‘g‘in turlari aniqlanadi.
2. Unli va undosh tovushlar aniqlanib, ular tavsiflanadi.	5. So‘zning urg‘usi aniqlanadi.
3. Tovush o‘zgarishlari aniqlanadi.	6. So‘z qaysi yozuv qoidasi bo‘yicha yozilgan?

Savol va topshiriqlar

1. Yozuv nima?
2. Kishilik tarixida qanday yozuvlar qo‘llanilgan?
3. O‘zbek xalqi ajdodlari qaysi yozuvlardan foydalangan?
4. Orfografiya nima? Orfografiyaning asosiy imlo qoidalarini ayting.
5. Imlo qoidalari qanday tamoyillar asosida ishlab chiqiladi?
6. Harf va belgining farqini ayting. O‘zbek alifbosida nechta harf va nechta belgi bor?
7. Alfavit nima? Uning ahamiyatini ayting. O‘zbek yozuvining o‘ziga xos xususiyatlarini ayting.
8. Fonetik tamoyil asosida ishlab chiqilgan asosiy imlo qoidalarini va ularni imlo qoidalarining qaysi turiga kirishini ayting.
9. Morfologik tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
10. Shakliy an‘anaviy (tarixiy an‘anaviy) tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
11. Grafik tamoyil nimani belgilab beradi?
12. Bosh harflar qanday hollarda qo‘llanadi?

13. Qo‘shib, ajratib, chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar imlosini tushuntiring.

**Fonetika, grafika va orfografiya bo‘limlari yuzasidan
test savollari:**

1. Fonetika o‘rganadigan masalalar noto‘g‘ri berilgan javobni toping.

A) nutq tovushlarining hosil bo‘lishi B) urg‘u, bo‘g‘in, ohang C) nutq tovushlarining turlari, o‘zgarishi D) nutq tovushlarining so‘z ma’nolarini ajratishdagi roli.

2. Fonetika bo‘limida tovushlarning qaysi tomoni o‘rganiladi?

A) lingvistik xususiyatlari B) ijtimoiy mohiyati C) fizik-akustik xususiyatlari D) ma‘no farqlash xususiyatlari

3. Fonologiya bo‘limida tovushlarning qaysi tomoni o‘rganiladi?

A) qay tarzda hosil bo‘lishi B) sifat tomonlari C) kuchi va cho‘ziqligi D) ma‘no farqlash xususiyatlari.

4. Tovushning xususiyatlari noto‘g‘ri berilgan javobni toping.

A) so‘z va qo‘shimchalar bir-birlaridan tovushlari bilan farq qiladi B) har qanday so‘z tovushlardan tashkil topadi C) nutqning eng kichik bo‘linmas ma’noli qismi D) birchasi to‘g‘ri.

5. Bir xil tovushlarning turlicha joylashuvidan hosil bo‘lgan so‘zlar qaysi javobda berilgan?

A) kitob, maktub, maktab B) suvrat, tasvir, tasavvur, musavvir C) uchqur, chuqur, urchuq D) ahbob, habib, muhib.

6. Bir tovushi bilan farq qiladigan so‘zlar berilgan javobni toping.

A) kalom, qalam, malak V) borlik, borliq, torlik S) jodu, jodi, juda D) sohib, hisob, solib

7. Tovushlarning ortiqligi bilan farqlanadigan so‘zlar berilgan javobni toping.

A) adab, abad, odob V) alam, qalam, a‘lam S) stol, ustol, ustul D) mulk, molik, komil.

8. Fonemaning belgilari noto‘g‘ri berilgan javobni toping.

A) eshitilishi V) aytilishi S) ma‘no farqlashi D) tuzilishi.

9. Fonemaning eng muhim belgisi ko‘rsatilgan javobni toping.

A) ma‘no ajratishi V) akustikasi S) artikulyatsiyasi D) aytilishi va eshitilishi.

10. Nutq tovushlarining balandligi nima bilan ta‘minlanadi?

A) un paychalarining ko‘p tebranishi bilan V) un paychalarining kuchli tebranishi bilan S) un paychalarining past tebranishi bilan D) un paychalarining kam tebranishi bilan

11. Nutq tovushlarining kuchi nimaga bog‘liq?

A) un paychalarining tebranish vaqtiga V) un paychalarining tebranish o‘rniga S) un paychalarining tebranish amplitudasiga D) un paychalarining tebranish joyiga

12. Nutq a‘zolaridan qaysi birining hajmi va shakli nutq tovushlarining tembriga ta‘sir qilmaydi?

A) og‘iz bo‘shlig‘ining shakli V) burun bo‘shlig‘ining hajmi S) bo‘g‘iz bo‘shlig‘ining shakli D) tovush paychalarida shovqinning qanday hosil bo‘lishi.

13. Nutq tovushlarining un paychalari tebranadigan vaqt bilan o‘lchanadigan xususiyati qaysi javobda berilgan?

A) tembri V) cho‘ziqligi S) kuchi D) balandligi

14. Qaysi javobda nutq a‘zosi nomi noto‘g‘ri berilgan?

A) o‘pka, bronxlar, nafas yo‘li V) xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon va nayzasimon tog‘aylar, un paychalari S) burun bo‘shlig‘i, markaziy nerv sistemasi. D) til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar

15. Qaysi nutq a‘zosi tovushni kuchaytirib berishga yordam beradi?

A) til V) un paychalari S) og‘iz bo‘shlig‘i D) bo‘g‘iz bo‘shlig‘i

3. Qaysi nutq a‘zosi ovoz manbasi hisoblanadi?

A) til V) un paychalari S) og‘iz bo‘shlig‘i D) bo‘g‘iz bo‘shlig‘i

16. Qaysi javobda markaziy nerv sistemasining vazifasi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi V) nutq a'zolarining harakatini boshqarib turadi S) markaziy nerv sistemasi nutq a'zolari sirasiga kirmaydi D) A,V

17. Qaysi tovushlar talaffuzida havo oqimining yo'nalishi o'zgaradi

A) y, z, s V) m, n, ng S) v, f, r D) sh, j, g'

18. Fonetik vositalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) urg'u, bo'g'in, tovush V) nutq tovushlari vergul, nuqta S) ohang, nutq a'zolari, pauza D) fonemalar, urg'u, ohang

19. Urg'uning vazifasi noto'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) hozir (ravish) - hozir (sifat) V) qo'llar (a'zo) - qy'llar (fe'l) S) nufyz (obro') - nyfus (aholi) D) ko'zlar(a'zo) - ky'zlar(fe'l)

20. So'z ma'nosini farqlashda urg'uning qaysi turi ishtirok etadi?

A) logik urg'u B) leksik urg'u S) gap urg'usi D) ma'no urg'usi

21. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra b hamda p undosh tovushlariga to'g'ri tavsif berilgan qatorni toping.

A) b - lab undoshi, lab-lab; p - lab undoshi, lab-lab B) b - jarangli undosh; p - jarangsiz undosh C) b jarangli undoshining jarangsiz jufti p undoshidir D) B va C javoblar

22. Hosil bo'lish usuliga ko'ra q hamda g' undosh tovushlariga to'g'ri tavsif berilgan qatorni toping.

A) q - til undoshi, chuqur til orqa; g' - til undoshi, chuqur til orqa B) q va g' - bo'g'iz undoshlari C) g' - jarangli undosh; q - jarangsiz undosh D) q portlovchi undosh; g' - sirg'aluvchi undosh.

23. Qorishiq undosh tovushlar berilgan qatorni toping.

A) m, n, ng B) j, sh, f C) ch, j(dj) D) ng, r, l

24. X undoshiga to'g'ri tavsif berilgan javobni toping.

A) chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush B) bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush C) chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush D) chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush

25. Tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra sh hamda j undosh tovushlariga to'g'ri tavsif berilgan qatorni toping.

A) sh - til undoshi, til oldi; j - til undoshi, til oldi
B) j jarangli undoshning jarangsiz jufti sh undoshi C) A, B
D) sh - jarangsiz undosh; j - jarangli.

26. Javoblarning qaysi birida unli tovushlar ko'rsatilgan?

A) b, f, k, p, t B) a, u, o', i, o, e
C) i, e, a, o, u, o', y D) m, n, ng, r, l

27. Nutq tovushlarining yozuvda ifodalanish usullarini qaysi bo'lim o'rgatadi?

A) orfoepiya B) orfografiya C) grafika D) fonetika

28. Arab yozuvida bitilgan eng eski turkiy yodgorliklar nechanchi asrga taalluqli va ular qaysilar?

A) VII asrlarga, O'rxun-Enasoy yodgorliklari B) XXV asrlarga, A.Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asarlari C) XI - XIII asrlarga, Sakkokiy va Atoiyning ba'zi she'rlari D) XI asrga, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Namangan va Kohira nusxalari, Maxmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari

29. Lotin yozuvi asosidagi harflar tartibidan foydalanib, yurtimning so'zi keltirib chiqarilgan qatorni toping.

A) 23,20,17,19,8,12,13,8,13. B)23,20,17,19,8,12,13,8,29
C) 23,17,19,8,12,13,8,29 D)22,19,17,18,8,12,13,8,29

30. Qaysi qatoridagi so'zlarda «ng» harfi bir tovushni ifodalamoqda?

A) tanga, jang, menga B) zang, ko'ndalang, ingramoq
C) durang, onangiz, nonga D) kongress, menga, singil

31. Baland boloxonali uy. Ushbu birlikda qanday holatda uyning balandligi anglashiladi?

A) *baland* soʻzidan soʻng pauza boʻlsa B) *holoxonali* soʻzidan keyin pauza boʻlsa C) uchala soʻz orasida pauza mavjud boʻlmasa D) har qanday holatda ham uyning balandligi anglashiladi

32. Qaysi qatordagi soʻzlarning ikkinchisi notoʻgʻri yozilgan?

A) *ajdaho* va *ajdarho* B) *bekik* va *berkik* C) *bemaʼnilik* va *bemaʼnolik* D) barcha javoblarda ikkinchi soʻzlar toʻgʻri yozilgan

33. Notoʻgʻri yozilgan soʻzlar qatorini belgilang.

A) *tasavuf, tasaruf, tasavur* B) *xohish, mavhum, aqalli* C) *avf, ayuhannos, moneʼ* D) A, C.

34. Qaysi qatorda tutuq belgisining qoʻllanish oʻrniga koʻra xatoga yoʻl qoʻyilgan?

A) *maʼzur, maʼbud, maʼyus* B) *maʼshum, maʼsuliyat, maʼsud*

C) *maʼmur, maʼsum, maʼshuq* D) *malʼun, minbaʼd*

35. Fonetik prinsip(tamoyil) asosida yozilgan soʻzlarni belgilang.

1) *yasha*; 2) *yayra*; 3) *yashna*; 4) *oʻyna*; 5) *ikkala*; 6) *uchala*;

7) *yamoq*; 8) *yongʻoq*; 9) *yigʻloq*; 10) *oʻyinchoq*.

A) 1,4,5,7,9 B) 1,2,3,5,6 C) 5,7,9 D) 1,5,7,9,10

36. Oʻzak va qoʻshimchalarning yozilishida bir xillikni taʼminlaydigan prinsip (yozuv, tamoyil)ga...

A) *morfologik prinsip deyiladi* B) *fonetik prinsip deyiladi*

C) *anʼanaviy prinsip deyiladi* D) *shakliy prinsip deyiladi*

LEKSIKOLOGIYA

Leksikologiya haqida umumiy maʼlumot

Leksikologiya⁸ oʻzbek tili kursining lugʻat tarkibi (leksikasi)ni oʻrganadigan boʻlimidir.

Tilda mavjud boʻlgan barcha soʻzlar va iboralar yigʻindisi **leksika** deyiladi. Bu soʻzlar shu tilning lugʻat boyligini tashkil etadi.

Leksikologiya tilning lugʻat tarkibini ikki tomonlama: 1) **ichki** va 2) **tashqi** tomondan tekshiradi. Tilning lugʻat tarkibini ichki tomondan oʻrganadigan sohasi **semasiologiya**⁹ deb yuritiladi. Unda soʻz va iboralarning nutqda maʼno ifodalash xususiyati oʻrganiladi. Har qanday soʻz tilda paydo boʻlishi bilan oʻzining shakli va maʼnosiga ega boʻladi, borliqdagi predmet, hodisa, belgi, harakatlarni ifodalaydi. Soʻzdagi maʼno turli taʼsir va talablar asosida taraqqiy etib boradi. Demak, semasiologiya soʻz hamda turgʻun iboralarning maʼno xususiyatlarini tekshiradi.

Leksikologiyaning yana bir sohasi **etimologiya**¹⁰ deb yuritiladi. U tilning lugʻat tarkibidagi soʻz va iboralarning tarixan kelib chiqishini, yasama soʻzlarning va boshqa tillardan kirgan soʻzlarning maʼnoli qismlarini izohlaydi. Demak, etimologiya soʻzning ikki tomonini ham, yaʼni ichki – maʼno tomonini hamda tashqi – tovush tomonini ham tahlil qiladi.

Leksikologiya tashqi tomondan lugʻat tarkibining hozirgi ahvolini, tilning lugʻat tarkibida sodir boʻlayotgan turli oʻzgarishlarni: soʻzlarning qoʻllanish darajasini, baʼzi soʻzlarning eskirib isteʼmoldan chiqib ketishini (*sekretar, oblast* kabi), fan, madaniyat va texnikaning uzluksiz rivojlanishi bilan tilning yangi

⁸ Leksikologiya – grekcha – *lexikos* – «lugʻatga (soʻzga) oid», *logos* – «taʼlimot», «fikr» elementlaridan tuzilgan.

⁹ Semasiologiya – grekcha *semasio* – «belgi», «tamgʻa» va *logos* – «taʼlimot» maʼnolarini bildiradi.

¹⁰ Etimologiya – grekcha *etymon* – «haqiqat», *logos* – «taʼminot» maʼnolarini ifodalaydi.

soʻzlar hisobiga boyishini, baʼzi soʻzlar maʼnosida sodir boʻladigan oʻzgarishlarni (maʼno koʻchish hodisasini) oʻrganadi.

Leksikologiyaning yana bir sohasi **leksikografiya**¹¹ deb yuritiladi. Leksikografiyaning vazifasi tildagi soʻzlarni yozma ravishda toʻplashdir. Leksikografiya soʻz va iboralarni maʼlum bir sohalar boʻyicha toʻplab, muayyan tartibda keltiradi (alifbo tartibiga soladi) va lugʻat kitoblari shaklida nashr etadi.

Leksikologiya tilning fonetika va grammatika boʻlimlari bilan bevosita bogʻliq. Fonetika nutq tovushlarini oʻrganadi. Leksika shu tovushlar asosida shakllanadigan soʻzni, grammatika oʻz qonun-qoidalari asosida soʻzlarni oʻzaro bogʻlaydi va tilni fikr ifodalash uchun tayyorlaydi. Demak, tovush boʻlmasa, soʻz boʻlmaydi, soʻz boʻlmasa grammatikaning ham boʻlishi mumkin emas.

Maʼlumki, soʻzlovchi tilning lugʻat tarkibidan maqsadiga muvofiq tarzda foydalanadi. Bu leksikologiyaning uslubiyat bilan oʻzaro bogʻliq ekanini bildiradi.

Lugʻat tarkibi shu tilda soʻzlashuvchi xalqlarning moddiy va maʼnaviy madaniyat tarixi bilan bogʻliq. Shuning uchun leksikologiya tarix, arxeologiya, adabiyot, falsafa kabi ijtimoiy fanlar bilan ham yaqindan aloqadadir.

21-§. Soʻzning leksik va grammatik maʼnolari

Soʻz nutq tovushlarining muayyan tartibda birikishidan hosil boʻlib, maʼno anglatuvchi til birligidir.

Soʻzning tovush tomoni fonetikada, grammatik tomoni grammatikada, maʼno tomoni leksikologiyada oʻrganiladi. Soʻzning barcha tomonlari nazarda tutilsa, u til va nutqning eng muhim elementlaridan biri ekanligi anglashiladi.

Soʻz til birligi sifatida maʼno ifodalash xususiyatiga ega. Soʻzning maʼnosi narsa-hodisalar bilan bogʻlanishidan kelib chiqadi, bu bevosita bogʻlanish boʻlmay, borliqning inson ongida aks etishi orqali yuzaga keladi. Insonning borliqni anglashi, ongida aks ettirishi soʻz maʼnosida oʻz aksini topadi. Borliqni bilish narsa-hodisa haqida tushunchaga ega boʻlishdir. Tushunchada soʻzning umumiy va muhim belgilari mujassamlashadi. Bu belgilar uni boshqa predmetlardan ajratib turadi.

Inson maʼlum bir predmet, belgi, harakat, holat kabilarning umumiy va oʻziga xos muhim xususiyati asosida ularni boshqa shu kabi predmet, belgi, harakatlardan ajratadi. Demak, soʻz tushunchaning nomi, tushunchaga ega soʻz maʼnosining asosini tashkil etadi. Soʻz asosida yotgan tushuncha soʻzning leksik maʼnosi sanaladi. Demak, soʻzning leksik maʼnosi uning material maʼnosi boʻlib, soʻz ifoda etgan aniq bir predmet belgi, harakat, miqdor kabilardan iborat boʻladi: *anor*, *daraxt* – predmet tushunchasini, *ekdi* - harakat, *qizil* – belgi, *oʻnta*, *koʻp* - miqdorga koʻra belgi, *men*, *sen* – shaxs tushunchasini ifodalaydi.

Demak, ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish soʻz turkumlari lugʻaviy maʼno bildiradi. Soʻzlarning lugʻaviy maʼnodan tashqari, grammatik maʼnolarga ham ega boʻladi. Soʻzning lugʻaviy maʼnosi leksikologiyada oʻrganiladi. Grammatik maʼno

¹¹ Leksikografiya – grekcha *lexikos* – «lugʻat» va *grapho* – «yozaman» degan maʼnoni bildiradi.

grammatikada o'rganiladi. Yordamchi so'z turkumlari lug'aviy ma'no ifodalaymaydi, ular grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

So'z lug'aviy ma'no-tushunchadan tashqari, insonning narsa va hodisaga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini ham bildiradi. Insonning ijobiy va salbiy munosabati so'z hissiy-ta'siriy bo'yog'i deb yuritiladi. Masalan, *yuz, aft, bashara, turq, chehra, oraz, chiroy* kabi sinonimlar qatorida *yuz* so'zi odam a'zosining biri haqidagi tushunchani anglatadi, bu ijobiy yoki salbiy ma'no ottenkasiga ega bo'lmagan betaraf so'z. *Aft, bashara, turq* so'zlarida so'zlovchining asosiy-bosh tushunchaga qo'shimcha salbiy munosabatini ifoda etuvchi ma'no ham mavjud. *CHiroy, chehra, oraz, ruxsor* so'zlariga so'zlovchining ijobiy (hayrixoxligi, yoqimli, go'zal kabi ma'no) munosabati ham yuklatilgan. Bunday qo'shimcha ma'no ottenkalar kishilarning hissiyotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. So'zdagi salbiy hissiy-ta'siriy bo'yoq muayyan matn tarkibida oydinlashadi. *Bet* so'zi «*Beti qursin*» gapida salbiy ma'no, «*Beti-betiga tushsa nima deydi*» gapida bu salbiy ma'no kuchsizlanadi. *Kitobning beti* birikmasidagi *beti* so'zida salbiy ma'no umuman yo'q.

Hissiy-ta'siriy bo'yoq tildagi hamma so'zlarda bo'lavermaydi. Masalan, ilm-fan, texnikaga oid atamalarda hissiy-ta'siriy bo'yoq bo'lmaydi.

So'zlar og'zaki va yozma nutqda qo'llanishiga ko'ra ham farq qiladi. *Aft, bashara, turq* so'zlari ko'proq og'zaki nutqda, *chiroy, oraz, ruxsor* ko'proq yozma nutqda, *yuz* so'zi har ikkala nutqda qo'llanadi. Ko'rinib turibdiki, so'zlar biror nutq uslubida qo'llanishga moslashgan bo'ladi, bu ulardagi uslubiy belgi deb yuritiladi. Uslubiy belgi-so'zning ma'lum uslubga mansubligini ko'rsatuvchi belgi. Masalan, *metro* – so'zlashuv uslubida *metropoliten* kitobiy uslubda qo'llaniladi.

Leksik ma'no deganda so'z ifoda etadigan tushuncha, hissiy-ta'siriy bo'yoq va uslubiy belgilar yig'indisi tushuniladi. Demak, tushuncha, hissiy-ta'siriy bo'yoq, uslubiy belgi leksik ma'no komponentlari deyiladi.

3 -§. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar

Tildagi so'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir ma'noni ifoda etuvchi o'zlar **bir ma'noli so'zlar**¹² deyiladi. Masalan, *kompas, marmar, morfologiya, taassurot, xulosa, gigiena, g'oya, mimika, qobiliyat, fonema* va b.

So'zlar ba'zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma'noni, gap tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda boshqa bir ma'no anglatishi mumkin. Masalan, *pasaymoq* so'zi gapdan tashqarida olinganda erga tomon yaqinlashmoq ma'nosini bildiradi. Gap tarkibida esa *bilimi pasaydi, ko'rish sezgisi pasaydi* kabi boshqa ma'nolarni bildiradi.

Bu so'zlar birdan ortiq leksik ma'no ifodalayotgani uchun ko'p ma'noli so'z sanaladi.

¹² Bir ma'nolilik – monosemantizm (gr. monos – «bir», sementikos – «belgi», «ma'no») deb yuritiladi.

Demak, nutqdan tashqarida bir ma'no, nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda yana boshqa ma'no ifodalovchi so'zlar **ko'p ma'noli so'zlar**¹³ deyiladi.

Ko'p ma'nolilik til taraqqiyoti davomida kelib chiqadi. Tildagi har qanday so'z, avvalo biror narsa yoki hodisani atash tufayli paydo bo'ladi, ya'ni bir ma'nonigina ifodalaydi. Keyinchalik esa shu so'z taraqqiyoti ma'no tufayli ko'p ma'noli so'zga aylanishi mumkin. Ko'p ma'noli so'zlarda 2 xil ma'no farqlanadi: 1) bosh (asl, o'z) ma'no; 2) yasama (ko'chma) ma'no. Bosh ma'no so'zning nutqdan tashqarida ifodalagan ma'nosi bo'lib, u boshqa ma'nolarning kelib chiqishiga asos bo'ladi. Yasama ma'no bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga keladi. Masalan, *og'iz* so'zining bosh ma'nosi insonning tana a'zosi, *g'orning og'zi*, *qopning og'zi* yasama ma'no. So'zning yasama ma'nosi gapdagi boshqa so'zlar bilan bog'liq holda anglashiladi.

Ma'no taraqqiyoti qonunlariga ma'no ko'chishi, ma'no kengayishi, ma'no torayishi hodisalari kiradi.

So'z ma'nosining ko'chishi besh xil bo'lib, ular quyidagilar: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) kinoya; 5) vazifadoshlik yo'li bilan ko'chish.

Metafora (grekcha metaphora – «ko'chirma») narsa va hodisalar orasidagi o'xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo'lgan so'zni ikkinchisini ifodalash uchun qo'llashdir, metaforada shakliy o'xshashlik: belgi-xususiyat, harakat-holat nazarda tutiladi. SHu tufayli ot, sifat va fe'l turkumlarida metafora yo'li bilan ko'chish hodisasi mavjud. Masalan, tish, engil, pasaydi so'zlarining ma'nosini kuzating: Tish: 1) odamning tishi (bosh ma'no);

2) arraning tishi (yasama ma'no). Yengil: 1) yengil eshik (bosh ma'no); 2) *yengil ta'zim* (yasama ma'no). *Pasaydi*: 1) samolyot pasaydi (bosh ma'no); 2) bilimi pasaydi (yasama ma'no).

Metaforaga quyidagilar asos bo'ladi:

1) odamning tana a'zolari nomlari: bet, yuz, burun, quloq, ko'z, lab, tish, elka, oyoq, og'iz kabi;

2) kiyimlar va ularning biror qismini nomlari: etak, yoqa kabi;

3) hayvon, parranda va hasharotlarning biror a'zosining nomi: qanot, dum, tumshuq;

4) o'simlik va uning bir qismi nomi: tomir, ildiz;

5) qurol nomi: nayza, pichoq;

6) turli belgi, harakat nomlari bo'lgan so'zlar: baland, past, olmoq, chaqmoq kabi.

Metonimiya – narsa, belgi va harakatlar o'rtasidagi aloqadorlik asosida ma'no ko'chish hodisasi. Bu aloqadorlik o'rin va vaqt jihatdan bo'ladi. Metonimiyada bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida doimiy real aloqa mavjud bo'ladi. Quyidagi gaplardagi so'zlarning ma'no munosabatini kuzating:

Sinekdoxa. Narsa yoki shaxs qismati nomini aytish bilan o'zini (butunni) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga asoslangan ma'no

¹³ Ko'p ma'nolilik – «polisemantizm» (gr. poli – «ko'p», sementikos – «belgi», «ma'no») deb yuritiladi.

ko'chish hodisasidir. Masalan: Besh qo'l barobar emas (butun nomi bilan qismni anglash). Dunyoda o'zimizdan qoladigan tuyog'imiz... (A.Qodiriy)

Sinekdoxa qism nomini butunni ifodalash uchun (oqsoqol, oqsoch, jigar, tirnoq, tomir), kiyim nomini odam yoki boshqa biror tirik mavjudotni ifodalash uchun (qizilishton), qurol nomini shu qurolni ishlatadigan kishini ifodalash uchun (nayza, qilich, tig' , ketmon – «jangchi» ma'nosida), hayvonlarning biror a'zosi nomini o'sha hayvonni ifodalash uchun (bosh, tuyuq), meva nomini shu mevani beradigan daraxtni anglatish uchun (yong' oq, olma, nok, uzum) qo'llash yoki, aksincha, butun nomini qismni anglatish uchun (qo'l so'zini «barmoq» ma'nosida) qo'llash kabi miqdor munosabatlariga asoslanadi.

Kinoya – so'zlarning aks ma'noda qo'llash hodisasi. Bunday ko'chishlar yozuvda qo'shtirnoqqa olinadi. Masalan: *Shunaqa «do'stlar»ning kamroq bo'lgani ma'qul.*

Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi – narsalarning bajaradigan vazifasining o'xshashligi asosida ma'no ko'chish hodisasidir. Ma'noning bunday ko'chishi metaforadagi kabi o'xshashlikka asoslanadi. Leksik metaforada predmetning sezgi organlariga ta'sir qiladigan material tomoniga – rangi, shakli, harakati kabi belgilariga asoslaniladi. Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishida predmetning hayotda bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi. Masalan, o'q, siyoh, qalam kabi so'zlarning ma'nolaridagi ko'chish ular dastlab ifodalagan tushunchalar bilan hozirgilari orasida bajaradigan vazifa jihatdan o'xshashlikka asoslangan.

Ilgari parranda patidan yoki qamishdan yasalgan yozuv qurolini qalam deb ataganlar. Grafitli yozuv quroli paydo bo'lgandan so'ng, uni karandash qalam deb, keyin esa to'g' ridan to'g' ri *qalam* deb atay berganlar.

O'q - yoy o'qi; o'q - miltiq o'qi (bular shakl jihatdan emas, balki vazifasi jihatdan o'xshashdir.

Siyoh so'zi tojik tilida «qora» degan ma'noni bildiradi. YOzuv quroli sifatida ishlatilgan suyuqlik qora rangda bo'lgani uchun siyoh deb nomlangan. Hozirgi kunda yozuv uchun qo'llanadigan turli rangdagi suyuqliklar (qizil, ko'k, yashil) ham vazifasining o'xshashligi asosida siyoh deb atalmoqda: qizil siyoh (asl ma'nosi qizil qora), ko'k siyoh (asl ma'nosi ko'k qora).

Metafora va metonimiya mahsuldor ko'chish yo'li, sinekdoxa, kinoya, vazifadosh asosida ma'no ko'chishi kam mahsul hodisalardir.

4 -§. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari

Tildagi so'zlar shakl va ma'no xususiyatlariga ko'ra o'zaro turli munosabatda bo'ladi. So'zlarning ayrimlari shakl jihatdan, ayrimlari ma'no jihatdan, ba'zilari esa talaffuzi jihatidan o'xshash bo'ladi. SHu xususiyatlariga ko'ra so'zlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1.Omonim so'zlar. SHakli (yozilishi va aytilishi) bir xil, ma'nosi har xil so'zlar omonimlar deyiladi. Omonim so'zi grekcha «bir xil» degan ma'noni ifodalaydi. Masalan: ot - hayvon, ot - uloqtirmoq, ot - ism; og'iz - insonning tana a'zosi, og'iz - yangi tuqqan sigir sutidan tayyorlanadigan taom; chang - to'zon,

gard, g'ubor, chang – to'rtburchak, yassi quti shaklidagi torlar tortilgan qo'sh cho'p bilan chalinadigan musiqa asbobi; qovoq - insonning tana a'zosi, ot, qovoq - poliz ekini, ot.

Omonim so'zlar turkumiga (yuz – insonning tana a'zosi, ot; yuz - miqdor bildiruvchi son) oid bo'ladi.

Omonimlar 2 turga ajratiladi: 1) lug'aviy omonimlar; 2) grammatik omonimlar. Lug'aviy omonimlar:

1) so'zlar doirasida; 2) iboralar doirasida bo'ladi.

1.Omonimlik hodisasi so'z bilan so'z doirasida bo'lsa, leksik omonim deyiladi. Masalan: kul (ot) – biror narsaning yonishi natijasida hosil bo'ladigan kukun. U oshxona oldida turgan kul chelakni olishga buyurdi. (P.Tursun) Kul (fe'l) - zavq shovqini, xursandchilik bildiruvchi tovushlar chiqarmoq. Nega Aziz bu qadar shod: YUzi kuladi, ko'zlari yonadi? (H.G'ulom)

2.Omonimlik hodisasi ibora bilan ibora doirasida bo'lsa, frazeologik omonim deyiladi. Masalan: bosh ko'tarmoq - qarshi qo'zg'olon ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq - tuzalmoq, sog'aya boshlamoq.

Grammatik omonimlar qo'shimchalar doirasidagi shakliy tenglikdir. SHakli bir xil, ma'nosi har xil qo'shimchalarga grammatik omonimlar deyiladi. Masalan: -im qo'shimchasi bilim – ot yasovchi qo'shimcha, fe'ldan ot yasaydi. Kitobim – I shaxs, birlik qo'shimchasi; -ki (tepki) – ot yasovchi qo'shimcha, -ki (kechki) – sifat yasovchi qo'shimcha.

Ba'zi omonim so'zlar qo'shimchalar olganda ham omonimlik shaklini saqlab qoladi. Masalan, ter+im, ter+im. Birinchi so'z –ter ot turkumiga oid so'z bo'lib, I shaxs, birlik egalik qo'shimchasini olgan, ikkinchisi fe'l turkumiga oid so'z ot yasovchi –im qo'shimchasini olgan. Bu so'zlar bir xil shaklini saqlab qolgan.

Qo'shimchalar qo'shilganda ham omonimlik shaklini saqlab qoladigan so'zlar omoformalar deyiladi. Omoformalar bir xil so'z turkumiga ham, boshqa-boshqa so'z turkumiga ham oid bo'ladi. Masalan, 1) bog' - mevazor (ot); 2) bog' - bog'ich (ot). Ularning qo'shimcha olgandan keyingi grammatik shakllari:

1) bog' ni, bog' ning, bog' dan;

2) bog' ni, bog' ning, bog' dan.

Qiyoslang: oq (sifat)+ar – fe'l yasovchi qo'shimcha;

oq (fe'l)+ar – sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimcha.

Omonimlar badiiy adabiyotda tuyuq janrida, og'zaki so'zlashuv nutqida so'z o'yinlari, askiyalarda qo'llanadi.

Omonimlar ko'p ma'noli so'zlar ma'nosidagi bog'lanishning yo'qolishi, so'zlardagi fonetik o'zgarishlar va boshqa tildan so'z o'zlashishi jarayonida yuzaga keladi. Masalan: 1) bog' (mevazor) tojik tilidan kirgan, bog' (bog'ich) o'zbekcha so'z; 2) dam – nafas (o'z ma'nosi), dam - bosqon (ko'chma ma'no), dam - xordiq (ko'chma ma'no). 2-misolda polisemiya hodisasi yo'qolib, omonimiya hodisasi yuzaga keldi.

Sinonim so'zlar. SHakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar sinonim deyiladi. Sinonim so'zlar bir predmet hodisaning (taom, ovqat; baxt, iqbol, tole, saodat), belgining (sezgir, ziyrak, tuyg'un; aniq, ochiq-ravshan, yorqin,

oydin, ayon), harakatning (yordamlashmoq, ko'maklashmoq) bir necha nomi. Sinonim so'zi grekcha «bir nomli» degan ma'noni ifodalaydi. SHuning uchun sinonimik hodisa bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi.

Sinonim so'zlar aynan bir predmet, belgi, harakat tushunchasini ham, qo'shimcha ma'no ottenkalari bilan farqlanadigan predmet, belgi, harakat tushunchalarini ham anglatadi. Masalan, tilshunoslik – lingvistika sinonimlarining ma'nosi aynan bir xil. Yig'lamoq, yig'lamsiramoq sinonimlarining ma'nosida farq mavjud.

Bir ma'no atrofida birlashgan so'zlar guruhi sinonimik qatorni tashkil etadi. Masalan: odam – kishi – inson – bashar; davolamoq, tuzatmoq; yorug' - nurli - charog' on, yorqin – munavvar.

Sinonimik qatorni tuzishda ma'nodosh so'zlar uchu nasos qilib olingan so'z bosh so'z (dominanta) deyiladi. Sinonimik guruhdagi ma'noli, barcha nutq uslublarida qo'llanadigan, adabiy tilga mansub, ma'no doirasi keng bo'lgan so'z bosh so'z sifatida tanlab olinadi: botir - qahramon – dov yurak - qo'rqmas – jasur.

Sinonimik qatorni belgilashda so'zlarning yagona umumiy belgisiga asoslanadi. Masalan: uy va bino so'zlari bir-biriga yaqin ma'noli bo'lsa ham, uy so'ziga xos asosiy tushuncha bilan (odam yashaydigan joy) «bino» so'zi ifodalaydigan tushuncha (imorat) o'rtasida umumiylik yo'qligi uchun ular sinonim bo'la olmaydi.

Jins va tur munosabatidagi (daraxt – jins, olma – tur), predmet yoki harakatning bir tomonini obrazli qilib, bo'rttirib ifodalaydigan so'zlar o'sha predmet yoki harakat tushunchasiga kirishi mumkin bo'lgan tushunchani ifodalasa ham, predmet yoki harakatni to'laligicha anglatmaganligi, obrazlilik asosiy tushunchaga nisbatan kuchli bo'lsa (chuldiramoq, ping'illamoq, pichirlamoq, shipshitmoq, to'ng'illamoq, vag'illamoq so'zlari gapirmoq so'ziga sinonim bo'lmaydi), mohiyat jihatdan bir-biridan keskin farq qiladigan sotsial tuzumlarga xos bo'lgan tushunchalarni ifodalasa (mirshab – militsioner) ular o'zaro sinonim bo'la olmaydi¹⁴.

Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud: 1) lug'aviy sinonimlar; 2) grammatik sinonimlar.

1. Lug'aviy sinonimlar: 1) so'zlar doirasida (bezak, ziynat, hasham); 2) so'z va iboralar doirasida (ayyor - mug'ambir – pixini yorgan, ilonning yog'ini yalagan); 3) iboralar doirasida (og'ziga talqon solmoq - og'zida qatiq ivitmoq) bo'ladi.

2. Grammatik sinonimlar qo'shimchalar doirasida bo'ladi.

Sinonim so'zlar o'zbek tilining ichki taraqqiyoti asosida (kun - quyosh, ish – yumush, qari – keksa) va boshqa tildan so'z olish natijasida (shox (o'zbekcha) – muguz (tojikcha), orzu (tojikcha) – tilak (o'zbekcha), buloq (o'zbekcha) – chashma (tojikcha), adabiy tilga xos so'z bilan shevaga xos so'zlar (go'zal – suluv – ko'xlik – xushro'y) yoki shevaga oid bir necha so'zlar doirasida (chelak – satil - paqir) yuzaga keladi.

¹⁴ M.Mirzayev va b. O'zbek tili, T.O'qituvchi, 1978.

5 -§. O‘zbek tilining lug‘at tarkibi

Hozirgi o‘zbek tilining lug‘at tarkibi o‘zbek tilining butun tarkibiy taraqqiyoti davomida shakllangan. Tildagi so‘zlarning paydo bo‘lish davri va kelib chiqish manbalari ham har xil. So‘zlarning paydo bo‘lish davri va kelib chiqish manbaidan qat’i nazar, o‘zbek millatiga mansub kishilar tilida qo‘llanadigan barcha so‘zlar o‘zbek tilining lug‘at boyligini tashkil etadi. Demak, tildagi barcha so‘zlar yig‘indisi lug‘at tarkibini tashkil etadi. Tilning lug‘at tarkibi qanchalik boy bo‘lsa, unda fikrni mukammal ifodalash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Tilning lug‘at tarkibi jamiyat taraqqiyoti jarayonida boyib boradi va o‘zgarib turadi, ya’ni ayrim so‘zlar ehtiyojning yo‘qligi yoki uning o‘rnini bosadigan so‘zning yuzaga kelishi bilan iste’moldan chiqib ketadi, yangi tushunchalarni ifoda etadigan so‘zlar kirib keladi.

Hozirgi o‘zbek tilining lug‘at tarkibini quyidagi turkum so‘zlar tashkil etadi:

1. Kundalik turmushda ishlatiladigan hamma uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlar:

1) oziq-ovqatga doir narsalarning nomlari: *yog‘ , guruch, mosh, loviya, piyoz, kartoshka, sabzi, polov, arpa, bug‘ doy, un, shakar, non;*

2) narsa-buyum, qurol nomlari: *bolta, tesha, randa, arra, kosa, tovoq, taroq, daftar, ruchka, kitob, qalam, mashina, samolyot, poezd, elak, chakich, belkurak, ketmon, qamchi, pichoq;*

3) tabiiy borliqqa oid nomlar: *quyosh, er, oy, yulduz, osmon, chaqmoq, zilzila, shamol, qor, yomg‘ir, bulut, tuman, o‘t, suv, daryo, tog‘ , tosh, daraxt, kecha, kunduz, tun, yorug‘lik, oy, yil;*

4) tirik mavjudot va ularning tana a‘zolari nomlari: *kishi, odam, er, xotin, chol, kampir, qari, yosh, dehqon, bog‘ bon, shifokor, o‘qituvchi, do‘st, dushman, mehnatkash, qush, hayvon, buzoq, mol, sigir, ot, mushuk, ilon, toshbaqa, chivin, qo‘l, oyoq, bosh, tish jigar, qorin, ichak, kurak, burun, lab, ko‘z;*

5) qarindoshlikka oid nomlar: *ota, ona, buva, buvi, momo, amaki, amma, xolla, tog‘a, aka, opa, singil, uka, o‘g‘il, qiz;*

6) jamiyatga oid nomlar: *vatan, mamlakat, yurt, xalq, armiya, davlat, tuzum, jamiyat, tashkilot, hokimiyat, sud, prokrotura;*

7) harakat bildiruvchi so‘zlar: *yurmoq, turmoq, o‘tirmoq, yotmoq, uxlamoq, uyg‘ onmoq, yuvmoq, bormoq, kelmoq, kulmoq, yig‘lamoq, gapirmoq, o‘smoq;*

8) miqdor bildiruvchi so‘zlar: *bir, ikki, uch, to‘rtinchi, oltinchi, o‘ninchi, ming, o‘n ming, ko‘p, oz, picha, sal;*

9) olmoshlar: *men, sen, biz, siz, u, ular, ana, manna shu, o‘sha, ana shu, kim, nima, qaysi, qachon, qaer, hamma, barcha;*

10) holat va belgi nomlari: *yaxshi, yomon, kuchli, qo‘rqoq, to‘g‘ ri, egri, baland, past, katta, kichik, achchiq, chuchuk, shirin, oq, qora, qizil, sho‘x, eski, yangi, o‘tkir, o‘tmas, asta, sekin, tez;*

2. Jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda tilda paydo bo‘layotgan yangi so‘zlar, iboralar: *bakalavr, magistr, magistratura, menejment, broker, fermer.*

3. Iste’moldan chiqib ketgan va ketayotgan so‘zlar: *pud, botmon, mingboshi, jallod, sekretar, revolyutsiya, oblastь, rayon, ministr.*

4. Kasb-hunarga doir soʻzlar: agʻ darma chok, bigiz, sakmanchi (qoʻzilarga qarovchi chorvador), dehqon (kulolchilikda ishlatiladigan tosh oʻgʻircha), randa, oxorcha, tahlilchi va boshqalar.

5. Fan-texnikaga doir atamalar: ega, kesim, gap, soʻz turkumi, ot, tovush, atom, zaryad, chumchuq, hujayra, qoʻshuv, oluv, boʻluv, koʻpaytiruv, fizika, professor, dotsent, xirurg.

6. His-tuygʻularni ifodalaydigan soʻzlar: ura, yasha, hormang, rahmat, barakalla, oh, voh, uh, ehhe, likillamoq, jimir-jimir.

7. SHEvaga oid soʻzlar: satil (chelak), soʻri (ishkom, supa), kura (xoʻtik), et (goʻsht), sipsa (supurgi), kosa (piyola).

8. Jargon va argolar: oftobi olam, olam pano, loy, yakan (pul), danab (xotin), kalmata (soʻz), otar (toʻy), qiviz (non) va boshqalar.

6 -§. Oʻzbek tili leksikasida oʻz va oʻzlashgan qatlam

Maʼlumki, oʻzbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada boʻlib kelgan. Bu aloqalar oʻzaro aloqada boʻlgan xalqning tiliga maʼlum darajada oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Oʻzaro taʼsir natijasida tilning barcha boʻlimlarida: fonetika, leksika, grammatika kabilarda oʻzgarishlar yuz beradi. Tildagi oʻzgarish va rivojlanish tilning leksikasida kuchli boʻladi.

Oʻzbek xalqi qardosh boʻlmagan tojiklar bilan qadimdan aloqada boʻldi. SHuning tarixiy sabablar bilan bogʻliq holda arab, ruslar bilan aloqada boʻldi. Hozirgi davrga kelib bir qancha xorijiy davlatlar bilan doʻstona aloqalar oʻrnatgan. Bular oʻzbek tili leksikasiga koʻplab soʻzlarning oʻzlashishiga sabab boʻlmoqda.

Hozirgi oʻzbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. Oʻz qatlam.

2. Oʻzlashgan qatlam.

Oʻz qatlam. Oʻz qatlamga umumturkiy soʻzlar va oʻzbekcha soʻzlar kiradi.

1. Umuturkiy soʻzlar. Koʻpchilik turkum xalqlar tilida qoʻllanadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiy boʻlgan soʻzlar umuturkiy soʻzlar deyiladi. Bu soʻzlar turkiy qabilalarning goh qoʻshilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub soʻzlardir. Oltoy tillar oilasining turkiy guruhida (turkumida) 24 ta til: oʻzbek, qozoq, uygʻur, boshqird, qirgʻiz, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, noʻgʻ oy, tatar, chuvash, yoqut, tuva, shor, qoraim, qoʻmiq, gagauz, xakas, balqar, oyrot, karagas, turk, qorachoy, oltoy turklari tillari mavjud.

Umuturkiy soʻzlar hozirgi oʻzbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi.

Umuturkiy soʻzlar turli sohalarga oid boʻlib, ularga narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat, his-tuygʻu bildiradigan soʻzlar kiradi: kishi, oyoq, qoʻl, bosh, koʻz, qosh, qizil, koʻk, yashil, oq, bir, ikki, uch, toʻrt, oʻn, kel, tur, yot, oʻtir, ol, ur, yaxshi, yomon, sen, u, biz, siz, ular, asta, sekin, tez kabi.

2. Oʻzbekcha soʻzlar. Oʻzbek tili sharoitida oʻzbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan soʻzlar oʻzbekcha soʻzlar deyiladi. Oʻzbekcha

soʻzlar oʻzbek tilining oʻz ichki imkoniyatlari asosida, oʻz qonuniyatlari asosida yaratiladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Asli oʻzbekcha soʻzlarga shu tildagi soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida hosil qilingan soʻzlar: ter+im+chi, bir+lash+ma, qoʻl+lan+ma, oʻt+kaz+gich, tur+gʻun, bola+larcha.

2. Boshqa tildan oʻzlashgan soʻzlarga oʻzbek tilidagi yasovchi qoʻshimchalarni qoʻshish bilan yasalgan soʻzlar: a) tojikcha soʻzlardan yasalgan soʻzlar: mard+lik, jang+chi, doʻst+lik, pul+siz; b) arabcha soʻzlardan yasalgan soʻzlar: rahbar+lik, qimmat+li, shifo+la+moq, nifoq+chi, nomus+li; v) ruscha-internotsional soʻzlardan yasalgan soʻzlar: sport+chi, razvedka+chi, beton+la+moq, ekskavator+chi.

3. Boshqa tillardan kirgan yasovchi qoʻshimchalar yordamida oʻz va oʻzlashma soʻzlardan hosil qilingan soʻzlar: til+shunos, mehnat+kash, chizma+kash, kitob+xon, ilm+iy, vagon+soz va boshqalar.

Oʻzlashgan qatlam. Hozirgi oʻzbek tilining lugʻat tarkibiga tarixiy sabablarga koʻra boshqa tillardan koʻplab soʻzlar kirib kelgan. Oʻzbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlar oʻzlashgan soʻzlar (olinma soʻzlar) deb yuritiladi. Oʻzlashgan soʻzlar uygʻur, tojik, arab, rus, nemis, frantsuz, ispan, ingliz va boshqa tillarga oid.

Oʻzbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlarni quyidagi qatlamlarga boʻlish mumkin:

1. Tojikcha soʻzlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, mirob, dasta, bemor, gʻisht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, mard, kam, chala, balki, agar, ham kabi.

2. Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar. Arabcha soʻzlar oʻzbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi bilan bogʻliq. Kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, maʼno, ilhom, kasb, qassob, sanʼat, asbob, bino, imorat, ovqat, gʻalla, fil, parranda, hasharot, inson, odam, oila, amma, xolla, dimogʻ, idora kabi.

3. Ruscha-internotsional soʻzlar. XIX asrning 2-yarmidan Markaziy Osiyo, jumladan, Oʻzbekiston chor Rossiyasining mustamlaka mamlakatiga aylandi. Rus tilining oʻzbek tiliga taʼsiri shu davrdan boshlandi. Rus tilidan, rus tili orqali boshqa tillardan koʻplab soʻzlar oʻzlashdi.

Oʻzbek tiliga rus tilidan va rus tili orqali Evropa xalqlari tillaridan (frantsuz, italyan, nemis, ingliz, ispan) soʻz kirishi ikki tarixiy davrni oʻz ichiga oladi:

1. XIX asrning 2-yarmidan XX asrning boshlarigacha boʻlgan davr.

2. 1917 yildan keyingi davr.

Rus tilidan soʻzlar ikki yoʻl bilan oʻzlashdi:

1. Rus ishchilari, ustalari, rus askarlari, chinovniklarining mahalliy aholi bilan turli xildagi aloqalari bilan ogʻzaki nutq orqali: chilon (chlen), adbakat (advokat), apisor (ofitser), iskalat (sklad), axran (oxrana), choynay (choynak) kabi.

2. Matbuot orqali: ayrapilan (aeroplan), pabrik (fabrika), poʻshta (pochta), zovut (zavod), uez (uezd), kridit (kredit), banka (bank), veksil (veksil) kabi.

Rus tili orqali kirgan soʻzlarning baʼzilari dunyodagi koʻpgina xalqlarning tilida tovush tomoni deyarli oʻzgartirilmay ishlatiladigan xalqaro soʻzlardir. Ular,

odatda, internotsional (baynalminal) soʻzlar deb yuritiladi. Oʻzbek tiliga oʻzlashgan internotsional soʻzlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansub:

1. Rus tiliga: sudʼya, samolyot, stol, stul, tok, ruchka kabi.
2. Lotin tiliga: reviziya, nota, metall, refleks, rezina, general, kapital, kanal, plan, direktor, radio kabi.
3. Grek tiliga: grammatika, pedagog, talant, tezis, kafedra, poeziya, poema, metr, neft, taktika, parallel kabi.
4. Nemis tiliga: raketa, kran, shaxta, rolik, politsiya kabi.
5. Ingliz tiliga: chempion, futbol, dollar kabi.
6. Frantsuz tiliga: roman, palto, serjant, ministr, bank kabi.

Rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan soʻzlar ijtimoiy-siyosiy hayotga, sanoat, qishloq xoʻjaligi, fan-texnika, madaniy-oqartuv, sanʼat, savdo, sport, harbiy sohaga doir.

Hozirgi Evropa tillaridan soʻzlar bevosita aloqalar orqali oʻzlashmoqda. Masalan, oʻz navbatida soʻzlar oʻzbek tilidan rus tiliga ham oʻzlashmoqda: oʻrik, anjir, somsa (uryuk, injir, samsa) kabi.

Xalqlar orasidagi turli xildagi aloqa tillarning lugʻat tarkibining boyib borishiga xizmat qiladi.

7 -§. Oʻzbek tili leksikasining ishlatilish doirasi

Oʻzbek tili leksikasi shu tilda gaplashuvchi kishilar tomonidan bir xilda qoʻllanmaydi. Ayrim soʻz keng jamoatchilik tilida qoʻllansa, baʼzilari esa maʼlum territoriyada yashovchi yoki maʼlum kasb-hunar bilan shugʻullanuvchi kishilar nutqida ishlatiladi. SHunga koʻra oʻzbek tilidagi soʻzlar ikki guruhga ajratiladi:

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika.
2. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibining asosiy qismini ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika tashkil etadi.

Oʻzbek tilida gaplashuvchi barcha kishilar tilida qoʻllanadigan soʻzlar ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika deyiladi. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikadan yashash joyi, kasbi, hunari, jinsi, madaniy saviyasidan qatʼiy nazar barcha oʻzbek millatiga mansub kishilar foydalanadi, shunga koʻra ular umumisteʼmoldagi soʻzlar deb ham yuritiladi. Umumisteʼmoldagi soʻzlarning maʼnosi hammaga tushunarli boʻladi. Bu soʻzlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, barcha soʻz turkumlariga oid boʻladi. Umumisteʼmoldagi soʻzlarning koʻp qismini umumturkiy soʻzlar va oʻzbekcha soʻzlar tashkil etadi.

Boshqa tillardan kirgan soʻzlar ham oʻzbek xalqining barchasiga tushunarli boʻlsa, ular ishlatilish doirasiga koʻra chegaralanmaydi. Masalan, arab tilidan oʻzlashgan shamol, soat, inoq, dohiy, magʻ rur, hafa, maqol, hayot, millat, hikoya soʻzlari; tojik tilidan oʻzlashgan goʻsht, non, sozanda, suhbat, sabzavot, ombur kabi soʻzlar; rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan traktor, kino, teatr, tsirk, kartoshka, fabrika, zavod kabi soʻzlar umumxalq tilida qoʻllanadi.

Demak, ishlatilish doirasi chegaralanmagan soʻzlar oʻz qatlamga ham, oʻzlashgan qatlamga ham oid boʻlishi mumkin.

Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika. Tildagi soʻzlarning umumxalq tomonidan ishlatilmaydigan qismi ishlatilish doirasi chegaralangan leksika deyiladi. Bunday soʻzlarning ishlatilishi maʼlum sabablarga koʻra chegaralangan boʻladi. Ishlatilish darajasi chegaralangan leksikaga dialektal soʻzlar, atamalar, jargon va argolar kiradi.

Dialektal leksika ishlatilish territoriyaga koʻra chegaralangan soʻzlar boʻlib, ular adabiy tilga kirmaydi. Maʼlum bir xududdagi kishilar nutqida qoʻllanib, ulargagina tushunarli boʻlgan soʻzlar sheva soʻzlari deyiladi. Sheva soʻzlari yigʻindisi dialektizm deb yuritiladi. Dialektizm – grekcha soʻz boʻlib, dialektos – «tilning mahalliy koʻrinishi» demakdir. SHuning uchun dialektizm umumtilning mahalliy koʻrinishi boʻlgan dialektlarga xosdir.

Misollar: qorinja (chumoli), gʻ oʻz (yongʻ oq), karvich (gʻisht) – Xorazm; norbon (narvon), bodrak (varrak), puku (ustara) – Buxoro; mishiq (mushuk) - Fargʻ ona; inak (sigir), moʻrcha (chumoli), pishak (mushuk) - Samarqand shevasida.

Shevadagi baʼzi soʻzlar adabiy tilda ham boʻlishi mumkin. Lekin ular boshqa-boshqa maʼnolarni bildiradi. Masalan: kosa soʻzi Xorazm shevasida «piyola» maʼnosini, adabiy tilda «suyuq ovqat soladigan idish», lagan soʻzi Xorazm shevasida kir yuvadigan togʻ ora, adabiy tilda «quyuq ovqatlarni soladigan idish» maʼnosini bildiradi.

YOzuvchilar badiiy asarda mahalliy koloritni berish, qahramonning nutqini individuallashtirish, uning qarqlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni koʻrsatish maqsadida sheva soʻzlardan foydalanadi.

Kasb-hunar leksikasi. Oʻzbek xalqi qadimdan turli kasb-hunar bilan shugʻullanib keladi. SHuning uchun Oʻzbekistonda kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, kulochilik, qashshoqlik, kashtachilik, duradgorlik, terimchilik, ovchilik, chorvachilik, kosibchilik va hokazolar shular sirasiga kiradi. Turli kasb-hunarga doir soʻzlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi oʻzbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir soʻzlarga boy. Masalan: kulolchilikda dogʻ chil (xum yasashda ishlatiladigan asbob), aspak yoki ob yogʻ och, bandak, bogʻich (idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi) kabi soʻzlar, suvoqchilik sohasida bozi (tokcha yoki), andava (asbob), loykash (kishi), mola gazchoʻp (asbob) kabi maxsus soʻzlar bor. Ular shu hunar egalari tilida qoʻllanadi va ular uchun tushunarlidir.

YOzuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning mehnat faoliyatini koʻrsatishda kasb-hunarga doir soʻzlardan foydalanadilar.

Atamalar. Fan-texnika, xalq xoʻjaligi, qishloq xoʻjaligiga doir ilmiy tushunchalarni aniq ifodalaydigan soʻzlar atamalar deyiladi. Fan-texnika va ishlab chiqarish sohasida qoʻllanadigan terminlarning jami terminologiya (terminologik leksika) deb yuritiladi. Masalan: fonetika, leksika, morfologiya, morfemika, sintaksis – tilshunoslikka oid; kvadrat, ildiz, teorema – matematikaga doir; sifatlash, oʻxshatish, jonlantirish – adabiyotshunoslikka doir atamalardir. Hozirgi kunda dunyoda fanning 500 dan ortiq tarmoqlari bor, ular har tomonlama taraqqiy

etmoqda. Bu tilda atamalarining boyib borishiga olib keladi. Atamalar ilmiy nutqda qo‘llanadi va ular bir ma‘noli bo‘ladi.

Ba‘zi atamalar o‘zbek tilida so‘zlashuvchi barcha kishilar nutqda qo‘llanib ommalashib ketishi mumkin. Bunda ular ishlatilish doirasi chegaralanmagan umumxulq so‘ziga aylanadi. Masalan, o‘qituvchi, kitob, daftar, dars kabi.

Jargon va argolar. O‘tmishda xalqni ekspluatatsiya qiladigan sinf vakillari, saroy ahllari, mansabdor shaxslar, savdogarlar, qalandar, maddohlar, xalqni aldab yuruvchi gadoylar, o‘g‘ rilar, firibgarlar o‘z niyatlarini xalqdan yashirish uchun o‘zlariga tushunarli so‘z va iboralardan foydalanganlar.

Tilda sinfiy ayirmalikni ko‘rsatib turadigan bunday so‘zlar «sinfiy dialektning so‘zlari» - jargonlar deb yuritiladi.

Ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so‘z va iboralar **jargonlar** deyiladi. Masalan, oftobi olam (podsho), husni mutlak (xudo), nishoni oliy mon, shoe‘ qiling (bildiring), mal huz emas (mulohaza qilingan emas), ne‘mati jannat (yor, mahbuba), shavaqqu‘ aylang (umid bilan kuting), tanzil (foйда).

O‘g‘ rilar, qimorbozlar orasida qo‘llanadigan so‘zlar argolar deb yuritiladi; loy (pul), xit (militsoner), bedana (to‘pponcha), xitola (o‘g‘irla), zamri (jim tur), atamri (gapir), atanda (qoch) kabi.

Qadimda savdogarlarning, otarchilarning ham argolari bo‘lgan: yakan (pul), joyi (yo‘q), xasut (non), dax (yaxshi, durust) – otarchilar argosi; sar yoki sari piyoz (ming so‘m), saru nimsar (bir ming besh yuz so‘m), kapara (olti ming so‘m).

8 -§. Tarixiy jihatdan o‘zbek tili leksikasi

Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida uning barcha bo‘limlarida, jumladan, leksikasida ham o‘zgarishlar yuz beradi. Bunda tildagi ba‘zi so‘zlar eskirib, iste‘moldan-ishlatilishdan chiqib ketadi yoki yangi tushunchalarni nomlovchi so‘zlar paydo bo‘ladi. Bu hodisalar tilning leksik tarkibini 2 qatlamga ajratishni taqazo etadi:

1. Zamonaviy qatlam (neytral qatlam).
2. Eskirgan qatlam.
3. YAngi qatlam.

Zamonaviy qatlam. Bu qatlam o‘zbek tili leksikasining asosiy qatlami bo‘lib, uni umumxalq leksikasiga – ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikaga oid so‘zlar, shuningdek, atamalar, kasb-hunarga doir so‘zlar tashkil etadi. Bu qatlamdagi so‘zlar yangilik bo‘yog‘iga ham, eskilik bo‘yog‘iga ham ega bo‘lmaydi.

Zamonaviy qatlamda so‘zlarning nutqda ko‘p yoki kam ishlatilishi, barcha kishilarning ishlatishi yoki ma‘lum guruh kishilari nutqidagina ishlatilishi asosga olinmaydi.

Demak, yangilik va eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lmagan so‘zlar eskirgan qatlam. So‘z ifodalaydigan predmet yoki tushuncha hayotda yo‘qolishi, yoki ularning ma‘nosini ifodalaydigan boshqa so‘zlarning paydo bo‘lishi munosabati bilan ayrim so‘zlar asta-sekin qo‘llanilmay unutila boradi. Ular nutqda kam

qo‘llanadi. Ularning ba‘zilarini tushunish mumkin, ayrimlarini ko‘pchilik tushunmaydi, ular badiiy va ilmiy adabiyotlarda qo‘llansa, izoh talab etadi. Eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan so‘zlar eskirgan leksika deyiladi. Eskirgan leksika 2 turga ajratiladi:

1. Tarixiy so‘zlar yoki istorizmlar.
2. Arxaik so‘zlar yoki arxaizmlar.

Tarixiy so‘zlar o‘tmishdagi narsa va hodisalarning nomi bo‘lgan, ammo hozir eskirib qolgan so‘zlar tarixiy so‘zlar deyiladi. Tarixiy so‘zlar jamiyatda yo‘q bo‘lib ketgan narsalar, shaxslar haqida gap borganda qo‘llaniladi. Hozirgi tilda ularning sinonimii yo‘q. Masalan: foytun, yasovul, taxt, kanizak, dinor (tilla pul), chaqirim (1 km), tosh (8 chaqirim – 8 km), gaz (71 sm), botmon (176, 128 kg), misqol (4,25 g.), miri (5 tiyin).

Ba‘zi so‘zlar til taraqqiyoti davomida turli xil narsalarni ifodalaydigan bo‘lib qoladi. Bunday so‘zlarning bir ma‘nosi eskirsa, ikkinchi xil ma‘nosi zamonaviy qatlamda ishlatiladi.

Masalan: *boy* so‘zining ma‘nosini qiyoslang: *Boy Yo‘lchini zimdan kuzatdi (Oybek). Sen boy bo‘laman deb nima ishlarni qilmading, oqibati nima bo‘ldi?*

Arxaik so‘zlar. Hozir mavjud bo‘lgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan nomlari arxaik so‘zlar deyiladi. Arxaik so‘zlar yig‘indisi arxaizmlar deyiladi. Arxaizm – grekcha so‘z bo‘lib, *archaios* – «qadimgi» degan ma‘noni bildiradi.

Eskirgan so‘z ifoda etayotgan narsa-hodisalar hozirgi hayotda bor bo‘lgani uchun uning eskirgan nomini almashmay oladigan zamonaviy qatlamga oid so‘z mavjud bo‘ladi. Aslida bir narsaning birdan ortiq nomi bo‘lsa, ulardan til taraqqiyoti qonuniyatlariga javob bera oladigan tilda saqlanib qoladi, javob bera olmaydigani eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lib, ishlatilmay qolib ketadi. Masalan, sekretar – kotib, mirzo, kotiba. Ular ichidan kotib so‘zi hozirgi kunda kishilar tomonidan keng ko‘lamda qo‘llanilyapti. Sekretar so‘zi eskirib, arxaiklashib qolgan. Arxaik so‘zlar so‘zlovchining ko‘z oldida iste‘moldan chiqib ketayotgan so‘zlardir revolyutsiya (inqilob), tuman (rayon), viloyat (oblast), baynalmilal (internotsional).

Masalan: bitik (kitob), ulus, budun (xalq), o‘miz (ko‘krak) kabi.

So‘zlar butun holda arxaiklashishi yoki uning biror ma‘nosi arxaiklashishi mumkin. SHunga ko‘ra ular: a) leksik arxaizmlar; b) semantik arxaizmlar tarzida ikki xil bo‘ladi.

Leksik arxaizmda so‘z eskiradi: gulgun, siymo (obraz).

Semantik arxaizmda ma‘no eskiradi: chechak – «gul» ma‘nosida eskirgan, bekat – karvonlar to‘xtaydigan joy ma‘nosida eskirgan, bag‘ir – «jigar» ma‘nosida eskirgan, davlat – «boylik» ma‘nosida eskirgan.

Arxaiklashish iboralarda ham, grammatik hodisalar doirasida ham yuz beradi. Iboralarning arxaiklashishi holati ko‘p, lekin grammatik hodisalarning arxaiklashishi ham uchraydi: dasti alif –lom qilib, gardonini ham qilib, yoqasini chop etmoq (iboralar); sifatdoshning –din, -mish shakllari, ravishdoshning –bon, -ibon shakllari, -dur – kesimlikni ko‘rsatuvchi bog‘lama eskirgan grammatik shakllardir.

Fonetik arxaizmlar ham mavjud bo‘lib, unda tovush eskiradi: sobun, qaboq kabi (sovun, qovoq).

Neologizmlar. Kundalik hayotimizdagi angi narsalarni, ularning belgilarini, yangicha munosabatlarni, umuman yangi tushunchalarni ifoda etish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan so‘zlar yoki yangi ma’noda qo‘llangan eski so‘zlar neologizmlar deyiladi. Neologizm grekcha so‘z bo‘lib, neos – «yangi» degan ma’noni bildiradi. Neologizm yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan so‘zlardir. Masalan: bakalavr, magistratura, kompyuter, kompyuter texnologiyasi, marketing, supermarket kabi. Neologizmlar yangi paydo bo‘lgan paytda, ishlatilish doirasiga ko‘ra chegaralangan leksikaga kiradi. Neologizmi ma’nosi tushunarlik kasb etsa, xalq orasida ommalashib ketishi mumkin. Bunda u yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotadi va umumxalq so‘ziga aylanadi. Masalan: brigada, televizor, traktor, kosmos, kosmonavt va hokazo.

Ba’zi neologizmlar yangiligicha qolib ketishi, ishlatilish doirasi chegaralangan leksikadan o‘rin olib qolishi mumkin. Demak, neologizm – nisbiy tushuncha. Chunki har bir davr o‘z neologizmiga ega bo‘ladi.

So‘z yoki so‘zning ma’nosi neologizm bo‘lishi mumkin.

So‘z neologizm bo‘lsa, leksik neologizm deb yuritiladi: broker, ...

Leksik neologizmlar tamomila yangi, hali o‘zlashib ketmagan so‘zlardir. Bunday so‘zlar: 1) o‘zbek tilida avvaldan mavjud bo‘lgan so‘z va yasovchi qo‘shimchalar bilan yasalgan yangi so‘zlardir: etti yillik; 2) boshqa tildan kirgan hali umumxalq tiliga singib o‘zlashib ketmagan yangi so‘zlardir: magistr, bakalavr.

Leksik ma’nolardan biri yangi bo‘lsa, semantik neologizm deb yuritiladi. Masalan: Yo‘ldosh (er yo‘ldoshi), payvandchi (metallni ulovchi).

9 -§. O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari

O‘zbek tilining leksikasi fan-texnika, san’at, ishlab chiqarishning taraqqiyoti bilan bog‘liq holda boyib boradi. Tilning lug‘at tarkibi 2 manba asosida boyiydi.

1. O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida (ichki manba). Bunda so‘z yasash orqali yangi so‘zlar hosil qilinadi: sinfdosh, limonzor, vazirlik, ijarachi, tinchliksevar, MDH, BMT kabi. Ichki imkoniyatga shevalardan adabiy tilga so‘z olish ham kiradi: aya, bolish, uvildiriq (ikra) kabi.

2. Boshqa tillardan so‘z olish (tashqa manba). O‘zbek tiliga boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Eng qadimda fors-tojik tillaridan, keyinroq arab tilidan, undan ham keyinroq rus tilidan va rus tili orqali Evropa tillaridan so‘z o‘zlashtirish faollashgan. O‘zlashgan so‘zlar ham o‘zbek tili leksikasida anchagina miqdorni tashkil etadi. Keyingi yillarda tilning leksik tarkibini so‘z yasashdan ko‘ra boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish hisobiga boyishi etakchilik qilmoqda.

Boshqa tillardan so‘zlar ikki usul bilan o‘zlashtiriladi: 1)so‘zni aynan olish yo‘li bilan; 2) kalkalab olish yo‘li bilan.

So‘zni aynan olish yo‘li bilan tojik, arab tillaridan, shuningdek, rus tillaridan, rus tili orqali boshqa Evropa tillaridan ko‘proq o‘zlashtirilgan. Masalan,

sinch, devor, yana, rubob, kitob, maktab, daraxt, mutolaa, muomala, traktor, sport kabi.

Kalkalab o'zlashtirishda so'z aynan olinmaydi, balki so'zning ma'nosi o'zlashtiriladi. Ikkinchi tildagi so'zning ma'nosi shu so'zning morfemik tarkibidan qismma qism nusxa ko'chirish orqali ifoda etiladi. Kalkalab o'zlashtirishning 2 xil yo'li bor:

1. To'liq kalka. Bu usulda o'zlashtirilayotgan so'zning barcha qismlari o'z til materialidan tuziladi. Masalan: полуграматный – chalasavod, всеобщий – butunittifoq.

2. YArim kalka. Bu usulda o'zlashtirilayotgan so'zning bir qismi aynan saqlanib, bir qismi o'z til orqali beriladi. Traktorist – traktorchi, tabelshik – tabelchi kabi.

YArim kalkada ba'zan o'zlashtirilayotgan so'zning bir qism tashlanib, qolgan qismi aynan olinadi: актуальный – aktual kabi.

O'zga til so'zidagi ma'no o'z tildagi so'z bilan berilsa, bu semantik kalka deb ham yuritiladi. Masalan, bo'g'in so'zining ruscha «ponolenie» ma'nosi.

10 -§. Frazzeologiya

1-§. Nutqda ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'lanishidan tuzilgan birikmalar qo'llaniladi.

Bunday birikmalarning ayrimlari nutq jarayonida tuziladi, ayrimlari esa tilda tayyor birikma shaklida mavjud bo'ladi. Ular bir-biridan o'ziga xos belgilari bilan farq qiladi.

Nutq jarayonida tuzilgan birikma kamida ikkita mustaqil so'zdan tashkil topadi va murakkab tushuncha ifodalaydi. Bunday so'z birikmasi ifodalaydigan tushuncha tarkibidagi so'zlarning ma'nosi asosida yuzaga keladi: qiziqarli asar. Bunday so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar ayrim-ayrim so'zlarga ajrala oladi: qiziqarli asar – zerikarli asar. SHuning uchun ular erkin so'z birikmasi deb yuritiladi.

Tilda ko'p vaqt bir qolipda qo'llanaverib, bo'linmaydigan holga kelib qolgan birikmalar mavjud: og'zi qulog'ida. Demak, so'z birikmalari ikki xil: a) erkin so'z birikmasi; b) turg'un so'z birikmasi. Turg'un birikmalar ikki xil: a) birikmali atamalar; b) iboralar.

Tilda ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topib, ko'chma ma'no ifodalaydigan, ma'nosi bir so'zga teng keladigan turg'un birikmalar ibora (frazzeologik birlik) deyiladi.

Birikmalargina emas, ayrim gaplar ham ibora holiga kelib qolishi mumkin: Ishtahasi ochildi. Dili siyoh bo'ldi.

Iboralarning barchasi ko'chma ma'no ifodalaydi va ularda emotsionallik so'zga nisbatan kuchli bo'ladi. SHuning uchun iboralar nutqning ifodalaligini va ta'sirchanligini oshiradi.

Tilning iboralarni o'rganadigan bo'limi frazzeologiya, iboralar yig'indisi esa frazzeologizm deb yuritiladi.

Iboralar o'rtasida ham o'zaro sinonimlik, antonimlik, omonimlik hodisasi bo'lishi mumkin. (Qarang: -§. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.)

11 -§. Leksikografiya

Tilshunoslikning lug'at tuzish ishi bilan shug'ullanadigan bo'limi leksikografiya deyiladi. Lug'atlar tilning lug'aviy boyligini to'plovchi kitobdir. Lug'atlar muayyan mavzularda tuzilib, unda so'zlar alfavit tartibida joylashtiriladi. Lug'at tuzish ishi bilan lug'atshunoslar qadimdan shug'ullanib kelishgan. Masalan, XVI asarda usmonli turk tilida «Abushqa» lug'ati yaratilgan.

Lug'atlar xarakteriga ko'ra ikki turga bo'linadi:

- 1) qomusiy (entsiklopedik lug'at) lug'atlar;
- 2) lingvistik lug'atlar.

Qomusiy lug'atlar ilmiy, siyosiy, adabiy va ishlab chiqarishga xos tushunchalar, borliqdagi predmetlar va voqea-hodisalar haqida ma'lumot beradi.

«O'zbek milliy entsiklopediyasi», «Uy-ro'zg' or entsiklopediyasi», «Salomatlik entsiklopediyasi», «U kim, bu nima?» kabi lug'atlar qomusiy lug'atlar sirasiga kiradi.

So'zlarni tilshunoslik nuqtai nazardan izohlaydigan lug'atlar lingvistik lug'at deb yuritiladi. Lingvistik lug'atlar bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli bo'ladi.

Bir tilli lingvistik lug'atlarda lug'aviy birliklar bir tilning - o'zbek tilining o'zida izohlanadi. Bunday lug'atlarga «Imlo lug'ati», «Orfoepik lug'at», «O'zbek tilining morfem lug'ati», «O'zbek tilining sinonim so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining omonim so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining antonim so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining frazeologik lug'ati», «Etimologik lug'ati», 1981 yilda yaratilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati» (2 jild) kabilar. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da so'z va iboralarning o'z va ko'chma ma'nolari haqida to'la ma'lumot beriladi.

Ikki tilli va ko'p tilli lug'atlar tarjima lug'atlari bo'lib, ular boshqa tilning lug'at tarkibini o'zbek tiliga yoki aksincha o'zbek tilining lug'at tarkibini boshqa tilga tarjima qilish uchun xizmat qiladi. Ikki tilli va ko'p tilli lug'atlarga o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha-nemischa kabi lug'atlar kiradi.

Ko'p tilli lug'atlar o'tmishda ham tuzilganligi arabcha-forscha-turkcha lug'atlardan ma'lum. Hozirgi kunga kelib ko'p tilli lug'atlar tuzish ancha jadallashdi. Chunki ko'p tilli lug'atlar hozirgi tillarni qiyosiy o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lug'at fan va texnika, madaniyat, umuman jamiyatning taraqqiy etib borayotganini o'zida aks ettiradi. Lug'atlar muhim madaniy boylikdir, chunki lug'at nutq madaniyati, so'zlarning ma'nolarini aniq tushunish va ularni nutqda to'g'ri qo'llash, savodxonlikka erishishning asosidir.

Leksik tahlil namunasi	
1. So'zning lug'aviy ma'nosi.	antonimlik, paronimlik xususiyati aniqlanadi.
2. So'zning bir ma'noli	5.Umumxalq ishlatadigan

yoki ko'p ma'noli ekanligi aniqlanadi. 3. Ma'no ko'chgan bo'lsa, ko'chish usuli aniqlanadi. 4. So'zning omonimlik, sinonimlik,	so'zmi yoki umumxalq ishlatmaydigan so'zmi? 6. Ibora mavjud bo'lsa, uning ma'nosi izohlanadi
--	---

Takrorlash uchun savollar

1. "**Leksikologiya**" so'zining ma'nosi va mohiyatini tushuntiring.
2. So'zning lujaviy ma'nosi deganda nimani tushunasiz?
7. Ko'p ma'noli so'zlar haqida gapiring va misollar keltiring.
8. Ko'p ma'noli so'z va omonimlarning farqi nimada?
10. O'z ma'no va ko'chma ma'no haqida gapiring.
11. Metafora usuli haqida gapiring.
12. Metonimiya usuli haqida gapiring.
13. Sinekdoxa usuli haqida gapiring.
14. Kinoya usuli haqida gapiring.
15. Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chish usuli haqida gapiring.
16. So'zlar shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
17. Omonimlar va ularning turlari haqida gapiring.
19. Sinonimlarning ta'rifini aytib, misollar keltiring.
20. Sinonimik qator va dominanta (bosh so'z) haqida gapiring.
21. O'zlashma va yasama so'zlarning sinonimik xususiyatlari haqida gapiring.
22. Sinonimlarning turlari haqida gapiring.
23. Antonimlarning ta'rifini ayting va misollar keltiring.
24. Ko'p ma'noli so'zlarning antonimik xususiyatlari haqida gapiring.
25. Antonimlikdagi uchta belgi haqida gapiring.
26. Paronimlar haqida gapiring.
27. Paronimlarning omonimlarga o'xshash va farqli tomonlari haqida gapiring.
28. Antonim, omonim sinonim va paronimlardan qaysilari so'zning ma'no tomoni bilan, qaysilari shakl tomoni bilan bojliq?

Leksikologiya va leksikografiya bo'yicha test savollari:

1. Leksikologiya nimani o'rgatadi?

- A) so'z turkumlarini, antonimlarni B) gapni, lug'atlarning turlarini C)
so'z birikmalarini, bir ma'noli so'zlarni
D) so'zlarni, ularning lug'aviy ma'nolarini

2. Leksikologiyada qaysi so'zlarning lug'aviy ma'nosi o'rganiladi?

- A) faqat shevaga xos so'zlarning B) faqat atamalarning
C) tildagi barcha so'zlarning D) faqat yangi paydo bo'lgan va eskirib qolgan so'zlarning

3. Soʻzlarning bir va koʻp maʼnoliligi tilshunoslikning qaysi boʻlimida oʻrganiladi?

- A) fonetikada B) frazeologiyada
C) leksikologiyada D) morfologiyada

4. Qaysi soʻzlar leksik (lugʻaviy) maʼnoga ega?

- A) mustaqil soʻzlar B) yordamchi soʻzlar
C) undov va taqlid soʻzlar D) mustaqil, undov va taqlid soʻzlar

5. Leksik maʼno bildirmaydigan soʻzlar turkumini toping.

- A) son, olmosh, ravish B) koʻmakchi, undov soʻz, taqlid soʻz, son C)
koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama D) undov soʻz, modal soʻz, ravish

6. Grammatik maʼnoga toʻgʻri taʼrif berilgan javobni toping.

- A) soʻzning shakliy qismi orqali ifodalangan maʼno B) soʻzning u yoki
bu turkumga mansubligini koʻrsatuvchi maʼno C) soʻzlarning lugʻaviy (leksik)
maʼnosiga qoʻshimcha tarzdagi va ular uchun umumiy boʻlgan maʼno D) A,B,
C.

7. Qanday maʼno soʻzning bosh maʼnosi hisoblanadi?

- A) soʻzning nutq tarkibidan tashqarida ifodalaydigan maʼnosi B) soʻzning nutq
tarkibidagi boshqa soʻzlar yordamida anglatiladigan maʼnosi C) soʻzning
koʻchma maʼnolaridan biri D) soʻzning gap tarkibidagi anglatgan maʼnosi

8. Qanday soʻzlar bosh maʼno va koʻchma maʼnolarga ega?

- A) bir maʼnoli soʻzlar B) koʻp maʼnoli soʻzlar C) atamalar
D) barcha mustaqil soʻzlar

9. 1. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar. 2. Meni boshqa tashkilotga ishga chaqirishyapti. 3. Ming qoʻyining ishi bir qoʻyliga tushadi. Ushbu gaplarda qoʻllangan ish soʻzi oʻzaro maʼno munosabatiga koʻra qanday soʻz hisoblanadi?

- A) sinonim soʻzlar B) omonim soʻzlar
C) antonim soʻzlar D) koʻp maʼnoli soʻzlar

10. Bir maʼnoli soʻzlar qaysi qatorda?

- A) koʻz, qosh B) ogʻiz, bosh
C) etak, oyoq D) chumchuq, ravish

11. Koʻp maʼnoli soʻzlarni toping.

- A) men, sen B) besh, oʻn C) ota, ona D) tomir, yoqa

12. Qaysi qatorda bir maʼnoli soʻzlar berilgan?

- A) etak, oyoq B) radif, in C) koʻz, qosh D) tish, quloq

13. Quyida berilgan soʻz qoʻshilmalaridagi suzmoq soʻzi qanday soʻz? Oshni suzdi, suvda suzdi, sigir suzdi.

- A) omonim B) paronim C) sinonim D) koʻp maʼnoli soʻz

14. Koʻp maʼnoli soʻz har bir maʼnosi bilan ayrim-ayrim soʻzlarga antonim boʻlishi mumkinmi?

- A) Koʻp maʼnoli soʻz faqat bir maʼnosi bilan boshqa bir soʻzga antonim boʻlishi
mumkin B) bir maʼnoli soʻzlarga antonim boʻlishi mumkin C) har bir maʼnosi
bilan ayrim-ayrim soʻzlarga antonim boʻlgan soʻzlar koʻp maʼnoli soʻz
hisoblanmaydi D) koʻp maʼnoli soʻz har bir maʼnosi bilan ayrimayrim soʻzlarga
antonim boʻlishi mumkin

15. Qurilishda men boshliqman, Bo'riev. Mablag' ham, odamlar ham, jumladan, siz ham mening ixtiyorimdasiz. Ushbu gapdagi ixtiyor so'zi o'rnida quyidagi so'zlarning qaysi birini sinonim sifatida qo'llash mumkin?

A) mayl B) izn C) izm D) mayl, izn

16. Omonimiya quyida berilgan qaysi birliklar orasida voqe bo'lmaydi?

A) ikki so'z orasida B) ikki ibora va ikki tasviriy ifoda orasida C) ikki qo'shimcha orasida D) sanalgan barcha birliklar orasida omonimiya vujudga kelishi mumkin

17. Qaysi qatorda berilgan so'zlar tarkibidagi qo'shimchalar o'zaro omonim hisoblanadi?

A) kiyinmoq-ekinlar B) o'qildi-yozildi C) gulzorlarda-paxtazorga D) uchrashmoq-o'rganish

18. Qaysi qatordagi juftliklar o'zaro sinonim bo'la olmaydi?

A) adil-odil B) adolatli-odil C) adil-tik D) odil-adl

19. O'chib borayotir qanchalar kalom,

Ne-ne bitiklar ham yo'qdir, vassalom,

Dunyoda faqat bir sobit suxan bor:

U o'z farzandingga o'zing qo'rgan nom (A.O.)

Banddagi sobit so'zining sinonimi...

A) yoqimli B) ishonchli C) qat'iy D) doimiy

20. Quyidagi hodisalarning qaysi biri uchun shakliy bir xillik xos?

A) ko'p ma'noli so'zlar uchun xos B) omonimlarga xos
C) paronimlarga xos D) A va B

21. Qaysi so'zlar o'zaro paronim emas?

A) yuvindi – yuvundi B) yoriq – yorug'
C) charlamoq – chorlamoq D) archish – artish

22. Quyidagi hodisalarning qaysilari mustaqil so'z turkumlarining barchasi uchun xos? 1) ko'p ma'nolilik;

2) sinonimiya; 3) omonimiya; 4) antonimiya.

A) 1 B) 1, 2 C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4

23. Shu so'zlarning qaysi birida -ma qo'shimchasi omonimik holatda qo'llanishi mumkin? 1) qotishma;

2) moslama; 3) qazilma; 4) burama; 5) qatlama; 6) yuklama.

A) 2,4,5,6 B) 2,3,4,6 C) 1,2,3,6 D) 1,2,3,4

24. Qaysi qatordagi gapda paronimlar bilan bog'liq xato bor?

A) Ularga imtiyozli tarif asosida xizmat ko'rsatiladi.
B) Qizning ota-onasi, qarindosh-urug'ining ta'rifini aytib bitirolmaydilar. C) O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir. D) Shahrimiz nufuzi ikki milliondan oshdi.

25. Quyidagi gapda qo'llangan iboraning qanday ma'noga egaligini belgilang.

Bizning orzularimiz ko'p edi, ammo peshanamizga yozilgani shu bo'ldi.

A) taqdir B) orzu C) qismat D) A va C.

26. Quyidagi iboralarning qaysi biri nisbatan keng tushuncha ifodalaydi?

A) ko'ngil bermoq B) ko'ngil bog'lamoq
C) ko'ngil qo'ymoq D) yaxshi ko'rmoq

27. O‘zaro sinonim bo‘lgan iboralar qo‘llangan gapni toping.

- A) *Meni bilsang, Qo‘ng‘irot elda turaman, Har ish bo‘lsa, peshonamdan ko‘raman.* B) *Yaqinda peshonamdagi yolg‘iz onajonim ham betob bo‘lib qoldi.* C) *Taqdirga tan berib, nima bo‘lsa, peshonamdan ko‘rarman, deb xayol qildi.* D) *Peshonamizga bitgani shu bo‘lsa, qandoq qilaylik, oyi!*

28. O‘zbek tili uchun nisbatan qadimiy so‘zni belgilang.

- A) *gul* B) *chechak* C) *olam* D) *jahon*

29. Zamon jihatdan nisbatan so‘ng yuzaga kelgan tasviriy ifodani toping.

- A) *peshona teri* B) *peshonada bori*
C) *palahmon toshi* D) *dehqonning qanoti*

30. Quyidagi iboralardan qaysi biri bog‘lovchi bilan sinonim bo‘la oladi?

- A) *shunga qaramay* B) *bo‘lsa, bordir*
C) *u yoqda tursin* D) *ammamning buzog‘i*

31. Qaysi ibora xo‘rlandi so‘ziga sinonim bo‘ladi?

- A) *tapa sochi tikka bo‘ldi* B) *yuragiga sig‘may qoldi*
C) *oyoq osti bo‘ldi* D) *mum tishlab qoldi*

32. Qaysi qatordagi frazeologizmlar hayratlanish ma‘nosini bildiradi?

- A) *yoqasini ushlamoq, og‘zi ochilib qolmoq* B) *o‘zini qo‘ygani joy topa olmaslik, yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq* C) *oyoq osti qilmoq, mayna qilmoq* D) *ko‘ziga qon to‘lmoq, ko‘zining paxtasi chiqmoq*

33. Quyidagi predmet nomlaridan bir tasviriy ifoda orqali ifodalanadiganini belgilang.

- A) *ko‘mir, neft* B) *televizor, raketa* C) *matematika, shaxmat*
D) A, C.

34. Ma‘lum hududdagina ishlatilib, faqat shu erda yashovchi kishilarga tushunarli bo‘lgan so‘zlar qanday ataladi?

- A) *atamalar* B) *paronimlar* C) *terminlar* D) *sheva so‘zlar*

35. Bo‘zchi belboqqa yolchimas, kulol mo‘ndiga. Ushbu maqoldagi mo‘ndi so‘zi ishlatilish davriga ko‘ra qanday so‘z?

- A) *atama* B) *shevaga xos so‘z* C) *eskirgan so‘z* D) *yangi so‘z*

36. Nutqning ta‘sirchanligini oshiruvchi tasviriy ifodalar asosan qaysi so‘z turkumlari doirasida keng qo‘llanadi?

- A) *ot* B) *sifat* C) *fe‘l* D) *olmosh*

SO‘Z YASALISHI

So‘z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohalaridan biri bo‘lib, u yangi ma‘noli so‘z yasalishi, so‘z yasash usullari, so‘z yasalishiga aloqador bo‘lgan hodisalarni o‘rganadi.

«So‘z yasalishi» atamasi ikki xil hodisaga nisbatan qo‘llanadi: 1) tilshunoslikning so‘z yasalishi bilan bog‘liq hodisalarni tekshiruvchi bo‘limini; 2) umuman so‘z yasalishi, so‘z hosil qilinishini bildiradi.

Nutqda so‘zlar tub yoki yasama shaklda qo‘llanadi.

YAsovchi affikslarga yoki yasovchi qismlarga ega bo'lmagan so'z tub so'z deyiladi: inson, xalq, millat, suv, non, havo, yaxshi, ziyrak, xursand, besh, o'n, yigirma, biz hamma, ba'zi, bormoq, kelmoq, o'qimoq, sekin, birga, hozir va h.k.

Tilda mavjud usullar bilan yangi hosil qilingan so'z yasama so'z deb yuritiladi. Masalan, tinchlik, bog' bon, gulzor, jonlan, birlash, ko'kar, sezgir, zavqli so'zlari o'zakka yasovchi affikslar (-lik, -bon, -zor, -lan, -lash, -ar, -gir, -li) qo'shish usuli bilan yasalgan bo'lsa, Dilorom, Durbek, Oqtepa, bilakuzuk, sohibjamol, sofdil, erksevar so'zlari so'zlarni yoki so'z shakllarini qo'shish, biriktirish usuli bilan hosil qilingan.

Tilda mavjud bo'lgan so'z (yoki so'zlar, so'z shakllar negizida ma'lum usullar bilan yangi ma'nodagi so'zlarni hosil qilish so'z yasalishi deyiladi.

O'zbek tilida so'z yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya, fonetik, semantik, abbreviatsiya kabi usullari bo'lib, shulardan affiksatsiya va kompozitsiya usullari asosiy va etakchi usullar hisoblanadi.

Affiksatsiya usuli. So'zga so'z yasovchi affiks qo'shish bilan yangi so'z hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi. Masalan, Paxtakor, sinfdosh, quvonch, do'stlik, ochiq, tirishqoq, serjilo, ilmiy, o'yla, kengay, shodlan, tinchi, tasodifan, oqilona, ko'pincha, ertalab va boshqalar.

So'z yasovchi affikslar o'zbek tilida asosan suffiks tarzida qo'llanib, so'z o'zagidan so'ng qo'shib keladi. Ba'zan bunday affikslar o'zak oldiga prefiks tarzida qo'shib, yangi ma'nodagi so'z yasashi mumkin. Masalan, serhosil, serunum, badavlat, ba'mani, beminnat, beg'araz, noo'rin, nohaq, badfe'l, badbashara va h.k.

O'zbek tilida so'z yasovchi affikslardan tashqari, o'z xususiyatlari bilan affikslarga juda yaqin turadigan xona, noma, obod kabi so'z-affikslar ham mavjud. Bunday so'z-affikslar tilshunoslikda affiksoidlar deb ham yuritiladi: ishxona, mehmonxona, oshxona, qabulxona, tabriknoma, Xalqobod, YAngiobod.

Kompozitsiya usuli. Birdan ortiq mustaqil ma'noli so'z yoki so'z shakllarining qo'shiluvi, birikuvi orqali yangi so'z yasash kompozitsiya usuli bilan so'z yasash deyiladi. Bu usul bilan qo'shma, ayrim juft so'zlar hosil qilinadi. Masalan, guldasta, gultojxo'roz, asalari, tomorqa, xushfe'l, rahmdil, olijanob, hozirjavob, havo rang, e'lon qilmoq, rad etmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, har gall, yonma-yon, zo'r-bazo'r, ketma-ket va b.

Fonetik usul. Bu usulga ko'ra, so'zda fonetik o'zgarish yuz berib, yangi so'z hosil qilinadi. CHunonchi, so'z urg'usining o'rnini almashtirish natijasida boshqa-boshqa so'z turkumiga doir so'zlar hosil bo'lishi mumkin: yo'zma – fe'l, yozma' – sifat, su'zma – fe'l, suzma' – ot, fi'zik – ot, fizi'k – sifat, akade'mik – ot, akademi'k – sifat va b.

Semantik usul. Bu usulga binoan, so'z ma'nosida o'zgarish ro'y berib, ma'nosi boshqa-boshqa, shaklan o'xshash yangi so'z hosil bo'ladi: kun – sutkaning yorug' qismi, kun - quyosh, planeta; ko'k – osmon, ko'k - havorangga o'xshash rang, bir – son, birga, birdan, birda – ravish.

Fonetik va semantik usul hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan nafaol tarixiy so'z yasash usullari deb qaraladi.

Abbreviatsiya usuli. Bu usulga ko'ra, bir butun holda qo'llanadigan to'g'ri ma'noli turg'un birikmalarning qismlari har xil yo'l bilan qisqartirilib so'z hosil qilinadi. Bu usul rus tilidan kirgan bo'lib, qisqartma otlar shu usulda yasaladi: BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH - Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, ATS – Avtomatik telefon stantsiyasi, ToshMI – Toshkent Meditsina instituti, filfak – filologiya fakulteti, akademlitsey – akademik litsey, peduniversitet – pedagogika universiteti va b.

GRAMMATIKA

1 -§. Grammatika haqida umumiy ma'lumot

Grammatika – tilning grammatik qurilishini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi. Grammatika so'zlarning gapda o'zgarishi va ularning o'zaro birikib, so'z birikmasi, gap hosil qilishi haqidagi qoidalar to'plamidir.

Grammatika ikki qismdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so'z turkumlari va ularga xos bo'lgan shakllar haqida baxs yuritilsa, sintaksisda so'zlarning bir-biri bilan bog'lanib, gap, so'z birikmasi hosil qilishi tekshiriladi.

Ko'rinadiki, grammatika ham leksikologiya singari so'zni o'rganadi. Ammo leksikologiya leksik so'zni – leksemani o'rgansa, grammatika grammatik so'zni – so'zning shaklini, so'z shaklini tekshiradi.

2 -§. So'z shakl va grammatik ma'no

Leksik so'z yoki leksema ma'no va ifoda birligidan iborat bo'lganidek («kitob» leksemasining ma'nosi, yoki mazmun plani - «o'qish quroli» tushunchasini anglatishi, ifodasi yoki ifoda plani k, i, t, o, b tovushlaridan tashkil topishidir), grammatik so'z, yoki so'z shakl ham grammatik ma'no ham grammatik ifoda (shakl) birligidan iboratdir. Jumladan, kitob so'zi «o'qish quroli» tushunchasidan tashqari ot, birlik son, bosh kelishik tushunchalarini ham bildiradi. Bunda kitob so'zining «o'qish quroli» tushunchasini ifodalashi uning leksik ma'nosi sanaladi va shu so'zning otga mansubligi, birlik son va bosh kelishikda ekani uning grammatik ma'nosidir.

So'zning grammatik ma'nosi uning leksik ma'nosi bilan belgilanmaydi. Masalan, suv, havo, shamol, bulut kabi so'zlarning leksik ma'nolari turlicha, lekin grammatik ma'nolari bir xil, ya'ni bularning barchasi birlik, bosh kelishikdagi otlardir. Aksincha, birgina leksik so'z, leksema, ma'lum leksik ma'no anglatgani holda turli shakllarda qo'llanib, har xil grammatik ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, o'qimoq fe'lining tuslanishli shakllari turli grammatik ma'nolarni bildiradi: o'qiyapman so'z shakli hozirgi zamon davom fe'lining I shaxs birlik ma'nosini, o'qiyapsan so'z shakli hozirgi zamon davom fe'lining II shaxs birlik ma'nosini va h.k.

Demak, so'zning ma'lum turkumga mansubligini ko'rsatuvchi, so'zning ma'lum bir grammatik shaklini ifodalaydigan ma'no grammatik ma'no hisoblanadi. Ko'rinadiki, grammatik ma'no o'z xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) ma'lum bir so'z turkumi uchun umumiy bo'lgan ma'no, ya'ni kategorial

grammatik ma'no; 2) xususiy grammatik ma'no so'zining kategorial grammatik ma'nosi ma'lum so'z turkumlari uchun xos bo'lgan umumiy grammatik ma'nolardir. Masalan, non, suv, uy, dala so'zlarining har biriga xos bo'lgan ma'no – leksik ma'no. Ammo ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan ma'no ya'ni predmet ma'nosi grammatik ma'nodir. Ayni shu umumiy grammatik ma'no ularni bir turkumga, ya'ni ot turkumiga birlashtiradi. SHuningdek, chiroyli, dono, fozil, kamtarin so'zlari uchun umumiy bo'lgan belgi ma'nosi va o'qi, o'rgan, mehnat qil, bor, kel so'zlari uchun umumiy bo'lgan harakat ma'nosi kategorial grammatik ma'no sanaladi.

So'zning xususiy grammatik ma'nosi ma'lum bir so'z turkumi uchun mansub bo'lib, bunday ma'noga otlarga xos bo'lgan son, egalik, kelishik ma'nolari, fe'llarga xos bo'lgan nisbat, mayl, zamon, shaxs-son, bo'lishli – bo'lishsizlik kabi ma'nolar kiradi.

3 -§. Grammatik ma'noni ifodalash vosita va usullari.

O'zbek tilida grammatik ma'no quyidagi vosita va usullar bilan ifodalanadi:

1. Affiksatsiya. Bunda grammatik ma'no so'zning negiziga turli shakl yasovchi affikslarni qo'shish bilan ifodalanadi: maktablar, maktabga, oddiyroq, ishlandi va h.k.

2. Yordamchi so'zlardan foydalanish. Mustaqil ma'noli so'zlar yordamchi so'zlar orqali grammatik ma'noga ega bo'lishi mumkin: daraxt mevasi bilan ko'rkam, odam - mehnati bilan. (maqol)

3. Takrorlash. So'zlarni takrorlash ham grammatik ma'noni ifodalashga xizmat qiladi: dasta-dasta gul, xirmon-xirmon paxta kabi. Bunda dasta, xirmon so'zlarini takrorlash bilan ko'plik, mo'llik ma'nosi ifodalangan.

4. Suppletivizm. Bu - o'zaro bog'langan, ma'lum bir tizimni tashkil qilgan grammatik ma'nolarni ifodalash uchun alohida-alohida so'zdan foydalanish usuli. Masalan, o'zbek tilida bir grammatik tizimni hosil qiladigan I va II shaxs kishilik olmoshlarining birligi men va sen so'zlari orqali, ko'pligi biz va siz so'zlaori orqali ifodalanadi.

5. Urg'u. so'zining grammatik ma'nosini ifoda qilish uchun xizmat qilishi mumkin: *akadémik* (ot), - *akademík* (sifat), *yangí* (sifat) – *yángi* (ravish), *termá* (sifat) – *térma* fe'lning bo'lishsiz shakli.

6. So'z tartibi. So'zlarning gapda oldinma-keyin kelish ham ba'zan grammatik ma'no ifodalashga yordam beradi. Masalan: 1. Ajoyib odamlar. 2. Odamlar ajoyib. Birinchi gapda ajoyib so'zi otdan oldin kelib sifatlovchi vazifasini, ikkinchi gapda ushbu so'z otdan keyin kelib kesim vazifasini bajargan.

7. Ohang ham grammatik ma'no ifodalashda katta ahamiyatga ega. Bunda grammatik ma'no so'zlarning gap sifatida shakllanishi bilan bog'liq. Masalan: *Hamma keldi*. (Darak gap) - *Hamma keldi?* (so'roq gap) - *Hamma keldi!* (undov gap).

4-§. So'zning grammatik shakli

Soʻzning biror grammatik maʼno ifodalaydigan koʻrinishi uning grammatik shakli deyiladi. Grammatik shakl grammatik maʼnoni ifodalashning eng zaruriy sharti, tilda ular biri ikkinchisiz mavjud boʻlmaydi. Masalan, otlardagi koʻplik maʼnosi *-lar* affiksli shakl orqali ifodalanadi: *gullar*; tushum kelishigi maʼnosini *-ni* affiksli shakl koʻrsatadi va h.k.

Oʻzbek tilida soʻzlar bir grammatik koʻrsatkichli, koʻp grammatik koʻrsatkichli yoki grammatik koʻrsatkichsiz shaklda boʻlishi mumkin. Masalan: *mamlakat* – grammatik koʻrsatkichsiz soʻz shakli; *mamlakatlar* – bir grammatik koʻrsatkichli soʻz shakli; *mamlakatlarida* – koʻp (3 ta) grammatik koʻrsatkichli soʻz shakli.

Hozirgi oʻzbek tilida soʻzlarning grammatik shakllari affikslar, yordamchi soʻzlar vositasida, soʻzlarni juftlash yoki takrorlash orqali hosil qilinadi. Shunga koʻra soʻzlarning quyidagi grammatik shakllari farqlanadi:

1. Sintetik shakl. Bu shakl shakl yasovchi affikslar vositasida hosil qilinadi: *kitobning, kitobni, kitobga, kitobda; oʻqimoqdaman, oʻqimoqdasan, oʻqimoqdamiz, oʻqimoqdasiz* kabi.

2. Analitik shakl. Mazkur shakl yordamchi soʻzlar yoki koʻmakchi feʼllar orqali yuzaga keladi: *bolalar uchun, zavq bilan, oʻqib tur, oʻqib koʻr* kabi.

3. Juft va takroriy shakl. Ikki soʻzni juftlash yoki bir soʻzni takrorlash bilan ham grammatik shakl yasaladiki, bunday shakl juft va takroriy shakl deb yuritiladi: *togʻ -tosh, katta-kichik* juft shakli umumlashtirish maʼnosini, *savat-savat* (non), *togʻ -togʻ* (paxta) takrorlash shakli koʻplik, moʻllik maʼnosini ifodalaydi, *katta-katta, tez-tez* takroriy shakl maʼnoni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Demak, soʻzning u yoki bu shakli maxsus vosita va usullar yordamida yuzaga keladi. Ammo oʻzbek tilida soʻzlarning maxsus grammatik koʻrsatkichga ega boʻlmagan shakllari ham mavjud. Masalan:

institutlar – *institut* Ø (birlik son);
institutda – *institut* Ø (bosh kelishik);
ishlama – *ishla* Ø (boʻlishli feʼl shakli) kabi.

Soʻzning shakllari tizimida koʻrsatkichga ega boʻlmagan soʻzning maxsus koʻrinishi nol koʻrsatkichli (Ø koʻrsatkichli) shakl deb yuritiladi. Soʻzning bunday koʻrinishi soʻz shakllari tizimida belgilanadi.

Soʻzning grammatik shakllari tizimi **paradigma** (yunoncha *paradeima* – «namuna») deyiladi.

Paradigma oʻz xususiyatiga koʻra ikki turga boʻlinadi: 1) xususiy paradigma, 2) toʻliq paradigma.

Bir turkumga oid soʻzning muayyan shakllari tizimi **xususiy paradigmani** yuzaga keltiradi. Masalan, otlardagi son paradigmasi (*kitob-kitoblar*), otlardagi kelishik paradigmasi (*kitob-kitobning-kitobni-kitobga-kitobda-kitobdan*) va boshqalar xususiy paradigmalardan hisoblanadi.

Bir turkumga xos xususiy paradigmalardan yigʻindisi **toʻliq paradigmani** hosil qiladi. Masalan, otga xos toʻliq paradigma: *kitob-kitoblar-kitob-kitobning-kitobni-kitobga-kitobda-kitobdan-kitobim-kitobing-kitobi-kitobimiz-kitobingiz...*

5-§. Grammatik kategoriya

Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik ma'no bilan shu ma'noni ifodalovchi grammatik shakllar tizimi **grammatik kategoriya** deyiladi.

Grammatik kategoriya so'zlarni, so'z shakllarni, so'z o'rinlarini, so'z qurilmalarini birlashtiradi, umumlashtiradi. Shunga ko'ra grammatik kategoriyalarning to'rt turi farqlanadi: 1) so'zning grammatik kategoriyalar; 2) so'z shakllarning grammatik kategoriyalari; 3) so'z o'rinlarining grammatik kategoriyalari; 4) so'z qurilmalarining grammatik kategoriyalari.

So'z va so'z shakllarning grammatik kategoriyalari tizimi tilning morfologiyasini tashkil etsa, so'z o'rinlari va so'z qurilmalarining grammatik kategoriyalari tizimi tilning sintaksisini tashkil etadi.

Demak, grammatik kategoriyalarni morfologik kategoriyalarga va sintaktik kategoriyalarga ajratish mumkin.

Morfologik grammatik kategoriyalarga, birinchidan, so'z turkumlarining o'zi, ya'ni ot, sifat, son, fe'l kabilar kirsam, ikkinchidan, ma'lum bir turkumga xos bo'lgan kategoriyalar, ya'ni otlarga xos bo'lgan son, egalik, kelishik kategoriyalari, fe'llarga xos bo'lgan bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, mayli, zamon, shaxs-son kategoriyalari kiradi.

Sintaktik grammatik kategoriyalar deyilganda, gap, gap bo'laklari: ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol kabilar nazarda tutiladi.

6 -§. So'z turkumlari

Nutqimizda mavjud so'zlar bir-biridan ma'no va grammatik xususiyatlari jihatidan farq qiladi. SHu jihatdan so'zlar ayrim-ayrim leksik-grammatik guruhlarga, turkumlarga ajratiladi. So'zlarning ma'no va grammatik belgilarining o'xshashligiga qarab guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari deyiladi. So'zlarni turkumlarga ajratish uch tamoyilga tayanadi:

- 1) leksik-semantik tamoyil;
- 2) morfologik tamoyil;
- 3) sintaktik tamoyil.

Leksik-semantik tamoyilga ko'ra so'zlarni guruhlarga ajratishda, so'zning leksik ma'nosiga e'tibor beriladi. Masalan: tuz, non, tinchlik, daryo, tog', osmon kabi so'zlar predmet yoki predmetlik tushunchasini (bunday so'zlar ot so'z turkumi deb nomlangan); katta ko'cha, shirin olma, tiniq osmon, ko'k ko'ylak kabi ajratilgan so'zlar predmetning belgisini (bunday so'zlar sifat deb nomlangan), beshta daftar, yuzlab odam, o'ntadan o'quvchi, ikkinchi kurs kabilarda ajratilgan so'zlar predmetning miqdorini, tartibini (bunday so'zlar son deb nomlangan); ayrim so'zlar bormoq, kelmoq, yozmoq, kulmoq, uxlamoq kabi harakat va holat tushunchasini (bunday so'zlar fe'l deb nomlangan); asta o'qidi, do'stona gapirdi, piyoda yurdi kabi ajratilgan so'zlar esa ish-harakatning belgisini (bunday so'zlar ravish deb nomlangan) bildiradi.

CHunonchi, ayrim soʻzlar predmet, belgi, miqdor maʼnosini nomlab koʻrsatmasa ham, ularning mavjudligiga ishora qiladi: men, sen, bu, shu, qancha, har kim, qandaydir kabi (bunday soʻzlar olmosh deb nomlangan).

Tilda shunday soʻzlar ham (bilan, va, ammo, uchun, chunki, albatta, yoʻq, -mi, -chi, eh, oh, dupur-dupur, yalt-yult kabi) borki, ular mustaqil holda leksik maʼno ifoda etmaydi, biror tushunchaning atamasi boʻla olmaydi. Bunday soʻzlar hozirgi oʻzbek tilida koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal, undov, taqlid soʻzlar deb yuritiladi.

Morfologik tamoyilga koʻra soʻzlarni guruhlariga ajratishda ularning morfologik xususiyatlari asos qilib olinadi. Soʻzlarning qanday morfologik shaklda kelishi uning maʼno xususiyati bilan bogʻliq. Masalan: predmet tushunchasini anglatadigan soʻzlar (otlar) son, egalik, kelishik kabi grammatik shakllarga; predmetning, ish-harakatning belgisini bildiradigan soʻzlar (sifat va ravishlar) daraja shakliga; harakat yoki holat maʼnosini bildirgan soʻzlar (feʼl) nisbat, zamon, shaxs-son, mayl kabi grammatik shakllarga ega.

Predmet yoki shaxsga ishora qiluvchi soʻzlar (olmosh) ham morfologik jihatdan oʻzgarib, son, egalik, kelishik shaklida kela oladi.

Predmetning miqdori va tartibini anglatuvchi soʻzlar (son) morfologik jihatdan oʻzgarmaydi. SHuningdek, leksik maʼno anglatmaydigan soʻzlar (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal soʻz, undov va taqlid soʻzlar) ham morfologik shakllarga ega emas.

Sintaktik tamoyilga koʻra soʻzlarni guruhlariga ajratish esa uning sintaktik tomoni, yaʼni qanday soʻzlar bilan grammatik munosabatga kirishi, gapda bajaradigan sintaktik vazifasiga koʻra belgilanadi. Masalan: predmet maʼnosini anglatuvchi soʻzlar (ot) bosh kelishik shaklida ega va kesim vazifasini, qaratqich kelishigi shaklida aniqlovchi, tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi shakllarida toʻldiruvchi va hol vazifalarida keladi: dars boshlandi, odamning koʻrki, xatni yozdi, universitetda oʻqiydi kabi.

Belgi bildiradigan soʻzlar (sifat, son, ravish) predmet yoki harakat ifodalovchi soʻzlar bilan grammatik munosabatga kirishib, gapda aniqlovchi yoki hol vazifalarida keladi (toʻgʻri soʻz, oʻz, beshta bola, koʻp kitob, yaxshi oʻqiydi, birinchi keldi kabi).

Predmet, belgi, miqdorning mavjudligiga ishora qiluvchi, ular oʻrnida almashinib qoʻllanuvchi soʻzlar (olmoshlar) gapda nimaga ishora qilishi va qanday soʻzlar bilan birikishiga koʻra gapda ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida keladi (men gapirdim, maqsadim – shu, bu bino, nimani oʻqiding, qaerda yashaydi kabi).

Tilda mavjud leksik maʼno ifoda etmaydigan soʻzlar esa (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama) leksik maʼno ifodalovchi soʻzlar orasidagi grammatik munosabatni shakllantiradi, ga pyoki uning tarkibidagi ayrim soʻzlarga qoʻshimcha maʼno qoʻshadi. Bunday soʻzlar sintaktik vazifa bajarmaydi.

SHuningdek, leksik maʼno ifodalamay, biror hodisaning atamasi (nomi) boʻlmasa ham, leksik gap boʻlagi sifatida yoki mustaqil holda soʻz-gap sifatida qoʻllana oladigan soʻzlar (modal, undov, taqlid soʻzlar) ham mavjud (kerak, zarur, bor, oh, eh, uf, ey, gup-gup, dupur-dupur kabi).

Demak, soʻzlarning gapda qanday gap boʻlagi boʻlib kelishi, uning qanday soʻzlar bilan aloqaga kira olishi, maʼnosiga va grammatik shakliga bogʻliqdir.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibidagi soʻzlar leksik-semantik, morfologik va sintaktik tamoyilga tayangan holda quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1) mustaqil soʻzlar, 2) yordamchi soʻzlar, 3) modal, undov va taqlid soʻzlar.

Mustaqil holda leksik maʼno ifoda eta oladigan biror morfologik shaklda kelib, gap boʻlagi vazifasini bajaradigan soʻzlarga mustaqil soʻzlar deyiladi. Mustaqil soʻzlarga ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish kabi soʻz turkumlari kiradi.

Mustaqil holda leksik maʼno ifoda etmay, gap boʻlagi vazifasini bajarmaydigan, faqat soʻzlar orasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydigan yoki ularga qoʻshimcha maʼno qoʻshishga xizmat qiladigan soʻzlar yordamchi soʻzlar deyiladi. Yordamchi soʻzlarga koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama kiradi.

Modal soʻzlar modal maʼno ifodalashi jihatidan yuklamalarga oʻxshasa-da, lekin undan farqli ravishda gapda gap boʻlagi (kesim, sostavli kesim tarkibida) vazifasida, butun bir gap tarzida kela oladi.

Undov va taqlid soʻzlar mustaqil soʻzlar kabi biror hodisaning nomi boʻla olmaydi, lekin gap boʻlagi vazifasida soʻz-gap vazifasida kela oladi. SHuning uchun ham bunday soʻzlar alohida guruhni tashkil etadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Grammatik maʼnoni ifodalash vositalari haqida gapiring.
2. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida qanday turkumlar yasaladi? Misollar.
3. Soʻzlarni qoʻshib, juftlab yasashda qanday soʻzlar hosil boʻladi?
4. Qisqartma usul haqida gapiring.
5. Qaysi turkumlardagi soʻzlar boshqa turkumga koʻchib, yangi soʻz yasaladi?
6. Soʻzlarni takrorlash yordamida soʻz yasalishi haqida gapiring.
7. Sodda tub va sodda yasama soʻzlarga misollar keltiring.
8. Qoʻshma soʻzlarga misollar keltiring.
9. Qisqartma soʻzlarning turli koʻrinishlariga misollar keltiring.
10. Juft soʻzlarning qismlari qanday xususiyatlarga ega boʻlishi mumkin?
11. Juft soʻzlarning qismlari maʼno jihatdan qanday turlarga ega boʻlishi mumkin?
12. Takroriy soʻzlar qanday maʼnolarni ifodalaydi?
13. Morfologiya va sintaksis boʻlimlari-da qanday masalalar oʻrganiladi?
14. “Grammatika” va “morfologiya” soʻzlarining maʼnolarini izohlang.
15. “Soʻz turkumlari” deganda nimani tushunasiz?
16. Mustaqil soʻzlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring.
17. Yordamchi soʻzlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring.

Soʻz yasalishi va grammatika boʻyicha test savollari:

1. Soʻz yasalish haqida bildirilgan qaysi hukm notoʻgʻri?

A) soʻz yasovchi qoʻshimchalar baʼzan shakl yasovchi qoʻshimchalardan keyin qoʻshilishi mumkin; B) qoʻshma soʻzlardan yasovchi qoʻshimcha yordamida yangi

soʻz yasash mumkin; C) juft va takroriy soʻzlardan yasovchi qoʻshimcha yordamida yangi soʻz yasash mumkin; D) barcha hukmlar notoʻgʻri;

2. Mustaqil soʻz turkumlaridan qay birida yasaliş xususiyati yoʻq?

A) son, olmosh B) ravish, olmosh C) son, ravish D) sifat, ravish

3. Tub soʻzni aniqlang.

A) yuksak B) boylik C) aqlli D) sana

4. Manmanlik qilib netarsan, obroʻyingdan ketarsan. Ushbu maqolda qoʻllangan yasama soʻzlarga qaysi qatorda toʻgʻri izoh berilgan?

A) otdan qoʻshimcha orqali ot yasalgan B) ot hamda feʻldan yasama soʻzlar yasalgan C) olmoshdan ot va feʻldan feʻl yasalgan D) olmoshdan ot yasalgan

5. Yasama soʻzlar qatorini toping.

A) shaftolizor, musobaqa, tepalik B) bilim, olim, tilim

C) gulla, chirilla, oʻzim D) oʻkinch, oʻroq, unum

6. Qoʻshma soʻzlarni toping.

A) chiza oldi B) quvonib ketdi C) oʻqib chiqdi D) olib chiqdi

7. Yasama soʻzlarni toping.

A) yigʻlab yubordi, ayta oldi B) yozib oldi, oʻqib chiqdi

C) yona boshladi, qarab qoʻydi D) javoblarda yasama soʻz berilmagan

8. Oʻzaro sinonim boʻlmagan soʻzlardan hosil boʻlgan juft soʻzni aniqlang.

A) eski-tuski B) uzuq-yuluq C) oʻy-xayol D) sogʻ-salomat

9. Qaysi qatorda qoʻshma soʻzlar berilgan?

A) havo rang, soatsoz B) sotib olmoq, koʻkalamzorlashtirish

C) kaltafahm, aravakash D) bilim yurti, bayon qilmoq.

10. Qaysi qatorda yasama soʻz bor?

A) dasturxonimizda B) oʻynatmoq

C) tushuntirmoq D) maqtanmoq

11. Qaysi qatorda yasama soʻz bor?

A) bebaho B) bir necha C) taklif qilmoq D) A, B va C.

12. Tub soʻzni toping.

A) toʻkin(kuz), sogʻin (sigir) soʻz B) quruq, erkin

C) toʻqmoq, tarmoq D) barchasi tub soʻz

13. Qaysi qatorda tub soʻz bor?

A) uygʻoq B) tarqoq C) quvnoq D) porloq

14. Yasama soʻzlar qatorini toping.

A) qoʻlqop B) oʻyna C) sotib olmoq D) A, B, C.

15. Quyidagi yasama soʻzlardan qay biri oʻzakdosh soʻz hisoblanmaydi?

A) tinch B) tinim C) tintuv D) tiniq

16. Tub soʻz qaysi qatorda?

A) ishlarimizni B) qoʻlqop C) temir yoʻl D) ishyoqmas

17. Qaysi soʻzlarning tarkibi ikki soʻz turkumidan iborat boʻlishi mumkin?

A) juft soʻz B) takroriy soʻz C) qoʻshma soʻz D) A va B

18. Salinning yuzi ozgʻin, boʻyi uzunroq, elkalari puchroq edi. Ushbu gapdagi yasama soʻzlar miqdorini aniqlang.

A) 4 B) 3 C) 2 D) 1

19. Qaysi soʻz turkumlari yasalmaydi? 1) sifat; 2) son;

3) *olmosh*; 4) *ravish*; 5) *taqlid soʻzlar*; 6) *undov soʻzlar*.

A) 1,4 B) 2,3 C) 1,2,3,4 D) 2,3,5,6

20. Yasama soʻzni toping.

A) *Berilgan soʻzlar tub soʻzlar*. B) *tibbiy* C) *samimiy* D) *milliy*

21. Yasama soʻzlarni aniqlang: 1) dukurla; 2) bukla;

3) ishqala; 4) oʻyla; 5) qashila 6) tipirchila.

A) faqat 1 va 4. B) barcha qatorda yasama soʻzlar berilgan

C) 1,2,4 – yasama soʻz, 3,5,6 – maʼnoli qismlarga ajralmaydi. D) 1,2,3,4

22. Birdan ortiq mustaqil maʼnoli soʻzlarning birikuvidan hosil boʻlgan yangi soʻzlar qatorini aniqlang.

A) *gʻuborsiz, sharsimon, ishchan* B) *doʻstlik, gulzor, qalamdon* C) *sadarayhon, sotib olmoq, tuyaqush* D) *ishla, koʻkar, boʻsha*

23. 1) *fikr-mulohaza*; 2) *ota-ona*; 3) *kuch-qudrat*; 4) *koʻrpa-toʻshak*; 5) *mehr-muhabbat*; 6) *yigit-qiz*; 7) *qiz-juvon*. Berilgan juft soʻzlardan qaysi biri -lar qoʻshimchasiz ishlatilmaydi?

A) 1,3,6,7 B) 3,4,6,7 C) 4,5 D) 5,6

24. Kamlikning kamoli bor, manmanlikning zavoli bor. Ushbu gapdagi yasama soʻzlarning miqdorini va qaysi soʻz turkumidan yasalganini aniqlang.

A) 2 ta yasama soʻz; ot va olmoshdan yasalgan B) 3 ta yasama soʻz; ravish, ot va sifatdan yasalgan C) 2 ta; ravish va otdan yasalgan D) 2 ta yasama soʻz; ravish va olmoshdan yasalgan.

25. Ikkala qismi ham maʼno anglatmaydigan juft soʻzlarni aniqlang.

A) *qaqir-ququr, uvali-juvali, aji-buji* B) *chala-chulpa, qora-qura, ot-ulov* C) *gap-soʻz, idish-tovoq, ikir-chikir* D) *sap-salqin, ur-yiqit, eski-tuski*

26. Qaysi juft soʻzlar tarkibidagi soʻzlar oʻrnini almashtirib qoʻllash mumkin? 1) *qishin-yozin*; 2) *qozon-tovoq*;

3) *chang-toʻzon*; 4) *asta-sekin*; 5) *eson-omon*; 6) *yor-doʻst*.

A) 1,2,3,5 B) 4,5,6 C) 1,4,5,6 D) 4,5

27. Qaysi qatorda yasama soʻz bor?

A) *yigʻla* B) *togʻa* C) *jizza* D) *sanam*

28. Takroriy soʻz bor qatorni toping.

A) *non-pon* B) *keldi-ketdi* C) *kam-koʻst* D) *unda-bunda*

29. Soʻzlarning grammatik tuzilishi va oʻzgarishi tilshunoslikning qaysi boʻlimida oʻrganiladi?

A) *leksikologiya* B) *orfografiya* C) *morfologiya* D) *sintaksis*

30. Yasama soʻz bor qatorni toping.

A) *bitirmoq* B) *toʻlatmoq* C) *sezmay turdi* D) *oʻsib bormoq*

31. Morfologiya soʻzning qaysi tomonini tekshiradi?

A) *soʻzning lugʻaviy maʼnosini* B) *soʻzning grammatik shaklini* C) *soʻzning grammatik maʼnosini* D) B va C

32. Qaysi qatordagi soʻz grammatik jihatdan shakllangan?

A) *oʻqiyapsan* B) *bogʻ tomon* C) *asta-sekin* D) A,B,C

33. Qaysi soʻz turkumlari grammatik maʼnolar ifodalashga xizmat qiladi?

A) *kesim vazifasida kela oladigan barcha soʻz turkumlar*

B) barcha mustaqil soʻz turkumlar C) barcha yordamchi soʻzlar D) barcha soʻz turkumlari

34. Soʻzlarni turkumlarga ajratishda qaysi xususiyatlar hisobga olinadi?

A) soʻzning maʼnosi B) soʻzning baʼzi morfologik xususiyatlari C) soʻzning sintaktik vazifasi D) A,B,C.

35. Borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni bildirish-bildirmasligiga koʻra soʻzlar qanday turlarga boʻlinadi?

A) atoqli otlar va turdosh otlar B) mavhum otlar va aniq otlar C) mustaqil soʻzlar va mustaqil boʻlmagan soʻzlar D) narsa bildiruvchi, belgi bildiruvchi va harakat bildiruvchi soʻzlar

36. Qaysi vositalar grammatik maʼno ifodalovchi hisoblanmaydi?

A) soʻz yasovchi qoʻshimchalar B) shakl yasovchi qoʻshimchalar C) soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar D) takrorlar

OT

1 -§. Otning leksik-grammatik xususiyatlari

Predmetning nomini (keng maʼnoda) bildiruvchi mustaqil soʻz turkumiga ot deyiladi. Ot soʻz turkumiga oid soʻzlar kim? nima? kimlar? nimalar? savollaridan biriga javob beradi: oʻqituvchi, xonanda, tilshunos – kim?, er, suv, tuz, non – nima? kabi.

Keng maʼnoda predmet maʼnosini ifodalash otning leksik xususiyatidir. Predmetlik maʼnosini tirik mavjudotlar (parranda, qush, chumoli kabi), er va osmonga oid narsalarning nomi (quyosh, oy, togʻ, tosh, daryo kabi), kundalik turmushga oid narsalarning nomi (tuz, non, choynak, qatiq kabi), oʻsimliklarning nomi (paxta, sholi, joʻxori, beda kabi), voqea-hodisa, belgi, xususiyat va munosabatlarning nomi (toʻy, anjuman, majlis, shodlik, ishonch, kurash kabi), oʻrin va vaqt nomlari (yoz, kuz, pastlik, tepalik kabi), shuningdek atab qoʻyilgan shaxs va predmet nomlari (Toshkent, Zulfiya, Sirdaryo, «Oʻqituvchi» nashriyoti kabi) ifoda etadi.

Ot shu maʼno xususiyati jihatidan ikki turga boʻlinadi: turdosh otlar va atoqli otlar. Kitob, daftar, tinchlik – turdosh otlar; Samarqand, Akmal, «Qora koʻzlar» (roman), «Fan» (nashriyot) - atoqli otlar.

Ot oʻziga xos morfologik xususiyatlarga ega, yaʼni:

1) Ot son kategoriyasiga ega, yaʼni predmet anglatuvchi soʻzlar birlik va koʻplik sonda qoʻllanadi. Otlar birlik sonda yakka bir predmetni ifodalaydi: daraxt – yakka bir predmet, birlik son shaklida kelgan; daraxtlar - noaniq koʻplik son shaklida kelgan;

2) ot egalik kategoriyasiga ega, yaʼni predmetning uch shaxsdan biriga (soʻzlovchi, tinglovchi, oʻzga shaxsga) taalluqliligini, qarashliligini, maksubligini bildiradi: mening daftarim, sening ukang, uning quvonchi kabi;

3) ot kelishik kategoriyasiga ega. Otlar oltita kelishik maʼnosiga ega boʻlib, bu kelishik shakllari otning boshqa soʻzlarga boʻlgan sintaktik munosabatini ifodalaydi (Barnoning kitobi, kitobni oʻqidi, kitobdan foydalandi kabi);

Ot oʻziga xos sintaktik belgilarga ham ega:

1) ot ot bilan bogʻlanadi. Bosh va qaratqich kelishigidagi otlar ana shunday xususiyatga ega: paxta gʻururimiz, farzandning baxti kabi;

2) ot feʼl bilan bogʻlanadi, yaʼni tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigidagi otlar feʼl bilan birikadi: xatni oʻqidi, xatga qaradi, xatda yozilgan, xatdan koʻchirdi kabi;

3) ot baʼzan sifat, ravish, son, olmosh, taqlid va undov soʻzlar bilan ham birika oladi: osmon tiniq, uylar koʻp, beshta bola, maqsadim shu, dupur-dupur ovoz, holiga voy kabi;

4) bosh kelishik shaklidagi ot gapda asosan, ega va kesim, baʼzan sifatlovchi-aniqlovchi, izohlovchi kabi gap boʻlamlari vazifasida, shuningdek, undalma, nominativ gap tarzida keladi. Masalan: Oʻzbekiston – kelajagi buyuk davlat (I.Karimov). Olim kishi oʻzining ilmi va odobiga tayanadi. (Oz-oz oʻrganib dono boʻlur). Seni ulugʻlayman, ey ona xalqim (A.O.) Subhidam. Quyosh yotogʻidan bosh koʻtardi (P.Q.);

5) Qaratqich kelishigidagi ot qaratuvchi-aniqlovchi vazifasida keladi: Sen Pushkinning sevgan malagi (A.O.);

6) tushum, joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishigi shaklidagi otlar toʻldiruvchi, hol, baʼzan kesim vazifasini bajaradi. Masalan: Bayramni munosib mehnat tortiqlari bilan nishonlashdi (S.A.). Bogʻ chada daraxtlar oltin rang bilan tovlanardi (O.). Oltin oʻtda bilinadi, odam mehnatda. (Maqol).

Demak, otning qanday sintaktik vazifada kelishi uning qaysi kelishik shaklida kelishi bilan bogʻliqdir.

SHuningdek, ot soʻz turkumi soʻz yasaliş xususiyatiga ega. Ot soʻz turkumi faol soʻz yasaliş usullari morfologik, sintaktik va faqat ot soʻz turkumi yasaydigan abbreviatsiya usuli bilan yasaladi: xizmatchi, kulgi, taroq,

gulzor, sevinch (morfoloqik usul bilan); belbog‘, ko‘zoynak, baxt-saodat, ota-ona (sintaktik usul); DAN, ToshDPU (abbreviatsiya usuli bilan) kabi.

Otlarda modal shakl yasalishi ham mavjud. Otlarda modal ma‘no otning leksik ma‘nosiga kengaytirish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik, kesatq, ta‘kid, umumlashtirish kabi qo‘shimcha ma‘nolarni qo‘shish bilan hosil qilinadi: qizcha, qo‘zichoq, bo‘taloq, bolagina, Karimjon, Ra‘noxon, un-pun, non-pon kabi.

2 -§. Otlarning ma‘no turlari

Otlar ma‘no jihatdan ikki turga bo‘linadi: **atoqli otlar va turdosh otlar.**

Bir xildagi predmet (shaxs) yoki hodisalardagi birinchi ayirib ko‘rsatadigan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar atab qo‘yilgan nomlardir. Atoqli otlarga quyidagilar kiradi:

- 1) kishilarning ismi va familiyalari: Murod, O‘ktam, O‘tkir, Mahmudov, Ahmedov kabi;
- 2) yozuvchi va shoirlarning taxalluslari: Oybek, Uyg‘un, Muqimiy, Furqat kabi;
- 3) uy hayvonlariga atab qo‘yilgan nomlar: Olapar, To‘rtko‘z, Mosh kabi;
- 4) planeta, yulduzva sayyoralarning nomi: Er, Zuhra, Etti qaroqchi, Mirrix kabi.
- 5) geografik nomlar (shahar, qishloq, tog‘, daryo, ko‘l, cho‘l, qit‘a nomlari): Samarqand, CHotqol, Pomir, Ohangaron, CHirchiq, Osiy kabi;
- 6) oliy davlat va yuqori tashkilotlarning nomlari: O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Oliy Kengashi kabi;
- 7) ilmiy muassasalar, oliy o‘quv yurtlari, vazirliklar va korxonalar nomi: Paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti, Toshkent Davlat Pedagogika universiteti, Moliya vazirligi, Davlat banki kabi;
- 8) yuqori mansab, oliy faxriy unvon nomlari: O‘zbekiston Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi raisi, Bosh Qo‘mondon kabi;
- 9) turli anjuman, hujjat va rezolyutsiyalar, tarixiy voqealar nomi: Ulug‘ Vatan urushi, Mustaqillik kuni, Toshkent anjumani kabi;
- 10) fabrika, zavod, jamoa xo‘jaligi, sport jamiyatlari, kino, teatr, kitob, gazeta, jurnal nomlari: «SHarq yulduzi» xo‘jaligi, «O‘rtoq» konditer fabrikasi, «YOsh kuch» sport jamiyati, «Turkiston» kontsert zali, «YUlduzli tunlar» romani, «Ma‘rifat» gazetasi, «Guliston» jurnali kabi.

Atoqli otlar, odatda, bosh harf bilan yoziladi, shuningdek, ko‘plik son shaklida qo‘llanmaydi. SHu xususiyatlari bilan turdosh otlardan farq qiladi.

Bir turdagi predmet, hodisalarning umumlashtiruvchi nomi turdosh ot deyiladi: stol, kitob, tanbur, baxt, g‘ oya, anjuman kabi. Turdosh otlar atoqli otlarga nisbatan ko‘p miqdorni tashkil etadi. Turdosh otlar kichik harf bilan yoziladi.

Atoqli otlar turdosh otlarga yoki aksincha, turdosh otlar atoqli otga o‘tishi mumkin. Masalan, frantsiyalik ustaning nomi Batist (atoqli ot) so‘zi turdosh otga (matoning nomi) aylangan bo‘lsa, muhabbat turdosh oti (abstrakt ot) atoqli otga (ismga) aylangan.

Turdosh ot ifodalangan tushunchaning xususiyatiga ko‘ra konkret (aniq) va abstrakt (mavhum) otlarga ajratiladi. Bevosita predmet anglatadigan otlar konkret otlar deyiladi: qalam, daftar, bola, tog‘ kabi. Konkret otlarni bevosita sanash va ko‘rish mumkin: o‘nta daftar, beshta bola kabi. Birlik va ko‘plik shaklida kela oladi: bola (birlik) – bolalar (ko‘plik) kabi.

Mavhum tushunchani, belgini predmet sifatida ifodalaydigan otlar abstrakt ot deyiladi: tinchlik, iroda, baxt, quvonch kabi.

Abstrakt otlarni sanash va ko‘rish mumkin emas. Ko‘plik son shaklida qo‘llanmaydi.

Turdosh otlar birlik shaklda kelib yakka bir predmetni yoki predmetlarning to‘dasini ifodalashi mumkin. SHu xususiyatga ko‘ra turdosh otlarning ikki turi mavjud: yakka ot va jamlovchi ot.

Birlik shaklda kelib bir turdagi predmetlardan bittasini ifodalaydigan ot yakka ot deyiladi: daraxt, stol, kishi, daryo kabi.

Birlik shaklda kelsa ham, lekin bir turdagi predmetlarning jamini, to‘dasini ifodalaydigan ot jamlovchi ot deyiladi: xalq, lashkar, to‘da, olomon, ko‘pchilik, ozchilik kabi.

3 -§. Otlarda son kategoriyasi

Otlarga xos morfoloqik xususiyatlardan biri son kategoriyasidir. Otlarda son kategoriyasini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan birlik son shakli va ko‘plik son shakli tashkil etadi.

Birlik son shaklida qo‘llanuvchi otlar yakka bir predmetni yoki yakkalikni ajratilmaydigan predmetni anglatadi: qalam, daftar, tog‘, uy, talaba kabi. Birlik son shaklida qo‘llangan ot maxsus grammatik ko‘rsatkichga ega emas. SHuning uchun otning bunday qo‘shimcha olmagan shakli (nol ko‘rsatkichli shakl) grammatik jihatdan birlik son shakli deb qaraladi.

Ko‘plik son shaklida qo‘llanuvchi otlar ikki yoki undan ortiq predmetni (yoki noaniq ko‘plikni) anglatadi: qalamlar, daftarlar, tog‘lar, uylar, talabalar kabi.

Otlarda grammatik ko‘plik son shakli –lar affiksi bilan hosil qilinadi.

Ko‘rinadiki, otlardagi birlik ma‘nosi va ko‘plik ma‘nosi hamda bularni ifoda etuvchi shakllar yig‘indisi son kategoriyasini hosil qiladi.

Otlarda son kategoriyasini birlik va ko‘plik ma‘nosida qo‘llana oladigan otlarga xosdir. Sanash mumkin bo‘lgan, bevosita predmetni anglatadigan konkret turdosh otlar birlik shakli bilan birga ko‘plik son shaklida ham qo‘llanadi: xona – uchta xona – xonalar; bola – besh bola – bolalar kabi.

O‘zbek tilida birlik va ko‘plik son shakliga ega bo‘lgan otlar bilan bir qatorda faqat birlik shaklida qo‘llanadigan otlar ham mavjud.

Bunday otlarga abstrakt otlar (sevgi, ishonch, ko‘ngil kabi), donalab sanalmaydigan predmetlarni anglatuvchi otlar (un, suv, yog‘, guruch kabi), yakka bir predmetni anglatuvchi otlar (til, bosh, yurak kabi), juft predmetni anglatuvchi otlar (ko‘z, qosh, qo‘l, etik, paypoq kabi), atoqli otlar (Zulfiya, Toshkent, Sirdaryo kabi) kiradi. Ayrim hollarda bu otlarga –lar ko‘plik affiksi qo‘shila oladi. Bunday holda –lar ko‘plik ma‘nosini emas, balki quyidagi ma‘nolarni ifodalab keladi:

1. Abstrakt otlar, yakka bir predmetni anglatuvchi otlar, juft predmetni anglatuvchi otlarda –lar affiksi qo‘shilganda ma‘noni kuchaytiradi yoki ta‘kidlaydi: Kumushning qoshlari chimirildi (A.Qodiriy).

2. Donalab sanalmaydigan predmetni anglatuvchi otlarga –lar affiksi qo‘shilganda, shu predmetning turi, navi, yoki mo‘llic kabi ma‘nolarni bildiradi: Zilol suvlar, eram kabi bog‘u-bo‘stonlar (G‘ayratiy).

3. Atoqli otlarga qo‘shilganda esa umumlashirish, birgalik kabi ma‘nolarni bildiradi: Saidalar kelishdi kabi.

SHuningdek, qarindosh-urug‘lik munosabatini bildiruvchi (ota, ona, buvi, aka, opa kabi) otlarga egalik qo‘shimchasidan keyin –lar affiksi qo‘shilganda, bu otlar hurmat ma‘nosini anglatadi: otamlar, opamlar, buvimlar kabi.

Otlarda ko‘plik ma‘nosi turli xil usullar bilan ifodalanadi.

1. Otlarda ko‘plik ma‘nosi, asosan, –lar affiksini qo‘shish bilan hosil qilinadi. Ko‘plik ma‘nosining bunday maxsus grammatik ko‘rsatkich bilan ifodalanishi ko‘plikning morfologik usul bilan ifodalanishi sanaladi: eshiklar, ko‘chalar kabi. Bunday otlarga grammatik jihatdan ham, semantik jihatdan ham ko‘plik son shaklida deb qaraladi. Otlarda ko‘plik ma‘nosi, asosan shu usul bilan ifodalanadi.

2. Otlarda ko‘plik ma‘nosi leksik ma‘nosi ko‘p predmetni bildiradigan otlar orqali ham anglashiladi. Bunday otlar birlik shaklida bo‘lsa ham, bir turdagi predmetlarning to‘dasini, jamini bildiradi: to‘da, gala, aholi, xalq, olomon kabi. Ko‘plik ma‘nosini bunday jamlovchi otlar orqali ifodalanishi leksik-semantik usul deyiladi. Bunday ma‘nodagi otlarga grammatik jihatdan birlik shaklda, lekin semantik jihatdan ko‘plikda deb qaraladi.

3. Otlarda ko‘plik ma‘nosi ot oldidan miqdor bildiruvchi ravishlar, sanoq sonlar, gumon olmoshlarini keltirish, so‘zlarni takrorlash bilan ham hosil qilinadi. Bu usul bilan ko‘plik ma‘nosining ifodalanishiga sintaktik usul deyiladi: ko‘p bola, uchta kitob, bir necha qiz, dasta-dasta gul, to‘da-to‘da odam kabi.

4 -§. Otlarda egalik kategoriyasi

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga (ba‘zan predmetga) taalluqli ekanligini ko‘rsatuvchi umumiy ma‘nolar va bu ma‘nolarni ifoda etuvchi shakllar tizimiga egalik kategoriyasi deyiladi.

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga, ya‘ni so‘zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o‘zga (III shaxs) shaxsga taalluqliligini ifodalaydigan affikslar egalik affikslari deyiladi. Egalik affikslari shaxs ma‘nosi bilan birga uning sonini (birlik yoki ko‘plik ma‘nosini) ham ifodalaydi. Egalik affikslari quyidagi jadvalda berilgan.

SHaxs	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	-(i)m	-(i)miz
II shaxs	-(i)ng	-(i)ngiz
III shaxs	-i, -si	-i, -si

Jadvaldan ko‘rinadiki, III shaxs egalik affiksi birlik va ko‘plik son uchun umumiy. Predmetning bir shaxsga yoki ko‘p shaxsga taalluqliligi egalik affiksi olgan ot bog‘lanib kelgan so‘zning grammatik son shakliga qarab aniqlanadi: uning kitobi – birlik, ularning kitobi – ko‘plikdir.

SHuningdek, egalik affikslari ot negizining unli yoki undosh tovush bilan tugashiga qarab ikki xil shaklda qo‘llanadi.

SHaxs	Birlik		Ko‘plik	
	unlidan so‘ng	undoshdan so‘ng	unlidan so‘ng	undoshdan so‘ng
I shaxs	sovg‘a+ -m	daftar+ -im	sovg‘a+ -miz	daftar+ -imiz
II shaxs	sovg‘a+ -ng	daftar+ -ing	sovg‘a+ -ngiz	daftar+ -ingiz
III shaxs	sovg‘a+ -si	daftar+ -i	sovg‘a+ -si	daftar+ -i

Egalik affikslari odatda, ko‘plik affiksidan keyin qo‘shiladi: kitob+ -lar+ -im kabi.

Egalik affiksi qo‘shilgan ot, odatda, qaratqich kelishigidagi (belgili va belgisiz shakldagi) boshqa ot, olmosh va otlashgan so‘z bilan bog‘lanadi: daraxtning bargi, ipak qurti, mening vazifam, yaxshining so‘zi kabi. Bu

bog‘lanish egalik affiksini olgan ot anglatgan predmetning qaratqich kelishigida kelgan so‘zga qaramli ekanligini ko‘rsatadi.

Egalik affiksini olgan ot ba‘zan chiqish kelishigidagi ot bilan ham bog‘lanishi mumkin. Masalan: talabalardan bir guruhi kabi. Bunday bog‘lanishda egalik affiksini olgan ot yuqoridagi kabi qarashlilik ma‘nosini emas, balki aloqadorlik, mansublik ma‘nosini ifodalaydi. Demak, bu holda faqat grammatik egalik (aloqadorlik, mansublik) ma‘nosi mavjud.

Egalik affiksi I va II shaxsda predmetning qaysi shaxsiga tegishli ekanligini aniq ko‘rsatadi. Chunki bu shaxslar har vaqt kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: mening burchim, sening burching, bizning burchimiz, sizning burchingiz kabi. III shaxsda esa egalik affiksini olgan ot qaratqich kelishigida kelgan olmosh bilan ham, ot va otlashgan so‘zlar bilan ham bog‘lana oladi: uning burchi, farzandning baxti, ko‘plarning orzusi kabi.

Ba‘zan uslub talabi nuqtai nazaridan shaxs va egalik affiksini olgan ot orasidagi munosabat o‘zgacha bo‘lishi mumkin, ya‘ni II shaxs birlik sondagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning ko‘pligi uchun qo‘llanishi mumkin: senlarning maqsading kabi. YOki, aksincha, otning II shaxs ko‘plik shaklidagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning birligi uchun qo‘llanishi mumkin: sizning opangiz kabi. Birinchi holda kamsitish, kesatqich kabi ma‘nolar, ikkinchi holda esa hurmat ma‘nosi ifodalanadi.

Ot ko‘plik son shaklida kelib, ko‘plik ma‘nosini ifodalaganda, egalik affiksi –lar qo‘shimchasidan keyin qo‘shiladi: opalarim kabi. Lekin hurmat ma‘nosi ifodalanganda, egalik affikslari –lar qo‘shimchasidan oldin qo‘shiladi: opamlar, akamlar kabi.

Egalik affikslari otning gapdagi sintaktik vazifasini ko‘rsatmaydi.

Ba‘zi otlarga egalik affikslari qo‘shilganda, so‘z tarkibida turli fonetik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bular quyidagilar:

1. *k, q* undoshi bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga, shuningdek, bek kabi ayrim bir bo‘g‘inli so‘zlarga egalik affikslari qo‘shilganda, *k* undoshi *g* undoshiga, *q* undoshi *g* undoshiga aylanadi va bu holat yozuvda ham saqlanadi: tilak – tilagi, yurak – yuragi, bek – begi, kubok – kubogi, qishloq - qishlog‘i kabi. Lekin ko‘p bo‘g‘inli o‘zlashma so‘zlarga, bir bo‘g‘inli so‘zlarga (ko‘p hollarda) egalik affikslari qo‘shilganda *k, q* undoshi asliga mos holda aytiladi va yoziladi: ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherking, erk – erki; huquq - huquqim, zavq - zavqi kabi.

2. O‘rin, qorin, burun, o‘g‘il, bo‘yin, ko‘ngil, singil kabi otlarga egalik affikslari qo‘shilganda, ikkinchi bo‘g‘indagi *i, u* unlilari talaffuzda aytilmaydi va yozilmaydi: o‘rin - o‘rnim, qorin - qornim, burun – burning, o‘g‘il - o‘g‘lim, ko‘ngil – ko‘ngli, singil – singlim kabi.

3. Parvo, obro‘, mavqe, avzo, mavzu so‘zlariga I va II shaxs egalik affikslari qo‘shilganda, so‘z tarkibida bir y tovushi qo‘shim aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying, obro‘yim, obro‘ying kabi; III shaxsda esa parvo, obro‘, mavqe, avzo so‘zlari parvoyi, obro‘yi, mavqeyi, avzoyi kabi, mavzu so‘zi esa mavzusi tarzida aytiladi va yoziladi.

5 -§. Otlarda kelishik kategoriyasi

Ot (yoki otlashgan so‘z)ning boshqa so‘zlarga bo‘lgan sintaktik munosabatini ko‘rsatuvchi ma‘nolar va bu ma‘nolarni ifodalovchi shakllar tizimiga kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi oltita grammatik ma‘no va uni ifoda etuvchi shakllarni o‘z ichiga oladi. Bularga bosh kelishik, qaratqich kelishik, tushum kelishik, jo‘nalish kelishik, o‘rin-payt kelishik va chiqish kelishik kabi grammatik ma‘nolar hamda bu ma‘nolarni ifodalovchi –ning, -ni, -ga (-ka,-qa), -da, -dan kelishik shakllari kiradi. Har bir kelishik o‘z nomi, ifoda shakliga ega, ma‘lum bir so‘roqlarga javob beradi.

Kelishiklar	Turlanishi	So‘roqlari
Bosh kelishik	<i>Saida, kitob, Toshkent</i>	<i>kim? nima? qaer?</i>
Qaratqich kelishik	<i>Saidaning, kitobning, Toshkentning</i>	<i>kimning? nimaning? qaerning?</i>
Tushum kelishik	<i>Saidani, kitobni, Toshkentni</i>	<i>kimni? nimani? qaerni?</i>
Jo‘nalish kelishik	<i>Saidaga, kitobga, Toshkentga</i>	<i>kimga? nimaga? qaerga</i>
O‘rin-payt kelishik	<i>Saidada, kitobda, Toshkentda</i>	<i>kimda? nimada? qaerda</i>
CHiqish kelishik	<i>Saidadan, kitobdan, Toshkentdan</i>	<i>kimdan? nimadan? qaerdan?</i>

Otlarda kelishik affikslari turlovchi affikslar deb ham yuritiladi. Otlarning kelishiklar bilan o‘zgarishi turlanish deb yuritiladi.

Kelishik affiksi yo‘q holat bosh kelishik bo‘lib, bunday shakldagi ot ko‘pincha boshqa so‘zni o‘ziga tobelaydi. SHuning uchun ham bosh kelishik deb yuritiladi. Qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt chiqish kelishigi shaklidagi ot gapda boshqa so‘zlarga grammatik jihatdan tobe bo‘ladi. Bu kelishiklar vositali kelishiklar deyiladi. Masalan: *Pokiza aql insonni ayb va kamchiliklardan qutqaradi (U.Mahkamov)*. Bu gapda aql so‘zi bosh kelishikda bo‘lib, affiksi bo‘lmagan shaklda qutqaradi fe‘liga nisbatan hokim holatda; insonni so‘zi –ni tushum

kelishigi shakli vositasida, ayb (-dan), kamchiliklardan soʻzlari –dan chiqish kelishigi vositasida qutqaradi feʻliga tobe boʻlib kelgan.

Kelishik shaklidagi otlar boshqa soʻzlar bilan oʻzaro sintaktik munosabatga kirishadi.

Qaratqich va qisman bosh kelishik shakli ot bilan otning, tushum, joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishiklari, odatda, ot bilan feʻlning sintaktik munosabatini koʻrsatadi: oilaning koʻrki, onani ardoqlamoq, sayohatga bordi, maktabdan qaytdi.

Baʼzan kelishik shaklidagi otlar sifat, son, olmosh, ravish, undov bilan ham bogʻlanib, ularga tobe boʻlib keladi: ipakdan mayin, talabalardan beshtasi, Barnoning oʻzi, xonada koʻp, holiga voy kabi.

Kelishik shaklida kelgan otning maʼnosi va vazifasi uning leksik grammatik maʼnosi, qanday soʻzlar bilan (feʻl, ot) bogʻlanishiga qarab aniqlanadi. Masalan: joʻnalish kelishigining asosiy maʼnosi harakatning yoʻnalish oʻrnini koʻrsatishidir: maktabga bordi. Bu maʼnodan tashqari joʻnalish kelishigida kelgan ot vosita, payt, atash, maqsad maʼnolarini ifoda qiladi: rasmga qaradi, kuzga qoldirildi, singlisiga oldi, oʻqishga keldi kabi. Lekin kelishik maʼnolaridan biri asosiy maʼno sanaladi, kelishik nomi shu asosiy maʼnoga koʻra nomlanadi.

Bosh kelishikdagi ot shaxs, predmet, voqea-hodisalarning nomini ataydi. Kim? nima? qaer? kabi soʻroqlardan biriga javob beradi. Bu kelishikning koʻrsatkichi yoʻq, yaʼni nol koʻrsatkichli shaklda keladi. Bunday shakl tahlilda Ø belgisi bilan ifodalanadi.

Bosh kelishik shaklida kelgan otning asosiy sintaktik vazifasi ega vazifasida kelishdir. Masalan: Himmatlilik oʻzining saxovati bilan odamlar qalbiga singib ketadi. (Oʻ.Mahkamov)

Nutqda oz uchasada, ega vazifasidagi soʻz qaer? soʻrogʻiga ham javob boʻlib keladi, bunday holda oʻrin predmeti maʼnosi anglashiladi. Masalan: Toshkent – tinchlik shahri.

Oʻzbek tilida bosh kelishikdagi ot yana bir necha sintaktik vazifani bajaradi.

1.Kesim vazifasida keladi: Ilm – insoniyat gavhari (Bedil).

2.Izohlovchi vazifasida keladi: Navroʻzda Ona tabiat uygʻ onadi.

3.Sifatlovchi vazifasida keladi: Poʻlat pichoq qinsiz qolmas (Maqol). Bunda bosh kelishik shaklida kelgan ot boshqa ot oldida kelib, qanday? qanaqa? soʻroqlaridan biriga javob beradi.

4.Hol vazifasida keladi: YUlduzlar chaman-chaman yonadi (O).

5.Undalma vazifasida keladi: YAxshilik qil, bolam, yomonlikni ot! Undalma vasifasida kelgan bosh kelishikdagi ot gap boʻlamlari bilan grammatik jihatdan bogʻlanmaydi.

6.Nominativ (atov) gap vazifasida keladi: Subhidam. *Quyosh yotogʻidan bosh koʻtardi (T.Q.).*

Bundan tashqari bosh kelishikdagi otlar koʻmakchi shaklda kelib toʻldiruvchi va hol vazifasini ham bajaradi. Masalan: Igna bilan quduq qazib boʻlmas (Maqol). YUksak quyosh kabi, yuksak oy kabi. Sep bilan bezalsin yurtning fazosi (Uygʻun).

Qaratqich kelishigi biror predmetning shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmetga yoki shaxsga qarashli ekanligini ifodalaydi. Qaratqich kelishigida kelgan ot kimning? nimaning? qaerning? kabi soʻroqlardan biriga javob beradi. –ning affiksi bilan shakllanadi. Masalan: Bilim va donishmandlik insonning bezagidir (A.Navoiy).

Baʼzan sheʼriyatda qaratqich kelishigi egalik affiksida soʻng –n shaklida ham qoʻllanadi: Har bolam ufurgan nafasin atri. SHeʼrimning eng etuk, eng yaxshi satri (Gʻ .Gʻulom).

Qaratqich kelishigidagi ot egalik affiksini olgan ot bilan grammatik jihatdan bogʻlanib, gapda aniqlovchining turi qaratuvchi vazifasida keladi. Qaratqich kelishigidagi soʻz qaratuvchi, unga bogʻlanib kelgan egalik affiksini olgan ot esa qaralmish sanaladi. Masalan: Guruchning kurmagi bor, yomonning toʻgʻ mogʻi bor (Maqol).

Qaratqich kelishigi ikki xil – belgili yoki belgisiz shaklda qoʻllanadi.

Qaratqich kelishigi –ning (-n) affiksi bilan qoʻllansa, belgili sanaladi. Belgili qaratqich kelishigidagi ot aniq qarashlilik maʼnosini ifodalaydi: daraxtning ildizi, onaning baxti kabi.

Qaratqich kelishigi –ning affiksi bilan qoʻllanmasa, belgisiz sanaladi: umid uchquni, bahor fasli kabi. Belgisiz qaratqich kelishigidagi ot oʻzi bogʻlanib kelgan ot anglatgan predmetning qaratqich kelishigidagi ot anglatgan predmetga aloqador hodisa ekanligini ifodalaydi.

Belgisiz qaratqich kelishigidagi ot oʻzi bogʻlangan ot bilan maʼno va grammatik jihatdan juda zich bogʻlangan boʻlib, ular orasiga boshqa soʻz kiritish mumkin emas.

Qaratqich kelishigi quyidagi hollarda belgili qoʻllanadi:

1.Qaratqich kelishigidagi ot shaxs otlari boʻlganda: Zulfiyaning xati, talabaning bahosi kabi.

2.Butunning qismini anglatgan otlar: uzukning koʻzi, stolning oyogʻi kabi.

3.Qaratqich kelishigidagi soʻz oʻzi bogʻlatgan otdan anglashilgan predmet bilan oʻzaro genetik aloqada boʻlsa: buvining nevarasi, sherning bolasi kabi.

4.Qaratqich kelishigidagi soʻz manba maʼnosini ifodalaganda: olimning maʼruzasi, talabaning fikri kabi.

5.Qaratqich kelishigidagi soʻz bilan qaralmish oʻrtasida boshqa soʻzlar kelganda: shaharning baland imoratlari, yozning issiq shamoli kabi.

6. Qaratqich kelishigida ot oʻzining maxsus aniqlovchisiga ega boʻlganda: aloʻchi oʻquvchining hulqi kabi.

7. Qaratqich kelishigidagi soʻz tarkibida –lar koʻplik affiksi qoʻllanganda: qizlarning raqsi, gullarning hidi kabi.

8. Qaralmish otlashgan soʻzlar bilan ifodalanganda: olmaning shirini, soʻzning ozi, doʻstlarning uchtasi kabi.

Qaratqich kelishigi quyidagi hollarda belgisiz qoʻllanadi:

1. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot abstrakt otlar bilan ifodalanganda: muhabbat sehri, bilim manbai, ilm ahli, tafakkur gulshani kabi.

2. Qaratqich va qaralmish munosabatidagi otlar payt ma'nosini anglatganda: bahor fasli, oqshom payti, tong chog'i, yakshanba kuni kabi.

3. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot ifodalagan predmetning qaralmish ifodalagan predmetga umumiy xosligini bildirganda: ipak qurti, er islohoti kabi.

4. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot nomiga qo'yilgan, atab qo'yilgan otlar bilan ifodalanganda: Navoiy teatri, Orol dengizi, Toshkent shahri kabi.

5. Qaratqich kelishigi shaklidagi otlar bir-biriga tobe holda birin-ketin kelganda, eng so'nggisidagi oldingilari belgisiz shaklda qo'llanadi: Toshkent Davlat pedagogika universiteti, boshlang'ich ta'lim va defektologiya fakulteti boshlang'ich ta'lim bo'limining talabasi kabi.

Tushum kelishigi ot ish-harakatni o'z ustiga olgan predmetni anglatadi. Tushum kelishigidagi ot, odatda, ish-harakatni o'z ustiga olgan predmetni, ya'ni ob'ekt ma'nosini ifodalaganda kimni? nimani? so'rog'iga javob beradi: Hayot harakatni talab qiladi (Arastu).

Tushum kelishigidagi otning negizi o'rin ma'nosini anglatga, qaerni? so'rog'iga javob beradi: Hujrani yasatganmisan? (A.Qahhor). To'rtta karnay, oltita surnayning shovqini ko'kni tutdi (O.).

Tushum kelishigi –ni affiksi bilan shakllanadi: Ulug' kishilarni mehnat etiltiradi («Tafakkur gulshani»).

Ba'zan she'riyatda egalik affiksidan so'ng –n shaklida ham uchraydi: Olmazorlar gulin to'kadi, Meva bog'lab shoxin bukadi (H.O.).

Tushum kelishigida kelgan ot fe'l bilan bog'lanadi va gapda asosan, vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Tushum kelishigi ham qaratqich kelishigi singari 2 xil shaklda qo'llanadi: belgili tushum kelishigi va belgisiz tushum kelishigi.

Belgili tushum kelishigi shaklidagi ot –ni (-n) affiksini olgan holda keladi: Xushro'yning rahmsiz muhokamasidan oqqan bu haqiqatlar Zaynabni yig'latdi (A.Qodiriy).

Belgisiz tushum kelishigi shaklidagi otda esa –ni affiksi qo'llanmaydi: Gul tufayli tikan suvi ichar (Maqol).

Tushum kelishigining ham belgili va belgisiz shaklda qo'llanishi ma'no talabi va grammatik holatga ko'ra belgilanadi. Belgisiz tushum kelishigidagi otning tushum kelishigida ekanligi uning mazmunidan va fe'lga bog'lanishidan bilinib turadi.

Belgisiz tushum kelishigidagi ot fe'l kesim bilan juda zich bog'langan bo'lib, ular orasiga boshqa so'zni kiritib bo'lmaydi: Nazira singlisiga xat yozdi.

Tushum kelishigi quyidagi hollarda faqat belgili qo'llanadi:

1.Tushum kelishigi shaklidagi ot atoqli ot bilan ifodalangan holda: Saidani o'z qanoti ostiga oldi (A.Qahhor).

2.Tushum kelishigidagi ot payt bildiruvchi otlar bilan ifodalansa: Zulfiya ta'tilni yaxshi o'tkazdi.

3.Tushum kelishigidagi ot o'z aniqlovchisiga ega bo'lsa: Buk uchli irodani, bu jahoniy qudratni har kimki mensimasa, o'ziga-o'zi zolim (G'.G'ulom).

4.Tushum kelishigidagi ot bilan uni boshqargan fe'l o'rtasida boshqa so'zlar kelsa: Bog'ni bir bog' bon yaratadi, Ming odam bahramand bo'ladi (Hikmatlar xazinasi).

5.Tushum kelishigi shaklidagi ot, ya'ni kelishik affiksidan oldin egalik affiksi bo'lsa, belgili qo'llanadi: ... Uzoq vaqt hayotda yo'lini topolmay yuribdi (A.Qahhor).

SHuningdek, boshqa so'z turkumlari (olmosh, fe'lning harakat nomi shakli, otlashgan so'zlar) faqat belgili tushum kelishigi shaklida keladi.

Jo'nalish kelishigidagi ot ish-harakat yo'nalgan predmetni, shuningdek, harakatning bajarilish payti, ish-harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatadi. Otlarda jo'nalish kelishigining asosiy ma'nosi harakatning yo'nalish nuqtasini ifodalashdir. Ob'ekt, payt, sabab, maqsad kabi ma'no xususiyatlarining ifodalanishi bu kelishik shaklini olgan va uni boshqargan so'zning leksik ma'nosiga bog'liq. SHu ma'nolariga ko'ra jo'nalish kishilik shaklidagi ot kimga? nimaga? qaerga? qachon? kabi so'roqlarga javob beradi.

Jo'nalish kelishigi –ga affiksi bilan shakllanadi: daftarga, osmonga kabi. Lekin so'z negizi k tovushi bilan tugasa, -ka shaklida: q tovushi bilan tugasa, -qa shaklida qo'shiladi: terak-terakka, qishloq-qishloqqa kabi.

Jo'nalish kelishigidagi otlar quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1.Harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatganda, kimga? yoki nimaga? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi: Mahmudona, valdironchi odam ochiq bir maktubga o'xshaydi (Oz-oz o'rganib dono bo'lur).

2.Harakatning yo'nalish o'rnini anglatganda, qaerga? so'rog'iga javob bo'ladi va o'rin holi vazifasida keladi: Qishloqqa shahar tutash, ikkov birga hamnafas (G'.G'ulom). Inson agar jahol qilsa osmonni ham erga olib tushadi (Bedil).

3.Harakatning bajarilishi vaqtini anglatganda qachon? so'rog'iga javob bo'ladi va payt holi vazifasida keladi: To'y ko'klamga belgilandi.

SHuningdek, jo'nalish kelishigi shakli fe'lning harakat nomi, otlashgan sifatdoshlarga qo'shilib harakatning bajarilish sababi va maqsadini anglatib, nega? nima maqsadda? so'roqlariga javob beradi va gapda sabab, maqsad holi vazifasini bajaradi: Men Farg' onadan ataylab siz bilan ko'rishishga, rozi bo'lsangiz, otpuska

ichida to'y qilishga kelgan edim (Oydin). Turmushning qaynab turgan joyiga tushib qolganimga xursandman (A.M.).

O'rin-payt kelishigida ot ish-harakatning bajarilish o'rini, paytini va ish-harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatadi. Bu kelishik shaklidagi ot qanday leksik ma'noni anglatishiga qarab o'rin, payt, ob'ekt ma'nolari haqida gapiriladi. SHu ma'nolariga ko'ra o'rin-payt kelishigi shaklidagi ot kimda? nimada? qaerda? qachon? kabi so'roqlarga javob beradi. O'rin-payt kelishigi –da affiksi bilan shakllanadi: Sada tagidagi hovuzning zilol suvida yaproqlar suzadi (S.Z.). Ayvonda bosma guli bo'z ko'rpa yopilgan pastakkina tanchada qizlar o'tiradi (O.). SHavvozlarda shuncha hunar bor ekan-ku, bilmay yurgan ekanmiz (H.N.).

O'rin-payt kelishigidagi ot gapda quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

1.Ish-harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatib, kimda? nimada? so'rog'iga javob beradi va gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: Bolaga otaning mehnati singgan bo'lsa, so'ng u bolaning hulq-atvorida bilinadi (YUusuf Xos Hojib).

2.Ish-harakatning bajarilish o'rini anglatib, qaerda? so'rog'iga javob beradi va gapda o'rin holi vazifasini bajaradi: Vohidlarning qishlog'ida boshqa erlarda juda kam uchraydigan halim va shirin olma bor. (O.YO.)

3.Ish-harakatning bajarilish paytini anglatib, qachon? so'rog'iga javob beradi va gapda payt holi vazifasini bajaradi: Bahorda shaftoli gullari ko'm-ko'k maysalar ustida to'kilib qoladi (M.I.).

4.Ish-harakatning bajarilish holatini anglatib, qanday? so'rog'iga javob beradi va gapda ravish holi vazifasini bajaradi: Ular musiqani chuqur sukutda tinglar edi (O.).

Ba'zan predmet yoki hodisaning bo'lish o'rini, yoshini, holatini ifodalab, qaerda? nechada? kimda? nimada? so'roqlaridan biriga javob berib, gapda kesim vazifasini bajaradi: Singlim uyda. Barno yigirma yoshda. Kuch birlikda.

CHiqish kelishigi shaklidagi ot ish-harakatning kelib chiqish o'rni, manbai, payti, sababi, holati yoki ish-harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatadi. SHu ma'nolariga ko'ra chiqish kelishigi shaklidagi ot kimdan? nimadan? qaerdan? qachondan? kabi so'roqlardan biriga javob beradi. CHiqish kelishigi –dan affiksi bilan shakllanadi: Insonga bilimdan durustroq biror narsa topilmaydi («Hikmatlar xazinasi»).

CHiqish kelishigidagi ot gapda quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

1.Harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni, bir predmetni boshqa bir predmet bilan chog'ishtirish ma'nolarini anglatib, kimdan? nimadan? so'rog'iga javob beradi va gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi:

Imdan bir shu'la dilga tushgan on,

SHunda bilursankim, ilm bepoyon (Firdavsiy).

2.Harakatning boshlanish o'rini, payti, harakatning bajarilish holati, sababini anglatib, qaerdan? qachondan? qanday? nega? kabi so'roqlardan biriga javob beradi va gapda o'rin, payt, holat, sabab holi bo'lib keladi: Ulug' musavvir Kamoliddin Behzod hali yoshlikdan Hazrat Mirning tarbiyalari bilan ulg'aydilar (P.Q.). Zumrad ignani palakka to'g' nadi-da, o'rnidan turdi (O.) Umaralining yurakdan yozgan iliq so'zlari uning ko'nglini shodlikka to'ldirib yubordi (O.). El tikilar va sevinchidan javdiraydi ko'zlarida yosh (H.O.).

3.Kimdan? yoki nimadan? kabi so'roqlarga javob berib, gapda kesim vazifasida keladi: SHaxnoza, zerikmaydigan bo'ldingiz, bu onangiz havaskor alpinistlardan ekan (S.Abdullaeva).

6 -§. Otlarning yasalishi

Hozirgi o'zbek tilida ot so'z turkumi lug'at tarkibida mavjud bo'lgan so'zlarning miqdorini tashkil qiladi. CHunki ot so'z turkumi boshqa so'z turkumlariga nisbatan yangi so'zlar hisobiga tez boyib boradigan turkumdir.

O'zbek tilida ot morfologik, sintaktik va abbreviatsiya usullari bilan yasaladi.

Morfologik usul bilan ot yasash. Bu usulga ko'ra so'z negiziga maxsus ot yasovchi affikslarni qo'shish bilan yangi ot yasaladi. Ot yasovchi affikslar ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish kabi mustaqil so'z turkumlari, shuningdek, modal va taqlid so'z negizlaridan yasaladi.

Morfologik usul bilan ot yasovchi affikslar ma'no jihatdan quyidagi guruhdagi otlarni yasaydi:

- 1.SHaxs va kasb-hunar otlarini yasovchi affikslar.
- 2.Narsa, qurol, o'lchov birligi otlarini yasovchi affikslar.
- 3.O'rin-payt otlarini yasovchi affikslar.
- 4.Abstrakt ot yasovchi affikslar.

SHaxs va kasb-hunar oti yasovchi affikslar, asosan, ot negiziga qo'shib, negizdan anglashilgan predmet bilan bog'liq shaxs otlarini va ma'lum bir soha, kasb bilan shug'ullanuvchi kasb-hunar otlarini yasaydi.

Bu affikslarga quyidagilar kiradi:

- chi: tarbiyachi, terimchi, sportchi, tijoratchi, navbatchi
- dosh: fikrdosh, kursdosh, zamondosh, suhbatdosh, muallifdosh
- gar,-kor: zargar, kimyogar, g'allakor, san'atkor
- bon,-boz: bog' bon, darvozabon, darboz, bedanaboz
- paz: oshpaz, somsapaz, kabobpaz
- kash: suratkash, aravakash, mehnatkash
- dor: chorvador, mulkdor
- shunos: tilshunos, tuproqshunos, tabiatshunos

- xon: kitobxon, gazetxon, g'azalxon
- soz: mashinasoz, traktorsoz, soatsoz
- do'z: do'ppido'z, etikdo'z, mahsido'z, gilamdo'z
- xo'r: choyxo'r, oshxo'r.

SHaxs va kasb-hunar oti yasovchi affikslardan –chi eng mahsuldor ot yasovchi affiks sanaladi.

YUqorida qayd etilgan –kash, -xo'r, -paz, -do'z, -boz, -gar, -soz, -xon, -shunos so'z yasovchi affikslari tojik tilida fe'l o'zaklari bo'lib, o'zbek tilida so'z yasovchi affiks vazifasini bajaradi.

Narsa, qurol, o'lchov birligi otlarini yasovchi affikslari, asosan, fe'l negiziga qo'shilib negizdan anglashilgan ish-harakat va holatning natijasi bo'lgan yoki ish-harakatni bajarish uchun qo'llaniladigan narsa, qurol otini yasaydi. Kam hollarda ot, sifat, taqlid so'z negizlari narsa, qurol, o'lchov birligi otlarini yasashga asos bo'la oladi. Bu affikslar quyidagilar:

-k (-ik), -ak, -q (-iq, -uq), -oq: elak, kurak, teshik, pirpirak, bo'lak, bo'yoq, so'roq, chopiq, topshiriq, yutuq, o'roq kabi.

-gich (-g'ich, -kich, -qich): suzgich, o'chirg'ich, qirg'ich, ko'rsatkich, tutqich, qisqich.

-gi (-ki, -qi, -g'i, -g'u): supurgi, kulgi, tepki, chopqi, tutatqi, yoqilg'i, cholg'u.

-m (-im, -um): to'plam, tishlam, chimdim, kiyim, unum.

-ma: qiyma, qatlama, dimlama (mahsulot nomi), tenglama, ayirma (matematik terminlar), isitma, jamg'arma.

-don: qalamdon, guldon.

-indi: yuvindi, chirindi, qirindi.

-qin (-qun, -g'in, -g'un): to'lqin, toshqin, uchqun, yong'in, yulg'un.

-in (-un, -on): yig'in, tugun, to'zon.

-ak (-oq): qarsak, varrak, qaltiroq.

-a: sharshara, jizza.

-os: gulduros, chuvvos.

-gak (-kak): ilgak, eshkak.

-doq: qovurdoq.

-moq (-mak): quymoq (ovqat turi), chertmak.

-cha: qizilcha, olacha.

-chiq: yopinchiq.

-ildoq: shaqildoq.

-machoq: bekinmachoq, tortishmachoq.

-noma: taklifnoma, tashakkurnoma, vasiyatnoma.

YUqorida sanalgan affikslardan –a, -os, -gak, -doq, -moq, -cha, -chiq, -ildoq, -machoq affikslari ot yasashda kam unum so'z yasovchi affikslar sanaladi.

O'rin-payt oti yasovchi affikslar, asosan, ot negiziga qo'shilib, negizdan anglashilgan predmet mavjud bo'lgan, ekiladigan, dam oladigan, yashaydigan o'rin-joy otini yasaydi. Bu affikslarga quyidagilar kiradi:

-zor: olmazor, gulzor, bug' doyzor

-loq: o'tloq, toshloq, qumloq

-iston: O'zbekiston, guliston, qabriston

-goh: oromgoh, sayilgoh

-xona (affiksoid): choyxona, oshxona, yotoqxona, sartaroshxona

-qoq: botqoq (fe'l negizidan yasalgan o'rin-joy oti).

Abstrakt ot yasovchi affikslar ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, ba'zan modal so'z negizlariga qo'shilib, negiz anglatgan tushuncha bilan bog'liq abstrakt ma'nodagi ot yasaydi. Bular quyidagilar:

-lik (-liq): go'zallik, mardlik, yaxshilik (ot negizidan yasalgan); ko'plik, tezlik (ravish negizidan); birlik, yuzlik (son negizidan); qarindoshlik, bolalik (ot negizidan); o'zlik, manmanlik (olmosh negizidan); yo'qlik, borliq (modal so'z negizidan).

-ch (-inch): sevinch, quvonch, tayanch, qo'rqinch (fe'l negizidan yasalgan)

-chilik, -garchilik: pillachilik, temirchilik, ipakchilik, odamgarchilik (ot negizidan), xursandchilik (sifat negizidan), yo'qchilik (modal so'z negizidan yasalgan).

-gilik, -kilik: ko'rgilik, ichkilik (fe'l negizidan yasalgan).

Sintaktik usul bilan ot yasash. Bu usulga ko'ra ikki va undan ortiq so'z shakllari Biron qolipda birikib, bir predmetni anglatadigan yangi ot yasaladi.

Sintaktik usulga ko'ra qo'shma va juft otlar yasaladi.

Qo'shma ot ikki va undan ortiq so'zning birikishidan hosil bo'lib, bir predmetni anglatadigan yangi ot. Qo'shma ot tarkibidagi so'zlar dastlab ma'no va grammatik jihatdan tobelanish yo'li bilan (qo'shimcha aniqlovchi+aniqlanmish) tuzilgan so'z birikmasi bo'lib, keyinchalik shu sintaktik munosabatning yo'qolishi natijasida bir tushunchani, yangi bir predmetni ifoda etadi: ko'zoynak, belbog', o'rinbosar kabi. Qo'shma ot bir bosh urg'u bilan aytiladi.

Qo'shma ot qismlari orasidan quyidagi sintaktik munosabatlarning yo'qolishi natijasida hosil bo'ladi:

1. Aniqlovchi+aniqlanmish: bilaguzuk, achchiqtosh, oshqozon, toshko'mir, bedapoya, so'z boshi, Beshariq, Kattaqo'rg'on.

- 2.Ega+kesim: Soykeldi, Qoryog‘ di.
- 3.To‘ldiruvchi+kesim: dunyoqarash, kungaboqar, muzyorar, otboqar, ish tashlash.
- 4.Hol+kesim: besh otar, iskabtopar, bosvoldi.
- 5.Kesim+undalma: YOriltosh, ochildasturxon.

O‘zbek tilida rus, tojik va boshqa tillardan o‘zlashgan parovoz, aeroport, dushanba, chorshanba, obdasta kabi otlar kelib chiqishiga ko‘ra qo‘shma ot bo‘lsa-da, o‘zbek tilida qo‘shma ot ekanligi anglashilmaganligi tufayli sodda ot deb qaraladi.

Juft ot bir xil grammatik shaklda kelgan ikki so‘zning grammatik jihatdan teng bog‘lanishidan tuzilgan jamlovchi, bir umumiy ma‘noni anglatadigan yangi ot. Juft ot qismlari orasidagi tenglik munosabati yozuvda chiziqcha bilan ko‘rsatiladi. Bunday juft otning qismlari 2 xil bog‘lanadi: a) bog‘lovchilarsiz: ota-ona, gul-lola; b) bog‘lovchi vazifasidagi –u, -yu yuklamalari yordamida: tog‘ -u tosh, olma-yu o‘rik kabi.

Juft ot qismlari bir so‘z turkumiga oid bo‘lib, qismlarining har biri o‘z urg‘usiga ega bo‘ladi. Juft otlarning ma‘nosi qismlar ma‘nosining yig‘indisidan kelib chiqadi: kuch-quvvat, aql-xush, ota-ona.

Juft ot tarkibidagi qismlar quyidagi ma‘no munosabatlarini ifodalaydi:

1.Qismlar o‘zaro ma‘no jihatdan bir-biriga yaqin so‘zlardan tuziladi: qovun-tarvuz, baxt-saodat, qozon-tovoq, gap-so‘z kabi.

2.Qismlar o‘zaro ma‘nodosh (sinonim) so‘zlardan tuziladi: baxt-saodat, orzu-havas, kuch-quvvat, asbob-uskuna.

3.Qismlari bir-biriga antonim bo‘ladi: o‘g‘il-qiz, er-osmon, aka-uka, er-xotin.

Juft otlar quyidagicha yasaladi:

1.Juft otning har ikkala qismi mustaqil ma‘noli so‘zlardan tuziladi: o‘yin-kulgi, opa-singil

2.Juft otning bir qismigina mustaqil ma‘noga ega bo‘ladi: kiyim-kechak, bozor-o‘char

3.Juft otning har ikki qismi mustaqil ma‘noga ega bo‘lmagan so‘z bo‘lishi mumkin: g‘ala-g‘ ovur, dali-g‘uli.

Juft otlar takrorlangan holda kelishi mumkin, lekin bunday ot yasama ot sanalmaydi: choy-poy, ish-pish, don-dun kabilar. Bunday juft otlar modal ma‘no ifodalaydi.

Abbreviatsiya usuliga ko‘ra turg‘un so‘z birikmalarini turli usullar bilan qisqartish orqali qisqartma ot hosil qilinadi. Qisqartma otlar abbreviaturalar deb yuritiladi. Bu usul bilan so‘z yasash o‘zbek tiliga rus tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, nutqda ixchamlikka erishish maqsadida qo‘llaniladi.

Hozirgi kunda rus tilidan aynan o‘zlashtirilgan bir qator qisqartma otlar bir qatorda rus tilidagi qisqartma otlarning o‘zbek tilidagi shakli ishlatilmoqda. GES, ZAGS – aynan o‘zlashtirilgan, VAK – Visshaya Attestatsionnaya Komissiya, OAK – Oliy Attestatsiya komissiyasi, GA – gosudarstvennaya attestatsiya – DA – davlat attestatsiyasi kabilar o‘zbekcha qisqartma shakli hosil qilingan. SHuningdek, o‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlari asosida yasalgan yangi qisqartma otlar lug‘at tarkibidan joy olmoqda: DTM, DAN, O‘zFA kabi.

Qisqartma otlar tuzilish jihatdan quyidagicha bo‘ladi:

1.Qisqartirilayotgan so‘zlarning birinchi tovushlaridan tuziladi: BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti), XXR (Xitoy Xalq Respublikasi), DTM (Davlat test markazi); DAN (davlat avtomobil nazorati).

2.Qisqartirilayotgan so‘zning bosh qismi va keyingi so‘zlarning birinchi tovushlaridan: ToshDIU (Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti), O‘zFA (O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi).

3.Birinchi so‘zning bosh qismi va keyingi so‘z to‘liq olinadi: pedkolledj (pedagogik kolledj), pedamaliyot (pedagogik amaliyot).

4.So‘zlarning bosh qismlaridan: Toshunivermag (Toshkent universal magazini), ...

7 -§. Otlarda modal shakl yasalishi

Otlarda so‘z o‘zgarish, so‘z yasaliş xususiyatlari bir qatorda modal shakl yasash hodisasi ham mavjud.

Otlarning leksik ma‘nosiga qo‘shimcha modal ma‘no qo‘shilishi bilan hosil qilinadigan shakl modal shakl yasash deyiladi. Otlar o‘z leksik ma‘nosiga qo‘shimcha kichraytish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik kabi modal ma‘nolarni ifodalaydi.

Otlarda bu modal ma‘nolar ikki xil usul bilan yasaladi: morfologik usul va takrorlash usuli.

Morfologik usulga ko‘ra otning leksik ma‘no ifoda etuvchi qismiga modal shakl yasovchi affikslarni qo‘shish orqali modal ma‘no yasaladi. Bu usulga ko‘ra otlarning kichraytish, erkalash, hurmat kabi modal shakllari hosil qilinadi.

Otlarda modal shakl yasovchi affikslarga quyidagilar kiradi:

-cha: qizcha, uycha

-chak, -choq: kelinchak, qo‘zichoq, toychoq

-loq, -aloq: joyloq, bo‘taloq, qizaloq

-gina: bolagina, qizgina

-xon, -jon, -oy, -boy: otaxon, onajon, Ra‘noxon, YUlduzoy, Karimboy.

Otni maxsus takrorlash yo‘li bilan gumon, kamsitish, umumlashtirish, noaniqlik kabi modal ma‘nolar yasaladi. Bu usulga ko‘ra modal shakl hosil qilishda takrorlanuvchi qismda turli fonetik o‘zgarishlar yuz beradi:

1.Ot unli tovush bilan boshlanganda, takrorlanuvchi qism boshqa p, m, s, ch, d, j, t tovush orttiriladi: unpun, ot-pot, o‘rik-mo‘rik, irim-sirim, irim-chirim, imi-dimi, alang-jalang kabi.

2.Ot undosh tovush bilan boshlanganda, takrorlanuvchi qismdagi birinchi undosh p, m, s, ch, b tovushlaridan biri bilan almashiriladi: loy-poy, mosh-posh, non-pon, bosh-mosh, poda-moda, patir-satir, meva-cheva, g‘idi-bidi kabi.

3.Otning takrorlanuvchi qismida keng va cho‘ziq unli qisqa va tor unli bilan almashadi: don-dun, xashak-xushak kabi.

4.Takrorlanuvchi qismda birinchi undosh ham, keng unli tovush ham almashadi: latta-putta kabi.

Ba‘zan otning o‘zi aynan hech o‘zgarishsiz takrorlangan holda qo‘llanib, kuchaytirish ma‘nosini hosil qiladi: tog‘ -tog‘ , xirmon-xirmon kabi.

8 -§. Otlarning tuzilish jihatdan turlari

Otlar tuzilishi jihatdan sodda ot, qo‘shma ot, juft ot, qisqartma otlarga bo‘linadi.

1. Sodda ot bir o‘zak morfemadan tashkil topadi: daraxt, kitoblar, gulzor, uycha kabi.

2. Qo‘shma ot ikki va undan ortiq o‘zak morfemaning birikishidan hosil bo‘ladi: belbog‘ , atirgul, oqsoqol kabi.

3. Juft ot ikki o‘zak morfemaning o‘zaro teng bog‘lanishidan tuziladi: aka-uka, o‘y-xayol, temir-tersak kabi.

4. Qisqartma otlar birikma qismlarini qisqartirish yo‘li bilan tuzilgan otlar: AQSH, MDH, O‘zMU kabi.

5. Takroriy otlar: *choy-poy, in-iniga, tomir-tomiriga, don-dun, irim-sirim, yor-yor* (qo‘shiq nomi).

Juft va takroriy otlar orasiga chiziqcha qo‘yib yoziladi.

Agar juft otlar o‘rtasida ikki otini bir-biri bilan bog‘laydigan **u, yu** tovushlari bo‘lsa, kirilcha yozuvda chiziqcha qo‘yilmaydi: *Onayu bola - gulu lola*. Takroriy otlar bir otini takrorlash yordamida hosil qilinadi: *Aytilgan so‘zlar jon-jonidan o‘tib ketdi*. Tilimizda takrorlangan, so‘zning boshida kelgan undosh **p** eki **m** undoshidan biriga almashadigan yoki unli tovushdan oldin **p** tovushi orttiriladigan *choy-poy, non-pon, qop-mop, osh-posh, pul-mul* kabi **takroriy** otlar ham bor.

Ot tahlili namunasi	
1. So‘rog‘i.	uning shaxs-soni aniqlanadi.
2. Ma‘no turi (atoqli va turdosh otlar, turdosh otlarning turlari).	6. Kichraytirish, erkalash, hurmatlash ma‘nolari bo‘lsa, aniqlanadi.
3. Birlik yoki ko‘pligi (soni)	7. Tuzilish turi.
4. Kelishigi.	8. Tub yoki yasamaligi.
5. Egalik qo‘shimchasi bo‘lsa,	9. Gapdagi sintaktik vazifasi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ot turkumining ta‘rifi va so‘roqlarini ayting, misollar keltiring. 2. Otlarning xususiyatlari va gapdagi vazifalarini ayting. 3. Turdosh otlar deb qanday otlarga aytiladi? 4. Qanday tushunchani ifodalashiga ko‘ra turdosh otlarning turlari haqida gapiring. 5. Birlik shaklda ko‘plikni ifodalash-ifodalamasligiga ko‘ra turdosh otlarning turlari haqida gapiring. 6. Atoqli otlarning ta‘rifi va turlari haqida gapiring. 7. Turdosh otlarning atoqli otlarga, atoqli otlarning turdosh otlarga o‘tishiga misollar keltiring. 8. Otlardagi birlik ma‘nosi qanday vositalar yordamida ifodalanadi? 9. Otlardagi ko‘plik ma‘nosi qanday vositalar yordamida ifodalanadi? 10. Qanday otlar faqat birlikda qo‘llanadi? 11. Faqat birlikda qo‘llanadigan otlarga **-lar** qo‘shimchasi qo‘shilsa, qanday ma‘no ifodalanadi? 12. **-lar** qo‘shimchasi yana qanday turkumdagi so‘zlarga qo‘shiladi va qanday ma‘nolarni ifodalaydi? 13. Otlarning turlanishi deganda nimani tushunasiz? 14. Kelishiklarni qo‘shimchalari bilan aytib bering. 15. Qaysi kelishikdagi otlar qanday so‘zlarga bo‘jlanishi haqida gapiring. 16. Belgili va belgisiz kelishiklar haqida gapiring. 17. Qaysi kelishik qo‘shimchalari qisqaradi? 18. Egalik qo‘shimchalari qanday ma‘noni ifodalaydi? 19. Egalik qo‘shimchalari bilan bo‘jliq tovush o‘zgarishlari haqida gapiring. 20. Kichraytirish, erkalash va hurmatlash ma‘nolarini ifodalovchi qo‘shimchalarni misollari bilan sanab ko‘rsating

Ot turkumi yuzasidan test savollari:

1. Ot so‘z turkumi, unga xos grammatik kategoriya(xususiyat)lar, otlarning yasalishi, ot yasovchi qo‘shimchalar tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?

A) morfologiya B) morfologiya va sintaksis C) morfologiya va so‘z tarkibi D) morfologiya va so‘z yasalishi

2. Qaysi qatordagi so‘zlar faqat ot turkumiga mansub?

A) kelma, o‘qima, tugma B) gazlama, childirma, ko‘rsatma

C) yasama, qaynatma, to'qima D) yigirma, sekinlama, surma.

3. Qaysi qatorda faqat otlar berilgan?

A) uchqun, to'lqin, bilimdon, qalamdon B) yong'in, toshqin, tuzdon, kuldon C) tuyg'un, keskin, qumdon, xumdon D) so'lg'in, turg'un, suvdon

4. Qaysi javobda otga xos bo'lgan sintaktik vazifa noto'g'ri ko'rsatilgan?

A) ega vazifasida keladi. B) kesim vazifasida qo'llanadi.

C) undalma vazifasida kelmaydi. D) to'ldiruvchi vazifasida keladi

5. Ot qaysi so'z turkumidagi so'zlar bilan birika olmaydi?

A) ot, sifat B) olmosh C) ravish, fe'l D) ot mustaqil so'z turkumlarining barchasi bilan birika oladi

6. Ot turkumi uchun asosiy belgi nimadan iborat?

A) o'ziga xos yasaliş tizimiga ega va gapda gapning har qanday bo'lagi vazifasida kela oladi. B) son, egalik, kelishik kabi grammatik ko'rsatkichlarga ega C) ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish bilan birika oladi. D) otning asosiy belgisi predmetlik ma'nosini ifoda etish

7. Faqat mavhum otlar qatorini toping.

A) bola, daftar, qishloq B) gul, zafar, shahar

C) shodlik, sevgi, kulfat D) yo'l, daraxt, vodi

8. Mavhum otlar qatorini toping.

A) uyqu, jahl B) soch, kiprik C) quyosh, tutun D) gul, orzu

9. Atoqli ot asosida paydo bo'lgan turdosh otlar qatorini toping

A) asal, rayhon, arslon, muhabbat B) anor, lola, shirin, to'qson C) etmish, bultur, turdi, ra'no D) rentgen, xosiyatxon, michurinchilar, amper

10. Faqat turdosh otlar asosida paydo bo'lgan atoqli otlar qatorini toping.

A) Ergash, Lobar, Gulchehra, To'xtamurod B) Juma, Bahri, Rayhon, Nilufar C) Ulug', Suluv, Dilbar, Go'zal D) Ortiq, Quvonch, Xursand, Vali

11. Mavhum otlarni aniqlang.

A) do'stlik, baxt, quvonch B) Suhrob, Feruza, shahnoza C) suv, g'o'za, shiypon D) bug'doy, arpa, zig'ir

12. Atoqli ot haqida bildirilgan qaysi hukm noto'g'ri?

A) bir xildagi predmet yoki hodisalardan birini ayirib ko'rsatadi B) o'ziga xos grammatik xususiyatga ega C) atoqli otlarning ma'lum qismi sifat, fe'l, son turkumlariga oid so'zlar asosida paydo bo'ladi D) atoqli otlar ham grammatik jihatdan ko'plik sonda qo'llanadi

13. Ismlarning qaysi qo'shimchalarga ega bo'lgan shakllari lug'aviy shakllari deb ataladi?

A) ko'plik qo'shimchalariga ega bo'lgan shakllari B) qiyoslash qo'shimchalariga ega bo'lgan shakllari C) kichraytirish–erkalash qo'shimchalariga ega bo'lgan shakllari D) A,B,C.

14. Yig'lasa, yig'lablar ketmaydimi?! gapidagi –lar qo'shimchasining vazifasini aniqlang.

A) ko'plikni anglatish B) hurmatni ifodalash C) taxmin-chamani bildirish D) ma'noni kuchaytirish

15. Faqat birlikda qo'llanadigan otlar qatorini toping.

A) Toshkent, Farg‘ona, Qo‘qon, Qarshi B) bola, o‘quvchi, temir, mis C) bo‘ron, qo‘zg‘olon, qo‘l, muallim D) ko‘z, quloq, burun, g‘ildirak

16. O‘zbek tilida otning qaysi shakli sintaktik munosabatni ko‘rsatmaydi?

A) kelishik shakli

B) egalik shakli

C) birlik va ko‘plik shakli D) egalik, birlik va ko‘plik shakllari

17. Ko‘plik ma‘nosi qo‘shimchasiz holda ifodalangan qatorni aniqlang.

A) Har doim sofdil bo‘laylik. B) Ko‘chada bir qancha bola ko‘rindi. C) B,D D) Har rastada ming-ming do‘kon

18. Ko‘plik qo‘shimchasi chama, taxmini ifodalagan misolni toping.

A) Onda-sonda ochilgan chanoqlar ko‘k dengizda sadafdek yaltiradi. B) Quvnashdi havasdan ko‘p bilan ko‘ngillar

C) Vatandoshlarim bilan quvonaman D) Kechqurunlari bo‘sh bo‘laman, keling suhbatlashamiz.

19. Ismlarning qaysi qo‘shimchalarga ega bo‘lgan shakllari munosabat shakllari deb ataladi?

A) egalik qo‘shimchalariga ega bo‘lgan shakllari B) kelishik qo‘shimchalariga ega bo‘lgan shakllari C) –man, -san, -dir qo‘shimchalariga ega bo‘lgan shakllari D) barchasi to‘g‘ri.

20. Quyida berilgan qaysi so‘zlar ismlarning munosabat shakllarini hosil qilishda qatnashadi?

A) bo‘lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq B) mumkin, zarur, lozim C) kerak, shart, edi D) barchasi to‘g‘ri.

21. Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri otlarga xos?

A) tuslanish B) turlanish C) daraja D) nisbat

22. Qaysi qo‘shimchalar turlovchi qo‘shimchalar deyiladi?

A) egalik qo‘shimchalari B) kelishik qo‘shimchalari C) shaxs-son qo‘shimchalari D) ko‘plik shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha

23. Turlanish bilan bog‘liq tovush o‘zgarishi bo‘ladigan so‘zlar qatorini toping

A) kitob, xo‘roz, ittifoq B) samo, osmon, shivir

C) bo‘taloq, chiroq, etik D) o‘qish, pedagog, etti

24. Quyidagi gapda qaratqich kelishigidagi so‘z qanday ma‘no anglatyapti?

Jahonning shodligi yig‘ilsa butun...

A) shaxs B) to‘dadan bo‘lak C) tur D) butundan qism

25. Quyida berilgan gapdagi nuqtalar o‘rniga qaysi qatordagi qo‘shimchalarni qo‘yish mumkin? U... voqea... bexabar ekani... bilib, butun vujudi... engib bo‘lmas bir horg‘inlik sezdi.

A) -ni, -ga, -dan, -da B) -dan, -ni, -ning, -ka

C) -ning, -dan, -ni, -da D) -ni, -dan, -qa, -ning

26. Tushum kelishigining belgisiz ishlatilishi asosan qaysi so‘z turkumlariga xos?

A) ot turkumidagi barcha so‘zlarga xos B) faqat turdosh otlarga xos C) ot, olmosh, sifat va songa xos D) ot va olmoshga xos

27. -niki qo‘shimchasini qabul qiluvchi so‘zlar qaysi javobda berilgan?

A) ot, ravish, bog‘lovchi B) ot, olmosh, otlashgan so‘zlar

C) *fe'l, ravish, son* D) *sifat, sifatdosh, fe'l*

28. Qaysi qatordagi otlarga egalik affiksi qo'shilganda, so'z oxiridagi *k* yoki *q* tovushi o'zgaraydi?

A) *o'rik, tuproq, istak* B) *o'rtoq, kelajak, qarmoq* C) *idrok, nutq, axloq* D) *koptok, pichoq, tirnoq*

29. Qaysi qatordagi otlarga egalik affiksi qo'shilganda, keyingi bo'g'indagi *i* unlisi tushib qoladi?

A) *bilim, vazir, bog'ich* B) *vakil, voris, do'stlik* C) *o'rin, bo'yin, o'g'il* D) *idish, ilik, ayiq*

30. -m egalik qo'shimchasining vazifasi to'g'ri ifodalangan javobni toping.

A) *fe'llarga qo'shib, birinchi shaxsni ifodalaydi* B) *fe'llarga qo'shib, ot yasaydi*
C) *unli bilan tugagan otlarga qo'shib qarashlilikni ifodalaydi* D) *fe'llarga qo'shib miqdor anglatuvchi ot yasaydi*

31. Qaysi qo'shimchalar predmetning uch shaxsdan biriga qarashli ekanini bildiradi?

A) *shaxs-son* B) *kelishik* C) *tuslovchi* D) *egalik*

32. Egalik qo'shimchalari qo'shilganda, o'zakda o'zgarish bo'ladigan so'zlar qatorini toping.

A) *qarmoq, etik, koptok, park, qoshiq* B) *qaymoq, o'rik, eshik, o'rtoq, buloq*
C) *qishloq, quloq, huquq, palak, chelak*
D) *barmoq, bilak, ertak, ufq, zavq*

33. Qaysi qatordagi otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda *k* tovushi *g* tovushiga aylanmaydi?

A) *terak, yurak* B) *bilak, chelak*
C) *tilak, kuylak* D) *idrok, ishtirok*

34. Qaysi qatordagi otlarga II shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi qo'shilgan?

A) *kitobim, onam* B) *xulqingiz, onangiz* D) *yurlaring, borlaring* C) *daftaring, ukang*

35. Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar berilgan qatorni aniqlang.

A) *-li va -lik;* B) *-lik va -chilik;*
C) *-lik, -chilik, -at, -ot;* D) *-li, lik, chilik;*

36. Qaysi qatordagi so'zlardan -q, -k qo'shimchalari bilan ot yasalganda o'zakda tovush o'zgarishi bo'ladi?

A) *o'ta, ista* B) *kura, yama* C) *bo'ya, sana* D) *tala, tara*

37. -lik qo'shimchasi qaysi turkumga oid so'zlardan ot yasay oladi? 1) ot; 2) fe'l; 3) sifat; 4) ravish.

A) *1, 2, 3, 4* B) *1, 2, 3* C) *1, 2* D) *1, 3, 4*

38. Fe'l asosli otni toping.

A) *paxtazor* B) *yaxshilik* C) *sharshara* D) *ochqich*

39. Ot yasovchi qo'shimchalarni toping.

A) *-chi, -moq, -bon, -m* B) *-um, -sh, -b, -lik*
C) *-chi, -la, -cha, -dir* D) *-k, -lik, -ma, -chi.*

40. Uchalasi ham ot yasaydigan qo'shimchalarni belgilang.

A) *-lik, -cha, -illa* B) *-lik, -im, -zor*

C) –viy, -dosh, -ay D) –ona, -gi, -dek

41. Qaysi qatordagi qo‘shma otlarning tarkibi ot va otdan iborat?

A) otquloq, qo‘larra, ishboshi B) ko‘ksulton, xomtok, tomorqa C) o‘rinbosar, xontaxta, karnaygul D) gulbeor, oshko‘k, qo‘ziqorin

42. Qo‘shma otlar qatorini toping.

A) tilla bola B) Markaziy Osiyo C) tosh yo‘l D) A, B

43. Qaysi qatordagi qo‘shma otlarning yozilishida imlo xatosi bor?

A) mingtepa, eryong‘oq, osh qozon B) qo‘shtegirmon, beshiktervatar, otquloq C) laylakqor, sadarayhon, qozon yuvg‘ich D) qo‘qongul, Yangi Marg‘ilon, Yangiyo‘l

44. Sinonim so‘zlardan yasalgan juft otlar qatorini ko‘rsating.

A) or-nomus, baxt-iqbol B) hovli-joy, oyoq-qo‘l C) kuch-quvvat, baxt-saodat D) A, C

45. Quyidagi gapda berilgan juft otlar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Ona-bolaga qarab turib, «Ona bilan bola – gul-u lola» degan maqolning haqligiga ishonдим.

A) ona-bola, ona bilan bola B) ona-bola, ona bilan bola, gul-u lola C) ona-bola, gul-u lola D) ona bilan bola, gul-u lola

46. Qo‘shma otlar qatorini toping.

A) gultojixo‘roz, sadarayhon, namozshomgul, muzyorar

B) sohibjamol, tinchliksevar, ishyoqmas o‘zbilarmon

C) allakim, allaqanday, allaqachon, kimdir D) ishlab chiqmoq, oh urmoq, nazar solmoq, payqamay qoldi

SIFAT

1 -§. Sifatning leksik-grammatik xususiyatlari

Predmetning doimiy, o‘zgarmas belgisini ifodalaydigan so‘zlar sifat deyiladi.

Sifat mustaqil so‘z turkumi sifatida uch xil belgiga ega:

1. Leksik-semantik belgi. Sifat belgi ma’nosini bildiradi.

2. Morfologik belgisi: Sifat qanday?, qanaqa?, qaysi? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Sifat ifodalaydigan belgi tushunchasi keng bo‘lib, ma’nosiga ko‘ra bir necha guruhga ajratiladi:

a) rang-tus ma’nosini bildiradigan sifatlar: oq, qizil, sariq, havo rang, kul rang, yashil, zangori;

b) hajmi ma’nosini bildiradi: keng, tor, baland, past, uzun, chuqur, yirik, mayda;

v) shakl va ko‘rinish ma’nosini bildiradi: dumaloq, yassi, egri, qiyshiq, do‘ng;

g) maza-ta‘m ma’nosini bildiradi: shirin, achchiq, nordon, sho‘r, taxir, chuchmal, bemaza;

d) xarakter-xususiyat ma'nosini bildiradi: muloyim, odobli, shirinso'z, chaqqon, sho'x, yalqov, dangasa, chechan, qo'rs, qaysar. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni ifodalaydi;

e) hid ma'nosini bildiradi: sassiqlik, qo'lansa, badbo'y, xushbo'y, muattar;

j) holat ma'nosini bildiradi. Holat bildiruvchi sifatlar ikki xil bo'ladi:

1) psixik holatni ifodalaydi: xursand, xafa, shod, kasal, injiq;

2) tabiiy holatni ifodalaydi: yosh, qari, keksa.

Sifat belgini bevosita yoki bivosita ifodalaydi. Predmetning doimiy belgisini bildiradigan belgini bevosita ifodalaydigan sifatlar asliy sifat deyiladi. Sifatning yuqoridagi ma'no turlari sifatni bevosita ifodalaydi.

Asliy sifatlar belgini darajalab ko'rsata oladi: katta, kattaroq, eng katta kabi.

Juft sifatlar asosan asliy sifatlardan tarkib topadi: yosh-qari, yaxshi-yomon kabi.

Belgini bivosita, ya'ni biror narsa va hodisaga nisbat berish, o'xshatish orqali ifodalaydigan sifatlar nisbiy sifat deyiladi.

Nisbiy sifatlar boshqa so'z turkumlaridan yasaladi va xoslik, o'xshashlik, o'rin yoki paytga munosabat, mo'ljal ma'nolarini bildiradi:

a) xoslik ma'nosini ifodalaydigan sifat ot turkumidagi so'zga -iy, -viy qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: zamonaviy, oilaviy, ma'naviy, siyosiy;

b) o'xshashlik ma'nosini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so'zga -simon, -sifat affikslarini qo'shish bilan yasaladi: odamsimon, hayvonsifat, devsifat;

v) o'rin va payt ma'nolarini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so'zlarga -gi, -qi, -ki, -dagi affikslarini qo'shish bilan yasaladi: qishki, yozgi, bahorgi, bulturqi, tushki, kechki;

g) mo'ljallanganlik, xoslik, o'lchov ma'nolarini ifodalovchi sifatlar ot turkumidagi so'zlarga -lik affiksini qo'shish bilan yasaladi: ko'rpalik, ko'rpachalik, toshkentlik, ko'ylaklik.

Sifat ba'zan ravish o'rnida qo'llanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin: ma'noli gapirmoq, chiroyli yozmoq, yaxshi o'qimoq kabi.

Sifatning belgisini darajalab ko'rsatishi (qizil, qizilroq, eng qizil, qip-qizil), yasallash sistemasiga egaligi otlashishi uning morfologik belgilaridan hisoblanadi.

3. Sifatning sintaktik belgisi. Sifat gapda otga, ba'zan fe'lga bitishuv usuli orqali bog'lanadi va o'zi bog'lanib kelayotgan so'zga tobelanadi.

Sifat otga bog'lanib kelganda, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Misol: Biz do'stlarning eng yaxshi do'sti, dushmanlarning eng kuchli dushmani ekanligimizni ham oqil odamlar tushunsin. (YO.SHukurov).

Sifat fe'lga bog'lanib kelganda vaziyat holi vazifasini bajaradi. Misol: YUlduzlar odatdagidan ko'ra toza, kattaroq, yorqinroq ko'rinardi. (P.Qodirov).

2 -§. Sifat darajalari

Predmetlardagi bir xil belgini miqdorga ko'ra nisbatlab farqlash hodisasi sifat darajasi deyiladi. Sifatlarda uch xil daraja bor: 1) oddiy daraja

2) qiyosiy daraja

3) orttirma daraja

Predmetning belgisi boshqa predmetdagi xudi shunday belgiga qiyos qilinmasa, oddiy darajadagi sifat deyiladi. Oddiy darajadagi sifat belgining me'yorida ekanini ko'rsatadi va u maxsus ko'rsatkichga ega bo'lmaydi: go'zal tabiat, shirin qovun, keng hovli.

2) qiyosiy daraja. Predmet belgisining boshqa predmetdagi xudi shunday belgidan ortiq yoki kam ekanligining ifodalaydigan sifatlar qiyosiy darajadagi sifat deyiladi. Qiyosiy daraja leksik-morfologik usul bilan hosil qilinadi.

Oddiy darajadagi sifatga –roq affiksini qo'shish yordamida yasaladi. Bunda gap mazmunidan chog'ishtirish, qiyoslash ma'nosi anglashilib turadi. Misol: SHu lahzada unga Farhod har vaqtdagidan donoroq va hatto savlatliroq ko'rinib ketdi. Donoroq, savlatliroq sifatlaridan oldin kelgan chiqish kelishigidagi so'z (har vaqtdagidan) qiyoslash mazmun munosabatini ifodalayapti. O'shandan buyon halol dehqonchilik qiladi; o'rtadan ko'ra pastroq... xo'jaligi bor. (A.Qahhor). Bu misolda pastroq belgini kamligi bildiriyapti, qiyoslash ma'nosini o'rtadan ko'ra so'zlari ifodalayapti.

Qiyosiy darajadagi sifat oldidan sal, picha, och, bir oz, xiyol, aytarli so'zlarini keltirish bilan hosil qilinadi: sal baland, bir oz baland, picha kattaroq, xiyol achchiqroq.

Fonetik usul. Unlilar cho'zib, undoshlar esa ikkilantirilib aytiladi: baland, chuquur, tekkis kabi.

3 -§. Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar.

Sifat belgini ozaytirib yoki kuchaytirib ifodalashiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

a) ozaytirma sifat;

b) kuchaytirma sifat.

Ozaytirma sifat o'zakdan anglashilgan belgining me'yoridan ozligini bildiradi. Ular morfologik va leksik usullar bilan yasaladi:

1. Morfologik usul. Sifatlariga –ish, -imtir, -mtir affikslarini qo'shib ozaytirma sifat hosil qilinadi: ko'kish, qizg'ish, oqimtir, qoramtir. –ish qo'shimchasi qo'shilgan ba'zi sifatlar o'zagida tovush o'zgarishlari sodir bo'ladi: sariq+ish-sarg'ish. Bu so'zda o'zakdagi i unlisi tushib qolgan, q undoshi g' undoshiga almashgan. Qizil sifatiga -ish qo'shilishi bilan o'zakdagi –il tovushlari tushib, g' tovushi orttirilgan.

Sifatlariga –gina, -kina, -qina affikslari qo'shib, belgilarni kuchsizlantirish ozaytirishi mumkin. Bunda –k bilan tugagan sifatlariga –kina, -q bilan tugagan sifatlariga -qina, qolgan sifat shakllariga –gina affiksi qo'shiladi. Misol: tuzukkina, oriqqina, sariqqina, kattagina.

2. Leksik usul. Sifatning oldidan och, nim so'zlarini keltirish bilan belgi kamaytiriladi: och pushti, nimqizil.

Kuchaytirma sifatlar o'zakdan anglashilgan belgining ortiqqligini bildiradi. Kuchaytirma sifatlar leksik va morfologik usul bilan hosil qilinadi.

A) Morfologik usul. Bu usulda sifatni tovush o'zgarishlari orqali takrorlash yo'li bilan:

- Sifatning birinchi bo‘g‘ini ikkinchi bo‘g‘inidagi undosh bilan takrorlanadi: dum-dumaloq, pak-pakana, but-butun

- Sifatning birinchi bo‘g‘iniga –p undoshi qo‘shib takrorlanadi: sap-sariq, qip-qizil.

- Sifatning oldingi ikki tovushi ajratilib unga p, m tovushlaridan biri qo‘shiladi va undan keyin so‘zning o‘zi takrorlanadi: yap-yangi, ko‘m-ko‘k.

- Sifatning birinchi bo‘g‘inidan keyin ppa shakli qo‘shiladi: soppasog‘ , to‘ppato‘g‘ ri.

b) Leksik usul. Sifat tovush o‘zgarishlarisiz takrorlanib orttirma daraja hosil qilinadi: katta-katta

Qiyosiy darajadagi sifat oldida ma‘noni kuchaytiruvchi yana, yanada, yana ham so‘zlari kelishi mumkin: yanada yaxshiroq, yana ham balandroq, yana jonliroq.

3) Orttirma daraja. Predmetdagi belgining boshqa predmetdagi shunday belgiga nisbatan eng ko‘p, oliy darajada ekanligini ifodalash orttirma daraja deyiladi. Sifatning orttirma daraja shakli leksik usul bilan ifoda qilinadi.

Oddiy darajadagi sifat oldidan eng, juda, nihoyatda, behad, g‘ oyat, g‘ oyatda, hammadan kabi so‘zlarni keltirish bilan: juda chiroyli, nihoyatda shirin, g‘ oyatda mehribon kabi.

Leksik usulda ba‘zan belgi bildiruvchi sifatlar o‘rnida boshqa so‘zlar ishlatilishi mumkin: zahar (garmdori), olov (sho‘x).

Leksik usul.

Sifat tovush o‘zgarishlarisiz takrorlash orqali ham orttirma daraja hosil qilinadi: katta-katta, shirin-shirin.

- sifat oldidan to‘q, jiqqa, tim, g‘irt kabi so‘zlarni keltirish bilan: jiqqa ho‘l, tim qora.

- sifat oldidan so‘z birikmalari va iboralarni qo‘llash orqali: haddan ziyod (chiroyli), quling o‘rgilsin (jonon).

Morfologik usulda sifatni tovush o‘zgarishlari orqali takrorlash yo‘li bilan. Bunda:

- sifatning birinchi bo‘g‘ini ikkinchi bo‘g‘inidagi undosh bilan takrorlanadi: dum-dumaloq, pak-pakana, but-butun kabi.

- sifatni birinchi bo‘g‘inidagi p undoshi qo‘shib takrorlanadi: sap-sariq, qip-qizil.

- sifatning oldingi ikki tovushi ajratilib, unga p,m tovushlaridan biri qo‘shiladi va undan keyin so‘zning o‘zi takrorlanadi: yap-yangi, ko‘m-ko‘k.

- sifatning birinchi bo‘g‘inidan keyin –ppa shakli qo‘shiladi: soppa-sog‘ , to‘ppa-to‘g‘ ri.

4 -§. Sifatlarning otlashishi

Sifat turkumidagi so‘zlar ba‘zan ot turkumidagi so‘zlarning ma‘nosini ifodalab, uning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Bunda sifat o‘zining leksik va grammatik ma‘nosini yo‘qotib, predmetlik ma‘nosini ifodalaydi. Gapda sifat bog‘lanib kelayotgan otning tushib qolishi natijasida sifat uning predmetlik ma‘nosini ham,

morfologik belgisini ham, sintaktik vazifasini ham o‘z ustiga oladi. Misol: YAxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi gapida yaxshi (odam), yomon (odam) sifatlari tushib qolgan kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan, bosh kelishikdagi, ega vazivasidagi ot vazifasini bajargan. Odam oti gapda tushib qolgani tufayli yaxshi, yomon sifatlari otlashishgan. Bu hodisa gap tarkibida yuz bergan. Bunga nutqning ixchamlikka intilishi sabab bo‘ladi. Sifatlariga oid so‘zlarning hammasi ham otlashavermaydi. Asosan belgi-xususiyat bildiruvchi sifatlari, kishilarning laqabini bildiruvchi (tajang, maymoq, cho‘tir, darroz) sifatlari, hayvonlarning tusini bildiruvchi (saman, to‘riq, bo‘z, qashqa) sifatlari otlashadi.

Otlashgan sifatlari aniqlovchilik vazifasidan chiqib, otga xos ega, kesim, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, undalma vazifasini bajaradi. Misol: Aqlsizlar gap bermaydi otasiga. (A.Po‘lat) Mard bo‘lgandan keyin yomonni ham yaxshilik bilan engar ekan. (P.Kodirov) YAxshining so‘zi qaymoq, yomonning so‘zi to‘qmoq. (Maqol) YAxshilar, uni eslang!

5-§. Sifatlarning yasalihi

Sifatlari quyidagicha yasalihi: 1. Sifat yasovchi qo‘shimchalar bilan. 2. So‘zlarni qo‘shish bilan. 3. So‘zlarni takrorlash bilan.

1. Sifat yasovchi qo‘shimchalar quyidagilardir:

1) otdan sifati yasovchi qo‘shimchalar:

-li: *rasmli kitob, kuchli shamol*

-dor: *aybdor, vafodor*

ba-: *badavlat, baquvvat*

ser-: *serhosil olma.*

-mand: *kasalmand, davlatmand*

YUqoridagi qo‘shimchalar asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiradi.

-siz: *tuzsiz ovqat.*

be-: *beg‘ubor, bexabar*

Bu qo‘shimchalar esa (no- qo‘shimchasi bilan birgalikda: **noaniq**, **notinch**.) asosdan anglashilgan belgiga ega emaslikni ifodalaydi.

-lik: *toshkentlik (bola)*

-iy, -viy: *tarbiyaviy soat, devoriy soat.*

-gi, -ki, -qi: *bahorgi ishlar, qishki kiyim*
(paytga xos belgini bildiradi).

-aki, -oqi: *jizzaki, jirtaki, pistoqi*

-yi: *havoyi.*

-chan: *ishchan bola.*

-simon: *odamsimon maymun*

(o‘xshashlik ma‘nosini bildiradi).

-kor, -gar: *isyonkor, zulmkor, javobgar, ig‘vogar.*

-i: *qishloqi, qozoqi, jannati*

-cha: *farg‘onacha, erkakcha, arabcha (o‘yin)*

-namo: *avliyonamo, darveshnamo*

-parvar: *xalqparvar, adolatparvar*

-on:	charog' <u>on</u> , za'faron
-aki:	dahan <u>aki</u> , og'z <u>aki</u>
bad-:	<u>badbaxt</u> , <u>badnafis</u>
-shumul	olam <u>shumul</u> , jahon <u>shumul</u>
-don:	gap <u>don</u> , bilim <u>don</u>
-kash:	dil <u>kash</u> , hazil <u>kash</u>
-bop:	palov <u>bop</u> , qish <u>bop</u>
xush-:	<u>xushfe'l</u> , <u>xushhavo</u>
-in:	er <u>kin</u> , otash <u>in</u>
-vor:	devon <u>avor</u> , afson <u>avor</u>
-parast:	mansab <u>parast</u> , maishat <u>parast</u>
bar-:	<u>barhayot</u> , <u>barvaqt</u>
-chil:	xalq <u>chil</u> , iz <u>chil</u> .
-lik(-liq):	ko'ylak <u>lik</u> (chit), bolal <u>lik</u> (chog'lar)
-i:	jannati <u>i</u> (kampir)
-loq:	baqal <u>loq</u> , qo'shal <u>loq</u> (g'o'za)
-kor:	dev <u>kor</u> (ish), fusun <u>kor</u> (husn)
-kash:	zahmat <u>kash</u> (odam), nosk <u>kash</u> (kampir)
-chi:	gap <u>chi</u> (odam), vahim <u>achi</u> (ayol)
-von:	zo'ra <u>von</u> (odam)
-qa:	loy <u>qa</u> (suv)
-omuz:	hazil <u>omuz</u> (gap), zahar <u>omuz</u> (hazil)
-xo'r:	g'am <u>xo'r</u> (odam), go'sht <u>xo'r</u> (hayvon)
-soz:	soat <u>soz</u> (usta)
-dek(-day):	muz <u>dek</u> (suv), jo'jabir <u>day</u> (jon)

2) Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-choq,-chak,-chiq:	maqtan <u>choq</u> , kuyun <u>chak</u> , qizg'an <u>chiq</u>
-gir,-g'ir,-kir,-qir,-qur:	sez <u>gir</u> , top <u>qir</u> , o' <u>tkir</u> , olg' <u>ir</u> , uch <u>qur</u>
-ma:	qaynat <u>ma</u> sho'rva, bur <u>ma</u> ko'ylak
-k (-uk, -ik, -ak)	chir <u>ik</u> , tesh <u>ik</u> , tuz <u>uk</u> , g'alvir <u>ak</u>
-q(-uq,-iq,-a/oq):	ili <u>q</u> , sini <u>q</u> , buzuq, qolo <u>q</u> .
-oq:	qocho <u>q</u> , qo'r <u>qoq</u> , baqiro <u>q</u>
-qi:	sayro <u>qi</u> qush,
-qoq, -g' oq:	tirish <u>qoq</u> , uyush <u>qoq</u> , toyg' <u>oq</u>
-ag'on:	bilag' <u>on</u> , chopag' <u>on</u>
-mon:	bilar <u>mon</u> , qirar <u>mon</u>
-kun, -qin, -g'in,	tush <u>kun</u> , ozg' <u>in</u> , jo'sh <u>qin</u> ,
-g'un, -qun:	turg' <u>un</u> , tut <u>qun</u>
-(a)rli:	etar <u>li</u> , zerika <u>rli</u>
-ch:	tin <u>ch</u> , jirka <u>nch</u>
-g'ich:	yulg' <u>ich</u> (odam)
-ong'ich:	tepong' <u>ich</u> , suzong' <u>ich</u>
-ovuch:	hurko <u>vuch</u> , isko <u>vuch</u>
-mas:	o' <u>mas</u> (pichoq), indama <u>s</u> (odam)

-(i)ndi: *asrandi* (bola)
-a: *ko'tara* (savdo) -msiq:
qarimsiq, achimsiq

3) Boshqa turkumlardan sifat yasovchi qo'shimchalar :

Ravishdan: -gi: *kechagi, dastlabki*
Sifatdan: no-: *noma'lum, noto'g'ri*
-lom: *sog'lom*

Taqlid so'zdan: -ildoq: *bijildoq, likildoq*

2. So'zlarni qo'shish, bog'lash va juftlash bilan quyidagi turdagi sifatlar yasaladi:

1) **qo'shma** sifatlar quyidagicha yasaladi va yoziladi:

a) ot va otdan. Bular qo'shib yoziladi: *bodomqovoq, sheryurak;*

b) sifat va otdan. Bular qo'shib yoziladi: *qimmatbaho;*

v) ot yoki ravishga -ar qo'shimchali fe'lni qo'shish bilan yasaladi. Bular qo'shib yoziladi: *tezoqar daryo, ertapishar* (o'rik)

g) otga *aro, umum, yarim, g'ayri, nim, rang* so'zlarini qo'shish bilan. Bular qo'shib yoziladi: *xalqaro, umumkomanda, yarimavtomat, g'ayridin, nimpushti.*

Qo'shma sifatlar a) ikki tub so'zdan tashkil topadi: *sovuqqon, xom semiz, kamgap;* b) biri tub, ikkinchisi yasama so'zdan iborat bo'ladi: *ishyoqmas, erksevar, tilbilmas, o'zbilarmon.*

2) **birikmali** sifatlar tarkibi ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'ladi va ular orasidagi munosabatlar aniq sezilib turgan bo'ladi, bunday sifatlar *aralash, yo'q, ko'p, oliy, och, to'q, to'la, chala, yarim, bir, ikki* kabi so'zlar ishtirokida hosil qilinadi: *qum aralash* (loy), *tengi yo'q, ko'p tarmoqli, oliy ma'lumotli, och qizil, qorni to'q, to'q qizil, to'la huquqli, chala mulla, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori hosilli* (dala), *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulug'* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).

3) **juft sifatlar** quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma'noli so'zlardan: *katta- kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi;* 2) sinonim ko'rinishdagi so'zlardan: *erka-arzanda, boy-badavlat, sog' -salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo'min-qobil, xor-zor;* 3) yaqin ma'noli so'zlardan: *och-nahor, shaldir-shuldir, o'ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq, kuydi-pishdi.*

Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, -u, -yu yuklamalari bilan bog'lansa, chiziqcha qo'yilmaydi: *yakkayu yagona farzand.*

3. **So'zlarni takrorlash bilan ham sifatlar yasaladi:** Bu usul yordamida sanoqli miqdordagi sifatlargina yasaladi: *yo'l-yo'l* (ko'ylak), *manman* (odam), *shiqshiq* (tugma), *liplip* (chiroq), *chaqchaq* (odam),

6-§. Sifatlarning tuzilish turlari

1. **Sodda** sifatlar bir o'zakdan iborat bo'ladi: *aqlli, yaxshi.*

2. **Qo'shma** sifatlar - *rahmdil, ertapishar, havo rang.* Bunday sifatlar: 1) ikki tub so'zdan tashkil topib, ot+ot (*kulcha yuz bola*), ot+sifat, sifat+ot (*sovuqqon*), ravish+ot ko'rinishlarida bo'ladi: *ommabop, xom semiz* (yigit), *kamgap;* 2) biri

tub, ikkinchisi yasama soʻzdan iborat boʻladi: *sovuqqon, ishyoqmas, erksevar, tilbilmas*.

3. Birikmali sifatlar: *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulugʻ* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).

4. Juft sifatlar - *oʻydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq*.

5. Takroriy sifatlar - *baland-baland, uzun-uzun, yoʻl-yoʻl* (koʻylak).

Sifat tahlili namunasi	
1. Soʻrogʻi.	4. Otlashgan yoki otlashmaganligi.
2. Darajasi.	5. Tuzilish turi.
3. Ozaytirma sifatmi yoki kuchaytirma sifatmi?	6. Tub yoki yasamaligi.
	7. Gapdagi sintaktik vazifasi

Takrorlash uchun savollar

1. Sifatning taʼrifi va soʻroqlarini ayting. 2. Sifatning maʼno jihatdan turlarini misollar bilan koʻrsating. 3. Asliy va nisbiy sifatlar haqida gapiring. 4. Sifat darajalari deb... (davom ettiring). 5. Orttirma daraja hosil qilishning leksik va morfologik usullari haqida gapiring. 6. Orttirma daraja hosil qilishning semantik va fonetik usullari haqida gapiring. 7. Qiyosiy daraja qanday ifodalanadi? 8. Ozaytirma daraja qanday yasaladi? 9. Otdan yasalgan sifatlarga 5 ta misol keltiring. 10. Feʼldan yasalgan sifatlarga 5 ta misol keltiring. 11. Boshqa soʻz turkumlaridan yasalgan sifatlarga 3 ta misol keltiring. 12. Qoʻshma sifatlar qanday yasaladi va yoziladi? 13. Juft sifatlar qanday yasaladi va yoziladi? 14. Soʻzlarni takrorlab yasalgan sifatlarga misollar keltiring. 15. Otlashgan sifatlar qanday qoʻshimchalarni olishi mumkin? 16. Qaysi turkumdagi soʻzlar sifat oʻrnida qoʻllanadi? Misollar keltiring. 17. Qoʻshma sifatlar qanday soʻzlardan iborat boʻladi? 18. Birikmali sifatlar haqida gapiring va misollar keltiring. 19. Juft sifatlarning turlariga misollar keltiring. 20. Boshqa soʻzlarning sifat oʻrnida qoʻllanishiga misollar keltiring.

Sifat turkumi boʻyicha test savollari:

1. Sifat turkumining oʻziga xos morfologik xususiyatlari qaysilar?

A) darajalanish xususiyatiga ega B) sifat aniqlovchilar oʻzlarining sifatlanmishlari bilan moslashmaydi. C) sifatlar sodda va qoʻshma boʻladi D) A, C

2. Baland, ulkan, kichik, mayda soʻzlari uchun xos boʻlgan umumiy maʼnolar qanday maʼno sanaladi?

A) koʻchma maʼno

B) grammatik maʼno

C) uslubiy maʼno

D) leksik maʼno

3. Uzun, naynov, pakana soʻzlari uchun xos boʻlgan umumiy maʼnolar qanday maʼno sanaladi?

- A) leksik ma'no
C) uslubiy ma'no
- B) grammatik ma'no
D) ko'chma ma'no

4. Jumladagi sifatning ma'no turini toping. Uning yonoqlari uzunchoqroq edi.

- A) hid bildiruvchi
C) shakl-ko'rinish bildiruvchi
- B) hajm-o'lchov bildiruvchi
D) holat bildiruvchi

5. Sifat turkumiga oid so'zlar qaysi javobda berilgan?

- A) chiniqqan, o'qigan, esayotgan
C) mayin, yoqimli, quvnoq
- B) so'nmas, oqar, sehrlovchi
D) birinchi, ishchi, to'quvchi

6. Predmetning xususiyatini bildiruvchi sifatlar qaysi javobda?

- A) shirin, achchiq, nordon
C) kamtar, xushfe'l, sho'x
- B) novcha, og'ir, katta
D) devoriy, tonggi, xushbo'y

7. Ish-harakat natijasida hosil bo'lgan belgi-xususiyatni bildiruvchi sifat yasovchi qo'shimchani toping.

- A) -oq
C) -chak
- B) -gir
D) -ma

8. Sinonim sifatarni toping.

- A) cheksiz, behad, bardoshli, benihoya
C) sekin, asta, astoydil, ohista
- B) chopqir, chopag'on, metin
D) sezgir, ziyrak, tuyg'un, hushyor.

9. Antonim sifatarni toping.

- A) Adolatli podsho hech vaqt mag'lub bo'lmas.
C) Ish sur'ati tobora jadallashmoqda.
- B) Otabekka O'zbek oyim tarafidan kirish uchun ruxsat berilgan edi.
D) Achchiq savol berib, shirin javob kutma.

10. Baland tog'lar o'lkamizda ko'p. Ushbu gapdagi baland so'zining grammatik ma'nosi qaysi qatorda ifodalangan?

- A) belgi
C) aniqlovchi
- B) sifat
D) B va C

11. Asliy sifatlar berilgan javobni toping.

- A) qishki, derazali, ko'chma, devoriy
C) oq, aqlli, yuzaki
- B) go'zal, chiroyli, shirin
D) B va C.

12. Nisbiy sifatlar berilgan javobni toping.

- A) qishki, derazali, ko'chma, devoriy
C) oq, aqlli, yuzaki
- B) go'zal, chiroyli, shirin
D) B, C.

13. Narsa-buyumlardagi belgining ortiq-kamlik jihatdan farqlanishi...

- A) nisbiy sifat deyiladi
C) sifat darajasi deyiladi
- B) tub sifat deyiladi
D) qo'shma sifat deyiladi

14. Orttirma daraja shaklidagi sifatarni toping.

- A) tim qora, qip-qizil, oqish
C) yumshoqqina, och yashil, to'q ko'k
- B) sarg'ish, ko'kimtir, qoramtir
D) pak-pakana, bo'm-bo'sh, biram yoqimli.

15. Bunisi xiyol kattaroq ko'rindi. Ushbu gapdagi sifat darajasini belgilang.

- A) oddiy daraja
C) ozaytirma daraja
- B) orttirma daraja
D) sifat qo'llanmagan

16. Biram yoqimli havo birikmasidagi sifatning darajasini va daraja hosil qiluvchi vositani aniqlang.

- A) orttirma daraja, fonetik vosita
C) orttirma daraja, leksik vosita
- B) orttirma daraja, morfologik vosita
D) ozaytirma daraja, leksik vosita

17. Ushbu gapdagi sifatning darajasini va daraja hosil qiluvchi vositani aniqlang. Qoshi sal qararoq yigit edi.

A) orttirma daraja, morfologik vosita B) orttirma daraja leksik vosita C) ozaytirma daraja, leksik vosita D) ozaytirma daraja, leksik-morfologik vosita

18. Orttirma daraja shaklidagi sifatlarni aniqlang.

A) yumshoqqina, och yashil, to‘q ko‘k B) yam-yashil, chiroyliroq, nim pushti C) tim qora, qipqizil, oqish D) but-butun, tim qora, g‘irt yolg‘on.

19. Oddiy darajadagi sifatlar qaysi qatorda berilgan?

A) go‘zal, hushyor, odobli B) silliqroq, novcharoq, baxtliroq
C) yam-yashil, oppoq, ko‘m-ko‘k D) juda yaxshi, nihoyatda baland, g‘oyatda qo‘rqinchli

20. Tub sifatlar qatorini toping.

A) ozg‘in, achchiq, oyday B) tushki, toshsimon, haftalik
C) go‘zal, yuzaki, badavlat D) ko‘kintir, qatqaloq, pushtiroq

21. Issiq, sovuq sifatlarining isimoq, sovumoq fe‘llariga qanday munosabati bor?

A) sifatlar fe‘llardan yasalgan B) fe‘llar sifatlardan yasalgan C) sifat va fe‘llar “is”, “sov” so‘zlaridan yasalgan D) ularning o‘zaro munosabati hozir unutilgan

22. Taqlid so‘zlardan yasalgan sifatlar berilgan qatorni toping.

A) yaltiroq, yarqiroq, so‘lqildoq B) jizza, qahqaha, sharshara C) do‘rildoq, chiyildoq, likildoq D) qalbaki, dahanaki, xomaki

23. Qaysi qatorda sifat yasovchi sinonim qo‘shimchalar berilgan?

A) -li, ba-, bo- B) -siz, -gi, -ki
C) -ag‘on, -li, -simon D) -gan, ser-, no-

24. Sifat yasovchi qo‘shimchalar olgan so‘zlar qatorini toping.

A) andijonlik, sersavlat, suvli B) yozgi, supurgi, qishki
C) harakatchan, mehnatkash, yumaloq D) baquvvat, tuxumsimon, charag‘on

25. Narsa-buyumning o‘ringa yoki vaqtga xosligini bildiruvchi sifat yasovchi qo‘shimchalar qaysi qatorda ko‘rsatilgan

A) -iy, -viy B) -simon, -lik C) -dagi, -ki, -qi D) -simon, -lik

26. Fe‘ldan yasalgan sifatlar qatorini ko‘rsating.

A) yig‘iq, yig‘loq B) bosiq, bosqon C) qo‘g‘irchoq maqtanchoq, D) kuyunchak, kelinchak, burchak

27. Ot va sifat yasovchi -ma omonim qo‘shimchasi qo‘llanmagan qatorni toping.

A) aylanma, yasama B) qovurma, birikma
C) yasama, jamg‘arma D) ezma, bog‘lama

28. Fe‘ldan sifat yasovchi qo‘shimchalar qaysi qatorda berilgan?

A) -gi, -ki, -qi, -iy, -viy, -chan B) -siz, -simon, ser-, ba-, be-
C) -dosh, -kor, -kash, -chi, -gar D) -choq, -chak, -gir, -kir, -q, -qi

29. O‘zbek tilida sifat yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang.

A) -im, -viy, -m, -t. B) -chi, -la, -cha, -dir
C) -um, -sh, -b, -lik D) -siz, -li, -gi, -on

30. Qaysi qatorda sifat otlashmagan?

A) Boy qursin, uyat-andishani bilmaydimi? B) Quv, ichidan pishgan, fidoyi, jasur komandirni hamma sevadi. C) Yaxshidan ot qoladi, yomondan - dod. D) Bu xabarni eshitgach, onasi dovdirab, nochor qoldi.

31. Berilgan gapda ajratilgan so‘z vositasida qaysi hodisa yuzaga chiqyapti? Odam olasi ichida.

A) sifatlashish B) so‘z tushish C) sifatlash D) otlashish

32. Otlashgan sifat qaysi gapda?

A) Ichki go‘zallik bilan yo‘g‘rilmagan har qanday tashqi husn mukammal bo‘la olmaydi. B) Izchil mehnat hamma to‘siqlarni engadi. C) Otning yaxshisi uloqda bilinadi. D) Baxtsizlikda burchga sodiq qolish buyuk xislatdir.

33. Otlashgan so‘zni toping.

A) Bilmaslik ayb emas, o‘qimaslik ayb. B) Birov yonbag‘irdan gul tergani, birov buloq suvidan ichgani tarqalib ketdi.

C) Dunyoda el va erga xiyonat qilishdan, zolimga do‘st bo‘lishdan ham ko‘ra og‘irroq, razilroq, mudhishroq jinoyat bormi? D) Donolikning bir belgisi – adolat.

34. Quyidagi xususiyatlarning qay biri otlashgan sifatlarga xos emas?

A) Otga xos ko‘plik qo‘shimchasini qabul qiladi B) Otga xos egalik qo‘shimchasini qabul qiladi. C) Otga xos yasovchi qo‘shimchalarni qabul qiladi. D) Gapda otga xos barcha sintaktik vazifalarni bajara oladi.

35. Quyidagi sifatlardan qaysi birlari sodda sifatlar hisoblanadi?

1. katta; 2. chiroyli; 3. ishyoqmas; 4. shishasimon; 5. ko‘kimtir.

A) 1, 2, 3 B) faqat 1 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 4, 5

36. Qaysi qatorda qo‘shma sifat ravish+ot birikuvidan tashkil topgan?

A) mushtumzo‘r B) kamquvvat C) yolg‘izoyoq D) xomkalla

37. Qo‘shma sifatlarni toping.

A) olachipor, qoraqizil, ochiq ko‘ngil B) ko‘k muqovali, serjahl, xomxayolroq C) yam-yashil, uch g‘ildirakli, betakalluf

D) qoramtir, sharsimon, oliy ma‘lumotli,

38. Quyidagi gapda nechta juft sifat bor? Yakka-yu yagona farzanding yaxshiyomon kuningga yaramasa, katta-yu kichik oldida yuzingni erga qaratsa-ya!

A) 1 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta

39. Qo‘shma sifatlar qanday tuziladi?

A) ot va otdan B) sifat va otdan C) ot va -ar qo‘shimchali fe‘ldan D) ot va -aro so‘zidan

40. Sifat + ot ko‘rinishdagi qo‘shma sifatlarni belgilang.

A) sovuqqon, balandparvoz B) kamgap, kamquvvat C) tezoqar, ertapishar D) dunyoqarash, toshbag‘ir

SON

1-§. Sonning leksik-grammatik xususiyatlari

Predmetning miqdorini, sanog‘ini, joylashish tartibini, ba‘zan ish-harakatning bajarilish tartibini, miqdoriy belgisini bildiradigan mustaqil so‘z turkumi son deyiladi. Son necha? nechanchi? nechta? qancha? kabi so‘roqlardan biriga javob beradi.

Son otga bog'lanib, u ifodalagan predmetning konkret miqdoriy belgisini, ba'zan fe'lga bog'lanib, u ifodalagan harakatning miqdoriy belgisini anglatadi: to'rtta daftar, ikki oy o'qidi, birinchi keldi kabi. Arifmetik amallarda esa son otga, fe'lga bog'lanmagan holda keladi. Bunda son ifodalagan miqdor mavhum ma'noga ega bo'ladi: ikki qo'shuv uch besh. Arifmetik hisoblashda qanday predmetlar miqdorining qo'shilishi bilan besh hosil bo'lishi aniq emas.

Sonlar ko'pincha raqamlar bilan yoziladi:

1) arab raqamlari bilan 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.

2) rim raqamlari bilan: **birliklar:** I (1), II (2), III(3), IV(4), V (5), VI (6), VII (7), VIII (8), IX (9); **o'nliklar:** X (10), XX(20), XXX(30), XL(40), L (50) LX (60), LXX (70), LXXX (80), XC(90); **yuzliklar:** C (100), CC (200), CCC (300), CD (400), D (500), DC (600), DCC (700), DCCC (800), CM (900); **mingliklar:** M (1000), MM (2000), MMM (3000) ...

Badiiy asarlarda sonlar so'z bilan yoziladi: **To'rt yil kutdi.**

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan **23** ta sodda son bo'lib, boshqa sonlar shularning qo'shilishidan hosil bo'ladi: *nol, bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, etti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, etmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard.*

Eski yozuv tilida tuman (o'n ming), lak (yuz ming) kabi sonlar bo'lgan. Tarixiy asarlarda manna shu sonlar uchraydi.

Son predmetning aniq (beshta daftar) yoki noaniq (besh-oltita daftar) miqdorini bildirishi mumkin. Lekin har ikki holda ham son yozuvda raqam bilan ifodalangan. Ravish so'z turkumiga doir ko'p, oz, kam, mo'l kabi so'zlar ham predmetning noaniq miqdorini bildiradi, lekin bu so'zlar raqam bilan ifodalanmaydi. Shuning uchun ham bu so'zlar son so'z turkumiga oid emas.

Son so'z turkumi o'ziga xos quyidagi leksik-grammatik xususiyatlarga ega:

1. Sonning leksik-semantik xususiyati uning belgi ma'nosini ifodalashidir, ya'ni predmetning miqdor, sanoq va joylashish tartibiga ko'ra (ba'zan harakatning joylashish tartibi, miqdoriy belgisi) belgisini anglatadi. Demak, son miqdor tushunchasining nomi bo'ladi.

2. Son ma'no jihatdan predmetning sanog'ini, donasini, taxminiy miqdorini, umumiy miqdori (jamligi), taqsimlanish miqdori, joylashish tartibi; shuningdek ish-harakatning bajarilish tartibi, miqdori kabi modal ma'nolarni ifodalaydi. SHu ma'no xususiyatlariga ko'ra son ikki turga: sanoq son va tartib sonlarga bo'linadi. Sonning ma'no turlarini hosil qiluvchi maxsus modal shakl yasovchi affikslar mavjud: uchta, beshovlon, ikala, yuzlab, to'rttadan, uch-to'rt, o'ninchi kabi. Bu affikslar faqat sonlargagina qo'shiladi.

3. Son morfologik jihatdan o'zgarmaydi, ya'ni egalik, kelishik, ko'rlik affikslarni olmaydi, chunki son asosan otga bog'lanib kelib, aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Uy egasi Otabekning yoniga ikkita yostiq olib qo'ydi va bittani o'z yonboshiga ham oldi.* (A.Qodiriy.)

Son hech qachon belgi ifodalovchi so'zni o'ziga tobe qilib kelmaydi - aniqlovchi olmaydi.

Son ba'zan fe'lga bog'lanib kelib, harakatning miqdoriy belgisini anglatganda, hol vazifasini bajaradi: *Otabek qutidor tomonidan quvilganidan keyin, Marg'ilonga etti-sakkiz marta kelibdi (A.Qodiriy.)*

4. Son bog'lanib kelgan ot qo'llanmaganda, otga qo'shib kelgan so'z o'zgartiruvchi affikslar, ya'ni egalik, kelishik hamda shakl yasovchi ko'plik affiksini olishi mumkin. Bunday morfologik jihatdan o'zgargan son otlashgan son sanalib, gapda ot bajargan ega, to'ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim kabi sintaktik vazifalarni bajaradi: *Birov tosh, birov gul, o'z joyida ikkovi ham yaxshi (SHukrullo). Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni. (Amir Temur o'gitlari). O'ning yarmi besh.*

Otlashgan son fikrni stilistik jihatdan ixcham obrazli ifodalashi uchun xizmat qiladi. (Maqol, matal, aforizmlarda ko'p uchraydi) Sonning hamma turlari ham morfologik jihatdan o'zgarmaydi (chama son -tacha, -lab, -lar kasr songa qo'shilmaydi).

5. Sonlarning hisob so'zlari (numerativlar) bilan birga qo'llanishi uni boshqa so'z turkumlaridan ajralib turuvchi o'ziga xos belgilaridan biri sanaladi. Hisob so'zlari ot so'z turkumiga doir bo'lib, u son bilan bog'lanib kelgan ot va fe'l orasida ishlatiladi: ikki tup daraxt, besh kilogramm olma, o'n kilometr yurdi, to'rt sahifa o'qidi kabi.

Sonlar hisob so'zlari bilan ham, hisob so'zlarisiz ham qo'llanadi (Bu so'zlar haqida quyida to'xtalamiz).

6. Son so'z yasaliş tizimiga ega emas. Boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi. Lekin sondan boshqa so'z turkumlari yasalişini mumkin: birlik, beshlik (ot), ikkilan (fe'l), bittalab (ravish) kabi.

2 -§. Sonning ma'no turlari

Son ma'no jihatdan va grammatik xususiyatlarga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: **sanoq sonlar** va **tartib sonlar**.

Sanoq son predmet yoki ish-harakatning sonini, miqdorini, belgisini bildiradi: uch bola, ikkita kitob, besh tonna paxta, olti kilogramm sotib oldi kabi.

Sanoq sonlar hisob so'zlarisiz va hisob so'zlari bilan qo'llanish xususiyatiga ega: ikkita qalam, besh talaba, o'ntacha o'quvchi - hisob so'zlarisiz; olti tup daraxt, uch litr sut, o'n oy o'tdi, ikki marta chaqirdi - hisob so'zlari bilan kelgan.

Hisob so'zlari ko'p hollarda predmetning, ba'zan ish-harakatning hisobini ko'rsatuvchi o'lchov birligi bo'lib, u orqali predmetning ish harakatning miqdori belgilanadi. Hisob so'zlar sanoq son bilan sanaladigan predmet, ish-harakat anglatuvchi so'z orasida kelib, ularni og'irligiga, uzunligiga, hajmiga, vaqtiga va shunga o'xshash xususiyatlarga ko'ra o'lchovini bildiradi: ikki bosh uzum, uch kilogramm olma, bir qultum suv, ikki gektar er kabi.

O'zbek tilida hisob so'zlari ot so'z turkumiga oid bo'lib, ular qo'llanilishiga ko'ra quyidagi ma'nodagi otlarni o'z ichiga oladi:

1. Predmetni yakkalab, donalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzlari: dona, nusxa, bosh, tun, nafar kabi.

2. Butunning boʻlagini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzlari: burda, parcha, varaq, ogʻiz, luqma, siqim, tilim, chimdim, xarch, qop, arava, mashina, chaqmoq kabi.

3. Juft predmetlar hisobini koʻrsatuvchi hisob soʻzlari: juft, par, joʻra kabi.

4. Ogʻirlikni oʻlchash uchun ishlatiladigan hisob soʻzlari: gramm, kilogramm, tsentner, tonna kabi.

Eski oʻzbek tilida misqol, qadoq, botmon kabi otlar ogʻirlik miqdorini hisoblash uchun ishlatilgan: Namangan va Andijon tumanlarida ikki ming botmongacha er sugʻ orilar edi. (A.Qodiriy)

5. Uzunlik oʻlchovi uchun ishlatiladigan hisob soʻzlari: millimetr, santimetr, metr, kilometr, qadam, qarich, quloq kabi.

Bu hisob soʻzlarining gaz, tanob, tosh, chaqirim kabi sinonimlari mavjud boʻlib, hozir bu soʻzlar arxaiklashgan hisob soʻzlari sanaladi.

6. Suyuqlik hajmini ifodalovchi hisob soʻzlari: litr, kosa, stakan, piyola, qoshiq, xoʻplam, hovuch, chelak kabi.

7. Pul qiymatini ifodalovchi hisob soʻzlari: *tiyin, soʻm, dollar* kabi.

Tanga, chaqa, tilla soʻzlari ilgari pul qiymatini hisoblash uchun ishlatilgan boʻlib, hozirgi kunda arxaik soʻzlar qatoridan oʻrin olgan: Solix mahdum ... bir tangalik goʻsht, sakkiz pullik piyoz olib hovliga kirdi (A.Qodiriy).

8. Vaqt oʻlchovi uchun ishlatiladigan hisob soʻzlari: asr, yil, oy, hafta, sutka, kun soʻzlari hamda sutkaning boʻlaklarini ifodalovchi soat, daqiqa, minut, sekund kabi soʻzlar kiradi.

Asr, yil, oy, hafta, sutka, kun soʻzlari turli kelishik affikslarini olib kelishi, shuningdek, koʻmakchilar bilan birga ham qoʻllanishi mumkin: Oybek 30-yillardan boshlab Alisher Navoiy hayoti va ijodi toʻgʻ risida materiallar yigʻa boshlagan edi (Z.Saidnosirova).

9. Yosh hisobi uchun qoʻllanadigan hisob soʻzlari: yosh, yashar, kunlik, oylik kabi.

10. Harakat miqdorini koʻrsatish uchun ishlatiladigan hisob soʻzlari: marta, karra, bor, hissa, qatla, dafʼa, sidra kabi.

Sanoq son maʼno xususiyatlariga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi: 1) miqdor son; 2) dona son; 3) chama son; 4) jamlovchi son; 5) taqsim son.

1. Miqdor son bir turdagi predmetlarning umumiy miqdorini, baʼzan ish-harakatning umumiy miqdoriy belgisini anglatadi: uch kishi, ikki qop guruch, besh yil oʻqimoq kabi.

Sizga munosib yigit, balki etti iqlimda ham yoʻqdir (P.Qodirov). Tejamkor kishi pulini keragidan ortiqcha sarflamaydi, oʻn soʻmga olinadigan narsa uchun hovliqib yuz soʻm sarf etmaydi («Odob boʻstoni va axloq gulistoni»).

Miqdor sonlar hisob soʻzlarisiz va hisob soʻzlari bilan qoʻllanadi.

Miqdor sonni hosil qiluvchi shakl yasovchi affikslar mavjud emas.

2. Dona son bir xil predmetlarning yakkalab, donalab sanaladigan umumiy miqdorini anglatadi.

Dona son miqdor son negiziga –ta affiksini qo‘shish bilan yasaladi: o‘nta o‘quvchi, beshta daftar kabi. SHuningdek, dona son miqdor sondan so‘ng donalikni ifodalaydigan dona, tup, nusxa, nafar, tuyuq, bosh kabi hisob so‘zlarini keltirish bilan hosil qilinadi: yuz nusxa kitob, ikki bosh qo‘y, besh dona qalam, uch tup daraxt kabi.

G‘avvoslarning rahmi kelib, unga bitta qimmatbaho tosh hadya qildilar («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). Vaqti kelsa, o‘nta quruq gapdan bitta dalil, o‘nta qonun-qoidadan bitta amaliy mashg‘ulot a‘lo (A.Soliev). Gulshan kirganida uch nafar kaniz sanoliya tikmoqda edi (AQodiriy). Javonda Abu Ali ibn Sino hazratlarining tibbiyot masalalariga oid yigirma jildlik «Kitob ush shifo»si turardi. (O.Yoqubov).

3.Chama son predmetning, ish-harakatning noaniq, taxminiy miqdorini anglatadi.

CHama son quyidagicha yasaladi:

1. Miqdor son negiziga –tacha affiksini qo‘shish bilan: beshtacha, o‘ntacha, yuztacha kabi. Ikki tomonga uch qavatdan oltmishtacha joy qilingan. (A.Q.)

Hisob so‘zlari bilan birga qo‘llanadigan sonlarda –cha affiksi hisob so‘ziga qo‘shilib keladi: Ikala to‘rg‘ay taxminan bir-birlaridan ellik metrcha narida uchib sayrashyapti (S.Ahmad).

2. Miqdor son negiziga –larcha affiksini qo‘shish bilan (miqdor jihatdan yirik sonlarga qo‘shiladi): o‘nlarcha, yuzlarcha, minglarcha kabi: Menga bir bechora, notavonning sevinch ko‘z yoshi minglarcha qimmatbaho toshlardan afzaldir («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

3. Miqdor son negiziga –lab affiksini qo‘shish bilan (bu affiks ham miqdor jihatdan yirik sonlarga qo‘shiladi): o‘nlab, yuzlab, minglab kabi: O‘zbekistonda butun jahondan yig‘ilgan yuzlab millatlar va elatlar yashaydi («O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh»).

4. Ketma-ket kelgan ikki sonni juft holda keltirish orqali: bir-ikki, uch-to‘rt kabi: Hanifa xolaning sandig‘ida bo‘lajak kelinga atab yig‘ilgan besh-o‘n kiyimlik atlas va boshqa yaxshi matolar bor edi (B.Qodirov).

Ba‘zan –ta affiksi bu juft sonlarning har bir qismiga yoki ikkinchi qismiga qo‘shilib keladi: bitta-ikkita, uch-to‘rtta kabi: Daraxtlar orasidan sarg‘ayib bir-ikkita yulduz ko‘rindi (O‘.Umarbekov).

5. Hisob so‘zlari bilan qo‘llangan miqdor sonlarga –lar ko‘plik affiksi hamda kelishik affiksini qo‘shish bilan yasaladi. Bunda ko‘pincha vaqt bildiruvchi hisob so‘zi oldin keladi: *Saida uyga kech soat o‘n birlarda qaytdi (A.Qahhor).* bunda ish-harakatning bajarilishidagi payt, vaqtga nisbatan taxmin ma‘nosi ifodalanadi.

Ba‘zan bu affikslar hisob so‘ziga ham qo‘shiladi: Ro‘zimat qorong‘ida ko‘ziga yigirma besh yoshlarda ko‘ringan edi. (A.Qahhor)

5. Chama sonlar taxmin ma‘nosini ifodalovchi *chamasi, chog‘li, taxminan, qariyb, shuningdek yaqin, ortiq, kamida* kabi so‘zlarning ishtiroki bilan ham hosil qilinadi: *Maktabda o‘n chog‘li bola yig‘ilgan (O). Ko‘chalarning ikki yuziga sakson besh mingdan ortiqroq ko‘chat o‘tkazildi (A.Qahhor).*

4. Jamlovchi son bir turdagi predmetlarning miqdorini jamlab, to‘dalab ko‘rsatadi.

Jamlovchi son miqdor songa quyidagi affikslarni qo‘shish bilan hosil qilinadi:

1. Miqdor songa –ov affiksini (ikkidan ettigacha bo‘lgan sonlarga) qo‘shish bilan: ikkov, uchov, to‘rtov, beshov, oltov, ettov kabi. Ba‘zan o‘n sonidan ham yasaladi o‘novi kabi. Bu affiks bilan yasalgan son otlashgan holda kelib, doimo egalik affikslari bilan birga (I shaxs birlik egalik affiksidan tashqari) qo‘llanadi. YA’ni ular ko‘pchiligi predmetning miqdoriga ko‘ra belgisini ko‘rsatmaydi, miqdor ma’nosi bilan birga predmetlik ma’nosini anglatadi: Ular ikkovi birining og‘zidan biri olib, Qobilni past urib, Anvarni maqtab ketdilar (A.Qodiriy). Maqsud akaning qaytganini eshitganimiz hamon Oybek men Mirtemir uchchovimiz suyunib yugurdik (Z.Saidnosirova).

2. Miqdor songa –ala affiksini qo‘shish bilan yasaladi: ikala, uchala, to‘rtala, beshala kabi. Olti va etti sonlariga ham qo‘shiladi. (Ikki va olti sonlariga qo‘shilganda negiz oxiridagi i unlisi tushib qoladi). To‘shaboy ikala otni jilovidan ushlab tolning naryog‘iga olib o‘tib ketdi (S.Ahmad).

3. Miqdor songa –ovlon affiksini qo‘shish bilan yasaladi: ikkovlon, uchovlon. Bu affiks ham ikkidan ettigacha bo‘lgan sonlarga qo‘shiladi: Oltovlon ola bo‘lsa og‘zidagin oldirar, to‘rtovlon tugal bo‘lsa tepadagin endirar (Maqol).

Otga bog‘lanib kelgan jamlovchi son sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: Haqiqat uchun, Vatan uchun jonini ayamagan ikala pahlavon sal o‘tmay jangda mardona halok bo‘ldi. (SHukrullo)

Lekin jamlovchi son gapda ko‘pincha ega, to‘ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim vazifasida keladi: Ikkovlari kech salqinda adir tagida bitta-bitta yurib ketishyapti (S.Ahmad.). Uchalasining maqsadi bir. Talabalarning beshoviga ham mukofot topshirildi.

5. Taqsim son predmetlarning miqdor jihatdan teng taqsimlanishini, guruhlanish miqdorini anglatadi.

Taqsim son quyidagicha yasaladi:

1. Miqdor son negiziga –tadan affiksini qo‘shish bilan: Azim har elkasiga to‘rttadan odam sig‘adigan yigit bo‘libdi (A.Qahhor).

2. Donalik anglatadigan sonni takrorlash yo‘li bilan: bitta-bitta, uchta-uchta kabi. Ba‘zan so‘nggi qismga –dan chiqish kelishigi affiksi qo‘shilishi ham mumkin: bitta-bittadan, uchta-uchtadan kabi.

3. Miqdor sonlarning takrorlanishi bilan yasaladi: ikki-ikki, uch-uch kabi.

3 -§. Bir sonining o‘ziga xos grammatik xususiyatlari

Sonlar ichida *bir* soni o‘ziga xos grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bir soni yuqorida qayd etilgan sonlarga xos leksik-grammatik xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga o‘ziga xos ayrim xususiyatlarga ham ega:

1. Ilgari tilga olinmagan predmet nomini ifodalaydigan ot oldida kelib, gumon noaniqlik ma’nosini ifodalaydi: Maqsud aka Oybek ikkovimizga kula-kula bir voqeani aytib bergan edi. (Z.Saidnosirova.)

Miqdor anglatadigan soʻzlari soʻroq olmoshlari yoki narsa soʻzidan oldin bir soʻzini kiritish bilan gumon, noaniqlik maʼnosidagi ravishlar yasaladi: bir necha, bir qancha, bir nima, bir narsa, bir zum, bir payt kabi.

Bir soʻziga –ov, -on, -or affiksi qoʻshilishi bilan ham gumon maʼnosini bildiruvchi gumon olmoshlari yasaladi: *birov, biron, biror* kabi.

2. Bir soni feʼl, ot, sifat, ravish oldida kelib, kuchaytiruv ravishi (juda, gʻoyat) va kuchaytiruv yuklamasi (hatto) kabi maʼnoni kuchaytirishga xizmat qiladi: *Bir chiroyli, bir yoqimli shamol turdi (Said Ahmad).*

3. Bir soni sifatlovchi-sifatlanmish orasida kelganda ham maʼnoni kuchaytiradi: *Gulnor uchun ulugʻ bir baxt shu uchrashuv boʻldi (A.Q.) Juvon asabiy bir harakat bilan roʻmolini olib oʻradi (A.Q.).*

4. Ayiruv chegaralov yuklamalari (-gina, faqat) vazifasini bajarib, ayirish, chegaralash kabi maʼnolarni ifodalaydi: *Kamtarlik ham bir xislat («Tafakkur gulshani»).* Mening ishonchim bir sensan. Bunda bir soʻzi –gina, faqat vazifasini bajargan.

5. Bogʻlovchi vazifasida kelib, uyushiq gap boʻlaklarini yoki qoʻshma gap qismlarini bogʻlashga xizmat qiladi: *Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning (Maqol).*

6. Bir soni oʻzi bogʻlanib kelgan soʻz bilan «hech kim», «hech qanday» olmoshlar maʼnosida keladi: *Kunlik normasini bajarmagan bir kishi qolmadi.*

7. Kesim vazifasini bajarib kelganda, birdamlik, oʻxshashlik, umumiylik maʼnosini ifodalaydi: *Kemaga tushganning joni bir (Maqol). Odamning tili bilan dili bir boʻlsin.*

Bir sonidan olmosh, ravish, ot va feʼl yasaladi: *bir necha, bir narsa, bir zum, bir payt, bir vaqt, birlik* kabi.

4 -§. Sonlarning otlashishi

Gapda otning soʻrogʻiga javob boʻladigan va ot kabi koʻplik, egalik, kelishik shakllarida kela oladigan son otlashgan son deb ataladi: *Beshga, uchni, ikkimiz, ikkinchilar.* Otlashgan sonlar xuddi otlar kabi ega, ot–kesim, toʻldiruvchi, qaratqich aniqlovchi va hol vazifalarini bajaradi: *Besh – oʻnning yarmi. Beshni uchga qoʻshsa, sakkiz boʻladi. Imtihonlar yibirmanchida boʻladi.*

5 -§. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari

Sonlar tuzilish jihatdan quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Sodda sonlar bir oʻzakdan iborat boʻladi: *bir, uch.*

2. Qoʻshma sonlar ikki yoki undan ortiq sonning birga yozilishidan tuziladi: *oʻn uch, bir yuz oʻn sakkiz.*

3. Juft sonlar ikkita turli oʻzakning juftlashishidan tuziladi: *besh-olti, yetti-sakkiz, oʻn besh-oʻn olti.*

4. Takroriy sonlar bir o'zakning takrorlanishidan tuziladi: *ikki-ikki, to'rta-to'rta, o'nta-o'nta.*

Juft va takroriy sonlar chiziqcha bilan yoziladi.

Son tahlili namunasi	
1. So'rog'i.	5. Otlashgan yoki otlashmaganligi.
2. Butun yoki kasrligi.	6. Tuzilish turi.
3. Ma'no turi.	7. Gapdagi sintaktik vazifasi.
4. Hisob so'zi bor-yo'qligi.	

Takrorlash uchun savollar

1. Qanday so'zlarga son deyiladi? 2. Sonning nomini bildiradigan sonlar qanday qo'shimchalarni olishi mumkin? 3. Narsa-buyumlarning son-sanojini bildiradigan sonlarni so'zlarga bojlab 5 ta misol keltiring. 4. Sonlar qanday raqamlar bilan ifodalanadi? 5. Nutqimizda tez-tez qo'llanadigan 23 ta sodda sonni birma-bir sanang. 6. Eskirgan sonlarga misol keltiring. 7. Butun va kasr sonlarning o'zaro farqini tushuntiring. 8. Kasr sonning turlari haqida gapiring. 9. Aralash sonlar haqida gapiring. 10. Miqdor sonlar haqida gapiring. 11. Hisob so'zlarining ma'no guruhlari haqida gapiring. 12. "Bir" so'zining qanday ma'nolari bor? 13. Dona va tartib sonlar haqida gapiring. 14. CHama sonlar qanday hosil qilinadi? 15. Jamlovchi sonlar qanday hosil qilinadi? 16. Taqsim sonlar qanday hosil qilinadi? 17. Ot, sifat turkumidan yasalgan sonlarga 4 ta misol keltiring. 18. Otlashgan sonlar qanday qo'shimchalarni oladi? 19. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari haqida gapiring. 20. "Beshtacha kitob" birikmasidagi sonni yoddan to'liq tahlil qilib bering. 21. Omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan sonlar haqida gapiring. 22. Sinonimlik xususiyatiga ega bo'lgan sonlar haqida gapiring

Son turkumi bo'yicha test savollari:

1. Qaysi qatorda songa oid grammatik xususiyatlar noto'g'ri berilgan?

A) *son boshqa so'z turkumidan yasalmaydi* B) *sonning turlari maxsus qo'shimchalar qo'shish bilan yasalmaydi* C) *son otlashmasa turlanmaydi* D) *son odatda aniqlovchi so'z bilan qo'llanadi*

2. Quyidagi belgi ifodalovchi qaysi so'zlar son turkumiga oid so'zlarga tobe bo'lib kelishi mumkin? 1) katta; 2) yaxshi; 3) shirin

A) *Berilgan so'zlarning barchasi songa tobe bo'lib kelishi mumkin* B) *berilgan so'zlar sonlarga tobe bo'lmaydi* C) *yaxshi, katta* D) *shirin, katta*

3. Nutqimizda faol ishlatiladigan nechta sodda (tub) son bor?

A) 26 B) 23 C) 35 D) 10

4. Affiksatsiya (qo‘shimchalar yordamida yasalish) qaysi turkum uchun xos emasligini aniqlang.

A) ot B) sifat C) son D) fe‘l

5. Qaysi javobda arab raqamlarining rim muqobili noto‘g‘ri ifodalangan?

A) CM – 900, to‘qqiz yuz B) M - 1000, ming C) LXX - 70, etmish D) CCD - 200, ikki yuz

6. Qaysi sonlarga -lan qo‘shimchasini qo‘shish orqali yangi so‘z yasash mumkin?

A) ikki B) yuz C) uch D) A,B

7. Sonning morfologik xususiyatlari qaysilar?

A) So‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar sonning hamma turlariga ham qo‘shila bermaydi. B) Boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi. C) Sondan turli so‘z turkumlari yasalishi mumkin. D) A,B,C

8. Sonning sintaktik xususiyatlarini aniqlang.

A) Sonlar gapda aniqlovchi va kesim vazifasida keladi.

B) Sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so‘zlarni o‘ziga tobe qilib kelmaydi. C) Boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi. D) A, B

9. Agar ot turkumiga oid so‘zning aniqlovchisi vazifasida sifat va son turkumiga oid so‘zlar kelsa, ular gap tarkibida qanday joylashadi?

A) oldin sifat, keyin son keladi B) oldin son, keyin sifat keladi

C) faqat son so‘z turkumi keladi D) faqat sifat so‘z turkumi keladi

10. Kasr sonni toping.

A) Ikki hovli qo‘shib yuborilgan edi. B) ... qizarib-bo‘zarib, ketmondek oying yarmi ko‘rinadi. C) ... to‘rt-beshtacha chakana havaskorlarga kelibdi. D) Novvoyxonadan ikkita issiq non olib chiqay.

11. Aralash sonni toping.

A) yarim, chorak, nimchorak B) ikkidan bir, uchdan ikki, to‘qqizdan besh C) o‘ttiz ikki, sakkiz, bir yuz ellik besh D) uch yarim, olti butun o‘ndan besh, ikki butun uchdan bir

12. Ki hisob ichra bor edi o‘n lak, Har laki o‘n tuman kelib beshak. (Navoiy) Navoiyning misralarida qo‘llangan bir lak nechaga teng?

A) yuz B) ming C) o‘n ming D) yuz ming

13. Bir so‘zi qaysi gapda chegaralash ma‘nosini bildirgan?

A) U Toshkentdan vakil bo‘lib kelgan bir rus kishi bilan gaplashmoqda. B) Choy mahalida bir kulib, bir yig‘lamsirab, o‘zi, bolalari to‘g‘risida gapirdi. C) Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. D) Hammamiz imtihonlardan yaxshi o‘tdik, bir Ahmadning mazasi bo‘lmadi.

14. Qaysi javobda jamlovchi son shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha berilgan?

A) -ta B) -lab C) -lar D) -ovlon

15. Chama sonni toping.

A) Ularning har ikkalasi ham shu to‘g‘rida o‘ylar edi.

B) ...to‘rt-beshtacha chakana havaskorlarga kelibdi. C) Lekin ular yiqqan kitoblar chol yiqqan kitoblarning o‘ndan biriga ham teng kelmaydi. D) Hozir ular bo‘lajak shiyponning to‘rtinchi ustunini tayyorlashyapti.

16. Qurbon ota ikkinchi samovarga xumdan suv olib quymoqda edi. Shu gapdagi tartib sonning sintaktik vazifasini belgilang.

A) kesim B) ega C) to'ldiruvchi D) aniqlovchi.

17. Qaysi qatorda sonlarni yozishda imlo xatoga yo'l qo'yilgan?

A) bitta, ikkita B) uchchala, to'rttala C) besh-o'n, ellik-oltmishtacha D) uchdan bir, beshdan uch

18. Sifatlar qo'shib keluvchi -roq, -g'ish, -imtir, -ish; sonlarga qo'shib keluvchi -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab kabilar qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra qaysi turiga mansub?

A) -roq, -g'ish, -imtir, -ish shakl yasovchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab so'z yasovchi B) -roq, -g'ish, -imtir, -ish so'z yasovchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab shakl yasovchi C) sanab o'tilgan qo'shimchalarning barchasi shakl yasovchi D) -roq, -g'ish, -imtir, -ish so'z o'zgartuvchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab so'z yasovchi

19. Hisob (numerativ) so'zi qatnashgan gapni aniqlang.

A) Ming marta shukur B) Kissasida bir miri ham yo'q. C) Bir guruh yoshlar safarga otlandilar. D) A,B,C.

20. Quyida berilgan hisob so'z qanday ifoda uchun xizmat qilmoqda? Bir qultum suvga zor bo'lib...

A) butunning bo'lagi B) og'irlik o'lchovi
C) masofa D) predmetni yakkalab hisoblash

21. Butunning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlar berilgan qatorni toping.

A) nafar, bosh, nusxa B) siqim, to'da, botmon C) chaqmoq, luqma, shingil D) shingil, quloch, kun

22. Sonning qaysi turi hisob so'zlari bilan qo'llanmaydi?

A) dona son B) chama son C) jamlovchi son D) tartib son

23. Numerativ (hisob) so'zlar qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi?

A) son, sanoq sonlar B) sifatlar, asosan yasama sifatlar
C) gumon olmoshlari bilan D) otlar bilan

24. Numerativ (hisob) so'zlar sonlar bilan qo'llanganda, qanday tinish belgisi qo'yiladi?

A) tire, vergul B) ikki nuqta
C) nuqtali vergul D) tinish belgisi qo'yilmaydi

25. Otlashgan sonni aniqlang.

A) Beshta qiz salqin hovlida chir-chir aylanib ko'ptok o'ynar edi. B) Ular ancha gaplashib turgandan keyin, biri qishloq tomonga ketdi, ikkinchisi orqaga qaytdi. C) Bir kilogramm paxta tolasidan o'n ikki metr chit yoki yigirma metr batist tayyorlash mumkin. D) Alisher Navoiy XV asrda yashab ijod etgan.

26. Sonning ma'no jihatidan qaysi turi otlashish xususiyatiga ega emas?

A) dona va tartib son B) taqsim son C) miqdor sonning barcha turlari otlashadi, tartib son otlashmaydi D) sonning barcha turlari otlashish xususiyatiga ega

27. Son otlashganda, qanday sintaktik vazifada keladi?

A) undalma, ikkinchi darajali bo'lak B) bosh bo'lak
C) kirish so'z D) A,B,C.

28. Otlashgan son qaysi gapda mavjud?

A) *Ikkalasi navqiron aktrisaga bamisoli sehrlanganday tikilishardi.* B) *Shuxatlardan ikkitasini sho‘xroq yigit yozgan edi.* C) *Bu erda u sakkizinchi va to‘qqizinchi sinflarda bir yo‘la o‘qishga ulgurdi.* D) *A, B.*

29. Egalik affiksining qaysi shaxsdagi shakli otlashgan sonlarga qo‘shilmaydi?

A) *II shaxs ko‘plik* B) *I shaxs birlik*
C) *III shaxs birlik* D) *II shaxs birlik*

30. Sodda sonlar ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) *Majlisga besh-olti ota-ona keldi.* B) *Karima to‘rt-besh yil sabr qildi.* C) *Yigirmanchida oxirgi imtihon bo‘ldi.* D) *O‘n beshinchi kuni hovlimizga ko‘chgan edik.*

31. Gap tarkibida qo‘llangan juft sonlar asosan sonning ma‘no jihatdan qaysi turiga mansub?

A) *tartib sonlarga* B) *jamlovchi sonlarga*
C) *chama sonlarga* D) *qo‘shma sonlarga*

32. Bir so‘zining chegaralov (ayiruv) ma‘nosi qaysi qatorda berilgan?

A) *Bir gektar erni bog‘u bo‘stonga aylantirdi.* B) *Choy mahalida bir kulib, bir yig‘lamsiradi.* C) *U bir kuni ovga chiqdi.* D) *Hamma keldi, bir Hakimjon ko‘rinmadi.*

33. Dona son ishtirok etgan gap qaysi qatorda qo‘llangan?

A) *Bu sinfda yigirma beshta o‘quvchi ta‘lim oladi.* B) *Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi.* C) *Shahrimizda o‘nlab teatrlar bor.* D) *Ikkovimiz ham pastga tushdik.*

34. Taqsim son qaysi gapda mavjud?

A) *Hozir uyida shunaqa antiqa bodringdan to‘rttasi bor.* B) *So‘rining shundoq yoniga ikki dona olma tushibdi.* C) *Bemorlar palatalarga to‘rttadan joylashtirildi.* D) *Ularning ikkovi ham jim qolishdi.*

35. Qaysi qatordagi tartib son dastlabki, ilk ma‘nosida kelgan?

A) *Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi.*
B) *Endi ikkinchi tomonga nazar tashlaylik.* C) *Ikkinchi kattalarning so‘ziga aralashma.* D) *Atirgullar, ko‘rkam karnaygullar, xil-xil gulbeorlar kuzning birinchi izg‘irinlarini pisand qilmaydi.*

36. Tartib son yo‘q qatorni toping.

A) *Onasi tokchadagi ettinchi lampani yoqdi.* B) *Ukam beshinchi sinfda o‘qiydi.* C) *Ettinchilar, shanbalikka chiqdilar.*
D) *Beshinchi, oldinga chiqing.*

OLMOSH

1-§. Olmoshning ta‘rifi va leksik-grammatik xususiyatlari

Gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba‘zan so‘z birikmasi va gap o‘rnida qo‘llana oladigan, aniq lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lmagan so‘z turkumi **olmosh** deb ataladi: 1) ot o‘rnida: *Karim juda quvondi, chunki u o‘z orzusiga erishgan edi.* 2) sifat o‘rnida: *Kechagi kitobingni berib tur, men shu kitobdan misollar olmoqchiman.* 3) son o‘rnida: *Menda ikkita qalam bor, senda nechta bor?* 4) ravish o‘rnida: *Men*

bugun ketaman, sen qachon ketasan? 5) soʻz birikmasi oʻrnida: *YOmon soʻz bosh qozigʻidir, shunday soʻzni gapirmagan maʼqul.* 6) gap oʻrnida: *Sen mehnat qilishni yoqtirmaysan, bu esa insondagi eng yomon xislatdir.* Olmoshlar turlanadi, gapda koʻpincha ega, toʻldiruvchi, aniqlovchi va undalma boʻlib keladi: *Hamma keldi. Bizni tabriklang. SHu kitobni bering. Hoy sen, beri kel!*

Olmoshlar gapda soʻzlarni oʻrinsiz takrorlashdan qutqaradi, fikrni ixcham, qisqa qilib ifodalashga yordam beradi. Olmoshlar quyidagi grammatik xususiyatlariga ega: 1) soʻz yasaliş xususiyati yoʻq (lekin olmoshlar asosida ot, feʼl, ravish, sifat yasalişı mumkin: *oʻzlik, sensirama, oʻzicha, menbop*); 2) juftlanib, boshqa soʻz turkumi vazifasida keladi: *oʻsha-oʻsha, shu-shu* (ravish); 3) olmoshlar otlarga xos soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarni olishı mumkin: *unga, shunisi*; 4) olmosh hech vaqt oʻzidan oldin aniqlovchi olmaydi. Olmoshlarnı gapda bajargan vazifasiga koʻra quyidagi turlarga boʻlsa boʻladi: **1) ot toifasidagi olmoshlar.** Bular otlarning soʻroqlariga javob boʻladi, otlarga oʻxshab soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarnı qabul qiladi va gapda ot bajargan vazifalarnı bajaradi. **2) sifat toifasidagi olmoshlar.** Bular sifatlariga oʻxshab sifatlovchi-aniqlovchi, kesim va hol vazi-falarini bajaradi, otlashish xususiyatiga ega. **3) son toifasidagi olmoshlar.** Bular miqdorni ifodalash uchun qoʻllanadi va gapda sifatlovchi-aniqlovchi, kesim, baʼzan hol vazifalarini bajaradi.

2-§. Olmoshlarning maʼno turlari

1. Kishilik (shaxs) olmoshlari uchta shaxsni bildiradigan quyidagi olmoshlardir: *men, sen, u, biz, siz, ular.* Kishilik olmoshlari otlar kabi turlanadi. *U* kishilik olmoshiga joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi qoʻshimchalari qoʻshilganda, bir *n* orttiriladi: *unga, unda, undan.* Qaratqich, tushum kelishigi va qarashlilik shakli qoʻshimchasi *-niki* qoʻshilganida esa, *-n* tushiriladi: *men+ning=mening, sen+ni=seni, sen+niki=seniki.* Ayrim vaqtlarda *biz, siz, ular* olmoshlari birlik maʼnosida ham ishlatiladi, bunda *biz* olmoshi kamtarlik, bajirilgan ishda oʻzining rolini oshirmaslik kabi maʼnolarnı ifodalaydi. *Siz, ular* esa hurmat maʼnosini bildiradi, bunda *siz* olmoshiga koʻplikni ifodalash uchun *-lar* qoʻshimchasi qoʻshiladi. Bu olmoshlarga egalik qoʻshimchalari deyarli qoʻshilmaydi. Kishilik olmoshlari gapda ega (*Men keldim*), toʻldiruvchi (*Senga aytaman*), qaratqich aniqlovchi (*Uning ukasi kelibdi*), ot-kesim (*Mening doʻstim sensan*) vazifalarini bajaradi.

2. Oʻzlik olmoshi narsa-buyumni aniqlab yoki taʼkidlab koʻrsatish uchun ishlatiladigan *oʻz* soʻzidir. Bu olmosh narsa-buyumning shaxsga xosligini, tegishlilikini yoki shaxsning tanholigini bildiradi: *oʻz uyi, oʻz ukasi.* Oʻzlik olmoshi egalik qoʻshimchasini olib, kishilik olmoshlariga sinonim boʻladi: *oʻzim - men, oʻzing - sen, oʻzi - u.* Bu olmosh kishilik olmoshlari bilan qoʻllanganda, ularga taʼkid maʼnosini yuklaydi: *men oʻzim, sen oʻzing.*

Oʻzlik olmoshi turlanganda kelishik qoʻshimchalaridan oldin egalik qoʻshimchalari boʻlishı shart: *oʻziga, oʻzingdan* va b. **Oʻz** olmoshi belgisiz kelishik koʻrinishida qoʻllanishi mumkin: *Oʻz uying - oʻzingning uying.*

3. Ko'rsatish olmoshlari narsa-buyumni, kimsani ko'rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlar: *u, bu, shu, o'sha, ana, mana, ana u* yoki *anovi, mana bu* yoki *manavi, ushbu* (ko'tarinki, tantanali ma'no ifodalaydi). Ko'rsatish olmoshlari oldingi gap, gap ichidagi ma'lum bir so'z yoki so'z birikmasi o'rnida qo'llanadi va ularga ishora qiladi yoxud biror-bir so'zni aniqlab keladi. So'z ma'nosini aniqlab keluvchi bunday olmoshlar aniqlanayotgan so'zdan oldin keladi: *o'sha odam*.

Kishilik olmoshi *u* bilan ko'rsatish olmoshi *u* ni gapdagi ma'nosiga qarab farqlash mumkin. Bunda *u* kishilik olmoshi *kim?* so'rog'iga (*U keldi*), ko'rsatish olmoshi *u* esa *qaysi?* so'rog'iga javob bo'ladi (*U kishi keldi*). *U, bu, shu, o'sha* olmoshlari jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklarida turlanganda yoki ularga -*day, -dek, -aqa, -cha* qo'shimchalari qo'shilganda, qo'shimcha oldidan bir *n* tovushi orttiriladi: *unga, bunga, shunday, o'shanday, uncha, shunqa, o'shandedek*.

U, bu olmoshlari juftlanib har xil narsa va shaxs, *unaqa-bunaqa* tarzida belgining ortiqligi, *uncha-muncha* tarzida oz miqdor ma'nolarini ifodalaydi. Ko'rsatish olmoshlari gapda asosan aniqlovchi (*Bu kitob ukamniki*) va kesim (*Men aytgan odam shu*) vazifalarini bajaradi. Otlashsa, ega (*SHu mening maqsadimdir*), to'ldiruvchi (*Buni tushundim*), qaratqich aniqlovchi (*SHuning egasi sensan*), hol (*Bunda bulbul kitob o'qiydi*) bo'lib ham kela oladi.

4. So'roq olmoshlari biror narsa-buyum, belgi yoki miqdor haqidagi so'roqni bildirgan olmoshlardir. So'roq olmoshlarining nimaga nisbatan so'roq bildirishini quyidagi jadvaldan bilsa bo'ladi:

№	So'roq turi	Olmoshlar
1.	SHaxsga so'roq	<i>Kim?</i>
2.	Narsaga so'roq	<i>Nima?</i>
3.	Belgi-xususiyatga so'roq	<i>Qanday? Qanaqa? Qaysi?</i>
4.	Miqdorga so'roq	<i>Qancha? Necha? Nechta?</i>
5.	Tartibga so'roq	<i>Nechanchi?</i>
6.	Sabab-maqsadga so'roq	<i>Nega? Nimaga ?</i>
7.	O'rin-joyga so'roq	<i>Qaerda? Qayda? Qayoqqa?</i>
8.	Paytga so'roq	<i>Qachon?</i>
9.	Mavjudlikka so'roq	<i>Qani?</i>

Kim birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik va kelishik qo'shimchalarini oladi: *Kim so'zladi? Nimalarni ko'rding? Nimang bor? Nima* olmoshi belgisiz kelishik shaklida kelishi mumkin: *Nima(ni) olding?*

Qanday, qanaqa, qaysi olmoshlari belgini aniqlash uchun ishlatiladi: *qanaqa odam, qaysi kitob. Qaerda, qayda, qani, qayoqqa, qachon, nega* olmoshlari o'rin, payt, mavjudlik, sabab, maqsad kabilarni aniqlash uchun ishlatiladi: *Qachon keldi? Qaerda yuribdi? Ukang qani? Qayoqqa ketdi? Nega keldi?*

5. Belgilash olmoshlari predmet va shaxslarning yig'indisini bildiradi yoki ularni ayirib ko'rsatadi, shuning uchun ularni ikkiga bo'lish mumkin:

1) **jamlovchi** belgilash olmoshlariga *hamma, barcha, bari, jami, jamiyki, butun, yalpi* soʻzlari kiradi. 2) **ayiruvchi belgilash** olmoshlariga *har* soʻzining oʻzi (*Har qovunlarki...*) va *har kim, har nima, har bir, har qaysi* kabi soʻzlar kiradi va bu olmoshlar toʻpdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarni bildiradi. *Har* soʻzi ayrim yoziladi.

Hamma, barcha, bari olmoshlari koʻplikni anglatadi. Belgilash olmoshlari egalik, kelishik, koʻplik qoʻshimchalari bilan qoʻllanadi: **Hammalari jim. Har kimga aytaverma.**

6. Boʻlishsizlik olmoshlari inkor maʼnosini bildirgan olmoshlardir. Bular **hech** soʻzining oʻzi va shu soʻzning baʼzi soʻroq olmoshlari bilan birikishidan hosil qilinadi, **hech** soʻzi ayrim yoziladi. Bu olmoshlar egalik, kelishik qoʻshimchalari bilan qoʻllanadi: *U hech kimni koʻrmadi. Hech kimim yoʻq.*

Hech soʻzi yakka holda qoʻllanganda, koʻpincha feʼllar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi (lekin butunlay ravish turkumiga oʻtmaydi): *U hech qiynalmadi.*

Boʻlishsizlik olmoshlari ishtirok etgan gaplarning kesimi inkor shaklida boʻladi: **Hech qachon unutmaydi.**

Kimsa soʻzi ham boʻlishsizlik olmoshlari oʻrnida qoʻllanishi mumkin: *Buni kimsa (hech kim) bilmasligi kerak.*

7. Gumon olmoshlari narsa, belgi yoki voqea haqidagi noaniq tasavvurni bildirib keladigan olmosh turidir. Ular *alla-* yordamida yoki *-dir* qoʻshimchasi bilan hosil qilinadi: *allakim, allanima, allanarsa (narsadir emas), allaqaysi, allaqaer, allaqayoq, allanechuk, allaqancha, allanechanchi, kimdir, nimadir, qachondir, qandaydir, qaerdadir, qaergadir, negadir.* Gumon olmoshlari soʻroq olmoshlariga *bir, ham* soʻzlarini qoʻshish orqali yasalishi ham mumkin: *Uni kim ham chaqirayotgan edi-ya. Akasi unga bir nima deganday boʻldi.* (Baʼzan *bir nima* birikmasi boʻlishsiz olmosh oʻrnida kelishi mumkin: *Buni koʻrib bir nima demadi.*) Bu olmoshlar birlik va koʻplikda (*allakimlar*) keladi, kelishiklarda turlanadi: (*kimnidir*), egalik qoʻshimchasini oladi (*allakimim*). *Birov* soʻzi ham *kimdir, allakim* soʻzlariga sinonim boʻlgani uchun gumon olmoshi hisoblanadi. **Birov** soʻzi, shuningdek, *har kim, hech kim, bitta* degan soʻzlarga ham sinonim boʻlishi mumkin.

D i q q a t ! Ayrim darsliklarda ot-olmoshlari ham ajratiladi <i>Bunga kamina, faqir, banda</i> soʻzlari kiritiladi.
--

3-§. Boshqa turkumga oid soʻzlarning olmoshga koʻchishi

Quyidagi turkumlarga tegishli ayrim soʻzlar olmoshga koʻchadi: 1) ot: *odam, kishi, inson, narsa, ish*; 2) sifat: *baʼzi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi*; 3) son: *bir*. Umuman olganda, *bir, har, hech* soʻzlari bilan keladigan koʻpgina soʻzlar olmoshga koʻchishi mumkin: *hech narsa, bir narsa, har erda.*

Eski oʻzbek tilida *men* olmoshi oʻrnida *kamina* (hozir ham ishlatiladi), *faqir, kaminai kamtarin, qulingiz, bandai ojizingiz* kabi soʻzlar qoʻllangan (25; 28).

4-§. Olmoshlarning tuzilish turlari

1. Sodda olmoshlar barcha olmoshlar guruhida mavjud: *men, shu, o‘z, kim, hamma, hech, birov.*

2. Qo‘shma olmoshlar faqat ko‘rsatish, belgilash, bo‘lishsizlik olmoshlari guruhida mavjud: *ana shu, har kim, hech nima.*

3. Juft olmoshlar faqat kishilik, ko‘rsatish olmoshlari guruhida bor: *sizu biz, u-bu.*

4. Takroriy olmoshlar ko‘rsatish, o‘zlik, so‘roq, belgilash olmoshlariga tegishlidir: *shu-shu, o‘z-o‘zini, kim-kim, barcha-barchasi.*

Olmosh tahlili namunasi	
1. So‘rog‘i.	4. Tuzilish turi.
2. Qaysi turkum o‘rnida kelganligi.	5. Gapdagi sintaktik vazifasi
3. Ma‘no guruhi.	

Takrorlash uchun savollar

1. Olmosh deb qanday so‘zlarga aytiladi? 2. Olmoshlarning grammatik xususiyatlarini sanab ko‘rsating. 3. Kishilik olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring. 4. O‘zlik olmoshi va uning xususiyatlari haqida gapiring. 5. Ko‘rsatish olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring. 6. So‘roq olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring. 7. Belgilash olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring. 8. Bo‘lishsizlik olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring. 9. Gumon olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring. 10. Olmoshlar bilan bojliq tovush o‘zgarishlari haqida gapiring. 11. Qaysi turkumga oid so‘zlar olmoshlarga ko‘chadi? 12. Olmoshlarning tuzilish turlari haqida gapiring. 13. Turlanadigan olmoshlar haqida gapiring. 14. Turlanmaydigan olmoshlarga misollar keltiring. 15. Omonim xarakterdagi olmoshlar haqida gapiring. 16. O‘zaro sinonim bo‘la oladigan olmoshlar haqida gapiring. 17. **-lar** qo‘shimchasi qo‘shilganda kuchaytirish ma‘nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring. 18. **-lar** qo‘shimchasi qo‘shilganda kinoya ma‘nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring. 19. **-lar** qo‘shimchasi qo‘shilganda hurmat ma‘nosini ifodalaydigan olmoshlar haqida gapiring. 20. Qaysi olmoshlar daraja ko‘rsatkichlarini olishi mumkin?

Olmosh turkumi yuzasidan test savollari:

1. Predmet, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurga ishora qiluvchi so‘zlar...

A) *ko‘rsatish olmoshlari deyiladi* B) *so‘roq olmoshlari deyiladi* C) *gumon olmoshlari deyiladi* D) *olmoshlar deyiladi.*

2. Olmoshlardan qaysi so‘z turkumlarini yasash mumkin?

A) *fe‘l* B) *ravish* C) *son* D) *A, B va C*

3. Olmoshlar qaysi so‘zlarning yasalishiga asos bo‘lishi mumkin?

A) sifatlarning B) iboralarning C) sonlarning D) A va B.

4. Olmoshlar qaysi soʻzlar oʻrnida qoʻllanganda, soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni qabul qiladi?

A) ot B) sifat C) ravish D) ot va feʼl

5. Uning quchogʻida gʻamdan yoʻq nishon,

U erda tentimas iblis xayoli.

U erda doʻstlikni ulugʻlab inson,

Takallum qiladi qumri misoli.

Misralar muallifi kim? 1-misradagi olmosh qaysi gap boʻlagi vazifasida?

A) U. Nosir; hol B) E. Vohidov; ega

C) A. Oripov; aniqlovchi D) R. Parfi; aniqlovchi

6. Olmoshlarga xos grammatik xususiyatlar qaysi javobda notoʻgʻri izohlangan?

A) Olmoshlardan baʼzi qoʻshimchalar orqali ot, ravish yoki feʼllar yasalishi mumkin. B) Olmoshlar baʼzi soʻzlar bilan qoʻshilib, boshqa soʻz turkumiga koʻchishi mumkin.

C) Olmoshlar baʼzi soʻz turkumlaridan qoʻshimchalar yoki sintaktik yoʻl bilan yasalishi mumkin. D) olmoshlar otlarga xos soʻz oʻzgartuvchilar bilan oʻzgaradi.

7. Qaysi soʻz turkumlari turlanadi?

A) olmosh, ot, otlashgan soʻzlar B) sifat, son, olmosh C) ravish, olmosh, bogʻlovchi D) mustaqil soʻz turkumlarining barchasi

8. Turlanish qaysi turkumlariga xos?

A) olmosh, son B) feʼl, olmosh C) sifat, ravish D) ot, olmosh.

9. Saida bu ayolni darrov yomon koʻrib qoldi. Ushbu misoldagi olmosh gapning qaysi boʻlagi boʻlib kelgan?

A) ega B) kesim C) toʻldiruvchi D) aniqlovchi

10. Olmoshning gapdagi vazifasi qaysi qatorda toʻliqroq va toʻgʻri koʻrsatilgan?

A) ega B) toʻldiruvchi C) aniqlovchi D) aniqlovchi, toʻldiruvchi, ega, undalma

11. Bir xil talabalar berilgan topshiriqlarni oʻz vaqtida bajarmaydilar. Ushbu gapdagi olmoshlarni toping.

A) bir xil B) bir C) oʻz, bir xil D) oʻz

12. Bir oʻlka bor dunyoda biroq bitilmagan dostonidir bori. Ushbu gapdagi olmosh oʻrnida kelgan soʻzni toping.

A) bori, bir B) bori C) bor D) bir

13. Kishilik olmoshlariga odatda qaysi qoʻshimchalar qoʻshilib kelmaydi?

A) soʻz yasovchi qoʻshimcha B) -lar qoʻshimchasi C) egalik qoʻshimchasi D) kelishik qoʻshimchasi

14. Olmoshlarning qaysi turi turlanganda tovush orttirilishi yoki tushishini kuzatish mumkin?

A) oʻzlik olmoshida B) kishilik olmoshida
C) koʻrsatish olmoshida D) belgilash olmoshida

15. Uning (Xaliljonning) nechun shu holga tushib qolganligiga hamma hayron, oʻzi esa qoʻl siltaydi. Ushbu gapda olmoshning maʼno va grammatik xususiyatlariga koʻra qaysi turlari bor?

A) belgilash, o'zlik, kishilik, ko'rsatish olmoshi B) ko'rsatish, kishilik, so'roq, belgilash olmoshi C) so'roq, ko'rsatish, belgilash, o'zlik, kishilik olmoshi D) belgilash, ko'rsatish, o'zlik olmoshi, kishilik olmoshi

16. U ko'rsatish olmoshi qo'llangan gapni belgilang.

A) *U ko'pchilikning fikrini allaqachon sezgan edi.* B) *Muattar uning shodlikdan uchqun sochib turgan ko'zlariga qaradi.* C) *U uchun atagan qo'shiqlarim bor.* D) *U kishi siz haqingizda juda yaxshi fikrlar aytdilar.*

17. Qaysi gapdagi birov so'zi allakim ma'nodoshi bilan almashtirish mumkin?

A) *Bolalardan birovi ko'zlarini chirt yumdi.* B) *Bu gaplarni birov eshitmasin.* C) *Uzoqdan birovning qorasi ko'rindi.*

D) *Botirlar birov eshitmasin deb, sekin-sekin qadam bosishdi.*

18. Bo'lishsizlik olmoshi tarkibidagi hech so'zi yakka holda qo'llanganda ko'pincha qaysi so'zlar oldida keladi?

A) *otlar oldida* B) *sifatlar oldida*
C) *fe'llar oldida* D) *ravishlar oldida*

19. O'zlik olmoshi bog'lanib kelgan ot tarkibida, asosan, qanday qo'shimcha bo'ladi?

A) *kelishik qo'shimchasi* B) *ko'plik qo'shimchasi* C) *egalik qo'shimchasi* D) *egalik va kelishik qo'shimchasi*

20. 2-shaxs qaratqichli birikma o'rnida olmosh qatnashgan gapni aniqlang.

A) *Kaminaning ham sizga aytolmagan gaplari bor edi.* B) *Biz mana shunday muvaffaqiyatlarga erishdik.* C) *Sening irodang mustahkam emas.* D) *O'zlarining ham fikrlarini eshitsak yomon bo'lmasdi.*

21. Men o'z tilagimni unga bildirsam gapida olmoshlar qaysi kelishik shakllarida kelgan?

A) *bosh, qaratqich, tushum kelishigi* B) *bosh, qaratqich, jo'nalish kelishigi* C) *tushum, bosh, qaratqich kelishigi* D) *bosh, qaratqich, o'rin-payt kelishigi*

22. Gapdagi olmoshning ma'no turini aniqlang. Xalq amaliy san'ati nihoyatda serjilo va sertarmoq ekanligiga shak-shubha yo'q.

A) *ko'rsatish* B) *belgilash-jamlash* C) *so'roq* D) *olmosh ishtirok etmagan*

23. Quyidagi so'roq olmoshlaridan qaysi biri birinchi shaxs birlik shaklda qo'llanadi?

A) *nima* B) *A, D* C) *qaysi* D) *kim*

24. Gapdagi gumon olmoshi anglatgan ma'noni aniqlang. Tog' yo'lidan allaqancha yo'l bosishi kerak.

A) *o'rin* B) *payt* C) *miqdor* D) *holat*

25. Qaysi gapda odamga so'zi olmosh turkumiga ma'no jihatidan yaqin?

A) *Odamga ko'p narsa kerak emas.* B) *Odam odamga do'st, o'rtoq.* C) *Har qanday odmaga yaxshilik qilish kerak.*

D) *Odamga alam qilarkan...*

26. Kaminaning bergan maslahati bilan hamma o'z ishini davom ettirdi. Ushbu gapda ostiga chizilgan so'z qaysi olmosh turi o'rnida qo'llangan?

A) *kishilik* B) *ko'rsatish* C) *belgilash* D) *bo'lishsizlik*

27. Otning olmoshga ko'chishi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Yaxshi odam, yo'ldoshing kitob bo'lsin! B) Odam borki, odamlarning naqshidir
C) Odam ketgisi kelyapti D) Inson yashamoqdan tolmasin uchun umid berilgan.

28. Quyidagi qaysi so'zlar ba'zan nutqda men kishilik olmoshi o'rnida qo'llanishi mumkin? 1) kamina; 2) kishi;

3) faqir; 4) banda.

A) 1,2,3 B) 1,2,3,4 C) 1,2 D) 1,3,4.

29. Qanday olmoshlar juft olmoshlar sanaladi?

A) bir-biriga talaffuzi yaqin bo'lgan olmoshlarning birikishidan hosil bo'lgan olmoshlar
B) bir-biriga mazmunan zid bo'lgan olmoshlarning birikishidan hosil bo'lgan olmoshlar
C) bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan olmoshlarning birikishidan hosil bo'lgan olmoshlar
D) barchasi to'g'ri.

30. Qaysi olmoshlar tuzilish jihatidan sodda va qo'shma turlarga bo'linadi?

A) kishilik, bo'lishsizlik va ko'rsatish olmoshlari
B) kishilik, belgilash, ko'rsatish va gumon olmoshlari
C) so'roq, belgilash, ko'rsatish, o'zlik olmoshlari
D) ko'rsatish va belgilash olmoshlari

31. Qaysi olmoshlar takroriy holda ham ishlatilishi mumkin?

A) ko'rsatish, so'roq, belgilash olmoshlari
B) kishilik, so'roq va belgilash olmoshlari
C) so'roq, belgilash, ko'rsatish, o'zlik olmoshlari
D) kishilik va ko'rsatish olmoshlari

32. Qo'shma olmoshlarni belgilang.

A) shu onda nimadir qars etdi. B) Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir. (Bobur)
C) Unda-bunda qushlarning sayragani eshitilardi. D) Allakim eshikni taqillatdi.

33. Olmoshlarning qaysi turi sodda, qo'shma, juft, takroriy shakllarga ega?

A) bo'lishsizlik va belgilash olmoshlari
B) so'roq, bo'lishsizlik va belgilash olmoshlari
C) ko'rsatish olmoshlari
D) kishilik va o'zlik olmoshlaridan tashqari olmoshlarning barcha turlari

34. Qo'shma olmoshlarning qaysi turlari «olmosh+olmosh» shakliga ega?

A) gumon olmoshlari
B) bo'lishsizlik va belgilash olmoshlari
C) ko'rsatish olmoshlari
D) olmoshlarning barcha turlari

35. Qaysi olmoshlar tarkibida qo'shma olmoshlar mavjud emas?

A) belgilash; B) ko'rsatish; C) so'roq; D) bo'lishsizlik;

36. Juft olmoshlar ishtirok etgan gapni toping.

A) U har qanday vaziyatda ham o'zini yo'qotmasdi. B) Har kim ekanini o'radi.
C) To'yga kim-kimlar borishdi? D) U-bu eb ol, o'g'lim.

Olmosh tahlili namunasi	
1. So'rog'i..	4. Tuzilish turi.
2. Qaysi turkum o'rnida kelganligi.	5. Gapdagi sintaktik vazifasi
3. Ma'no guruhi.	

FE'L

1 -§. Fe'lning leksik-grammatik xususiyatlari

Shaxs va predmetning ish-harakati va holatini ifodalaydigan mustaqil soʻzlar feʼl deyiladi. Masalan: Men olimlarga, ilohiyotchilarga, tarixshunoslarga hurmat-ehтиrom koʻrsatdim va eʼzozladim. (A.Temur). Mehnat insonda ijodiy kuch uygʻotadi (Tafakkur jurnali).

Grammatikada harakat va holat tushunchasi juda keng. YAʼni feʼl holat, belgining yuzaga kelishi, oʻzgarishi kabi jarayonlarni ham harakat tarzida anglatadi: oʻrik gulladi, yaproqlar sargʻaydi, bola uxlayapti kabi.

Feʼllarning barchasi bir umumiy soʻroqqa nima kilmoq? soʻrogʻiga javob beradi.

Feʼl oʻziga xos boʻlgan morfologik belgilarga ega, yaʼni:

1) ish-harakatning predmetga (toʻldiruvchiga) munosabati feʼldagi oʻtimli va oʻtimsizlik maʼnosini hosil qiladi: oʻqimoq, yozmoq - oʻtimli feʼl; oʻtirmoq, chiniqmoq - oʻtimsiz feʼl;

2) ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiq yoki inkorni anglashilishiga koʻra feʼllar boʻlishli va boʻlishsizlik maʼnosini bildiradi: ayt – boʻlishli, aytma – boʻlishsiz; bilgan – boʻlishli, bilgani yoʻq – boʻlishsiz feʼl;

3) ish-harakat bilan uning bajaruvchisi, obʼekt va subʼektlar orasidagi munosabat nisbat maʼnosini hosil qiladi: kiydi - aniq nisbat, kiyindi - oʻzlik nisbat, kiyildi - majhullik nisbat, kiydirdi – orttirma nisbat;

4) ish-harakatning voqelikka munosabati mayl maʼnosida aks etadi: bordi, bormoqda, bormoqchi - aniqlik mayli; boray, borgin, borsin - buyruq-istak mayli; borsa – shart mayli;

5) ish-harakatning nutq soʻzlanib turgan payt bilan munosabati feʼldagi zamon maʼnosini hosil qiladi: oʻrgandim - oʻtgan zamon, oʻrganayapman - hozirgi zamon, oʻrganmoqchiman – kelasi zamon;

6) ish-harakatning biror grammatik shaxs (birlik yoki koʻplikda) tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligi feʼldagi shaxs-son maʼnosida aks etadi. Feʼl shaxs-son qoʻshimchalari bilan tuslanadi: qiziqdim, qiziqding, qiziqdi; qiziqdik, qiziqdingiz, qiziqdilar.

Demak, feʼl oʻtimli-oʻtimsizlik, boʻlishli-boʻlishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son maʼnolarini ifodalash kabi oʻziga xos morfologik belgilarga ega.

SHu bilan birga feʼlning sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi kabi oʻziga xos vazifadagi shakllari ham mavjud (ishongan odam – sifatdosh; ishonib, ishongach – ravishdosh; ishonish, ishonmoq kerak - harakat nomi). Feʼlning bu vazifadagi shakllari gapda maʼlum bir gap boʻlagi vazifasini bajarishga moslashgan boʻladi.

Feʼl oʻziga xos maxsus soʻz yasaliş tizimiga ham ega: bahola, ulgʻay, tinchi, suvsira – affiksatsiya usul bilan yasalgan feʼllar; xursand boʻlmoq, javob bermoq, sotib olmoq - kompozitsiya usul bilan yasalgan yasama feʼllar.

Feʼllarda modal shakl yasaliş ham mavjud, u oʻz ichida turli xil qoʻshimcha maʼnolarni aks ettiradi: *kulimsira* – kuchsizlik, *turtkila* – davomiylik, *yozib boʻldi* – tugallanganlik kabi.

Feʼl oʻziga xos sintaktik vazifalarga ham ega, yaʼni:

1) sof feʼl gapda, asosan, kesim vazifasini bajarib keladi. Masalan: *Insonni mehnat, odobni yaxshi fazilat bezaydi* (*Hikmatlar xazinasi*);

2) fe'ning vazifadosh shakllari sifatdosh, sifatlovchi-aniqlovchi, ravishdosh, hol, harakat nomi, ega, qaratuvchi-aniqlovchi, to'ldiruvchi kabi gap bo'laklari vazifasini ham bajarib keladi. Masalan: *O'zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko'r (Hadis namunalari). Dunyoda eng yomoni faqat o'zini bilib o'zgani unutib yashashdir (I.Karimov). Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy harkatlaridandir (Pedagogika tarixi).*

2 -§. O'timli va o'timsiz fe'llar

O'timli va o'timsiz fe'llar fe'l anglatgan harakatning predmetga munosabati orqali belgilanadi.

Fe'ldagi anglashilgan harakatning tushum kelishigi formasidagi ot bilan (yoki otlashgan so'z bilan) ifodlangan predmetga o'tganligini bildiradigan fe'llar o'timli fe'l deyiladi.

Masalan: *Hammamiz shu tuproqning suvini ichganmiz, non-tuzini eganmiz (I.Karimov).*

Bu gap ichganmiz, eganmiz fe'llaridan anglashilgan harakat bevosita tushum kelishigi shaklidagi suvini, non-tuzini so'zlari bilan ifodalangan predmetga o'tadi. Demak, o'timli fe'llar tushum kelishigi shaklidagi ot bilan bog'lanadi.

Ba'zan fe'l anglatgan harakat yoki holat predmetning bir qismiga o'tishi yoki harakat o'tgan predmet shu harakatning bajarilishida vosita bo'lishi mumkin. Bunday holda o'timli fe'llar jo'nalish va chiqish kelishigi shaklida qo'llangan otlar bilan ham birikadi. Qiyoslang: nonni oling – nondan oling, otni mining – otga mining.

Biron predmetga bevosita o'tmaydigan harakatni anglatadigan fe'llar o'timsiz fe'l deyiladi. Masalan: *Ko'ngil quvonchi uning kuchsizligidan dalolat beradi (Tafakkur gulshani). Pokiza aql insonni ayb va kamchiliklardan qutqaradi (U.Mahkamov).*

Bu gaplardagi dalolat beradi, qutqaradi fe'llaridan anglashilgan harakat bevosita tushum kelishigida kelgan otni boshqarmagan, boshqa predmetga o'tmagan, balki harakat bajaruvchining o'zida qolgan.

Fe'ldagi o'timli va o'timsizlik ma'nosi ikki xil usul bilan ifodalanadi:

1. Leksik-semantik usul.

2. Morfologik usul.

1. Fe'llar o'z leksik ma'nosiga ko'ra biror affiks olmagan, hech qanday shakl o'zgarishsiz (o'zak-negiz hoida) hoida o'timli yoki o'timsiz bo'ladi. Masalan: ol, och, ko'r, yoz, ich, qo'y, so'ra, ber kabilar o'timli; bor, kel, o'tir, uxla, yot, yur kabilar o'timsiz fe'llardir.

Bunday usul bilan, ya'ni fe'ning leksik ma'nosiga ko'ra o'timli-o'timsizlik ma'nosining ifodalanishiga leksik-semantik usul deyiladi.

2. Fe'l o'zak-negiziga qo'shiladigan fe'l nisbatini yasaydigan qo'shimchalar (o'zlik, majhullik, ortirma nisbat qo'shimchalari) o'timli va o'timsiz fe'llarni belgilab beradi. O'timli-o'timsizlikning fe'l nisbatini yasaydigan affikslar bilan ifodalanishi morfologik usul sanaladi. Fe'l o'zak-negiziga nisbat qo'shimchalari qo'shilganda, fe'ning o'timli-o'timsizligi quyidagicha yuz beradi:

1) o'zlik va majhullik nisbat qo'shimchalari o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi: so'radi - o'timli fe'l, so'raldi - o'timsiz fe'l; ko'rdi - o'timli fe'l, ko'rindi - o'timsiz fe'l. So'radi o'timli fe'lga qo'shilgan -l majhullik nisbat qo'shimchasi, ko'rdi o'timli fe'lga qo'shilgan -in o'zlik nisbat qo'shimchasi so'radi, ko'rdi fe'llarini o'timsiz fe'llarga aylantirdi;

2) orttirma nisbat qo'shimchalari, aksincha, o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantiradi: kuldi - o'timsiz fe'l, kuldirdi - o'timli fe'l; yurdi - o'timsiz fe'l, yurgizdi - o'timli fe'l; uxladi - o'timsiz fe'l, uxlatdi - o'timli fe'l. Ushbu kuldi fe'lga qo'shilgan -dir qo'shimchasi, yurdi fe'lga qo'shilgan -giz qo'shimchasi, uxladi fe'lga qo'shilgan -t orttirma nisbat qo'shimchalari o'timsiz fe'llarni o'timli fe'lga aylantirdi.

3) orttirma nisbat qo'shimchalari orqali o'timli fe'ldan yana o'timli fe'l hosil qilinadi: esladi - o'timli fe'l, eslatdi - o'timli fe'l; ichdi - o'timli fe'l, ichirdi - o'timli fe'llari tarkibidagi -t, -ir orttirma nisbat qo'shimchalari o'timli fe'lni yana o'timli fe'lga aylantirdi.

Qo'shma fe'llarda o'timli va o'timsizlik ma'nosi etakchi qismga qarab belgilanadi. Masalan: aytib berdi, ko'ra boshladi, yozib chiqdi qo'shma fe'llarda aytib, ko'ra, yozib etaksi qismning o'timli ekanligi shu fe'llarning o'timli ekanligini ko'rsatadi. Aksincha, qo'shma fe'llarning etakchi qismi o'timsiz fe'ldan bo'lsa, butun qo'shma fe'l o'timsiz bo'ladi: o'sa boshladi, quvonib ketdi, kulib qo'ydi kabi.

3 -§. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiq yoki inkor tushunchasi fe'ldagi bo'lishli va bo'lishsizlik ma'nosini anglatadi.

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiqni anglatuvchi fe'llar bo'lishli fe'l deyiladi. Fe'ldagi bo'lishlilik ma'nosini ifodalovchi maxsus grammatik ko'rsatkich yo'q: o'qi, eslat, qolgan, borsa, aytib bergan, o'qib chiqdi, hurmat qil kabi. Masalan: Ona so'zining o'zi har yurakka jarangli sado beradi (Hikmatlar guldastasi). O'z burchini bajarishdan mamnun odamligina erkin yashaydi (Tafakkur gulshani).

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi inkorni anglatuvchi fe'llar bo'lishsiz fe'l deyiladi. Bo'lishli fe'l bo'lishsiz fe'lni hosil qilish uchun asos bo'ladi. Fe'lning bo'lishsiz shakli quyidagicha yasaladi:

1. fe'l negiziga -ma (bu affiks urg'u olmaydi), -may, -mas, -masdan, -maslik affikslarini qo'shish bilan fe'ldagi bo'lishsizlik ma'nosi hosil qilinadi: ko'rsatma, kelmagach, bajarmadi, yoqmas, avaylamasdan, o'smaslik kabi.

Ko'rinadiki -ma elementi -may, -mas, -masdan, maslik affikslarining tarkibida uchraydi. Bu affikslar sof fe'lga va fe'l shakllariga (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi) qo'shilib inkor ma'nosini ifodalashda asosiy morfologik ko'rsatkich sanaladi. Masalan: *G'ulomjon darpardasi yonidan qalin qorni g'irchillatib o'tgan dupurni ham eshitmadi. (M.Ismoilij). Tog' arqon bilan eshilmaydi (M.Qoshg'ariy). Mehnat qilmagan rohat ko'rmas (O'zbek xalq maqoli). Uydagilarga aytmasdan do'sti bilan Qudratnikiga ketibdi. Kasal tabib kasalni*

davolay olmas (Abu Ali ibn Sino). Bu voqeani ko'rmalik uchun bolalar ko'zlarini chirt yumdilar.

-ma, -may affikslari qo'shma fe'llarga quyidagicha qo'shiladi:

a) asosiy qismga etakchi fe'lga qo'shiladi: eshitmay qoldi, uxlamay chiqdi, ko'rmay qoldi kabi;

b) ko'makchi fe'lga qo'shiladi: sotib olmadi, javob bermadi, o'qib chiqmadi kabi;

v) qo'shma fe'lning har ikala qismiga qo'shiladi: aytmay qo'ymaydi, bormay qolmaydi. Bunday holda bo'lishsiz shakl orqali bo'lishlilik ma'nosi anglashiladi, ya'ni aytadi, boradi kabi.

Masalan: *Buvijonimning aytishicha, astoydil yaxshi niyat qilgan odam murodi maqsadiga etmasdan qolmas ekan (X.To'xtaboev).*

Eslatma: ravishdoshning -gani (-kani, -qani) affikslari bilan yasalgan shakliga bo'lishsizlik ifodalovchi affikslar qo'shilmaydi.

2. Fe'lning ayrim sifatdash, ravishdosh, harakat nomi shakllaridan so'ng emas, yo'q so'zlarini kiritish bilan bo'lishsiz fe'l hosil qilinadi: hayratlangan emas, boradigan emas, egib emas, tinchigani yo'q, ishonish emas kabi. Masalan: *Lekin ularning nima o'qiganini ko'rgan ham, qanday o'qiganini eshitgan ham emas (P.Tursun).*

3. Na inkor yuklamasini uyushiq bo'lak sifatida qo'llangan bo'lishi fe'ldan oldin keltirish bilan bo'lishsiz fe'l hosil qilinadi: na o'qiydi, na yozadi. Masalan: *Keksa cholning kesatiq gapidan u dong qotib qoldi: na o'tirdi, na ketdi (A.Qodiriy).*

4. Ba'zan ohang yoki ohang va fe'lga yuklamani (-mi, -a, -ya) qo'shish hamda fe'lni takrorlash orqali bo'lishsizlik ma'nosi ifodalanadi: oladi-ya oladi (olmaydi); aytasan-a, aytasan (aytmaysan) kabi.

Masalan: *Bolasi tushmagur-ey, chumchuqning uyasini buzib rohat toparmidi? (G'ayratiy). «Katta bo'lsam, akamga o'xshab, albatta komandir bo'laman», - dedi Sobir. Bo'lasan-a, bo'lasan. Komandir bo'lishga yurak kerak... (H.Nazir).*

4 -§. Fe'l nisbatlari

Fe'l ifodalagan harakat bilan uning bajaruvchisi (sub'ekti) va predmeti (ob'ekti) yoki bir necha bajaruvchi (sub'ektlar) orasidagi munosabatning ifodalanishi fe'l nisbati deyiladi. Harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabat turlicha bo'ladi. Ma'lum bir shaklda harakat ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajariladi. Masalan: *Bobur ota yurtidan batamom ajralganini endi astoydil his qildi (P.Qodirov).*

Boshqa bir shaklda harakatning sub'ekti (ega) ham, ob'ekti ham bir shaxsning (predmetning) o'zi bo'ladi. Masalan: *Feruzaga hovliga tushib, shabnamda qiyg'os ochilgan atirgullar ustiga egildi. (H.G'ulom).*

Yana bir ko'rinishda harakatning bajaruvchisi sub'ekt emas, ob'ekt sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo'ladi. Masalan: *Tashqarida*

so'riga gilam to'shaldi, ko'rpacha solindi. Dasturxon yoyildi, choy damlandi (Tog'ay Murod).

SHuningdek, harakat bir necha sub'ekt tomonidan birgalikda bajarilishi mumkin. Masalan: *Ichkaridan birin-ketin bolalar chiqib kelishdi (Tog'ay Murod).*

YAna bir nisbat shaklida esa harakat grammatik sub'ekt (ega)ning boshqa bir sub'ekt va ob'ekt ta'siri bilan bajariladi. Masalan: *Mo'minning ovozidan qat'iyat, buyruq Laylini bo'shashtirdi (S.Z.).*

SHunga ko'ra fe'llarda besh xil nisbat ko'rinishi mavjud: 1. Aniq nisbat. 2. O'zlik nisbat. 3. Majhullik nisbati. 4. Birgalik nisbati. 5. Orttirma nisbat.

Fe'l nisbati maxsus shakl yasovchi qo'shimchalar yordami bilan yasaladi. Bu qo'shimchalar fe'lning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi, balki unga qo'shimcha ma'no qo'shadi. YA'ni bu qo'shimchalar harakatning bajaruvchisi (sub'ekti) va predmeti (ob'ekti) ni ko'rsatib, gap qurilishining qanday bo'lishini bildirib turadi. Masalan: *yozdi* – sub'ekt (ega)ning o'zi bajaradigan harakat, *yozildi* – predmet (ob'ekt) tomonidan bajarilib, sub'ekti noma'lum harakat, *yozishdi* – bir necha sub'ektlar bajaradigan harakat, *yozdirdi* – sub'ektning ob'ektga ta'siri bilan bajariladigan harakat.

1. Aniq nisbat

Bu shakldagi fe'lda harakatning bajaruvchisi grammatik jihatdan ega vazifasini bajargan shaxs yoki predmet bo'ladi. To'ldiruvchi esa harakatning ob'ekti bo'ladi. Gapning bunday qurilishi tilshunoslikda aktiv konstruktsiya (faol qurilma) deb yuritiladi. Masalan: *Navoiy shiringina yasog'liq uyda tanho ishlar edi (O.).* Ushbu gapda ishlar edi harakatning bajaruvchisi (sub'ekti) Navoiy bo'lib, u ega orqali ifodalangan. Harakatning ob'ekti esa uyda vositali to'ldiruvchi orqali ifodalangan.

Bunday shaklida maxsus nisbat ko'rsatkichi yo'q. Bu nisbat ma'nosi fe'l negizi orqali ifodalanadi, shuning uchun ham u boshqa nisbat shakllarini hosil qilishi uchun asos bo'la oladi (qiyoslang: o'qidi, o'qildi, o'qishdi, o'qitdi kabi).

2. O'zlik nisbat

Bu nisbatdagi fe'lda harakatning sub'ekti bilan ob'ekti bir shaxsning o'zi bo'ladi. Masalan: *Men har tong Toshkentning go'zilligi, fayzi bilan zavqlanaman (U.Mahkamov)* gapida zavqlanaman fe'li tarkibida kelgan –lan qo'shimchasi harakatning sub'ekti bilan ob'ekti men shaxsi ekanligini ko'rsatib turibdi.

O'zlik nisbati quyidagi affikslar bilan yasaladi:

a) fe'l negiziga unlidan so'ng –n, undoshdan so'ng –in qo'shish bilan: maqta-n, o'ra-n, yuv-in, kiy-in kabi;

b) fe'l negiziga unlidan so'ng –l, undoshdan so'ng –il qo'shish bilan: surka-l, shosh-il kabi;

v) –lan (-la+-n dan tuzilgan qo'shma affiks) affiksini qo'shish bilan: zavq-lan, tinch-lan, shod-lan kabi;

g) –ish qo‘shimchasini qo‘shish bilan: ker-ish kabi.

Barcha fe‘l negizlaridan (o‘timli, ba‘zi bir o‘timsiz) o‘zlik nisbati yasalmaydi: so‘ra, bor, yugur kabi. Ba‘zi fe‘l negizlarining, aksincha, aniq nisbati yo‘q: quvon, seskan kabi.

3. Majhul nisbat

Bu shakldagi fe‘lda harakat bajaruvchisi sub‘ekt (ega) emas, ob‘ekt (to‘ldiruvchi) sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma‘lum bo‘ladi.

Masalan: *Ot-aravalar birin-ketin saroyga olib kirildi (H.G‘ .)* gapida olib kirildi harakatining bajaruvchi sub‘ekti noma‘lum, ot-aravalar so‘zi ega vazifasida kelsa-da, ob‘ekt vazifasini bajargan.

Kesimi majhullik nisbatidagi fe‘l bilan ifodalangan gap qurilishi tilshunoslikda passiv konstruktsiya deb yuritiladi.

Majhullik nisbati quyidagi qo‘shimchalar bilan yasaladi:

a) fe‘l negiziga unlidan so‘ng *-l*, undoshdan so‘ng *-il* affiksini qo‘shish bilan: *yasa-l(-di)*, *ata-l(-di)*, *yut-il(-di)*, *sot-il(-di)* kabi;

b) fe‘l negiziga unlidan so‘ng *-n*, undoshdan so‘ng *-in* affiksini qo‘shish bilan: *bastala-n(-di)*, *ol-in(-di)* kabi.

Majhullik nisbatdagi fe‘lni hosil qilishda *-l (-il)* affiksi ko‘proq qo‘llaniladi. Ba‘zan ayni bir fe‘l negizidan *-l (-il)*, *-n (-in)* affikslari bilan ham o‘zlik, ham majhullik nisbati yasalishi mumkin. Bunday bir xil shaklda kelgan bir xil fe‘l negizining o‘zlik yoki majhullik nisbatda ekanligi matndan aniqlaniladi. Masalan: Zulfiya darsga tayyorlandi. Operatsiyaga meditsina uskunalari tayyorlandi.

4. Birgalik nisbat

Bu nisbatdagi fe‘lda ish-harakat bir necha sub‘ekt tomonidan birgalikda bajariladi. Masalan: Ayollar chaqaloqqa ko‘z tegmasligi uchun qilinadigan irim-sirimlarini bitirishgach, bolani beshikka belashdi (O‘.Hoshimov) gapida bitirishgach, belashdi fe‘llari anglatgan harakatning bir necha sub‘ekt, ya‘ni ayollar tomonidan birgalikda bajarilganini anglatadi.

Birgalik nisbatdagi fe‘l quyidagicha yasaladi:

a) fe‘l negiziga unlidan so‘ng *-sh*, undoshdan so‘ng *-ish* affiksini qo‘shish bilan: *sana-sh(di)*, *yugur-ish(di)* kabi;

b) so‘z o‘zagiga *-lash (-la+-sh qo‘shma affiksi)* affiksini qo‘shish bilan: *yordam-lash(di)*, *bahs-lash(di)* kabi.

5. Orttirma nisbat

Bu nisbat shaklida harakat grammatik sub‘ekt (ega)ning boshqa bir sub‘ekt yoki ob‘ektga ta‘siri, tazyiqi bilan bajariladi.

Masalan: *Biz Hamid Olimjon bilan bunday oydin, musaffo kechalarni ko‘p o‘tkazganmiz (G‘ .G‘ .)* gapida ikkita sub‘ekt mavjud bo‘lib, asosiy sub‘ekt vositali to‘ldiruvchi (Hamid Olimjon bilan), ikkinchi darajali sub‘ekt esa ega (Biz)

vazifasida qo‘llangan bo‘lib, o‘tkazganmiz harakati sub‘ektning sub‘ektga ta‘siri natijasida bajarilgan.

SHuningdek, orttirma nisbatdagi fe‘lda faqat bir sub‘ekt mavjud bo‘ladi. Bunday holda harakat ob‘ektga (to‘ldiruvchiga) o‘tadi. Masalan: *U kitob keltirdi* kabi.

Orttirma nisbat fe‘l negiziga quyidagi affikslarni qo‘shish bilan yasaladi:

a) fe‘l negiziga –t affiksini qo‘shish bilan: qisqart, boyit kabi;

b) fe‘l negiziga –tir (-dir) affikslarini qo‘shish bilan: keltir, chaqirtir, kuldir, buzdir kabi;

v) sh, ch, t, undoshlari bilan tugagan fe‘l negizlariga –ir affiksini qo‘shish bilan: shoshir, ichir, botir kabi;

g) oxiri undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli fe‘l negizlariga –ar affiksini qo‘shish bilan: chiqar, qaytar kabi;

d) oxiri undosh bilan tugagan fe‘l negizlariga -g‘iz, -giz, -qaz, -g‘az, -kaz, -qiz, -kiz affikslarini qo‘shish bilan: turg‘iz, egiz, o‘tkaz, qutqaz, yutqiz, etkiz kabi;

e) oxiri m, q undoshlari bilan tugagan fe‘l negizlariga –iz affiksini qo‘shish bilan: tomiz, oqiz, boqiz kabi;

yo) fe‘l negiziga –sat (-sa+-t qo‘shma affiksi) affiksini qo‘shish bilan: ko‘rsat (faqat ko‘r fe‘l negiziga qo‘shiladi) kabi.

5 -§. Fe‘lning vazifadosh shakllari

Fe‘lning gapda ma‘lum bir gap bo‘lagi vazifasini bajarishga mos bo‘lgan shakli uning funktsional¹⁵ formasi deyiladi. Fe‘lning funktsional formalari gapda kesim, hol, aniqlovchi, ega va to‘ldiruvchi vazifalarida keladi.

O‘zbek tilida fe‘lning funktsional formalariga 1) sof fe‘l, 2) ravishdosh, 3) sifatdosh, 4) harakat nomi kiradi.

1. Sof fe‘l

Fe‘lning tushlangan formada qo‘llanib, kesim vazifasini bajarishga mos fe‘l shakliga sof fe‘l deyiladi. Sof fe‘l har uch zamon shaklida qo‘llangan aniqlik, buyruq-istak, shart mayli formasidagi fe‘llarni o‘z ichiga oladi. Masalan: To‘g‘ ri so‘z odam butun hayoti davomida mehr, sadoqat nurlarini tarqatadi (U.Mahkamov). Kimki oz bilsa, ozga o‘rgatadi. (Tafakkur gulshani). Aqlni beaqldan o‘rgan (Maqol).

2. Ravishdosh

¹⁵ Funktsiya – lat. function – «faoliyat», «vazifa».

Harakatning belgisini (harakat tarzidagi belgi) anglatadigan, gapda ko‘pincha hol yoki ergash gapning kesimi vazifasini bajarishga mos bo‘lgan fe‘l shakli ravishdosh shakli deyiladi. Masalan: Ilmu hunarni Xitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar (Pedagogika tarixi). CHoyga fотиha o‘qilgach, hamma o‘rnidan turdi (S.Ahmad). Bu misollarning birinchisida borib ravishdoshi hol vazifasini, ikkinchi misoldagi o‘qilgach ravishdoshi ergash gapning kesimi vazifasini bajargan.

Ravishdosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

1) fe‘l o‘zak-negiziga unlidan so‘ng –b, undoshdan so‘ng –ib affiksini qo‘shish bilan: o‘qib, borib;

2) fe‘l o‘zak-negiziga unlidan so‘ng –y, undashdan so‘ng –a affiksini qo‘shish bilan: o‘qiy-o‘qiy, bora-bora.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar nutqda, asosan, takroriy holda qo‘llanadi;

-b (-ib), -a, -y affikslari bilan yasalgan ravishdosh qo‘shma fe‘l (sof fe‘l) tarkibida etakchi qism vazifasida ham keladi: yoza boshladi, o‘qib chiqdi kabi.

3) –gani (-kani, -qani) affikslari bilan: o‘qigani, aytgani kabi;

4) –gach (-kach, -qach) affikslari bilan: o‘qigach, borgach kabi;

5) –guncha (-kuncha, -quncha) affikslari bilan: o‘qiguncha, borguncha kabi.

Fe‘l o‘zak-negizi k yoki g undoshi bilan tugasa, -kani, -kach, -kuncha tarzida, q yoki g undoshi bilan tugasa, -qani, -qach, -quncha tarzida qo‘shiladi: ekkani, ekkach, ekkani, ekkuncha; chiqqani, chiqqach, chiqquncha kabi.

Fe‘lning ravishdosh shakli fe‘l singari harakat tushunchasini anglatib, fe‘lga xos quyidagi morfologik belgilarga ega, ya‘ni:

a) o‘timli-o‘timsizlik ma‘nosini ifodalaydi: eslab - o‘timli, kulib - o‘timsiz ravishdosh;

b) bo‘lishli-bo‘lishsizlik ma‘nosiga ega: ko‘rib – bo‘lishli, ko‘rmay, ko‘rmasdan – bo‘lishsiz ravishdosh; kelguncha – bo‘lishli, kelmaguncha – bo‘lishsiz ravishdosh; o‘tgach – bo‘lishli, o‘tmagach – bo‘lishsiz ravishdosh.

-gani (-kani, -qani) affiksi bilan yasalgan ravishdoshning bo‘lishsizlik shakli yo‘q (-ma bo‘lishsizlik qo‘shimchasini olmaydi).

v) nisbat ma‘nosini anglatadi: yasab - aniq nisbat, yasanib - o‘zlik nisbat, yasalib - majhullik nisbati, yasashib – birgalik nisbat, yasatib – ortirma nisbat;

g) ravishdoshlar tuslovchi qo‘shimchalarni olish-olmaslik xususiyatiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: tuslanadigan ravishdoshlar va tuslanmaydigan ravishdoshlar.

Tuslanadigan ravishdoshlarga fe‘l negiziga –b (-ib), -a, -y affikslarni qo‘shish bilan shakllangan ravishdoshlar kiradi.

Bu guruhdagi ravishdoshlar tuslangan holda sof fe‘lga aylanadi. Masalan: Kechaning tili qorasida yulduzlar yorqin yonadi (O). Oyoq ostimizda munchoq-munchoq oq, sariq gullar sochilib yotibdi (B.Jahongirov).

Tuslanadigan ravishdoshlar tuslovchi olmagan holda ham qo‘llana oladi. Masalan: *Vohid ho‘l sochlarini taray-taray boqqa sho‘ng‘idi* (O.YOqubov). *Mashina silkinib oldinga intildi* (S.Ahmad).

Ravishdoshlarning –gach (-kach, -qach), -gani (-kani, -qani), guncha (-kuncha, -quncha) affikslari yordamida hosil qilingan shakllari tuslanmaydigan ravishdoshlar sanaladi: etgach, ekkach, chiqqach; etgani, ekkani, chiqqani; etguncha, ekkuncha, chiqquncha kabi. Masalan: *Sultonali tong otguncha ikki go'dakning qo'ynini puch yong' oqqa to'ldirib chiqqan (A.Qodiriy). Uzun, qorong'i yo'lakka chiqqach, Unsin to'xtadi (O). Siz bilan maslahatlashgani keldim (B.Rahmonov).*

d) zamon ma'nosini ifodalaydi. Ravishdoshning zamon ma'nosini ifodalashi nisbiy zamon sanaladi. Chunki ravishdoshning zamoni shu gapdagi tuslangan fe'lining zamoniga nisbatan belgilanadi.

Ravishdoshlar zamon ma'nosiga ko'ra uchga bo'linadi: o'tgan zamon ravishdoshi, hozirgi zamon ravishdoshi, kelasi zamon ravishdoshi.

O'tgan zamon ravishdoshlari fe'l o'zak-negiziga –b (-ib), -gach (-kach, -qach) affikslarini qo'shish bilan hosil qilinadi: qolib, o'qib, qolgach, o'qigach kabi.

-b (-ib) affiksi bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan asosiy harakatdan ilgari bo'lgan harakatni yoki asosiy harakatdan oldin boshlangandek ko'rinsa ham ammo u bilan bir vaqtda yuz bergan harakatni anglatadi. Masalan: *Zulfiya javob so'rab keldi gapida javob so'rab ravishdoshi asosiy harakatdan (keldi harakatidan) oldin ro'y bergan harakatni bildirsa, u kulib gapirmoqda gapida esa kulib ravishdoshi asosiy harakat (gapirmoqda harakati) bilan bir vaqtda yuz beradigan harakatni anglatadi.*

-b (-ib) affiksi bilan yasalgan ravishdosh tuslanganda, o'tgan zamon hikoya fe'lini hosil qiladi.

Fe'l negiziga –gach (-kach, -qach) affiksini qo'shish bilan yasalgan ravishdosh tuslanmaydigan ravishdosh bo'lib, u tuslangan fe'l ifodalagan harakatdan ilgari uning bajarilishi (yoki bajarilmaslik) sababi yoki paytini ko'rsatadigan harakatni anglatadi. Masalan: *Uch-to'rt kun mehmondorchilikda yurishgach, maktabdan qaytdilar (P.Tursun). Zorlanishdan, ichni eyishdan boshqa hech nima qo'lidan kelmagach, nima qilsin (M. Ismoilij).*

Hozirgi zamon ravishdoshi fe'l o'zak-negiziga –a, -y affikslarini qo'shish bilan hosil qilinadi: bora-bora, ishlay-ishlay kabi.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan asosiy harakat bilan bir vaqtda ro'y beradigan harakatni anglatib, uning bajarilish holati, paytini ko'rsatadi. Masalan: *Toma-toma ko'l bo'lur, hech tommasa cho'l bo'lur (Maqol). Tog' oralig'idagi qalin qor eriy-eriy odam bemalol kira oladigan g'or bo'lib qolibdi (S.Anorboev).*

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar nutqda odatda, takroriy so'z shaklida qo'llanadi. YAKka holda ishlatilganda, ravishdosh anglatgan harakatdan tuslangan fe'l anglatgan harakatga tezlik bilan o'tilganlik ma'nosi hosil bo'ladi. Masalan: *Sultonmurod kela o'qishga kirishdi.*

Hozirgi zamon ravishdoshi tuslanib, hozirgi-kelasi zamon fe'lini hosil qiladi. Masalan: *Sada tagidagi hovuzning suvida yaproqlar suzadi (S.Z.).*

Kelasi zamon ravishdoshlari fe'l negiziga –gani (-kani, -qani), -guncha (-kuncha, -quncha) affikslarini qo'shish bilan yasaladi: o'qigani, tinchiguncha kabi.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar tuslanmaydi. Fe'l negiziga –gani (-kani, -qani) qo'shish bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan harakatdan so'ng bajarilishi maqsad qilib olingan harakatni anglatadi. Masalan: *Men bugun yuragimni ochib gapirgani keldim (U.)*.

Fe'l negiziga –guncha (-kuncha, -quncha) affiksini qo'shish bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan harakatning davom qilish vaqtining o'lchovi sifatidagi harakatni ifodalaydi. Masalan: *Yo'lchi so'zlaguncha, Tantiboyvachcha qorong'ida yo'qoldi (O.)*.

SHu bilan birga ravishdosh o'ziga xos sintaktik belgilarga ham ega, ya'ni:

a) gap tarkibida boshqa so'zlarni boshqarib kela oladi;

b) tuslanadigan ravishdoshlar tuslovchi olmagan holda hol va –b (-ib) affiksi bilan yasalgan ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi: *Gulnorning egnida kaltagina qora (lapis) kamzul yuvila-yuvila yupqalashgan (O.)*. *Ibn Iroq uning gapidan zavqlanib kuldi (M.Osim)*. *Kursi ustiga dasturxon yozilib, meva-cheva to'la patnis qo'yildi (O.)*.

SHuningdek, tuslanadigan ravishdoshlar o'zlariga tobe bo'lgan so'zlar bilan sostavli hol sifatida, ravishdosh o'ram tarzida ajratilgan hol vazifasini ham bajaradi: *Bozor darvozasi yoniga kelishganida bir to'da odamni ko'rib to'xtab qolishdi (O'.Hoshimov)*. *Aprel oqshomlaridan birida Farida ikkovlari shahar aylanib yurib stadiona kirib qolishdi (O'.Hoshimov)*. *Keng, baland, serhasham chodirda oltin shamdonlarni qo'yib, Navoiy yaqin beklari bilan suhbatlashib o'tirardi (O.)*.

v) tuslanmaydigan ravishdoshlar gapda hol, ajratilgan ikkinchi darajali bo'lak va ergash gapning kesimi vazifasini bajarib keladi: Oradan uch oy o'tib hash-pash deguncha issiq kunlar etib keldi (S.A.). U oltinsoyliklarni kanal va buloq qazigani boshlab ketdi (SH.R.). SHartning nozik va qaltisligi ko'z oldiga kelgach, yuragi orqasiga tortib ketdi (H.N.). Asalxon karvon o'tib ketguncha, yo'l yoqasida qo'l siltab turdi (H.G').

-gani (-kani, -qani) affiksi bilan yasalgan ravishdosh gapda faqat hol vazifasini bajaradi.

3. Sifatdosh

Predmetning harakat va holat belgisini bildiradigan, gapda sifatlovchi vazifasini bajarishga mos bo'lgan fe'l shakli sifatdosh deyiladi: *So'zlayotgan kishining o'ziga emas, so'ziga e'tibor qil («Tafakkur gulshani»)*. *Ko'chaning ikki chetidagi turli mollar bilan savdo qiluvchi do'konlar joylashgan (M.Qoriev)* gaplaridagi *so'zlayotgan, savdo qiluvchi* sifatdoshlari *kishi, do'konlar* otlariga bog'lanib, uning harakat belgisini bildirib, sifatlovchi (aniqlovchining bir turi) vazifasini bajargan.

Sifatdosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

1) fe'l o'zak-negiziga –gan (-kan, -qan) affikslarni qo'shish bilan: yuklagan, kechikkan, qiziqqan (fe'l negizi k yoki g bilan tugasa, -kan; q yoki g' bilan tugasa, -qan tarzida).

Bu affiks sifatdosh yasashda eng mahsuldor, unumli affiks sanaladi.

Eski o‘zbek adabiy tilida –gan affiksining ekvivalenti –mish, -dik affikslari bilan ham yasalgan (bu affikslar hozir ham uchraydi).

2) fe’lning –a, -y affiksi bilan tugagan ravishdosh negiziga –digan, -yotgan affikslarini qo‘shish bilan: kelayotgan, o‘qiyotgan, boradigan, ishlaydigan kabi;

3) fe’l o‘zak-negiziga –r (-ar) qo‘shilishi bilan (unlidan so‘ng –r, undoshdan so‘ng –ar): sanar, ko‘kar kabi;

4) fe’l o‘zak-negiziga –vchi (-uvchi) qo‘shilishi bilan (unlidan so‘ng –vchi, undoshdan so‘ng –uvchi): boshlovchi, kutuvchi kabi;

Eski adabiy tilda sifatdoshning bu turi –guchi, -g‘uchi shaklida ham ishlatilgan aytguchi, kelguchi. Bu shakl hozir ham poeziyada uchraydi: *Kulimsirab turg‘uchi toleing porloq (G‘ .G‘ .)*.

Bu affiks bilan yasalgan sifatdoshning ot so‘z turkumiga ko‘chish holati ham uchraydi: o‘quvchi, to‘quvchi, yozuvchi kabi.

5) fe’l negiziga –ajak qo‘shilishi bilan: kelajak, bo‘lajak kabi;

6) fe’l negiziga –gusi, -g‘usi qo‘shilishi bilan: kelgusi, bo‘lg‘usi kabi.

Sifatdosh leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. SHunga ko‘ra sifatdosh fe’l sanaladi va fe’lga xos bo‘lgan grammatik xususiyatlarga egadir, ya’ni:

1) o‘timli-o‘timsizlik ma’nosini ifodalaydi: o‘qigan, yozdirgan - o‘timli; qolgan, qiziqtirgan - o‘timsiz sifatdosh;

2) bo‘lishli-bo‘lishsizlik ma’nosini ifodalaydi: o‘qigan – bo‘lishli, o‘qimagan – bo‘lishsiz; aytar – bo‘lishli, aytmas – bo‘lishsiz sifatdosh;

3) nisbat ma’nosini anglatadi: yuvgan - aniq nisbat, yuvingan - o‘zlik nisbat, yuvilgan - majhullik nisbat, yuvishgan – birgalik nisbat, yuvdirgan – ortirma nisbat;

4) sifatdoshlar tushlanganda aniqlik maylining biror zamoniga xos bo‘lgan fe’lni hosil qiladi (sof fe’lga aylanadi) va kesim vazifasini bajaradi: *Bu hofiz butun olamga tanilgan (O.)*.

Sifatdoshning deyarli barcha shakllari tushlanish xususiyatiga (-yotgan shaklidan tashqari) ega. –r (-ar) bilan yasalgan sifatdosh shakli esa hozirgi tilda ko‘proq tushlangan shaklda ishlatiladi: o‘qirman, o‘qirsan, o‘qir; o‘qirmiz, o‘qirsiz, o‘qir(lar) kabi;

5) sifatdosh zamon ma’nosini ifodalaydi. Atributiv (sifatlovchi) holatida kelgan sifatdoshning zamon ma’nosi nisbiy sanaladi, chunki sifatdoshning zamoni nutq momentiga nisbatan emas, balki fe’l-kesimning zamoniga nisbatan belgilanadi: *Ko‘nglini kichik tutgan, kamtarlik yo‘lidan yurgan kishi ulug‘likka etadi (YUsuf Xos Xojib)* gapida tushlangan fe’l etadi hozirgi-kelasi zamoni ifodalasa, ko‘nglini kichik tutgan, kamtarlik yo‘lidan yurgan sifatdoshlari o‘tgan zamoni ifodalaydi.

Sifatdoshlar zamon ma’nosiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi: o‘tgan zamon sifatdoshi, hozirgi zamon sifatdoshi, kelasi zamon sifatdoshi. Sifatdoshlarni hosil qiluvchi maxsus grammatik ko‘rsatkichlar sifatdoshning nisbiy zamon ko‘rsatkichi ham sanaladi.

O‘tgan zamon sifatdoshi predmetning nutq so‘zlanib turgan vaqtdan ilgari bo‘lgan harakat belgisini anglatadi. –gan (-kan, -qan) grammatik ko‘rsatkichlari

bilan yasalgan sifatdosh o'tgan zamon sifatdoshini hosil qiladi: Murabbiysi bo'lmagan odamni hayot o'zi tarbiyalab qo'yadi («O'talar so'zi»).

Hozirgi zamon sifatdoshi predmetning nutq so'zlashib turgan vaqtida davom etayotgan harakat belgisini anglatadi.

Hozirgi zamon sifatdoshi –yotgan, -vchi (-uvchi) affikslarini qo'shish bilan hosil bo'ladi: Adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni bo'lmog'i darkor (I.A.Karimov). Elmurod bu erga keluvchi mehmonlarning hammasini tanib oldi (P.Tursun).

Kelasi zamon sifatdoshi predmetning nutq so'zlanib turgan vaqtdan keyin bajariladigan harakat tarzidagi belgisini anglatadi. Kelasi zamon sifatdoshi –r (-ar), -digan, -ajak affikslari bilan yasaladi: Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt (Maqol). Dehqon kelasi kuzda oladigan hosilining g'amini shu kuzdan ko'radi (M.Ismoiliy).

Sifatdosh fe'l shaklining «sifatdosh» deb atalishi, uning sifat singari predmetning belgisini bildirishiga ko'radir. Sifatlar predmetning rangi, hajmi, mazasi, xususiyati kabilarni bildirsa, sifatdosh predmetning harakat va holat belgisini anglatadi.

Demak, sifatdosh sifatga xos bo'lgan grammatik xususiyatlarga ham egadir, ya'ni:

1) sifatdosh morfologik jihatdan o'zgarmaydi (egalik, kelishik, ko'plik affikslarini olmaydi);

2) sifatdosh otga bog'lanib kelib, predmetning harakat belgisini bildiradi va gapda sifatlovchi vazifasini bajaradi: Ko'klam quyoshidan ko'kargan qirlar, ko'm-ko'k (H.Olimjon). Xadichabegim yurt uchun qayg'uradigan bir malika ekanini ko'rsatishni sevardi (Oybek).

3) sifatdosh otlashish xususiyatiga ega, bunday holda sifatdosh bog'lanib kelgan ot qo'llanmaydi va sifatdosh ot kabi so'z o'zgartiruvchi (egalik, kelishik, ko'plik affikslarini) affikslarni oladi, ot singari sintaktik vazifalarni (ega, to'ldiruvchi, qaratuvchi) bajaradi: Yo'lni bilgan qoqilmaydi (Maqol). Qishloq xo'jaligida bevosita ishlab chiqaruvchining o'zi xo'jayin bo'lishi shart (I.Karimov). Ko'p yurgandan so'rama, ko'p ko'rgandan so'ra (Maqol). Dushmanga nafrati bo'lmaganning Vatanga muhabbati bo'lmas (Maqol).

4. Harakat nomi

Ish-harakatning atamasi bo'lib, gapda otga xos vazifalarni bajarishga mos bo'lgan fe'l shakli harakat nomi deyiladi: Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy harakatlaridandir. CHavandoz bu gaplarni Ertoevga aytishini ham, aytmaslikni ham bilmay turgandi (O.YOqubov). Mustaqilligimiz tufayli xalq va Vatan tarixi, boy ilmiy va adabiy merosga xolisona yondashishning guvohi va shohidi bo'lmoqdamiz (Rahim Vohidov) gaplaridagi intilish, aytishni, aytmaslikni, yondashishning fe'l shakllari harakatning atamasi (nomi) bo'lib, gapda otga xos ega, to'ldiruvchi, qaratuvchi vazifalarini bajargan.

Harakat nomi quyidagi shakl yasovchi affikslar bilan yasaladi:

1) fe'l negiziga –sh (-ish) qo'shish bilan (unlidan so'ng –sh, undoshdan so'ng –ish): o'qish, yozish, ishlash, chiqish kabi;

Harakat nomining –sh (-ish) affiksi bilan yasalgan shakli otga yaqin turadi, shuning uchun ham bu shaklda harakat nomi otga ko'chishga moyil bo'ladi.

2) fe'l negiziga –v (-uv) qo'shish bilan (unlidan so'ng –v, undoshdan so'ng –uv): ishlov, bag'ishlov, boruv, keluv kabi;

Bu affiks bilan yasalgan harakat nomi hozirgi o'zbek tilida kam ishlatiladi;

3) fe'l negiziga -moq qo'shish bilan: o'smoq, ulg'aymoq, o'rganmoq kabi.

Harakat nomining -moq affiksi bilan yasalgan shakli fe'lga juda yaqin turadi, chunki har qanday fe'lning bosh shakli yo buyruq-istak mayli shaklida esla, shosh kabi; yoki eslamoq, shoshmoq kabi harakat nomi shaklida olinadi.

Harakat nomi leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. SHu jihatdan harakat nomi fe'lga xos grammatik xususiyatlarga ega:

1) o'timli-o'timsizlik ma'nosini ifodalaydi: o'rganish, ko'rmoq - o'timli harakat nomi; yugurish, ishonmoq - o'timsiz harakat nomi;

2) nisbat ma'nosiga ega: yutmoq - aniq nisbat, yasanmoq - o'zlik nisbat, baholanmoq - majhullik nisbati, qiziqirmoq - ortirma nisbat;

3) harakat nomining bo'lishsiz shakli faqat –maslik affiksi bilan yasaladi: aytish – bo'lishli harakat nomi, aytmaslik – bo'lishsiz harakat nomi.

4) harakat nomi zamon ma'nosiga ega emas. Lekin ma'lum bir qulay sharoitda unda hozirgi-kelasi zamon ma'nosi aks etadi: Oilada farzand tarbiyasiga har tomonlama e'tibor bermoq lozim (O.Karimova).

5) boshqa fe'l shakllari singari harakat nomi boshqarish xususiyatiga ega.

SHuningdek, ish-harakatning nomini bildirish jihatdan harakat nomi otga xos bo'lgan grammatik xususiyatlarga ham ega, ya'ni:

1) harakat nomi son, egalik va kelishik affikslarini oladi;

2) harakat nomi ot singari ega, qaratqich aniqlovchi, to'ldiruvchi ko'makchili shaklda hol va kesim vazifalarini bajaradi: *Zumradning tikishi – go'zal, ipakni turlashi ham mohirona (O.). Bilim va tushunishga intil kunu tun (YUsuf Xos Xojib). Rais Jo'raboev bilan jiddiy tortishuvdan so'ng juda qattiq asabiylashdi (SH.R.). O'zini olim, fozilman deb maqtanish, shu bilan g'ururlanish jaholatning bir ko'rinishidir («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).*

6 -§. Fe'llarning tuslanishi(shaxs-son kategoriyasi)

Ish-harakat ma'lum bir grammatik shaxs tomonidan bajariladi (yoki bajarilmaydi). Grammatik shaxs so'zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o'zga (III shaxs syoki predmet) bo'lishi mumkin.

Grammatik shaxs grammatik son (birlik yoki ko'plik) bilan birgalikda ifodalanadi. Fe'llardagi bunday grammatik shaxs va son ma'nosi ma'lum bir grammatik ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Masalan: o'qidim, o'qisam, o'qisang, o'qiyapman, o'qibman, o'qiy fe'llari tarkibidagi –m, -man, -y qo'shimchalari ish-harakatning I shaxs so'zlovchi, ya'ni yakka shaxs tomonidan bajarilganini

ko‘rsatsa; o‘qidik, o‘qisak, o‘qiyapmiz, o‘qibmiz, o‘qiylik fe’llari tarkibidagi –k, -miz, -ylik affikslari ish-harakatning I shaxs, lekin ko‘p so‘zlovchilar (shaxslar) tomonidan bajarilganini ifodalaydi.

Demak, ish-harakatning bajaruvchisi uch shaxs va 2 son tushunchalarini aks ettiruvchi affikslarni o‘z ichiga oladi. SHuning uchun ham bunday affikslar shaxs-son affikslar deb yuritiladi. Fe’llarning shaxs-son affikslari bilan o‘zgarishi esa tuslanish deyiladi. SHaxs-son affikslari tilshunoslikda tuslovchi affikslar deb ham yuritiladi.

O‘zbek tilida tuslovchi affikslar fe’l shakllariga turlicha ko‘rinishda qo‘shiladi. SHu jihatdan tuslovchi affikslar uch guruhga bo‘linadi.

1. Birinchi guruh tuslovchilar

Bu guruhga mansub tuslovchilar aniqlik va shart-istak maylidagi –di, -sa qo‘shimchalarini olgan sof fe’l negizidan so‘ng va edi to‘liqsiz fe’liga qo‘shiladi: keldi-m, keldi-ng, keldi; kelsa-k, kelsa-ng, kelsa(lar) kabi.

Fe’llarning birinchi guruh tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha:

SHaxs	Son	
	Birlik	Ko‘plik
I	<i>yozdim, yozsam, yozgan edim</i>	<i>zdik, yozsak, yozgan edik</i>
II	<i>yozding, yozsang, yozgan eding</i>	<i>yozdingiz, yozsangiz, yozgan edingiz</i>
III	<i>yozdi, yozsa, yozgan edi</i>	<i>yozdi(-lar), yozsa(-lar), yozgan edi(-lar)</i>

2. Ikkinchi guruh tuslovchilar

Bu affikslar –b(-ib), -a(-y) qo‘shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlardan, sifatdoshlardan (-yotgan qo‘shimchasidan tashqari), shuningdek, -yap, -moqda, -yotib, -moqchi bilan shakllangan fe’l negizidan so‘ng qo‘shiladi. Mazkur guruhdagi tuslovchilar III shaxsdagina ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi, ya’ni birinchi xil ko‘rinishda –b(-ib), -a(-y) qo‘shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlar hamda –yap, -yotib bilan shakllangan fe’llar III shaxs birlikda –di (-ti), ko‘plikda –di(lar), -ti(lar) shaxs-son affikslari bilan shakllanadi.

Ikkinchi xil ko‘rinishda esa fe’lning sifatdosh shakllariga (-gan, -r(-ar), -digan, -vchi(-uvchi bilan hosil qilingan shakllariga), -moqda, -moqchi, -yotir bilan shakllangan fe’l negizlari, shuningdek, fe’llar ekan, emish to‘liqsiz fe’llari bilan birga qo‘llansa, III shaxsda shaxs ko‘rsatkichi shakllanmaydi (nol ko‘rsatkichli shaklda keladi).

Fe’llarning ikkinchi guruh (A.B ko‘rinishi) tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha:

«A» ko‘rinishi

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko'plik
I	<i>yozib-man, yozayotib-man, yoza-man, yozyap-man</i>	<i>yozib-miz, yozayotib-miz, yoza-miz, yozyap-miz</i>
II	<i>yozib-san, yozayotib-san, yoza-san, yozyap-san</i>	<i>yozib-siz, yozayotib-siz, yoza-siz, yozyap-siz</i>
III	<i>yozib-di, yozayotib-di, yoza-di, yozyap-ti</i>	<i>yozibdilar, zayotibdilar, yozadilar, yozyaptilar</i>

«B» ko'rinishi

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko'plik
I	<i>yozgan-man, yozar-man, yozadigan-man, yozmoqda-man, yozmoqchi-man</i>	<i>yozgan-miz, yozar-miz, yozadigan-miz, yozmoqda-miz, yozmoqchi-miz</i>
II	<i>yozgan-san, yozar-san, yozadigan-san, yozmoqda-san, yozmoqchi-san</i>	<i>yozgan-siz, yozar-siz, yozadigan-siz, yozmoqda-siz, yozmoqchi-siz</i>
III	<i>yozgan, yozar, yozadigan, yozmoqda, yozmoqchi</i>	<i>yozgan-lar, yozar-lar, yozadigan-lar, yozmoqda-lar, yozmoqchi-lar</i>

3. Uchinchi guruh tuslovchilar

Bular buyruq maylidagi sof fe'l negizidan so'ng qo'shiladi.

Fe'llarning uchinchi guruh tuslovchi bilan tuslanishi quyidagicha:

SHaxs	Son	
	Birlik	Ko'plik
I	<i>yozay, yozayin, o'qiy, o'qiyin</i>	<i>yozaylik, o'qiylik</i>
II	<i>yoza, yozgin, o'qi, o'qigin</i>	<i>yozaingiz, o'qingiz,</i>
III	<i>yoza, yozaingiz, o'qisiz</i>	<i>yozaingizlar, o'qisingizlar,</i>

7 -§. Fe'l zamonlari

Ish-harakatning voqe bo'lishi (yoki bo'lmasligi) mantiqan zamon bilan bog'liq bo'ladi. Fe'llardagi zamon nutq so'zlanib turgan paytga nisbatan qiyoslangan holda aniqlanadi, ya'ni ish-harakat nutq so'zlanib turgan paytdan oldin, nutq so'zlanib turgan paytda, nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilishi

yoki bajarilmasligi mumkin. SHunga ko‘ra, fe‘l uch zamon ko‘rinishiga ega: 1. O‘tgan zamon. 2. Hozirgi zamon. 3. Kelasi zamon. Fe‘llarda zamon ma‘nosi fe‘l tarkibida qo‘llangan grammatik ko‘rsatkichlar orqali belgilanadi. Masalan: 1. *Nodira ezgu ishlar bunyod etdi va o‘tar dunyoda yaxshi nom qoldirdi.* (R.SHog‘ulomov). 2. *Ko‘nglini kichik tutgan, kamtarlik yo‘lidan yurgan kishi ulug‘likka etadi* (YUsuf Xos Xojib). 3. *Ilm ko‘pga etkazar, hunar esa ko‘kka* (Maqol). Keltirilgan misollarning birinchisida bunyod etdi, nom qoldirdi fe‘llari tarkibidagi –di o‘tgan zamoni, ikkinchisida etadi fe‘li tarkibidagi –a ko‘rsatkichi hozirgi zamoni, uchinchisida etkazar fe‘lidagi –ar ko‘rsatkichi esa kelasi zamon ma‘nosini ifodalagan.

Har bir zamon o‘z navbatida yana bir necha turga bo‘linadi. CHunki har bir zamon vaqtning katta qismini ko‘rsatish bilan birga o‘zining ichki xususiy modal ma‘nolariga (qo‘shimcha ma‘nolarga) ham ega. Masalan: *o‘qimoqchiman, o‘qiydiganman* fe‘llari nutq so‘zlanib turgan paytdan so‘ng bajariladigan harakatni ifodalab, vaqtning katta qismini ko‘rsatish bilan birga, bajarilishi maqsad qilib olingan harakatni anglatishi kabi o‘ziga xos modal ma‘noga ham ega.

1. O‘tgan zamon

Bu zamondagi fe‘llar ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi.

O‘tgan zamon fe‘li xususiy modal ma‘nolariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) yaqin o‘tgan zamon fe‘li; 2) uzoq o‘tgan zamon fe‘li; 3) o‘tgan zamon hikoya fe‘li; 4) o‘tgan zamon davom fe‘li; 5) o‘tgan zamon maqsad fe‘li.

Yaqin o‘tgan zamon fe‘li ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytdan bir oz oldin, ammo so‘zlovchining ko‘z oldida (yoki uning faol ishtiroki bilan) bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi. Masalan: Go‘zal vodiydagi Gullar bog‘i ko‘klam libosi bilan bezandi (SH.R.).

YAqin o‘tgan zamon fe‘li sof fe‘l negiziga –di qo‘shimchasini qo‘shish va tushlash bilan (I guruh tuslovchi) shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko‘plik		
	Misol	Zamon ko‘rsat -kichi	SHaxs-son qo‘shimchasi	Misol	Zamon ko‘rsat -kichi	SHaxs-son qo‘shimchasi
I shaxs	o‘qidim	-di	-m	o‘qidik	-di	-k
II shaxs	o‘qiding	-di	-ng	o‘qidingiz	-di	-ngiz
III shaxs	o‘qidi	-di	-	o‘qidilar	-di	(-lar)

Uzoq o‘tgan zamon fe‘li nutq so‘zlanib turgan paytdan ancha oldin bajarilgan yoki bajarilmagan, ammo bu haqda nutq so‘zlanib turgan paytda xabar qilingan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: SHoyi, atlas, chit, las ko‘ylak; nimcha, durra, peshonabog‘, xullas bor boricha yo‘q holicha yasalgan (N. Safarov).

Uzoq o'tgan zamon fe'li negiziga –gan sifatdosh qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan (II guruh «B» ko'rinishdagi tuslovchilar bilan) shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsat -kichi	SHaxs-son qo'shimchasi	Misol	Zamon ko'rsat -kichi	SHaxs-son qo'shimchasi
I shaxs	o'qiganman	-gan	-man	o'qiganmiz	-gan	-miz
II shaxs	o'qigansan	-gan	-san	o'qigansiz	-gan	-siz
III shaxs	o'qigan	-gan	-	o'qiganlar	-gan	(-lar)

Uzoq o'tgan zamon fe'li nutqda aniq eslash (yoki eslatish), kutilmaganda eslash, eshitilganlik kabi qo'shimcha modal ma'nolarga ham ega bo'ladi. Uzoq o'tgan zamonning bo'lib o'tgan ish-harakatni aniq eslash ma'nosi –gan sifatdoshiga edi (qisqa shaklida) to'liqsiz fe'lini biriktirib tushlash orqali: o'qigan edim, o'qigan eding, o'qigan edi; o'qigan edik, o'qigan edingiz, o'qigan edilar kabi; kutilmaganda eslash ma'nosi –gan sifatdoshiga ekan (qisqa shakli –kan) to'liqsiz fe'lini biriktirib tushlash bilan: o'qigan ekanman, o'qigan ekansan, o'qigan ekan; o'qigan ekanmiz, o'qigan ekansiz, o'qigan ekanlar kabi; bo'lib o'tgan ish-harakatning so'zlovchining boshqa shaxsdan eshitganligi –gan sifatdoshiga emish (qisqa shakli –mish) to'liqsiz fe'lini biriktirib tushlash orqali: o'qigan emishman, o'qigan emishsan, o'qigan emish; o'qigan emishmiz, o'qigan emishsiz, o'qigan emishlar kabi shakllanadi. Masalan: Nasibaning yuzidagi bo'g' riqish yo'qolib, uning o'rnida nafislik paydo bo'lgan edi (X.No'mon). Mirza Bahrom unday ma'no chiqishini sira ko'zda tutmagan ekan, o'sal bo'ldi (A.Qahhor).

O'tgan zamon hikoya fe'li kutilmaganda, qisqa vaqt ichida nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari bajarilgan (yoki bajarilmagan) ish-harakatni hikoya qilish, tasvirlash yo'li bilan ifodalaydi. Masalan: Halol rizq istab, mehnat qilib, charchab uxlagan kishi shu kechani ma'rifat qilingan holda o'tkazibdi (Hadisdan).

O'tgan zamon hikoya fe'li fe'l negiziga –b (-ib) o'tgan zamon ravishdosh qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan (II guruh «A» ko'rinishdagi tuslovchilar bilan) shakllanadi:

SHaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsat -kichi	SHaxs-son qo'shimchasi	Misol	Zamon ko'rsat -kichi	SHaxs-son qo'shimchasi
I shaxs	o'qibman	-b	-man	o'qibmiz	-b	-miz
II shaxs	o'qibsan	-b	-san	o'qibsiz	-b	-siz
III shaxs	o'qibdi	-b	-di	o'qibdilar	-b	-di(-lar)

O'tgan zamon hikoya fe'lining eslay (eslatish) ma'no ko'rinishi ham bor. Bu shakl o'tgan zamon –b (-ib) ravishdoshiga edi to'liqsiz fe'lini birlashtirib tushlash orqali hosil bo'ladi: o'qib edim, o'qib eding, o'qib edi; o'qib edik, o'qib edingiz, o'qib edilar kabi. Masalan: Urush tugasa, biznikiga mehmon borasiz, o'shanda ayamning qanaqaligini ko'rasiz deb edi (S.Zunnunova).

O'tgan zamon davom fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari ma'lum bir muddat davomli bo'lgan yoki takrorlanib turgan ish-harakatni eslash ma'no o'ttenkasi bilan ifodalaydi. Masalan: 1. Bu erda Boburning doim o'z kuchi bilan birga olib yuradigan kitoblari saqlanar edi (P.Qodirov). 2. Daryolardan kuylab o'tardim, Ertaklarga quloq tutardim, Hammasini tinglardim, ammo O'xshashini topmasdim aslo (H.O.). Bu misollarning birinchisida saqlanar edi fe'li o'tmishda ma'lum bir muddat davomli bo'lgach ish-harakatni ifodalasa, ikkinchisida kuylab o'tardim, quloq tutardim, tinglardim vaqti-vaqti bilan takrorlanib ish-harakatni anglatadi. O'tgan zamon davom fe'li –r(-ar), -yotgan sifatdosh fe'l negiziga hamda -moqda qo'shimchasini olgan sof fe'l negiziga edi to'liqsiz fe'lini birlashtirib tushlash (I guruh tuslovchilari bilan) orqali hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	Shaxs-son qo'sh.	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	SHaxs-son qo'sh.
I shaxs	o'qir edim, o'qiyotgan edim, o'qimoqda edim	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-m	o'qir edik, o'qiyotgan edik, o'qimoqda edik	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-k
II shaxs	o'qir eding, o'qiyotgan eding, o'qimoqda eding	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-ng	o'qir edingiz, o'qiyotgan edingiz, o'qimoqda edingiz	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-ngiz
III shaxs	o'qir edi, o'qiyotgan edi, o'qimoqda edi	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-	o'qir edilar, o'qiyotgan edilar, o'qimoqda edilar	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	(-lar)

O'tgan zamon maqsad fe'li nutq so'zlangan paytdan ilgari bajarilishi maqsad qilingan, ammo voqe bo'lmagan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: U bugun Malika bilan xoli gaplashib, ko'nglidagi hamma sir-asrorini to'kib solmoqchi edi (E.Usmonov). Ertasiga qishloqqa chiqadigan edi.

O'tgan zamon maqsad fe'li -moqchi, -digan qo'shimchalarini olgan fe'l negiziga edi to'liqsiz fe'lini birlashtirib (I guruh tuslovchilar bilan) tushlash bilan shakllanadi:

SHaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	SHaxs-son qo'shimchasi	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	SHaxs-son qo'shimchasi
I shaxs	o'qimoqchi edim, o'qiydigan edim,	-moqchi+edi, -digan+edi	-m	o'qimoqchi edik, o'qiydigan edik,	-moqchi+edi, -digan+edi	-k
II shaxs	o'qimoqchi eding, o'qiydigan eding,	-moqchi+edi, -digan+edi	-ng	o'qimoqchi edingiz, o'qiydigan edingiz,	-moqchi+edi, -digan+edi	-ngiz
III shaxs	o'qimoqchi edi, o'qiydigan edi,	-moqchi+edi, -digan+edi	-	o'qimoqchi edilar, o'qiydigan edilar,	-moqchi+edi, -digan+edi	(-lar)

2. Hozirgi zamon

Bu zamondagi fe'llar ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi.

Hozirgi zamon fe'li qo'shimcha modal ma'nolariga ko'ra 2 turga bo'linadi: 1) hozirgi-kelasi zamon fe'li, 2) hozirgi zamon davom fe'li.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytda va undan keyin ro'y beradigan harakatni yoki doimiy harakatni ifodalaydi. Masalan: Bobur bu chigal tugunlarni o'zi echilmasligini sezadi (P.Qodirov). YOshlikda zahmat chekib, ilm o'rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan (Koshifiy).

Hozirgi-kelasi zamon fe'li sof fe'l negiziga -a, -y ravishdosh qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	Shaxs-son qo'shimchasi	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	SHaxs-son qo'shimchasi
I shaxs	o'qiyman, boraman	-y, -a	-man	o'qiymiz, boramiz	-y, -a	-k
II shaxs	o'qiysan, borasan	-y, -a	-san	o'qiysiz, borasiz	-y, -a	-ngiz

III shaxs	o'qiydi, boradi	-y, -a	-di	o'qiydilar, boradilar	-y, -a	-di(-lar)
-----------	--------------------	-----------	-----	--------------------------	-----------	-----------

Hozirgi zamon davom fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda aniq davom etayotganini bildiradi: Mustaqillikka erishganimizdan so'ng xalqimizning o'z yurti, dili, tarixini bilishga qiziqish ortib bormoqda (I.Karimov).

SHaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	SHaxs-son qo'shim-chasi	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	SHaxs-son qo'shim-chasi
I shaxs	o'qiyapman, o'qimoqdaman, o'qiyotibman	-yap, - moqda, -yotib	-man	o'qiyapmiz, o'qimoqdamiz, o'qiyotibmiz	-yap, - moqda, -yotib	-miz
II shaxs	o'qiyapsan, o'qimoqdasan, o'qiyotibsana	-yap, - moqda, -yotib	-san	o'qiyapsiz, o'qimoqdasiz, o'qiyotibsiz	-yap, - moqda, -yotib	-siz
III shaxs	o'qiyapti, o'qimoqda, o'qiyotibdi	-yap, - moqda, -yotib	-ti - -di	o'qiyaptilar, o'qimoqdalar, o'qiyotibdilar	-yap, - moqda, -yotib	-ti(-lar) - -di(-lar)

SHuningdek, murakkab fe'l tarkibida qo'llangan yot, yur, tur, o'tir ko'makchi fe'llarni tushlash bilan ham hozirgi zamon davom fe'li hosil qilinadi: o'qib yotibman, o'qib yuribman, o'qib turibman, o'qib o'tiribman kabi.

3. Kelasi zamon

Bu zamondagi fe'llar ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilish yoki bajarilmasligini ifodalaydi.

Kelasi zamon fe'li qo'shimcha modal ma'nolariga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) kelasi zamon gumon fe'li; 2) kelasi zamon maqsad fe'li.

Kelasi zamon gumon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilish-bajarilmasligi mo'ljallanishini, taxmin qilinishini ifodalaydi. Masalan: Bugun havo ochiq bo'lar (A.Q.)

Kelasi zamon gumon fe'li ba'zan hozirgi-kelasi zamon ma'nosida kelib, aniqlik, qat'iylik ma'nolarini ham ifodalaydi: Qadrlasang, qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar (Maqol).

Kelasi zamon gumon fe'li sof fe'l negiziga -r(-ar) sifatdosh qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan shakllanadi:

	Son
--	-----

SHaxs	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsatkichi	SHaxs-son qo'shimchasi	Misol	Zamon ko'rsatkichi	SHaxs-son qo'shimchasi
I shaxs	o'qirman, borarman	-r, -ar	-man	o'qirmiz, borarmiz	-r, -ar	-miz
II shaxs	o'qirsan, borarsan	-r, -ar	-san	o'qirsiz, borarsiz	-r, -ar	-siz
III shaxs	o'qir, borar	-r, -ar	-	o'qirlar, borarlar	-r, -ar	(-lar)

Kelasi zamon maqsad fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilishi maqsad qilib olingan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: Men kuzdan boshlab o'qishni davom ettirmoqchiman, so'ngra qishloq xo'jalik institutiga kirmoqchiman (SH.R.). Oho qora ko'z deganda, u devordan oshadigan (O.).

Kelasi zamon maqsad fe'li sof fe'l negiziga -moqchi hamda fe'lning ravishdosh (-a, -y bilan shakllangan) shakliga -digan qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi:

SHaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsatkichi	SHaxs-son qo'shimchasi	Misol	Zamon ko'rsatkichi	SHaxs-son qo'shimchasi
I shaxs	o'qimoqchiman, o'qiydiganman	-moqchi, -digan	-man	o'qimoqchimiz, o'qiydiganmiz	-moqchi, -digan	-miz
II shaxs	o'qimoqchisan, o'qiydigansan	-moqchi, -digan	-san	o'qimoqchisiz, o'qiydigansiz	-moqchi, -digan	-siz
III shaxs	o'qimoqchi, o'qiydigan	-moqchi, -digan	-	o'qimoqchilar, o'qiydiganlar	-moqchi, -digan	(-lar)

8 -§. Fe'l mayllari

Ish-harakatning voqelikka munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriyaga fe'l mayli deyiladi. Mayl kategoriyasi grammatik zamon (o'tgan, hozirgi, kelasi) va grammatik shaxs (bajaruvchi) bilan uzviy bog'langan bo'lib, hammasi birgalikda fe'lning tuslanish tizimiga kiradi. Fe'l mayllarida voqelik bilan bog'liq ravishda ish-harakatning bajarilish xususiyatlari turlicha bo'ladi. Masalan: 1) Havo sovuq, osmonda zahardek achchiq qor uchqunlari erinchoq kezadi (O'.Hoshimov). 2) YOshlikda zaxmat chekib, ilm o'rgansang, kasb-hunar

egallasang, qariganda rohat topasan. (Koshifiy). 3) So‘zlayotgan kishining o‘ziga emas, so‘ziga e‘tibor qil (Montesʼke. Tafakkur gulshani). Bu misollarning birinchisida kezadi fe‘li ish-harakatning aniq bajarilishini, ikkinchisida o‘rgansang, egallasang fe‘llari ish-harakatning bajarilishi uchun shart qilib olingan harakat ma‘nosini, uchinchi misolda esa e‘tibor qil fe‘li ish-harakatning bajarilishi haqidagi buyruq, maslahat ma‘nosini anglatgan. Demak, fe‘l anglatgan ish-harakat voqelikka munosabatiga ko‘ra aniqlik, shart (istak), buyruq (istak) kabi qo‘shimcha modal ma‘nolarni ifodalaydi. SHunga ko‘ra fe‘llar, asosan, 3 fe‘l mayli ko‘rinishiga ega: 1) aniqlik mayli, 2) shart mayli, 3) buyruq-istak mayli.

Aniqlik mayl

Bu mayldagi fe‘l ish-harakatning uch zamondan birida aniq (real) bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi. YA‘ni aniqlik maylidagi fe‘l o‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon fe‘llarining barcha ma‘no ko‘rinishlarini o‘z ichiga qamrab oladi: o‘qidim, o‘qimadim - yaqin o‘tgan zamon fe‘li; o‘qiyapman - hozirgi zamon davom fe‘li; o‘qimoqchiman, o‘qimoqchi emasman – kelasi zamon maqsad fe‘li kabi. Masalan: Men unga mustaqil odam ekanligimni ko‘rsatib qo‘ymoqchiman (P.Q.) gapida ko‘rsatib qo‘ymoqchiman fe‘li ish-harakatning kelasi zamonda (kelasi zamon maqsad fe‘li) I shaxs tomonidan (-man shaxs-son affiksi) aniq bajarilishini anglatadi.

Aniqlik maylidagi fe‘llar I-II guruh tuslovchi affikslar bilan tuslanadi.

2. Buyruq-istak mayli

Bu mayldagi fe‘l kelasi zamonga oid bo‘lib ish-harakatni bajarish yoki bajarmaslik haqida buyurish, so‘rash, istash, iltimos, maslahat, undash-chaqirish kabi ma‘nolarni anglatadi va III guruh tuslovchi affikslar bilan o‘zgaradi: o‘qiy (o‘qiyin), o‘qigin (o‘qi), o‘qisin; o‘qiylik, o‘qingiz, o‘qisinlar kabi.

Buyruq-istak maylining I shaxsi istak iltimos, undash-chaqirish ma‘nolarini (I shaxsda buyurish, iltimos ma‘nolari ifodalanmaydi); II-III shaxsi buyruq, iltimos, maslahat o‘rni bilan do‘q kabi ma‘nolarni ifodalaydi va ma‘nolarning har biri o‘ziga xos ohang bilan ajralib turadi. Masalan: 1. *O‘z shaxsiy foydangni izlama, xalqning foydasini izla, xalqqa mashaqqat yukki tushirib, uni qiynama, o‘zing yuk ko‘taruvchi bo‘l* (YUsuf Xos Xojib). 2. *Naqadar buyuk zamonda yashayotganligimizni unutmaylik* (I.Karimov) birinchi misolidagi *izlama, izla, qiynama, bo‘l* fe‘llari II shaxs (nol ko‘rsatkichli shaklda)da kelib maslahat, iltimos kabi ma‘nolarni, ikkinchi misoldagi unutmaylik fe‘li I shaxs ko‘plikda kelib, shu harakatni bajarishga undash, shu bilan birga istak, xohish kabi ma‘nolar bildiriladi.

3. Shart (istak) mayli

Bu mayldagi fe‘l birinchidan, ma‘lum ish-harakatning yuzaga chiqishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo‘lgan ish-harakatni ifodalaydi. Bunda shart maylidagi fe‘l ergash gapning kesimi vazifasida keladi. Masalan: Bolalaring senga

qanday munosabatda bo'lishini istasang, ota-onangga ham shunday munosabatda bo'l (Tafakkur gulshani). Ikkinchidan, bu shakldagi fe'ning o'zi orzu-istak, xohish, maslahat, iltimos kabi ma'nolarni ifodalaydi va sodda gapning yoki qo'shma gaplarda bosh gapning kesimi vazifasida qo'llanadi: *Qani endi inqilob bo'lsa-yu, mehnatkash xalq xonni ag' darib mamlakatni o'zi idora qilsa, hamma erkin nafas olsa* (N.SHaripov). *Qani endi bu qirlarga ko'klamda chiqsang. Onajon, shu suratni menga bersangiz* (A.Q.)

Ko'rinadiki, shart maylidagi fe'l kelasi zamon tushunchasini anglatib, shart-istak ma'nosi fe'ning buyruq-istak maylidan bosh shaklga –sa qo'shimchasini qo'shish va tushlash orqali shakllanadi: o'qisam, o'qisang, o'qisa; o'qisak, o'qisangiz, o'qisalar kabi.

SHart mayli formasidagi fe'l edi, ekan to'liqsiz fe'llar bilan; kerak, bo'lmoq, ehtimol kabi modal ma'noli so'zlar bilan birga qo'llanishi mumkin: o'qisa edi, o'qisa ekan; o'qisa kerak, o'qisa bo'ladi kabi. Bunday shaklda kelgan fe'llar tilak, orzu, gumon, noaniqlik kabi ma'nolarni bildiradi: *Nahotki Muqaddas shu yotoqxonada tursa? (O.YO.). bu erda sho'r imoratning ofati bo'lsa kerak* (A.Q.). *Xo'sh, endi sizlarga nima sovg'a bersam ekan* (O.).

SHuningdek, shart maylidagi fe'l qo'shma gapning bir necha turlarida ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi: *Ertalab derazadan qaragam, hamma yoq oppoq...* (O.). *To'tiqiz... dugonasini o'ylasa, xolasi o'z ko'ksida panoh topgandek bag' riga kirib olgan jiyani o'ylar edi* (M. Ismoilij).

9 -§. Fe'llarning yasalishi

O'zbek tilida fe'llar so'z yasash xususiyatiga ega. Fe'llar ikki xil usul bilan yasaladi: morfologik (affiksatsiya) usuli va sintaktik (kompozitsiya) usuli.

1. Morfologik usulga ko'ra, maxsus fe'l yasovchi affikslar yordamida boshqa so'z turkumlaridan (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, taqlidiy so'zlardan) fe'l yasaladi.

Hozirgi o'zbek tilida fe'l yasashda quyidagi so'z yasovchi affikslar qo'llanadi:

-la affiksi: kuyula, bahola; tozala, oqla; sizla; tezla, sekinla; ufla, dodla; shitirla, shivirla kabi. Bu affiks unumdor fe'l yasovchi affiks sanalib, barcha so'z turkumlaridan fe'l yasaydi.

-a affiksi: tuna, o'yna; qiyna, YAsha; guldura, shildira kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, taqlid so'zlardan fe'l yasaladi.

-r (-ar) affiksi: eskir, qisqar, ko'kar kabi. Bu affiks yordamida sifat asosidagi fe'l yasaladi.

-y (-ay) affiksi: ulg'ay, kuchay, qoray; ko'kay, ozay kabi. Bu affiks sifat va ravish asosidan fe'l yasaladi.

-sira affiksi: suvsira, yotsira; sizsira, sensira kabi. Bu affiks bilan ot, sifat, olmoshdan fe'l yasaladi.

-lan affiksi: otlan, shodlan, zavqlan, ikkilan kabi. Bu affiks tuzilishiga ko'ra qo'shma (-la+n) bo'lib, ot, sifat, sondan fe'l yasaydi hamda fe'l nisbat (o'zlik)ni shakllantiradi.

-lash affiksi: gaplash, bahslash, birlash, salomlash, xayrlash kabi. Bu affiks ham tuzilishiga ko‘ra qo‘shma (-la+sh) bo‘lib, u ot, son, undov so‘zdan fe‘l yasaydi hamda fe‘l nisbati (birgalik nisbat)ni shakllantiradi.

-i affiksi: changi, boyi, tinchi kabi. Bu affiks bilan ot va sifatdan fe‘l yasaladi.

-ik (-iq) affiksi: yo‘liq, do‘riq, birik, kechik kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, son, ravishdan fe‘l yasaladi.

-qir, -ira, -illa affikslari: hayqir, yarqira, yaltira, miltira; taqilla, gurilla, vishilla kabi. Bu affikslar yordamida undov va taqlid so‘zlardan fe‘l yasaladi.

-ir (-ur) affiksi: gapir, tupur. Bu affiks ham unum so‘z yasovchi affiks bo‘lib, u ot va undov so‘zdan fe‘l yasaydi.

-ka, -sa affikslari: ham unum so‘z yasovchi affikslar bo‘lib, bu affikslar yordamida otdan fe‘l yasaladi: iska, suvsa kabi.

2. Sintaktik usulga ko‘ra ikki (ba‘zan undan ortiq) so‘z asosi birikishi bilan yangi so‘z qo‘shma fe‘l yasaladi. Masalan: *Borlig‘imizni, boyligimizni, qadriyatlarimizni dunyoga ayon qilmoqdamiz (I.Karimov). Sustkashlik oson ishni mushkullashtiradi, qiyin ishni esa, chorasiz bir ahvolga olib keladi (Tafakkur gulshani).* Bu misollardagi *ayon qilmoqdamiz, olib keladi* fe‘llari sintaktik usul bilan yasalgan qo‘shma fe‘llardir.

Qo‘shma fe‘llarning qismlari qaysi so‘z turkumidan tuzilishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) ot+fe‘l qolipidan qo‘shma fe‘llar. Bunday fe‘llarda birinchi qism fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari (ot, sifat, undov, taqlid)dan tuzilib, ikkinchi qismi fe‘l bo‘ladi: javob bermoq, qo‘l qo‘ymoq, nazar tashlamoq, xursand bo‘lmoq, xafa qilmoq, oh urmoq, yalt etmoq kabi. 2) fe‘l+fe‘l qolipidan qo‘shma fe‘llarning har ikkala qismi fe‘llardan tuziladi: olib chiqmoq, sotib olmoq, yutib olmoq, ola kelmoq kabi. Bunday qo‘shma fe‘llarning birinchi qismi –b (-ib), -a (-y) qo‘shimchasi bilan yasalgan ravishdosh shaklida keladi, tuslovchi qo‘shimchalar ikkinchi qismga qo‘shiladi.

Fe‘l+fe‘l qolipidagi qo‘shma fe‘llar kam miqdorni tashkil etadi.

Qo‘shma fe‘llarning har bir qismi o‘z leksik ma‘nosini saqlagan holda, birgalikda bitta murakkab harakat tushunchasini anglatadi. SHu jihatdan qo‘shma fe‘llar ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalaridan (analitik shakllardan) farqlanadi, chunki bunday fe‘llarda leksik ma‘no uning birinchi qismi bilan ifodalanib (etakchi qism), ikkinchi qismi esa (ko‘makchi fe‘l) unga (etakchi qism ma‘nosiga) qo‘shimcha modal ma‘no qo‘shadi: *aytib ko‘r, olib tur, ko‘rib chiq* kabi qo‘shilmalarda *aytib, olib, ko‘rib* qismi etakchi, *ko‘r, tur, chiq* qismlari esa ko‘makchi fe‘ldir.

10 -§. Fe‘lning modal ma‘no ifodalovchi shakllari (formalar)

O‘zbek tilida fe‘l o‘ziga xos turli modal ma‘nolarga (qo‘shimcha ma‘nolarga) ega. Fe‘llardagi modal ma‘nolar sintetik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar vositasida ifodalanadi.

Fe‘ldagi modal ma‘no sintetik shakl vositasida ifodalanganda, fe‘l negiziga ish-harakatning davomlilik, takroriylik, kuchsizlik kabi qo‘shimcha ma‘nolarni

qo‘shadigan shakl yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shish bilan hosil qilinadi. Fe‘llarda modal ma‘no yasovchi affikslar quyidagilar:

1) **-la** affiksi fe‘l negiziga qo‘shilib, takror, davomiylik ma‘nosini bildiradi: *savala, ishqala, tirnala, cho‘qila* kabi;

2) **-gila (-kila, -qila, -g‘ila)**: *yugurgila, turtkila, tortqila, ezg‘ila* kabi. Bu affikslar ham fe‘l negiziga qo‘shilib, harakatning davomiyligi, takror ma‘nosini bildiradi;

3) **-(i)msira, -(i)nqira**: *yig‘lamsira, kulimsira, oqaringira* kabi. Bu affikslar fe‘l negiziga qo‘shilib, harakatning kuchsizlanishini bildiradi;

4) **-(i)sh** affiksi ham harakatning kuchsizligini bildiradi: *oqarishdi, to‘lishdi* kabi;

5) **-qilla**: *chopqilla*. Bu affiks fe‘l negiziga qo‘shilib, harakatning zudlik bilan bajarilish ma‘nosini bildiradi.

Fe‘ldagi modal ma‘no analitik shakl vositasi bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl ko‘makchi fe‘llar va to‘liqsiz fe‘llar yordamida hosil qilinadi: *yozib ko‘r, aytib chiq, ko‘ra qol, so‘zlay boshla, borar edi, kelgan emish, olgan ekan* kabi.

Ko‘makchi fe‘llar bilan shakllangan qo‘shilmalar ikki so‘z shaklidan tashkil topib, birinchi qism leksik ma‘no ifodalaydi. SHu tufayli etakchi fe‘l deb yuritiladi; ikkinchi qism esa unga birikib grammatik ma‘no ifodalaydi va ko‘makchi fe‘l sanaladi. Ko‘makchi fe‘llar etakchi fe‘lning ma‘nosiga qo‘shimcha modal ma‘nolar qo‘shadi.

Ko‘makchi fe‘l tarzida *kel, ket, bor, yubor, chiq, o‘t, tur, qol, bo‘l, ol, bil, qo‘y, ber, tashla, ko‘r, boshla* kabilar keladi. Bu fe‘llar bir tomondan, harakat ma‘nosini ifodalab, mustaqil holda leksik birlik sanaladi, ya‘ni *keldi, borgan, ko‘rmoqchi, bilib* kabi; ikkinchi tomondan boshqa fe‘l shakliga qo‘shilib, o‘z leksik ma‘nosini vaqtincha yo‘qotib, o‘zi aloqador bo‘lgan fe‘lning leksik ma‘nosiga qo‘shimcha ma‘no qo‘shadi va ko‘makchi fe‘lga aylanadi. Masalan: *yoza* boshladi fe‘li tarkibidagi *boshladi* fe‘li mustaqil holda boshlanish harakatini ifodalaydi, lekin bu qo‘shilmada o‘z leksik ma‘nosini yo‘qotib yozish fe‘lining leksik ma‘nosiga qo‘shimcha ma‘no, ya‘ni harakatning endi boshlanish ma‘nosini qo‘shgan.

Shu bilan birga ko‘makchi fe‘l etakchi ma‘nosiga davomiylik, tugallanganlik, takroriylik (*yoza tur, yozib tur, aytib bo‘l* kabi); harakatning bajarilish imkoniyati (*yozib ko‘r, aytib boq* kabi); harakatning boshqa shaxsdan so‘zlovchiga yo‘nalishi (*aytib ket, olib bor, aytib chiq, ola kel, yozib ol, yozib ber*), harakatning bajarilish usuli (*yozib tashla, aytib yubor*) kabi modal ma‘nolarni qo‘shadi.

Fe‘llarda modal ma‘no juft va takroriy shakllar vositasida ham ifodalanadi. Etakchi fe‘l bilan ko‘makchi fe‘l bir xil shaklda kelib, juft fe‘lni hosil qiladi. Bunda leksik ma‘no salmog‘i birinchi qismda bo‘ladi: *a ytdi-qo‘ydi, o‘tdi-ketdi, oldi-qoldi* kabi.

Ko‘makchi fe‘llar fe‘lning **-b (-ib), -a (-y)** bilan yasalgan ravishdosh shakllari bilan birga qo‘llanadi: *o‘qib ber, o‘qiy boshla* kabi.

Etakchi va ko‘makchi fe‘ldan tashkil topgan fe‘l shakllarida ko‘makchi fe‘l birdan ortiq bo‘lishi ham mumkin: *yozib qo‘ya qol, yozib berib qo‘ya qol* kabi.

Ko‘makchi fe‘lli fe‘l shakllarida shaxs-son qo‘shimchalari ko‘makchi fe‘llarga qo‘shiladi: yozib chiqdim, yozib chiqding, yozib chiqdik, yozib chiqdingiz kabi.

11 -§. To‘liqsiz fe‘llar

Mustaqil holda ish-harakat ma‘nosini ifodalamay, turli fe‘l shakllaridan so‘ng (keng ma‘noda ot bilan) qo‘llanib, faqat grammatik modal ma‘no ifodalaydigan fe‘llar to‘liqsiz fe‘llar deyiladi. To‘liqsiz fe‘llarga edi (-di), ekan (-kan), emish (-mish) kabi fe‘l shakllari kiradi. YOzar edi – yozardi, yozar ekan – yozarkan, yozar emish – yozarmish kabi. Bu fe‘llar aslida bir e (arxaik er) fe‘l negizining turli shakllari bo‘lib, ular hozir ayrim-ayrim so‘z sifatida tushuniladi.

To‘liqsiz fe‘l sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi bilan birikib, fe‘l zamonlarining analitik usul bilan yasalgan shakllarini hosil qiladi. To‘liqsiz fe‘llar edi, ekan, emish turlicha modal ma‘nolar ifodalaydi:

1) edi to‘liqsiz fe‘li qatnashgan fe‘l shaklida ta‘kidlash, eslatish, hikoya, davomiylik, takror kabi ma‘nolarni bildiradi: Bo‘shagan erlarning bag‘ rini pluglarning o‘tkir tig‘lari tilka-tilka qilmoqda edi (H.N.). SHu kuni endi ko‘chaga chiqib edi... (M.Ismoilij). Ular bir partada o‘tirishar, birga dars tayyorlashar, maktabni bitirgandan keyin qaerga o‘qishga borish haqida maslahatlashar, xayol surishar edi (S.Zunnunova).

2) ekan to‘liqsiz fe‘l qatnashgan shakllarda o‘tmishda yuz bergan voqea-hodisaning so‘zlovchiga keyinchalik ma‘lum bo‘lganligi va uning davomi ekanligi anglashiladi: Aytishingizdan, oradan hech gap o‘tmagan ekan (A.Qahhor).

3) emish to‘liqsiz fe‘li esa noaniqlik, gumon, eshutilganlik ma‘nolarini bildiradi: O‘zgarmagan, ammo negadir ikkovining ham bo‘yi juda uzun bo‘lib ketgan emish (S.Ahmad).

To‘liqsiz fe‘llar boshqa so‘z turkumlari bilan ham birikib keladi. Bu holda ot kesim tarkibida kelib, bog‘lama vazifasini bajarib, tuslovchi affikslarni oladi: Uy kichkina, lekin yorug‘ va toza edi (O.)

Fe‘llarda modal ma‘no fe‘lning juft va takrorik shakli bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl orqali harakatning davomlilik, takrorlanib turishi, tugallanganlik, harakatning voqe bo‘lishiga turlicha munosabat (befarqlik) kabi modal ma‘nolar anglashiladi: ayta-ayta, borib-borib, aytsa-aytar, uchadi-ketadi, kelsa-kelibdi, ishlasa-ishlasin kabi.

Fe‘l tahlili namunasi	
1. So‘rog‘i.	8. To‘liq yoki to‘liqsizligi.
2. Bo‘lishli yoki bo‘lishsizligi.	9. Etakchi, ko‘makchi fe‘llar aniqlanadi.
3. O‘timli yoki o‘timsizligi.	10. Vazifadosh (xoslangan) shakllari.
4. Nisbati.	11. Tuzilish turi.
5. SHaxs-soni	12. Tub yoki yasamaligi.

6. Zamon turi.	13. Gapdagi sintaktik vazifasi
7. Mayl turi.	

Nazorat savollari:

1. Fe'ning so'roqlari va grammatik xususiyatlari haqida gapiring.
2. Bo'lishli fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
3. Bo'lishsiz fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
4. O'timli fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
5. O'timsiz fe'llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring.
6. Aniqlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
7. O'zlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
8. Majhul nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring.
9. Birgalik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring.
10. Orttirma nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring.
11. Maxsus qo'shimchasiz orttirma nisbat ifodalagan fe'lga misol keltiring.
12. Birdan ortiq orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilgan fe'llarga misollar keltiring.
13. Qaysi nisbatdagi fe'llardan orttirma nisbat hosil qilib bo'lmaydi?
14. Orttirma nisbatdagi fe'llardan qaysi nisbatdagi fe'llarni hosil qilish mumkin?
15. Birdan ortiq nisbat qo'shimchasi qo'shilgan fe'llarga 4 ta misol ayting.
16. Tuslanish nima?
17. **-m, -ng, -k, -ngiz** qo'shimchalari qanday shakldagi fe'llarga qo'shiladi?
18. **-man, -san, -miz, -siz** kabi qo'shim -chalar qanday shakldagi fe'llarga qo'shiladi?
19. **-gin, -ay, -ing(iz)** kabi qo'shimchalar qanday shakldagi fe'llarga qo'shiladi?
20. O'tgan zamon fe'llarining turlari haqida gapiring.

Fe'l turkumi bo'yicha test savollari:

1. **Go'dakday uxlaydi tunda odamlar.** Ushbu misoldagi fe'ning sintaktik vazifasini ko'rsating.
A) ega B) to'ldiruvchi C) kesim D) aniqllovchi
2. **Biz muzevga bordik.** Ushbu gapdagi **bordik** so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) fe'l B) I shaxs ko'plikda C) o'tgan zamon fe'l
D) lug'aviy ma'nosi berilmagan.
3. **Kuyindi, kuyundi** so'zlari o'zaro qanday farqlanadi?
A) kuyundi – fe'l, kuyindi – ot B) kuyindi – fe'l, kuyundi – fe'l C) kuyindi talaffuz qilinadi, kuyundi yoziladi D) kuyundi talaffuz qilinadi, kuyindi yoziladi
4. **Harakat fe'llariga to'g'ri ta'rif berilgan javobni toping.**
A) shaxsning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar B) narsaning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar
C) shaxsning aqliy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar D) A, B.
5. **Holat fe'llariga to'g'ri ta'rif berilgan javobni toping.**
A) shaxslarning ichki kechinmalarini ifodalovchi fe'llar B) narsalarning bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tishini ifodalovchi fe'llar C) A, B D) shaxslarning bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tishini ifodalovchi fe'llar.
6. **Quyidagi fe'llardan qay biri nutqiy faoliyat fe'llari guruhiga kiradi? 1) gapirmoq; 2) pichirlamoq; 3) yozmoq; 4) o'qimoq; 5) ijod qilmoq; 6) fikrlamoq; 7) ekmoq; 8) duduqlanmoq; 9) yurmoq; 10) qaramoq; 11) fahmlamoq; 12) isitmalamoq**
A) 8, 11, 12. B) 1, 4, 5 C) 3, 4, 5, 11. D) 1, 2, 8.

7. Bo'lishlilik shakli orqali bo'lishsizlik ifodalangan gapni toping.

A) *Men xalqni aldamoqchi emasman!* B) *Yordam bersangiz, kolxozni ko'tarish uchun kuchquvvatimni ayarmidim?!* C) *Tez orada uncha-muncha mexanikka gap bermay qo'yadi u ...*
D) *Bu hol qishloqda sezilmay qolmaydi.*

8. Quyidagi yasama sifat va otlarning qaysi biri fe'lining bo'lishsizlik shakli bilan omonim bo'lolmaydi?

A) *qaynatma (sho'rva)* B) *sochma (o'q)*
C) *suzma* D) *qo'llanma*

9. Bo'lishlilik ma'nosi ifodalangan qatorni aniqlang.

A) *Otaqo'zi shaharga kelsa, kirmay ketmaydi.* B) *U na o'qiydi, na yozadi.* C) *Bugungi ishni ertaga qo'yma.* D) *Gapiradi-ya, gapiradi, gapirib bo'pti.*

10. Fe'l nisbatlarining ta'rifi to'g'ri berilgan javobni toping.

A) *Harakatning kim yoki nima tomonidan bajarilishini bildiruvchi fe'l shakllari* B) *bajaruvchining holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari*
C) *bajaruvchining harakat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari*
D) *B, C.*

11. Orttirma nisbat qo'shimchasi -dir haqida bildirilgan qaysi hukm xato?

A) *jarangsiz undosh bilan tugagan fe'llarga doimo -tir tarzida qo'shiladi* B) *jarangli undosh bilan tugagan fe'llarga doimo -dir tarzida qo'shiladi* C) *kesimlik qo'shimchasi va gumon olmoshini hosil qiluvchi -dir qo'shimchalari bilan omonim hisoblanadi* D) *orttirma nisbat qo'shimchasi, shakl yasovchi qo'shimcha hisoblanadi*

12. Uni ancha erkalatib qo'ygan edilar. Ushbu gapdagi erkalatib fe'li qaysi nisbat shaklida?

A) *o'zlik nisbat* B) *birgalik nisbat* C) *aniq nisbat* D) *orttirma nisbat.*

13. Shaxs-son shakllarining xususiyatlari noto'g'ri berilgan javobni ko'rsating.

A) *fe'lni kesim sifatida shakllantiradi* B) *fe'lni ega bilan bog'lab keladi* C) *zamon qo'shimchalarini qabul qilmaydi*
D) *fe'l ifodalagan ish-harakatning bajaruvchisini ko'rsatadi*

14. Fe'lga xos so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni toping.

A) *fe'l yasovchi qo'shimchalar* B) *zamon qo'shimchalari*
C) *nisbat qo'shimchalari* D) *shaxs-son qo'shimchalari.*

15. Quyidagi omonim so'zlardan qaysi biri shaxs-son qo'shimchalarini qabul qilishi mumkin?

A) *o't (o't-o'lan)* B) *o't (olov)* C) *o't (fe'l)* D) *A va B*

16. O'tgan zamon davom fe'li qaysi qatorda qo'llangan?

A) *Gimnastika badan g'uborini tozalaydi.* B) *Bu shovqin-suron hech nimani isbotlamadi.* C) *Uchrashuv do'stona va samimiy sharoitda o'tdi.* D) *Cho'lning taqir betida bir parcha qor ko'rinmas edi.*

17. Hozir qorong'ida qayoqqa bordig-u, nimayam qildik. Ushbu gapda qaysi zamon ma'nosi ifodalangan?

A) *hozirgi zamon* B) *kelasi zamon* C) *o'tgan zamon* D) *hozirgi-kelasi zamon*

18. Hozirgi-kelasi zamon fe'li qaysi qatorda berilgan?

A) *ishlayman, o'sadi, o'qiysiz* B) *borar edi, o'qir, ishlar edim*
C) *ko'rganman, yuborgansiz, chaqirgan* D) *yoziyman, kelibsiz, ekibdi*

19. Eski o'zbek tilida fe'lining qaysi shakli -sar tarzida yozilgan?

A) *fe'ning sifatdosh shakli* B) *shart fe'ning shakli* C) *bunday shakl bo'lmagan* D) *kelasi zamon fe'li shakli*

20. Buyruq-istak maylidagi fe'llar qatorini aniqlang.

A) *o'qisam, borsak, ko'rmasa* B) *bildirmoqchi, chaqirmoqchiman, ishlamoqchimiz* C) *ishlay, boraylik, aytsin* D) *isidi, ketadi, o'qiyapti*

21. Shart maylidagi fe'llarni toping.

A) *tozalaysan, yig'ishtirasan, tushuntirasan* B) *ochilsa, ko'rsangiz, sezmasak* C) *unutma, uyg'otma, shoshilmaylik*
D) *boryapman, eriyapti, qatnayapti*

22. Inson tirik ekan, hech qachon umidsizlanmasligi kerak! Ushbu gapda to'liqsiz fe'l qaysi turkumga oid so'z bilan birga qo'llangan?

- A) ot B) ravish C) son D) sifat

23. To'liqsiz fe'llar uchun xos bo'lmagan xususiyat qaysi javobda berilgan?

- A) To'liqsiz fe'llar mustaqil ma'noga ega emas. B) To'liqsiz fe'llar otlar bilan ham, fe'llar bilan ham qo'llana oladi. C) Ular bo'lishsizlik, nisbat, zamon kabi ma'nolarga ega bo'la oladi. D) To'liqsiz fe'l uyushiq kesimlar uchun umumiy bo'lganda, oxirgi kesim tarkibida qo'llanadi

24. U imtihonlardan muvaffaqiyat bilan o'tgach, sevinchi ichiga sig'may, uylariga qaytarkan. Mazkur gapdagi to'liqsiz fe'lni toping.

- A) To'liqsiz fe'l ishtirok etmagan B) o'tgach
C) sevinchi ichiga sig'may D) qaytarkan

25. U devordan oshib tushdi. Ushbu gapdagi tushdi fe'li qanday fe'l hisoblanadi?

- A) mustaqil fe'l B) ko'makchi fe'l C) qo'shma fe'lning tarkibiy qismi D) oshib tushdi birgalikda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi.

26. -ma bo'lishsizlik shakli qo'shimchasi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalariga qanday qo'shiladi?

- A) ko'makchi fe'l tarkibida bo'ladi B) etakchi fe'l tarkibida bo'ladi C) ba'zan etakchi fe'lga, ba'zan ko'makchi fe'lga qo'shiladi D) barchasi to'g'ri.

27. Gap bilan ovora bo'lib, kechikib ham qolibman. Ushbu gapdagi qolibman so'zi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A) mustaqil fe'l B) qo'shma fe'lning tarkibiy qismi
C) bog'lama D) ko'makchi fe'l.

28. Sifatdoshlar fe'lga xos qanday ma'nolarni ifodalaydi?

- A) zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat B) mayl, shaxs-son o'timli-o'timsizlik C) A va B D) barchasi to'g'ri.

29. Sifatdoshning qaysi shakliga bo'lishsizlik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi yuz beradi?

- A) -gan B) -(a)r C) -(a)yotgan D) -(a)digan

30. Ravishdoshning sabab ma'nosini ifodalaydigan turi berilgan javobni toping.

- A) musiqa tingach, ko'rgani bormoq B) qorong'i tushguncha, yugurib kelmoq C) qo'rqib kirmadi, qaynayvermagach kuchaytirdi D) yig'lay-yig'lay uxlamoq, tikilganча o'ylanib qolmoq

31. Quyidagi fe'llarning qay biri otdan yasalgan?

1) tuzlamoq; 2) dodlamoq; 3) yngilamoq; 4) tezlamoq;

5) yaxshilamoq; 6) varaqlamoq; 7) to'g'rilamoq;

8) sekinlamoq; 9) ho'plamoq; 10) qishlamoq..

- A) 3,5,7 B) 5, 7, 8 C) 4, 8, 9 D) 1, 6, 10.

32. Quyidagi fe'llarning qay biri undov so'zdan yasalgan? 1) tuzlamoq; 2) dodlamoq; 3) yangilamoq; 4) tezlamoq;

5) yaxshilamoq; 6) varaqlamoq; 7) to'g'rilamoq;

8) sekinlamoq; 9) voyvoylamoq; 10) qishlamoq..

- A) 3,5,7 B) 5, 7, 8 C) 2, 9 D) 4, 5, 10.

33. Harakatning kuchsiz darajasi ma'nosini ifodalovchi -(i)sh qo'shimchali so'zni aniqlang.

- A) boshqarishni B) sevishganlar C) uchrashdi D) to'lishdi

34. Qo'shma fe'llarning xususiyatlari noto'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) birdan ortiq asosdan tashkil topadi B) asoslar orasiga boshqa qo'shimchalarni qo'shsa bo'ladi C) bitta so'roqqa javob bo'ladi D) qismlari ajratib yoziladi

35. Qo'shma fe'llar yasalishida ishtirok etadigan so'zlar qaysi javobda berilgan?

- A) ket, bor, yur B) qil, et, bo'l
C) o'tir, qo'y, sol D) yubor, chiq, kir

36. Qo'shma fe'llar berilgan javobni toping.

- A) oshib qolgan B) yig'ishtirib oldi

RAVISH

1-§. Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari

Harakat va holatning belgisini, belgining belgisini (sifat va ravishning), ba'zan predmetning (ot) belgisini bildiradigan mustaqil so'z turkumi ravish deyiladi. Masalan: *Qutlug' jon tez orada o'zbekcha biyron-biyron gaplasha boshladi (O.). Ko'kday bepoyon mening Vatanim (Q.Hikmat).*

Sifat so'z turkumi kabi ravish ham belgi bildiradi. Lekin sifat, asosan, predmetning belgisini, ravish esa, asosan, ish-harakatning belgisini, belgining belgisini bildiradi.

Ravish ish-harakatning bajarilish tarzi (*astoydil urindi*), payti (*hozir keldi*), o'rni (*yuqoriga intildi*), miqdori (*kam gapirdi*), darajasi (nihoyatda achindi), sababi (noiloj ko'ndi) va maqsadi (jo'rttaga indamadi)ni anglatadi.

Ayrim ravishlar ba'zan otga bog'lanib, predmetning noaniq miqdorini (ko'p kitob), sifat va ravishning o'ziga bog'lanib, belgini kuchini; darajasini, o'xshashligini (obdon pishiq, ancha ilgari, toshday qattiq) ifodalaydi. SHu ma'no xususiyatlariga ko'ra ravish qanday? qay tarzda? qachon? qaerga? qaerda? qaerdan? qancha? qay darajada? nega? nima maqsadda? kabi so'roqlariga javob bo'ladi.

Ravish o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega:

1) ravish boshqa so'z bilan bog'lanib kelganda morfologik jihatdan o'zgarmaydi (so'z o'zgartiruvchi affikslarni olmaydi). Lekin ma'lum kelishik yoki egalik kelishik shaklida (qotib qolgan holda) ravishga ko'chgan so'zlar mavjud: kunda, yiliga, kunduzi, chindan, rostdan, yaqinda, birdan, birga kabi.

2) ravish belgi bildiruvchi so'z bo'lgani uchun sifat kabi belgini (harakatning belgisini) darajalab, chog'ishtirib ko'rsatish xususiyatiga ega. Biroq ravishlarda daraja anglatish sifatlardagi kabi taraqqiy qilgan emas. Ravish ham uch daraja ko'rinishiga ega: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja. Daraja ma'nosi sifat darajalaridagi vositalarning o'zi bilan ifodalanadi. Belgini darajalab ifodalash, asosan, holat ravishlari (ayrim payt va miqdor)ga xos.

Oddiy daraja. Oddiy darajada ravish ish-harakat belgining normal holatda (chog'ishtirilmagan holatda) ekanligini bildiradi va o'ziga xos morfologik ko'rsatkichga emas: Usmonjon gunoxkorona jilmaydi (S.Z.).

Qiyosiy daraja. Qiyosiy darajadagi ravish harakat belgisining boshqa belgi bilan chog'ishtirish orqali belgining kamligi, kuchsizligi, ko'pligi, ya'ni kuchaytirish ma'nosini ko'rsatadi va ravishlarga -roq affiksini qo'shish bilan hosil qilinadi: astaroq, ozroq, barvaqtroq, keyinroq kabi: Zaynab ilgariroq, Kumush keyinroq ichkariga kirishdi (A.Qodiriy). Ba'zan qiyosiy darajadagi ravishdan oldin sal, yana, tobora kabi ravishlar keladi. Bunday holda kuchaytiruv va kuchsizlantiruv ekspressiv yo'l bilan yanada orttirilgan bo'ladi: Sal burunroq o'tkazilsa, ancha bo'y bergan bo'ladi (SH.Rashidov).

Orttirma daraja esa ravishdan oldin juda, nihoyatda, eng, hammadan kabi so'zlarni keltirish bilan hosil qilinadi va harakat belgisining normal holatdan o'ta

ortiqqligini, kuchaytirilganligini ifodalaydi: Bu yurtda eng avval senda tong otar, Eng keyin tark etar seni quyoshing (E.Vohidov). Imon bilan amal bir-biriga juda yaqindir. Ular bir-birisiz durust emas (Hadisdan).

3) ravishning fe'lga bog'lanib, gapda ko'pincha hol vazifasida kelishi, uning asosiy grammatik xususiyatlaridan biri sanaladi: Ogahiy yaratgan she'riy misralar o'zining serjiloligi bilan kishilarni hamon o'ziga rom qilib kelmoqda (Kaykovus).

4) ravish sifat va ravishga, ba'zan otga bog'lanib kelib, belgini belgisini bildiradi, gapda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasi bajaradi: Tog' day og'ir bilak berdim... (H.O.).

Ba'zi ravishlar otga ham bog'lanib, uning belgisini ko'rsatadi va sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildirgan sifatlar ravish so'z turkumiga o'tib ketmagani kabi, otga bog'langan ravishlar ham sifat turkumiga o'tmaydi: U ancha jo'yaklarni oraladi, ancha qovunlarni ushlab, qay birini uzishni bilmadi (O.). Etti qizning onasi haligacha kelinchak (Topishmoq).

5) ravish otlashish xususiyatiga ega, ya'ni ravish bog'lanib kelgan ot gapda qo'llanmasligi mumkin. Bunday holda ravig otga xos egalik, kelishik, ko'plik affikslarini qabul qiladi va gapda ot kabi ega, qaratuvchi-aniqlovchi, to'ldiruvchi vazifalarida keladi: Ko'pni ko'rgan ko'hna dunyoda Baxt axtarib ko'plar o'tdilar (H.O.). Ilm ko'pga etkazar, hunar esa ko'kka (Maqol). Har bir ishimizdan ertaning shabadasi kelib turibdi, o'g'lim (O.).

Ravishlarda otlashish hodisasi, asosan, holat, miqdor belgisini (ba'zan payt belgisi) bildiruvchi ravishlarga xos.

6) ravish gapda hukm tushunchasini anglatib bosh bo'lak ot kesim vazifasida ham keladi: Odam har qancha olim bo'lsa ham, uning o'zi sezmagani kamchiliklari ko'p («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

7) ravish so'z yasaliş xususiyatiga ega. Ravish yasovchi maxsus so'z yasovchi affikslar mavjud: do'stona, yangicha, tasodifan, butunlay kabi. Bunday usul bilan ravish yasaliş morfologik usul sanaladi. Ravish sintaktik usul bilan ham yasaladi: bir oz, har gal, bir yo'la, dam-badam kabi.

8) ravishlarda modal ma'no yasaliş ham mavjud. Bunday shaklda kelgan ravishlar harakat belgisining kuchsizligi, ta'kid, noaniqlik kabi ma'nolar anglatadi. Bu modal ma'no sintetik shakl orqali hosil qilinadi, ya'ni ravishga -roq, -gina (-kina, -qina) affikslarini qo'shish orqali: ko'proq, endigina, sekingina, kechagina kabi hamda ravishlarni aynan takrorlash yo'li bilan hosil qilinadi: asta-asta, tez-tez, sal-pal kabi.

Men ko'proq uni ko'rish niyatida yurar edim, lekin o'ylaganim bo'lmadi (P.Qodirov). Hasanali sekingina daricha ostig'a yotib hujra ichiga quloq soldi (A.Qodiriy). CHiqsak ham Sulton amaki bilan chiqardik. Sekin-sekin unga o'rgana boshlagandik (H.Nazir).

2 -§. Ravishlarning ma'no turlari

Ravishlar ma'no jihatdan olti guruhga bo'linadi: 1) holat ravishi, 2) payt ravishi, 3) o'rin ravishi, 4) miqdor-daraja ravishi, 5) sabab ravishi, 6) maqsad ravishi.

Holat ravishi. Holat ravishi ish-harakatning qay tarzda, qay holatda bajarilishini bildirib, qanday? qay tarzda? qanday qilib? kabi so'roqlarga javob bo'ladi: asta, sekin, tez, piyoda, ayov, qo'qqisdan, tasodifan, xomlay, ochin-to'kin, butunligicha, jim, darov, darhol, zo'rg'a, birdan, birga, majburan, yaqqol, harbiylarcha, o'zbekcha, yuzma-yuz, ochiq-oydin kabi.

Holat ravishlari, asosan, ravish holi otga bog'lanib kelganda sifatlovchi-aniqlovchi va kesim vazifalarida keladi: Bobur ota yurtidan ajralganini endi astoydil his qildi (P.Q.). Salqin shabadasi kelib olqishlar bizning g'olibona bayrog'imizni (A.M.). Auditoriya jimjit, hamma unga qarar (P.Q.).

Payt ravishi. Payt ravishi ish-harakatning paytini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri? kabi so'roqlarga javob beradi. Payt ravishlariga: hozir, boya, hali, endi, oldin, burun, avval, qadim, bultur, tunov kun, yaqinda, hamisha, hanuz, hamon, bugun, indin, keyin, so'ng, yiliga, dastlab, har kuni, erta-indin, erta-kech, qishin-yozin kabilar kiradi.

Payt ravishlari asosan, payt holi, ba'zan kesim vazifasida keladi. Masalan: Sen bir birodaringning ayblarini zikr qilmoqchi bo'lsang, avval o'z ayblaringni esla! (Imom Ismoil al Buxoriy). Bugun sening tug'ilgan kuning, Bugun uying to'ladi gulga (H.O.).

O'rin ravishi. O'rin ravishi ish-harakatning bajarilish o'rnini va harakat yo'nalgan tomonni anglatadi. O'rin ravishi qaerga? qaerda? qaerdan? kabi so'roqlarga javob berib, ularga nari, beri, oldinga, pastda, tubanda, yuqoridan, quyidan, u yoqqa, bu yoqqa, yaqinda, orqadan, to'g' riga, chapda, o'ngda kabilar kiradi.

O'rin ravishlari gapda, asosan, o'rin holi ba'zan esa kesim vazifasini bajaradi: Biror kishi gapirgan paytida u yoq - bu yoqqa qarab qo'ysa, demak bu gap omonatdir (Hadisdan). YOshi ulug' Nazarali ota shu erda (G'.G'ulom).

Miqdor-daraja ravishi. Miqdor-daraja ravishi ish-harakatning miqdoriy belgisi, bajarilish darajasini, shuningdek, predmetning noaniq miqdori, belgining darajasi va miqdorini anglatadi.

Miqdor-daraja ravishlari ma'no xususiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: miqdor ravishi va daraja ravishi.

Miqdor ravishi miqdor tushunchasini anglatib, harakat-holatning bajarilishida uning miqdoriy belgisini ko'rsatadi. SHu bilan birga miqdor ravishi otga ham bog'lanib kela oladigan ravish turidir, shu jihatdan bu ravishlar predmetning noaniq miqdorini ham ifodalaydi. Miqdor ravishi qancha? so'rog'iga javob berib, ularga ko'p, mo'l, kam, bir oz, sal, picha, xiyol kabilar kiradi.

Daraja ravishi daraja tushunchasini anglatib, harakat-holatning bajarilish darajasini ko'rsatadi. Ba'zan daraja ravishlari sifat va ravishning o'ziga bog'lanib kelib, belgi ma'nosini kuchaytirib keladi. Bu ravishlar qay darajada? so'rog'iga javob berib, ularga tez, g'oyat, nihoyatda, obdon, yana, o'ta, tag'in, aslo, sira kabilar kiradi.

Daraja ravishlari belgi ma'nosini kuchaytirishiga ko'ra (juda, g'oyat) sifat va ravishlarning orttirma darajasini hosil qiladigan element sifatida ham qatnashadi.

Miqdor-daraja ravishlari, asosan, miqdor-daraja holi, ba'zan kesim vazifasini bajaradi: Mo'l-ko'l nur to'kar, ko'kdan qadrdon quyoshimiz (E.Vohidov). Biroq ko'zgu shunaqangi xira Ediki, o'zimning yuzimni zo'rg'a ko'rardim (O'.H.).

Miqdor-daraja ravishi predmetning belgisini bildirib, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida ham keladi: Ko'p gap quloqqa yoqmas (Maqol).

Sabab ravishi. Sabab ravishi ish-harakatning bajarilish sababini anglatadi. Sabab ravishi nega? nima uchun? nima sababdan? kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ularga noiloj, noilojlikdan, chorasiz, chorasizlikdan kabi ravishlar kiradi.

Sabab ravishi, asosan, sabab holi vazifasini bajaradi: Qunduzoyning qistashi bilan noiloj birinchi qatorga borib o'tirdi (Oydin).

Maqsad ravishi. Maqsad ravishi ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni anglatib, nega? nima maqsadda? kabi so'roqlarga javob beradi. Bu ravishlarga atay(in), ataylab, jo'rttaga, qasddan kabilar kiradi. Maqsad ravishi gapda, asosan, maqsad holi vazifasini bajaradi: YUksak binolar tomon, Bordik bizlar atayin (Po'lat Mo'min).

3 -§. Ravishlarning yasalishi

O'zbek tilida ravishlar, asosan, 2 xil usul, affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

Affiksatsiya usuli bilan ravish yasashda so'z negiziga maxsus ravish yasovchi affikslarni qo'shish bilan ravish yasaladi. Ravishning bu usul bilan yasalishida ko'pincha ot, ba'zan sifat, son, olmosh, fe'ning sifatdash va harakat nomi shakllari, shuningdek ravishning o'zi asos bo'ladi.

Ravish yasovchi affikslar quyidagilar:

-an: taxminan, rasman, tasodifan, majburan kabi. Bu affiks ot, sifat asosidan ravish yasaydi.

-cha: o'zbekcha, yangicha, boshqacha, o'zicha, istagancha, hozircha kabi. Bu affiks ot, sifat, olmosh, sifatdash, ravish asosidan ravish yasaydi.

-incha: ko'pincha, aksincha kabi. Bu affiks ravish, sifat asosiga qo'shilib ravish yasaydi.

-larcha: o'rtoqlarcha, qarindoshlarcha, aybdorlarcha, vahshiylarcha kabi. Bu affiks ot, sifat asosiga qo'shilib ravish yasaydi.

-ligicha: tirikligicha, xomligicha, ozligicha, xo'lligicha kabi. Bu affiks sifat, ravish asosiga qo'shilib ravish yasaydi.

-lay: tiriklay, butunlay kabi. Bu affiks sifat va olmosh asosidan ravish yasaydi.

-ona: do'stona, fidokorona, g'olibona, qadimona kabi. Bu affiks ot, sifat, ravish asosidan ravish yasaydi.

-lab: haftalab, yaxshilab, bittalab, ko'plab kabi. Bu affiks ot, sifat, son, ravish asosiga qo'shilib ravish yasaydi.

-chasiga: dehqonchasiga, eskichasiga kabi. Bu affiks ot, sifat asosiga qo‘shiladi.

-siga: tikkasiga, yappisiga kabi. Bu affiks sifat, olmosh asosiga qo‘shilib ravish yasaydi.

-n (-in): ertan, kechin, yashirin kabi. Bu affiks ravish, fe‘l asosiga qo‘shilib ravish yasaydi.

-siz, be-: tinimsiz, to‘xtovsiz, beto‘xtov kabi. Bu affikslar omonim affiks sifatida sifatdan tashqari ot, harakat nomi asosidan ravish yasaydi.

-day (-dek): toshdek, gulday kabi. Bu affikslar ot asosiga qo‘shilib ravish yasaydi.

Kompozitsiya usuliga ko‘ra ikki so‘z asosini ma‘lum bir qolipda birikishi, tizilishi orqali harakatning bitta belgisini ifodalaydigan ravish yasaladi. Bu usul bilan qo‘shma va juft ravishlar yasaladi.

Qo‘shma ravish quyidagicha yasaladi:

1) har olmoshi bilan o‘rin yoki payt ma‘nosini bildiruvchi so‘zlarni biriktirish bilan: har vaqt, har lahza, har on, har gal, har yoq, har zamon kabi;

2) ko‘rsatish olmoshlariga yon, er, yoq so‘zlarini qo‘shish bilan: shu er, shu yoqqa, shu yonda, bu erda, bu yoqqa, o‘sha yoqqa, o‘sha yoqqa, u erdan kabi;

3) bir soniga o‘rin, payt, miqdor ma‘nosini bildiruvchi so‘zlarni yoki mustaqil ishlatilmaydigan so‘zlarni qo‘shish bilan: bir zum, bir lahza, bir zamon, bir yo‘la, birmuncha, birvarakay, bir yoqqa, birato‘la, bir oz kabi;

4) turli so‘z turkumiga oid ikki so‘z shaklining (o‘z leksik ma‘nosini saqlagan, ba‘zan mustaqil ishlatilmaydigan so‘z bilan) birikishi bilan: tez orada, hali zamon, shu zahoti, tunov kun, kuni kecha, qadim zamon, ozmuncha kabi.

Juft ravish ikki so‘zning teng bog‘lanishi bilan yasaladi.

Juft ravish quyidagicha yasaladi:

1) ma‘nosi bir-biriga yaqin (sinonim) so‘zlarning teng bog‘lanishi bilan: asta-sekin, ochiq-oydin, eson-omon kabi;

2) qarama-qarshi ma‘noli (antonim) so‘zlarning teng bog‘lanishi bilan: bugun-erta, yozin-qishin, nari-beri kabi;

3) –ma (-ba) elementlari, shuningdek, chiqish va jo‘nalish (ba‘zan bosh) kelishigi shaklini olgan so‘zlarni takrorlash bilan: yuzma-yuz, yonma-yon, dam-badam, kundan-kunga, naridan-beri, kamdan-kam kabi;

4) turli fe‘l shakllarining takrorlanishi hamda ularni bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklda takrorlash bilan: qayta-qayta, sezilar-sezilmas, qo‘yarda-qo‘ymay, bilinar-bilinmas kabi.

4 -§. Ravishlarning tuzilishi jihatdan turlari

Ravish tuzilishiga ko‘ra: 1) sodda, 2) qo‘shma, 3) juft, 4) takroriy ravishlarga bo‘ladi.

Sodda ravishlar bir o‘zak morfemadan tuziladi: yaqqol, ko‘p, hozir, vijdonan, kamtarona kabi.

Qo‘shma ravishlar ikki so‘z asosining birikishi orqali tuziladi: har gal, bir vaqt, tez fursatda, shu yoqqa kabi.

Juft ravishlar ikki soʻz asosining teng bogʻlanishidan tuziladi: hali-beri, erta-kech, eson-omon kabi.

Takroriy ravishlar esa bir soʻz asosini aynan takrorlash bilan yoki ikkinchi takrorlangan ravishda tovush oʻzgarishi yuz bergan holda tuziladi: endi-endi, asta-asta, oz-moz, sal-pal, zoʻrgʻa-zoʻrgʻa kabi.

Takroriy ravishlar soʻzning leksik maʼnosini oʻzgartirmay, balki ortiqqligi, kamligi, noaniqlik, taʼkid kabi qoʻshimcha maʼnolarni ifodalab keladi.

Ravish tahlili namunasi	
1. Soʻrogʻi.	5. Tuzilish turi.
2. Maʼno turi.	6. Tub yoki yasamaligi.
3. Darajasi.	7. Gapdagi sintaktik vazifasi.
4. Otlashgan yoki otlashmaganligi.	

Takrorlash uchun savollar

1. Ravishning taʼrifi va soʻroqlari haqida gapiring.
2. Ravishlar qanday soʻzlarga boʻjlanib keladi? Misollar keltiring.
3. Ravishlarning daraja koʻrsatish xususiyatlari haqida gapiring.
4. Holat ravishlari haqida gapiring.
5. Payt ravishlari haqida gapiring.
6. Oʻrin ravishlari haqida gapiring.
7. Sabab ravishlari haqida gapiring.
8. Maqsad ravishlari haqida gapiring.
9. Daraja-miqdor ravishlari haqida gapiring.
10. Daraja-miqdor ravishlari qanday turlarga boʻlinadi?
11. Ravishlar qoʻshimchalar yordamida qanday soʻz turkumlaridan yasaladi?
12. Qoʻshma ravishlar qanday yasaladi?
13. Qoʻshma ravishlar qaytarzda yoziladi?
14. Juft ravishlar qanday yasaladi?
15. Takroriy ravishlar qanday yasaladi?
16. Oʻrin-payt va chiqish kelishigi shaklida ravishga aylangan soʻzlar haqida gapiring.
17. Qanday soʻzlar ravishga koʻchadi?
18. Ravishlarning otlashishi haqida gapiring.
19. Sodda tub va sodda yasama ravishlarga 3 tadan misol keltiring.
20. Ham holat, ham daraja-miqdor ravishlari guruhiga kiruvchi soʻz haqida gapiring.
21. Sifatga boʻjlanib, belgining belgisini bildirgan ravishga misol keltiring.
22. Boshqa turkum soʻzlari ravishga aylangan-ganda qanday qoʻshimchalarni olgan boʻladi?

Ravish turkumi boʻyicha test savollari:

1. **Rahim yugurib keldi-yu, birpas nari-beri shoshib ovqatlandi-da, shu ondayoq chiqib ketdi.** Ushbu gapdagi yasama ravishlar qaysi qatorda berilgan?

A) yugurib, birpas, shoshib B) yugurib, shoshib, birpas, shuondayoq C) shuondayoq D) birpas, nari-beri, shu ondayoq

2. **Chang va tutundan mashina va odamlar zoʻrgʻa koʻrinar edi.** Ushbu gapda qoʻllangan ravishning turini aniqlang.

A) holat ravishi

B) payt ravishi

C) daraja-miqdor ravishi

D) sabab ravishi

3. Salimaning ko'ngli joyiga tushdi va aybdorlarcha tabassum bilan yigitga qaradi. Ushbu gapda ravish qanday vazifada kelgan?
A) hol B) sifatlovchi-aniqllovchi C) ega D) qaratqich-aniqllovchi
4. - Oqizisan, qartasan, axir naslingga tortasan! – dedi kampir omborni qulflayotib (A.Oahhor) Ushbu gapdagi axir so'zi qaysi so'z turkumiga mansub?
A) yuklama B) ravish C) sifat D) modal so'z
5. Dam o'tmay, a'lochi o'quvchilarni birin-ketin nom-banom chaqirishib, xonalarga taklif qilishdi. Shugapdagi ravishlarni toping.
A) dam o'tmay B) nom-banom, birin-ketin C) xonalarga, nom-banom, a'lochi D) dam o'tmay, nom-banom, birin-ketin
6. Kampir xiyla uzoglashganda, Nurmatjon gichqirdi. Ushbu gapda ravishning qaysi turi mavjud?
A) payt ravishi B) o'rin ravishi
C) daraja-miqdor ravishi D) holat ravishi
7. So'zlarni faqat belgi anglatish xususiyatiga asoslanib, qaysi turkumga ajratish mumkin?
A) sifatga B) songa C) ravishga D) sifat va ravishga
8. Quyida ko'rsatilgan qaysi so'z turkumlariga oid so'zlar juft holda yoki takrorlanib qo'llanishi mumkin? 1) olmosh; 2) son; 3) fe'l; 4) ravish; 5) undov so'zlar; 6) taqlid so'zlar
A) 2,3,4,6 B) 2,3,4,5,6 C) 3,6 D) 1,2,3,4,5,6.
9. O'sha yillar qancha-qancha vatandoshlarimiz qatag'on qilindi. Ushbu gapda qancha-qancha so'zi qaysi so'z turkumiga tegishli?
A) son B) sifat C) ravish D) olmosh
10. Ravish yasovchi qo'shimchalarni toping.
A) -lar, -si, -aki, bad- B) -larcha, -ona, -li, -chi
C) -chi, -cha, -goh, -don D) -cha, -larcha, -lab, -an
11. Quyidagi gapda qo'llangan ravishning tuzilish jihatdan turini aniqlang. Bir talay qushlar donga qarab intildilar.
A) sodda-yasama B) tub C) qo'shma D) otlashgan ravish
12. Berilgan gapdagi ravishning ma'no turini ko'rsating. Ana shu qishloq boshida balandgina bir tepalik bor.
A) tarz(holat) ravishi B) o'rin ravishi
C) ravish berilmagan D) miqdor-daraja ravishi
13. Quyidagi gapda ravish turkumiga xos so'z qanday sintaktik vazifada kelgan? Mehmonni uyga olib kir, men otga picha em tashlab qo'yay.
A) ravish holi B) o'rin holi C) payt holi D) miqdor-daraja holi
14. Berilgan so'zlardan o'rin ravishlarini aniqlang.
A) majburan, tez, uyda B) aniq, mardlarcha, o'rtada
C) pastga, Toshkentdan, o'rtada D) quyi, chetda, oldinga
15. Halitdan vahimaga tushma-ey! Shu gapda tagiga chizilgan so'z qaysi turkumga oid?
A) sifat B) payt ravishdoshi C) modal so'z D) payt ravishi.
16. Ravish berilmagan qatorni toping.
A) so'zma-so'z, B) o'z-o'zidan
C) quruqdan-quruq, D) barchasi ravish hisoblanadi
17. Qaysi qatordagi gapda qo'shma ravish mavjud?
A) Saida yolg'ondan hayron bo'lib qoldi. B) Ko'chada tasodifan Kamolani uchratib qoldim. C) Avaz har gal tog'dan mamnun bo'lib qaytar edi. D) Elmurod akaga mug'ombirona ko'z tashladi.
18. Ravish o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar berilgan qatorni toping.
A) nega, qani B) men, sen C) siz, ular D) qancha, nega
19. Qaysi gapda qo'shma ravish mavjud?
A) Majlis kechroq boshlandi. B) O'quvchilar sayohatga ertaga ertalab ketadilar. C) Har erni qilma orzu, har erda bor tosh-u tarozu. D) Biz do'stona yashaymiz va ishlaymiz.
20. Belgining belgisini bildirgan ravishni toping.
A) Mashina tezroq yura boshladi. B) Oqshom paytida shamol birdan to'xtadi. C) Ra'no majlisda yaxshi gapirdi. D) Uning so'zlari bolalarcha sodda, samimiy, lekin aniq va ravshan.
21. Dam o'tmay o'quvchilarni nom-banom chaqirishib, xonalarga taklif qilishdi. Gapdagi ravishga oid so'zni toping.
A) dam o'tmay B) nom-banom
C) xonalarga D) dam o'tmay, nom-banom

22. Suhbat haqida Aziza keyin uzundan-uzoq so‘zlab berdi. Shu gapdagi ravishga oid so‘zni toping.
A) so‘zlab B) keyin C) uzundan-uzoq D) B, C
23. Intizomsiz kishi hech qaerda muvaffaqiyatga erishmaydi. Ushbu gapda ravishning qaysi turi mavjud?
A) payt ravishi B) o‘rin ravishi
C) daraja-miqdor ravishi D) holat ravishi
24. Yaqindan musiqa ovozi eshitildi. Ushbu gapdagi ravishni toping.
A) musiqa B) ovozi C) yaqindan D) eshitildi
25. Qaysi qatordagi gapda -i, -si qo‘shimchalari egalik ma‘nosini ifodalamaydi?
A) Ona tuni bilan uxlamadi. B) Kechasi yomg‘ir yog‘di.
C) Berilgan gaplarda egalik qo‘shimchalari ifodalanmagan.
D) O‘tgan yili hosil yaxshi bo‘lgan edi.
26. Qaysi turkum so‘zlari ish-harakat va holatning belgisini anglatadi?
A) sifatlar B) ravishdoshlar C) B, D D) ravishlar
27. Yigitning ko‘ngli bir oz tinchidi va aybdorlarcha tabassum bilan qizga qaradi. (O) Ushbu gapdagi otga bog‘langan ravishni toping.
A) bir oz B) aybdorlarcha C) oz D) A, B
28. Faqat ravishlar berilgan qatorni aniqlang.
A) tiklab, pag‘alab, mo‘ylab B) qarab, aqrab, mansab
C) yonlab, egatlab, dastlab D) haftalab, kilolab, saharlab
29. Ravishni toping.
A) Pak-pakana bo‘yi bor, etti qavat to‘ni bor.
B) G‘ulomjonning oppoq yuzi issiqdan qizargan edi.
C) Mana, begim, falokat! Bo‘ron boshlandi, - dedi yamshik.
D) Vodiylarni yayov kezganda...
30. Quyidagi gaplarning qaysi birida ichida so‘zi ravish sifatida qo‘llangan?
A) Zaynab uch-to‘rt oyning ichida kishi tanimaydigan holga tushgan edi. B) Hakimboyvachcha diqqat bilan ichida o‘qir ekan, yuziga tabassum yoyildi. C) Pastqam uylarning qamish va yog‘och bo‘g‘otlari tuman ichida bahaybat ko‘rinardi. D) Har uchala gapda ham ravish sifatida qo‘llangan.
31. Biz mustaqilligimiz belgilab bergan yo‘ldan olg‘a boraveramiz. Bu gapda olg‘a so‘zi qaysi so‘z turkumiga mansub?
A) modal so‘z B) olg‘a boraveramiz birgalikda qo‘shma fe‘l C) undov so‘z D) o‘rin ravishi.
32. Yakka holda ishlatilsa ravish turkumiga oid bo‘ladigan bog‘lovchi berilgan javobni toping.
A) yoki B) ba‘zan C) chunki D) B, C
33. Tog‘adan, yangalardan yashirincha u bilan bir-ikki marta kinoga tushdi (O) gapidagi ravishga oid so‘zni toping.
A) bir-ikki marta B) yashirincha C) kinoga D) A, B
34. Fe‘llarning o‘zaro juftlashishidan qaysi so‘z turkumiga oid so‘zlar yasalishi mumkin?
A) ot turkumiga oid B) sifat turkumiga oid C) ravish turkumiga oid D) ot, ravish, sifat turkumiga oid so‘zlar
35. Kumush uyalgannamo yuzini chetga burdi. Ushbu gapdagi ravishga tegishli so‘zlarni toping.
A) chetga B) uyalgannamo C) yuzini D) A, B
36. Bir necha qiz o‘z-o‘zidan raqsga tushib ketdi. Ushbu gapdagi yasama ravishni toping.
A) bir necha B) o‘z-o‘zidan C) tushib ketdi D) A, B

YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARI

Yordamchi so‘z turkumlari mustaqil so‘z turkumlaridan farqlanadi. Ular lug‘aviy ma‘noga ega emas, morfologik jihatdan o‘zgarmaydi, gapda sintaktik vazifa bajarmaydi, yasalish xususiyatiga ega emas.

Mustaqil lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lmay, gap bo‘laklari va gaplarni o‘zaro bog‘lash, xilma-xil munosabatlarni ko‘rsatish yoki ularga qandaydir qo‘shimcha

ma'no qo'shishga xizmat qiladigan so'z turkumlari yordamchi so'z turkumlari deyiladi. Yordamchi so'z turkumlariga bog'lovchi, ko'makchi va yuklama kiradi.

1-§. Ko'makchi haqida ma'lumot

Ot, va otlashgan so'zlardan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelanish yo'li bilan bog'laydigan yordamchi so'zlar **ko'makchi** deyiladi: *O'z qo'li bilan to'g'riladi.* Ko'makchi qaysi so'zdan keyin kelsa, o'sha so'z bilan birgalikda bir so'roqqa javob bo'lib, bir xil gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

Ko'makchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sof ko'makchilar lug'aviy ma'nolarini butunlay yo'qotib, vazifa jihatidan kelishik qo'shimchalariga yaqin turadigan so'zlardir: *bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yanglig'.* Bunday ko'makchilar urg'u olmaydi, urg'u ko'makchidan oldingi so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi (22; 61).

2. Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlar (vazifadosh ko'makchilar (22; 63) gapda o'rni bilan mustaqil so'z, o'rni bilan ko'makchi bo'lib keladi. Bular quyidagi turkumlardan ko'makchilarga ko'chadi:

1) ot turkumidan: *tomon, tashqari, bo'yi, chamasi, holda, yo'sinda;*

2) sifatdan: *sababli, tufayli, qarshi, chog'li, doir, muvofiq, o'zga, boshqa;* **3)**

fe'ldan: *qarab, qaraganda, ko'ra, tortib, degan, deydigan, osha, bo'ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata;*

4) ravishdan: *avval, so'ng, keyin, burun, ilgari, beri, beri, buyon, asosan, binoan.*

3. Ko'makchi-bohlovchilar bog'lovchi vazifasini ham bajaradigan ko'makchilar: *bilan, deb, deya.* Masalan: *daftar bilan qalam; Umrin shirin o'tsin deb(deya), u ko'p mehnat qildi.*

4. Ko'makchi otlar o'z lug'aviy ma'nolarini saqlagan holda ko'makchi o'rnida kelib, harakat bilan predmet o'rtasidagi turli munosabatlarni ifodalaydigan so'zlardir. Bu so'zlar o'rin-payt, chiqish kelishigi va egalik qo'shimchalarini qabul qiladi: *old, o'rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o'rin, qosh, yoqa, tomon.* Bu so'zlar belgisiz qaratqich kelishigidagi so'zdan keyin kelgandagina ko'makchi ot hisoblanadi: *ish ustida, siqig'i ostida.* Aks holda, ular o'rin otlari hisoblanadi: *stolning ustida (stolning qayerida?), uyning oldida.* Ko'makchi otlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: **1) vertikal** yo'nalishni bildiruvchi: *ost, ust, tag.*

2) gorizontal yo'nalishni bildiruvchi: *old, orqa, yon, ich, tomon;*

3) aralash yo'nalishni bildiruvchi: *o'rta, ora, bosh.*

1. Ko'makchilarning qo'llanishi va ma'nolari

1) bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

Bilan (qisqa shakllari: **-la, ila**) ko'makchisi birgalik, vosita, tez bosg'lanish, payt, ish-harakat ob'ekti, holat, maqsad ma'nolarini bildiradi: *Ukasi bilan keldi. Qalam bilan yozdi. Eshik ochilishi bilan kirishdi. Tuni bilan uxlamadi. Baxtiyorlik bilan jilmaydi.*

Uchun (qisqa shakli: *-chun*) ko'makchisi maqsad, sabab, atash, evaz ma'nolarini ifodalaydi: *Bolalar uchun qurildi. O'qimagani uchun bilmadi. Sen uchun oldim. Yordamingiz uchun rahmat.*

D i q q a t ! *-la, -chun* shakllari o'zi bog'lanib kelgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *qo'llarim-la, Vatan-chun.*

Uchun, bilan, kabi, singari ko'makchilari qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ham qo'llanishi mumkin: *shuning uchun, buning kabi, shuning singari.*

2. Ko'makchilar va kelishiklar

Ko'makchilar vazifasi jihatidan kelishiklarga o'xshaydi. Ayrim hollarda ko'makchi kelishik qo'shimchasi o'rnida yoki kelishik qo'shimchasi ko'makchi o'rnida almashib kelishi mumkin. Ko'makchilar tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari o'rnida almashib kelishi mumkin: *Radio orqali eshitdik - Radiodan eshitdik. Ukam uchun oldim - Ukamga oldim. Qalam bilan yozdi - Qalamda yozdi. Borgani haqida gapirib berdi - Borganini gapirib berdi.* Biroq hamma vaqt ham ko'makchi o'rnida kelishik qo'shimchasi ishlatilavermaydi: *Do'stiga yordamlashdi* gapida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'rnida ko'makchini qo'llab bo'lmaydi.

2-§. Bog'lovchi

Gap bo'laklarini yoki qo'shma gapning qismlarini bog'laydigan yordamchi so'zlar bog'lovchi deyiladi. Bog'lovchilar gap bo'laklari va ayrim sodda gaplarni o'zaro qanday munosabatda ekanliklarini ko'rsatadi. Farzand olgan tarbiyasiga qarab ota-onasiga rohat yoki jazo keltiradi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur») Kumush ichkariga kirib ko'zdan g' oyib bo'ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa erga mixlangandek qotib turdi. (A.Qod.)

Bog'lovchilar qo'llanishiga ko'ra ikki turli bo'ladi: 1. YAKka bog'lovchilar. 2. Takroriy bog'lovchilar.

YAKka bog'lovchilar uyushgan bo'laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo'llanadi. Bular va, hamda, lekin, biroq, -ki (-kim), chunki, agar, gar, balki, go'yo, basharti, garchi, go'yoki, holbuki, vaholanki.

Xazon qilmas Zaynabni zamon Va otashda o'rtanmas Omon (H.O.) Bu gullarni Azizxon, go'yo ona o'z farzandini ardoqlagan kabi ardoqlardi. (S. Jamol). Ahli majlis Otabekni ko'klarga ko'tarib maqtar edi, lekin Homid bu maqtashlarga ishtirok etmas va nimadandir g'ijingandek ko'rinar edi. (A.Qod.)

Takroriy bog'lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o'rinda gap bo'laklari, shuningdek qo'shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi. Bular dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, yo..., yo, yoki..., yoki, ham..., ham, ba'zan..., ba'zan, bir...,bir. Masalan, *U goh dashtdagi otlarning kishnashiga, goh yaqin chodirdagi go'zal kanilarning mayin kulgulariga quloq solib yotarkan, olam beg'ubor bo'lib tuyular edi. (O.YO.) YO bir maslahatni aytib bo'ladi, yo ro'zg' or ishni. (CHo'lpon). Dam bobomga, dam uning o'rtog'iga*

tikilaman. (O.) Dadasi... erkatoiy o'g'lining bu arzini eshitib, bir hayratga tushdi, bir quvondi. (O.YO.)

Takroriy bog'lovchilardan yo,yoki yakka holda ham qo'llanishi mumkin, ham, ba'zan, bir so'zlari esa yakka holda qo'llansa bog'lovchi bo'la olmaydi. Navoiy Xuroson va Movarounnahrda yashamoqda bo'lgan yoki dunyodan ko'z yumgan yuzlarga shoirlarni xotirga oldi. (O.) Bu erda qovun tekin. Uzib beraymi yo o'zingiz uzasizmi? (S.Ahmad).

Bog'lovchilar gapdagi vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1) teng bog'lovchilar; 2) ergashtiruvchi bog'lovchilar.

1. Teng bog'lovchilar

Teng bog'lovchilar grammatik jihatdan teng huquqli gap bo'laklarini va gaplarni o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Masalan, *Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir. (Stefan TSveyg). Agar so'zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar. (H.O.)*

Teng bog'lovchilar biriktiruv, zidlov va ayiruv bog'lovchilariga bo'linadi.

1) biriktiruv bog'lovchilar guruhiga *va, hamda, bilan, ham* kabi so'zlar kiradi. Bu bog'lovchilar gapning uyushiq bo'laklarini, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'laydi. Biriktiruv bog'lovchisi *va* eng ko'p qo'llanadigan bog'lovchidir. Bu bog'lovchi:

1) gapning uyushiq bo'laklarini bog'laydi: Aqlli odam olimlar, fozillar va tadbirli xunarmandlarning suhbatlarida bo'ladi, ulardan bahra oladi («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»);

2) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashga xizmat qiladi va turli ma'no munosabatlarini ifodalaydi. Masalan: Hamid Rahmat bilan birga Otabekni Ziyo akanikiga taklif qilgali kelgani edi va biz ularni osh-suv qilib jo'natgan edik. (A.Qod.)

Ham, hamda bog'lovchilari ham gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun qo'llanadi. Sultonmurod ham do'st Zayniddin cheksiz quvondilar. (O.) Kun sovidi hamda erlar muzladi.

Ham so'zi bog'lovchi bo'lib emas, balki gap ma'nosini yoki ayrim gap bo'laklarini ta'kidlash, kuchaytirish uchun ko'p ishlatiladi. Quyosh ham oltin to'rlarini to'kib, mag'rur ko'tariladi (O.)

Biriktiruvchi bog'lovchilari bilan ko'makchisi, -da, -u(-yu) yuklamalari ham qo'llanadi.

Bobom asta ko'zlarini yumadi-da, allaqanday uzoq bir xayolga ketadi. (O.) Onayu bola – gulu lola. (Maqol). SHudgorda Jannatxola bilan Zebixon qoldi. (S.A.)

1) zidlov bog'lovchilari guruhiga *biroq, ammo, lekin, balki, holbuki* kabi so'zlar kiradi. Bu bog'lovchilar mazmunan bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan bo'laklarni yoki gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi.

Biroq, ammo, lekin bog'lovchilari gap bo'laklarini bog'lab kelganda zidlik ma'nosini, shu bilan birga, gap mazmunini to'ldirish, izohlash, qiyoslash uchun ham xizmat qiladi. Qo'shma gap qismlari tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashda

esa keyingi qism avvalgi qismda aytilgan fikrga qarama-qarshi, zid faktlar ifodalanadi. SHuning uchun bu faktlar, voqea-hodisalardan faqat bittasining bo'layotganini, ikkinchisi inkor etilganigi ma'nosi anglashiladi. Masalan, *Mahallada bolalar ko'p, lekin bir-biriga o'xshamaydi. (O.) Har narsaning yangisi, ammo do'stning eskisi yaxshi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).* O'xshash mevalarni saralaydi, xidlaydi, biroq egisi kelmaydi. (O.)

Zidlov bog'lovchilari gap boshida kelib, avval aytilgan fikrga zid bo'lgan yangi fikrli gapni oldingi gapga bog'laydi:

Mazmunan bir-biriga qarama-qarshi gap bo'laklari va gaplarni bog'lashda – da, -u (-yu) yuklamalari ham qo'llanadi. *Sobir kichkina-yu, pishiqqina (O.)*

2) ayiruv bog'lovchilar guruhiga *yo, yoki, yo..., yo, yoxud, dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, ba'zan..., ba'zan, bir-bir* kabi so'zlar kiradi.

Bu bog'lovchilar narsa, voqea-hodisalarni boshqarishdan ajratish yoki ularning galma-gal bo'lishini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Bulardan *yo, yoki, yo..., yo, xoh..., xoh* bog'lovchilari uyushgan bo'laklarning birini ikkinchisidan, biror voqea, hodisa yoki ish-harakatni boshqasidan ayirib ko'rsatish uchun ishlatiladi: *Poshshaxon Umrinisabibining qizini yo ko'rmadi, yo ko'rsa ham nazarga ilmadi. (CHo'lpon).* «YO podshoh biron erga chiqadi yoki elchi kelishi kutiladi», - dedi Zayniddin. (O.) *Xoh ishonning, xoh ishonmang, birinchi kuniyoq to'qqiz tonna paxta teribman. (S. A.)*

Ba'zan..., ba'zan, dam..., dam, goh..., goh bog'lovchilari esa galma-gallikni, navbat bilan almashinib, takrorlanib turishni ifodalaydi. *Dam tekisliklar bo'ylab balandga, dam pastga tushib boramiz. (O.) Nimqorong'i shiftga tikilib yotganча xayol suraman: goh katta shaharlarga borib qolaman, goh daryolarda suzaman. (O'.Hoshimov) Hasanali eshitmadimi yoxud eshitsa ham eshitmaganga soldimi, har nechuk javob bermadi (A. Qod.)*

2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar

Ergashtiruvchi bog'lovchilar qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga tobelanish yo'li bilan bog'laydi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar grammatik aloqalarni ifodalash va ma'nolariga qarab: 1) aniqlov bog'lovchisi; 2) sabab bog'lovchilari; 3) chog'ishtiruv bog'lovchilari; 4) maqsad bog'lovchisi; 5) shart va to'liqsizlik bog'lovchilariga bo'linadi.

1) aniqlov bog'lovchilariga *ya'ni, -ki (-kim)* so'zlari mansub bo'lib, ular ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun qo'llanadi. Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi. *Mirzo Ulug' bek joyiga o'tirmagan ham ediki, saroybon kirib, ikkinchi nomani tutdi. (O.Y.)*

2) sabab bog'lovchilariga *chunki, shuning uchun, negaki, zeroki, nainki* kabi so'zlar kiradi. Bu bog'lovchilar ergash gapni bosh gapga bog'lab, sabab, payt

ma'nolarini ifodalaydi. *Chorasi bo'lmagan ishga kirishma, chunki undan qutilib bo'lmaydi. (Amir Temur o'g'itlari) Ko'chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. (A.Qod.) U ikki, balki uch yildan buyon o'z to'yini kutar edi. (O.)*

3) chog'ishtiruv bog'lovchilari: *go'yo, go'yoki.* Bu bog'lovchilar bosh gapda ifodalangan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslab ko'rsatadi. *Sen menga baxsh etding ko'rkam bir yoshlik, go'yo qalbimda ulg'aydi quyoshday viqor. (J.Jabborov). Nihoyat chollar jim bo'lishadi, go'yo yoshliklarini sog'inganday boshlarini quyi solishadi (O.)*

4) maqsad bog'lovchisi *toki* qo'shma gap tarkibidagi maqsad ma'nosini ifodalagan ergash gapni bosh gap bilan bog'laydi. *Yomonlarning jazosini berish kerak, toki ular yaxshilarning boshiga yomon kunlarni solmasinlar. (H.G' .)*

5) shart va to'liqsizlik bog'lovchilari: *agar (gar), modomiki, basharti, garchi, garchand, mabodo.*

Bu bog'lovchilar shart va to'liqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo'lgan munosabatdagi shartni, shu bilan birga to'liqsizlik ma'nolarini anglatadi: *Agar kishining hayoti biror maqsad, biror g'oya uchun kurash bilan o'tsa, bunday hayotga hech afsus qilmaslik kerak. (M.Ibr.) Bu oqshom, garchi tevarak tinch bo'lsa ham, kechagidan ko'ra qo'rqinchliroq, ezuvchanroq tuyular edi. (O.)*

Bog'lovchi vazifasini bajaruvchi so'zlar

Boshqa so'z turkumiga oid ba'zi so'zlar ham bog'lovchi o'rnida qo'llanadi: *bilan, deb, degan, bordi-yu, u(-yu), -da.*

Masalan: *Umrin shirin o'tsin deb, tilni tiydim hamisha. Ayvonda Hurmatbibi bilan onam choy ichib, gaplashib o'tirishibdi (O.)*

2 -§. Yuklama

Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no berish uchun qo'llanadigan yordamchi so'zlar yuklamalar deb ataladi. Masalan: *Haqiqiy kasbu kamol faqat ilm bilan hosil bo'ladi. (M.Hasaniy). Quyosh ham atayin nurlarini to'kib, mag' rur ko'tarildi. (O.)*

YUklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil: a) qo'shimcha holatdagi yuklamalar: -mi, -chi, -a, -ya, -oq (-yoq), -da, -u (-yu), -gina (-kina, -qina), -ku; b) so'z holatidagi yuklamalar: axir, faqat, xudi, nahotki, ham, naq, xolos. To'ydan faqat Anor xabardor (H.O.) Eshik «g'irch etib ochildi-da, ruxsat so'rab ukasi Darvishali kirdi. (O.) Bir vaqi G'iyosiddin Kichkina, xudi shu erda, daricha ostida o'tirib, uni erkalatmasmidi.

1. Yuklamalarning turlari

Hozirgi o'zbek adabiy tilida gapga yoki ayrim so'zlarga beradigan qo'shimcha ma'nolariga ko'ra yuklamalarni quyidagicha turlarga bo'lish mumkin.

1. So'roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya.

-mi yuklamasi so‘roq, taajjub, hayrat kabi ma’nolari bildiradi. Masalan: - Kelinning suluvligi Marg‘ilonda ma’lum ekanmi? (A.Qodiriy) Men dalada ishlashish kerakmishmi? (O.)

-chi yuklamasi so‘roq, kuchaytiruv, harakatga undash, buyruq, iltimos, ta’kid ma’nolarini bildiradi. Masalan, - Sizga-chi, Anvar (A.Qodiriy) - O‘g‘ling qaytsin-chi, bo‘lmasa... (A.Qod.) - Loqaqal bir og‘iz o‘g‘lingizga aytib o‘tishga va‘da bering-chi, -dedi (A.Qod.) - O‘rtoqjon, bir narsa desang-chi. (CHo‘lpon).

-a (-ya) yuklamalari so‘roq, taajjub, hayratlanish ma’nolarini bildiradi. Masalan, Bu gap oramizda qolsin-a! (T.Malik) Gulnorni sevishimni bilardi-ya (O.) - Qizim, bugun mehmonlaringni Sul-tonxonlarnikiga olib chiqasan-a? – deb qolmasinmi! (A.Qod.)

2. Kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari: -ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim), ham, hatto, hattoki, axir, nahot (nahotki).

-ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim) yuklamalari ma’noni kuchaytirish, to‘liqsizlik, tezlik va davomiylik ma’nolarini ifodalash uchun qo‘llanadi. Masalan, SHundan keyin men uzoq safarga ketdim-u, Masturaning taqdiridan bexabar bo‘ldim (A.Q.) - O‘z qizingiz-ku, tengini topib bering-da! (CHo‘lpon) Mirzo Ulug‘bek maktubni o‘qib tugatmasdanoq o‘rnidan turib ketdi. (O.YO.) Ko‘plar yomg‘irdan qochib ulgirmasdayoq, oftob charaqlab ketdi. (S.A.)

Ham, axir, hatto, hattoki, nahot (nahotki) so‘z yuklamalari fikrni ta’kidlash, avvalgi voqeani eslatish kabi ma’nolarni ifodalaydi. Masalan, Tursunboy hamma narsadan kechganda ham birgina shu Zebidan kechmas edi. (S.A.) Oyim o‘rta bo‘yli, oppoq, nozik tabiat ham ipakday muloyim, istarasi issiq xotin edi. (Zarifa Saidnosirova) Axir bu qal’ani olguncha ozmuncha talofat berildimi? (P.Q.) Sizni otasi o‘rnida ko‘rsak-u, nahotki sizdan beso‘roq ish tutsak (A.Q.) Uzoq cho‘zilgan bu suhbatda Miryoqubning qulog‘i bir marta g‘alati dingkaydi, hatto uning qopqora chiroyli ko‘zlarida allaqanday sehrli olovlar yondi. (CH.)

Bir qissakim, buning so‘ngida

Sevishganlar topishgusidir. (H.O.)

3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: faqat, faqatgina, -gina (-kina, -qina). Bu yuklamalar turli so‘z turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab ko‘rsatish va ma’no jihatdan ajratish uchun qo‘llanadi. Masalan, O‘zi haqida o‘ylamay, faqat xalqqa ilm berishga bel bog‘lagan olim kishi xudi shamga o‘xshaydi, sham o‘zini yondiradi, xalqqa ziyo bag‘ishlaydi. (M.Xasaniy) YOqimli do‘stgina suhbatlari olis yo‘lni yaqin qiladi. (M.Xasaniy) Dunyoda ko‘rib o‘taturgan barcha orzuimiz, havasimiz faqat sengagina qarab qolgan (A.Qod.)

Faqat yuklamasi o‘rnida yolg‘iz so‘zi qo‘llanishi ham mumkin. Miryoqubning topishi yolg‘iz mingboshi orqali bo‘lsa, unga «epaqa» nomini qo‘yish to‘g‘ri bo‘larmidi. (CHo‘lpon)

4. Aniqlov yuklamasi: xuddi, naq. Bu yuklamalar o‘zi mansub bo‘lgan so‘zning ma’nosini aniqlab ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Ilm o‘rganib, ilmiga amal qilmagan kishi naq er haydab, uni ekmagan kishiga o‘xshaydi. (M.Xasaniy) Hayosi yo‘q po‘sti shilib olingan yog‘ och va xuddi yog‘i tugagan chiroqqa o‘xshaydi. (M.Xasaniy)

5. Gumon yuklamasi: -dir barcha soʻz turkumlariga qoʻshilib kela oladi va oʻzi aloqador boʻlgan soʻzga gumon, noaniqlik maʼnosini qoʻshadi: - Sizga nimadir vaʼda bergandir-da? (Isfandiyor)

6. Inkor yuklamasi *na... na* uyushiq boʻlaklar va qoʻshma gap tarkibidagi ayrim gaplar oldidan kelib, ularning mazmunini inkor etadi, boʻlishsizga aylantiradi. Inkor shaklli gap boʻlaklari va gaplar oldida kelganda, boʻlishsizlik kuchaytiriladi, taʼkidlanadi. Bu buyruqqa na ona eʼtiroz qildi va na qiz (CHOʻlpon). Na qor, na yomgʻirdan darak bor. (O.)

2. Yuklamalarning yozilishi

1) *-mi, -oq(-yoq), -gina (-kina,-qina), -dir* yuklamalari oʻzidan oldingi soʻzga qoʻshib yoziladi: *Shu bugunoq ota-onasigagina emas, butun mahallaga yetib bormaydimi?*

2) *-chi,-ku,-u(-yu), -da, -a(-ya)* yuklamalaridan oldin chiziqcha qoʻyiladi: *Sen-chi? Keldi-ku!*

D i q q a t! Juft soʻzlar tarkibida bogʻlovchi vazifasida kelgan *-u(-yu)* yuklamasi kirilcha yozuvda soʻzga qoʻshilib yoziladi: *Gapu soʻz koʻpaydi. Yangi alifboda esa chiziqcha bilan ajratib yoziladi: Gap-u soʻz koʻpaydi.*

3) *faqat, ham, hatto, axir* kabi soʻz yuklamalar ayrim yoziladi: *Togʻlarda hatto yoz oylarida ham yomgʻir yogʻadi.*

Koʻmakchi tahlili	Bogʻlovchi tahlili	Yuklama tahlili
1. Turi aniqlanadi. 2. Qaysi kelishikdagi soʻzga bogʻlangan? 3. Grammatik maʼnosi. 4. Qaysi soʻzni qaysi soʻzga bogʻlayapti?	1. Qoʻllanish turi. 2. Maʼno hamda vazifasiga koʻra turi. 3. Nimani bogʻlagan?	1. Tuzilishiga koʻra turi. 2. Maʼnosiga koʻra turi

Takrorlash uchun savollar:

- Koʻmakchi taʼrifini ayting va misollar keltiring.
- Koʻmakchi qanday gap boʻlagi boʻlib keladi?
- Sof koʻmakchilar haqida gapiring.
- Koʻmakchi vazifasida qoʻllanuvchi soʻzlar haqida gapiring.
- Koʻmakchi otlar haqida gapiring.
- Bosh kelishikdagi soʻzlar bilan qoʻllanadigan koʻmakchilar va ularning maʼnolari haqida gapiring.
- Qaratqich kelishigidagi soʻzlar bilan qoʻllanadigan koʻmakchilar va ularning maʼnolari haqida gapiring.
- Joʻnalish kelishigidagi soʻzlar bilan qoʻllanadigan
- Koʻmakchi va kelishiklarning sinonimlik xususiyatlari haqida gapiring.
- Bojlovchining taʼrifini ayting.
- Bojlovchilar qoʻllanishiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
- Teng bojlovchilar taʼrifini ayting.
- Biriktiruvchi bojlovchilarning taʼrifini ayting.
- Zidlov bojlovchilar taʼrifini ayting.
- Ayiruv bojlovchilar taʼrifini ayting.
- Ergashtiruvchi bojlovchilarning taʼrifini ayting.
- Aniqlov bojlovchilari haqida soʻzlang.
- Sabab bojlovchilari haqida gapiring.

ko'makchilar va ularning ma'nolari haqida gapiring. 20. SHart va o'xshatish bo'jlovchilari haqida
9. CHiqish kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan gapiring.
ko'makchilar va ularning ma'nolari haqida gapiring

Yordamchi so'zlar guruhi bo'yicha test savollari:

1. Yordamchi so'zlarni aniqlang.

A) Inson go'zallik uchun intiladi, yorqin ufqlar sari oshiqadi. B) Zokir ota shubhasiz, tajribali paxtakor, qo'li gul odam.

C) Eh, bugun toqqa ketamiz! D) Xotin yaktakni olib yoniga qo'ydi, aftidan, hozir tikmoqchi emas edi.

2. Yordamchi so'zlarni toping.

A) Asablarning sog'lom bo'lishi uchun badantarbiya bilan shug'ullanish lozim. B) O, qanday chin baxtga to'lg'in bu onlar! C) Munofiqlik va soxtalik do'stlik uchun yotdir. D) A, C.

3. Aziz ham bu savolni kutmaganligi uchun hatto ancha vaqtga qadar javob berolmay qolgan edi. Ushbu gapda mustaqil lug'aviy ma'no anglatmaydigan nechta so'z bor?

A) 4 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 5 ta

4. Ko'makchilar qaysi kelishiklar qo'shimchalariga sinonim sifatida qo'llanishi mumkin?

A) qaratqich va jo'nalish B) jo'nalish va o'rin-payt

C) o'rin-payt va chiqish D) chiqish, jo'nalish va o'rin-payt

5. Maqsad ma'nosini anglatgan uchun ko'makchisi qatnashgan gapni aniqlang.

A) Anvar yuzidagi kulgini yashirish uchun chetga qaradi. B) Daftarni ukam uchun keltirdim. C) G'o'za erta ekilgani uchun hosil mo'l bo'ldi. D) Yig'ilish uchun imkon yaralmadi.

6. Ko'makchilar, asosan, quyidagi qaysi so'zlardan keyin kelmasligi mumkin?

A) ot, olmosh B) harakat nomi, sifatdosh C) ravishdosh, otlashmagan so'zlar D) A, B.

7. Vazifadosh ko'makchilar berilgan qatorni toping.

A) Avval o'yla, keyin so'yla. (Maqol) B) Siz bilan hamsuhbat bo'lmasdan avval boshqacha xayolda edim. (O.Y.) C) Usmon Nosir o'z ustida ko'p ishlardi. (O'.Rashid) D) B va C.

8. Sof ko'makchilarning xususiyatlari noto'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) Bunday ko'makchilar atash ma'nosini tamoman yo'qotgan bo'ladi. B) O'zi birikkan so'zni boshqa so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi. C) Bunday ko'makchilar urg'u olmaydi.

D) Ohang tomonidan o'zidan oldingi so'z bilan bir butunlikni tashkil etadi.

9. Fikr mavzusi ma'nosini ifodalaydigan ko'makchilar berilgan qatorni toping.

A) sari, bo'ylab B) tufayli, uchun

C) haqida, to'g'risida D) xususida, o'xshab.

10. Qaysi gapda sof ko'makchi ishtirok etmagan?

A) Toshbaqa uyasi tomon sudraldi. B) Vatan ham Ona kabi qadrlidir. C) Bu uchun hammamiz ancha gap eshitamiz.

D) Yangiliklarni xat bilan ma'lum qilib turamiz.

11. Qaysi gapdagi vazifadosh ko'makchini sof ko'makchi bilan almashtirish mumkin?

A) Gap futbol o'yini ustida ketardi. B) Qoziq ustida qor turmas. (Topishmoq) C) Orqadan chuqur soy oqardi. (SH.) D) A, B.

12. Vazifadosh ko'makchilar berilgan qatorni toping.

A) -la, -chun B) deya, deb, atab

C) haqida, to'g'risida D) qadar, uzra

13. Yozuvda qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi?

A) sabab B) aniqlov C) shartli D) A, B

14. Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar tarkibida o'zakdosh bog'lovchilar mavjud?

A) sabab B) shart C) aniqlov D) shartli

15. Qaysi bog'lovchilar teng bog'lovchilarga mansub emas?

A) zidlov bog'lovchilar B) ayiruv bog'lovchilar C) bog'lovchi-yuklamalar D) sabab bog'lovchilar

16. Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra...

A) teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi. B) biriktiruv, zidlov, ayiruv bog'lovchilariga bo'linadi. C) birik-tiruv, zidlov, ayiruv, ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi. D) takrorlanadigan va yakka holda qo'llanadigan bog'lovchilarga bo'linadi.

17. Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo... Ushbu misradagi bog'lovchini toping.

A) gar B) ro'yo C) shul D) bog'lovchi berilmagan

18. Bog'lovchilarning qaysi turi gaplarni ham, uyushiq bo'laklarni ham bog'lab kelishi mumkin?

A) faqat ergashtiruvchi bog'lovchilar B) faqat teng bog'lovchilar C) teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar D) gaplarni ham, uyushiq bo'laklarni ham bog'laydigan bog'lovchilar mavjud emas.

19. Biz sayohatga poezdda yoki avtobusda boramiz. Ushbu gapda ayiruv bog'lovchisi qanday bo'laklarni bog'lagan?

A) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni B) uyushiq bo'laklarni C) turli gap bo'laklarini D) bog'lovchi vazifasini bajarmagan

20. Dam yomg'ir yog'adi, dam havo ochiladi. Bu gap tarkibida bog'lovchining qaysi turi qo'llangan?

A) biriktiruv bog'lovchisi B) zidlov bog'lovchisi C) ayiruv bog'lovchisi D) ergashtiruvchi bog'lovchi

21. Ergashtiruvchi bog'lovchi qo'llangan qatorni toping.

A) Olim sharq xalqlarining madaniyati to'g'risida hurmat va iftixor bilan gapirdi. B) Hozir yo shamol bo'ladi, yo yomg'ir yog'adi. C) Qishloq obod bo'ldi, shuning uchun ko'nglim shod. D) Quyosh dam yalt etib bir ko'rinib qoladi, dam bulutlar ichiga bekinib oladi.

22. O'ktamxon, mening o'rtog'im, juda epchil ayol... kotletni u pishirsin-da, a o'zimizning taomlarni kabob va palovdan tortib, to halimgacha do'ndirib yuboradi. Mazkur gapdagi bog'lovchi vazifasidagi birlikni toping.

A) -da B) a C) va D) to

23. Ham so'zi qanday vaqtda bog'lovchi sanaladi?

A) hamma vaqt B) faqat teng bog'lovchilar o'rnida qo'llanganda C) uyushgan bo'laklarning oxirida takrorlanib kelganda D) faqat uyushgan bo'laklarning oldida kelgandagina bog'lovchi sanaladi

24. Qaysi gapdagi nuqtalar o'rniga ergashtiruvchi bog'lovchini qo'yish mumkin?

A) Osmonni quyuq bulut qopladi ... yomg'ir yog'a boshladi. B) Osmonni quyuq bulut qopladi, ... yomg'ir yog'madi. C) Ichkaridan ovoz eshitilar, ... so'zlari anglashilmas edi.

D) Ko'chatlar yaxshi parvarish qilindi,... ular tez o'sa boshladi.

25. O'xshatish-qiyoslash yuklamasi ishtirok etgan gapni toping.

A) Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda, Haykal ham qo'yingiz bamisli xayol... (A.O.) B) Faqat o'zimizga ayon sirimiz. (E.V.) C) U buni sezmaganday tuyuldi menga. D) A va C.

26. Gumon yuklamasi qaysi qo'shimcha bilan shakldosh?

A) -miz, -siz qatorida turuvchi 3-shaxs qo'shimchasi bilan B) -man, -san qatorida turuvchi 3-shaxs qo'shimchasi bilan

C) fe'llardagi orttirma nisbat qo'shimchasi bilan D) B va C.

27. Gumon yuklamasi qatnashgan gapni toping.

A) Urug'ingdir, aymog'ingdir, Biror og'zi maymog'ingdir... (Masaldan) B) U musobaqa g'olibidir. C) Suv hayot manbaidir. D) A, B, C.

28. Quyidagi yuklamalardan qaysilari so'zga qo'shib yoziladi? 1) -ku; 2) -u(-yu); 3) -da; 4) -oq(-voq); 5) -mi; 6) -a (-va); 7) -chi; 8) -gina.

A) 1,2,4,5,8 B) 2,3,5,6 C) 3,4,5,8 D) 4, 5,8

29. Quyida berilgan qaysi turkumga oid birliklarning ba'zilari o'zlari birikib kelgan so'zdan chiziqcha(defis) bilan ajratib yozilishi mumkin?

A) bog'lovchilar B) ko'makchilar C) yuklamalar D) A, C

30. Sizni otasi o'rnida ko'rsag-u, nahotki sizdan beso'roq ish tutsak-a...(A.Q) Ushbu gapdagi yuklamalar miqdorini aniqlang.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

31. Mustaqil so'z turkumlariga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlardan qaysi biri yuklamalarga ham xos?

1) lug'aviy ma'noga egalik; 2) grammatik shaklga egalik;

3) grammatik ma'noga egalik; 4) grammatik vazifaga egalik; 5) gap bo'lagi vazifasida kela olish.

A) 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 4 C) 2, 4 D) 3, 4

32. Bu ko'chada ham faqatgina imorat xolos-da, boshqa hech narsa yo'q-ku. Bu gapdagi yuklamalar sonini aniqlang.

A) 5 B) 4 C) 3 D) 6

33. Qaysi qatordagi so'zlarning ikkinchisi yordamchi so'z hisoblanadi?

A) uyga ketmoq, isib ketmoq B) uyning ichi, hafta ichi

C) hafta ichi, uyga ketmoq D) isib ketmoq, hafta ichi.

34. So'zlarga qo'shilib yoziladigan yuklamalar berilgan qatorni aniqlang.

A) -chi, -ku, -da B) -a, -yoq, -ya

C) -u, -yu, -da D) -mi, -oq, -gina.

35. O'shanda ham imorat xolos-da, boshqa hech narsa yo'q (A.Q). Ushbu gapdagi yuklamalar miqdorini aniqlang.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

36. Ota-onang qo'yg'an otlariga mag'rur bo'lmagil, bu ot yolg'iz tashqi ko'rinishgina, xolos. Ushbu gapda yuklama vazifasida qo'llangan so'zlarni toping.

A) -gina B) xolos C) yolg'iz D) -gina, xolos

ALOHIDA OLINGAN SO'ZLAR GURUHI

1-§. Modal so'zlar

So'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini bildiradigan so'zlar **modal so'zlar** deyiladi: *Ehtimol, bugun etib kelar.*

Modal so'zlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so'zlar:

1) fikrning rostligi tasdiqlanadi: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat (arx.);* 2) fikrning qat'iyligi ta'kidlanadi: *shubhasiz, shaksiz, so'zsiz* 3) ishonch: *albatta* 4) anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: *tabiiy, o'z-o'zidan,* 5) fikrning chinligi eslatiladi: *to'g'ri, xoytaxoy, muhaqqaq (arxaik), aslida, darvoqe, rostdan.*

2. Fikrning noaniqligini ifodalaydigan modal so'zlar:

1) fikrning taxminiyligini bildiradi: *shekilli, chamasi, chog'i;*

2) fikrning gumonli ekanligini bildiradi: *ehtimol, balki;*

3) fikrning tasmolli ekanini bildiradi: *aftidan;*

4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradigan: *har holda, har qalay.*

3. Fikrning tartibi: *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan.*

4. Fikrning dalillanishi: *masalan, jumladan.*

5. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat, xullas kalom.*

6. Achinish: *afsus, attang, esiz.*

7. Zaruriyat: *kerak, zarur, lozim*.

8. Quvonch: *xayriyat*.

9. Mavjudlik va mavjud emaslik: *bor, yo‘q*.

Bulardan tashqari: *binobarin, zero, holbuki, vaholanki* kabi modal so‘zlar ham mavjud.

Modal so‘zlarning ko‘pchiligi mustaqil so‘zlardan o‘sib chiqqandir.

1) ot turkumidan: *aftidan, haqiqatan, mazmuni, ehtimol, darhaqiqat*; 2) sifatdan: *yaxshi(ki), to‘g‘ri, so‘zsiz, shubhasiz, tabiiy*; 3) ravishdan: *albatta*; 4) fe‘ldan: *xoyna-xoy* (tojikcha *xohi-naxohi* so‘zidan); 4) bog‘lovchidan: *balki*; 5) so‘z birikmasidan: *har qalay, har holda*; 6) gapning modal so‘zga aylanishi: *holbuki* (*Hol buki*); 7) so‘z tushirish natijasida hosil bo‘lgan: *o‘z-o‘zidan* (*aniq* so‘zi tushib qoladi).

Modal so‘zlar **sof** va **vazifadosh** modal so‘zlarga bo‘linadi. *Haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, xullas, masalan, umuman, taxminan* so‘zlari sof modal so‘zlar hisoblansa, modal ma‘noda ham qo‘llanadigan *aftidan, chamasi, balki, ehtimol, shubhasiz* kabi so‘zlar vazifadosh modal so‘zlar hisoblanadi.

Modal so‘zlar gap tarkibidagi so‘zlardan vergul bilan ajratiladi va ko‘pincha **kirish so‘z** vazifasini bajarib keladi.

2-§. Undov so‘zlar haqida ma‘lumot

His-hayajon, tuyg‘uni, haydash-chaqirishni bildiradigan so‘zlar turkumi **undov** deyiladi: *eh, uh, o, e, uf, voy, ura, barakalla, ofarin, salom, xayr, xo‘sh, rahmat, balli, bay-bay, voy-bo‘y, a, ax, ohho, obbo, ey, ehhe, i, ie, o‘h, o‘hho‘, hm, him, be, tuf, hah, ho, hay-hay, eh, o‘, ha, iyi*. Bu so‘zlar mustaqil so‘zlarga ham yordamchi so‘zlarga ham kirmaydigan ayrim so‘z turkumidir.

Undovlar yakka holda, juft holda yoki takrorlanib qo‘llanishi mumkin: *oh, voy, oh-voh, dod-voy, bay-bay, hay-hay*.

Juft va takrorlangan undovlar chiziqcha bilan yoziladi.

Undovlar ma‘no jihatidan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. **His-hayajon** undovlari quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi:

1) shafqat, mehribonlik: *ie, o, voy, voy-ey, eh*; 2) sevinch, xursandchilik, zavqlanish: *ho, o‘h-ho‘, ehe*; 3) qoyil qolish, rohatlanish: *hay-hay* (takrorlansa), *oh-oh*; 4) mamnuniyat, faxrlanish, mag‘rurlanish, xayrihohlik: *e-ha, eh, ha-ya, o‘*; 5) undash, ogohlantirish, tasdiq: *ha*.

Undovlar yozuvda gap bo‘laklaridan vergul bilan ajratiladi. Agar undov kuchli bo‘lsa, his-hayajon bilan aytilsa, undov belgisi qo‘yiladi: *Eh! Havo naqadar sof va musaffo!*

Undovlarning asosiy qismi yasama emas, lekin mustaqil so‘zlardan undovlarga ko‘chgan so‘zlar ham mavjud: 1) olmoshdan : *qani*; 2) fe‘llardan: *kel, hormang, yo‘qol, bor-ey, yashang, kechirasiz: Kel, bir bahslashaylik!*

His-hayajon undovlari, odatda, gap bo‘lagi vazifasini bajarmaydi. Ular yo kirish so‘z, yoki so‘z-gap bo‘lib kelishi mumkin: *Ie, men kimni ko‘ryapman? - Dod! - ichkaridan dodlagan ovoq eshitildi.*

2. Buyruq-xitob undovlari ikki xil bo'ladi: 1) odamlarga qaratilgan undovlar: a) kishilarning diqqatini tortish uchun qo'llanadigan: *hoy, hay* (bir marta aytilsa), *hey, allo, ey*; b) ta'kid, buyurish uchun qo'llanadigan: *ma, tss, jim, marsh*; 2) hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar: a) hayvon va jonivorlarni chaqirish uchun qo'llanadigan: *kisht, bah-bah, mosh-mosh, tu-tu-tu, kuch-kuch, gah, chuh, beh-beh, qurey-qurey*; b) hayvon va parrandalarni biror harakatdan to'xtatish uchun qo'llanadigan: *ishsh, ho'k, tak*; v) hayvon va parrandalarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlatiladigan: *pisht, drr, xix, hov-hov, cho'k, tek, hayt, chu*.

3. Ko'rsatish, ta'kid undovlari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) ko'rsatish: *hu, huv, hovv*; 2) javob, tasdiq, ta'kid, mulohaza: *ha-ha-ha, xo'sh, labbay, ha*.

Bulardan tashqari, quyidagi undovlarni urf-odat undovlari (ayrim darsliklarda **nutqiy odat** undovlari deb ataladi: (25; 100.) tarzida ajratish mumkin: *rahmat, marhamat, salom, xayr, barakalla, ofarin, balli, yashang, hormang, qulluq* va b.

Undovlar odatda *deb* so'zi bilan qo'llanib, hol (*U "...voy".....deb yonboshiga yiqildi*), *degan* so'zi bilan qo'llanib, gapda ko'pincha sifatlovchi-aniiqlovchi (*Ko'chada "dod" degan ovoz eshitildi*) bo'lib keladi. Undovlar otlashishi mumkin, bunda ular ega (*Ularning dod-voyi osmoni falakka chiqdi.*), kesim (*Endi uning holiga voy*) to'ldiruvchi (*Uning oh-vohiga kim quloq soladi?*), qaratqich-aniiqlovchi (*Dod-voyning foydasi yo'q.*) vazifalarini bajaradi.

3-§. Taqlid so'zlar

Tovushga va holatga taqlidni bildirgan so'zlar **taqlid so'zlar** deyiladi. Bunday so'zlar ma'no jihatidan ikki turga bo'linadi:

1. Tovushga taqlid bildiradigan so'zlar: *gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, shiq-shiq, qiy-chuv, taq-tuq, g'arch-g'urch, inga-inga, pix-pix, qult-qult, bidir-bidir, vov, uv, irr, mo'o', maa, baa, mee, ing-ing, ang-ang, miyov, vaq-vaq, vish-vish, qu-qu, qa-qa, g'a-g'a, qag'-qag', pit-pildiq, parr, viz-viz*.

2. Holatga taqlid bildirgan so'zlar: *yalt-yult, apil-tapil, g'uj-g'uj, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, hang-mang, jilpang-jilpang, alang-jalang, mo'lt-mo'lt, lop, likang-likang, qilpang-qilpang, salang-salang, g'ivir-g'ivir, dik-dik, lik-lik, hilp-hilp, duv-duv, pir-pir, lang, dang, hil-hil* kabi.

Taqlid so'zlar yakka holda, juft holda va takrorlangan holda qo'llanadi. Juft va takrorlangan taqlid so'zlar orasiga chiziqcha qo'yiladi.

Taqlid so'zlar mustaqil so'zlar kabi gap bo'lagi bo'la oladi: *SHamol g'ir-g'ir* (hol) *esmoqda*.

Tovushga taqlid so'zlar ba'zan otlashib, ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi va **ega, qaratqich aniiqlovchi** hamda **to'ldiruvchi** vazifalarini bajaradi: *Odamlarning g'ovur-g'ovuri bosildi. YUragining duk-dukini eshitdi. CHug'ur-chug'urning to'xtashi amri mahol*.

Modal so'zlar tahlili	Undov, taqlid so'zlar tahlili
1. Ma'no turi.	1. Ma'no turi.

2. Qaysi turkumdan kelib chiqqan?	2. Tuzilish turi.
3. Gapda bajargan vazifasi	3. Otlashgan-otlashmaganligi.
	4. Gapda bajargan vazifasi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Modal so'zlarning ta'rifini ayting.
2. Modal so'zlarning ma'no jihatidan turlarini ayting.
3. Ma'lum bir guruhga kirmagan modal so'zlarni sanab ko'rsating.
4. Mustaqil so'zlardan o'sib chiqqan modal so'zlar haqida gapiring.
5. Modal so'zlar kelib chiqishiga ko'ra yana qanday bo'lishi mumkin?
6. Undov so'zlarning ta'rifini ayting.
7. Undov so'zlar qanday ko'rinishlarda qo'llanishi mumkin?
8. His-hayajon undovlari haqida gapiring.
9. Mustaqil so'zlardan his-hayajon undovlariga o'tgan so'zlarga misollar keltiring.
10. Haydash-chaqirish undovlari haqida gapiring.
11. Haydash-chaqirish undovlari qanday so'zlar bilan qo'llanadi?
12. Taqlid so'zlarning ta'rifini ayting.
13. Tovushga taqlid so'zlar haqida so'zlang.
14. Holatga taqlid so'zlar haqida so'zlang.
15. Taqlid so'zlar qanday ko'rinishlarda qo'llanadi?
16. Taqlid so'zlar mustaqil so'zlarga qaysi jihatlari bilan o'xshaydi?
17. Taqlid so'zlarning otlashishi haqida gapiring.
18. Eskirgan modal so'zlarga misollar keltiring.
19. "O'z-o'zidan" modal so'zi qaysi mustaqil so'z turkumlariga omonim bo'la oladi?
20. Ham tovushga, ham holatga taqlid bildiradigan so'zlarga misollar keltiring.

Alohida olingan so'zlar guruhi bo'yicha test savollari:

1. Modal so'zlarning morfologik xususiyatlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?
A) kirish so'z vazifasida keladi B) modal ma'nolarni anglatish uchun xizmat qiladi C) morfologik jihatdan o'zgarmaydi D) A, B
2. Qaysi gapda modal so'z bor?
A) Balki, uning kimligini aftidan bilsa bo'lar. B) Obbo, yana ish pachava deng. C) Bu yil hamma fanlarni «a'lo» bilan yakunlashim shubhasiz. D) Ofarin, azamatlar, ishni do'ndiribsiz.
3. Qaysi gapda modal so'z bor? 1. So'zsiz, buni hamma biladi-ku! 2. Har bir ishning chamasi bo'ladi, har daryoning kemasi. 3. Yo'lchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan yaqin do'st edi. 4. Mayda-chuyda kamchiliklar topibdi, mazmuni. 5. Axir, xatning mazmuni shunday edi. 6. Tabiiy, Xushro'ning fe'lini yaxshi bilgan ota-onasi unga hech narsani aytmaydi. 7. Siz, balki, mening tilimga tushunarsiz. A) barcha gaplarda B) 1,2,3,6 C) 1,3,4,5,6 D) 1,3,4,6.
4. Qaysi gapdagi chamasi so'zi gap bo'laklaridan vergul bilan ajratilmaydi?
A) Ertaga havo ochiladi chamasi. B) Kechasi chamasi bir oz yomg'ir yog'di. C) Chamasi Nodir bu gapni eshitdi. D) Uning amasi to'g'ri chiqdi
5. Modal so'zlarning sintaktik belgisi qaysi qatorda berilgan?
A) morfologik jihatdan o'zgarmligi B) undalma vazifasida kelishi C) kirish so'z vazifasida kelishi D) so'zlarni o'zaro biriktirishi
6. Qaysi gapda modal so'z mavjud?
A) Ofarin, azamatlar, ishni do'ndiribsiz. B) Bu yil hamma fanlarni «a'lo» bilan yakunlashim shubhasiz. C) Obbo, yana ish pachava deng. D) gaplarda modal so'z qo'llanmagan.
7. Qaysi qatordagi so'z chamasi modal so'ziga sinonim bo'la oladi?
A) balki B) darvoqe C) tabiiy D) mazmuni
8. Qaysi gapda modal so'z bor? 1. So'zsiz, buni hamma biladi-ku! 2. Ofarin, azamatlar, ishni do'ndiribsizlar. 3. Yo'lchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan yaqin do'st edi. 4. Mayda-chuyda kamchiliklar topibdi, mazmuni. 5. Axir, xatning mazmuni shunday edi. 6. Tabiiy, Xushro'ning fe'lini yaxshi bilgan ota-onasi unga hech narsani aytmaydi. 7. Siz, balki, mening tilimga tushunarsiz. 8. Uning ishlari, aftidan, yaxshi emasga o'xshaydi.

A) 1, 3, 4, 6, 7, 8 B) 1, 3, 4, 5, 6 C) 1, 2, 3, 6, 8

D) berilgan barcha gaplarda

9. Quyidagi gaplardan qaysi birida modal soʻz qoʻllangan?

A) *Ona oʻz oʻgʻlini sevadi faqat. (H.O.)* B) *Yuragimni berib ketsang bas.(Uygʻun)* C) *Hattoki ish shu qadar jiddiy boʻldi.*

D) *Yolgʻiz sensan mening tilagim.*

10. Qaysi qatorda modal soʻz mavjud?

A) *Xayriyat, majlisga Oqilaning oʻzi kirib bormabdi.* B) *Obbo, yana ish pachava deng.* C) *Bu yil hamma fanlarni “a’lo” bilan yakunlashim shubhasiz.* D) *Ofarin, azamatlar, ishni doʻndiribsiz.*

11. Quyidagi sifatlardan qaysi biri modal soʻz vazifasida qoʻllanishi mumkin?

A) *toʻgʻri* B) *tabiiy* C) *yaxshi* D) *A, B, C*

12. Futuvvat barcha qilmakdur, demak yoʻq. Demak, maktabni bitirib, oʻqishga kirmoqchisan.

Har ikkala gapdagi demak soʻzidan qaysi biri modal soʻz hisoblanadi?

A) *har ikki gapda modal soʻz* B) *birinchi gapda ot, ikkinchisida modal soʻz* C) *birinchi gapda harakat nomi, ikkinchisida modal soʻz* D) *birinchi gapda ot, ikkinchisida kirish soʻz.*

13. Gap tarkibidagi tovushga taqlid bildirgan soʻzlarni toping.

A) *U kishi hingir-hingir kulardi.* B) *... oy tangalari suv betida milt-milt oqadi.* C) *Tun sukunatini ot tuyoqlarining dupuri buzdi.* D) *A va D.*

14. Otlashgan taqlid soʻz qaysi gap tarkibida qoʻllangan?

A) *Yomon ishning oxiri voy.* B) *Mayna uyda yolgʻiz oʻtirib, uy tomini chertayotgan yomgʻirning taqir-tuqurini tinglardi.*

C) *Suvning shildir-shildiri kuchaydi.* D) *B, C.*

15. Davradaqilar shivir-shivir gap boshlashdi. Gapdagi shivir-shivir soʻzi qaysi soʻz turkumiga mansub?

A) *ravish* B) *taqlid soʻz* C) *sifat* D) *modal soʻz*

16. Tovushga taqlidni bildiruvchi soʻz qaysi gap tarkibida qoʻllangan?

A) *Osmonda yulduzlar gʻuj-gʻuj.* B) *Bay-bay, zap choy boʻlibdi-da.* C) *Yalt-yult etib chaqmoq chaqdi.* D) *Koʻchadan mashinalar viz-viz oʻtadi.*

17. «Atrofdagi ovozlarga gala-gala chugʻurchuqlarning vijir-vijiri qoʻshilib ketmoqda» gapidagi taqlid soʻzning turini aniqlang.

A) *holatga taqlid* B) *tovushga taqlid*
C) *harakatga taqlid* D) *koʻrinishga taqlid*

18. Holatga taqlid soʻzlarni toping.

A) *lik-lik, qult, jiq, pix-pix* B) *yilt-yilt, jiq, dik*
C) *gurs-gurs, taq-tuq, lip* D) *tap-tap, gʻiz-gʻiz, hang-mang*

19. Taqlid soʻzlardan qaysi soʻz turkumlarini yasash mumkin?

A) *sifat, ravish* B) *faqat ot* C) *faqat feʼl* D) *ot va feʼl*

20. Har ikkala qismi ham mustaqil qoʻllanmaydigan juft taqlid soʻzlar berilgan qatorni toping.

A) *apil-tapil* B) *hang-mang* C) *taraq-turuq* D) *A va B*

21. Taqlid soʻzlar qanday holda qoʻllanishi mumkin?

A) *faqat yakka holda qoʻllanadi* B) *faqat juft holda qoʻllanadi*
C) *faqat takror holda qoʻllanadi* D) *yakka, juft yoki takror holda qoʻllanadi*

22. Gʻat etgan karnaychi, baloga qolgan surnaychi. Ushbu maqoldagi taqlid soʻzni toping.

A) *etgan* B) *baloga* C) *gʻat*
D) *gʻat etgan birgalikda qoʻshma feʼl*

23. Otlashgan taqlid soʻz ishtirok etgan gapni toping.

A) *Shivir-shivir gaplar toʻxtamadi.* B) *Olomon gʻuv-gʻuv qaynaydi.* C) *Yuragi gup-gup urib ketdi.* D) *Tokchaga in qurgan musichaning gʻuv-gʻuvi eshitildi.*

24. Quyosh damini gʻir-gʻir esgan shamol kesar edi. Mazkur gapdagi gʻir-gʻir soʻzi qanday turkumga mansub?

A) taqlid soʻz B) takror soʻz C) holatga taqlid soʻz

D) tovushga taqlid soʻz.

25. Tarkibida his-hayajon undovi boʻlgan gaplarni aniqlang.

A) Oʻgʻlim, umringizdan baraka toping! B) Hay, Oynisa, buvingni chaqir. C) Qumri, axir ukangga qarasang-chi, ichagi uzilib ketdi-ku! D) Voy, nega qulluq qilishar ekan?

26. Tarkibida haydash-chaqirish (buyruq-xitob) undovi boʻlgan gapni aniqlang.

A) Salom, ey yulduzlar, oshnolarim! B) «Chu» deb otini savaladi. C) Er kurrasida qadim-qadim zamonlardan yangragan musiqiy «Qur-ey!» bundan keyin ham tinmaydi.

D) B, C.

27. Ha, albatta, qatnashamiz! E, otangizga rahmat! Barakalla, doʻstim! Ushbu matndagi undov soʻzlarni toping.

A) ha, albatta, e B) rahmat, barakalla C) e D) e, barakalla, rahmat

28. «Oʻhhoʻ, namuncha katta ketdingiz!» gapidagi undov soʻz qanday maʼnoni anglatyapti?

A) faxrlanish B) magʻrurlanish C) mensimaslik D) eʼtiroz

29. Voy undovi qanday maʼno nozikliklarini bildiradi?

A) havas, zavq B) qoʻrquv, alam C) hayrat, ajablanish D) yuqoridagilarning barchasi.

30. Otlashgan undov soʻzlar qanday qoʻshimchalarni qabul qilmaydi?

A) soʻz yasovchi qoʻshimchalarni B) kelishik qoʻshimchalarini C) egalik qoʻshimchalarini D) koʻplik qoʻshimchalarini

31. - Hormanglar! - dedi Oʻlmas baralla. Ushbu gapdagi undov soʻzni toping.

A) baralla B) hormanglar C) A,B D) undov soʻz berilmagan.

32. Hayvon, parranda kabilarni kelish, ketish, toʻxtashga undashni bildiruvchi soʻzlar qaysi soʻz turkumiga oid?

A) taqlid soʻzlar B) modal soʻzlar C) undov soʻzlar D) feʼl

33. Qulluq, ming marta qulluq, Dilbarxon! Ushbu gapdagi undov soʻzlarni toping.

A) ming marta B) qulluq C) marta D) undov soʻz berilmagan

34. Otlashmagan undov soʻzlar qanday qoʻshimchalarni qabul qiladi?

A) soʻz yasovchi qoʻshimchalarni B) kelishik qoʻshimchalarni C) egalik qoʻshimchalarini D) koʻplik qoʻshimchalarini

35. Bay-bay, qir bagʻri shunday goʻzal boʻlibdiki! Mazkur gapdagi bay-bay soʻzi qanday soʻz hisoblanadi?

A) juft soʻz B) haydash-chaqirish undovi C) undov soʻz D) buyruq-xitob undovi

36. Qaysi gapda, odatda, gap boʻlagi vazifasida qoʻllanmaydigan soʻz berilgan?

A) Oʻng tomonda, jarlikning ustida, bir qoʻrgʻon koʻzga chalinardi. B) Har yili kuzda, xazonrezlik vaqtida, daraxtzorni aylanib yuraman. C) Eh, tabiat qanday goʻzal! D) Anhorni yoqalab hovuz boʻyidagi choyxonaga chiqdik.

SINTAKSIS

1-§. Sintaksis haqida umumiy maʼlumot

Sintaksis (grekcha – *syntaxis* – «tuzish» soʻzidan olingan) grammatikaning bir boʻlimi boʻlib, soʻzlarning birikish yoʻllari, soʻz birikmasi, gap, ularning turlari, xususiyatlarini tekshiradi.

Sintaksis, bir tomondan, soʻz va soʻz shakllarning, shuningdek, gaplarning aloqa qilish birikish yoʻllarini tekshirsa, ikkinchi tomondan, maʼlum bogʻlanish asosida yuzaga keladigan sintaksis birliklarni oʻrganadi.

Soʻz birikmasi, gap, gap boʻlaklari asosiy sintaktik birliklar, sintaktik grammatik kategoriyalar hisoblanadi.

2-§. Sintaktik aloqa turlari

Soʻzlarning, shuningdek, gaplarning orasidagi bogʻlanish, aloqa ikki xil boʻladi:

1) teng bogʻlanish, yoki teng aloqa; 2) tobe bogʻlanish, yoki tobe aloqa.

Teng bogʻlanish sintaktik jihatdan teng huquqli boʻlgan, biri ikkinchisiga boʻysunmagan soʻzlarning yoki gaplarning aloqasidir. Bunda teng aloqadagi soʻzlar yoki gaplar oʻzaro teng bogʻlovchilar, teng bogʻlovchi vazifasidagi yuklamalar, sanash ohangi (ohang) yordamida munosabatga kirishadi.

Masalan: 1. *Beminnat qilingan ezgulik eng maqbul va goʻzal ezgulikdir. (Oz-oz oʻrganib dono boʻlur).* 2. *Bilmaslik ayb emas, bilishni istamaslik aybdir. (Oz-oz oʻrganib dono boʻlur).*

Birinchi misolda *eng maqbul, goʻzal* sifatlari oʻzaro teng bogʻlanib, gapda uyushiq sifatlovchilar vazifasini bajargan. Ikkinchi misolda esa *Bilmaslik ayb emas* va *Bilishni istamaslik aybdir* gaplari bir-biri bilan teng aloqaga kirishgan.

Tobe bogʻlanishda biri hokim, ikkinchisi tobe boʻlgan qismlar (soʻzlar, ergash gapli qoʻshma gap qismlari) oʻzaro aloqaga kirishadi. Ularning biri ikkinchisini aniqlash, izohlash, toʻldirish uchun xizmat qiladi. Aniqlaydigan, izohlaydigan, toʻldiradigan qismi tobe, izohlanadigan qism hokim deb yuritiladi: 1. *Kitobni oʻqimoq, qiziqarli voqea.* 2. *Kimning himmati baland boʻlsa, qadr-qimmat ham boʻladi (Oz-oz oʻrganib dono boʻlur).* Birinchi misolda soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlardan biri hokim qism (*oʻqimoq, voqea*), ikkinchisi (*kitobni, qiziqarli*) tobe qism boʻlib kelgan. Ikkinchi misolda ergashgan qoʻshma gapning qismlaridan biri «*qadr-qimmat ham baland boʻladi*» hokim qism, bosh gap sifatida, ikkinchisi «*kimning himmati baland boʻlsa*» tobe qism, ergash gap sifatida qatnashgan. Shunday qilib, bogʻlanishning ikki xil turini soʻzlar orasida ham, gaplar orasida kuzatish mumkin. (Gaplar orasidagi bogʻlanish haqida «Qoʻshma gap» boʻlimida bahs yuritiladi).

Soʻzlar orasidagi tobe bogʻlanish ikki xil boʻladi:

1) predikativ tobe bogʻlanish; 2) nopredikativ tobe bogʻlanish.

Ega va kesimning bogʻlanishi **predikativ** tobe bogʻlanish hisoblanadi va bunday bogʻlanishdan gap hosil boʻladi. Tobe (ergash) bogʻlanishning qolgan koʻrinishlari (aniqlovchi+aniqlanmish, toʻldiruvchi+toʻldirilmish, hol+hollanmish) **nopredikativ** tobe bogʻlanish boʻlib, bunday bogʻlanishdan soʻz birikmasi yuzaga keladi. Soʻzlarning nopredikativ tobe bogʻlanishi uch xil boʻladi: 1) boshqaruv; 2) bitishuv; 3) moslashuv.

3-§. Boshqaruv

Tobe soʻzning hokim soʻz talab etgan shaklda kelishi **boshqaruv** deyiladi. Bunda boshqariluvchi soʻz bosh va qaratqich kelishigidan tashqari boshqa kelishik shaklini yoki koʻmakchini olib keladi. Qaysi kelishik yoki koʻmakchi bilan shakllanish boshqaruvchi soʻzning maʼnosi, semantikasi bilan belgilanadi. Masalan: *kitobni oʻqimoq, qariyalarga gʻamxoʻrlik qilmoq, universitetda oʻqimoq, ishdan qaytmoq, oʻquvchilar bilan suhbatlashmoq* va boshqalar.

Boshqaruv ikki xil boʻladi: **kelishikli** boshqaruv va **koʻmakchili** boshqaruv.

Kelishikli boshqaruvda boshqariluvchi soʻz maʼlum kelishik shaklida qoʻllanadi: *kattalarni hurmat qilmoq, toqqa chiqmoq* kabi.

Koʻmakchili boshqaruvda boshqariluvchi soʻz koʻmakchi orqali shakllanadi: *ukasi bilan kelmoq, telefon orqali gaplashmoq* kabi.

Boshqaruv usuli bilan bogʻlanish toʻldiruvchi-toʻldirilmish, hol-hollanmish munosabatlarini yuzaga keltiradi.

4-§. Bitishuv

Hokim va tobe soʻzlarning oʻzaro soʻz tartibi hamda ohang yordamida birikishiga **bitishuv** deyiladi. Bitishuv yoʻli bilan bogʻlanish sifatlovchi-sifatlanmish (*yangi libos*), izohlovchi-izohlanmish (*shoir Erkin Vohidov*), qisman hol-hollanmish (*toʻsatdan uchrab qolmoq*) munosabatidagi birikmalarga xos boʻlib, uning qismlari ifoda materialiga koʻra turlicha boʻladi:

- 1) sifat + ot: *ziyrak bola, yam-yashil dala*;
- 2) ot + ot: *temir darvoza, oltin kuz*;
- 3) son + ot: *besh kishi, oʻn tup koʻchat*;
- 4) olmosh + ot: *barcha xalqlar, shu yoʻl*;
- 5) sifatdosh + ot: *sinalgan odam, aytilgan soʻz*;
- 6) ravish + ot: *moʻl hosil, koʻp xususiyatlar*;
- 7) taqlid soʻz + ot: *gʻir-gʻir shabada, tars-turs ovozlari*;
- 8) ravish + feʼl: *tez yurmoq, erta kelmoq*;
- 9) ravishdosh + feʼl: *oʻylab gapirmoq, quvonib aytmoq*;
- 10) taqlid soʻz + feʼl: *duv-duv toʻkarmoq, chir-chir aylanmoq*.

5-§. Moslashuv (muvofiqlashuv)

Oʻzbek tilida qaratqich va qaralmishning aloqasi bogʻlanishning alohida turini tashkil qiladi. Bunda soʻzlardan birini hokim, birini tobe deb qarash qiyin, chunki qaralmishning talabi bilan qaratuvchi boʻlak qaratqich kelishigi shaklini oladi, oʻz navbatida, qaratuvchining talabiga koʻra qaralmish egalik affiksini qabul qiladi. Masalan: *bolalarning quvonchi, mening kitobim, sening daftaring, ularning vazifasi* kabi. Bunda munosabatdorlik (oʻzaro hokimlik, tobelik) kuzatiladi.

Aslida moslashuv deyilganda, tobe soʻz shaklining hokim soʻz shakliga mos kelishi nazarda tutiladi. Bu holat rus tiliga xos, negaki moslashuv yoʻli bilan tuzilgan qurilmalarda, jumladan, aniqlovchili birikmalarda tobe soʻz hokim soʻz bilan grammatik shaklda moslashib, hokim soʻz bildirgan xususiy grammatik maʼnolarga ega boʻladi. Masalan, *interesnaya kniga* birikmasida *kniga* hokim soʻz boʻlib, bosh kelishik, birlik, jenskiy rod (jins) kabi xususiy grammatik maʼnolar anglatgan; tobe soʻz (*interesnaya*) hokim soʻzning aynan shu shakliga moslashib, xuddi shunday grammatik maʼnolarni ifodalaydi.

O‘zbek tilida qaratqich va qaralmishning munosabati yuqorida qayd etilgan birikma qismlarining munosabatidan farq qiladi. Shuning uchun bunday bog‘lanishni moslashuv deb emas, **muvofiglashuv** deb izohlash lozim bo‘ladi.

Demak, o‘zbek tilida qaratqich va qaralmishning birikishi muvofiglashuv asosida voqe bo‘ladi.

6-§. So‘zlarning o‘zaro sintaktik munosabatga kirishuvi

Gapda so‘zlarning o‘zaro sintaktik munosabatga kirishuvi quyidagi vositalar orqali bo‘ladi:

1. Affikslar. O‘zbek tilida so‘zlarning o‘zaro sintaktik munosabatga kirishuvida turlovchi va tuslovchi affikslarning xizmati katta. Masalan: chor-atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to‘ladi (O‘.H.). Bu gapdagi so‘zlar o‘zaro kelishik affikslari (-ning, -ga), egalik affiksi (-i) va shaxs-son affiksi (-di) orqali sintaktik aloqaga kirishgan.

2. Yordamchi so‘zlar. Ko‘makchilar, bog‘lovchilar gapda so‘zlarning o‘zaro munosabatga kirishuviga xizmat qiladi. Masalan: *Xalqning ulug‘ vorligi uning soni bilan o‘lchanmaydi, yagona o‘lchov uning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligidir.* («Tafakkur gulshani»).

Bu gapda ot (*soni*) fe‘liga (*o‘lchanmaydi*) bilan ko‘makchisi orqali bog‘langan; *kamoloti, barkamolligi* so‘zlari teng aloqaga kirishib, uyushgan ot kesim vazifasini bajargani holda va bog‘lovchisi yordamida sintaktik munosabatga kirishgan.

Ba‘zi hollarda yuklamalar ham bog‘lovchi vazifasida kelib, so‘zlar orasidagi sintaktik munosabatni ko‘rsatib keladi: *Bugundan boshlab yotoq joylarda... yigitlardan bitta navbatchi qoldirildi-yu, boshqa hamma paxtaga chiqdi.* (P.Q.)

Bog‘lama ega va ot kesim munosabatini ifodalashga xizmat qiladigan yordamchidir: *Hayotda go‘zallik, quvvat va saodatning manbai soddalikdir.* («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»)

3. So‘z tartibi. Gap tarkibidagi so‘zlarda maxsus grammatik ko‘rsatkichlar bo‘lganda, ularning o‘rnini almashtirish sintaktik holatni o‘zgartirmaydi. Qiyoslaylik: *daraxtlarning tagida... nozikkina maysalar ko‘rinib qoladi.* (O‘.U.). – *Nozikkina maysalar daraxtlarning tagida ko‘rinib qoladi.*

So‘zlarda maxsus grammatik ko‘rsatkichlar bo‘lmaganda, ularning o‘rnini almashtirish sintaktik holatga ta‘sir qiladi. Qiyoslang: *yam-yashil dala* (aniqlovchili birikma) – *Dala yam-yashil* (ega, kesimdan iborat yig‘iq gap).

4. Pauza (to‘xtam). Pauza ham sintaktik vosita sifatida ahamiyatga ega. Pauaning o‘zgarishi sintaktik holatning o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan: *Quloq solib o‘tirgan boladan so‘radi.* Bunda *boladan* so‘zidan so‘ng pauza qilinsa, *quloq solib o‘tirgan* sifatdoshi *boladan* so‘ziga nisbatan sifatlovchi vazifasini bajaradi. Agar *quloq solib o‘tirgan* sifatdoshidan keyin pauza bo‘lsa, sifatdosh otlashgani holda ega vazifasini bajaradi.

7-§. So‘z birikmasi

Odatda, nutqda, gapda soʻzlar maʼlum qonun-qoidalar asosida oʻzaro maʼno va grammatik jihatdan bogʻlangan boʻladi. Masalan, *qiziqarli kitob, toqqa chiqmoq, tez oʻqimoq*. Bunday juftlik bir butunlik hosil qilib, yaxlit, lekin oʻz ichida qismlarga boʻlinadigan bir butun tushunchani bildiradi. Ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻz va soʻz shakllarning nopredikativ tobe aloqasi asosida birikishidan hosil boʻlgan bogʻlama soʻz birikmasi deyiladi.

Soʻz birikmasi mustaqil soʻzlarning bogʻlanishidan hosil boʻladi, yordamchi soʻzlar (koʻmakchilar) oʻz oldidagi mustaqil soʻz bilan birikmaning bir qismi, aʼzosi sanaladi. Masalan, *doʻstlik haqida suhbatlashmoq, qarsaklar bilan olqishlamoq* kabi.

Soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlardan biri hokim, ikkinchi tobe boʻladi. Soʻz birikmasi boshqaruv, bitishuv, muvofiqlashuv usullari bilan hosil boʻladi.

Soʻz birikmasi frazeologik iboralardan farq qiladi. Frazeologik iboralar soʻz kabi til birligi boʻlib, soʻz kabi tayyor holda qoʻllanib, bir butun holda lugʻaviy maʼno ifodalaydi va gapda bitta gap boʻlagi vazifasini bajaradi. Soʻz birikmasi esa nutq birligi boʻlib, nutq soʻzlanib turgan paytda tuziladi va tarkibidagi qismlar, aʼzolar boshqa-boshqa gap boʻlagi vazifasini bajaradi.

Soʻz birikmasini gapdan farqlash lozim. Soʻz birikmasi tushuncha ifodalab, nominativ (nomlash, atash) vazifasini bajaradi, shuning uchun intonatsion tugallikka ega boʻlmaydi. Gap esa fikr bildirib, kommunikativ (aloqa qilish) va kognitiv (fikr almashish) vazifalarini bajaradi. Soʻz birikmasi kamida ikki mustaqil soʻzdan tuzilsa, gap baʼzan bir soʻzdan ham tashkil topishi mumkin.

Soʻz birikmasi oʻzaro teng bogʻlangan soʻzlardan ham farq qiladi. Masalan: *Maqsad va marom insonning eng buyuk quvvatidir. (Oz-oz oʻrganib dono boʻlur)*. Bunda maqsad va marom soʻzlari oʻzaro teng bogʻlanib, gapda uyushiq boʻlak hosil qilib, soʻz birikmasi sanalmaydi.

8-§. Soʻz birikmalarining tasnifi

Soʻz birikmalari quyidagi xususiyatlari asosida tasnif qilinadi:

1. Soʻz birikmalari qismlarining grammatik tabiatiga koʻra.
2. Soʻz birikmalarining tuzilishiga koʻra.

Soʻz birikmalari qismlarining grammatik tabiatiga koʻra tasnif qilinganda, hokim aʼzoning qaysi soʻz turkumidan ekanligi, tobe aʼzoning sintaktik vazifasi asosga olinadi.

Soʻz birikmalari hokim qismning qaysi soʻz turkumidan ekanligiga koʻra quyidagi turlarga ajratiladi: 1) otli birikma; 2) feʼlli birikma; 3) sifatli birikma; 4) ravishli birikma; 5) modal soʻzli birikma.

1. Otli birikma. Bunday birikmaning hokim soʻzi vazifasida ot, otlashgan soʻzlar keladi va u quyidagi koʻrinishlarga ega boʻladi:

Hokim qism vazifasida ot keladi: *gʻayratli odam, samimiy inson, ezgu niyatli kishi*.

Hokim qism sifatida olmosh keladi: *bolaning oʻzi, Karimaning oʻzi*.

Hokim soʻz sifatida otlashgan sifat keladi: *kishilardan eng mard, qizlarning sarasi*.

Hokim qism vazifasida otlashgan son keladi: *talabalarning beshtasi, oʻquvchilardan biri*.

Hokim qism vazifasida otlashgan olmosh keladi: *tilaklarning barchasi, kutib oluvchilarning hammasi*.

Hokim soʻz vazifasida otlashgan sifatdosh keladi: *onamlarning aytganlari, bolalarning oʻqiyotgani*.

Hokim qism vazifasida otlashgan ravish keladi: *koʻp soʻzning ozi, ishlarning koʻpi*.

Hokim soʻz sifatida otlashgan undov soʻz keladi: *ularning dod-voyi, bolalarning urasi*.

Hokim soʻz vazifasida otlashgan taqlid soʻz keladi: *otlarning dupur-dupuri, toʻplarning gumbur-gumburi*.

Koʻrinadiki, otli soʻz birikmasi qismlari bitishuv, muvofiqlashuv va boshqaruv yoʻli bilan grammatik aloqaga kirishadi. Otli birikma soʻz shakli bilan soʻzning (leksemaning) yoki ikki soʻz shakllarning bogʻlanishidan hosil boʻladi.

2. **Feʼlli birikma**. Bunday birikmaning hokim qismi feʼl bilan ifodalanadi: *tez ishlamoq, oldinda yurmoq, diqqat bilan tinglamoq, kulib gapirmoq*.

Feʼlli birikmaning qismlari oʻzaro bitishuv va boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanadi. Feʼlli soʻz birikmasi soʻz shakl bilan soʻzning (leksemaning) oʻzaro bogʻlanishidan yuzaga keladi.

3. **Sifatli birikma**. Mazkur birikmada hokim soʻz otlashmagan sifat bilan ifodalanadi, birikmaning qismlari boshqaruv yoʻli bilan sintaktik munosabatga kirishadi: *akasidan kuchli, singlisidan ziyakroq*.

4. **Ravishli birikma**. Bunday birikmaning hokim soʻzi otlashmagan ravish bilan ifodalanadi. Ravishli soʻz birikmalarida tobe va hokim qismlar oʻzaro boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanadi: *raketadan tez, toshbaqadan sekin*.

5. **Modal soʻzli birikma**. Bunda modal soʻz birikmaning hokim soʻzi sifatida keladi. Birikma boshqaruv yoʻli bilan tuziladi: *bizga kerak, oʻquvchilarda bor*.

Sifatli, ravishli, modal soʻzli birikmalar ham feʼlli birikma singari soʻzshakl bilan soʻz (leksema)ning oʻzaro bogʻlashi natijasida hosil qilinadi.

Soʻz birikmalari, tobe qismning sintaktik vazifasiga koʻra, quyidagi turlarga boʻlinadi: 1) aniqlovchili birikma; 2) toʻldiruvchili birikma; 3) holli birikma.

1. **Aniqlovchili birikma**. Bunday birikmalarning tobe qismi aniqlovchining barcha turlari vazifasini bajaradi. SHunga koʻra ularni: 1) sifatlovchili birikma; 2) qaratuvchili birikma; 3) izohlovchili birikmalarga ajratish mumkin. Masalan: *yozma ish, ilmiy maqola, beshta kitob, allaqanday ovozlari* – sifatlovchili birikma; *iqtisodiyotning taraqqiyoti, maktab hovlisi* - qaratuvchili birikma; *oʻqituvchi Salimova, professor Qodirov* - izohlovchili birikma.

Aniqlovchili birikma bitishuv va boshqaruv yoʻli bilan tuziladi.

2. **Toʻldiruvchili birikma**. Tobe qismi toʻldiruvchi vazifasini bajaradigan soʻz birikmasi toʻldiruvchili birikma deb yuritiladi. Bunda qismlar oʻzaro boshqaruv yoʻli bilan birikadi. Masalan: *yoshlarga nasihat qilmoq, odamlarni qadrlamoq, talabalar uchun darslik, ilm-fan haqida soʻzlam*.

3. Holli birikma. Bu xil soʻz birikmalarining tobe qismi hol vazifasini bajaradi. Holli birikmaning tobe va hokim qismlari oʻzaro bitishuv yoki boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanadi: *yangicha fikrlamoq, birga ishlamoq, maktabdan qaytmoq, erta boshlamoq.*

Soʻz birikmalari tuzilishiga koʻra 2 xil boʻladi: 1) oddiy soʻz birikmalari; 2) murakkab soʻz birikmalari.

Oddiy soʻz birikmasi. Soʻzshakl bilan soʻz (leksema)ning yoki ikki soʻzshaklning bogʻlanmasi oddiy soʻz birikmasi hisoblanadi: *keng dala, tekisroq yoʻl, tinchlikka daʼvat qilmoq, davlatlarning hamdoʻstligi, maktab hovlisi.*

Biror qismi frazeologik ibora yoki murakkab tushunchani bildiradigan turgʻun birikma bilan ifodalanadigan soʻz birikmasi ham oddiy soʻz birikmasiga mansub boʻladi. Masalan: *yulduzni benarvon uradigan odam, Fanlar akademiyasi institutlari* kabi.

Murakkab soʻz birikmasi. Bunda birikmaning qismlaridan biri yoki har ikkisi soʻz birikmasi bilan ifoda etiladi. Masalan, *mehnat qilishni sevadigan odam, odamlarga xayrixoh boʻlgan kishi* kabi soʻz birikmalarining tobe qismi («mehnat qilishni sevadigan», «odamlarga xayrixoh boʻlgan») soʻz birikmasi shaklida qoʻllanib, hokim soʻzga bitishuv yoʻli bilan bogʻlangan.

Murakkab soʻz birikmasining biror qismi, koʻpincha tobe qismi predikativ birlik, predikativ bogʻlanma bilan ham ifodalanishi mumkin: «*qiliqlari yoqimli bola*», «*ota-onalarimiz bergan nasihatlar*» kabi birikmalarning tobe aʼzosi («qiliqlari yoqimli», «ota-onalarimiz bergan») gapga teng qurilma, yaʼni predikativ birlik, predikativ bogʻlanma bilan ifodalangan.

Soʻz birikmasi tahlili	
1. Gapdagi soʻz birikmalari aniqlanadi. 2. Bosh va ergash soʻzlar aniqlanadi. 3. Bosh va ergash soʻzlarning bogʻlanish usuli (moslashuv, boshqaruv, bitishuv). 4. Hokim va tobe soʻzlarni bogʻlovchi vosita (kelishik qoʻshimchasi, koʻmakchi yoki ohang) aniqlanadi.	5. Soʻz birikmasining bosh soʻz turkumi boʻyicha turi aniqlanadi. 6. Soʻz birikmasidagi ergash soʻzning vazifasi boʻyicha turi aniqlanadi. 7. Soʻz birikmasining tuzilish turi aniqlanadi

GAP

1-§. Gap va uning belgilari

Sintaksisda oʻrganiladigan asosiy sintaktik birlik **gap** hisoblanadi. Gap – kishilar nutqining eng kichik birligi boʻlib, u grammatik jihatdan tashkil qilingan, mazmun va ohang jihatdan nisbiy tugallikka ega boʻlgan soʻzlar bogʻlamasi yoki yakka soʻzdir. Aloqa birligi boʻlmish gap fikrni ifodalash va shakllantirish birligi hamdir. Shunga koʻra gap **kommunikativ** (aloqa qilish) va **kognitiv** (fikr ifodalash) vazifalarni bajaradigan nutq birligi sanaladi. Gapning mazkur xususiyatlari uni soʻzdan va soʻz birikmasidan farqlaydi.

Gapning quyidagi asosiy belgilari mavjud:

1. Gapning koʻpgina turlari mantiqiy hukm bilan chambarchas bogʻliq. Hukmda esa biror narsa haqida nimadir tasdiqlanadi yoki inkor etiladi va aynan ana shunda predikativlik oʻz ifodasini topadi. Demak, gapning muhim belgilaridan biri **predikativlikdir**. Predikativlik gap mazmunining obyektiv borliqqa boʻlgan

munosabatini ifodalaydi. Predikativlik ifodalovchi grammatik vositalar mavjud bo‘lib, ular mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalaridir.

Predikativlik, odatda, so‘zlarning predikativ aloqaga kirishuvi bilan, ya’ni ega-kesim aloqasi bilan ifodalanadi. Masalan: *Bolalar keldi. Bolalar xursand.*

Ayrim hollarda predikativlik bir bosh bo‘lak bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *Tinchlik uchun kurashaylik.*

2. Gapda bayon qilinayotgan fikrga so‘zlovchining munosabati ham ifodalanadi. Bunday munosabat **modallik** deb yuritiladi. Anglashiladiki, gapning asosiy belgilaridan biri modallik hisoblanadi. Modallik (tasdiq, inkor, gumon, shubha kabilar) mayl kategoriyasi, modal so‘zlar, yuklamalar kabi vositalar orqali ifolanadi.

3. Gap **ohang** (**ohang**) jihatdan tugallikka ega bo‘ladi. Ohang ham predikativlik, modallik belgilari singari gapni so‘z birikmasidan chegaralashga xizmat qiladi. Ohang, birinchidan, so‘zlar bog‘lanmasi yoki yakka so‘z gapni shakllantirganini ko‘rsatsa, ikkinchidan, gapning tugallanganligini ifodalab, uni boshqa gapdan ajratib turadi. Ohangning xabar, so‘roq, buyruq va boshqa turlari farqlanadi.

4. Gap mazmun jihatdan ham nisbiy tugal bo‘ladi. Uning tugal fikrni ifodalashi ma’lum sharoit bilan bog‘liqdir.

Shunday qilib, predikativlik (gap mazmunining borliqqa munosabati), modallik (so‘zlovchining aytilayotgan fikrga munosabati), ohang jihatdan shakllanganlik va mazmunan nisbiy tugallik gapning asosiy xususiyatlari, belgilari sanaladi.

2-§. Gapning turlari

O‘zbek tilida gaplar turli nuqtai nazardan tasnif qilinadi:

I. Ifoda maqsadiga ko‘ra.

II. Emotsionalikka ko‘ra.

III. Tuzilishiga ko‘ra.

Ifoda maqsadiga ko‘ra va bu maqsad bilan bog‘liq bo‘lgan ohangga ko‘ra gaplar **darak, so‘roq, buyruq** gaplarga ajratiladi.

Emotsionalikka ko‘ra gaplar ikki turga bo‘linadi: his-hayajonli gaplar yoki undov gaplar va his-hayajonsiz gaplar. Darak, so‘roq, buyruq gaplar darak, so‘roq, buyruq ohangi bilan aytilsa, emotsional bo‘lmagan gaplar deb yuritiladi. YUqorida sanab o‘tilgan gaplar kuchli his-hayajonga ega bo‘lishi bilan his-hayajon gapga aylanadi.

Tuzilishiga ko‘ra gaplar **sodda** va **qo‘shma** bo‘ladi. Gaplarning bunday bo‘linishi ularning tarkibidagi predikativlik birliklarning soniga, miqdoriga asoslanadi.

3-§. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari

Gaplar ifoda maqsadiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1) darak gap; 2) so‘roq gap; 3) buyruq gap.

1. Darak gap

Borliqdagi hodisalar haqida tasdiq yoki inkor yo‘li bilan xabar qiluvchi gap **darak gap** deyiladi. Darak gap nutqda gapning boshqa turlariga qaraganda ko‘p qo‘llanadi.

Darak gap mazmunan va tuzilishi jihatdan rang-barang bo‘ladi. Darak gap darak ohangi bilan aytiladi. Bunda gapning birinchi qismida ohang ko‘tariladi, ikkinchi qismida esa pasayadi. Masalan: *Yoz kechasining yoqimli salqini. Ko‘kda, daraxtlar ustida g‘uj-g‘uj yulduzlar yonadi. Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to‘ldirgan, go‘yo kechaning o‘zi kuylaydi. (O.).*

Darak gapning kesimi ko‘pincha aniqlik (xabar) maylidagi fe‘l bilan yoki fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari bilan ifodalanadi.

Darak gap oxiriga nuqta qo‘yiladi.

2. So‘roq gap

So‘zlovchiga noma‘lum bo‘lgan voqea-hodisa, harakat-holat haqida ma‘lumot olish ko‘zda tutiladigan gap **so‘roq gap** deyiladi.

So‘roq gaplar ko‘proq dialogik nutqda qo‘llanadi. Bunday gaplar alohida ohang bilan aytiladi.

So‘roq gaplarni quyidagi vositalar shakllantiradi:

1. So‘roq yuklamalari (-mi, -chi, -a, -ya). Masalan: *Chindan qo‘rqqaningmi bu, Robiya? (P.Q.). Ammo Naziraning o‘rniga o‘zimni qo‘yib ko‘rsam-chi? (O‘.Usmonov).*

2. So‘roq olmoshlari (kim, nima, qanday, qaysi, qachon, qayerda, nega va boshqalar). Masalan: *Akmalxon, nega bizga qatnamay qo‘ydingiz? (F.Musajonov). Nega o‘rtoqlaringizga qaramaysizlar? Bu qanaqa tartibsizlik? (O‘.Usmonov).*

3. So‘roq ohangi. Bunda savol mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zda ohang (ohang) ko‘tariladi. Masalan: *Soyliqqa borasiz? – deb so‘radi. (O‘.Usmonov). Juda kamnamolar, Akmalxon? (F.Musajonov).*

So‘roq gaplar so‘roqning xususiyatiga ko‘ra uch turga bo‘linadi: **sof so‘roq gaplar, ritorik so‘roq gaplar, so‘roq buyruq gaplar.**

Sof so‘roq gaplar tinglovchidan so‘roqqa javobni talab qiladi. Masalan: *Kechagi maqola nima bo‘ldi, Rahim aka? (F.Musajonov). Qishloq xo‘jalik bo‘limi shumi? (F.Musajonov)*

Ritorik so‘roq gaplarda so‘roq ichida uning javobi ham anglashilib turadi. Masalan: *Dunyoda sizga ishongan, sizni jonidan aziz ko‘radigan kishining yuziga oyoq bosishdan og‘ir jinoyat bormi? (A.Muhiddin).*

So‘roq-buyruq gaplar so‘roq orqali buyruq jilvasini o‘z ichiga oladi. Masalan: *Aka, nega indamaysiz? (P.Qodirov). Uka, Murtazobekning o‘zi qaerdaligini aytib berolmaysizmi? (O‘.Usmonov).*

3. Buyruq gap

So'zlovchining biror narsaga buyurish-xohishini bildiradigan gap **buyruq gap** deyiladi. Buyruq gapda quyidagilar ifodalanadi:

1. Buyruq, do'q-po'pisa. Masalan: *Taqsir, ... bitta surat chizib bering. (P.Qodirov). Bolalar tezroq olib chiqilsin!.. (P.Qodirov). Professor Jamolov senga ham ota, ham ustozlik qiladi, o'g'lim... Gapidan chiqma. (J.Abdullaxonov).* – *Sen darsingga o'tir, qizim, - buyruq qildi u YUlduzga, - sen Qunduz, Temirjonga darrandayu parrandalarini ko'rsat. (J.Abdullaxonov).*

2. Iltimos, yalinish, istak. Masalan: *Oshiqmang, bo'ladi. Faqat iltimos qilamanki, bo'tam, buni hozircha zinhor-bazinhor sir tuting. Zero, nifoq solguvchilar paydo bo'lib, biror ishkallikni o'ylab topmasinlar. Institutimiz rahnamolari bu maqsadga uncha ro'yixushlik bermayotganlarini unutmang. (J.Abdullaxonov).*

3. Maslahat. Masalan: *Fanda kashf qilishdan buyuk narsa yo'q, toylog'im, - deb qoldi professor, - siz ham faoliyatingizni kashf qilishdan boshlang. (J.Abdullaxonov). Keling, institutda olgan nazariy bilimingizni amaliyot bilan bog'lash imkoniga ega bo'ling avval. (J.Abdullaxonov).*

Buyruq gapning ko'pgina ma'nolari ohang orqali anglashiladi.

Buyruq gapni shakllantirishda quyidagi vositalar xizmat qiladi: 1) buyruq ohangi; 2) ko'pincha buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalangan kesimi; 3) gapga buyruq jilvasini qo'shadigan maxsus so'zlar (*keling, kel, yaxshisi, iloji bo'lsa va boshqalar*).

Buyruq gap kesimning ifodalanish usuliga ko'ra farqlanadi:

1. Buyruq gapning kesimi ko'p hollarda buyruq-istak maylidagi fe'l bilan ifodalanadi. Masalan: *Och odamning ustidan kulmang.*

*Etishmasa ishga qurbati,
Xunukkina qizlarni siylang,
Go'zal bo'lar ular siyrati.
Birovlarning haqqin eganni
Dasturxonga yo'lata ko'rmang.
Rostni ko'rib yolg'on deganning
Kosasini to'lata ko'rmang. (A.Oripov).*

2. Buyruq gapning kesimi sifatida shart maylidagi fe'l keladi. Masalan: *Iloji bo'lsa, uzoq kutdirib qo'ymasangiz... (J.Abdullaxonov). Unday bo'lsa, marhamat qilib uni ishlarimiz bilan ham oshno qilsangiz (J.Abdullaxonov).*

3. Ba'zan buyruq gapning kesimi aniqlik (ijro, xabar) mayli shaklidagi fe'l bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: *Professor haliginday takror qo'l siltadi: - Raddiyani uning o'ziga yozdirasiz, bo'tam. (J.Abdullaxonov).*

4. Buyruq gapning kesimi vazifasida fe'ldan boshqa so'zlar ham kelishi mumkin. Masalan: *Uztoz Ali! Oldinga! (P.Q.). Bobur uning so'nggi yillarda o'rgangan chavandozlik mashqlaridan ko'rsatmoqchi ekanini sezdi. - Qani, qani, - dedi maroq bilan. (P.Q.). Hazratim, lozim bo'lsa, endi musiqadan, bir imtihon qilib ko'ring. -Qani, qani! (P.Q.). Orqadan kimdir: «E, bas, bas!» deb qichqirdi. (P.Q.).*

4-§. Gapning his-hayajon ifodalash-ifodalamasligiga ko'ra turlari

Gaplar emotsionallikka ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1) his-hayajonsiz gaplar, 2) his-hayzjon yoki undov gaplar.

Xabar-darak, so‘roq, buyurish ohangiga ega bo‘lgan gaplar emotsional bo‘lmagan gaplardir. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan gaplarning barchasi, ya‘ni darak gap, so‘roq gap va buyruq gaplar emotsional bo‘lmagan gaplarni tashkil qiladi.

His-hayzjon gaplar, yoki undov gaplar kuchli his-hayajon bilan ifoda qilingan gaplardir. Bunday gaplar maxsus his-hayajon ohangi, ohangi bilan talaffuz etiladi.

Darak, so‘roq, buyruq gaplar his-hayajon bilan aytilsa, undov gapga aylanadi. Shunga ko‘ra undov gaplarning darak-undovgap, so‘roq-undov gap, buyruq-undov gap turlari yuzaga keladi.

Darak-undov gap: *Ishonganimdan senikiga olib keldim-da, o‘rtoq! (O‘.H.)*

So‘roq-undov gap: *Bu gaplardan so‘ng menga ko‘ngillarini ocharmidilar?! (P.Q.).*

Buyruq-undov gap: *Yo‘qolgan pichoqning sopi oltin bo‘lavermasin!- dedi Davlatbekov. (P.Q.).*

Undov gap quyidagi grammatik vositalar yordamida shakllanadi:

1) turli his-tuyg‘ularni: shodlik, quvonch, taajjub, afsuslanish, hayratlanish, g‘azab va shu kabilarni bildiruvchi ohang yordamida. Masalan: *Odamlar bilan... yashash, ishlash, do‘stlashish, yordamlashish va yordam olish naqadar yaxshi! (CH.Aytmatov). Aya, ayajon, shu ham gapmi! (A.Q.). Ayam bilan xollam yo‘lga nima pishirsak ekan deb maslahat qilib o‘tirishibdi! (A.Q.). Yillar, yillar o‘tdi! (A.Q.). Kecha g‘ishtdan tekkan edi, endi paxtadan tegibdi-da! (A.Q.);*

2) undov so‘zlar yordamida. Masalan: *E, u gaplar o‘tdi-ketdi-da! (P.Q.). Obbo, noshudlar-ey!- dedi Ortiq qo‘ziga achinib. (P.Q.). Ha, barakalla!- dedi kekxa ishchi. (A.Q.). O‘h-o‘h-o‘h! CHuchvarak-ku... Hay-hay, og‘izda erib ketadi-ya!.. (A.Q.);*

3) yuklamalar yordamida. Masalan: *Nahot, Mavloningiz jiyanining to‘yiga kelmasa! (A.Q.). ... birpas tinch qo‘ymaydi-ya!- deb bolalarini koyidi. (P.Q.). Boyaqishlar selda qoldi-yov!- deb Suyunboy aka qoyatoshning kamaridan chiqdi. (P.Q.).*

Takrorlash uchun savollar:

1. Sintaksisda nimalar o‘rganiladi?
2. So‘z qo‘shilmasi nima?
3. Teng bojlanish haqida gapiring.
4. Tobe bojlanish haqida gapiring.
5. So‘z birikmasining ta‘rifini ayting.
6. Bosh va ergash so‘zlar haqida gapiring.
7. Otli so‘z birikmasi haqida gapiring.
8. Fe‘lli so‘z birikmasi haqida so‘zlang.
9. Sodda so‘z birikmasi haqida gapiring.
10. Murakkab so‘z birikmalari haqida gapiring.
11. So‘z birikmasining so‘zdan farqi nimada?
12. So‘z birikmasining sintagmadan farqi haqida gapiring.
13. So‘z birikmasining gapdan farqi haqida
16. Bitishuv usuli haqida gapiring.
17. Qaysi usul bilan birikishda bosh va ergash so‘zning o‘rni qat‘iy bo‘ladi?
18. SHaklan boshqaruv, mazmunan bitishuv usuli bilan birikkan so‘z birikmalariga misollar keltiring.
19. Gap va uning asosiy belgilari.
20. Darak gaplar haqida so‘zlang.
21. So‘roq gap va uning turlari haqida so‘zlang.
22. So‘roq gaplar qanday vositalar yordamida shakllanadi?
23. Buyruq gap va uning turlari haqida so‘zlang.

gapiring.

14. Boshqaruv usuli haqida gapiring.

15. Moslashuv usuli haqida gapiring.

24. His hayajon gaplar haqida so'zlang.

25. His-hayajon gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi haqida gapiring.

So'z birikmasi va gap turlari bo'yicha test savollari:

1. Quyidagi atamalarning qaysi biri sintaksisga tegishli?

A) orttirma nisbat B) modal so'z C) taqlid so'z D) bosh so'z

2. Sintaksis nimalarni o'rganadi?,

A) So'zlarning bir-biriga bog'lanishini B) gap va uning turlarini C) so'z birikmasini D) A,B,C

3. So'zlarning o'zaro biriktirish qonun-qoidalarini tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

A) morfologiyada B) leksikologiyada C) fonetikada D) sintaksisda

4. Gaplarning qurilish xususiyatlari tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

A) leksikologiyada B) fonetikada C) morfologiyada D) sintaksisda

5. Tilning qaysi birliklari fikrni shakllantirishga xizmat qiladi?

A) faqat gaplar B) so'zlar, qo'shimchalar va ularda mujassamlashgan ma'nolar C) ohang, tovush, so'z, so'z birikmasi va gaplar D) so'z birikmalar va gaplar

5. So'zlarning bir-biriga bog'lanishi, gap va uning turlari o'rganiladigan tilshunoslik bo'limi nima deb ataladi?

A) morfologiya B) sintaksis C) leksikologiya D) grammatika.

6. Ot-fe'l birikuvidan qanday birliklar hosil bo'lmaydi?

A) gap B) so'z birikmasi C) ko'makchi fe'lli so'z shakli D) qo'shma fe'l

7. Qaysi qatordagi birikuv erkin birikma sanaladi?

A) aybini bo'yniga qo'yimoq, qilichni bo'yniga qo'yimoq. B) ariqning boshiga etmoq, onasining boshiga etmoq. C) ko'rikdan o'tkazmoq, ko'rikdan o'tkazmoq. D) dorini qulog'iga quymoq, gapni qulog'iga quymoq.

8. So'z birikmasini toping.

A) tashrif buyurmoq B) ko'ngli keng C) gullar ochildi D) so'z birikmasi berilmagan.

9. Ot+fe'l shaklidagi birikmalarda so'zlarni o'zaro bog'lovchi vositalar ko'rsatilgan javobni toping.

A) kelishiklar B) tartib va ohang (ohang) C) ko'makchilar D) kelishik va ko'makchilar

10. Shoshmasdan bajarmoq, to'g'riga yurmoq kabi birikmalardagi so'zlar o'zaro qanday yo'l bilan bog'langan?

A) moslashuv usuli bilan B) ko'makchili boshqaruv usuli bilan C) bitishuv usuli bilan D) kelishikli boshqaruv usuli bilan

11. Qaysi qatorda so'z birikmasi bor?

A) O'zbekiston Oliy Majlisi B) va'da bo'yicha C) mehnatiga yarasha D) ota yurt

12. Bosh so'z ravish bilan ifodalangan otli birikmani toping.

A) hammadan kuchli B) farovon hayot C) haqiqatga yaqin D) ko'p gapirmoq

13. Bosh so'z sifatdosh bilan ifodalangan so'z birikmasini toping.

A) vazifani bajarib B) kelajakka umid C) chet elda o'qigan D) o'qigan bola

14. Qaysi qatorda so'z birikmasi yo'q?

A) elga xizmat B) bir-biriga oqibatli C) sohil bo'ylarini kezmoq D) ko'ngli keng

15. Ot+ravish shaklidagi birikmalarda so'zlarni o'zaro bog'lovchi asosiy vositalarni toping.

A) kelishiklar B) ko'makchilar C) tartib va ohang D) kelishik va ko'makchilar

16. Bosh so'z ravishdosh bilan ifodalangan fe'lli birikmani toping.

A) gulni sevmoq B) senda ko'p C) hurmat bilan yondashgan D) idishlarni arta-arta

17. Quyidagilarning qaysi biri qaratqichli birikma?

A) oltin soat B) yurtimiz yoshlari C) uzum edi D) peshin chog'i

18. Sifat+ot shaklidagi birikuvlarda quyidagi vositalarning qaysi biridan deyarli foydalanilmaydi? 1) kelishik qo‘shimchalaridan; 2) ko‘makchilardan; 3) ohangdan; 4) so‘z tartibidan.

A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4 D) 2, 4

19. Boshqaruvli birikmani toping.

A) yaqinda keldi B) chindan aytdi C) kecha keldi D) boshqaruvli birikma mavjud emas.

20. Bitishuv yo‘li bilan hosil bo‘lgan so‘z birikmasini aniqlang.

A) bolalar haqida g‘amxo‘rlik B) maktab hovlisi C) qaytadan yozmoq D) gapirishga oson

21. Moslashuvli birikmalarda so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalardan qaysilari faol qatnashadi?

A) shaxs-son qo‘shimchasi B) egalik qo‘shimchasi C) kelishik qo‘shimchasi D) A, B

22. Egri tayoqning butog‘i burunni yirtar. Ushbu maqolda so‘zlarning o‘zaro aloqasi qanday yo‘l bilan amalga oshgan?

A) gapda so‘zlar teng va tobe bog‘langan B) boshqaruv va moslashuv yo‘li bilan C) faqat boshqaruv yo‘li bilan D) moslashuv, bitishuv va boshqaruv yo‘li bilan

23. Sanjar bilan Sherzod bog‘ tomon yurdilar. Ushbu gapdagi bog‘ tomon yurdilar birikmasi o‘zaro qanday yo‘l bilan bog‘langan?

A) ko‘makchili boshqaruv yo‘li bilan B) moslashuv yo‘li bilan C) kelishikli boshqaruv yo‘li bilan D) teng bog‘lanish yo‘li bilan

24. So‘z birikmalarida ergash so‘z ravish yoki sifatlar bilan ifodalansa, ular bosh so‘zga asosan qanday yo‘l bilan birikadi?

A) moslashuv yo‘li bilan B) bitishuv yo‘li bilan C) boshqaruv yo‘li bilan D) bitishuv yoki boshqaruv yo‘li bilan

25. Boshqaruvli bog‘lanishda qaysi kelishiklar so‘zlarni o‘zaro bog‘laydi?

A) qaratqich, tushum va jo‘nalish B) tushum, jo‘nalish va o‘rin-payt C) jo‘nalish, tushum, o‘rin-payt va chiqish D) qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish

26. Bitishuv munosabatidagi birikmalarni aniqlang.

A) ko‘klam quyoshi, bahor tongi B) maftunkor chehralar, tezda kelmoq C) o‘lkamiz chiroyi, ko‘l suvi D) xat yozdi, quduq qazdi, so‘z sehri

27. Kelishikli boshqaruv qatnashgan gapni aniqlang.

A) Mol topguncha aql top. B) Ko‘ringan tog‘ning yirog‘i yo‘q. C) Xalqim uchun, Vatan uchun kurashdim. D) Ot birdan sapchidi.

28. Misollarning qaysi biri ritorik so‘roq gap?

A) Shundan beri qancha soylar oqib ketdi? Dunyo necha marta aylandi? B) Xo‘sh, o‘zingizning ahvolingiz qanday, do‘stim? C) Soatim to‘xtab qolibdi? Buzilibdimi? D) Nimadan xafasiz? Kim xafa qildi?

29. Ritorik so‘roq gapni toping.

A) Umuman, savdo-sotiq ayollarga xos kasbmi, nima deysiz? B) Umr o‘rtasida poytaxtga ko‘chib kelishga nima majbur qildi? C) O‘qishga kirolmasa, shu ham fojiami? D) U erga kim bilan bormoqchisan?

30. Ritorik so‘roq gapni toping.

A) O‘qish qachon boshlanadi? B) Dadang qaerga borib kelganini aytaymi? – deb qoldi. C) Salomat yuribsizmi, Bahromjon? D) Sut ko‘r qilgur haromi. Gitler oq padar, Farzandning qadrini qaerdan bilsin?!

31. -mi, -chi, -a, -va yuklamalari yordamida qanday gap tuziladi?

A) buyruq gap B) his-hayajon gap C) darak gap D) so‘roq gap

32. Qaysi gapni so‘roq olmoshi yordamida ritorik gapga aylantirish mumkin?

A) Tog‘ orqasidan shamol ko‘tarildi. B) Osmonda yulduzlar chamani porlaydi. C) Tinch uyda janjal bo‘lishini istaydi. D) Siz odamlarni yaxshi bilasiz.

33. Mulla aka, sal nariroq surilib o‘tirmaysizmi? Ushbu gapda so‘roq mazmuni qaysi yo‘l bilan berilgan?

A) taajjub B) iltimos C) gumon D) shubha

34. Kimda qanday taklif bor? So‘roq gap qaysi vosita yordamida tuzilgan?

A) Faqat qanday so‘roq so‘zi yordamida. B) Faqat kim so‘roq olmoshi bilan. C) So‘roq yuklamasi vositasida. D) So‘roq olmoshlari ishtirokida.

35. 1. Darak gap. 2. So‘roq gap. 3. Buyruq gap. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra ushbu turlaridan qay biri dialogik nutqda ko‘proq ishlatiladi?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 1,2

36. Quyidagi gaplardan qaysi birida so‘zlar o‘rnini almashtirsak, gap yo‘qoladi?

1. So‘rading sen. 2. Biz studentmiz. 3. O‘ttiz kun–bir oy. 4. Zamira yozgan. 5. Havo toza.

A) 1,2,3,4 B) 1,4,5 C) 4,5 D) 4

GAPLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI

Gaplar tuzilish jihatdan ikki guruhga bo‘linadi:

1. Sodda gap bir predikativ birlikdan iborat bo‘lib, uning tarkibi ayrim gaplarga bo‘linmaydi. Masalan: *G‘ir-g‘ir shabada turli-tuman giyohlarning hidlarini olib keladi. (O.). Oqil va donolar bilan suhbatdosh bo‘ling. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).*

2. Qo‘shma gap mazmun va grammatik jihatdan birikkan ikki va undan ortiq predikativ birliklardan tuzilib, uning tarkibi ikki va undan ortiq gaplarga bo‘linadi. Masalan: *Hali daraxtlar barg chiqarmaganu, pushti guldastaga o‘xshab gullagan bir tup bodom qo‘shni hovlining devori osha yashnab turibdi. (P.Q.). Haqiqiy do‘stlik suvdek zilol, qalbaki do‘stlik – tuz qo‘shilgan asal. (Maqol).*

1-§. Sodda gap turlari

Sodda gaplar grammatik asosining tarkibiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: ikki bosh bo‘lakli gaplar va bir bosh bo‘lakli gaplar. Grammatik asosi ikki bosh bo‘lakdan ega va kesimdan iborat bo‘lgan gaplar ikki bosh bo‘lakli gaplar deyiladi. Masalan: Mehnatdan do‘st ortar. (Maqol).

Grammatik asosi bir bosh bo‘lakdan iborat bo‘lgan gaplar bir bosh bo‘lakli gap deb yuritiladi. Masalan: *Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga. (Maqol).*

Sodda gaplar ikkinchi darajali bo‘laklarning qatnashishi-qatnashmasligiga ko‘ra ikki xid bo‘ladi: yig‘iq gaplar va yoyiq gaplar.

Bosh bo‘laklardangina yoki bir bosh bo‘lakdan tashkil topgan gap yig‘iq gap, ikkinchi darajali bo‘laklar ham ishtirok etgan gap yoyiq gap deyiladi. Masalan: *Yomg‘ir tindi. Bulutlar hamon qaysarlik bilan quyosh yuzini to‘sib turardi. (S.Karomatov).* Birinchi gap yig‘iq gap bo‘lib, faqat bosh bo‘laklardan tuzilgan. Ikkinchi gapda bosh bo‘laklar (*bulutlar – ega, to‘sib turardi – kesim*)dan tashqari, ikkinchi darajali bo‘laklar ham (*hamon, qaysarlik bilan – hollar, quyosh – aniqlovchi, yuzini – to‘ldiruvchi*) qatnashgan. Shuning uchun bu gap yoyiq gapdir.

Bir bosh bo‘lakli gaplar ham, ikki bosh bo‘lakli gaplar ham zarur bo‘laklarning to‘la ifodalanishi yoki tushirilishiga ko‘ra ikki turga ajratiladi: to‘liq gap va to‘liqsiz gap. To‘liq gaplarda zarur bo‘laklarning barchasi qatnashadi, to‘liqsiz gaplarda zarur bo‘laklarning biri yoki bir qismi tushiriladi.

Masalan: - *Ilgari qaerda ishlagan edilar?* (To‘liq gap). – *Dastavval Surxondaryoda, keyin qarshi cho‘lida. (O.Y.)* (To‘liqsiz gap).

Sodda gaplar bo‘laklarga ajralish-ajralmasligiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: bo‘laklarga ajraladigan gaplar va bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar. So‘zlar bog‘lanmasidan yoki yakka so‘zdan tuzilib, gap bo‘laklarini aniqlash (ajratish) mumkin bo‘lgan gaplar bo‘laklarga ajraladigan gaplar deb yuritiladi. Masalan: *Mashina darvoza oldida to‘xtadi. (O.Y.). Bir so‘zdan tashkil topib, tarkibi bo‘laklarga ajratilmaydigan gaplar bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar yoki so‘z-gaplar deyiladi. Masalan: - Assalomu alaykum, dada. (P.Q.).*


2-§. Ikki bosh bo‘lakli gapning tuzilishi

Ikki bosh bo‘lakli gap ikki grammatik tarkibi: ega tarkibi va kesim tarkibi mavjud bo‘lgan gapdir.


- Ega yoki ega va unga taalluqli so‘zlar ega tarkibini tashkil etsa, kesim yoki kesim va unga taalluqli so‘zlar kesim tarkibini tashkil qiladi.

Masalan: *Kecha tunda esgan kuchli shamol katta archaning tanasini ikkiga ayirib yubordi.* Buni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin:

Ega tarkibi:



Kesim tarkibi:



3-§. Bir bosh bo‘lakli gaplar

Bir bosh bo‘lakli gapning tuzilishi asosining tarkibi bo‘linadi: ikki bosh bo‘lakli gaplar va bir bosh bo‘lakli gaplar.

Ikki bosh bo‘lakli gapning tuzilishi asosi bosh bo‘laklarning har ikkisi - egasi va kesimidan iborat bo‘ladi. Masalan: *Toshdagi rasmlar bundan ko‘p ming yil avval o‘tgan bobokalonlarimizning ijodi ekan. (P.Qodirov). SHamol g‘uj-g‘uj archalarning hidini olib keladi. (P.Qodirov).*

Bir bosh bo‘lakli gaplarning tuzilish asosi esa yo kesim tarkibidan, yo ega tarkibidan tashkil topadi. Kesim yoki kesim tarkibidan tashkil topgan gaplarda ega, ega yoki tarkibidan tashkil topgan gaplarda kesim qatnashmaydi va bunday bo‘lakka ehtiyoj ham bo‘lmaydi. Bunday gaplarja predikativlik bir bo‘lak bilan ifodalanadi. Masalan: *Oyko‘lliklarni yaxshi gaplar bilan yo‘ldan qaytarishda. (P. Qodirov). Bugungi ishni ertaga qo‘yma. (Maqol). YOsh bo‘lsa, ko‘p narsani boshidan kechirgan. (P.Qodirov). Oqshom chog‘i... Vatan bo‘ylab qadam - qadamlab Quyosh o‘tdi dengizlar, tog‘lar ortiga. (Shayxzoda). Aqlni beaqldan o‘rgan. (Maqol).*

Bir bosh bo‘lakli gaplar, bosh bo‘lakning qaysi biridan tashkil topishiga ko‘ra, ikki guruhga bo‘linadi: Egasiz gaplar, kesimsiz gaplar.

Egasiz bir bosh bo‘lakli gaplar faqat kesim tarkibidan topish mumkin yoki mumkin emasligiga ko‘ra egasi topiladigan va egasi topilmaydigan gaplarga bo‘linadi.

Kesimsiz bir bosh bo‘lakli gaplar nominativ (atov) gaplardir.

1. Egasi topiladigan gap

Egasi topiladigan gaplarda Egasi kesim orqali beriladigan so‘roq bilan topish mumkin. Bunday gaplar shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplarga bo‘linadi.

Shaxsi aniq gap. Kesimi, asosan, fe‘l bilan, ba‘zan fe‘ldan boshqa so‘z bilan ifodalanib, harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko‘rsatib turadigan bir bosh bo‘lakli gap shaxsi aniq gap deyiladi.

Shaxsi aniq gaplarda ega Lesik jihatdan shakllanmaydi va unga hech qanday ehtiyoj ham bo‘lmaydi; kesim vazifasida kelgan so‘z tarkibidagi tuslovchi affikslar shaxsni aniq ko‘rsatib turadi.

Shaxsi aniq gapning kesimi quyidagicha ifodalanadi:

1. Aniqlik (ijro) maylidagi fe‘l va boshqa so‘z turkumlari bilan. Masalan: *Ertalabki poyezddan qolmaslik uchun shoshilib chiqib ketayotgan edi.* (O‘.Hoshimov).

Shaxsi aniq gap kesimining aniqlik maylidagi fe‘l bilan ifodalanishi quyidagicha:

a) o‘tgan zamon fe‘l shakllari bilan: *Ular bilan ham murosa qilolmagan edingiz-ku ...* (P.Qodirov). *Abdukarimova haqida bilmoqchi edim.* (F.Musajonov).

b) hozirgi zamon fe‘l shakllari bilan: *Endi ularning xatosini tuzatish uchun qancha mashaqqat chekamiz.* (P.Qodirov). *Gapimni tushuntirolmay qolamanmi deb qo‘rquyapman.* (J.Abdullaxonov).

v) kelasi zamon fe‘l shakllari bilan: *Hech kim bilan hech qanaqa raqobat qilmoqchimasman.* (J.Abdullaxonov). *Saviyasini tekshirmoqchimisiz?* (F.Musajonov).

2. Buyruq - istak maylidagi fe‘l bilan: - *Xatlarni menga bering! – deb qoldi Tolib aka.* (F.Musajonov). *Gazeta ishidan misol keltirib gapiray.* (F.Musajonov).

3. Shart maylidagi fe‘l bilan:

Xulosangizga astoydil ishonsangiz, nimbandan qo‘rqasiz? Tushuntirsangiz, tushunishadi. (J.Abdullaxonov).

Shaxsi aniq gapning kesimi ba‘zan fe‘ldan boshqa so‘zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *Kelishgan, o‘qimishlisiz, buning ustiga yoshsiz.* (F.Musajonov). *Mulla Usmon, ... hammasidan xabardorsiz.* (P.Qodirov).

Shaxsi aniq gaplar badiiy adabiyotda, ayniqsa, dialogik nutqda ko‘p qo‘llanadi.

Shaxsi noaniq gap. Kesimi, odatda, fe‘l bilan ifodalanib, harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko‘rsatib turmaydigan bir bosh bo‘lakli gap shaxsi noaniq gap deyiladi.

Shaxsi noaniq gapning kesimi uchinchi shaxsga qaratilgan bo'lsa ham, bajaruvchisi noaniq bo'ladi.

Shaxsi noaniq gapning kesimi quyidagicha ifodalanadi.

1. Aniqlik (ijro) maylidagi fe'l bilan:

a) o'tgan zamon fe'l shakllari bilan: *Axtargan topar, deb bejiz aytmaganlar.* (J.Abdullaxonov). *Xuddi shu kunning ertasiga kimdir uni qidirib yurganini aytdilar.* (J.Abdullaxonov). *Baribir to'y-hashamlarda, gap-gashtaklarda uni goh Aleksandr Sergeevich Pushkin. goh Alisher Navoiy ... deb chaqirishardi.* (S.Ahmad).

b) hozirgi zamon fe'li bilan: *Yong'oqni suv ombori deyishadi.* (J.Abdullaxonov). *Mehr ko'zda deb bekor aytmaydilar.* (F.Musajonov).

v) kelasi zamon fe'li bilan: *Ularni yarashtirishga urinishmoqchilar.* (P.Qodirov).

2. Buyruq-istak maylidagi fe'l bilan: ... *mayli, mehnatimdan qirqsinlar.* (A.Qahhor).

3. Shart maylidagi fe'l bilan: *Bir oydan beri uchovidan birortasini ko'rsatarmikin deb ko'zim to'rt bo'lib qarayman. Hechki ko'rsatishmasa! O'chiringlar-e, ovozi qulog'imni teshib yubordi.* (P.Qodirov).

Shaxsi umumlashgan gap. Kesimi fe'l bilan ifodalanib, umumga qaratilgan bir bosh bo'lakli gap shaxsi umumlashgan gap deyiladi.

Bunday gaplarda hayotiy xulosalar, hayotiy tajribalar, umumiy qoidalar, umumlashgan mulohazalar ifoda qilinadi.

Shaxsi umumlashgan gapning kesimi ko'pincha buyruq-istak maylining ikkinchi shaxs shakli bilan ifodalanadi.

Maqollar ko'pincha shaxsi umumlashgan gap shaklida bo'ladi: *Bilmagan ishga urinma, urinib tuzoqqa ilinma.* (Maqol). *Tulkining tavbasidan qo'rq, mug'ambirning - yig'isidan.* (Maqol). *Kattani katta bil, kichikni –kichik!* (Maqol). *Tilingni botir qilma, o'zingni botir qil* (Maqol).

Shaxsi umumlashgan gapning kesimi ba'zan buyruq-istak maylining birinchi shaxs ko'plik shakli orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *Xushmuomalali bo'laylik, bu go'zal sifat baxt-saodatning tuganmas xazinasi ekanini unutmaylik.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). *Qarilikning yuzimizdan ko'ra aqlimizda ajinlar hosil qilishdan ehtiyot bo'laylik.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

Shaxsi umumlashgan gapning bosh bo'lagi ot kesim shaklida ham qo'llanishi mumkin. Masalan: *Kattaga xizmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l.* (Maqol). *Salobatli bo'lma, sabotli bo'l.* (Maqol).

2. Egasi topilmaydigan gap

Kesimi orqali harakatni bajaruvchi shaxs (ega)ni topish mumkin bo'lmagan bir bosh bo'lakli gap **egasi topilmaydigan** yoki **shaxssiz gap** deyiladi.

Bunday gaplarda egani kiritib ham bo'lmaydi, gapning kesimi orqali aniqlab ham bo'lmaydi.

Egasi topilmaydigan gapning kesimi ko'pincha tarkibli bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

1. *-(i)b* affiksli ravishdosh hamda «*bo'ladi*»// «*bo'lmaydi*» so'zi bilan: *El og'ziga elak tutib bo'lmaydi. (Maqol). Momaqalldiroqning gumburiga chidab bo'lmaydi. (J.Abdullaxonov). – Nima endi, haq gapni ham gapirib bo'lmaydimi? ... so'radi u. (F.Musajonov).*

2. Shart maylidagi fe'l hamda «*bo'ladi*»// «*bo'lmaydi*» so'zi bilan: *- Shu tor yo'ldan Afg'onistonga o'tsa bo'ladi. (K.Yashin).*

3. Harakat nomi va «*zarur*», «*mumkin*», «*shart*», «*lozim*», «*darkor*», «*kerak*» so'zlaridan biri bilan: *Fazilat farzand kabidir. Uni avaylab saqlash va yanada barkamol etish lozim. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Qo'lda bo'lgan pul va molni kerakli joylarga sarf eta bilish, yaxshi idora qila olish uchun isrofdan saqlanish kerak. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).*

4. «*Yaxshi*», «*yomon*» sifatlari hamda «*bo'ladi*»// «*bo'lmaydi*» so'zi bilan: *Shu shiypon bitmay qolib ketsa, el oldida yaxshi bo'lmaydi. (P.Qodirov).*

5. Majhul nisbati shaklidagi fe'l bilan: *Unga pastdan ikki yuz ellik uchta tosh zinani bosib chiqiladi. (K.Yashin).*

6. «*To'g'ri*» so'zi va «*kelmoq*» fe'lining tuslangan shakli bilan: *Mashina kabinasidan chiqishga to'g'ri keldi. (CH.Aytmatov).*

3. Nominativ (atov) gap

Bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalanib, predmet yoki voqea-hodisalarning hozirgi zamonda yoki zamondan tashqarida mavjudligini tasdiqlovchi bir bosh bo'lakli gap **nominativ, yoki atov** gap deyiladi.

Nominativ gaplarda fikrning nisbiy tugalligi, predikativlik ohang orqali ifodalanadi. Ohang mazkur gaplarda alohida ahamiyat kasb etadi. Ohang tufayli oddiy so'z gapga aylanadi. Nominativ gap, odatda, yakka holda qo'llanmaydi, undan so'ng ko'pincha boshqa bir gap keladi.

Nominativ gaplarda nutq so'zlanib turgan paytda mavjud bo'lgan predmet yoki voqea-hodisalar nomlanadi, qayd etiladi. Bunday gaplar quyidagi semantik xususiyatga ega:

1. Aniq predmetlarning mavjudligini tasdiqlaydi: *Bir chetdagi stol ustida katta- kichik limonlarning suratlari. Boshqa stolda mikroskop. Mayda shishachalarda limon suvlari, yaproq tolqonlari, limon poyalari. (J.Abdullaxonov).*

2. Mavhum predmetlarning mavjudligini tasdiqlaydi: *Avazlarning hovlisida boshqa o'ylar, boshqa tashvishlar. (P.Qodirov).*

3. Turli tabiat hodisalarining mavjudligini tasdiqlaydi: *Yaproqlar... yaproqlar! Quyosh shu'lasida jilva urib, cho'g' dek tovlanib turgan oltinrang va shafaqrang yaproqlar! Hazin va za'faron yaproqlar! O, ko'p latofat bor sizlarda! (F.Musajonov). Ariq bo'yida gulsapsar, namozshomgul, rayhon, uch-to'rt tup atirgul, yarim bo'yracha joyda elpillab o'sgan o'sma. (Oybek).*

4. O'rin-joyning mavjudligini tasdiqlaydi: *Cho'l! ... CHo'lning ham o'z gashti bor, zavqi bor! (SH. Xolmirzaev). Tanish ko'cha. Yo'l yoqasida o'sha novcha daraxtlar! (SH. Xolmirzaev).*

5. Aniq paytini tasdiqlaydi: *Mayning oxirlari. Vodiylarda barvaqt xazon bo'lgan lolaqizg'aldoqlar Turkiston tizma tog'ining etaklarida endi ochilgan.*

(P.Qodirov). *Xazonrezlik payti. Xirot bog‘lariga suv beradigan Hiriyrud daryosi va Injil anhorining qirg‘ oqlariga za‘faron yaproqlar to‘kilgan.* (P.Qodirov).

6. Hayot voqealarini tasdiqlaydi: *Yoqimli ohang, zavqli qo‘shiqlar. Anorxon yo‘lidan to‘xtab tinglaydi.* (J.Abdullaxonov).

7. Ko‘rsatishni ifoda qiladi: *Mana, yosh-yosh chinorlar! Barglari to‘kilmabdi. Shoxlarini qor bosgan. Ana, archalar.* (SH. Xolmirzaev). *Ana, akasi bilan yangasi turadigan imorat. Bu imorat Zeboga yaqin, aziz ko‘rinib ketdi.* (SH. Xolmirzaev).

Nominativ gap yig‘iq va yoyiq bo‘lishi mumkin. Yig‘iq nominativ gap bosh bo‘lakning o‘zidan iborat bo‘lsa, yoyiq nominativ gap bosh bo‘lakdan tashqari ikkinchi darajali bo‘laklardan tashkil topadi. Masalan: *Kechqurun. Quyosh ufqni qip-qizil qondek lovillatib botib bormoqda.* (Oybek). *Iliq tun. Qumlarning shitirlashi suv yuzida engilgina suzgan qayiq sasiyday mayin sadoni eslatadi.* (J.Abdullaxonov).

4. Infinitiv gaplar

Bunday gaplar grammatik asosi harakat nomi bilan ifodalanadigan, yakka so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat bo‘lgan gaplardir: ***Sevish! Bu qanday baxt! Birovni kutish! Bundan azob narsa bo‘lmasa kerak!***

Takrorlash uchun savollar:

1. Sodda gaplarning ta‘rifini ayting.
2. Qo‘shma gaplarning ta‘rifini ayting.
3. Sodda gaplarning grammatik asosga ko‘ra turlari haqida gapiring.
4. Ikki bosh bo‘lakli gaplarning turlari haqida gapiring.
5. Shaxsi ma‘lum gap haqida gapiring.
6. SHaxsi noma‘lum gap haqida gapiring.
7. SHaxsi umumlashgan gap haqida so‘zlang.
8. Shaxsi topilmas gap haqida gapiring.
9. Atov gaplar haqida gapiring.
10. So‘z gaplar haqida gapiring.
11. To‘liqsiz gaplar ta‘rifini ayting.
12. To‘liqsiz gaplarning turlari haqida gapiring.
13. To‘liqsiz gaplarda qanday bo‘laklar tushirilishi mumkin?

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan test savollari:

1. **Yomon urug‘dan yaxshi hosil kutma.** Ushbu gap grammatik asosiga ko‘ra qanday gap?
A) shaxsi ma‘lum gap B) shaxsi topilmas gap C) shaxsi umumlashgan gap D) shaxsi noma‘lum gap
2. **Ikki bosh bo‘lakli gap qaysi qatorda?**
A) *Kulmoq hamisha umrni uzaytiradi.* B) *Har kuni sport bilan shug‘ullaning.* C) *Paxtakorlik kasbini ulug‘layapmiz.* D) *Sharqda hamma keksalarni shoir hisoblashadi.*
3. **Shaxsi topilmas gapni toping.**
A) *Xalqimizning baxt-u saodati yo‘lida xizmat qilishga tayyorman.* B) *Do‘stini yomonlagandan qoch.* C) *Kiyimni bo‘yga qarab bichadilar.* D) *Yaxshilikning qadriga etish kerak.*
4. **Shaxsi noma‘lum gapni toping.**

A) *She'rd aql bovar qilmas sehr bor.* B) *Sharqda savdogarlarga alohida hurmat bilan qaraganlar.* C) *Go'zallikka boshqa yaxshi fazilatni qo'shishga intiling.* D) *Yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi.*

5. Shaxsi ma'lum gaplarda egani anglatib turuvchi grammatik shakl asosan qaysi?

A) *fe'ldagi shaxs-son qo'shimchasi* B) *1-, 2-shaxsni ko'rsatuvchi olmoshlar* C) *egalik qo'shimchasi* D) *kesimga berilgan so'roq*

6. Navro'zingiz muborak! Mustaqil qo'llanuvchi bunday gaplar qanday gap?

A) *atov gap* B) *shaxsi ma'lum gap*
C) *bir bosh bo'lakli gap* D) *to'liqsiz gap*

7. Shaxsi umumlashgan gapni aniqlang.

A) *Aruz vaznining ohangini yurak urishiga o'xshataman.* B) *Birovning izidan gapirma, yuziga gapir.* C) *Zo'r quvonchga faqat katta mehnat bilan erishish mumkin.* D) *Farzandni gulga, onani bo'stonga o'xshatadilar.*

8. Shaxsi topilmas gapni belgilang.

A) *Kiyimni bo'yga qarab bichadilar.* B) *Umr bo'yi bilimni boyitib borish lozim.* C) *Xalqimning baxt-u saodati yo'lida xizmat qilishga tayyorman.* D) *Do'stini yomonlagandan qoch.*

9. Atov gapni toping.

A) *Haqiqatni yashirib bo'lmaydi.* B) *Ko'p yig'lasang, ko'zdan ajraysan.* C) *Bu erda bemorni musiqa bilan davolaydilar.* D) *Bahor. Tog'lar, qirlar yashnab ko'rinadi.*

10. So'z-gap qaysi qatorda bor?

A) *Hayot kitobiga hech qachon yakun yasab bo'lmaydi.* B) *- Bu gap esingdan chiqmasin. Xo'p, taqsir.* C) *- Ertaga teatrga borasizmi? -Yo'q, borolmayman.* D) *Avlod uchun otadan ham ulug'roq kishi bormi? - Bor.*

11. To'liqsiz gapni toping.

A) *- Shundaymi? - yoqasini ushladi chol.* B) *- Familiyangiz nima? - A'zamxonova.* C) *Sabr - umr xazinasi.* D) *- Ertaga Qorabuloqqa borar ekansiz-da?*

12. Nutqda qanday gap yakka holda qo'llanmaydi?

A) *to'liqsiz gaplar* B) *shaxssiz gaplar*
C) *shaxsi ma'lum gaplar* D) *atov gaplar.*

13. Sodda gaplar grammatik asosiga ko'ra necha xil bo'ladi?

A) *sodda va qo'shma gap* B) *yig'iq gap va yoyiq gap* C) *to'liq va to'liqsiz gap* D) *bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gap*

14. Imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rdingmi? - Ha, tayyorgarlik ko'rdim. Ushbu gapdagi ha so'zini qanday izohlaysiz?

A) *gap* B) *so'z gap* C) *kirish so'z* D) *atov gap*

15. Qaysi qatorda bir bosh bo'lakli gap berilgan?

A) *Bu yil olma bilan o'rik hosili mo'l bo'ldi.* B) *Sochilgan urug' tez unib chiqdi.* C) *Bir tup tok eksang, bir tup tol ek.* D) *Suvlar tiniq, yaproqlar oltin.*

16. Qaysi qatorda bir bosh bo'lakli gap berilgan?

A) *Quyosh yotog'idan bosh ko'tardi.* B) *Xom suvni ichib bo'lmaydi.* C) *Qimirlagan qir oshar.* D) *Ko'chada hech kim yo'q.*

17. Bir bosh bo'lakli gap qo'llangan qatorni aniqlang.

A) *Qo'rqqoq hamma narsadan mahrum.* B) *Elni ixtilof buzadi.* C) *O'tgan narsa hamisha totli.* D) *Toshdan gavharni farq qilish kerak.*

18. Shaxsi ma'lum gapni toping.

A) *Otangning amaliga suyanma.* B) *Kitoblarni kutubxonaga topshirgani ketdi.* C) *Hayotni go'zalliksiz tasavvur etib bo'lmaydi.* D) *Keksalikni ko'priikka tashbeh qiladilar.*

19. Bir bosh bo'lakli gapni toping.

A) *Insonni bilish uchun uni sevish kerak.* B) *Nahotki, bugun yomg'ir yog'sa?* C) *Hayotning go'zalligi ham xalqlarning rang-barangligida emasmi?* D) *Saida bu suhbatni diqqat bilan kuzatdi.*

20. Qish kelib, o'riklar gulladi. Ushbu gap qaysi jihatdan bog'lanmagan?

- A) grammatik jihatdan B) ohang jihatdan
 C) mazmun jihatdan D) grammatik va mazmun jihatdan
- 21. Sodda va qo'shma gaplar asosan qaysi xususiyatga ko'ra farqlanadi?**
 A) sodda va qo'shma gaplar tarkibidagi bo'laklarning ko'p yoki ozligiga ko'ra B) grammatik asoslar miqdoriga ko'ra
 C) qo'shma gapda ikki va undan ortiq alohida sodda gaplar ishtirok etishiga ko'ra. D) B va C
- 22. Quyidagi gap qaysi qatorda grammatik jihatdan noto'g'ri tahlil qilingan? Ko'p o'qigan kishi ko'p biladi.**
 A) qo'shma gap B) ergash gapli qo'shma gap C) ikki bosh bo'lakli gap D) A va B.
- 23. Siddiqjon nimalar to'g'risida so'zlad? – Maktab tajriba uchastkasi haqida. Bu to'liqsiz gapda qaysi bo'laklar ifodalanmagan?**
 A) ega B) kesim C) aniqlovchi D) ega, kesim
- 24. Bir bosh bo'lakli gap qaysi qatorda?**
 A) Mayin shamol sadalarning ko'm-ko'k yaproqlari bilan o'ynashmoqda. B) Ma'naviy fazilatlar husnni oshiradi. C) Hamma narsaga asta-sekin erishiladi. D) Men bu institutning dovrug'ini ko'p eshitganman.
- 25. Shaxsi umumlashgan gap qaysi qatorda berilgan?**
 A) Yaxshilik qilganga zinhor yomonlik qilma. B) Qirq besh yildan beri she'r yozaman. C) Tabiatni onaga qiyos qilishadi.
 D) Ma'naviyatsiz yashab bo'lmaydi.
- 26. Shaxsi topilmas gap qaysi qatorda?**
 A) Bu xabarni eshitganman. B) Umrni oqar suvga o'xshatishadi. C) Mehnat bilan hamma narsaga erishsa bo'ladi. D) Oydin kecha. Hali tong otishidan darak yo'q.
- 27. Shaxsi noma'lum gapni toping.**
 A) Nimani xor tutsang, shunga zor bo'lasan. B) Halol odamni badnom qilib bo'lmaydi. C) Bilmaganni boshqalardan o'rganadilar. D) Sizga baxt tilayman.
- 28. Atov gap qaysi qatorda?**
 A) Xo'p, o'rtoq shifokor! B) Bolalikka buyuk ehtrom bilan qarash lozim. C) Mana Hirot. Husayn Boyqaro saroyi. Hamma motamda. D) Shu yorug' yo'lda sizga zo'r baxtlar tilayman.
- 29. Tasdiqni bildiruvchi so'z-gapni belgilang.**
 A) - Kecha muzeyga bordingizmi? - Ha, bordik. B) Laylakning ketishini emas, kelishini kutadilar. C) Uh! Rosa charchadim.
 D) - Ertaga Yangi erga borasizmi? - Ha.
- 30. Odobli kishini hamma hurmat qiladi. Ushbu gap tahliliga oid javoblarning qaysi biri xato?**
 A) sodda gap B) sodda yoyiq gap
 C) darak gap D) shaxsi umumlashgan gap.
- 31. Bir bosh bo'lakli gap qaysi qatorda berilgan?**
 A) Halol mehnat kishini ulug'laydi. B) Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin. C) Paxtakor o'zbekman - zabardast, mag'rur. D) Aytilgan so'z – otilgan o'q.
- 32. Qaysi qatorda to'liqsiz gap bor?**
 A) Bu maydonga nima ekiladi? B) Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm. C) Farg'ona vodiysi naqadar go'zal! D) Abdulla kelayotgan emish. - Rostdanmi?
- 33. Ikki dugona termilib qolishdi. Bu gap grammatik asosiga ko'ra qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?**
 A) bir bosh bo'lakli gap B) yig'iq sodda gap
 C) yoyiq sodda gap D) shaxsi ma'lum gap
- 34. Yigit ham shunaga bo'ladimi? Ushbu gap qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?**
 A) sodda yig'iq gap B) sodda yoyiq gap C) bir bosh bo'lakli gap D) A va C
- 35. Qaysi qatorda bir bosh bo'lakli gap berilgan?**

A) Balki zavod qurish uchun ovora bo'lishga to'g'ri kelmas. B) Rahmat, mulla Jo'ra, ming rahmat. C) Shoir qalbi go'yo anor, she'ri uning sharbati. D) To'lqin urgan ummoncha bor yurakdagi tug'yonim.

36. Ham ega, ham kesim guruhidan iborat bo'lgan gapni aniqlang.

A) Tepalikdagi chinor va ikki tup sadaqayrag'och to'rt kishilik talay supalarga soya soladi. B) Zo'r quvonchga faqat katta mehnat bilan erishish mumkin. C) Maydondagi favvoralar rang-barang shu'lalari bilan porlaydi. D) A,C.

GAP BO'LAKLARI

1-§. Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot

Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi **gap bo'lagi** deb ataladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. So'zlarga so'roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qo'shimchalar olishi tom ma'noda gap bo'laklarining turlarini belgilashda asos bo'la olmaydi. Gap bo'laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, to'ldiruvchi to'ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo'lak bo'lmas ekan, u yoki bu gap bo'lagi haqida gapirish mumkin emas.

Gap bo'laklarining gap tarkibidagi mavqei bir xil emas. Ba'zi gap bo'laklari gap qurilishida markaziy o'rinni egallaydi, bunday bo'laklarsiz fikr anglashilmaydi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida asosiy rol o'ynamaydi, ularning ishtirokisiz ham bosh bo'laklar orqali fikr anglashilaveradi. SHunga ko'ra gap bo'laklari ikki turga ajratiladi:

- 1) bosh bo'laklar;
- 2) ikkinchi darajali bo'laklar.

Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi.

Ikkinchi darajali bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qilmasdan, uni hajm jihatdan kengaytiradi yoki so'z birikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklar bilan yoki o'zaro tobe aloqada bo'lib, ularni izohlash, aniqlash, to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Bosh bo'laklar ega va kesimdan iborat. Ikkinchi darajali bo'laklar aniqlovchi, to'ldiruvchi va holdir.

2-§. Gapning bosh bo'laklari

1. Ega va uning ifodalanishi

Kesim orqali izohlanadigan fikr predmetni anglatadigan, gapning boshqa bo'laklariga tobe bo'lmagan bosh bo'lakka ega deyiladi.

Ega keng ma'noda predmet tushunchasini bildirib, kesimdan anglashilgan predikativ belgining kimga yoki nimaga qarashlilikini ko'rsatadi.

Ega bosh kelishikdagi birliklar bilan ifodalanib, *kim? nima? qayer?* soʻroqlaridan biriga javob boʻladi.

Ega, odatda, yakka soʻz: ot, olmosh, harakat nomi, otlashgan soʻz (sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravishdosh, ravish, taqlid soʻz, undov soʻz, modal soʻz) bilan ifodalanadi.

Eganing ot bilan ifodalanishi. Bosh kelishikdagi atoqli yoki turdosh ot koʻpincha ega vazifasini bajaradi: *Sirdaryo hammasini yigʻib olib, rosa kuchga toʻladi-da.* (P.Q.).

Chor-atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga toʻldi. (Oʻ.H.).

Eganing olmosh bilan ifodalanishi. Ega bosh kelishik shaklidagi ot oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlar bilan ifodalanadi: *Ular kulimsirab askiyaga quloq solishdi* (P.Q.) *Kimdir unga darrov bir kosa ovqat keltirib berdi.* (Oʻ.Usmonov). *Oʻzingiz juda aqlli, uzoqni koʻradigan odamsiz.* (S.Soliyev).

Eganing harakat nomi bilan ifodalanishi. Ega harakat nomi bilan ifodalana oladi: *... ariqdan yaan suvning shildirashi eshitila boshladi...* (P.Q.). *Boshliq boʻlish oson, boshlamoq qiyin.* (Maqol).

Eganing otlashgan sifat bilan ifodalanishi. Sifatlar otlashib, gapda ega boʻlib kelishi mumkin: *Botir topsa, barcha er, baxil topsa, bosib er.* (Maqol). *Yaxshi yaxshining qadriga etar.* (Maqol).

Eganing otlashgan son bilan ifodalanishi. Sonlar ham otlashib, ega vazifasida keladi: *Ikkovi ham bir-biriga juda oʻxshash...* (P.Q.). *Tarbiya axloq va oqillikka tayanmogʻi lozim. Birinchisi yaxshi fazilatni oʻstirsa, ikkinchisi baʼzilarning illatidan himoya qiladi.* («Oz-oz oʻrganib dono boʻlur»).

Eganing otlashgan olmosh bilan ifodalanishi. Ega vazifasida sifat, son oʻrnida qoʻllanuvchi otlashgan olmosh bilan ham ifodalanadi:

Bu, ehtimol, ona suti bilan kirgan gʻayrishuuriy bir tuygʻudir. (P.Q.). *Odamlar uchun xuddi manna shunisi kerak edi.* (CH.Aytmatov).

Eganing otlashgan sifatdosh bilan ifodalanishi. Bosh kelishikdagi otlashgan sifatdosh ega vazifasini bajaradi: *Ishlagan xor boʻlmas* (Maqol). *Qimirlagan qir oshar* (Maqol). *Birlashgan daryo boʻlar, tarqalgan irmoq boʻlar* (Maqol).

Eganing otlashgan ravish bilan ifodalanishi. Ravish otlashganda, gapda ega boʻlib kelishi mumkin: *Koʻp soʻzning ozi yaxshi, oz soʻzning oʻzi yaxshi* (Maqol). *Oʻqishning erta-kechi boʻlmas* (Maqol).

Eganing otlashgan taqlid soʻz bilan ifodalanishi. Taqlid soʻzlar otlashib ega vazifasini bajaradi: *Otning dukura-dukuri relslarning tutashgan joyiga urilayotgan gʻildirak tovushi bilan uygʻunlashib ketardi.* (CH.Aytmatov). *Bu shovqinlarni karnayning vat-vati bosib ketadi.* (S.A.)

Eganing otlashgan undov soʻz bilan ifodalanishi. Ega vazifasida otlashgan undov soʻz kelishi mumkin: *Yer kurrasida qadim-qadim zamonlardan yangragan musiqiy «qur-ey!» bunday keyin ham tinmaydi.* (S.Nurov).

Eganing otlashgan modal soʻz bilan ifodalanishi. Otlashgan modal soʻz esa vazifasini bajarishi mumkin: *Bor soʻylaydi, yoʻq oʻylaydi.* (Maqol).

Ega baʼzan frazeologik ibora bilan ham ifodalanishi mumkin: *Birovning koʻnglini koʻtarish qiyin, koʻnglini choʻktirish esa oson.*

Bundan tashqari, ega soʻz birikmasi yoki gapga teng predikativ birlik bilan ifodalanadi.

Eganing soʻz birikmasi bilan ifodalanishi. Ega vazifasida soʻz birikmasi kela oladi: *Haqiqat va toʻgʻ rilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi.* («Oz-oz oʻrganib dono boʻlur»).

Eganing gapga teng predikativ birlik bilan ifodalanishi. «Ega-kesim» munosabati aks etgan predikativ birlik ega vazifasida kela oladi: *Bilagi zoʻr birni yiqitadi, bilimi zoʻr – mingni (Maqol).*

2. Kesim va uning ifodalanishi

Ega anglatgan predmetning predikativ belgisini ifodalaydigan, ega haqidagi hukmni bildiradigan bosh boʻlak kesim deyiladi.

Kesim oʻzida predikativlikni aks ettiradigan, gapni grammatik jihatdan shakllantiradigan bosh boʻlak hisoblanadi.

Kesim ifoda materialiga koʻra (qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanishiga koʻra) ikki turga ajratiladi: 1) feʻl kesim; 2) ot kesim.

Feʻl kesim. Turli feʻl shakllari bilan ifodalanadigan kesim feʻl kesim deb yuritiladi: *Yoʻl chetida zargʻaldoqlar sayraydi. (P.Q.). Oʻrik qiygʻ os gulluganda, birdan havo sovib, laylakqor yogʻib berdi. (P.Q.).*

Feʻl kesim baʻzan frazeologik ibora bilan ham ifodalanadi: *Togʻ etagida qishloqning mirzateraklari elas-elas koʻzga tashlanadi. (P.Q.).*

Ot kesim. Feʻldan boshqa soʻz turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va b.) bilan, shuningdek, feʻlning harakat nomi shakli bilan ifodalanadigan kesim ot kesim deyiladi.

Kesimning ot bilan ifodalanishi. Ot kesim vazifasida koʻpincha bosh kelishikdagi ot, baʻzan esa oʻrin-payt, chiqish, joʻnalish kelishiklardagi ot yoki koʻmakchi bilan qoʻllangan ot kelishi mumkin: *Yoshning hurmati - qarz, qarining hurmati – farz. (Maqol).*

Soʻz koʻrki - maqol. (Maqol). Oʻsha kuni Norboy ota dalada edi. (Pirimqul Qodirov). Safaviylar ham oʻzimizning turkiy ulusdan. (Pirimqul Qodirov)

Ot bilan ifodalangan kesim nafaqat bosh kelishik shaklida, baʻzan joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishiklar shaklida boʻlishi mumkin, hatto koʻmakchi orqali shakllangan boʻlishi mumkin. Masalan: *Ilmu hunar erga emas, elga. (Maqol). Haqiqat kuchda emas, kuch haqiqatda. (V.Katayev). Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun. (Maqol).*

Kesimning sifat bilan ifodalanishi: *Oʻrmon ichi sersoya, salqin. (P.Qodirov) Uning boʻyi baland edi. (P.Qodirov)*

Kesimning son bilan ifodalanishi: *Besh karra besh-yigirma besh. Qayiq kattagina, eshkagi toʻrtta edi. (P.Qodirov) Soʻzimiz, vaʻdamiz, ahdimiz bitta, doʻstlikda yaratgan baxtimiz bitta. (Maqol).*

Kesimning ot bilan ifodalanishi : *Endi navbat sizniki. (P.Qodirov) Sen uning kimi boʻlasan? (CH.Aytmatov) Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun. (Maqol)*

Kesimning harakat nomi bilan ifodalanishi: *Bir ko‘rgan bilish, ikki ko‘rgan tanish. (Maqol)*

Kesimning ravish bilan ifodalanishi: *Podshoni kuyov qilishga havasmandlar ko‘p edi. (P.Qodirov)*

Kesimning modal so‘z bilan ifodalanishi: *Oy tunda kerak, aql kunda kerak. (Maqol) Tengdoshlari ichida undan tez chopadigani, chillak otishda undan ustasi yo‘q. (P.Qodirov)*

Kesimning undov so‘z bilan ifodalanishi:

Ellarni qutqazgan mardlarga balli!

Mardlarni etkizgan yurtlarga balli!

(M.Shayxzoda)

Kesim tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: Sodda kesim va tarkibli kesim.

1) sodda kesim yakka bir asosli fe‘llar bilan ifodalangan kesimlar hamda bog‘lamasiz kelgan ot kesimlardir. Sodda kesim ifoda materialiga ko‘ra ikki xil: sodda fe‘l kesim, sodda ot kesim.

a) sodda fe‘l kesim tuzilgan fe‘l, ravishdosh, sifatdosh bilan ifodalangan kesimdir. Masalan: *Ot yiqilayotganda, Humoyun oyoqlarini uzangidan chiqarib egardan qumga sakradi. (P.Qodirov) Qalin qorlar erib, o‘tlar ko‘karib qoldi. (CH.Aytmatov)*

b) sodda ot kesim fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov so‘z, modal so‘z, shuningdek, fe‘lning harakat nomi bilan ifodalangan kesimdir. Masalan: *Yolg‘onchi kishi har kim qoshida bebro‘dir. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur») Keng-keng ko‘chalari bor-u, lekin markazi tiqilinch. (P.Qodirov) Soyda tosh ko‘p, terib chiqaraverasan. (P.Qodirov)*

2) tarkibli kesim Ikki va undan ortiq so‘z shakllarining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan kesimdir. U doim yetakchi va yordamchi qismlardan tashkil topib, yetakchi qism asosiy ma‘noni, yordamchi qism qo‘shimcha ma‘noni ifodalaydi. Ifodalanishiga ko‘ra tarkibli kesim ham ikki xil: tarkibli fe‘l kesim, tarkibli ot kesim bo‘ladi.

a) tarkibli fe‘l kesim fe‘lning analitik shakli bilan ifodalanadi. Bunda o‘zining leksik ma‘nosini saqlagan fe‘l etakchi fe‘l, qolganlari esa ko‘makchi fe‘l yoki to‘liqsiz bo‘lib, etakchi fe‘ldan anglashilgan harakatning bajarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan turli qo‘shimcha ma‘nolarni ifodalaydi. Yetakchi fe‘l asosan ravishdosh shaklida bo‘ladi. Masalan: *Bu yumshoq, mulohazali odamga yotoqdoshlarning mehri oshib qolgan edi. (A.Muxtor). O‘rmon ichidan qushlarning sayrashi... eshitilib turadi. (P.Qodirov).*

b) tarkibli ot kesim fe‘ldan boshqa so‘z turkumlarining bog‘lama bilan birikishidan yuzaga keladi. Bunda tarkibli ot kesimning ot qismini ot, sifat, son, olmosh, ravish etakchi qismini tashkil qiladi, yordamchi qismini esa bog‘lama vazifasidagi «bo‘lmoq», «sanalmoq», «hisoblanmoq», «tuyulmoq» kabi fe‘llar, shuningdek, «edi», «ekan», «emish» to‘liqsiz fe‘li tashkil etadi.

Tarkibli ot kesimda asosiy ma‘no etakchi qism, ot qismida bo‘ladi. Yordamchi qism, bog‘lama esa qo‘shimcha ma‘noni, grammatik ma‘noni: mayl, zamon, shaxs-son ma‘nolarini ifodalaydi.

O‘zbek tilida bog‘lamani qo‘llanishiga ko‘ra ikki turga ajratish mumkin:

1. Soʻz bogʻlamalari: boʻlmoq, hisoblanmoq, sanalmoq, koʻrinmoq, tuyulmoq, edi, ekan kabilar.

2. Affiks bogʻlama: -dir.

Affiks bogʻlama sodda ot kesim tarkibida qoʻllanib, doimiy sintaktik zamoni ifodalaydi. Masalan:

Agar yolgʻiz esang hamdam kitobdir.

Bilim subhidagi nur ham kitobdir. (Abdurahmon Jomiy)

Koʻpincha mazkur bogʻlanma qoʻllanmasligi mumkin, nol shaklida ishlatilishi mumkin: *Aqlning oʻlchovi – idrok Ø. (Maqol). Dono durdan aʻlo Ø. (Maqol).*

Soʻz bogʻlama tarkibli ot kesimni shakllantiradi va turli mayl, zamon, shaxs-son maʼnolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Yomonga bosh boʻlguncha, yaxshiga yoʻldosh boʻl. (Maqol). Uying tor boʻlsa ham, koʻngling keng boʻlsin. (Maqol). Shirboz qoʻzining tandir kabobi juda yaxshi boʻladi-da. (P.Qodirov). Avazning akasi Ortiq shu edi (P.Qodirov).*

Tarkibli ot kesim harakat nomi + kerak, lozim, mumkin, shart, darkor kabi soʻzlar shaklida ham kelishi mumkin. Masalan: *Endi jiyan panoh istab borsa, qanoti tagiga olishi mumkin. (P.Qodirov). Bu vatanni tashlab ketmoqchi boʻlganlarga qatʼiy zarba berilmogʻi lozim. (P.Qodirov).*

3-§. Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi

Yozuvda baʼzan kesim bilan ega orasida tire ishlatiladi. Bu quyidagi holatlarda sodir boʻladi:

1. Kesim ot, olmosh, son bilan ifodalanib, -dir affiks bogʻlamasi qoʻllanmaganda: *Mehnat - hurmatning toji. (Maqol). Tashqaridagi gap – kir oʻradagi magʻzava (Shuhrat). Toʻrt karra toʻrt - oʻn olti.*

2. Gapning egasi yoki kesimi, yo boʻlmasa ham egasi, ham kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, -dir bogʻlamasi boʻlmaganda: *Bekor yurish – illatning onasi, gʻurbatning makoni. («Tafakkur gulshani»). Oʻqish - ulgʻayish. (Maqol). Tilni bilish – dilni bilish (Maqol).*

3. Ega koʻrsatish olmoshi bilan ifodalanib, kesim tarkibida affiks bogʻlama ishlatilmaganda: *Bular – koʻm-koʻk dov-daraxtlar. (K.YAshin).*

GAPNING IKKINCHI DARAJALI BOʻLAKLARI

1-§. Aniqlovchi

Predmet maʼnosini bildiruvchi soʻzni izohlaydigan va uning belgisini anglatadigan ikkinchi darajali boʻlakka aniqlovchi deyiladi.

Aniqlovchi predmetning xususiyatini, qarashlilikini va shu kabilarni ifodalaydi. Aniqlovchi leksik-semantik va grammatik jihatdan uch xil boʻladi: sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi.

1. Sifatlovchi aniqlovchi

Aniqllovchining bu turi ot bilan ifodalangan bo‘lakka odatda bitishuv yo‘li bilan bog‘lanib, otdan anglashilgan predmetning belgi xususiyatini, sifatini, miqdorini, o‘ringa munosabatini bildiradigan aniqllovchining bir turidir. U *qanday?, qanaqa?, qaysi?, qancha?, necha?, nechanchi?, qachongi?, qaerdagi?* so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Sifatlovchi bog‘lanib kelgan so‘z **sifatlanmish** deb ataladi.

Sifatlovchi turli so‘z turkumlari bilan ifodalanadi:

1) sifat bilan: *Quyoshning issiq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo‘lib qoldi. (O‘.Hoshimov). Rang-barang gullar, har xil ekinlar, bog‘lar, suvlar quyoshda yashnab tovlanadi (Oybek). YAxshi so‘z, yaxshi muomala, ishq-muhabbat – insonni insonga, qalbni qalbgga bog‘laydigan sehrli ip. (SH.Ubaydullaev).*

2) son bilan: *Ikkita zog‘ora non bilan to‘rtta turshakni dasturxoniga qo‘yib tamaddi qilgan bo‘ldim. (O‘.Hoshimov). Birinchi qor ham shu tepalik boshiga yog‘adi, birinchi maysalar ham Xirmontepa bag‘ rida ko‘karadi. (O‘.Hoshimov). Uch-to‘rtta yirik-yirik qora qushlar nimanidir mo‘ljalga olib shoshilmay aylanishadi. (P.Qodirov).*

3) olmosh bilan: *Allaqaysi dengiz qushlarining odati qiziq ekan. (O‘.Usmonov) Har bir qiyinchilikdan so‘ng bir rohat bor. (Maqol).*

4) ot bilan: *Asfalt ko‘chaning u er bu erida suv xalqob bo‘lib yotardi. (O‘.Hoshimov). Kumush so‘zingni chaqaga mayda qilma. (Maqol).*

-dagi affiksini olgan otlar ham sifatlovchi vazifasini bajaradi. Masalan: Uydagi har bitta buyum Ma‘sudani esimga soladi. (P.Q.). Toshkentlik yosh olim... atrofda cho‘ponlarni to‘plab, ziyofat qilib bermoqda... edi. (P.Q.).

5) sifatdosh bilan: *Unda dam oladigan va yo tunab qoladigan manzil yo‘q. (K.Yashin). Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt. (Maqol).*

6) ravish bilan: *Ko‘p befoyda narsalarni o‘rganganingdan ko‘ra senga doimo xizmat qiladigan besh-o‘nta yaxshi o‘gitni bilganing ma‘qulroq. (Seneka).*

7) taqlid so‘z bilan: *G‘ir-g‘ir mayin bahor shamoli. (Oybek). Bir gala o‘rdak kanal bo‘yiga tushdi. Bularning g‘aq-g‘uq ovozi ancha vaqtgacha bosilmadi. (S.Ahmad).*

Sifatlovchi ba‘zan so‘z birikmasi bilan ham ifodalanadi. Masalan: *Qarama-qarshi turgan ikki eshikning birini shaxt bilan ochdi... (P.Qodirov). Dunyoda xushfe‘l, olijanob, hamisha ezgu niyat bilan ish qiladigan odamlar juda ko‘p (O.Husanov).*

Sifatlovchi vazifasini gapga teng predikativ birliklar ham bajarishi mumkin: *Himmatini zo‘r kishining qimmatini zo‘rdir. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).* Yarmi nazokatdan va yarmi sadoqatdan iborat bo‘lgan shijoat va matonat go‘zal fazilatning asosidir. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

2. Qaratqich aniqllovchi

Bu aniqllovchi ot yoki otlashgan so‘z bilan ifodalangan bo‘lakka muvofiqlashuv yo‘li bilan bog‘lanib, o‘zi ifodalayotgan shaxs yo predmetga

boshqa bir shaxs yoki predmetning qarashli, tegishli ekanini bildiruvchi aniqlovchining bir turidir. U *kimning? nimaning? qaerning?* soʻroqlaridan biriga javob boʻladi.

Qaratuvchi bogʻlanib kelgan soʻz **qaralmish** deb yuritiladi.

Qaratuvchi quyidagicha ifodalanadi:

1) ot yoki ot oʻrnida qoʻllanadigan olmosh bilan: *Tip-tiniq fazoning bir burchida turnalar karvoni koʻrindi. Zum oʻtmay ularning oʻychan sadolari havoni toʻldirdi... (Oʻ.Hoshimov).*

2) harakat nomi bilan: *U bilan uchrashishning ming xil yoʻlini izladi. (S.Ahmad). Ovora boʻlmoqning nima zarurati bor? (A.Qodiriy).*

3) otlashgan sifat bilan: *Nomardga ishi tushmagan mardning qadrini bilmas. (Maqol). Tekinning minnati koʻp, mehnatning ziynati koʻp. (Maqol). Qoʻrqoqning koʻzi katta, axmoqning soʻzi katta. (Maqol).*

4) otlashgan son bilan: Oʻnning yarmi – besh.

5) otlashgan olmosh bilan (sifat, son oʻrnida qoʻllanadigan otlashgan olmosh bilan): *Buning sababi koʻp. (P.Qodirov).*

6) otlashgan sifatdosh bilan: *Oʻqiganning tili koʻp uzun boʻladi. (Maqol).*

7) otlashgan ravish bilan: *Ertaning buguni bor, bugunning ertasi bor. (Maqol).*

Qaratuvchi baʼzi hollarda soʻz birikmasi bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: ... *kim boʻlsa ham beklardan birining shunday tinchsizlik chiqarishigʻa «mumkin va boʻladir an ish» deb qarar edi. (A.Qodiriy). Choʻqqida yashashning taʼrifi ulugʻ, choʻqqidan olam keng, choʻqqida - yorugʻ !!! (Shuhrat).*

Qaratuvchi gapga teng predikativ birlik bilan ham ifodalanadi. Masalan: *Uyda rohati yoʻqning koʻchada farogʻati yoʻq. (Maqol). Dili qingʻirning tili qingʻir. (Maqol). Qizi borning nozi bor. (Maqol).*

Qaratuvchi ikki xil shaklda boʻlishi mumkin: belgili va belgisiz. Aniqlovchi qaratqich kelishigi affiksini olgan boʻlsa, belgili boʻladi. Masalan: *Har narsaning dalili bor: aqlning dalili – fikr, fikrning dalili sukutdir. («Oz-oz oʻrganib dono boʻlur»).*

Aniqlovchi qaratqich kelishigi affiksini olmagan boʻlsa, belgisiz sanaladi. Masalan: *Xullasi, ikala qalʼa ahli bir-biri bilan ahil, bir onaning bolasidek yashar ekan. (S.Ahmad). Mashina Hazrat Botir burulishiga kelganda, Tolibjon kabina tomini tapillatib urdi. (S.Ahmad).*

3. Izohlovchi

Bu boʻlak aniqlovchining bir turi sifatida oʻzi aloqador boʻlgan soʻzga bitishuv yoʻli bilan bogʻlanib, uni boshqacha nom berish yoʻli bilan aniqlab, izohlab keladi.

Izohlovchi bogʻlanib kelgan soʻz **izohlanmish** deb qaraladi.

Izohlovchi, asosan, ot bilan ifodalanib, quyidagi maʼnolarni bildiradi:

1) unvonni: *Orqadagi «Chayka»dan general Luqmonov tushdi. (S.Ahmad). Roʻpara kelgan bir ayoldan: «Professor Jabborov qayerda oʻtiradi?»- deb soʻradi. (Oʻ.Usmonov).*

2) **amalni:** *Qishloq xo'jalik bo'limining mudiri Zokir Qo'shmoqov qotmadan kelgan, jikkakina yigit bo'lib, harakatchan yigit edi. (O'.Usmonov). Ko'rinishidan qo'rs odamga o'xshab ketadigan bo'lim mudiri O'sar Qurbonovich kirib keldi. (Y.Yakvalxo'jaev).*

3) **kasbni, mutaxassislikni:** *Rafiqov idorada turolmaydi, chunki idorada hisobchi Umar Alidan boshqa hech kim yo'q. (A.Qodiriy). Adabiyot o'qituvchisi YAmin afandi bir dasta insholar yozilgan daftarlar ustiga bitta kitob qo'yib, kirib kelarmish (Y.Yakvalxo'jaev). U rassom O'rol Tansiqboev asarlarining nushasini jurnallardan qirqib olib saqlardi. (S.Ahmad).*

4) **qarindoshlikni:** *Nomimni dadam emas, bobom Ahmadbek hoji qo'ygan ekanlar. (Y.Yakvalxo'jayev). Hojar xolam ham qozon nonni yopadilar-ku. (P.Qodirov). Saltanatning ukasi Mirvosil armiyadan ta'tilga kelgani, shunda qarindosh-urug'larining barii yig'ilganini xabarlashdi. (O'.Usmonov).*

5) **laqabni:** *Mahamat chatoq keyingi fikrlarini bir safga jamlayotganday tag'in bir oz jim qoldi. (O'.Usmonov). Islom Novcha ketmonini qo'liga olib, hammadan yarim gaz yuqori turgan qaddi bilan g' o'zaning ustiga keladi. (A.Qodiriy). Dalavoy kal dadangni tanirdi, o'shandan so'radim. (S.Ahmad).*

6) **taxallusni:** *Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek - taniqli o'zbek yozuvchisi.*

7) **jinsni:** *Nahot qiz bola o'z otasini shunchalik mensimasa? (O.YOqubov). Maktab yonidagi ikki xonali uychada o'qituvchi qiz CHO'lponoy istiqomat qiladi. (P.Qodirov).*

8) **yaqinlikni:** *Yana do'stim Mamajon Ali jonimga oro kirdi. (Y.Yakvalxo'jaev). Malohatxon dugonasi Hamida bilan Akromni xazil-mutoyibalar bilan kuzatib qo'yishar edi. (O.YOqubov).*

Izohlovchi ba'zan so'z birikmasi bilan ham ifoda etiladi. Masalan: *Ayniqsa, yosh olim Aziz Qosimovning xizmatlari salmoqli bo'ldi. (O'.Usmonov). Xonaga kichkina sandiqcha ko'tarib, asab doktori SHamsiqamar kirib keldi. (Y.Yakvalxo'jaev). Bu ma'ruza institutning bosh arxitektori Zafar Boboevning bir loyihasi to'g' risida edi. (O.Y.)*

Izohlovchi izohlanmishdan oldin ham, undan keyin ham kelishi mumkin: *So'ng boshqarma boshlig'i G'iyosiddinovni esladi. (P.Qodirov). U dadasi bilan mendan tashqari, Oqsoqolga, Xolposh xolasiga, Potma-Zuhra kelinoyilariga salom aytibdi. (O'.Hoshimov).*

2-§. To'ldiruvchi

Ko'pincha fe'l bilan ifodalangan, ba'zan fe'ldan boshqa ayrim so'zlar bilan ifodalangan bo'lakka boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, uning ma'nosini to'ldirib keladigan ikkinchi darajali bo'lak to'ldiruvchi deyiladi.

To'ldiruvchi boshqaruvchi so'zning talabiga ko'ra kelishik affikslari (qaratqich kelishigidan tashqari) yoki ko'makchilar orqali shakllanadi. Masalan: *Aql va idrok quyoshga o'xshaydi, ular dog'larni bekitadi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).* To'g' rilik bilan xiyonat, yolg' onchilik bilan diyonat chiqisha olmaydi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

To'ldiruvchi o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan (fe'l, sifat, ravish, ot, modal so'z bilan) «to'ldiruvchi-to'ldirilmish» sintaktik munosabatni yuzaga keltiradi.

To'ldiruvchi ifoda materialiga ko'ra egaga hamda qaratuvchiga o'xshaydi, faqat grammatik shakl jihatdan ulardan farq qiladi.

To'ldiruvchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: Nodon kishi o'zining nasl-nasabiga, olim kishi esa o'zining ilm va adabiga tayanadi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Oy to'lmagan bo'lmas ham, juda yorug' , shabadada silkinayotgan terak barglarini bitta-bitta sanab chiqish mumkin. (P.Qodirov).

2. Olmosh bilan: SHaharliklar... o'zlarini tog' da yashayotganday his qilishadimi? (SH.Xolmirzaev). O'g'il ham otaga shunchalik o'rgandiki, u bilan birga yotadigan bo'ldi. (SH.Xolmirzaev).

3. Harakat nomi bilan: Xalqning hurmat qilishini tilasangiz, avval o'zingiz hammani hurmat qiling. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Olim kishi... maqtashlar va olqishlarga uchib, o'zini yuqori tutmaydi, kamtar bo'ladi («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Erali maqtovlarni eshitib erib ketgan ekan... (S.Ahmad).

4. Otlashgan sifat bilan: YOmondan qoch, yaxshiga quloch och. (Maqol). Aziz o'g'lim, yomonlar bilan suhbatdosh bo'lma, ulardan arslondan qochganday qoch, hammaga rahm va shafqat ko'zi bilan qara. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Botirdan yaxshi ish qolar, donodan – yaxshi so'z. (Maqol).

5. Otlashgan son bilan: CHIqmasa... bittasini menga ber, bir-ikki oy boqay... (P.Qodirov). Ikkovga birov botolmas, otliqqa yayov etolmas. (Maqol).

6. Otlashgan olmosh bilan: Manmanlik yaramas odat ekanini anglang, hamisha buni yodingizda tuting. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Katami, kichikmi - har qaysisini hurmatlab, yoshi va martabasiga ko'ra muomala qiling. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

7. Otlashgan sifatdosh bilan: Ayrilganni ayiq er, bo'linganni bo'ri er. (Maqol).

8. Otlashgan ravish bilan: Ko'kka boqma, ko'pga boq. (Maqol). Ko'pni bilgan oz so'zlar, oz bo'lsa ham soz so'zlar. (Maqol).

9. Otlashgan taqlid so'z bilan: To'g' ri, studentlar allaqachon paxtadan qaytib, yomg'irdan ivigan parklar yana oshiq-ma'shuqlarning shivir-shiviriga to'ldi. (O'.Hoshimov).

To'ldiruvchi so'z birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: O'zingdan kichiklarni kamsitmang. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Ular bosh silkib, shundoq muhtaram odam bilan tanishganlaridan minnatdor ekanliklarini izhor qilishdi (O'.Hoshimov).

To'ldiruvchi gapga teng predikativ birlik bilan ham ifodalanishi mumkin: Yoshi ulug' ni ulug'lasa, baxt topar. (Maqol).

1. Vositasiz to'ldiruvchi

To'ldiruvchi o'z vazifasi va shakliga ko'ra ikki turga ajratiladi: vositasiz to'ldiruvchi va vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to‘ldiruvchi harakatni o‘ziga qabul qilgan, harakat o‘ziga bevosita o‘tgan predmetni bildiradi. SHu bois u odatda o‘timli fe‘l bilan ifodalangan bo‘lakka bog‘lanadi.

Vositasiz to‘ldiruvchi ko‘pincha tushum kelishigidagi birliklar bilan ifodalanib, kimni? nimani? qaerni? kabi so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi: Bolani yoshdan asra, niholni boshdan asra. (Maqol). Aqlni beaqldan o‘rgan. (Maqol). U hamma qishloqlarni o‘zi aylanib chiqdi. (P.Qodirov).

Vositasiz to‘ldiruvchi ba‘zan chiqish kelishigidagi so‘z bilan ham ifodalanadi: Temirjon quymoqdan ko‘p emadi. (J.Abdullaxonov).

Vositasiz to‘ldiruvchi tushum kelishigi shaklidagi so‘z bilan ifodanganda, harakat butunlay predmetga o‘tadi, chiqish kelishigidagi so‘z bilan ifodalanganda esa, harakat qisman predmetga o‘tganligi anglashiladi.

Vositasiz to‘ldiruvchi ikki xil shaklda: belgili va belgisiz shaklda ishlatiladi. Belgili vositasiz to‘ldiruvchi tarkibida tushum kelishigi –ni affiksi saqlanadi: Bor borini eydi, uyatsiz orini eydi. (Maqol). Odamni po‘stin emas, ish qizdiradi. (Maqol). Belgisiz vositasiz to‘ldiruvchida –ni qo‘shimchasi qatnashmaydi, lekin uni tiklash mumkin bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, bunday vositasiz to‘ldiruvchi belgisiz tushum kelishigi shaklidagi so‘z bilan ifodalanadi: Non emoqchi bo‘lsang, o‘tin tashishdan erinma (Maqol). Tekin boylik axtarguncha, o‘zingga bop hunar top (Maqol).

2. Vositali to‘ldiruvchi

Vositali to‘ldiruvchi bosh, qaratqich, tushum kelishiklaridan boshqa kelishikdagi birliklar bilan hamda ko‘makchili ishlatilgan birliklar bilan ifodalanadi. Vositali to‘ldiruvchilarning ma‘nolari va so‘roqlari turlichadir. Mazkur to‘ldiruvchilarni jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari affikslari hamda «bilan», «uchun», «to‘g‘ risida», «haqida» kabi ko‘makchilar shakllantirib, ular kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan? kim uchun? kim to‘g‘ risida? nima xususida? kabi so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Masalan: inson bilimga intiladi va qachonki unda bilimga tashnalik so‘nsa, u insoniylikdan mahrum bo‘ladi. («Tafakkur gulshani»). Do‘sting bilan sirdosh bo‘l (Maqol). Mineral tuz, bosh miya uchun zarur bo‘lgan efir moyi aksar yong‘ oqning mag‘zidan olinadi. (J.Abdullaxonov). G‘ oyib endi «studentlikning oltin davri» haqida zavq-shavq bilan hikoya boshladi. (J.Abdullaxonov). Manna endi uning yaxshi xislatlari to‘g‘ risida gap ketyapti. (J.Abdullaxonov).

Vositali to‘ldiruvchi ko‘pincha fe‘l bilan ifodalangan bo‘laklarga, ba‘zan esa sifat, ravish, ot, modal so‘z bilan ifodalangan bo‘laklarga ham bog‘lanib keladi. Masalan: Bu – professor Jamolovning saxiyligi, yoshlarga mehr-muhabbatining mevasi, albatta. (J.Abdullaxonov). Temirjon gamma nurlarini hayot uchun faqat ofat manbai deb bilardi. (J.Abdullaxonov). Temirjon uning bu uyda xizmat qilishidan bexabar edi. (J.Abdullaxonov). Uning tashqi ko‘rinishi sokin tuyulsa-da, ichki dunyosi olam-olam orzularga boy... (J.Abdullaxonov).

3-§. Hol

Odatda fe'l bilan ifodalangan bo'lakka bitishuv yoki boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, undan anglashilgan ish-harakatning belgisini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lakka hol deyiladi. Hol ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, uning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan o'rin, payt, sabab, maqsad, miqdor-daraja kabilarni bildiradi. Hol ravish, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari shakllaridagi ot yoki ko'makchili ishlatilgan so'zlar, sifat, son, fe'l shakllari, taqlid so'z hamda so'z birikmasi orqali ifodalanadi.

Ravish, asosan, hol vazifasini bajaruvchi mustaqil so'z turkumidir. Masalan: Faqat idora yaqinidagi MTS tomonidan yakka traktorning o'qtin-o'qtin gurillagani eshitildi. (O'.Hoshimov). Asta esa boshlagan shamol tumanni pastliklarga olib ketdi. (J.Abdullaxonov).

Gapda hol bo'lib kelish fe'lning ravishdosh shaklining ham asosiy vazifalaridandir. Masalan: Tomchilarning derazaga chirsillab urilishi aniq eshitila boshladi. (O'.Hoshimov). Erali bu gaplarni choyxonada odam gavjum paytida maqtana-maqtana aytib berdi. (S.Ahmad).

Ot jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigida kelib yoki ko'makchi bilan birga ishlatilib hol vazifasini bajarishi mumkin: Toshkentga butun mamlakatdan katta geolog olimlar kelishgan. (S.Karomatov). Mashina shiddat bilan qaltis tog' yo'lidan uchib ketdi. (O'.Hoshimov).

Harakat nomi gapda hol bo'lib kelganda, u ham ot kabi shakllanadi: Mehmonlarni kutish uchun boqqa dasturxon tayyorlatib qo'yishgan edi. (S.Ahmad).

Taqlid so'z ham gapda hol vazifasida kela oladi: Toshlar havoni g'iz-g'iz yorib o'tadi. (Oybek). Ko'chadan dupur-dupur o'ynoqlab bir gala otlar o'tadi. (J.Abdullaxonov).

Ba'zan hol so'z birikmasi bilan ifodalanadi: Tong otar payti bulbullar paydar-pay sayraydi. (S.Ahmad). Aqlni o'stirmoq uchun hadeb o'qiyvermasdan ko'proq fikrlash kerak. («Tafakkur gulshani»).

Hol o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan «hol-hollanmish» sintaktik munosabatini yuzaga keltiradi.

Hollar ma'nolariga ko'ra bir necha turga bo'linadi.

Ravish holi ish-harakatning qay tarzda bajarilganligini bildirib, qanday? qanday qilib? qay tarzda? qay holda? degan so'roqlarning biriga javob bo'ladi.

U quyidagicha ifodalanadi:

1. Holat ravishi bilan: Qiz unga pianino chalib berar, unda muzikaga mehr uyg' otish ishtiyoqi borday ko'rinardi. (J.Abdullaxonov). Sahnada hozir biron yangilik yuz berishi kerakday, hamma nafasini ichiga yutib, jimgina tikilib qoldi. Birdan qarsak chala boshladilar. (J.Abdullaxonov).

2. Ravishdosh bilan: To'rg'aylar bir nuqta ustida qanot qoqib g'ujurlashadi. (P.Qodirov). Temirjon ularning kuyib-pishib bir-birlariga gap uqtirishlarini ko'rib, o'qituvchilarning muvaffaqiyatidan qanchalik faxrlanishlarini his qila boshladi. (J.Abdullaxonov). Qiqirlab kulganicha qochib borayotgan qizning ortidan jilmayib

qarab turdi. (J.Abdullaxonov). Ona yana o‘ylyay-o‘ylyay o‘yiga etolmay qoldi. (J.Abdullaxonov).

3. Sifatdosh+ «holda» ko‘makchi so‘zi bilan: Bu payt YUlduzning dugonalari o‘zaro bahslashgan holda yaqinlasha boshladilar. (J.Abdullaxonov).

4. Bosh kelishikdagi ot yoki ko‘makchili ishlatilgan ot bilan: U qator o‘sgan chinorlar kavagidan bittadan ettita xum olib ularga beribdi. (S.Ahmad). Turmushning yaxshi o‘tib, farovonlik bilan yashashni istasang, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yma. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

5. Sifat bilan: Qiyshiq o‘tirsang ham, to‘g‘ ri gapir. (Maqol). Albatta, mendan ko‘ra paxta ishining ustalari yaxshiroq bilishadi. (J.Abdullaxonov).

6. Taqlid so‘z bilan: Ufqqa yonboshlagan quyoshning so‘nggi nurlaridan yaltiragan mirzateraklar uchidagi nurlar lip-lip o‘chdi. (J.Abdullaxonov). Ba‘zilar negadir hiring-hiring kulishar, pichir-pichir so‘z qotishardi. (J.Abdullaxonov).

7. Frazeologik ibora bilan: U tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib ko‘chaga chiqdi. (F.Musajonov).

Payt holi ish-harakatning bajarilish paytini, uning chegarasini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri? kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi.

Payt holi payt ravishi, ravishdosh, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigidagi so‘zlar bilan, ko‘makchili ishlatilgan so‘zlar bilan, so‘z birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: Tomosha qilib turganlar doim uni kulgi qilishardi. (P.Qodirov). Ertalab bolalar uchun olgan suvlaridan ozgina qolgan edi. (P.Qodirov). Hech qachon o‘z aybingni birovga yuklashni o‘rganma!.. (J.Abdullaxonov). YOshligingda odat qilsang, qariguncha ko‘nikasan, qariganingda odat qilsang, ko‘nikkuncha ko‘milasan. (Maqol). O‘ttizida er atangan, qirqida SHer atanar. (Maqol). Kuni bilan jiyanlarini erkalatib, soy bo‘ylarida aylandi. (J.Abdullaxonov). Biz dam olish kuni shahardan tashqariga, Bo‘zsuv bo‘yiga chiqdik. (O.YOqubov).

Payt holi harakatning bajarilish paytini bildiradi: SHunday diqqat bo‘lgan kunlarning birida Tolibjon kechasi xontaxtaga bag‘ rini berib... xat yozdi. (S.Ahmad). Temirjonning ongi hech qachon bunchalik yangiliklar bilan boyimagan edi. (J.Abdullaxonov).

Payt holi harakatning bajarilishidagi chegarani bildiradi: YAngi yilgacha yog‘ingarchilik kam bo‘ldi... (J.Abdullaxonov). Ertalabdan to qorong‘i tushgunga qadar barcha qatori dala qoshidan nari ketmasdi. (J.Abdullaxonov). Temirjon allamahalgacha uyqusi qochib, Usmonali otaning Hilol aka haqidagi gaplarini eslab yotdi. (J.Abdullaxonov). Men yigirma besh yildan beri paxta ekaman. (J.Abdullaxonov).

O‘rin holi ish-harakatning bo‘lish, boshlanish, yo‘nalish o‘rnini bildirib, qaerda? qaerdan? qaerga? qaergacha? kabi so‘roqlarning biriga javob bo‘ladi.

O‘rin holi o‘rin ravishi, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigidagi otlar hamda ko‘makchili ishlatilgan otlar, so‘z birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: Unda yuqoridan shitob bilan quyilib kelayotgan tiniq suv toshlarga urilib, qirg‘ oqqa sapchib oqardi. (S.Ahmad). Afsus, oyoqlar ostida tuzoqlar ko‘p. (T.Malik). Osmoni falakka burgut qanotini tarang yozib uchadi. (S.Ahmad).

O‘rin holi ma‘nosiga ko‘ra uch xil:

1. Ish-harakatning bo‘lish o‘rnini bildirib, qaerda? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. U o‘rin ravishi, o‘rin-payt kelishigidagi so‘zlar hamda ko‘makchili ishlatilgan so‘zlar bilan ifodalanadi: Bostirmada g‘ildiraklari olingan... «Volga» mashinasi turibdi. (P.Qodirov). YUqorida ... bola shatirlashni eshitgan zahoti bu tomonga qarab chopgan edi. (P.Qodirov). Ular yuqoridan shildirab tushayotgan suv bo‘yida archa bilan ayqashib o‘sgan zirk tagida o‘tirib ovqatlanishadi. (P.Qodirov).

2. Ish-harakatning yo‘nalish o‘rnini yoki harakatning bo‘lishidagi eng so‘nggi chegarani bildirib, qaerga? qaergacha? so‘rog‘idan biriga javob bo‘ladi: U Tolibjonga ro‘para kelishdan qo‘rqib, so‘qmoqdan o‘ngga burildi... (S.Ahmad). Ishkomlar tunnel singari bir tekis olis-olislarga cho‘zilgan. (J.Abdullaxonov). Qo‘rg‘ oshindek qora bulutlar Oyqor tog‘lari tomon o‘tib ketdi. (S.Ahmad). – Kelib turing, xolla,- eshikkacha kuzatib qo‘ymoqchi bo‘ldi Qunduz. (J.Abdullaxonov).

3. Ish-harakatning boshlanish o‘rnini ifodalab, qaerdan? so‘rog‘iga javob bo‘ladi: Ministrlikdan telefon qilishardi. (J.Abdullaxonov). Ammo qayoqdandir hoshiya tortib kelayotgan qora bulut uning yuzini sholday bir nafas o‘rab turdi... . (J.Abdullaxonov). Temirjon haligina kutubxonadan olib kelib, divanga betartib sohib qo‘ygan kitoblariga qaradi. (J.Abdullaxonov).

Sabab holi ish-harakatning bajarilish sababini anglatib, nimaga? nima uchun? nima sababdan? kabi so‘roqlarning biriga javob bo‘ladi.

Sabab holini ko‘pincha «uchun», «sabali», «tufayli», «bois» kabi ko‘makchilari yoki chiqish kelishigi –dan affiksi shakllantiradi.

Sabab holi ravish, ot, olmosh, sifatdosh, so‘z birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: U tortinchoqligi, parishonholligi tufayli ayrimlarga g‘alatiroq ko‘rinayotganini ham seza boshladi. (J.Abdullaxonov). Samolyot yomg‘irdan qorayib yotgan beton yo‘lkadan shiddat bilan yugurgilab bordi. (O‘.Hoshimov). Muvaffaqiyatsizliklardan ranjishlar yo‘llariga g‘ ov bo‘lmas. (J.Abdullaxonov). Negadir birdan zildek bo‘lib ketgan qo‘lini arang ko‘tarib, qo‘ng‘iroq tugmasini bordi. (F.Musajonov). Hozirgina savdosi yaxshi bo‘lganidan Azizbekning ko‘ngli vayron bo‘ldi. (S.Ahmad).

Maqsad holi ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni anglatib, nima uchun? nimaga? nima maqsadda? degan so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi.

Maqsad holini ko‘pincha «uchun», «maqsadida», «niyatida» yordamchi so‘zlari, shuningdek jo‘nalish kelishigi –ga affiksi shakllantiradi.

Maqsad holi ravish, ravishdosh, ot, frazeologik ibora, harakat nomi, so‘z birikmasi bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: Qadamimni ataylab dadil-dadil bosaman. (P.Qodirov). Ular baliqlarni tomosha qilgani pastga tushishdi. (S.Ahmad). ... Votti kennoyi andak ko‘nglini yozib ketish uchun kelgan ko‘rinadi. (J.Abdullaxonov).

Miqdor-daraja holi ish-harakatning bajarilishini miqdor jihatdan belgilab, qancha? necha marta? qanchalab? kabi so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Miqdor-daraja holi ko‘pincha miqdor-daraja ravishlari bilan ifodalanadi: Gapni oz so‘zla, ishni ko‘p ko‘zla. (Maqol). Dodamat akaning qotma va abjir gavdasiga mos qoramag‘iz basharasi Ahmadga borgan sari ko‘proq yoqardi. (F.Musajonov). Bular dushman pozitsiyasiga mumkin qadar yaqinroq borib, biron

qulay joyda soatlab... poylab etishadi. (A.Qahhor). Elkasiga charm xalta osgan yigit tarjimon bilan xiyla tortishib qoldi. (J.Abdullaxonov).

Miqdor-daraja holi son bilan ifodalanadi. Bunda son yakka o'zi yoki «marta», «karra» so'zlari bilan kelib miqdor-daraja holi vazifasini bajaradi: Etti o'lchab, bir kes. (Maqol). Ana shunaqa, azizlar, fan yana bir karra g'alaba qozondi. (J.Abdullaxonov). Ortiq ham ayiq ovini bir marta ko'rgan. (P.Qodirov).

So'z birikmasi ham miqdor-daraja holi vazifasini bajarishi mumkin. Masalan: Mehmonlar yana bir necha muddat teplitsani aylanishdi. (J.Abdullaxonov).

4-§. Gap bo'laklarining joylashish tartibi

O'zbek tilida gap bo'laklarining tartibi, asosan, erkin. Ularning o'rnini almashtirish odatda grammatik holatni o'zgartirmaydi. Masalan: Oppoq bulutlar qishloq ustidan shoshilmay, toqqa qarab o'tib ketadi. (S.Ahmad). - Qishloq ustidan oppoq bulutlar shoshilmay o'tib ketadi toqqa qarab. - O'tib ketadi shoshilmay toqqa qarab oppoq bulutlar qishloq ustidan. - SHoshilmay o'tib ketadi qishloq ustidan toqqa qarab oppoq bulutlar. Mazkur gaplarda gap bo'laklarining o'rinlarini almashtirish grammatik holatni o'zgartirmagan, ammo gap mazmuniga ma'lum darajada ta'sir etgan, negaki har gal boshqa-boshqa gap bo'laklariga odatdagidan ko'proq ahamiyat berilgan. Lekin, shunga qaramay, gap bo'laklari ma'lum bir normativ tartibda joylashish xususiyatiga ega.

O'zbek tilida ega, odatda, gap boshida, kesim gapning oxirida keladi. Ikkinchi darajali bo'laklar esa ega va kesim orasida joylashadi. Bunday tartib, asosan, darak gaplarda bo'lib, u to'g'ri yoki normativ tartib deyiladi.

Har bir gap bo'lagiga nisbatan tartib quyidagicha bo'ladi:

I. Ega, odatda, gap boshida keladi: Kishilar mirishkor raisni qarsaklar bilan olqishladilar. (YO.SHukurov).

Yoyiq gaplarda ega ba'zan kesim oldida ham kelishi mumkin: Uning yigirmataga yaqin qo'y-echkisi borligini ko'p odam bilar edi. (P.Qodirov).

Ba'zan ega gapning oxirida ham keladi: G' o'za umriga zavol-ku u. (J.Abdullaxonov).

II. Kesim odatda gapning oxirida keladi: Bog' da etti-sakkiz tup mevali daraxt, ikki chinor, ikki tup mirzaterak o'sgan edi. (J.Abdullaxonov).

She'riyatda, ishorlarda kesim gapning boshida ham keladi:

Intilar borliqni inson

Barkamol etmoq uchun.

Ne ajab, insonni borliq

Barkamol etgan emas.

(E.Vohidov.)

III. Vositasiz to'ldiruvchi odatda fe'l kesim oldida keladi. Masalan: Mashina shamoli brezentning uchini hilpiratib, chakmonning etaklarini tortqilaydi. (P.Qodirov).

Ba'zan vositasiz to'ldiruvchi gapning boshida keladi: Yomonlik o'tini faqat yaxshilik o'chiradi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

Vositali to'ldiruvchi ham ko'pincha kesimdan oldin keladi: Hayrli va sababli ishlar insonni turli halokatlardan saqlaydi. (Hadis namunalari).

IV. Hol ham asosan kesimdan keladi:

1. Payt holi, odatda, gap boshida, ba'zan egadan keyin, ayrim hollarda kesimdan oldin keladi. Masalan: Bugun yaxshiy tog'lar orasida u bilan yuzma-yuz keldi. (S.Ahmad). Tolibjon dunyoda nimalar bo'layotganidan bexabar. Gazeta yo'q, televizor hali ham ishlamaydi. (S.Ahmad). Erali allaqachon juftakni rostlab qolgan edi. (S.Ahmad).

2. O'rin holi, odatda, kesimdan oldin keladi, ba'zan esa gap boshida keladi: ... mashina tog' etagidagi ellik-oltmish hovlilik Oyko'l qishlog'iga kirib bordi. (P.Qodirov). Tekislikka yoqqan yomg'ir tog' tepasiga qor bo'lib tushgan ekan. (P.Qodirov). Tekislikning uzoq chetidan chiqib kelgan yuk mashinasi shu toqqa qarab jadallab boryapti. (P.Qodirov).

3. Ravish holi, odatda, kesim oldida, ba'zan gap boshida keladi: ... barglar orasiga to'planib qolgan oppoq yomg'ir suvi oftobda yaltirab, tirqirab to'kildi. (P.Qodirov). – Keling,- deb sovuqqina ko'rishdi. (P.Qodirov). Qo'qqisdan qorasovuq boshlanib, cho'ponlarni tashvishga solib qo'ydi. (M.Qoriev).

4. Miqdor-daraja holi ham kesim oldida keladi: Ko'p yurgan ko'p ko'rar, ko'p o'qigan ko'p uqar. (Maqol).

5. Sabab va maqsad hollari kesimdan oldin, gapning boshida yoki o'rtasida keladi: Aqlning eng katta g'alabalari, ehtimol, ehtiroslar tufayli ro'yobga chiqqandir. («Tafakkur gulshani»). Atay izlab keldim, oq qoya, sen naqadar mag'rur va kibor. (Mirtemir). Endi ularning xatosini tuzatish uchun hammamiz qancha mashaqqat chekamiz. (P.Qodirov).

V. Aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Agar bu tartib o'zgarsa, ularning grammatik holati ham o'zgaradi.

1. Qaratuvchi qaralmishdan oldin keladi: Har bir kishining so'zi o'z fazilatlari dalili va aqlining tarjimonidir. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

2. Sifatlovchi sifatlanmishdan oldin keladi: Havoda ... yong' oq hazonlarining o'tkir hidi gurkirardi. (O'.Hoshimov). Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri - o'quvchiga hurmatda bo'lish. («Tafakkur gulshani»).

Gapda sifatlovchi birdan ortiq qo'llansa, ularning tartibi quyidagicha bo'ladi:

1) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: U atrofida mavj urib turgan yashil daraxtlarga ... zavq bilan tikilardi. (P.Qodirov).

2) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi + olmosh bilan ifodalangan sifatlovchi + sifat bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: Osmonning yarmigacha chiqib borgan bu bahaybat devorning u er - bu erida cho'ponlar yoqqan gulxanlar milt-milt qiladi. (P.Qodirov).

3) -dagi affiksli so'z bilan ifodalangan sifatlovchi + sifat bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: Hulkar chelakdagi tiniq suvdan ... olib kelib berdi. (P.Qodirov). ... ko'zi akasining chap qo'lidagi qo'shaloq barmoqqa tushdi. (P.Qodirov).

4) miqdor tushunchasini bildiruvchi soʻz (son, olmosh, ravish) bilan ifodangan sifatlovchi + sifat bilan ifodangan sifatlovchi + sifatlanmish: ... suvdan bir chini kosa olib kelib berdi. (P.Qodirov).

5) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi + son bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: YOmgʻirdan keyingi loyqada muhrlanib qolgan ikkita izning nimasidir goʻdak tovonini eslatar edi. (P.Qodirov).

Izohlovchi izohlanmishdan oldin yoki keyin keladi: Oʻshanda Oxunboboev bilan quvalik temirchi SHakarxon Moʻminova degan juvonning suvrati gazetada chiqqandi. (S.Ahmad). Norboy ota usta Qambarga gap uqtirib ketdi. (P.Qodirov).

Agar gap boʻlaklarining normativ, toʻgʻri tartibi oʻzgarsa, inversiya hodisasi roʻy beradi. Inversiya hodisasi koʻproq jonli tilda va sheʼriyatda kuzatiladi. Inversiyada odatda gap boʻlaklarining grammatik holati oʻzgarmaydi. Masalan: Gʻoʻza umriga zavol-ku u. (J.Abdullaxonov). Zotiljam kasaliyu yurak siqilishi nimaligini bilmaydi oʻsha xonadon ahli. (J.Abdullaxonov). (Ega, ega tarkibi gap oxirida kesimdan soʻng kelgan). CHindan ham hayvonot bogʻi desa boʻlarkan bu erni. (J.Abdullaxonov). (Vositasiz toʻldiruvchi inversiyaga uchrab kesimdan keyin qoʻllangan.) *Temirjon uchun barcha notanish, barcha begona ham.* (J.Abdullaxonov). *Qaysi bir gazetada ota-bolaning koʻchat ekib turgandagi surati ham eʻlon qilingan edi bir yili.* (J.Abdullaxonov). *(Payt holi gap oxirida kesimdan keyin kelgan.)*

Takrorlash uchun savollar:

1. Qanday soʻzlar gap boʻlagi boʻla oladi?
2. Gap boʻlaklarining turi qanday aniqlanadi?
3. Gap boʻlaklari gapda tutgan mavqeiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
4. Gap boʻlaklarining tuzilishiga koʻra turlari haqida gapiring.
5. Eganing taʼrifi va soʻroqlari.
6. Ega qanday soʻzlar bilan ifodalanadi?
7. Ega qanday kelishidagi soʻzlar bilan ifodalanishi mumkin?
8. Kesimning taʼrifi va soʻroqlari.
9. Ifodalagan hukm turlari boʻyicha kesim qanday guruhlarga boʻlinadi?
10. Kesimning qanday soʻz turkumlari bilan ifodalanishi boʻyicha turlari.
11. Toʻldiruvchining taʼrifini ayting.
12. Vositasiz toʻldiruvchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.
13. Vositali toʻldiruvchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.
14. Vositali toʻldiruvchi va vaziyat holi oʻxshash boʻlgan holatlar haqida gapiring.
15. Aniqlovchining taʼrifini ayting.
16. Aniqlovchi gapda qaysi boʻlaklarga tobe boʻlib keladi?
17. Sifatlovchi aniqlovchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.
18. YOyiq sifatlovchi aniqlovchi haqida gapiring.
19. Qaratqich aniqlovchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.
20. Izohlovchi haqida gapiring.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Jumla tarkibidagi soʻzlar qanday holatda gap boʻlagi boʻlib kela oladi?

- A) gap tarkibida oʻzaro faqat tobe bogʻlangan soʻzlar gap boʻlagi vazifasida kela oladi B) gap tarkibida faqat oʻzaro teng bogʻlangan soʻzlar gap boʻlagi vazifasida kela oladi C) gapda qoʻllangan har qanday soʻz gap boʻlagi vazifasida kela oladi D) gapda qoʻllangan barcha mustaqil soʻzlar gap boʻlagi vazifasida kela oladi

2. Rejasiz ish – qolipsiz gʻisht. Gap qanday boʻlaklardan tashkil topgan?

A) aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi, kesim B) aniqlovchi, ega, kesim C) ega, kesim, to'ldiruvchi D) ega, kesim

3. Qaysi hukm noto'g'ri?

A) ega va kesim o'zaro faqat tobe bog'lanadi B) ega va kesim o'zaro teng va tobe bog'lanishi mumkin C) ega va kesim shaxs va sonda moslanishi shart D) A, C

4. Ona-yu bola – gul-u lola. Mazkur gapda so'zlar o'zaro qaysi vosita orqali sintaktik bog'langan?

A) ko'makchilar B) bog'lovchilar C) bog'lovchi vazifasida qo'llangan yuklamalar D) ohang orqali

5. So'zning gapda gap bo'lagi bo'lib kelishi so'z turkumlarining qanday belgisi hisoblanadi?

A) morfologik belgisi B) sintaktik belgisi

C) leksik belgisi D) uslubiy belgisi

6. Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri gap bo'laklariga xos emas?

A) Gap bo'lagi ba'zan bir so'z bilan ifodalanadi. B) Gapni bo'laklarga ajratishda so'zlarning tobe aloqaga kirishishi asosiy mezon hisoblanadi. C) Barcha so'z turkumlariga oid so'zlar gap bo'lagi vazifasini bajaradi. D) yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar bilan birgalikda. gap bo'lagi vazifasida keladi.

7. Valining keksa onasi uzundan-uzoq duo o'qidi. Ushbu gapdagi egani toping.

A) Valining keksa onasi B) keksa onasi C) onasi D) duo

8. Ishlamay egan og'rimay o'lar. (Maqol) Eganing ifodalanishi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

A) sifatdosh bilan ifodalangan B) fe'l bilan ifodalangan

C) birikma bilan ifodalangan D) otlashgan sifatdosh bilan ifodalangan

9. Quyidagi gapda ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog'in tishlar.

A) Ot bilan B) Fe'l bilan

C) Otlashgan sifat bilan D) Otlashgan sifatdosh bilan

10. Birlashgan daryo bo'lur, tarqalgan irmoq bo'lur. Ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?

A) Sifat B) Fe'l C) Sifatdosh D) Otlashgan sifatdosh

11. Ega qatnashgan gapni aniqlang.

A) Jon qizim, o'zingni ehtiyot qil. B) El og'ziga elak tutib bo'lmaydi. C) Aqlni beaqlan o'rgan.

D) Ko'pchilik bu voqeani o'sha kuniyoq eshitdi.

12. Quyidagi gapda egalar qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? Bor boricha, yo'q – holicha.

A) taqlidiy so'z B) olmosh

C) bosh kelishikdagi ot D) modal so'z

13. Endi g'alabamiz yaqin, do'stim! gapining kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?

A) ot B) sifat C) fe'l D) ravish

14. Kesimi o'zlik nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan gapni toping.

A) Kamchiliklar ro'y-rost ochib tashlandi. B) Ayvon yonidagi o'choqqa o't qalangan. C) Atayin ho'l sochiq bilan artindi.

D) Doklad uchun Ziyodaxonga so'z berildi.

15. Sobir endi kalavanning uchini topdi. Gapda kesim qanday ifodalangan?

A) Fe'l B) Sifat C) Ibora D) Ajralmas birikma

16. Gapdagi kesimni aniqlang. Choyxona yangi solingan, qo'shni binoga ko'chib kirishi va bayramda ochilishi kerak edi.

A) ko'chib kirishi, ochilishi kerak edi. B) ko'chib kirishi C) ochilishi D) solingan

17. Kesimning tuzilishiga ko'ra turlari to'liq berilgan qatorni aniqlang.

A) Sodda va murakkab B) Sodda ot-kesim va sodda fe'l-kesim C) Murakkab ot-kesim, murakkab fe'l-kesim D) A, B, C.

18. Ravishga oid soʻz bilan ifodalangan kesim qaysi javobda berilgan?

A) Shamol qoʻzgʻalib, daraxtlarning uchi silkina boshladi.

B) Togʻni yaqindan sira koʻrmaganman. C) Samarqand tonglari shavqli, farahli. D) Shoshilgan ishning pushaymoni koʻp.

19. Quyidagi gaplardan qaysi birida boʻlmoq soʻzi bogʻlama vazifasida kelgan? 1. Men vrach boʻlaman (kelajakda) 2. Men vrach boʻlaman (hozir) 3. Siz ulugʻ odam boʻlasiz (hozir) 4. Siz ulugʻ odam boʻlasiz (kelajakda)

A) 1, 3 B) 1, 4 C) 2, 4 D) 3, 4.

20. Qaysi qoʻshimchalar bogʻlamalar deb yuritiladi?

A) egalik qoʻshimchalari B) kelishik qoʻshimchalari

C) –man, –san, –dir qoʻshimchalari D) barchasi toʻgʻri.

21. Ega va kesim shaxsda moslashmagan gapni toping.

A) Qushlar sayraydi. B) Dadam keldilar. C) Shularni koʻrib, tabiatga hayron qolasan kishi. D) A va B.

22. Qaysi gapda feʼl-kesim ega bilan sonda moslashmagan?

A) Jurʼatsizlik bizda faqat nafrat uygʻotadi. B) Hasad hech qachon quvonchni bilmaydi. C) Izlaganimiz yonimizda boʻlganligini biz doim kechikib tushunamiz. D) Moviy osmonda oq bulutlar suzib yuribdi.

23. Qaysi gapda feʼl-kesim ega bilan sonda moslashmagan?

A) Bizning nevaralarimiz, shubhasiz, xalqimiz qahramonligini eslaydilar. B) Har kimning qalbida oʻz xalqining jaji qiyofasi yashaydi. C) Yaxshi kishilar yuksak axloqiy etuklik va yuksak axloqiy obroʻ bilan ajralib turadilar. D) Moviy osmonda oq bulutlar suzib yuribdi.

24. Qaysi gapda ega bilan kesim orasida tire ishlatilishi kerak?

A) Har bir bolaning eng muqaddas burchi oʻqishdir. B) Bu qiz Mahbubaning dugonasi Ozoda edi. C) Oʻqish juda katta baxt.

D) Suv bor erda hayot bor.

25. Qaysi qatorda ega bilan kesim orasida tire notoʻgʻri qoʻyilgan?

A) Mening eng yaqin doʻstim – sensan. B) Bilim olish – yuksalish. C) Besh karra besh – yigirma besh. D) Halol yashamoq – xalqqa xizmat qilmoq.

26. Qaysi gapda ega bilan kesim orasida tire ishlatilishi lozim?

A) Jamoa xoʻjaligi xalq mulki. B) Oʻgʻlimdan umidim koʻp

C) Hamma yoq toptoza, yovvoyi oʻtlar yoʻq. D) qoʻshnilarim ham halol odamlar.

27. Toʻldiruvchining grammatik belgisi notoʻgʻri koʻrsatilgan qatorni toping.

A) Toʻldiruvchi odatda boshqa soʻzlarga boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanadi. B) Toʻldiruvchi tushum kelishigidagi soʻz bilan belgisi yoki belgisiz qoʻllanishi mumkin. C) Toʻldiruvchi oʻrinpayt, chiqish, joʻnalish kelishiklari shaklida boʻlishi mumkin.

D) Toʻldiruvchi oʻzi bogʻlangan soʻzga nisbatan tobe yoki hokim sanalishi mumkin.

28. Belgisiz toʻldiruvchi doim qanday gap boʻlagi oldida joylashadi?

A) hol oldida

B) ot-kesim oldida

C) feʼl-kesim oldida

D) hol va kesim oldida

29. Ravish gapda toʻldiruvchi vazifasini bajargan qatorni aniqlang.

A) Mayor sabrsizlanib, har yoqqa tikildi. B) Xayollarim shamoldan tezroq uchardi. C) Koʻp kitoblar oʻqib chiqdim.

D) Koʻpdan quyon qochib qutulmas.

30. Otlashgan soʻz bilan ifodalangan toʻldiruvchini toping.

A) Sen oʻzingni maqtama, seni biron maqtasin. B) Chiniqqanga dard yuqmas. C) Kulgi yuzni goʻzal qiladi. D) Koʻrmaganlar koʻrishni orzu qildilar.

31. Izohlovchini toping.

A) Oʻzaro izzat-hurmatsiz hech qanday doʻstlik boʻlmaydi.

B) Agar uzayib ketsa, eng yaxshi nutq ham jonga tegadi.

C) Professor Gʻaffor Nasriddinov matematikani iqtisod bilan bogʻlab, talabalarga maʼruza oʻqiydi. D) Aql barkamollashib, yosh ulgʻaygandagi doʻstlikkina mustahkam boʻladi.

32. Izohlovchi bildiradigan ma'nolar qaysi javobda berilgan?

A) *amal, unvonni* B) *A, C* C) *mashg'ulot, kasb, mutaxassislikni* D) *hajm-vaznni*

33. Qaysi qatorda to'ldiruvchili birikmalar berilgan?

A) *qishloqdagi binolar, kitobdan ko'chirmoq* B) *tunda kelmoq, qunt bilan ishlash* C) *choynakdan kattaroq, Hasanning taqdiri*

D) *otdan baland, kitobni o'qib chiqmoq*

34. Qaysi qatorda aniqlovchiga to'g'ri ta'rif berilgan.

A) *Gapdagi biror bo'lakni to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan bo'lak.* B) *Gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir narsa-buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirgan bo'lak.* C) *Kesimga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan bo'lak.* D) *Gapning kim yoki nima haqida ekanligini bildirib, boshqa bo'laklarga grammatik tobe bo'lmagan bo'lak.*

35. Chiqish kelishidagi so'z gapda qaysi sintaktik vazifalarda kela oladi?

A) *faqat hol vazifasida* B) *faqat to'ldiruvchi vazifasida* C) *hol va to'ldiruvchi vazifasida* D) *hol, to'ldiruvchi, kesim vazifasida*

36. Karima derazadan boshini chiqarib, ularga qarab qo'ydi. Ushbu gapdagi vaziyat holini aniqlang.

A) *ularga* B) *qarab* C) *derazadan* D) *boshini chiqarib*

37. Mahmud majlisda qatnashmagan bo'lsa-da, topshiriqni bajardi. Ushbu gapda holning qaysi turi mavjud?

A) *sabab holi* B) *maqsad holi*
C) *vaziyat holi* D) *to'siqsizlik holi.*

38. Uning kelayotganini sezmasdan eshikni yopdi. Ushbu gapda holning qaysi turi mavjud va u qanday so'z bilan ifodalangan?

A) *harakat nomi bilan sabab holi ifodalangan* B) *ravishdosh bilan sabab holi ifodalangan* C) *sifatdosh bilan sabab holi ifodalangan* D) *Ushbu gapda hol qo'llanmagan*

5. 1) Paxtani zavq bilan terdim. 2) Paxtani mashina bilan terdim. Gaplarda bilan ko'makchisi qanday gap bo'lagi tarkibida ishtirok etgan?

A) *har ikkala gap tarkibida ham hol tarkibida* B) *birinchi gapda hol, ikkinchi gapda to'ldiruvchi tarkibida* C) *har ikkala gapda ham kesim tarkibida* D) *birinchi gapda to'ldiruvchi, ikkinchi gapda hol tarkibida*

39. 1. Suvni nimaga quyimoqchisan? 2. Sen nimaga kechikding? Ushbu gaplarda nimaga so'zi qanday gap bo'lagi vazifasida kelgan?

A) *har ikkala gapda ham aniqlovchi* B) *har ikkala gapda ham to'ldiruvchi* C) *har ikkala gapda ham hol* D) *birinchi gapda to'ldiruvchi, ikkinchi gapda aniqlovchi.*

40. Ovqatni do'stim bilan edim. Ovqatni ishtaha bilan edim. Ushbu gaplarda bilan ko'makchisi qanday gap bo'lagi tarkibida ishtirok etgan?

A) *har ikkala gapda ham kesim tarkibida* B) *har ikkala gapda ham to'ldiruvchi tarkibida* C) *har ikkala gapda ham hol tarkibida* D) *birinchi gapda to'ldiruvchi, ikkinchi gapda hol tarkibida.*

41. Vatan uchun to'kkali, yo'qmi bir qoshiq qoning? Ushbu gapdagi ravishdoshning sintaktik vazifasini toping.

A) *maqsad holi* B) *payt holi*
C) *qo'shma gapning kesimi* D) *sabab holi*

42. Qaysi qatorda holli birikmalar berilgan?

A) *qalam bilan chizmoq, do'stlar bilan uchrashmoq* B) *kuchli sel, qiyinchilik bilan ulg'aymoq*
C) *tez termoq, yoppasiga jonlanmoq* D) *tadbirkorlar haqida so'zlamoq, katta kuch*

43. Qaysi qatorda gap bo'laklarining odatdagi tartibi noto'g'ri ko'rsatilgan?

A) *Ega oldin, kesim gap oxirida keladi* B) *Payt holi egadan oldin keladi* C) *Vaziyat holi egadan oldin keladi*

D) *To'ldiruvchi egadan keyin keladi*

44. Oppoq qordir tog'larning toshi (H.O.) jumlasidagi gap bo'laklarining joylashuv tartibi ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

A) aniqlovchi ega aniqlovchi – kesim B) hol kesim aniqlovchi – ega C) ega kesim aniqlovchi – hol D) aniqlovchi kesim aniqlovchi – ega E) kesim aniqlovchi aniqlovchi hol

45. Eshikning qo‘qqisidan ochilishi xotinlarni cho‘chitib yubordi(A.Qod) jumlasida gap bo‘lamlari joylashuvi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

A) aniqlovchi, hol, ega, to‘ldiruvchi, kesim B) aniqlovchi, to‘ldiruvchi, ega to‘ldiruvchi, kesim C) aniqlovchi, aniqlovchi, ega, to‘ldiruvchi, kesim D) to‘ldiruvchi, aniqlovchi, ega, aniqlovchi, kesim

46. Biz tong qorong‘isida Rishtonga etdik. Mazkur gap qaysi qatorda to‘g‘ri tahlil qilingan?

A) Biz – ega, etdik – kesim, tong – belgisiz qaratqich aniqlovchi, qorong‘isida – hol, Rishtonga – hol. B) Biz – ega, etdik – kesim, tong – aniqlovchi, qorong‘isida – to‘ldiruvchi, Rishtonga – hol. C) Biz – ega, etdik kesim, tong qorong‘isida – hol, Rishtonga – to‘ldiruvchi. D) Biz – ega, etdik – kesim, tong qorong‘isida – hol, Rishtonga – hol

47. Ko‘pni yomonlagan ko‘muvsiz qolar. Ushbu maqoldagi gap bo‘lamlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

A) to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol, kesim B) to‘ldiruvchi, aniqlovchi, kesim C) to‘ldiruvchi, ega, hol, kesim D) to‘ldiruvchi, ega, kesim

GAPNING UYUSHIQ BO‘LAKLARI

1-§. Uyushiq bo‘laklar haqida umumiy ma‘lumot

Gapda bir xil so‘roqqa javob bo‘lib, bir xil sintaktik vazifasini bajaradigan, o‘zaro teng aloqaga kirishgan, bir umumiy bo‘lakka bog‘lanadigan gap bo‘lamlari gapning uyushiq bo‘lamlari deyiladi. Masalan: Odamning eng shirin, lazziatli va halol taomi o‘z mehnati, qo‘l kuchi bilan topgan rizqidir. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). Mazkur gapda eng shirin, lazziatli va halol hamda o‘z mehnati, qo‘l kuchi bilan guruh so‘zshakllari uyushib kelgan. Bunda birinchi guruhdagi so‘zshakllar bir xil so‘roqqa - qanday? degan so‘rog‘iga javob bo‘lib, sifatlovchi vazifasini bajargani holda, taomi umumiy bo‘lagiga – egaga bog‘langan; ikkinchi guruhdagi so‘zshakllar ham bir xil so‘roqqa - qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lib hol vazifasida kelib, topgan umumiy bo‘lagiga – sifatlovchiga bog‘langan. Har bir guruhdagi so‘zshakllar o‘zaro teng aloqaga kirishgan.

Bunday teng aloqadagi so‘zshakllar soni ikkidan va undan ortiq bo‘lib, keyingi paytlarda ular tilshunoslikda «uyushiq qator», «tenglanishli qator» deb yuritilmoqda. Tenglanishli qatorda ikkidan tortib o‘n, hatto undan ko‘p so‘zshakl qatnashishi mumkin: Saroytoshning ikki tomonida qad ko‘targan dara sohillari, undagi archazorlar, soy bo‘yida o‘sguvchi yulg‘unzoru bizning uyimiz yaqinidagi eski chashma, chashma atrofida ko‘karib yotadigan nilufarlar, yana qishloqning tor, egri-bugri ko‘chalari, muyulishda do‘mpaygan go‘ng to‘dalari, atrofdan eshitilib turadigan kakliklar sayrog‘i, oqshom tushganida uylar ayvonida yonuvchi chiroqlar, chiroqlar tevaragida qur tutib suhbatga berilgan odamlar – bularning hamma-hammasi biz uchun aziz, qadrdon edi. (SH.Xolmirzaev).

Uyushiq qator quyidagi uyushiq bo‘lak o‘rnini egallaydi:

1. Uyushiq ega: Qor-yomg‘ir yog‘ayotgan paytlarda ham ayollar va bolalar suvga kelishadi. (P.Qodirov).

2. Uyushiq kesim:

a) uyushiq fe'l kesim: ... ufqqacha cho'zilgan lolazor rang-barang tovlanmoqda, yonmoqda. (J.Abdullaxonov);

b) uyushiq ot kesim: qalbi pok bo'lgan kishining ishlari ham pok bo'ladi, toza bo'ladi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

3. Uyushiq aniqlovchi:

a) uyushiq sifatlovchi: Tabiatning hech kimga bo'ysunmaydigan, birovdan ruxsat ham so'rab o'tirmaydigan o'z qonunlari bor. (O'.Hoshimov).

Ba'zan ikki va undan ortiq sifatlovchilar sifatlanmishni turli tomondan aniqlaydi va shuning uchun ham uyushmagan sanaladi. Masalan: Tog' tepasida to'planayotgan qora bulutlar tushga borib quyuqlashib ketdi. (P.Qodirov). Bunda sifatlanmish (bulutlar) o'rniga nisbatan harakatdagi belgi (tog' tepasida to'planayotgan) va rang-tus (qora) jihatdan aniqlangan.

Uyushgan sifatlovchilar esa sifatlanmishni bir tomondan aniqlaydi. Masalan: Ular ichida sariq, binafsha rang gullar... asta silkinib, o'zlarini ko'z-ko'z qilmoqchi bo'lardilar. (J.Abdullaxonov). Bu gapda sifatlanmish (gullar) faqat rang-tus (sariq, binafsha rang) jihatdan tavsiflangan. Sifatlovchilarning uyushganligini belgilashda sanash ohangsi muhim rol o'ynaydi;

b) uyushiq qaratuvchi: Hayotda go'zallik, quvvat va saodatning manbai soddalikdir. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

v) uyushiq izohlovchi: ...bo'lajak katta san'atkor, arxitektura professori Akramjon Holiqov, deb bilasizlar!>- deb tanishtirdi. (O.YOqubov).

4. Uyushiq to'ldiruvchi:

a) uyushiq vositasiz to'ldiruvchi: ... asrlar davomida kasr, koshona, machit, madrasa va uylar qurishda chinordan keng foydalanib kelingan. (A.Aminov);

b) uyushiq vositali to'ldiruvchi: Engil qor parchalarining osmondan uchib tushishida ham, daraxtlarga qo'nishida ham nafis bir xotirjamlik bor! (P.Qodirov).

5. Uyushiq hol: Qadimgi Movarounnahrda chinorzor bog'lar barpo etish an'analari hurmat ishtiyoq bilan davom ettirilgan. (A.Aminov). Mirzo Ulug' bek Samarqand, Kattaqo'rg' on, Balh va SHahrisabzda ana shunday bog'lar barpo etishga farmoish bergan. (A.Aminov).

Uyushiq bo'laklar grammatik jihatdan ikki xil shakllanadi: mustaqil holda va umumlashgan holda.

Uyushuvchilar mustaqil holda shakllanganda, grammatik ko'rsatkichlar (ot va otlshgan so'zlar bilan foydalangan bo'laklarda – kelishik, egalik, ko'plik affikslari, -dagi o'rin belgisi affiksi hamda ko'makchilar; ot va fe'l kesimlarida – to'liqsiz fe'l va ko'makchi fe'llar hamda – dir affiks bog'lamasi va so'z bog'lamalari) uyushikli qatorning har bir a'zosida qatnashadi. Masalan: Qahraton sovuqqa va qurg' oqchilikka chidamli bo'lgani uchun chinor manzarali daraxt sifatida qadrlanadi. (A.Aminov). Kitoblar orqali asrlar bilan, ming yillar bilan, qadim faylasuflar bilan... suhbatlashish mumkin. (Oybek). Oyko'lga baland Sunbul cho'qqidan odamning beliday qishin – yozin tushib turar ekan-u, hech qaeridan chiqib ketmas ekan. (P.Qodirov).

Uyushuvchilar umumlashgan holda shakllanganda, turli grammatik ko'rsatkichlar uyushiq qatorning oxirgi a'zosida qo'llanib, barchasi uchun taalluqli bo'ladi. Bunda turli umumlashtiruvchi grammatik ko'rsatkichlar qavsdan

tashqariga chiqariladi. Va bu holda shakllangan uyushuvchilarning bitta bo‘lak deb qarash lozim bo‘ladi. Masalan: SHarq chinorlari (Kavkaz, Qrim va O‘rta Osiyo)da... o‘stiriladi. (A.Aminov). Maxkam (karavotlar va tubochkalar) bilan qurshalgan stolga qaradi. (P.Qodirov). ... bu xona boshqa xonalaridan (nihoyatda yorug‘ligi, ozoda, haddan tashqari sarishtaligi) bilan farq qilardi. (J.Abdullaxonov).

Temirjon... Abdulla Karimovich Salimovni (tanimas, ammo eshitgan) edi. (J.Abdullaxonov). Qishloq bolalari (pishiq, tadbirli) bo‘ladi. (S.Ahmad). Birinchi gapda bitta uyushiq o‘rin holini –da o‘rin payt kelishigi affiksi, ikkinchi, uchinchi gapda bitta uyushiq vositali to‘ldiruvchini bilan ko‘makchisi, to‘rtinchi gapda bitta uyushiq fe‘l kesimni edi to‘liqsiz fe‘li va beshinchi gapda bitta uyushiq ot kesimni bo‘ladi bog‘lamasi umumlashgan holda shakllantirib kelgan.

2-§. Uyushiq qator a‘zolarining o‘zaro aloqaga kirishuvi

Uyushiq qator a‘zolari tenglashish yo‘li bilan sintaktik aloqaga kirishadi. Bu aloqa teng bog‘lovchilar va teng bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar hamda bog‘lovchisiz, faqat ohang, sanash ohangsi orqali amalga oshiriladi. Sanash ohangsi uyushuvchilarning bog‘lovchilar yordamida aloqaga kirishganda ham mavjud bo‘ladi.

Uyushuvchilar quyidagi bog‘lovchilar yordamida aloqaga kirishadi:

1. Biriktiruvchilar (va, hamda, ham): uning tegrasida osmon benihoyat tiniq va ko‘k ko‘rinadi. (P.Qodirov). U yotoqxonaga borishga qaror berdi hamda nariga korpusga qarab ketdi. (P.Qodirov). Kun bo‘yi quloqlari ostidan juda g‘alati, ham xiyol hazin, ham kishini allaqanday erkalovchi... ajib bir musiqa ketmadi. (O.YOqubov).

Na ... na inkor yuklamasi biriktiruv bog‘lovchilar vazifasida kelib, inkor ma‘nosini anglatish uchun xizmat qiladi: Na hovlidan na uyidan sado chiqdi (I.Rahim).

Va bog‘lovchisi vazifasida -u (-yu), -da, na ... na yuklamalari ham qo‘llanishi mumkin. Keyin chakmonning ikki engini xurjunga o‘xshatib elkasiga tashladi-da, orqaga qaytdi. (P.Qodirov). Yigit qora qushlarni ko‘rdi-yu, birdan sergaklandi. (P.Qodirov).

Va biriktiruv bog‘lovchisi vazifasini bilan ko‘makchisi ham bajarishi mumkin: Deraza bilan doska orasida qo‘lini orqasiga qilib yurib, lektsiya o‘qiyotgan surrang kostyumli barvasta kishi to‘xtadi. (P.Qodirov).

Bilan yordamchisi, va bog‘lovchisi singari, juft – juft qo‘llangan uyushuvchilarda har bir juft o‘rtasida keladi: To‘g‘ rilik bilan xiyonat, yolg‘ onchilik bilan diyonat chiqisha olmaydi. («Oz – oz o‘rganib dono bo‘lur»).

2. Zidlovchilar (lekin, ammo, biroq): Tolibjon bolalarning beg‘ubor, ammo almoysi – aljoysi gaplaridan zavqlanib jimgina borardi. (S. Ahmad). Usta Qambar o‘g‘lini urmadi, so‘kmadi, lekin bir – ikki oy u bilan gaplashmadi. (P.Qodirov).

Zidlov bog‘lovchilar vazifasida –u, (-yu) yuklamasi ham qo‘llanishi mumkin. Masalan: O‘ttiz yildan beri shu qishloqda uy quribman-u, ... shu buloq ... Oyko‘lni Oyko‘l qilib turgan shu suv oldimizda oqqani uchun qadsiz bo‘lib yotganini

sezrabman. (P.Qodirov). U Mullajon qozining bog'ini ko'rgan emas, ammo tarifini eshitgan. (A.Qahhor).

3. Ayiruvchilar (yo, yoki, yoxud, yoinki, dam ... dam, goh ... goh, bir ... bir, ba'zan ... ba'zan): Bir xil irmoqlar ... katta–katta toshlarni aylanib o'tib, ba'zan qoyalarning ostidan yo'l topib, goh to'lib, goh mildiratib ohistalik bilan ko'lga tushadi. (E.Vohidov). U dam sahnada o'tirganlarga, dam pastdagilarga qarab she'rni sharilatib o'qib ketdi. (O'.Xoshimov).

3-§. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi birliklar

Uyushiq bo'lakli gaplarda ba'zan umumlashtiruvchi birliklar ham qatnashadi. Ular uyushuvchilarni jamlab ko'rsatadigan so'z va so'z birliklari bo'lib, uyushiq bo'lakdan oldin yo keyin keladi. Uyushiq bo'lakdan oldin kelgan umumlashtiruvchilar odatda izoh talab qiladi. Uyushiq bo'lakdan keyin kelgan umumlashtiruvchilar esa yakunlash, xulosalash xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan: Hamma narsa: uylar, devorlar, daraxtlar qorong'ulikka jimgina cho'kdi. (Oybek). Ko'cha – ko'y ham, dala ham, qishloq ham - hammasi mendan Ma'sudani so'roqlayotganday bo'ladi. (P.Qodirov).

Uyushiq bo'lakli gaplarda xilma–xil tinish belgilari qo'llaniladi.

Uyushuvchilar o'zaro bog'lovchisiz (faqat sanash ohangsi bilan); zidlov bog'lovchilari, takrorlanuvchi bog'lovchilar; bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida aloqaga kirishganda, ular orasiga vergul qo'yiladi. Masalan: *Qashqardaryo, Surxondaryo, Namangan, Samarqand viloyatlarida bo'lsangiz, 500-600 yillik chinorlarni ko'rasiz.* (A.Aminov). *U doktorlarga goh zug'um qilib, goh yaxshi gapirib statsionardan chiqdi.* (S.Ahmad).

Uyushuvchilar o'zaro *va, hamda, bilan* biriktiruv bog'lovchilari orqali, shuningdek, yakka ayiruv bog'lovchilari yordamida aloqaga kirishganda, ular orasiga vergul qo'yilmaydi: *Anhorda suv sokin va ulug' vor oqardi.* (F.Musajonov). *Salim ota bilan yigitlar mehmonni ... kuzatib tashqariga chiqishdi.* (S.Karomatov).

Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi birliklar uyushuvchilardan oldin kelsa, shu birlikdan so'ng ikki nuqta qo'yiladi: Hamma erda: uylarda, ko'chalarda ivirsib yotgan xazon yuzi ertalab qirovdan ... oppoq bo'lib qoladi. (Oybek).

Umumlashtiruvchi birliklar uyushuvchilardan so'ng kelganda, undan oldin tire qo'yiladi: Kishilar, xotinlar, bolalar – kutib oluvchilar vagon bo'ylab chopdilar. (R.Fayziy).

GAPNING AJRATILGAN BO'LAKLARI

1-§. Ajratilgan bo'laklar haqida umumiy ma'lumot

Sodda gap tarkibida ayrim hollarda ajratilgan bo'laklar ham qatnashishi mumkin. Ajratilgan bo'laklar odatda o'zlari aloqador bo'lgan so'zlarning ma'nosini izohlab, bo'rttirib, aniqlashtirib keladi va boshqa bo'laklardan maxsus to'xtam (pauza) bilan ajratilib, mantiqiy urg'u oladi. Masalan: Soyda, qo'sh yong' oqning tagida, oppoq qorga ko'milib uzoq turdi. (O.YOqubov). Ish qanchalik qiyin

bo‘lmasin, biz, ayniqsa yoshlar, ishtiyoq bilan, g‘ayrat va shijoat bilan ishlardik. (CH.Aytmatov).

Birinchi gapda «qo‘sh yong‘ oqning tagida» o‘rin holi o‘zidan oldin kelgan «soyda» so‘zining ma‘nosini, ikkinchi gapda «yoshlar» o‘zidan oldin kelgan «biz» so‘zining ma‘nosini izohlab, asosiy gap bo‘laklaridan to‘xtam (pauza) bilan ajratilgan. Ajratilgan bo‘laklarning ham ikkisi ham oddiy gap bo‘lagi shaklida qo‘llangan.

Ajratilgan bo‘laklar oborot shaklida ham bo‘lishi mumkin. Masalan: Vohid Mirobidov-ku, uning achchiq kinoyalarini kulgiga olib, qulog‘ining yonidan o‘tkazib yubordi. (O.YOqubov).

Keltirilgan gapda «uning achchiq kinoyalarini kulgiga olib» ravishdosh oboroti kesimdan anglashilgan ish-harakatning qanday holatda bajarilganini ta’kidlab, alohida ohang yordamida ajratilgan.

Demak, ajratilgan bo‘laklar ikki xil shaklda: 1) oddiy gap bo‘lagi shaklida va 2) oborot shaklida bo‘lishi mumkin.

Ajratilgan bo‘laklar qaysi gap bo‘lagiga oid ekanligiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ajratilgan to‘ldiruvchilar.
2. Ajratilgan aniqlovchilar.
3. Ajratilgan izohlovchilar.
4. Ajratilgan hollar.

2-§. Ajratilgan to‘ldiruvchilar

Ajratilgan to‘ldiruvchilar shakllanishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Ko‘makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan to‘ldiruvchilar.
2. Oddiy gap bo‘lagi oboroti shaklidagi ajratilgan to‘ldiruvchilar.

Ko‘makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan to‘ldiruvchilar kesimdan uzoqda kelib, qaraganda, ustiga, singari, bilan birga va shu kabi ko‘makchilar yordamida shakllanadi:

Oddiy gap bo‘lagi shaklidagi to‘ldiruvchilar, o‘zidan oldin kelgan to‘ldiruvchining ma‘nosini izohlaydi, unga aniqlik kiritadi. Bunda vositasiz to‘ldiruvchi ham, vositali to‘ldiruvchi ham ajratilishi mumkin. Masalan: Sizga, o‘rta bo‘yli qizga, atlas ko‘ylak juda yarashibdi. (YO.SHukurov). Bu norozilik, hech shubhasiz, uning dadasiga, Onaqo‘ziga qarshi qaratilgan edi. (O.YOqubov). Bunday qarasa, biri – dadasining o‘z qo‘li bilan yozilgan xat, ikkinchisi dadasi xizmat qilayotgan qism komandiri – polkovnik tomonidan yozilgan xat ekan. (H.Nazir). Ana shu sanoqli kishilar orasida operatsiyaning harbiy jihatini – etkazib berishni ta‘minlagan kapitan ham bor edi. (A.CHakovskiy).

Ajratilgan bo‘laklarda tinish belgilarining ishlatilishi

Ajratilgan bo‘laklarda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi:

1. Ajratilgan bo‘laklar, odatda, vergul bilan ajratiladi. Masalan: Biz, tibbiyot xodimlari, xalqqa jon-dildan xizmat qilamiz. (S.Soliev).

2. Ajratilgan bo‘laklarning tarkibi keng bo‘lsa yoki uning ichida verguli bo‘lsa, bunday ajratilgan bo‘laklar tire bilan ajratiladi. Masalan: Kotiba qiz – Ulfatoy o‘rta bo‘yli, oq yuzli, yonoqlari loladay, qop-qora qosh-ko‘zli ayol – choynakda choy ko‘tarib kirdi... (S.Soliev).

3-§. Ajratilgan aniqlovchilar

Ajratilgan aniqlovchilar ikki xil: ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratuvchi.

Ajratilgan sifatlovchi predmetning belgisini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun ajratiladi. Masalan, «Muxtor, yalangbosh, majnuntollar tagida aylanib, xayol surib yurardi». (S.Soliev) gapida «yalangbosh» sifatlovchisi shaxsning («Muxtor») belgisini bo‘rttirib berish uchun sifatlanmishdan keyin keltirilgan.

Ajratilgan qaratuvchi. Bunda qaratuvchi o‘zidan oldin kelgan boshqa bir qaratuvchini izohlash, aniqlashtirish yo‘li bilan ajratiladi. Masalan: To‘g‘ri, uning yozganlari, aniqrog‘i, mashinistkaga aytib turib, qog‘ozga tushirganlarining aksari mazmunan sayoz bo‘lar, oldingilarini takrorlardi. (T.Po‘lat). Bu gapda «aniqrog‘i, mashinistkaga aytib turib, qog‘ozga tushirganlarining» aniqlovchisi, o‘zidan oldin kelgan qaratuvchining («yozganlari» so‘zining) ma‘nosini izohlab, bo‘rttirib kelgan.

4-§. Ajratilgan izohlovchilar

Izohlovchilar ko‘pincha ajratilgan bo‘ladi. Bunda ular izohlanmishdan keyin kelib, maxsus ohang bilan talaffuz qilinadi. Masalan: Siz, Sunnatillo, o‘zingiz juda aqlli, o‘zi uzoqni ko‘radigan odamsiz. (S.Soliev). Ko‘rimsizgina jangchi – Ali tajang ... kelib o‘zbekcha cho‘kkaydi. (Oybek). Minbarni institutni oldinroq bitirganlar - yuqori kurs studentlari egalladi. (J.Abdullaxonov).

5-§. Ajratilgan hollar

Ajratilgan hollar shakllari jihatdan ikki xil bo‘ladi:

I. Oborot shaklidagi ajratilgan hollar.

II. Oddiy gap bo‘lagi shaklidagi ajratilgan hollar.

Oborot shaklidagi ajratilgan hollar o‘z navbatida uchga bo‘linadi:

1. Ravishdosh oboroti shaklidagi ajratilgan hollar.

2. O‘xshatish oboroti shaklidagi ajratilgan hollar.

3. Ko‘makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan hollar.

Ravishdosh oboroti shaklidagi ajratilgan hollar. Ravishdosh o‘ziga oid so‘zlar bilan kengayib keladi va bunday qurilma ravishdosh oboroti deb yuritiladi. Ravishdosh oboroti, odatda, ajratilgan bo‘ladi. Masalan: Odamlar, qondan

to'kilgan yong' oqday gurr etib, hamma vagonlardan baravariga perronga yopirilishdi. (T.Po'lat).

Ravishdosh oboroti shaklidagi ajratilgan hollar ish-harakatning bajarilish holatini, paytini, shartini, sababini va shu kabi ma'nolarni ifoda etadi. Masalan: Bola, olmani eb bo'lgach, hola cho'pni qo'liga oldi. (A.Muxtor).

O'xshatish oboroti shaklidagi ajratilgan hollar. –day, -dek qo'shimchasini olib kelgan so'zlar ham kengayib ajratilishi mumkin. Masalan: Bu zavoda, hamma zavodlardagidek, oshxonada ilg' orlar stoli alohida. (A.Qahhor).

Ko'makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan hollar. Ko'makchili qurilma shaklidagi hollar kesimdan uzoqda kelib, o'zlariga oid so'zlar bilan kengayib, gapning boshqa bo'laklaridan ajratilishi mumkin. Bunda qurilma qarshi, singari, kabi, tufayli, yarasha, holda kabi ko'makchilar bilan shakllanadi. Masalan: Nozik, oppoq bilagini daraxtga cho'zgan holda, qorayib pishgan shotutdan og'ziga tashlar ekan, tebrandi. (H.G'ulom).

Ko'makchili qurilma oboroti shaklidagi ajratilgan hollar turli holatni, o'xshatishni ifodalaydi.

Oddiy gap bo'lagi shaklidagi ajratilgan hollar o'zidan oldin kelgan holning ma'nosini izohlaydi. Uning so'rog'i, vazifasi izohlanayotgan holning so'rog'i va vazifasiga teng bo'ladi. Bunda ko'pincha payt va o'rin hollari ajratiladi.

Ajratilgan o'rin holi: *Qishloqdan bir qir narida - behisob qizg'aldoqlar dalani qizartirib, xiyol chayqalib turgan joyda - hulkar o't o'rardi. (P.Qodirov). Oyko'l qishlog'ining o'rtasida, buloq bo'yida, usta Qambar bilan Norboy ota shunaqa ustundan uchtasini tiklashgan. (P.Qodirov).*

Ajratilgan payt holi: *Ertaga, yigit, seni kuzatganim zahoti, orqamga qaytaman. (P.Markov).*

Takrorlash uchun savollar:

1. Uyushiq bo'lakli gaplar haqida gapiring.
2. Uyushiq bo'laklar ta'rifini ayting.
3. Qanday bo'laklar uyushib keladi?
4. Uyushiq bo'laklar qanday ko'rinishlarda bo'lishi mumkin?
5. Uyushiq bo'laklarda egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari qanday qo'llanadi?
6. Uyushiq bo'laklar o'zaro qanday vositalar yordamida bo'lanishi mumkin?
7. Umumlashtiruvchi bo'lak va unda tinish belgilarining ishlatilishi haqida gapiring.
8. Uyushiq va uyushmagan sifatlovchi aniqlovchilar haqida gapiring.
9. Ajratilgan izoh bo'laklarning ta'rifini ayting.
10. Gap bo'laklarining ajratilishiga nima sabab bo'ladi?
11. Ajratilgan izoh to'ldiruvchi haqida gapiring.
12. Ajratilgan izoh sifatlovchi aniqlovchi haqida gapiring.
13. Ajratilgan izoh qaratqich aniqlovchi haqida gapiring.
14. Ajratilgan izoh hol haqida gapiring.
15. Ravishdosh o'ram va sifatdosh o'ram ko'rinishida ajratilgan hollar haqida gapiring.
16. Kesimning ajratilishiga misollar keltiring.
17. Ajratilgan izoh bo'laklarda tinish belgilarining qo'llanishi haqida gapiring.
18. Uyushiq bo'laklarning ajratilgan bo'laklardan farqini ayting.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Lekin bu musiqa jimjittlikni buzmas, balki uni quyultirardi. Ushbu gapda zidlov bog'lovchisi qanday bo'laklarni bog'lagan?

A) gap tarkibidagi sodda gaplarni B) uyushiq bo'laklarni
C) turli gap bo'laklarini D) bog'lovchi vazifasini bajarmagan

2. Qaysi qatordagi gapda uyushiq bo'laklar mavjud emas?

A) Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. B) Xalqqa qaradi-yu, lekin gapirmadi. C) Til bilan dil bir bo'lishi kerak D) Men asta-sekin bu xonadonning past-balandini yaxshi o'rganib oldim.

3. O'zbek tilida gapning uyushgan bo'laklarini bog'lash vazifasida nisbatan kam qo'llanadigan bog'lovchilarni aniqlang.

A) biriktiruv bog'lovchilari B) zidlov bog'lovchilar C) ayiruv bog'lovchilari D) A, B

4. Uyushgan egalar shaxsni anglatrsa, kesim qanday shaklda bo'ladi?

A) Kesim ko'plik shaklda qo'llanadi. B) Kesim birlikda qo'llanadi. C) Kesim fe'l bilan ifodalansa, ko'plikda, sifat, ravish, son bilan ifodalansa, birlikda qo'llanadi. D) Kesim birlikda ham, ko'plikda ham qo'llanishi mumkin.

5. Bosh bo'laklar uyushib kelgan gapni toping.

A) Saida kitob bilan, she'r bilan dardlashardi. B) Quyosh, havo – tanga davo. C) Havo salqin, toza. D) O'rmonlar, bog'lar uni quvontirdi, to'lqinlantirdi.

6. Vaziyat (ravish) holi uyushib kelgan gapni toping.

A) Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. B) Qo'qon, Farg'ona va Andijonda yaxshi bir odat bor. C) U mayda-chuyda ishlarni ham aniq va puxta bajarardi. D) U tanib, bilib, keyin so'rasha boshladi.

7. Gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan? Yangi mafkuraning asosi, negizi bormi, yo'qmi?(I.A.Karimov)

A) ega B) kesim C) aniqlovchi D) ega va kesim.

8. Onam, opam va singlim bilan mehmonga bordim. Qaysi gap bo'lagi uyushgan?

A) ega B) to'ldiruvchi C) ot D) aniqlovchi

9. Uyushiq bo'lakli sodda gap berilgan qatorni aniqlang.

A) Soy guvillab oqar va uning muzdek shamoli qirg'oqda tartibsiz o'sgan o'tlarni silkitar edi. B) Gap tashuvchilarni, tirnoqdan kir izlovchilarni, chaqimchilarni men yomon ko'raman. C) Bahor keldi, gul ochildi, chaman bo'ldi yurtimiz. D) Ilmli ming yashar, ilmsiz bir yashar.

10. Qaysi uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z qo'llanmagan?

A) Bog'imizdagi mevalar: olma, o'rik, olxo'rilar mo'l hosil qildi. B) Berilgan barcha gaplarda umumlashtiruvchi so'zlar qo'llangan. C) Suv, er, elektr - bular hayot bahoriga yangi go'zallik va yangi nash'a bag'ishlovchi kuchlar edi.

D) Majlisda qatnashdilar: Sobir Erkinov, Nodir Olimov, Abdulla Saidov va boshqalar.

11. Qaysi uyushiq bo'lakli gapda umumlashtiruvchi bo'lak (umumlashtiruvchi so'z) qo'llangan?

A) Kamtarinlikni, zahmatkashlikni, sabot va sobirlikni Asqad Muxtordan o'rgansak bo'ladi B) Aql, bilim va hikmat – oltindan qimmat. C) Insonda hamma narsa: yuz ham, kiyim ham, qalb ham go'zal bo'lmog'i lozim. D) Siz bilan biz o'z e'tiqodimizga sodiq ekanmiz.

12. Gapda uyushgan bo'laklarni jamlovchi umumlashtiruvchi so'z ko'pincha qanday so'zlar bilan ifodalanadi?

A) mustaqil so'z turkumlari bilan B) barcha so'z turkumlari bilan C) ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan D) ot, olmosh, fe'l va ravish bilan

13. Uyushiq bo'lakli quyidagi gaplarning qay birida umumlashtiruvchi so'z mavjud emas?

A) Masjidga qatnashdilar: Diyor Salimov, Davlat Usmonov, Sherzod Olimov B) Xolmurodning do'stlari: Nodir, Qodir va Nozimalar ham birin-ketin qaytib kelishdi. C) Berilgan barcha gaplarga umumlashtiruvchi so'z mavjud. D) Suv, er, elektr – bular hayot bahoriga yangi go'zallik va yangi nash'a bag'ishlovchi kuchlar edi.

14. Umumlashtiruvchi bo'lak qaysi gapda qo'llangan?

A) Negaki, ular meni katta ehtiros, qiziqish bilan kutib oladilar. B) Bu xabarni eshitish bilan Otabekda ko'riladigan o'zgarishlarni, hollarni, harakatlarni – barchasini birma-bir ko'nglidan

kechirar edi. C) Xullas, Vatanimizning osti ham, usti ham olindir. D) Albatta, vaqt kutib o'tirmaydi, o'tib ketaveradi.

15. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan keyin kelganda, umumlashtiruvchi so'zdan oldin qanday tinish belgi qo'yiladi?

A) vergul B) nuqtali vergul C) ikki nuqta D) tire

16. Bog'da etilgan olma, anor, uzumlar – hammasidan oldik. Ushbu misoldagi uyushiq va umumlashtiruvchi bo'laklar gapning qaysi bo'lagi hisoblanadi?

A) ega B) to'ldiruvchi C) aniqlovchi D) hol

17. Umumlashtiruvchi so'z bilan qo'llangan uyushiq gap berilgan qatorni aniqlang.

A) Havo issiq keldi, hamma narsadan go'yo hovur ko'tariladi. B) Tong yorisha boshladi, hamma jonlandi. C) Mehmon kirib kelishi bilan, hamma o'rnidan turdi. D) Atrofni qurshagan tog'lar, qirlar, daraxtlar – hamma narsa bahor havosiga cho'milganday.

18. Ajratilgan bo'laklar uyushiq bo'laklardan qaysi xususiyatlariga ko'ra farqlanadi?

A) bir xil grammatik shaklda bo'lishi bilan B) bir xil so'roqqa javob bo'lishi bilan C) bir predmetning ikki xil nomi bo'lishi bilan D) A, B

19. Ajratilgan izoh bo'lak berilmagan qatorni aniqlang.

A) Oshpaz opa, ellik-ellik besh yoshlarga borib qolgan ayol, yopilgan nonlarni dasta-dasta qilib o'rarkan, kulib javob berdi. B) yozda, ta'til kunlarida bir necha badiiy asarlar o'qidik. C) Bu xabar ko'plarni, shu-jumladan, meni ham, ajablantirdi. D) Bulbullarning, sa'valarning sayrashi bizlarga zavq berardi.

20. U oilasi bilan – xotini, chaqaloq qizi, o'n besh yoshli o'g'li bilan – Oltiariqqa ko'chib bordi. Bu gapda qaysi bo'lak ajratilgan?

A) aniqlovchi B) to'ldiruvchi C) ega D) kesim

21. Ertasi ertalab qishloq chetida, maktab yonidagi sayhonlikda, ko'p odam yig'ildi. Ushbu gapni qanday izohlaysiz?

A) uyushiq bo'lakli gap B) undalmali sodda gap
C) qo'shma gap D) ajratilgan o'rin holli gap.

22. Ajratilgan izoh bo'lakli gapni toping.

A) Bektemir ko'zlarini ochganda, yomg'ir tez va shiddat bilan yog'moqda edi. B) Afsuski, er yuzida urushsiz yashab bo'lmayapti. C) Sa'va, mayna, bulbullar, qanot qoqib kelinglar. D) Qobiljon Umaraliev, tasviriy san'at o'qituvchisi, to'garak ishini yo'lga qo'yib yubordi.

23. Ajratilgan izoh bo'lakli gapni belgilang.

A) Biz, turli tilga xos adabiyot vakillari, shu til tufayli bir-birimizni yaxshi bilamiz. B) Tejamkorlikni donolikning qizi, qanoatning singlisi va erkinlikning onasi deb hisoblash mumkin. C) Yozda, ta'til kunlarida, bir necha badiiy asarlarni o'qidim. D) A, C

24. ...Kanal bo'yidagi soya-salqin choyxonada, avtobus bekatida, A'zamjon uchrab qoldi. Ushbu misolda gapning qaysi bo'lagi ajratilgan?

A) to'ldiruvchi B) aniqlovchi C) hol D) ega

25. Hovli etagida – darvozaxonaning shundogqina ro'parasida – garaj. Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi ajratilgan?

A) ega B) aniqlovchi C) kesim D) hol

26. Jarda, anhorni to'latib oqqan suv yo'lida, tegirmonning chirillashi ham bahor nash'asiga yana bir go'zallik qo'shganday. Ushbu misolda gapning qaysi bo'lagi ajratilgan?

A) to'ldiruvchi B) hol C) aniqlovchi D) ega

27. Sunbula xola, xursandlik hislari bilan to'lgan holda, bog'ni aylanib keldi. Mazkur gapda qaysi gap bo'lagi ajratilgan?

A) to'ldiruvchi B) ajratilgan hol
C) ega D) ajratilgan kesim

28. Ajratilgan aniqlovchi qaysi javobda berilgan?

A) O'rta Osiyoda Navro'z, yangi yil bayrami, katta tantana bilan nishonlanadi. B) Shoir sevgan qiz shu hamshira. C) Biz, yoshlar, xalqqa xizmat qilamiz. D) Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan, og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi.

29. Gapning bosh bo‘lagi ajratilgan gapni toping.

A) Paxtakor o‘zbekman – zabardast, mag‘rur. B) Bu xabar ko‘plarni, shujumladan, Mahkamni ham, juda quvontirdi. C) Biz, hammamiz, bir oilaning bolasimiz. D) Uzoqdan otliqlarning – Alisher va uning hamrohlarining qorasi ko‘rindi.

30. Ajratilgan izoh to‘ldiruvchini aniqlang.

A) Soyda, qo‘sh yong‘oqning tagida, oppoq qorga ko‘milib uzoq o‘tirdi. B) O‘smoqdamiz biz yosh avlod, qalbimizda zo‘r istak. C) Nuriddin aka o‘sha, o‘zgarmabdi. D) Sizlardan, yoshlardan, aqlli gaplarni kutamiz.

31. Ajratilgan aniqlovchi qatnashgan gap berilgan qatorni toping.

A) To‘xtagin, qiz, bu men – Omonjon. (H.O.) B) C,D C) Mushtumzo‘r lapanglar – mug‘ambir, pismiql.(O.) D) Kamzul kiydim, trinka. (G‘.G‘.)

32. Ajratilgan izoh hol berilgan qatorni aniqlang.

A) Ultarma bu erga xiyla olis bo‘lsa ham, bu ikki oshna bordi-keldi qilib turishar edi. B) Kampir tovush chiqarmay, kuyunib yig‘ladi. C) Hu ana o‘sha joyda, taxtako‘prikning ostida, atrofi qalin yalpiz bilan o‘ralgan kichik bir buloq bor. D) Asrorqul bunga rozi bo‘lmasa ham, kampirning ra‘yini qaytargani botinolmadi.

33. Ajratilgan to‘ldiruvchi qaysi gapda qo‘llangan?

A) Qator uch uyning hammasi qimmatbaho narsalar bilan, ya‘ni qo‘sh-qo‘sh gilam, taxmon-taxmon atlas, baxmal ko‘rpalar bilan to‘lgan. B) Odamlar ... shiypon orqasiga, anhor bo‘yiga, ketdi. C) Ko‘zlarini erdan olmay, sekin-sekin odimlab borardi. D) Odamlar, ayniqsa, bolalar, guvillashib ma‘qullashdi.

34. Ajratilgan to‘ldiruvchi ishtirok etgan gapni toping.

A) Bu ulug‘vor anjumanga, bayramga, xalq shoirlari ham taklif etildi. B) Bu dugonamning, Halimaning, ro‘moli.C) U birpas tinmaydi - supuradi-sidiradi, idish-tovoqlarni artadi. D) Ammo biz, yurtimiz kishilari, bunday munosabatlar bo‘lishi mumkin va lozim deb hisoblaymiz.

35. Ajratilgan izoh hol ishtirok etgan gapni toping.

A) Navbatchi hamshira, sochi oq semiz xotin, Sadbarning kecha ham kelganligini eslatdi. B) Osmonning bir burchagida, ufqqa yaqin erda, oq bulut parchasi turardi. C) Keling do‘stlar, qadrdonlar, aziz o‘rtoqlar! D) B va C.

36. Bu xabar ko‘plarni, shu jumladan, Rustamni ham, quvontirdi. Gapda qanday bo‘lak ajratilgan?

A) ega B) kesim C) aniqlovchi D) to‘ldiruvchi

GAP BO‘LAKLARI SANALMAYDIGAN BIRLIKLAR

Gap tarkibida ba‘zan shunday so‘zlar va so‘z birikmalari hatto gaplar qo‘llanadiki, ular gapning biror bo‘lagi bilan grammatik jihatdan aloqaga kirishmaydi. SHu tufayli bunday so‘z yoki so‘z birikmalari gap bo‘laklari hisoblanmaydi. Undalma, kirish so‘z, kirish birikma va kiritma gap ana shunday xususiyatga ega.

1-§. Undalma

So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs (yoki predmet)ni anglatadigan so‘z yoki so‘z birikmasi undalma deyiladi. Undalma bayon qilinayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortish uchun xizmat qiladi.

Undalma o‘zi ishtirok etgan gap bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaydi. U bosh kelishik shaklidagi ot yoki otlashgan so‘z bilan ifodalanadi. Bu jihatdan undalma egaga o‘xshaydi, biroq u gapning kesimi bilan grammatik jihatdan

bog‘lanmasligiga ko‘ra o‘ziga xos undosh ohangsi, pauza (to‘xtash) bilan aytilishiga ko‘ra egadan farq qiladi. Masalan: Aziz o‘g‘lim, yomonlar bilan suhbatdosh bo‘lma, ulardan asrlondan qochganday qoch, hammaga rahm va shafqat ko‘zi bilan qara ... («Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur»). YUrak, sensan mening sozim, tilimni naycha jo‘r etding. (U.Nosir).

Undalma ba‘zan ey, -u (-yu) kabilar bilan birga qo‘llanadi: Luqmon hakim o‘g‘liga nasihat qilib aytdi: - Ey o‘g‘il, odamlr so‘zga ustomonliklari bilan maqtansalar, sen sukuting bilan maqtan. («Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur»).

Undalma vazifasida atoqli otlar shaxs otlari, qarindoshlik, kasb, hunar kabilar anglatuvchi so‘zlar keladi. Masalan: - Onajon, Xonzoda begim ham sizning suyuqli farzandingiz-ku (P.Qodirov). Kechagi maqola nima bo‘ldi, Rahim aka?! (F.Musatjonov). Siz mendan ko‘ra qo‘ylaringizni ko‘proq o‘ylang, cho‘pon aka! (P.Qodirov).

Undalma ot, otlashgan sifat otlashgan undov so‘z, so‘z birikmasi va shu kabilar bilan ifodalanishi mumkin: Ey ustod, men buyuk ishlarga qadam qo‘ydim. («Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur»). O‘ynashma, puchuq, tek tur, hamma yog‘ing suv bo‘ldi... (O.YOqubov). -Hoy, biron gap topib keldingmi? (S.Ahmad). YAxshilik ... yaxshilikning ham bahosi bor, o‘rtoq Zargarov (A.Muxtor).

Undalma gap boshida, o‘rtasida, oxirida keladi va yozuvda gapning boshqa bo‘laklaridan, odatda, vergul bilan ajratiladi: - Olim bola, rayhonlarni bir silkitib chiqmaysizmi ... (J.Abdullaxonov). Ey rais, bu kitobni avval bir o‘qib ko‘ring. (S.Ahmad). Nima qilasiz, dada, bolaning yuragini ezib. (S.Ahmad). Mening etti pushtim bog‘ bon o‘tgan, o‘g‘lim. (J.Abdullaxonov).

Undalma kuchli his - hayajon bilan aytilsa, undan so‘ng, undov belgisi qo‘yiladi: -Xolbek! Qanisan? – dedi Eshmurot aka. – Kelsang-chi, kutib qoldik-ku. (P.Qodirov).

2-§. Kirish so‘z va kirish birikma

So‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikrga bo‘lgan turli munosabatini bildiruvchi so‘z yoki so‘z birikmasi kirish so‘z yoki kirish birikma deb yuritiladi.

Kirish so‘z, kirish birikma mazmunan butun bir gapga yoki uning biror bo‘lagiga tegishli bo‘ladi.

Kirish so‘z va kirish birikma:

I. So‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrga bo‘lgan turli munosabatini ifodalaydi:

1. Ishonch yoki tasdiqni (albatta, to‘g‘ ri, haqiqatan, darhaqiqat, shubhasiz, so‘zsiz kabilar): Albatta, mendan ko‘ra paxta ishining ustalari yaxshiroq bilishadi. (J.Abdullaxonov). To‘g‘ ri, til suyaksiz-u, lekin suyakni sindiradi. (SHuhrat).

2. Gumonni (ehtimol, balki, aftidang, chamasi kabilar): Ehtimol, o‘z xatolarini tuzatmoqchi bo‘lib yurgandir? (P.Qodirov). Aftidan, professorning so‘zlari unchalik quvonishga arziydigan emas shekilli. (J.Abdullaxonov).

3. Afsuslanish, taajjubni (afsuski, attang, essiz, baxtga qarshi kabilar): Afsuski, boya hamma raislarni mehnatga chaqirmagan ekansiz, Otaqo‘zi aka, - dedi Xolmurodov. (O.YOqubov).

4. Eslatishni (darvoqe, aytgandek, aytmoqchi kabilar): Aytgandek, sizdan bir nima so‘ramoqchi edim... (A.Muxtor). Darvoqe, Anvarga ko‘p mehnatim singgan ... (A.Qodiriy).

II. Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini ifodalaydi (menimcha, sizningcha, ularning aytishicha, aytishlaricha kabilar): meningcha, to‘g‘ risini o‘z vaqtida aytib, xatoning oldini olgan yaxshidir. (J.Abdullaxonov). Keksalarning aytishicha, o‘sha suv tog‘ ning tirqishidan oqib kelib, manna shu buloqdan chiqarmish. (P.Qodirov). Eshitishimcha, Anorxon bilan musobaqalashishga kelishibsizlarmi? (J.Abdullaxonov). Tadqiqotchi olimlarning fikricha, chinor daraxtini qadim - qadim davrlarda yurt kezuvchi sayyohlar, savdogarlar ... Eron va unga qo‘shni mamlakatlardan O‘zbekistonga olib kelishgan. (A.Aminov).

III. Bayon qilingan fikrning tarkibini ifodalaydi (avvalo, nihoyat, birinchidan, ikkinchidan kabilar): Nihoyat, xuddi yoshi ulug‘ odamlardek viqor bilan qadam bosib Asadillo paydo bo‘ldi. (F.Musajonov). Birinchidan, bugun hamisha opaning yubiley kechalari, ikkinchidan, ertaga oblast yosh yozuvchilarining konferentsiyasi ochiladi. (O.YOqubov).

IV. Aytilayotgan fikrning oldingi fikr bilan aloqasini ifodalaydi (demak, xullas, ishqilib, shunday qilib, binobarin, ko‘rinadiki kabilar): Xullas, barcha bilan ahillashib ketganligi ko‘rinib turardi. (J.Abdullaxonov). Ishqilib, shu oqshomchi so‘xbat bekor ketmadi. (J.Abdullaxonov).

Kirish so‘z ko‘pincha modal so‘z bilan, kirish birikma esa so‘z birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: CHamasi, o‘n minutchka yurilsa, salqin va so‘lim sayribog‘ bor edi. (F.Musajonov). Keksalarning aytishicha, bunday paytlarda tepalikning ustida erning nafasini eshitarmishsiz? (O‘.Hoshimov).

Kirish so‘z va kirish birikma gapning boshida kelib, yozuvda undan keyin, gap oxirida kelib, undan oldin vergul qo‘yiladi: Albatta, uning yuzida kasaldan asar ham yo‘q ... (F.Musajonov). Achchiq gapirganingiz ma‘qul, albatta. (P.Qodirov).

3-§. Kiritma gap

So‘zlovchining asosiy fikr ichida yo‘l – yo‘lakay aytilgan fikrini anglatuvchi gap kiritma gap deyiladi. Kiritma gap o‘zi kiritilgan gapning biror bo‘lagiga mazmunan aloqador bo‘lib, maxsus pauza bilan ajratiladi. Masalan: Nima uchundir Ahmad yuragida ayriliq jafosi, achinish sezmedi (bu his keyin uning yuragini o‘rtaydi). (F.Musajonov).

Kiritma gap ko‘pincha qavs ichida beriladi: Hay, aytmoqchi, Oyim kelgan ekanlar (u «Oyim» deb Humayrabonuni ko‘zda tutardi). (J.Abdullaxonov). Ba‘zan esa u asosiy gapdan tire orqali ajratiladi: SHunday qilib, Asal va Samad o‘g‘lining ismi shunday ekan – bizning yo‘l uchastkamizda qolishdi. (CH.Aytmatov).

Takrorlash uchun savollar:

1. Qanday birliklar gap bo‘laklari bilan bo‘lanmaydi?
2. Undalmaning ta‘rifini ayting.
7. Kirish so‘z va kirish birikmalar hamda ularning ma‘no turlari haqida gapiring.
8. Kirish gap haqida gapiring va misol

3. Undalma qaysi shaxslarga qaratilgan keltiring.
bo'ladi? 4. Yiqiq undalma haqida gapiring. 9. Kirish gap turlari haqida gapiring.
5. YOyiq undalma haqida gapiring. 10. Undalma, kirish so'z, kirish birikma va
6. Undalmalar qanday so'zlar bilan kirish gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi
ifodalanadi?. haqida gapiring

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan test savollari:

1. **Aytishlaricha, ona qalbi juda sezgir bo'lar ekan.** Gap tarkibidagi **aytishlaricha** so'zi qanday vazifada kelgan?
A) bosh gap B) ergash gap C) undalma D) kirish so'z
2. **Aytishlaricha, bu yil qish iliq kelar emish.** Ushbu gapdagi kirish so'z qanday ma'noni anglatadi?
A) tasdiqni B) bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini C) inkorni D) oldingi fikr bilan keyingi fikrning bog'liqligini
3. **Demak, maktabni bitirib, o'qishga kirmoqchisan?** Ushbu gapdagi kirish so'z qaysi ma'noni bildiradi?
A) ishonch va tasdiq B) fikrning kimga qarashli ekanligini C) fikrning tartibi D) fikrga yakun yasash.
4. **Qaysi qatorda kirish gap qo'llangan?**
A) Sharqning kattakon adabiyotini bilish uchun, afsuski, bizning yoshlarimizda intilish yo'q. B) Kecha, desangiz, yomg'ir yog'ib qoldi. C) Gapning po'skallasini aytganda, kiyim-kechak masalasida ham yordam berishadi. D) Ibrohim, Qurbon ota aytmoqchi, gullarni o'z ilmi bilan bahramand qilmoqchi.
5. **Menimcha, fikrimcha, aytishlaricha, nazarimda, eshitishimcha** kirish so'zlarining ifodasi to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating.
A) his-hayajonni ifodalaydi B) fikrni shakllantirishga xizmat qiladi C) fikrning tartibini ko'rsatadi D) fikr manbaini ko'rsatadi
6. **Qaysi gapda undalma mavjud emas?**
A) - Qulluq, qulluq, G'afurjon. B) Samarqand, Samarqand! degani shu ekan-da! C) - Hoy! Sizni kutib turibmiz. D) - Hoy, soqoling to'kilgur, - dedi xotin, - bu qanday qiliq?
7. **Kirish gapni aniqlang.**
A) Bugun menga bir qarashib yubormaysanmi, Otabek? B) Afsus, ming bor afsuski, bu bir xayolgina, xolos. C) O'qish, o'rganish, hormay zo'r ishtiyoq bilan ishlash, shubhasiz, g'alabalarga etkazadi. D) Bu voqeadan Qodirni ham (sen uni taniysan) xabardor qildim.
8. **Tarkibida ega ham qatnashgan undalmali gapni toping.**
A) Umidaxon, bu kishiga kabinetlarini ko'rsating. B) Ey, yaxshilar, bir-birimizga mehr-oqibatli bo'laylik C) Asabga zo'r bermang, odamlar. D) Ey farzand, aytar so'zing, fe'l-atvoring odamlarni ranjitmasin.
9. **Kirish gap (kiritma gap) berilgan qatorni toping.**
A) Niyatingga etkur, quloq sol B) Bir so'z bilan aytganda, tabiat ayolni alohida mahorat va muhabbat bilan yaratgan. C) Qosimjon aka (u bizdan to'rt-besh yosh katta edi) choy olib keldi. D) Boboning aytishicha, bir vaqtlar bu telefonni Orif oqsoqolga eng katta oqsoqol sovg'a qilgan ekan.
10. **Kirish so'z ishtirok etgan gap qaysi qatorda berilgan?**
A) Ol, singlim, bolalarga kiyim-bosh qilib berarsan. B) Inson tez o'tuvchi orzu-havaslariga o'yinchoq bo'lmasligi kerak, To'g'onbek. C) Kunduzi bo'lsa, o'zingdan o'tar gap yo'q, xunukroq ko'rinadi. D) Koshki, o'zgalarni g'iybat qiluvchilar o'z nuqsonlarini ham bilsa.
11. **Yoyiq undalmali gap qaysi qatorda keltirilgan?**
A) Mana, taqsir, olib keldim, tekshirib ko'ring. (A. O.) B) Biz-chi, eh... ba'zi bir ko'zi ochiqlar, Eplab yurolmaymiz katta yo'lda ham. (A. O.) C) Bahor keldi, gul ochildi, Nur sochildi borliqda (Z. Diyor) D) Lekin seni yo'qotdim, birinchi muhabatim.(A.O)

12. Kirish gapni toping.

A) U yog'ini so'rasang, aytaymi, dars tayyorlamaganman. B) Bunday qor, qariyalarning aytishicha, bu yaqin yillarda bo'lmagan ekan. C) Ha, aytgandek, yangi unvonlar muborak. D) Jamila! Yig'lama, yig'lama!

13. Demak, pardozi ham, kiyinishning ham chamasi va me'ori bor. Ushbu gapdagi kirish so'z qaysi ma'noni bildiradi?

A) Ishonch va tasdiq. B) Shodlik yoki achinish. C) Bayon qilingan fikrning tartibi D) Bayon qilingan fikrning oldingi fikr bilan bog'liqligi.

14. Gumonni bildiradigan kirish so'z qaysi qatorda berilgan?

A) Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor. B) Menimcha, u bugun-erta o'yini o'ylab olgani ma'qul. C) Mening so'zlarim sizga, ehtimol, achchiq tatiyotandir. D) Jigarim esga tushsa, achinaman, albatta.

15. Kirish birikma qaysi gapda qo'llangan?

A) Har bir o'rtog'ingiz, shak-shubhasiz, sizga faqat yaxshi niyat tilaydi. B) Mirzakarimboy boshqalarga maqtanmasa ham (maqtanchoqlikni yomon ko'rardi u), ba'zi vaqt ichidan faxrlanardi. C) Birinchidan, bu zamin bag'rida Mendeleev jadvalidagi hamma elementlar mavjud, ikkinchidan, o'zbek xalqi juda mehnatkash xalq ekan. D) Tabibning ta'biricha, tuzalmaydigan kasallik yo'q.

16. Qaysi qatorda kirish gap berilgan?

A) Sharqning kattakon adabiyotini bilish uchun, afsuski, bizning yoshlarimizda intilish yo'q. B) Kecha, desangiz, yomg'ir yog'ib qoldi. C) Gapning po'sakallasini aytganda, kiyim-kechak masalasida ham yordam berishadi. D) Qishloqning orqa tomonida, es-es bilaman, katta uzumzor bor edi.

17. Tarkibida ega ham qatnashgan undalmali gapni toping.

A) Asabga zo'r bermang, odamlar... B) Salom senga, bahor ko'rki majnuntol. C) Umidaxon, bu kishiga kabinetlarini ko'rsating. D) Vatan, sen munchalar ko'rkam!

18. Yoyiq undalmali gapni toping.

A) Behudaga, o'g'lim, egma bosh. B) Otello, Otello, sening ishqingdan, Hayratga tushishning o'zi bir sevgi. C) Salom senga, ko'k archa, Qishin-yozin yashnaysan. D) Amudaryo, seni qalbdan kuylayman...

19. Uyushiq undalmali gapni toping.

A) Baxtiyor yoshlar, to'g'ri yo'ldan adashmang, yoshlikni behuda o'tkazmang B) Menda ixtiyor yo'q, oyijon! - dedi Kumush. C) Kuyla, kuyla, respublikam, baralla! D) Xayr, yashil o'rmonlar, moviy dengizlar!

20. To'g'ri so'zi kirish so'z vazifasini bajargan qatorni aniqlang.

A) To'g'ri so'z toshni kesadi. B) To'g'ri o'zadi, egri ozadi. C) Sen misolni to'g'ri echding. D) To'g'ri, men yanglishibman.

21. Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydigan so'z qaysi gapda qo'llangan?

A) To'g'ri, o'zbek adabiyotining tarixi ming yillar bilan belgilanadi. B) Qirlar bag'rini hali ko'm-ko'k, saf-saf pistalar, do'lanalar bezab turibdi. C) Asal ta'sirida yuzda qizillik, bilakda kuch, ko'zda nur etarlicha bo'ladi. D) Ba'zi vaqtda, sug'orish paytlarida, kechalari ham tinim bo'lmas edi.

22. Undalmali gapni aniqlang.

A) Inson ezgulikni va ulug'likni orzu qilishi kerak. B) Oh, umr o'tdi-ketdi oqar suvday! C) Sharofat, aftidan, bunaqa gaplar bilan Siddiqjonning g'ashiga tegmoqchi edi. D) Hoy, quyoncha, o'zing qayoqqa ketyapsan?

23. Yig'iq undalmali gapni toping.

A) Aziz birodarlar, mehnatkash do'stlar, hammamiz ham xalqimiz boyligi bo'lgan paxtadan manfaatdormiz. B) Duradgor, amakim, kecha mukofot oldi. C) Oh, mayin allalarga boy ekansan, Farg'ona! D) Cho'lni obod qilish savob ish, albatta.

24. Sifat bilan ifodalangan undalma qaysi gapda berilgan?

A) Aziz vatan, mehning, ishqing bilan to'liq ovozim. B) Sevan ko'li, ruxsoringga g'ubor qo'nmasin... C) Dunyoni qizg'anma mendan, azizim, Sen ichgan buloqdan ichmasman aslo.
D) Beshinchi, beshinchi, uchinchiga quloq sol.

25. Undalmalar gap bo'laklari bilan qay jihatdan bog'lanmaydi?

A) ma'no B) ohang C) grammatik D) B va C

26. Undalmalar odatda qaysi shaxsga qaratilgan bo'ladi?

A) I shaxsga B) II shaxsga C) III shaxsga D) II va III shaxsga

27. Kirish gapni aniqlang.

A) O'qish, o'rganish, hormay zo'r ishtiyoq bilan ishlash, shubhasiz, g'alabalarga etkazadi. B) Men sizga aytsam, buyuklikka eng yaqini halollikdir. C) Bugun menga bir qarashib yubormaysanmi, Otabek? D) Afsus, ming bor afsuski, bu xayolgina, xolos.

28. Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, mening bilishimcha, sening elingga. Ushbu gapdagi mening bilishimcha birikmasi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) murakkab kesim B) mening – aniqlovchi; bilishimcha – kesim C) mening bilishimcha – aniqlovchi D) kirish birikma

29. Undalma uyushiq holda qo'llangan gapni toping.

A) Oyi, oyi, menga-chi, tutib bersin ninachi. B) So'yla, so'yla, ko'zgujon, Haqiqatni et bayon. C) Gunafshaxon, gunafsha, Kulishlaring chiroyli. D) Xayr, yashil o'rmonzor, moviy dengizlar.

30. So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga munosabatini bildirgan so'z qaysi gapda berilgan?

A) Ey farzand, fe'l-atvoring kishilarni ranjitmasin. B) O'qishdan keyin sof havoda dam olamiz, albatta. C) Oy tangalari suv betida milt-milt oqadi. D) Bu joylar shuqadar chiroyli, shuqadar go'zal!

31. Gumon ma'nosini bildiradigan kirish so'z qaysi qatorda?

A) Xullas, o'zbek paxtakori mo'l hosil etishtirish uchun hamma kuch, vositalarga ega bo'lishi kerak. B) Darvoqe, bu gap agronomning uyida ham aytilgan edi. C) Yaxshi ishlasam, albatta, chakki bo'lmaydi. D) Dadam, ehtimol, Qo'qonga ketgandır.

32. Kirish birikmani toping.

A) Olimning ta'kidlashicha, izchil mehnat hamma to'siqlarni engadi. B) Menimcha, badiiy asar o'qish yaxshi hordiq chiqarishdir. C) Nihoyat, Sultonmurod Hirot voqealari haqida gapirishni so'radi. D) Haqiqatan, Kimsan bugun unumli mehnat qilgan edi.

33. 1. Jahonga yuz tutgan O'zbekistonim, sening har bir yutug'ing mening yutug'imdir. 2. O'g'lim, Yodgor! Aftidan sen bu gaplarni eshitmagansan. 3. O'-o', do'stim. Buning hammasi xom xayol. 4. Sobir! Eski oshnalaringni topib keldim. Ushbu gaplarning qaysi biri tarkibida yoyiq undalma mavjud?

A) 1, 2, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 2, 3

34. Yoyiq undalmani aniqlang.

A) Asabga zo'r bermang, odamlar. B) Salom senga, polosonlik Haydar kapitan! C) Seni, archa, bugun barcha, Mehr bilan bezatar. D) Oyi, oyi menga-chi, tutib bersin, ninachi!

35. Nasriddinovning xonadonida beminnat xizmat qiladi, bog'-chorbog'idan, chorvasidan xabar oladi. (Nasriddinovning «xobbisi» bir juft qo'y, o'n-o'n besh tovuq boqish edi.)

Gapdagi qavsga olingan jumla nimani bildiradi?

A) ajratilgan izoh bo'laklarni B) kirish birikmani
C) kirish gapni D) uyushiq bo'laklarni

36. Xanda ur, jo'sh ur, yurak, ozod zamindur bu zamin, Nazm tuz, Erkin, axir, erkin zamondur bu zamon. Mazkur gapda undalma kimga qaratilgan?

A) tinglovchiga B) so'zlovchiga
C) uchinchi shaxsga D) jonsiz narsalarga

37. Kechir meni, nozli malagim, Seni maqtay olmasim tayin.

QO'SHMA GAP

1-§. Qo'shma gap turlari haqida ma'lumot

Qo'shma gaplar, qismlarining o'zaro birikish usuli va semantik munosabatiga ko'ra, uch xil bo'ladi: 1) bog'langan qo'shma gap; 2) ergashgan qo'shma gap; 3) bog'lovchisiz qo'shma gap.

Qiyoslang: *Iste'dod hamisha har xil bo'ladi, iste'dodsizlar esa hamma joyda bir xildir. (E.Vohidov) SHuni aytmogchimizki, odam hamma vaqt bilimga tashna bo'lishi shart. (F.Jyulio Kyuri).*

Keltirilgan misollarning birinchisi bog'langan qo'shma gap bo'lib, uning qismlari esa yordamchisi vositasida o'zaro teng bog'langan; ikkinchisi ergashgan qo'shma gap bo'lib, uning qismlari -ki aniqlov bog'lovchisi orqali ikkinchi qismni birinchi qismga tobelik yo'li bilan bog'lagan; uchinchi gap bog'lovchisiz qo'shma gap bo'lib, uning qismlari o'zaro hech qanday bog'lovchi vositasiz - faqat ohang (ohang) orqali birikkan.

2-§. Bog'langan qo'shma gap

Qismlarining o'zaro teng aloqaga kirishuvidan tuziladigan gap bog'langan qo'shma gap deyiladi. Bog'langan qo'shma gap qismlari o'zaro biriktiruv bog'lovchilari (va, hamda, ham), zidlov bog'lovchilari (ammo, lekin, biroq, balki), ayiruv bog'lovchilari (yo, yoki, yohud, dam... dam, goh... goh, ba'zan... ba'zan, hali... hali, bir... bir), teng bog'lovchi vazifasidagi -da, -u (-yu), na... na yuklamalari, shuningdek, bo'lsa, esa yordamchilari vositasida bog'lanadi.

SHunga ko'ra bog'langan qo'shma gaplarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
2. Zidlov bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
3. Ayiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
4. Teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
5. Bo'lsa, esa yordamchi so'zlari vositasida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

Biriktiruv bog'lovchilari (va, hamda; ba'zan shu vazifadagi ham yuklamasi) yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlardan bir paytda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar anglashilib turadi. Masalan: haqiqat va to'g' rilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi va uning vijdoniga hech Kim hokim bo'la olmaydi. (Oz-oz o'rganib dono bo'lur.) Keng bog' dagi har bir nihol qonib-qonib suv ichdi va uning yaproqlari nurga intilib o'sa boshladi. (O'.Hoshimov.)

Zidlov bog'lovchilari (lekin, ammo, biroq, balki) yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap qismlari mazmunan bir-biriga zid bo'ladi. Masalan: *Har qanday narsada isrof garchilik bor, ammo yaxshilikda isrof bo'lmaydi. («Ajoyib nasihatlar»)* Burni, qoshi, yana allaqaeri otasiga o'xshardi, lekin Akbarov ham bir

vaqtlar o'g'riday ajinsiz, quyuuq qora sochli bo'lganini tasavvur etish qiyin edi. (P.Qodirov).

Ayiruv bog'lovchilari (yo, yoki, yohud, goh..., goh, dam..., dam, ba'zan..., ba'zan...) yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gapda birini tanlash lozim bo'lgan yoki galma-gal ro'y beradigan voqea-hodisalar ifodalanadigan qismlar birikadi.

a) yo (yo..., yo), yo..., yo bo'lmasa; yoki (yoki..., yoki); yo..., yoki; xoh..., xoh bog'lovchilari birini tanlash lozim bo'lgan voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni birlashtiradi. Masalan: *YO ko'k unga o'z sirlarini ochishni tilamas, yo uning aql ko'zgusi xiralashib qolgan.* (O.YOqubov.)

b) goh..., goh; dam..., dam; ba'zan..., ba'zan bog'lovchilari galma-gal ro'y beradigan voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni bog'laydi. Masalan, *Ba'zan oy zarin kokillarini er yuziga yoyib yuboradi, ba'zan bulut oy yuzini qoplab oladi.* (Oybek.)

Teng bog'lovchilar vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gaplar qismlaridan bir paytda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar yohud mazmunan zid bo'lgan voqea-hodisalar anglashilib turadi.

Bunda -u, (-yu), -da, na..., na yuklamalari biriktiruv bog'lovchilarining vazifasini, -u (-yu) yuklamasi zidlov bog'lovchilari vazifasini bajaradi. Masalan: *Oyko'l ilgari alohida xo'jalik edi-yu, kattagina idorasi bor edi.* (P.Qodirov.) *Ikki tomondagi kitoblarga to'lib turadigan qubbali javonlarda na bir kitob bor, na bir qo'lyozma bor.* (O.YOqubov.)

Bo'lsa, esa so'zlari vositasida tuzilgan bog'langan qo'shma gap qismlaridan bir vaqtda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea-hodisalar qiyoslanishi anglashiladi. Masalan: *Oliy himmatli kishi, mard odam bir lahzada do'st orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnaligini bir lahzada barbod qiladi.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».)

3-§. Bog'langan qo'shma gapda tinish belgilarining ishlatilishi

1. Bog'langan qo'shma gap qismlari o'zaro biriktiruv bog'lovchilari yordamida biriksa, shuningdek yakka qo'llanuvchi yo, yoki, yohud ayiruv bog'lovchilari yordamida biriksa ular orasiga vergul qo'yilmaydi. Masalan: *SHamol tag'in shu tomonga burildi va ingichka, qo'ng'iroqday ovoz jaranglab eshitildi.* (O'.Hoshimov.)

2. Bog'langan qo'shma gap qismlari zidlov bog'lovchilari yordamida biriksa, bunday bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: *Qorong'ida buloq suvining o'zi ko'rinmas edi, ammo shildirashi aniq eshitar edi.* (P.Qodirov.)

3. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlar bo'lsa, esa so'zlari vositasida biriksa ham, ular orasiga vergul qo'yiladi. Masalan: *Harakatchan kishilar odatda omadli bo'ladilar; aksincha qiladigan ishlarini hadeb o'ylayveradigan va sustkashlik qiladiganlarga esa omad kamdan-kam nasib etadi.* (Gerodot.)

4. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi qismlar takrorlanuvchi ayiruv bog'lovchilari yoki inkor yuklamasi yordamida biriksa, takrorlanib kelgan yordamchidan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: *Goh supa chetiga ekilgan rayhon*

hidi dimog'iga urilardi, goh tom orqasidagi yo'ng'ichqazorda hasharotlarning bir qiyomda chirillashi e'tiborini tortardi... (P.Qodirov.)

4-§. Ergashgan qo'shma gap

1. Ergashgan qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot

Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi qismlarning biri ikkinchisiga mazmunan, grammatik va ohang jihatdan tobe bo'lib, uni aniqlash, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradi. SHuning uchun ham qismlardan biri hokim, ikkinchisi tobe sanaladi. Bunda ergashgan qo'shma gap tarkibidagi hokim qism bosh gap, tobelanib kelgan qism esa ergash gap deb yuritiladi. Ergash gap bosh gapni yoki uning biror bo'lagini izohlash, aniqlash to'ldirish uchun xizmat qiladi. Masalan: «Gar kishi olmasa hayotdan ta'lim, Unga o'rgatolmas hech bir muallim.» (Ro'dakiy.) gapida «Unga o'rgatolmas hech bir muallim» - bosh gap, «Gar kishi olmasa hayotdan ta'lim» - ergash gap. Ergash gap bosh gapni shart munosabatiga ko'ra izohlagan.

Ergashgan qo'shma gapda bosh gapning kesimi qo'shimcha to'liq shakllangan bo'ladi, lekin ergash gapning kesimi ko'p hollarda to'liq shakllanmaydi, shu tufayli ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar, asosan, ergash gapning kesimi tarkibida keladi yoki undan so'ng qo'shiladi. Masalan, O'z darajangga munosib o'ringa bilib o'tirsang, bu o'rindan seni hech kim qo'zg'atolmaydi. (Oz-oz o'rganib dono bo'lur.) gapida ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita (-sa) ergash gapning kesimi tarkibida kelgan.

2. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar

Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar orqali birikadi:

1.Ergashtiruvchi bog'lovchilar (shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, chunki, negaki, toki, go'yo, -ki) yordamida: shunday odamlar bo'ladiki, ularni mansab ham, daraja ham, shon-shuhrat ham o'zgartirmaydi. (H.G'ulom.) Nafas olmay quloq tutgan kishi muttasil shovullagan tovush eshitadi, go'yo olisda shivalab yomg'ir yog'ayotgandek. (S.Ahmad.)

2.Ko'makchilar (fe'l formalaridan so'ng kelgan ko'makchilar) yordamida: Toshtemir shaharga ketgandan keyin, Sodiq ota qiziga hech narsa demadi. (H.G'ulom.) Eshik ortiqcha tor bo'lgani uchun, ot siqilibgina o'tdi... (A.Qodiriy.)

3.YUklamalar yordamida: Osmonda bulutlar paydo bo'lganidanmi, dengiz motam tutayotgan ayolga o'xshardi. (O'.Umarbekov.)

4.Nisbiy so'zlar yordamida: Odamlar uchun xotirada saqlash qanchalik zarur bo'lsa, ba'zan unutish ham shunchalik zarur. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».)

5.Sifatdosh shakli hamda kelishik affiksi yordamida: Ota-onalarimiz qarib qolganda, ularga mehr-muhabbat tuyg'ularimizni baxsh etmog'imiz lozim. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».)

6.Fe'ning ravishdosh shakli yordamida: Nasiba chiqib ketgach, Buvsora ona sekin kosaga nazar tashladi. (San'at Mahmudova) Qalin qorlar erib, o'tlar ko'karib qoldi. (CH.Aytmatov.)

7.Fe'ning shart mayli formasi yordamida: Diqqat bilan quloq solsangiz, uning bulbulga taqlid qilayotganini sezasiz. (H.G'ulom.) Oilada hamjihatlik bo'lmasa, uni baxt tashlab ketar. (Maqol.)

8.Fe'ning buyruq-istak mayli formasi yordamida: Ona ishdan qanday o'y, qanday tashvish bilan qaytmasin, shu ko'zlarni ko'riboq, ko'ngli yozilardi. (A.Muhtor.)

9.-day (-dek) o'xshatish ma'nosini bildiruvchi qo'shimcha yordamida: To'yning bo'ldi-bo'ldisi qiziq tuyulganday, yangi ishning boshlanish arafasi qiziq bo'ladi.

Ergash gap bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Masalan: Da'vogar sust kelsa, qozi muttaha... (H.G'ulom.) Qo'rqqoq do'st dushmandan xavflidir, chunki dushmandan ehtiyot bo'lasan, ammo do'stga ishonasan. (L.N.Tolstoy.)

Ayrim hollarda ergash gap bosh gap ichida ham kelishi mumkin. Masalan: O'zi..., bo'g' oz sovliqlar qiynalmasin deya, ularni o'z yurishiga qarab bamaylixotir haydab ketdi. (CH.Aytmatov.) Uning sovuq nafasi, eshik ochilarkan, o'rmonlarning shovqini bilan oqib kirib, yigitni biroz xushyorlantirardi. (Oybek.)

3. Ergash gapning turlari

Ma'lumki, ergash gap bosh gapni yoki uning biror bo'lagini izohlash, aniqlash, to'ldirish uchun xizmat qiladi. SHunga ko'ra ergash gap ikki katta guruhga bo'linadi: 1) bosh gapning biror qismi (bo'lagi)ni izohlovchi ergash gaplar; 2) butun bir bosh gapni izohlovchi ergash gaplar. Masalan: Dunyoda shunday odamlar bo'ladiki, ularning hayoti, qilgan ishlari, bosib o'tgan yo'llari biz uchun... yuksak namuna bo'lib xizmat qiladi. (O.YOqubov.) Kechasi shudring tushmagan bo'lsa ham, daraxt yaproqlari nam va muzdek edi. (O.YOqubov.)

Birinchi gap tarkibidagi ergash gap (ularning hayoti, qilgan ishlari, bosib o'tgan yo'llari biz uchun... yuksak namuna bo'lib xizmat qiladi) bosh gapdagi aniqlovchi (shunday) ni izohlagan bo'lsa, ikkinchi gap tarkibidagi (kechasi shudring tushmagan bo'lsa ham) ergash gapni bosh gapni to'siqsizlik munosabati orqali butun holda izohlagan.

Bosh gapning biror bo'lagini izohlaydigan ergash gaplarga ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi ergash gaplar; bosh gapni butun holda izohlovchi ergash gaplarga payt, o'rin, sabab, maqsad, shart, to'siqsiz, ravish, miqdor-daraja, o'xshatish, natija ergash gaplar kiradi.

Ega ergash gap bosh gapning olmosh bilan ifodalangan ega bo'lagini izohlab, kim? nima? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Ega ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1.Ergash gapning kesimi shart mayli shaklida bo'ladi. Bunda bosh gapning egasi u, o'sha, o'zi kabi olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: Kimki birovning payini qirqsa, o'ziniki ham qirqiladi. («Ajoyib nasihatlar».) Kimki o'tmishni yaxshi bilsa, u hozirgi zamon qadriga etadi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur».)

2.Ergash gapning kesimi aniqlik maylida bo'ladi. Masalan: Kim o'zini hurmat qilar ekan, u boshqalarni ham hurmat qiladi.

3.Ega ergash gap bosh gapdan keyin kelib, bosh gapga -ki aniqlov bog'lovchisi orqali birikadi: SHu narsa ravshanki, o'tmishni bilmasdan turib, hozirgi zamon qadriga etib bo'lmaydi.

Ba'zan ega ergash gap bosh gapdagi shakllanmagan egani izohlashi mumkin. Masalan: Bizga ayonki, xalq o'z taqdirini o'zi yaratadi.

Kesim ergash gap bosh gapning olmosh bilan ifodalangan kesimini izohlaydi. Bunda bosh gapning kesimi vazifasida shu, shunday, shu bo'ldi, shundan iborat so'zlari kelib, ergash gap shu so'zlarni izohlagani holda, bosh gapga -ki bog'lovchisi yordamida birikadi. Masalan: Farqi faqat shuki, men madaniy navlarni chatishtirardim... hatto geografik uzoq navlarning ham madaniysini tanlab chatishtirganman... (O'.Usmonov.) Eng yomoni shundaki, u... odamlarni yil sayin o'tkirroq dorilarni ishlatishga majbur qilyapti... (O'.Usmonov.) Do'stlikning qudrati shundan iboratki, bu qudratli kuch har qanday to'siqni engadi.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchini (yoki bosh gapda qo'llanmagan to'ldiruvchini izohlaydi va bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gapning kesimi shart maylida bo'ladi. Masalan: Kimda gumon bo'lsa, uni ko'zdan qochirma gapi tarkibidagi ergash gap (kimda gumon bo'lsa) bosh gapdagi uni to'ldiruvchisini izohlagan.

2. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga –ki bog'lovchisi orqali birikadi. Masalan: Men hech bir vaqt inkor qilmaymankim, yolg'iz o'z g'arazi yo'lida ish qiluvchi pand kishilar... bizda ham yo'q emas. (A.Qodiriy.) gapi tarkibidagi «yolg'iz o'z g'arazi yo'lida ish qiluvchi pand kishilar bizda ham yo'q emas» ergash gapi bosh gapda qo'llanmagan shuni to'ldiruvchisini izohlab, unga –ki bog'lovchisi yordamida birikkan.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi aniqlovchi vazifasida qo'llangan (yoki qo'llanmagan) so'zning ma'nosini izohlaydi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gap tarkibida kim, kimki, kimning kabi olmoshlar qatnashib, kesim sharti mayli shaklida bo'ladi. Masalan: Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi.

2. Ergash gap bosh gapga –ki bog'lovchisi yordamida birikadi. Bunda bosh gap tarkibida shunday, shunaqa so'zlari keladi, ergash gap tarkibida esa bunday, bunaqa so'zlari qatnashadi. Masalan: SHunday odamlar bo'ladiki, ularni mansab ham, daraja ham, shon-shuhrat ham o'zgartirmaydi. (H.G'ulom.) Qalb shunday ummonki, uning bag' rida dahshatli dolg'alar silsilasi bor. (E.Vohidov.)

Ayrim hollarda olmosh bilan ifodalangan aniqlovchi bosh gapda tushirilgan bo'ladi. Masalan: SHoirlar bo'ladiki, ularni bir kishi yolg'iz o'zi kechasi o'qiydi. (E.Vohidov.)

Payt ergash gap bosh gap voqea-hodisaning yuzaga kelish vaqtini, paytini bildiradi. Payt ergash gap bosh gap tomonidan beriladigan qachon? qachondan beri? qachongacha? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Payt ergash gap va bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelishi quyidagicha:

I. Bosh va ergash gaplardan anglashilgan voqea-hodisa bir paytda sodir bo'ladi. Bunda ergashgan qo'shma gap qismlari o'zaro quyidagicha birikadi:

1. Ergash gapning kesimi sifatdosh shaklida bo'lib, uo'rin-payt kelishigida qo'llanadi. Masalan: U hovliga chiqqanda, Qumri bilan dugonasi supa yonida suhbatlashib turishardi. (H.G'ulom.) Kabinasi band mashinalar o'tganda, xudi yosh bolalardek quvonib ketardim. (CH.Aytmatov.)

2. Ergash gapning kesimi sifatdosh shaklida bo'lib, unga o'rin-payt kelishigidagi «payt», «vaqt», «chog' », «zamon» so'zlari birikib keladi. Masalan: Ular ko'chaga chiqqan vaqtda, palos, ko'rpachalar yozilgan edi. (H.G'ulom.) U idoraga kirib kelgan paytda qabulxona o'nga yaqin qari-qartang va Xotin-xalaj navbat kutib turardi. (N.Aminov.)

3. Ergash gapning kesimi «-(a)r ekan» shaklida bo'ladi. Masalan: Raja baka hammangizni elektrostantsiyaning ortiga boshlab o'tar ekan, Zulayho pastga tushdi. (P.Qodirov.) Men kelishdan maqsadimni asta-sekin tushuntirar ekanman, borgan sayin Boytemirning jahli chiqdi. (CH.Aytmatov.) U kasalxonaning terakzor xiyoboniga kirib borar ekan, qaerdadir jajji bir qushcha chirqilladi. (O'.Hoshimov.)

II. Bosh gapdagi harakat, holat ergash gapdagi harakat, holatdan oldin yuzaga keladi. Bunda ergash gap bosh gapga quyidagicha bog‘lanadi:

1. Ergash gapning kesimi –guncha affiksi bilan yasaluvchi ravishdosh bilan ifodalanib, mazkur shakl ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita hisoblanadi. Masalan: Keyingi avtobus kelguncha, yigit... yangi «tog‘ asal»larini olib quti ustiga terib qo‘rdi. (J.Abdullaxonov.)

2. Ergash gapning kesimi ravishdoshning bo‘lishsiz shakli (-may, -masdan affikslari yasaluvchi shakli) bilan ifodalanadi. Masalan: Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, idoraga chollar kirishdi. (A.Qahhor.)

III. Bosh gapdagi voqea-hodisa ergash gapdagi voqea-hodisadan so‘ng ro‘y berardi. Bunda ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gapning kesimi –gach affiksi bilan yasaluvchi ravishdosh bilan ifodalanadi. Masalan: Oradan ikki yil o‘tgach, Mulla Fazliddin Andijon arkidagi to‘rxonaning ba‘zi naqshlarini yangilash uchun chaqirildi. (P.Qodirov.) Marosim tugagach, u oyisiga vagonda qaytajaklarini eslatgan edi. (M.Kozimiy.) Mehmonlar jo‘nab ketgach, u ... Solihovni o‘z huzuriga taklif etdi. (N.Aminov.)

2. Ergash gapning kesimi chiqish kelishigidagi sifatdosh bilan ifodalanib, unga «keyin», «so‘ng» ko‘makchilari qo‘shiladi. Masalan: Oradan uch-to‘rt hafta o‘tgandan so‘ng, qo‘liga ... yigirma-o‘ttiz chaqa pul ham bergan edim. (A.Qodiriy.) Sud kengashga kirib ketgandan keyin, zal guvillab ketdi. (CH.Aytmatov.)

3. Ergash gapning kesimi «-gan edi» shaklida keladi. Masalan: Temirjon ... endigina yuvinishga tutingan edi hamki, shiypon yonidan yuz-qo‘lini yuvib, belbog‘iga artganicha kelayotgan Usmonali ota ko‘rindi. (J.Abdullaxonov.)

IV. Bosh gap va ergash gaplardagi voqea-hodisa ketma-ket yuzaga keladi. Bunda ergash gap kesimi «-gandan beri», «-gan sayin», «-gan sari» kabi shakllarda keladi. Masalan: ... cho‘l gullab-yashnagan sari, yilqilar pastlikka tusha boshlaydi. (CH.Aytmatov.)

O‘rin ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan ish-harakatning bajarilish o‘rnini bildiradi.

Bunda ergash gapning kesimi shart mayli shaklida bo‘lib, ergash gap tarkibida qaerga, qaerda, qaerdan kabi nisbiy so‘zlar qatnashib, ular bosh gapdagi shu erga, shu erda, o‘sha erdan, o‘sha erda, o‘sha joyda kabi so‘zlarga mos keladi. Masalan: Qaerdagi erkaklar bilan ayollar bir-birlarini astoydil qadrlasa, o‘sha joyda ikki tomonning ham qadr-qimmatini ko‘tarilib ketyapti. (P.Qodirov.)

Sabab ergash gap bosh gapdan anglashilgan voqea-hodisaning yuzaga kelish sababini bildiradi. Sabab ergash gap bosh gap orqali beriladigan nima uchun? nega? nima sababdan? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Sabab ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gap bosh gapga chunki, negaki sabab bog‘lovchilari yordamida bog‘lanadi. Masalan: Samimiy aytilgan so‘z sodda bo‘ladi, chunki dilning hukmronligi tildan ustun bo‘ladi. (G‘.G‘ulom.) Tun nihoyatda qorong‘i, chunki yangi tug‘ilgan oy allaqachon botgan edi. (P.Qodirov.) Haqiqiy olim o‘zining ilmi bilan maqtanmaydi, negaki u o‘zidan ham zo‘r va fozil olim borligini biladi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur».)

2. Ergash gap bosh gapga shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, shu bois soʻzlari vositasida birikadi. Masalan: Boshqalar yonida birovga ayblarini aytib nasihat qilish – uni odamlar oldida uyaltirishdir, shuning uchun holi joyda nasihat qilish kerak. («Oz-oz oʻrganib dono boʻlur»). Kishining isteʼdodi barcha sohada bir xil boʻlavermaydi, shuning uchun yoshlar oʻzi sevgan, qobiliyatiga mos boʻlgan ishni tanlay bilishi kerak. (YO.SHukurov).

3. Ergash gap bosh gapga –mi yuklamasi orqali birikadi. Masalan: Oʻzi qattiqchilik bilan oʻsgan emasmi, darrov roʻzgʻ orga kirishib keta qoldi. (Oʻ.Hoshimov). Temirjonni sharjlar, kulgili surat solingan sahifalar koʻproq qiziqtirib qoʻydimi, uzoq-uzoq tikilib qolar, kulardi. (J.Abdullaxonov).

4. Ergash gap bosh gapga shekilli modal soʻzi vositasida bogʻlanadi. Masalan: Temirjonning qadalib tikilishi uning ham diqqatini tortdi shekilli, bir qarab qoʻydi. (J.Abdullaxonov).

5. Ergash gapning kesimi shart maylidagi feʼl va «kerak» modal soʻzi bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: Oy toʻlishgan boʻlsa kerak, toshlar qirov rangida elas-elas koʻrinib turar edi. (S.Ahmad). Baʼzan ergash gapning shunday shaklidagi kesimiga –ki yuklamasi ham qoʻshilishi mumkin. Masalan: Stol atrofida har kimning tayin joyi boʻlsa kerakki, Qunduz chaqqon borib qarshidan joy oldi. (J.Abdullaxonov).

6. Ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+uchun (yoki sababli, tufayli)» shaklida boʻladi. Masalan: Dori yangi sepilgani uchun, dalada hech Kim koʻrinmaydi. (Oʻ.Usmonov). Togʻ qishloqlari notinch boʻlgani uchun, Toshtemir shu tomonlarga tez-tez keladigan boʻlib qoldi. (H.Gʻulom).

7. Sabab ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+-dan» shaklida boʻladi. Masalan: Bu taraflarda mashinalar koʻp qatnamaganidan, chang-toʻzon boʻlmas edi. (S.Ahmad). Bu erda tez-tez yomgʻir quyib turganidan, daraxtlarning shundogʻam begʻubor barglari yuvilib xandon pista magʻzidek och yashil tusda koʻrinar edi. (S.Ahmad).

Maqsad ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan ish-harakatning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradi. Maqsad ergash gap bosh gapning kesimi orqali beriladigan nima maqsadda? qay maqsad bilan? nega? soʻroqlariga javob boʻladi. Maqsad ergash gapning kesimi koʻpincha buyruq-istak maylidagi feʼllar ifodalanadi va maqsad ergash gapning bosh gapga birikishi quyidagicha:

1. Ergash gap bosh gapga deb, deya yordamchilari orqali bogʻlanadi. Masalan: Hamma bahramand boʻlsin deb, yaxshi ishlash kerak. (Oybek).

2. Ergash gap bosh gapga uchun vositasida birikadi. Masalan: Togʻasi uni odobsiz demasin uchun, Hulkar choynakni koʻtarib uyga Avazdan keyin kirdi. (P.Qodirov).

3. Maqsad ergash bosh gapga toki maqsad bogʻlovchisi yordamida birikadi. Masalan: Bolalarni kitobga oʻrgatish kerak, toki ular ishchi kuchi boʻlib emas, ongli, katta jamiyatning bilagʻ on aʼzolari boʻlib etishsinlar. (S.Ahmad).

Ravish ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakat, holatning qay tarzda, qay holda yuzaga kelishini bildiradi. Ravish ergash gap bosh gapning kesimi orqali beriladigan qanday? qay tarzda? qay holda? qanday qilib? kabi soʻroqlarga javob boʻladi.

Ravish ergash gapning kesimi, asosan, fe'ning –(i)b affiksi bilan yasaluvchi o'tgan zamon ravishdoshi orqali shakllangan bo'lib, shu fe'l shakli ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita ham hisoblanadi. Masalan: Uy suv yuvib qiyalashgan silliq qirg' oqdan besh-olti qadamgina narida bo'lib, undan ilon izidek yolg'izoyoq yo'l daryoga cho'zilib tushgan edi. (O'.Usmonov). Birdan qo'llari bo'shshib, bog'layotgan bog'ichi barmoqlari orasidan chiqib ketdi. (O'.Hoshimov). Hozir ham supaning atrofii supurib-sidirilib, suv sepib qo'yilgan. (J.Abdullaev).

O'xshatish ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisani boshqa voqea-hodisaga o'xshatadigan, chog'ishtiradigan ergash turidir. O'xshatish ergash gapning kesimi ko'pincha –gan, -yotgan affikslari bilan yasaluvchi sifatdash bilan ifodalanib, bunday ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gap kesimi –day, -dek affiksini olgan sifatdash bilan ifodalanadi. Masalan: Odatda mevaning sarasini qurt eganidek, bo'xtan ham yaxshi odamlarga yopishadi. (J.Svift). Toshbaqa jayronni quvib etib g'ajib tashlashi mumkin bo'lmaganidek, Zaynabning o'z orzulariga etmog'i mumkin emasdi. (T.Malik).

2. Ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+kabi//singari» shaklida bo'ladi. Masalan: Bulutlar ortiga yashiringan quyosh yuzidagi pardani shartta olib tashlab, olamni munavvar qilgani kabi, uning ham chehrasi birdan yorishib ketdi. (J.Abdullaxonov).

3. Ergash gapning kesimi «-gan yoki –yotgan+jo'nalish kelishigi affiksi+o'xshab//o'xshash» shaklida bo'ladi. Masalan: Yo'l borgan sari uzoqlashib ketayotganga o'xshab, sira poyoni ko'rinmasdi. (S.Ahmad).

4. Ergash gap bosh gapga go'yo, xuddi yordamchilari vositasida bog'lanishi mumkin. Bunda ergash gapning kesimi tarkibida odatda –day, -dek affiksi ham qatnashadi. Masalan: Ba'zi qushlarning qanotlari yozilgan, go'yo ulab uchib tushmoqchiday edi. (Oybek).

Miqdor-daraja ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan harakat-holatning qay miqdorda, qay darajada bajarilishini bildiradi.

Miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap tarkibidagi qancha, qanchalik, nechog'lik so'zlari bosh gapdagi shuncha, shunchalik, shu darajada kabi so'zlarga mos keladi.

Miqdor-daraja ergash gapning kesimi fe'ning shart mayli bilan ifodalanib, shu fe'l shakli ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita hisoblanadi. Masalan: Odamlar uchun xotirada saqlash qanchalik zarur bo'lsa, ba'zan unutish ham shunchalik zarur. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Unga tomon qancha yursang, u sendan shuncha uzoqlashadi. (A.Qahhor).

Shart ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning qanday shart bilan yuzaga chiqishini bildiradi.

Shart ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. SHart maylidagi fe'l bilan. Masalan: Er baquvvat bo'lsa, g' o'za baquvvat o'sib, hech qanday dardga chalinmaydi. (J.Abdullaxonov). Da'vogar sust kelsa, qozi muttahaam ... (H.G'ulom).

Ba'zan shart ergash gapda agar, bordi-yu, basharti, mabodo kabi so'zlar kelib, ular gapdan anglashilgan shart mazmunini kuchliroq ifodalash uchun xizmat

qiladi. Mabodo biror odam o'zicha to'y qilsa, ayni bazm qizigan paytda chiroq o'chirib qo'yiladi. (O'.Hoshimov). Agar bir daraxt kessangiz, o'rniga yangi novdalar ko'karib chiqadi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

2. Ba'zan shart ergash gapning kesimi «-gan+da» shaklida bo'ladi va bu shakl ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi. Masalan: Agar yozuvchi ko'ksida shunday bir nur – toza iymon bo'lmaganda edi, uning shaytanat olamiga safari besamar chiqmog'i ham mumkin edi (T.Malik).

3. SHart ergash gap bosh gapga –mi, -chi yuklamasi yordamida ham birikishi mumkin. Masalan: Xatosini bo'yniga oldimi, egilgan boshni qilich kesmaydi.

To'ciqsiz ergash gap mazmunan bosh gapga zid bo'lsa ham, unda ifoda qilinayotgan fikr bosh gapda ifoda qilinayotgan fikrning bajarilishiga to'siq bo'lmaydi.

To'ciqsiz ergash gap bosh gapga quyidagicha bog'lanadi:

1. SHart mayli affiksi + ham yuklamasi orqali: Ular o'tirgan joyga sel kelmagan bo'lsa ham, Oqdaraning shag'irlashi quloqlariga chalingan edi. (P.Qodirov). Hovli sotilib ketgan bo'lsa ham, qarindoshlardan a'lo qo'shnilarim bor. (Mirmuhsin).

Ba'zan ma'noni kuchaytirish uchun bosh gap tarkibida zidlovchi bog'lovchi ham keladi: Mahfuza Rayhonga dastlab yotsirab qaragan bo'lsa ham, lekin uning mehribonliklari qizaloq ko'nglini sekin-asta yumshatdi. (H.G'ulom).

2. SHart mayli affiksi + da yuklamasi orqali: Uning so'zlari garchi o'q kabi botayotgan bo'lsa-da, Elchin uchun yangilik emasdi. (T.Malik).

3. Ergash gapning kesimi bo'lishsiz shaklida qo'llangan buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanadi: Ona ishdan qanday o'y, qanday tashvish bilan qaytmasin, shu ko'zlarni ko'riboq, ko'ngli yozilar edi. (A.Muxtor).

4. To'ciqsiz ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+bilan» shaklida bo'ladi: Yo'q, ayniqsa Jo'raqulovga o'xshagan kishilar ... sip-silliqqina ko'ringani bilan, dilida qancha siru sinoatlar borligini hamma ham bilavermaydi. (Mirmuhsin). Darvozasi ko'rimsiz bo'lgani bilan, bu hovlining o'ngi ichida ekan. (T.Po'latov). Zaynab o'zini engilroq his qilgani bilan, boshi garang edi. (T.Malik).

Natija ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning natijasini bildirib, bosh gapga –ki aniqlov bog'lovchisi orqali bog'lanadi. Bunda bosh gap tarkibida ko'pincha shu qadar, shunday, shuncha, shunchalik, chunon (ergash tarkibida esa natijada, oqibatda kabi so'zlar) qo'llanadi. Masalan: YUlduzlar shu qadar ko'p chiqqan ediki, allaqanchasi Somon yo'lining ortlarida ham milt-milt qilardi. (P.Qodirov). ... nafas olish shunday engilki, keksa odam ham bu erda bolalik paytlarini eslaydi. (P.Qodirov).

5-§. Bog'lovchisiz qo'shma gap

Qismlarining o'zaro bog'lovchi vositalarsiz birikishidan tuzilgan qo'shma gap bog'lovchisiz qo'shma gap deyiladi. Bunday qo'shma gaplarda predikativ qismlarni mazmun va qurilish jihatdan bog'lashda ohang (ohang) etakchi vazifa

bajaradi. Masalan: Tashqarida qor uchqunlanib turar, daraxtlarning shoxlari kumush rangda tovlanib, ko‘zni qamashtirardi. (J.Abdullaxonov).

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning qismlari ko‘pincha tenglik ohangsi orqali bog‘lanadi. Masalan: Oldindan salqin shabada esa boshladi, yo‘l qishloqning tutzor ko‘chasiga kirdi. (SH.Xolmirzaev). Piyozi po‘sti ko‘p, yomonning do‘sti ko‘p. (Maqol). Ba‘zan bunday qo‘shma gaplarning predikativ qismlari tobelik ohangsi bilan bog‘lanishi mumkin. Masalan: Ortiq ham o‘zicha quvonib qo‘ydi: sintetik o‘tovning narhi salkam ikki ming so‘m... (P.Qodirov).

SHuning uchun ham tenglik ohangsi orqali tuzilgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap mazmunan bog‘langan qo‘shma gapga, tobelik ohangsi orqali tuzilgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap ergashgan qo‘shma gapga mos keladi. Ammo ba‘zi bir bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasidagi ohang tenglik va tobelik holatidan o‘zgacha bo‘ladi. Masalan: So‘z doriga o‘xshaydi, ortiqchasi zarar keltiradi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

6-§. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapning turlari

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlarining qanday shakllanishiga ko‘ra, ikki xil bo‘ladi:

1. Bir tipdagi qismlardan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap. Bu xil qo‘shma gap qismlarining kesimlari bir xil shakllangan bo‘ladi: CHin muhabbat husn tanlamas, Husn uchun sevmas vafodor. (SHukrullo).

Bir tipdagi qismlardan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasidagi semantik munosabatlar quyidagicha bo‘ladi:

1. Bir paytda sodir bo‘ladigan voqea-hodisalar anglashiladi: Motor esa zo‘r berib tirillar, mashina silkinar edi. (CH.Aytmatov).

Bunday paytda butun vujudida ajoyib bir safarbarlik sezar, xotirasi, zehni, shuuri bir nuqta atrofida inoq to‘planardi. (P.Qodirov).

2. Ketma-ket ro‘y beradigan voqea-hodisalar anglashiladi: Tog‘ tepasida to‘planayotgan bulutlar tushga borib quyuqlashib ketdi, oftob g‘ oyib bo‘ldi. (P.Qodirov).

3. Voqea-hodisalar qiyoslanadi: Bahodir qo‘shinga boshchilik qiladi, donishmand yo‘l ochib beradi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). YAngi libos – oroyish, yaxshi yo‘ldosh – osoyish. (Maqol).

4. Voqea-hodisalar qiyoslanadi: Adolatparvar bo‘lish oson - e‘tiqodning uchun kurashish qiyin. (F.Musajonov).

II. Turli tipdagi qismlardan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gap. Bu xildagi qo‘shma gap qismlarining kesimlari turlicha shakllanadi. Bunda qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan voqea-hodisalar bir-biriga bog‘liq bo‘ladi. Masalan: Aqlli, farosatli, ilmu hunarli kishilar bilan do‘st bo‘l. Hunarsiz kishida xosiyat bo‘lmaydi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

Bog‘lovchisiz qo‘shma gapning bu turida tarkibidagi qismlar orasida quyidagi semantik munosabatlar yuzaga keladi:

1. Sabab munosabati anglashiladi: Havo yaxshi, dalada dehqonlar yig‘im-terim bilan ovora. (Oybek). Nomarddan yordam so‘rama, yuzingga soladi. (Maqol).

2. Payt munosabati anglashiladi: Quyosh pasayib oppoq cho‘qqilar ustiga qo‘na boshlagan, tog‘ ning qori ko‘zni olar darajada yaltiraydi. (P.Qodirov).

3. To‘siqsizlik munosabati anglashiladi: Bular bizni oyoq osti qilib tepyapti, sen uyda baqrayib o‘tiribsan. (P.Qodirov). Biz ilmdan yiroqmiz, tajriba bor, xolos. (J.Abdullaxonov).

4. Natija munosabati anglashiladi: SHuncha xo‘jalik yangi uylarga ko‘chib kirdi, Oyko‘l butunlay o‘zgarib ketdi. (P.Qodirov).

5. Izoh munosabati anglashiladi: ... bir narsa mening esimda turibdi: Oyko‘l g‘allani ko‘p olgan yillari chorvasi ham hozirgidan besh barobar ko‘p edi. (P.Qodirov). Bu gapdan Ismat bobo bir cho‘chib tushdi: u Kattaevning eng yaqin kishilaridan edi. (P.Qodirov).

6. Shart munosabati anglashiladi: *Ozroq kutib turgin, tez kelaman.* (S.Ahmad).

7-§. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi:

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlaridan bir paytda yoki ketma-ket ro‘y beradigan voqea-hodisalar anglashilsa, ular bir-biridan vergul bilan ajratiladi. Masalan: Qushbegiga qaradim, ul ham manim og‘zimga qarab turar edi. (A.Qodiriy). Siz marg‘ilonlik og‘aynilarni qipchoqlarga qarshi oyoqlantirmoqchi bo‘lasiz, buni ham yaxshi bilamiz... (A.Qodiriy).

2. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari mazmun jihatdan mustaqilroq bo‘lsa yoki ular turkibida vergul ishlatilgan bo‘lsa, qo‘shma gap tarkibidagi qismlar bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratilib yoziladi. Masalan: *Ishing bo‘lmasa kitob o‘qi, husnixat ol; sen kulolning qizi emassan...* (A.Qodiriy). *Yosh chog‘ida ... qattiqchilikda o‘sdi; uning ba‘zi yarashmagan harakatlari balki o‘sha qattiqchilikning ruhga singib qolgan yomon ta’sirdir.* (A.Qodiriy).

3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi ikkinchi gap birinchi gapning biror bo‘lagini izohlasa, uning mazmunini to‘ldirsa, qismlar orasiga ikki nuqta qo‘yiladi. Masalan: *Arslonbob yong‘ oqlariga kelganda shuni aytmoqchiman: bular nihoyatda noyob, zotli yong‘ oqlar.* (J.Abdullaxonov). *Xolbek bir narsani endi sezmoqda edi: Avaz bilan Hulkar unga negadir kerak edi.* (P.Qodirov).

4. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari bir-biridan tire orqali ajratiladi. Quyidagi holatlarda qo‘shma gap qismlari orasiga tire qo‘yiladi:

1) qo‘shma tarkibidagi gaplar mazmunan zid bo‘lsa: *Kiygan to‘ning eskiydi – kiydirganing eskimas.* (Maqol).

2) birinchi gap ikkinchi gap kesimidan anglashilgan ish-harakatning bajarilish natijasi yoki shartini bildirsa: *Qaring bor – baring bor.* (Maqol).

3) birinchi gap mazmuni ikkinchi gap mazmuniga o‘xshatilsa: *Qor yog‘ di – don yog‘ di.* (Maqol). *Vaqtning ketdi – baxting ketdi.* (Maqol).

4) qismlardan tez almashinuvchi voqea-hodisalar anglashilsa: - Hoy, oyimcha, sen yaxshi bo'lding – biz yomon bo'lib qoldikmi hali?... (P.Qodirov). SHu payt oy bulutlar orasidan suzib chiqdi – kamtigi bulutning chetiga urilib, sho'x bir silkinib qo'yganday ko'rindi. (P.Qodirov).

8-§. Murakkab qo'shma gap haqida ma'lumot

Qo'shma gaplar komponentlarning soniga ko'ra, ikki xil bo'ladi: 1) ikki komponentli qo'shma gaplar (bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gaplar bahsiga qarang), 2) ko'p komponentli (murakkab) qo'shma gaplar.

Ko'p komponentli (murakkab) qo'shma gaplar uch va undan ortiq komponentlarning mazmun va grammatik jihatdan birikishidan hosil bo'ladi.

Murakkab qo'shma gap tarkibidagi qismlar (komponentlar) o'zaro turlicha munosabatda bo'ladi. SHunga ko'ra, murakkab qo'shma gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bog'langan qo'shma gap toifasidagi (bog'lanish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gap.

2. Ergashgan qo'shma gap toifasidagi (ergashish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gap.

3. Bog'lovchisiz qo'shma gap toifasidagi (bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan) murakkab qo'shma gap.


4. Aralash tipdagi tuzilgan murakkab qo'shma gap.

1. Bog'langan qo'shma gap toifasidagi (bog'lanish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar

Bog'langan qo'shma gap toifasidagi (bog'lanish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gap komponentlari (qismlari) o'zaro teng bog'lovchilar yoki teng bog'lovchilar vazifasidagi yuklamalar orqali sintaktik aloqaga kirishadi.

Bunday murakkab qo'shma gap, tarkibidagi komponentlarning bog'lanish usullariga ko'ra, shuningdek, ularning semantik munosabatlariga ko'ra, bog'langan qo'shma gapdan farq qilmaydi, lekin bunda komponentlar soni uch va undan ortiq bo'ladi. Masalan: Bugundan boshlab yotoq joylarda... yigitlardan bitta navbatchi qoldirildi-yu, boshqa hamma paxtaga chiqdi va terimchilar soni to'rt kishiga ortdi. (P.Qodirov).

Keltirilgan misol 3 ta komponent murakkab qo'shma gap tarkibida qatnashib, birinchisi ikkinchisiga teng bog'lovchi vazifasidagi –yu yuklamasi bilan, ikkinchisi uchinchisiga va bog'lovchisi bilan bog'langan. Bog'langan qo'shma gap toifasidagi murakkab qo'shma gapni quyidagi chizgi bilan ko'rsatish:




2. Ergashgan qo'shma gap toifasidagi (ergashish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar

Ergashgan qo'shma gap toifasidagi (ergashish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gapda ergash gap bir necha bo'lib, ular bitta bosh gapga tobelanadi. Qo'shma gapning bu turi bir necha ergash gapli qo'shma gap deb ham yuritiladi.

Bunday qo'shma gapda ergash gaplarning bosh gapga bog'lanishi ikki xil bo'ladi:

1. Birgalik ergashishda qo'shma gap tarkibidagi bir necha ergash gaplar biri ikkinchisi bilan grammatik aloqaga kirishmay, to'g' ridan-to'g' ri bosh gapga bog'lanadi. Masalan: *Ot to'xtaganida, u kuch yig'ib olsin deb, Tanaboy kutib turar ... edi.* (CH.Aytmatov).

Bu qo'shma gapning sxemasi (chizgisi) quyidagicha:



Birgalik ergashuvli murakkab qo'shma gap ikki xil bo'ladi:

1) bir tipdagi birgalik ergashishda ergash gaplar bir xil turga mansub bo'ladi va ularning har biri bosh gapning ma'lum bo'lagini yoki bosh gapni butunicha bir xilda izohlaydi, aniqlaydi, to'ldiradi. Ular bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Bunday ergash gaplar uyushgan ergash gaplar deb yuritiladi. Murakkab qo'shma gap tarkibida ergash gapning har bir turi uyushib kelishi mumkin. Ularning ayrimlariga misollar:


a) ega ergash gaplarning uyushib kelishi: Yo'lchiga shunisi qiziq tuyuldi, bu erda ... hamma daraxtlar bir chiziq ustida tekis saf tortib turadi, daraxtlar o'rtasidagi masofa ham baravar. (Oybek);

b) aniqlovchi ergash gaplarning uyushishi: SHunday hayot tug'ildiki, u sensiz yashay olmaydi, sen uning qudratli kuchisan. (A.Muxtor);

v) sabab ergash gaplarning uyushib kelishi: Kun bo'yi piyoda yurib charchadimmi, karnaydan hadeb yangrayotgan muzika elitdimi, uxlab qolibman. (O'.Hoshimov);

g) ravish ergash gaplarning uyushib kelishi: Adirlarni qoplab yotgan qor tezda erib, kunlar isib, o't-o'lanlar ko'kara boshladi. (CH.Aytmatov).

Bir tipdagi birgalik ergashishni chizgida quyidagicha tasvirlash mumkin:




2) turli tipdagi birgalik ergashishda ergash gaplar har xil bo‘ladi va ularning har biri bosh gapdagi biror bo‘lakni yoki bosh gapni butunicha turli tomondan izohlaydi, aniqlaydi, to‘ldiradi.

Ularning so‘roqlari ham har xil bo‘ladi. Bunday ergash gaplar uyushmagan ergash gaplar deb yuritiladi: Qor tingach, tashqarida juda sovuq bo‘lsa ham, ular tekshirishni davom ettirdilar. (CH.Aytmatov).


Bu qo‘shma gapda payt ergash gap va to‘siqsiz ergash gap bosh gapni turli tomondan izohlab kelgan.

Turli tipdagi birgalik ergashishni chizgida quyidagicha tasvirlash mumkin:



2. Ketma-ket ergashishda ergash gaplar bosh gapga to‘g‘ ridan-to‘g‘ ri tobelanmay, biri ikkinchisiga bo‘ysunib, so‘ng bosh gapga bog‘lanadi. Bu xil qo‘shma gaplarda ergash gaplar mazmunan zich bog‘langan bo‘ladi va ergash gaplardan biri tushirilsa, umumiy mazmun anglashilmay qoladi. Masalan: YUk oz bo‘lsa ham, olis va o‘nqir-cho‘nqir yo‘llarda motor tez qizib, radiator erib ketishi hech gap emas. (CH.Aytmatov).

Ketma-ket ergashishni chizgida quyidagicha ko‘rsatish mumkin:




3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap toifasidagi (bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan) murakkab qo‘shma gaplar

Murakkab qo‘shma gapning bu turida uch va undan ortiq gaplar bog‘lovchi vositalarsiz, ohang (ohang) orqali bog‘lanadi, bu jihatdan u oddiy bog‘lovchisiz qo‘shma gapdan farqlanmaydi, lekin bunda gaplar orasidagi semantik munosabatlar murakkabroq bo‘ladi:

1) gaplar o‘zaro teng munosabatda bo‘ladi: *Shamol hamon qarshidan esar, yashin «lip-lip» qilar, momaqaldiraq daraning yuqorisida gumburlar edi. (P.Qodirov). Suv tiniq, yaproqlar qirmizi rang tortgan, havo musaffo edi. (F.Musajonov). Lahzada do‘kon chollar, yigitlarga to‘ldi, barcha shod, g‘ ovur-g‘uvur, suhbat boshlanib ketdi. (Oybek).*


Mazkur gapning chizgisi quyidagicha:



2) **teng munosabatdagi ikki va undan ortiq gaplar ular uchun umumiy gapdan anglashilgan fikrni izohlab keladi:** *Tushdan keyin hamma jonlanib qoldi: birov hazil qilgan, birov shang‘illab qandaydir voqeani so‘zlagan, eng dangasa ishyoqmaslar ham allanechuk serg‘ayrat, chaqqon bo‘lib qolgan.* (F.Musajonov).

Ikki kvartal naridagi keng xiyobon juda o‘tirishli joy: o‘rtasi gulzor, uning kichkina favvorasi ham bor. (F.Musajonov).

Keltirilgan gaplarning chizgisi quyidagicha:



5. Aralash tipda tuzilgan murakkab qo‘shma gap

Aralash murakkab qo‘shma gap bir necha ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin:

1) bog‘lanish va ergashish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gap. Bunday gaplarning qismlari ham tenglanish, ham tobelanish aloqalari orqali sintaktik munosabatga kirishadi. Masalan: *Qutidor do‘koniga jo‘nagandan keyin, Oftob oyim To‘ybekani mehmonxonaga buyurdi va o‘zi xamir qilishga o‘tirdi.* (A.Qodiriy).

Keltirilgan misolda birinchi gap (payt ergash gap) ikkinchi gapga (bosh gapga) ergashish yo‘li bilan birikkan, bularning ikkalasi uchinchi gap bilan «va» biriktiruv bog‘lovchisi orqali bog‘lanish yo‘li bilan munosabatga kirishgan.


Yana bir misol: *Qilichdan etgan jarohat tildan etgan jarohatga qaraganda engilroqdir, chunki qilich badanni jarohatlaydi, til esa qalbni jarohatlaydi.* («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

Bunda ikkinchi va uchinchi gaplar o‘zaro «esa» yordamchisi vositasida bog‘lanish yo‘li bilan munosabatga kirishgan va yahlit holda birinchi gapga «chunki» bog‘lovchisi yordamida sabab munosabati orqali ergashish yo‘li bilan birikkan.

2) bog‘lanish yo‘li bilan va bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo‘shma gap.

Bunday aralash murakkab qo‘shma gap qismlari o‘zaro ham teng bog‘lovchilar (yoki teng bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar), orqali, ham bog‘lovchisiz munosabatga kirishadi: *Yigitning rangi oppoq, ko‘zlari bo‘lsa bir o‘rinda to‘xtab qolgan, harakatsiz, egnida ... ola-bula matodan to‘qilgan ko‘ylagi bor edi.* (M.Kozimiy).

Bunda birinchi gap ikkinchi gap bilan o‘zaro «bo‘lsa» qiyoslov bog‘lovchi yordamida bog‘lanish yo‘li bilan, uchinchisi bilan ohang orqali aloqaga kirishgan. Mazkur gapning chizgisi quyidagicha:



3) ergashish yo‘li bilan va bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo‘shma gap.

Bunday aralash murakkab qo‘shma gap qismlari o‘zaro ham ergashtiruvchi bog‘lovchilar yoki ergashtiruvchi bog‘lovchi vositalar, ham bog‘lovchisiz munosabatga kirishadi: Dilda saqlangan adovat temir zangiga o‘xshaydi, zang temirni egani kabi, adovat qalbni azob va iztirob bilan emiradi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

Bunda ikkinchi gap uchinchi gapga o‘xshatish munosabati orqali ergashish yo‘li bilan birikib, birinchi gap esa yaxlit qilib olingan keyingi gaplarga bog‘lovchi vositalarsiz munosabatga kirishgan.

4) har uch munosabat: bog‘lanish yo‘li bilan, ergashish yo‘li bilan va bog‘lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo‘shma gap. Bunday qo‘shma gap qismlarining o‘zaro munosabati turlicha bo‘ladi:

Tolib aka eski xodim, umri shu redaksiyada o‘tgan va uni bu erdan haydab bo‘lmaydi, shuning uchun Ahmadning o‘zi ketishi kerak. (F.Musajonov).

Bu aralash murakkab qo‘shma gap to‘rtta gapdan tuzilib, birinchisi ikkinchisiga bog‘lovchi vositalarsiz, ikkinchisi uchinchisi bilan «va» biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘lanish yo‘li bilan munosabatga kirishgan, birinchi uchala gap yaxlit holda to‘rtinchi gapga sabab munosabati orqali ergashish yo‘li bilan birikib kelgan.

Takrorlash uchun savollar

1. Qo‘shma gapning ta‘rifini ayting.
2. Sodda va qo‘shma gap o‘rtasida qanday farq bor?
3. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro qanday vositalar bila bo‘lanadi?
4. Qo‘shma gapning qanday turlari bor?
5. Ergash gapli qo‘shma gapning ta‘rifini ayting.
6. Bosh gap deb qanday gapga aytiladi?
7. Ergash gap deb qanday gapga aytiladi?
8. Ergash gapning bosh gapni izohlashi qanday ko‘rinishlarda bo‘ladi?
9. Ergash gapning joylashish o‘rinlari haqida gapiring.
10. Ergash gaplar bosh gaplarga qanday vositalar yordamida bo‘lanadi?
11. Bo‘jlangan qo‘shma gap ta‘rifini ayting.
12. Bo‘jlangan qo‘shma gap turlarini sanang.
13. Biriktiruv munosabatli bo‘jlangan qo‘shma gaplar haqida gapiring.
14. Zidlov munosabatli bo‘jlangan qo‘shma gaplar haqida gapiring.
15. Ayiruv munosabatli bo‘jlangan qo‘shma gaplar haqida gapiring.
16. Inkor munosabatli bo‘jlangan qo‘shma gaplar haqida gapiring.
17. Bo‘jlovchisiz qo‘shma g. ta‘rifini ayting.
18. Bo‘jlovchisiz qo‘shma. gap ohangdan tashqari qanday vositalar bilan bo‘lanadi?
19. Bo‘jlangan qo‘shma gaplarga sinonim bo‘ladigan bo‘jlovchisiz qo‘shma gaplarga misollar keltiring.
20. Ergashgan qo‘shma gaplarga sinonim bo‘ladigan bo‘jlovchisiz qo‘shma gaplarga misollar keltiring.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Qaysi juftliklarning har ikkalasi qo‘shma gap sanaladi?

A) *Mingboshi yaxshi biladiki, Miryoqubdan boshqa chin ko‘ngildan kuyadigan odam yo‘q. Mingboshi Miryoqubdan boshqa chin ko‘ngildan kuyadigan odam yo‘qligini yaxshi biladi.* B) *Azimboy shunday zulm o‘tkazdiki, oqibatda xalqning sabr kosasi to‘ldi. Azimboy xalqning sabr kosasini to‘ldiradigan zulm o‘tkazdi.* C) *Sinf rahbarimiz ishonardiki, bizning guruh*

musobaqalarda g'olib chiqadi. Sinf rahbarimiz bizning guruhimizning musobaqalarda g'olib chiqishiga ishonadilar. D) U shunday yalinib gapirdiki, ra'yini qaytarishning sira iloji qolmagan edi. U yalinib gapirdi, shuning uchun ra'yini qaytarishning sira iloji qolmadi.

2. Bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A) Og'ir eshik unsiz ochildi-da, qop-qorong'i zalga nur yopirilib kirdi. B) Keyin bir lahza ko'zlarini yumdi-da, yuziga kaftini bosdi. C) Zuhra oynavand eshikni ochdi-da, ichkariga kirib ketdi. D) U g'azab bilan baqirdi-da, mashinasini keskin burdi.

3. Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A) Lolalar uchun oftob yaxshidir, Bolalar uchun odob yaxshidir. B) Ko'm-ko'k tog'li yaylovlarda o'tov oqarib, er-u ko'kni podalarning shovqin-suroni tutdi. C) O'ziga berilgan aqlsiz tentak bo'lsa, o'zini bezagan xushro'y satangdir. D) Chor atrofda esardi ellar, Va bog'larda qushlar chiyillar.

4. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap berilgan javobni toping.

A) Boshqalarni bilmayman-u, suyak sho'rva Kulala ikkovimizga zo'rlik qildi. B) Sen berahm bo'lsang ham, ammo Men dushmanlik qilmasman aslo. C) Har qanday qonunga ham chap berish mumkin, lekin uyatga chap berib bo'lmaydi, chunki qonun odamdan tashqarida, uyat esa odamning ko'ksida bo'ladi. D) Hozirgi zamonda sichqon tutmaydigan mushuk ham odamning ko'ziga xunuk ko'rinadi.

5. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar o'rtasida qanday munosabat ifodalanadi?

A) payt munosabati B) Gap mazmuniga ko'ra turli munosabat ifodalanishi mumkin. B) zidlik munosabati C) sabab yoki natija munosabati

6. Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gapni aniqlang.

A) Ko'z yoshi yo ko'ngildagi g'am-g'ussaning damini kesish, yo berahmning rahmini keltirish uchun to'kiladi. B) Uyatsizlik hamma narsa uchun dog', hayo hamma narsa uchun ziynatdir. C) Qorong'i kechada otilgan mushak ham go'zal, quyoshga qarab xandon tashlab turgan gul ham go'zal.

D) Dam jahlim chiqadi, dam kulgim keladi.

7. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap berilgan javobni toping.

A) Adabiyotga o'g'ri mushukka o'xshab tuynukdan oshib tushadiganlar ham bo'ladi. B) Nima uchun ko'cha harakat qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi? C) Sen berahm bo'lsang ham, ammo Men dushmanlik qilmasman aslo. D) Taqdirimiz birdir, go'zalim Gar o'rtada daryo bo'lsa ham.

8. Voqea-hodisalarning o'zaro zidlanish mazmunini ifodalagan bog'langan qo'shma gapni toping.

A) Bu odam to'nkarilib qolgan qo'ng'izga o'xshaydi, o'nglab qo'yadiganlarning qo'lini sasitadi. B) Adabiyot atomdan kuchli, lekin kuchini o'tin yorishga sarflash kerak emas. C) O'quvchi asarimizni qiziqib, shavq bilan o'qimas ekan, uning g'oyasini obrazlar orqali qabul qilmas ekan, maqsadimiz qog'ozda qolaveradi. D) Ba'zi so'zlarda sehr bo'ladi, ba'zi she'rlarda hikmat bo'ladi.

9. Quyidagi gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlang. Ishim to'g'rilanib ketdi ham erim o'zimga qoldi.

A) bog'langan qo'shma gap B) bog'lovchisiz qo'shma gap C) ergashgan qo'shma gap
D) uyushiq bo'lakli sodda yoyiq gap

10. Ushbu birliklardan qaysi biri qo'shma gapning teng huquqli qismlarini bog'lashda ishtirok etadi?

A) -u, -yu, -da B) va, hamda, ammo, lekin
C) chunki, shuning uchun D) A, B

11. Nuri goh sevinib, shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini qo'rquv bosadi.(O.) Ushbu gapning turini toping.

A) bog'langan qo'shma gap B) zidlov munosabatli
C) biriktiruv munosabatli D) ayiruv munosabatli

12. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashda faqat takror holda qo'llanuvchi bog'lovchilar berilgan qatorni toping.

A) *goh...goh, ba'zan...ba'zan, yo...yo, dam...dam* B) *goh...goh, ba'zan...ba'zan, dam...dam* C) *goh...goh, dam...dam, yoki...yoki* D) *goh...goh, ba'zan...ba'zan*

13. Eshik sekin-sekin ochildi-yu, Arslonbek Qalandarovning ozg'in yuzi ko'rindi. Ushbu misol bog'langan qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

A) *biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap* B) *zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap* C) *ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap* D) *inkor munosabatli bog'langan qo'shma gap*

14. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) *Quyosh erga nurini har qancha sochsa ham, u erdan buning evaziga hech narsa talab qilmaydi.* B) *Tantanali kechaning badiiy qismida konsert berildi ham hujjatli film namoyish qilindi.* C) *Suv keldi - nur keldi.* D) *Bahaybat fil xartumini suvga solishi bilan, suvdagi to'lin oy birdan qalqiy boshladi.*

15. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gapni toping.

A) *Ko'nglimni zavq asir etdi-yu, yosh boladay har yon yugurdim.* B) *Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lsin.* C) *Agar har bir kishi bir donadan ko'chat o'tqazsa, diyorimiz bog'u bo'stonga aylanadi.* D) *Sevinch esdan chiqadi-yu, qayg'u unutilmaydi.*

16. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gapni belgilang.

A) *Narsalarga qiziqishing yo'qolsa, xotirangdan ham ayrilasan.* B) *Bema'ni fikrlar har kimda ham bo'ladi, faqat aqlli kishigina uni ishlatmaydi.* C) *Ba'zan sho'x musiqa yangraydi, ba'zan zo'r qahqaha olamni buzadi.* D) *Go'zallik kishi uchun katta baxt, ammo mehnatsevarlik bebaho ziynatdir.*

17. Sobir anhor bilan hovuz o'rtasidagi supaga joy qildirib berdi-da, o'zi qayoqqadir ketdi. Ushbu qo'shma gapning turi...

A) *ergashgan qo'shma gap* B) *bog'lovchisiz qo'shma gap*
C) *ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap*
D) *zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap*

18. Qaysi qatordagi gapda -u, -yu yuklamasi zidlov bog'lovchisi vazifasida kelgan?

A) *Siz ham "ish, ish" deb, umringizni san'atga baxshida qilganingizda nima bo'ldingiz-u, Nigora nima bo'ldi?* B) *Qiziq, odamning umri shuncha qisqa-yu, tipirchilashi olamni tutadi.* C) *Havoni quyuuq tuman bosdi-yu, hech narsa ko'rinmadi.* D) *Kun kelar-u, sendan meni Begona qilar bu she'r.*

19. Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning yordamchilarsiz birikishiga qaysi qatorda misol berilgan?

A) *Tashqaridan kelgan oyoq tovushi bahona bo'ldi-da, Aziza o'rnidan turdi.* B) *Yomg'ir ko'p yog'di, ko'katlar gurkirab o'sdi.* C) *Kasalning kelishi oson, ketishi ancha qiyin.* D) *Yaxshida gina bo'lmas, yomon gina ketmas.*

20. Omborchi - erkak, ferma mudiri - erkak, do'kon mudiri - erkak. Yuqoridagi gap tuzilishiga ko'ra qanday gap sanaladi?

A) *sodda yoyiq gap* B) *bog'langan qo'shma gap* C) *ega ergash gapli qo'shma gap* D) *bog'lovchisiz qo'shma gap*

21. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) *Hijron shunday og'ir yukki, uni hamma ham ko'tara olmaydi, visol shunday shirin sharbatki, hech kim uni oxirigacha ichishga muvaffaq bo'lmaydi.* B) *Ilm boshqalarga o'rgatish uchungina qo'lga kiritilsa, odam undan biron foyda ko'rmasa, u suvidan hamma foydalanadigan, lekin undan o'zi bebahra buloqqa o'xshaydi.* C) *Baxt topilmas hech zamonda, el qul bo'lsa, bo'lsa yalang'och, Jannatlarni yaratgan odam, Natijada o'zi qolsa och.* D) *Tashqarida chaqmoq yaltirar, momaqaldiroq borliqni larzaga keltirar, bahor yomg'iri salobatli shovullardi.*

22. Botirlari kanal qazadi, Shoirlari g'azal yozadi. Gapning turini toping.

A) *ergash gapli qo'shma gapning bog'lovchisiz turi* B) *bog'langan qo'shma gapning bog'lovchisiz turi* C) *yoyiq sodda gap* D) *murakkablashgan sodda gap.*

23. Yordamchilarsiz bog‘langan qo‘shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) Ulug‘ odam o‘z zamonasidan o‘tib ketadi, aqlli odam esa har qanday sharoitda ham zamonasi bilan qadam-baqadam boradi, ayyor undan foydalanib qolishga urinadi, tentak zamona yo‘liga to‘g‘anoq bo‘ladi. B) Baxt topilmas hech bir zamonda, El qul bo‘lsa, bo‘lsa yalang‘och, Jannatlarni yaratgan odam Natijada o‘zi qolsa och. C) Ilm boshqalarga o‘rgatish uchungina qo‘lga kiritilsa, odam undan biron foyda ko‘rmasa, u suvidan hamma foydalanadigan, lekin undan o‘zi bebahra bo‘lgan buloqqa o‘xshaydi. D) Hijron shunday og‘ir yukki, uni hamma ham ko‘tara olmaydi, visol shunday shirin sharbatki, hech kim uni oxirigacha ichishga muvaffaq bo‘lmaydi.

24. Qaysi qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro faqat mazmun va tobelik ohangi bilan birikkan?

A) Safarov qo‘liga endi piyolani olgan edi, Shodiev gap boshladi. B) Vaqting ketdi - baxting ketdi. C) Bag‘rida nur borki, qarimas quyosh. D) Bular ketmoqchi bo‘lib qo‘zg‘algan paytda, O‘rmonjon kirib keldi.

25. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap berilgan qatorni aniqlang.

A) Mehnat qilmasang, rohat yo‘q. B) Chang chiqsin uchun, derazalarni ochdi. C) Xizmatkor undan haq talab qilganda, u biror bahona topadi. D) Orzigul darvozadan ichkariga kirdi, darvoza o‘z-o‘zidan bekildi.

26. Ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gaplarning qaysi birida shuning uchun bog‘lovchilarini qo‘llash mumkin?

A) Jismimiz yo‘qolur o‘chmas nomimiz. B) Qishloq obod, mening ko‘nglim shod. C) Shaharlar boqiydir, umr o‘tkinchi, daryolar sobitdir, suvlar ko‘chkinchi. D) Shamol orqadan esardi, unga qarab borishim uncha qiyin emas edi.

27. Ergash gapli qo‘shma gapni aniqlang.

A) Bir xil talantga ega bo‘lgan ikki odam bir xildagi sharoitda ikki olam bo‘lib qolishi mumkin. B) Xalqqa yaxshilikni o‘rgatib, o‘zini unutgan olim o‘zini yondirib, xalqqa yorug‘lik bergan shamga o‘xshaydi. C) Detal pardoz emas, husn bo‘lib asarni ochishi kerak. D) Tirik, ya‘ni yurakdan chiqqan jo‘shqin nutq o‘likni tiriltirsa, o‘lik, ya‘ni yurakdan chiqmagan sovuq nutq, darhaqiqat, o‘likka ham ozor etkazadi.

28. Yaxshilab ta‘zirini berish kerak, toki boshqalarga namuna bo‘lsin. Ushbu gapda ergash gap bosh gapga qanday vosita yordamida bog‘langan?

A) ergashtiruvchi bog‘lovchilar orqali B) –sin qo‘shimchasi orqali C) ohang va shaxs-son qo‘shimchalari orqali D) toki yordamchi so‘zi orqali

29. Qaysi qatorda qo‘shma gap bor?

A) Ayting – kirishsin. B) Biz, sinf rahbarimiz aytdi, ertaga sayohatga boramiz. C) Kishilar mehnatni qadrlaydilar, ulug‘laydilar. D) Dasturxonni yozib, nonlarni ushatdi.

30. Qaysi qatorda qo‘shma gap bor?

A) Kishilar mehnatni qadrlaydilar ulug‘laydilar B) Dasturxonni yozib, nonlarni ushatdi. C) Nabotot olami bo‘lmasa, hayotning o‘zi bo‘lmaydi. D) Biz, sinf rahbarimiz aytdi, ertaga sayohatga boramiz.

31. Tobe-hokim munosabatli qo‘shma gap qismlarini bog‘lash uchun xizmat qiladigan bog‘lovchilar...

A) zidlov bog‘lovchilar deyiladi B) ayiruv bog‘lovchilari deyiladi. C) inkor bog‘lovchilar deyiladi. D) ergashtiruvchi bog‘lovchilar deyiladi.

32. Ergash gapli qo‘shma gapni aniqlang.

A) Kim mehnatni sevsa, uning qadri baland bo‘ladi. B) Muhabbat eski narsa, ammo har bir yurak uni yangilaydi. C) Orzular buyukdir, umrlar qisqa. D) Biz ko‘rgan, eshitgan, lekin e‘tibor bermagan voqealarga san‘atkorona baho beramiz.

33. Qo‘shma gapni toping.

A) Ertalab turib hovli supurmagan, yakshanba eng shimarib kir yuvmagan er er bo‘libdimi! B) Ba‘zan vijdonning pokligini isbotlash uchun ham hujjat talab qilinadi. C) Azaga borgan kampir

o'z dardini aytib yig'laydi, deganlari rost ekan. D) Seni bir dam tutmoqqa endi na haqqim bor, na huquqim bor.

34. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro qanday bog'lanadi?

A) bog'lovchilar orqali B) yuklamalar orqali C) ayrim fe'l shakllari va ohang bilan D) A, B, C.

35. Ergashtiruvchi bog'lovchilar qanday munosabatli qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun xizmat qiladi?

A) qo'shma gapning teng huquqli qismlarini B) qo'shma gap tarkibidagi uyushiq bo'laklarni C) tobe-hokim munosabatli qo'shma gap qismlarini D) qo'shma gapning teng huquqli qismlari va uyushiq bo'laklarni

O'ZGALARNING NUTQINI IFODALASH USULLARI

Muallif o'z nutqida boshqalar ifodalagan fikrlardan ham foydalanishi mumkin. Bunday fikrlar **ko'chirma gap, o'zlashtirma gap, dialog** va **ko'chirma** shaklida beriladi.

1-§. Ko'chirma gap

O'zgalarning hech o'zgarishsiz berilgan gapi **ko'chirma gap** deyiladi. Ko'chirma gapda ikki xil gap bo'ladi: **ko'chirilgan gap** va **muallif gapi**. Ikkalasi birgalikda **ko'chirma gapli qo'shma gapni** hosil qiladi (20; 66). Muallif gapining kesimi *dedi, deb so'radi, deb javob berdi, gapirdi, so'zladi, aytdi* kabi fe'llar bilan ifodalandi. Ko'chirma gaplar so'zlashuv va badiiy uslublarda ko'p ishlatiladi. Ko'chirilgan gap muallif gapidan avval, undan keyin, uning ichida, uning ikki tomonida kelishi mumkin: "*Mehnat ishtaha ochar*", - *deydi bobom. CHo'pondan so'radik: "Bu qo'ylar kimning qo'yi?" "Men, - dedi u, - ertaga kelaman". Bosh injener nihoyatda bosiqlik bilan: - Bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yo'q, - dedi.(J.Abd.)*

2-§. Ko'chirma gapda tinish belgilarining ishlatilishi

Ko'chirilgan gap qo'shtirnoq ichiga olinadi, badiiy asarlarda tire bilan ajratib beriladi.

Ko'chirma gapda, ko'chirilgan gapning o'rniga qarab, tinish belgilarining ishlatilishi quyidagicha bo'ladi:

1. Ko'chirilgan gap darak gap bo'lib, muallif gapidan oldin kelsa, undan keyin vergul va tire qo'yiladi: "*YUring, men o'sha tomonga boraman*", - *dedi Komila* (badiiy asarlarda tire ishlatiladi). So'roq va undov belgilari qo'shtirnoq yopilmasdan oldin qo'yiladi.

2. Ko'chirilgan gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Bir kun Husayn Mirzo shipga qarab yotib, vazirlariga shunday debdi: - Olib keling!* ("*El desa Navoiyni*")

3. Muallif gapi ko'chirilgan gap ichida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismida hech qanday tinish belgisi bo'lmasa yoki vergul yoxud ikki nuqta bo'lsa, bu belgilar tushirilib, muallif gapi

har ikki tomondan vergul va tire bilan ajratiladi: "Hazrat, - debdi Xudoyberdi unga qarab, - tandinri qurolmadim". ("El desa Navoiyni")

2) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so'ng nuqta qo'yish lozim bo'lsa, muallif gapidan oldin vergul va tire, muallif gapidan so'ng esa nuqta qo'yiladi: "Noyib to'raning gaplaridan bilinadi o'zi, dedi Miryoqub. – Siz bo'lgan gaplarni aytib bering". (CH.)

3) ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so'ng so'roq yoki undov belgisi qo'yish lozim bo'lsa, muallif gapidan avval o'sha belgi va tire qo'yiladi, muallif gapidan so'ng nuqta va tire qo'yilib, ko'chirma gapning davomi bosh harf bilan boshlanadi: "Xadichaxon ko'zlarini ayyorlik bilan o'ynatib turib, kundoshiga qaradi: - Gapni eshitayotirsizmi? – dedi. – Ertaga biznikiga shaharlik mehmonlar kelishar ekan!".(CH.)

4. Ko'chirilgan gap muallif gapining o'rtasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) muallif gapining uzilib qolgan qismining oxiriga ikki nuqta qo'yilib, ko'chirilgan gap qo'shtirnoq ichiga olinadi; ko'chirilgan gapdan keyin vergul va tire qo'yilib, keyin muallif gapining davomi yoziladi: Saodat: "Biz ham astoydil mehnat qildik", - dedi.

2) ko'chirilgan gap so'roq yoki his-hayajon gap bo'lsa, ularning belgilari qo'shtirnoq ichida bo'ladi: O'qituvchimiz : "Sen qaysi badiiy kitoblarni o'qib chiqqansan?" - deb so'radilar.

5. Ko'chirma gaplar hamsuhbatlarning luqmasi tarzida ifodalanganida yozma nutqda har bir luqmadan avval tire qo'yiladi. Bu luqmalarda muallif gapi bo'lmaydi: - SHaharda qarindoshingiz bormi? - Yo'q.

3-§. O'zlashtirma gap

O'zgalarning shakli o'zgartirilib, mazmuni ifodalangan gapi **o'zlashtirma gap** deyiladi. O'zlashtirma gap ko'chirma gapga aylantirilishi mumkin bo'lgan gapdir: Qurbon ota ertaga kelishini aytdi (o'zl. gap) – Qurbon ota dedi: "Men ertaga kelaman"(ko'ch. gap).

So'roq, buyruq mazmunini ifodalagan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, darak gap shaklida bayon qilinadi.

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
- Bu qanday bino, nimaga mo'ljallaysiz? - dedi O'ktam.	O'ktam bu qanday bino ekanligini, uning nimaga mo'ljallanishini so'radi

Undalma, kirish so'z qatnashgan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, kirish so'zlar tushib qoladi, undalma vositali to'ldiruvchiga aylantiriladi, 1-, 2-shaxslarni ko'rsatuvchi so'zlar 3-shaxsga aylantiriladi:

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
- Xo'sh, Kanizakxon, qanday yangiliklar bor? - so'radi O'ktam. - Men ketdim, - dedi ukasi.	O'ktam Kanizakxondan qanday yangiliklar borligini so'radi. Ukasi o'zining ketayotganini aytdi.

O'zlashtirma gapning kesimi *aytmoq, gapirmoq, buyurmoq, so'ramoq, undamoq (demoq fe'lidan tashqari)* so'zlari bilan ifodalanadi.

4-§. Ko'chirma va unda ishlatiladigan tinish belgilari

Biror matndan ko'chirilgan gaplar **ko'chirma** deyiladi. Ko'chirma ikki xil bo'ladi:

1. Muallif gapi bilan birga qo'llangan ko'chirma: *Alisher Navoiy ilm olishga da'vat qilib: "Olim bo'lsang, olam seniki", - degan edi.*

2. Muallif gapisiz qo'llangan ko'chirma:

Koinot gultoji insondir azal,

Undadir eng oliy tafakkur, amal.

U hatto tubanlik ichra ham tanho,

YO falak, ijoding buncha mukammal.

A.Oripov

Muallif gapi bilan qo'llangan ko'chirma bayon qilinayotgan fikrni asoslash, tasdiqlash yoki inkor etish uchun keltiriladi. SHE'riy parchalar ko'chirma tarzida keltirilsa, qo'shtirnoqqa olinmaydi. Ko'chirma muallif gapisiz qo'llansa ham, qo'shtirnoqqa olinmaydi. Bu tarzidagi ko'chirmalar **epigraf** tarzida qo'llanadi va qo'shtirnoqqa olinmaydi.

5-§. Dialog

Ikki kishining nutqi **dialog** deb ataladi. Dialogda ko'chirma gaplardan foydalaniladi, har bir gap tire bilan boshlanadi. (Bunda muallif gapi ishlatilmasligi ham mumkin.): - *Qaysi maktabda o'qiysan?* - *24-maktabda.* - *Nechanchi sinfda?* - *Beshinchi sinfda.*

Gap tahlili namunasi	
1. Ifoda maqsadiga ko'ra turi.	5. Uyushiq va ajratilgan bo'laklar bo'lsa, aniqlanadi.
2. His-hayajon ifodalashiga ko'ra turi.	6. Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar bo'lsa, aniqlanadi.
3. Tuzilishiga ko'ra turi.	7. O'zga gap bo'lsa, turi aniqlanadi.
4. Gap bo'laklari va ularning turlari.	

Takrorlash uchun savollar:

1. Muallifning nutqida ifodalangan boshqalarning fikrlari qanday shakllarda bo'lishi mumkin? 2. Ko'chirma gapning ta'rifini ayting. 3. Ko'chirilgan gap va muallif gaplari haqida ma'lumot bering. 4. Ko'chirilgan gapning joylashish o'rinlari haqida gapiring. 5. Ko'chirilgan gap muallif gapidan oldin kelsa, tinish belgilari qanday qo'llanadi? 6. Ko'chirilgan gap muallif gapidan keyin kelsa, tinish belgilari qanday qo'llanadi? 7. Muallif gapi ko'chirilgan gap ichida kelsa, tinish belgilari qanday qo'llanadi? 8. Ko'chirilgan gap muallif gapining o'rtasida kelsa, tinish bo'lgilari qanday qo'llanadi?

9. Muallif nutqida ishlatilgan qanday birliklar qo'shtirnoqqa olinadi? 10. Ko'chirma gaplar dialogik nutqda luqma tarzida kelgan bo'lsa, qanday tinish belgilari ishlatiladi? 11. O'zlashtirma gapning ta'rifini ayting. 12. Ko'chirma gaplar o'zlashtirma gaplarga aylantirilganda, ular tarkibidagi gap bo'laklari hisoblanmaydigan birliklar qanday o'zgarishlarga uchraydi? 13. Ko'chirma va uning turlari haqida gapiring. 14. Ko'chirmada tinish belgilari qanday ishlatiladi? 15. Ko'chirma gapda ishlatiladigan tinish belgilarining barchasini sanab ko'rsating.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Uzoqdan, chayla tomondan, itning: «vov, vov, vov» degan ovozi eshitildi. Ushbu gap o'zlashtirma gapga qay ko'rishda aylantiriladi?

- A) Uzoqdan, chayla tomondan, it «vov, vov, vov» deb hurdi. B) Uzoqdan, chayla tomondan, itning vovillagani eshitildi. C) Itning: «Vov, vov, vov», deb vovillagani uzoqdan, chayla tomondan eshitildi. D) O'zlashtirma gapga aylanmaydi.

2. Ko'chirma gap bilan muallif gapining o'rni qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Ko'chirma gap faqat muallif gapidan oldin keladi. B) Ko'chirma gap faqat muallif gapidan keyin keladi. C) Muallif gapi faqat ko'chirma gap orasida keladi. D) Ko'chirma gap muallif gapidan oldin, keyin yoki uning ichida, muallif gapi esa ko'chirma gap orasida kelishi mumkin.

3. Ko'chirma gaplar nisbatan qaysi uslublarda ko'proq qo'llanadi?

- A) so'zlashuv va badiiy uslubda B) ommabop va so'zlashuv uslubida C) ilmiy va badiiy uslubda D) so'zlashuv, rasmiy va badiiy uslubda

4. - Anavi erda, - u Sherzodning qo'lidagi xatga imo qildi, - to'g'ri yozishibdi. Ushbu gap qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A) ko'chirma gap B) sodda yoyiq gap
C) kirish gapli gap D) qo'shma gap

5. Ko'chirma gap bilan birga qo'llanadigan muallif gapi kesimining ifodalanishi haqida bildirilgan qaysi fikr to'g'ri?

- A) faqat demoq fe'li bilan B) faqat so'zlamog fe'li bilan C) faqat gapirmog fe'li bilan
D) demoq, aytmoq, so'zlamog, gapirmog kabi fe'llar bilan

6. Muallif gapi kesimining qaysi fe'llar bilan ifodalanishi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A) dedi, ko'rdi, yog'di, ko'kardi; B) so'radi, ishondi, chiqdi, chiqdi, ketdi; C) uyg'ondi, yuvindi, tarandi, gapirdi; D) aytdi, gapirdi, so'zladi, buyurdi;

7. Qaysi qatordagi ko'chirma va muallif gaplarida tinish belgilari noto'g'ri ishlatilgan?

- A) G'ofir: «Jamila, tur o'rningdan», - dedi. B) G'ofir dedi: «Jamila, tur o'rningdan». C) «Jamila, - dedi G'ofir, - tur o'rningdan». D) Barcha javoblarda tinish belgilari to'g'ri ishlatilgan.

8. Chumchuqdan qo'rqan tariq ekmaydi,- dedi Xalil ota odatdagicha kulimsirab. Ushbu misolda nega ko'chirma gapdan keyin vergul va tire qo'yilgan?

- A) ko'chirma gap darak gap bo'lgani uchun B) ko'chirma gap so'roq gap bo'lgani uchun C) ko'chirma gap his-hayajon gap bo'lgani uchun D) ko'chirma gap muallif (avtor) gapidan oldin kelgani uchun

9. Birinchi qismida nuqta (.) belgisi bo'lgan ko'chirma gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul B) nuqta C) ko'p nuqta D) tire

10. Birinchi qismida ko'p nuqta (...) belgisi bo'lgan ko'chirma gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul B) nuqta C) ko'p nuqta D) tire

11. Birinchi qismida undov belgisi (!) bo'lgan ko'chirma gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul B) nuqta C) ko'p nuqta D) tire

12. Qanday holatda ko'chirma gapdan keyin qo'shtirnoq yopilgach, vergul hamda tire qo'yiladi?

- A) ko'chirma gap muallif gapidan oldin kelsa B) ko'chirma gap muallif gapining ichida kelsa
C) ko'chirma gap darak gap bo'lsa D) ko'chirma gap undov gap bo'lsa

13. “Paxtadan mo'l hosil olsak... – dedi u – Mana engil mashinaning kaliti desa-ya” Ushbu ko'chirma gapdagi muallif gapidan so'ng qanday tinish belgisi qo'yilishi kerak?

- A) tire to'g'ri qo'yilgan B) nuqta C) vergul

D) nuqtali vergul

14. Tinish belgisi noto'g'ri qo'llangan ko'chirma gapni aniqlang.

A) - Yuzingizni erga qaratmayman, - dedim komil ishonch bilan. B) - Muzaffar aka, arang topdik sizni, - dedi jilmayib. C) - Yiling uyqu, muchaling yostiqmi? - dedi tuyog'i bilan qor titkilayotgan otining jilovini siltab. D) - Nima bo'ldi, - dedi yana chirqillab.

15. O'zlashtirma gap qatnashgan qatorni aniqlang.

A) Zamira o'z sinfdoshlari haqida to'lib-toshib gapirdi. B) O'quvchilar gazeta va jurnallarga obuna bo'lmoqdalar. C) Bolalar, ko'cha qoidalariga to'liq rioya qiling. D) Nasiba oyoqlari sovuqdan zirqirab og'riyotganini aytdi.

16. O'zlashtirma gap qaysi qatorda?

A) Ernazar akaning aytishicha, o'sha yili saraton juda issiq boshlangan ekan. B) - Jinoyat qilgan jazo tortadi-da, nahot mukofot olsa, - dedi qizlardan biri. C) Siz, o'ylab qaragam, shu ishga loyiq ekansiz. D) Yozuvchi yolg'on so'zdan olam bezor ekanligini aytgan edi.

17. Qaysi qatorda o'zga gap shakli o'zgartirilib, mazmuni berilgan?

A) Bobur navkarga ellik qadamcha nariga borishni buyurdi. B) «Insonning mohiyati uning xohishlarida aks etadi», - dedi Abdulaziz. C) «Bilim yodlash bilan emas, fikrlash bilan orttirilgandagina haqiqiy bilimdir», - deb yozgan edi buyuk L.N.Tolstoy. D) «Bolalarni fanga qiziqtirish uchun aqlni ishlata bilish kerak», - dedi Muzaffar kulimsirab.

18. O'zlashtirma gap kesimining ifodalanishi qaysi javobda noto'g'ri?

A) aytmoq fe'li bilan B) gapirmoq fe'li bilan
C) demoq fe'li bilan D) buyurmoq fe'li bilan

19. Qaysi misol o'zlashtirma gap?

A) Tabassum yaxshilikning belgisidir. B) Deydilarki, oyda ham dog' bor. C) «Kitob aqlning kaliti», - dedi bobom. D) Sinf rahbarimiz maqtanchoq bo'lmaslikni uqtirdi.

20. O'zlashtirma gap berilgan qatorni toping.

A) Mahbuba Ozodaxonga o'zaro izzat-hurmatsiz do'stlik bo'lmasligini aytdi. B) O'qituvchi o'quvchilardan uy vazifasini so'radi. C) Sobirjon bizdan ta'tilda qaerga borishimizni so'radi. D) A va C

21. O'zga gap (o'zgalilar nutqi) qaysi javobda aks etgan?

A) Safardan qaytgan kishi o'z taassurotlarini gapirib berdi. B) Har kim har xil dori-darmon aytdi. C) Kimdir uning yolg'on ovchi ekanini aytdi. D) Kenja uning ustidan muharrirga arz qildi.

22. O'zlashtirma gap qaysi qatorda berilgan?

A) O'zining qanday qarorga kelganini aytib berdi. B) Safarov ertaga bajarilishi kerak bo'lgan ishlar to'g'risida gapirdi. C) Rahmonqulov mashinani orqaga qaytarishni buyurdi. D) Bu orada Hasanali boshdan-oyoq hikoyasini so'zlab chiqdi.

23. Qaysi qatordagi gap o'zlashtirma gap?

A) Zaynab egachisi Xushro'ydan etti yosh chamasi kichik edi. B) Xushro'y uzun bo'lyi, qotmaroq qiz edi. C) Ma'lum bo'ldiki, rais qishloqqa jo'nabdi. D) O'qituvchimiz maqtanchoq bo'lmaslikni, boshqalarni hurmat qilishni uqtirdi.

24. Qaysi qatordagi atama (termin)lar grammatikaning sintaksis qismiga tegishli?

A) qaralmish, boshqaruv, tobe so'z B) birikma, qo'shma gap, rasmiy uslub C) aralash qo'shma gaplar, izohlovchi, ravish
D) umumlashtiruvchi so'z, juft so'z, taqlid so'z

25. Qaysi qatordagi atama (termin)lar grammatikaning sintaksis qismiga tegishli?

A) taqlid so'z, jamlovchi otlar, nisbat yasovchi qo'shimcha
B) paronimlar, qo'shma gap, rasmiy uslub C) aralash qo'shma gaplar, omonimlar, sifat D) bog'lama, so'z birikmasi, kirish so'z

USLUBIYAT (STILISTIKA). NUTQ USLUBLARI

1-§. Uslubiyat haqida umumiy ma'lumot

Uslubiya t tilshunoslik fanining bir bo'limi bo'lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llari, fonetik, lug'aviy, frazeologik va grammatik birliklarning qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llanadigan, bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ko'rinishi **adabiy til uslubi** deyiladi. Uslub orqali so'zlovchi shaxs narsalarga, voqealarga shaxsiy munosabatini aks ettiradi.

O'zbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor: **so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub** (Ayrim darsliklarda so'zlashuv uslubidan boshqa barcha uslublar **kitobiy uslub** degan umumiy nom ostida beriladi): *durust, metro, ko'k, tuzuk* (so'zlashuv uslubi); *moviy, metropoliten* (kitobiy).

Har bir uslubni yaratuvchi vositalar mavjud. Bularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Leksik vositalar: Sinonim, omonim, antonim, paronim, ko'p ma'nolilik, tag ma'no (gapning tagida yashiringan ma'no), sifatlash, o'xshatishlar, frazeologik birlik, sheva, noadabiy so'zlar (jargon, argo, so'kish, qarg'ish kabilar) kasb-hunar so'zlari, mubolag'a (giperbola), arxaik va tarixiy so'zlar, atamalar.

2. Fonetik vositalar: nutq tovushlari, ohang, urg'u.

3. Grammatik vositalar: a) **morfologik vositalar:** har bir so'z turkumi; b) **sintaktik vositalar:** gap bo'laklari, ritorik so'roq gaplar, undalma, kirish so'z, kirish birikma, sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.

Ma'lum bir uslubga tegishli bo'lgan so'zlar **uslubiy xoslangan so'zlar** deb yuritiladi: *yanglig'* so'zi badiiy uslubga, *omonim, sinonim* so'zlari ilmiy uslubga, *balli, ketvorgan* kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga, *faollar yig'ilishi, siyosiy maydon* kabi so'z birikmalari ommabop uslubga xosdir. So'zlashuv uslubida ham, kitobiy uslubda ham ishlatilaveradigan so'zlar **uslubiy betaraf** so'zlar hisoblanadi: *suv, tog', bola, xat*. Bu so'zlar ko'chma ma'noda qo'llansa, ma'lum bir uslubga tegishli bo'lishi mumkin.

2-§. Nutq uslublari

1. So'zlashuv uslubi

Uyda, ko'chada, insonlarning o'zaro so'zlashuvida qo'llanadigan uslub **so'zlashuv** uslubi deb ataladi. Bu uslubning adabiy til me'yorlariga rioya qiladigan ko'rinishi **adabiy so'zlashuv uslubi** deb yuritilsa, bunday me'yorlarga rioya qilinmaydigan ko'rinishi **oddiy so'zlashuv uslubi** deb ataladi. So'zlashuv uslubidagi nutq ko'pincha dialogik shaklda bo'ladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning luqmasidan tuzilgan nutq **dialogik nutq** deyiladi.

Soʻzlashuv uslubida koʻpincha turli uslubiy boʻyoqli soʻzlar, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: ***Kep qoling! Obbo, hamma ishni doʻndiribsiz-da. Mazza qildik. Ketaqo-o-ol!***

Soʻzlashuv uslubida gapdagi soʻzlar tartibi ancha erkin boʻladi, piching, qochiriqlar, kinoyalar koʻplab ishlatiladi. Koʻproq sodda gaplar, toʻliqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

2. Ilmiy uslub

Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar **ilmiy uslubda** yoziladi. Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq maʼlumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, taʼriflar)ga boy boʻlishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi: *YOmgʻir - suyuq tomchi holiday atmosferaga yogʻini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm boʻladi.*

Ilmiy uslubda har bir fanning oʻziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda soʻzlar oʻz maʼnosida qoʻllanadi, qoida yoki taʼrifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan boʻlaklar, kirish soʻzlar, kirish birikmalar, shuningdek, qoʻshma gaplardan koʻproq foydalaniladi.

3. Rasmiy-idoraviy uslub

Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar **rasmiy-idoraviy uslubda** yoziladi. Ariza, tilxat, maʼlumotnoma, chaqiruv qogʻ ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, eʼlon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning asosiy belgisi: **jumlalarning bir qolipda, bir xil shaklda boʻlishi**. Bu uslubda ham soʻzlar oʻz maʼnosida qoʻllanadi, koʻpchilikka maʼlum boʻlgan ayrim qisqartma soʻzlar ishlatiladi, har bir sohaning oʻziga xos atamalaridan foydalaniladi, *qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi, yuklatilsin, tayinlansin* kabi soʻz va soʻz birikmalari koʻplab uchraydi. Rasmiy-idoraviy uslubda koʻpincha darak gaplardan, qaror, buyruq, koʻrsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap boʻlaklarining odatdagi tartibda boʻlishiga rioya qilinadi: *Oʻz lavozimini suiisteʼmol qilganligi uchun M.Ahmedovga hayfsan eʼlon qilinsin.*

4. Ommabop (publitsistik) uslub

Tashviqot-targʻibot ishlarni olib borishda qoʻllanadigan uslub, yaʼni matbuot uslubi **ommabop uslub** hisoblanadi. Soddalik, tushunarli boʻlish, taʼsirchanlik, adabiy til meʼyorlariga rioya qilish bu uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Ommabop uslubning radio, televideniya ishlatiladigan koʻrinishi **ogʻzaki ommabop uslub** deyilsa, gazeta, jurnallarda ishlatiladigan koʻrinishi **yozma ommabop uslub** hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy soʻzlar koʻp qoʻllanadi. Nutq taʼsirchan boʻlishi uchun taʼsirchan soʻz va birikmalardan, maqol va hikmatli soʻzlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap boʻlaklari odatdagi tartibda

bo'ladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi, darak, hishayajon va ritorik so'roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so'z va birikmalardan unumli foydalaniladi: 1. *Azamat paxtakorlarimiz mo'l hosil etishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti.* 2. *Partiya faollari o'zlarining navbatdagi majlisiga yig'ilishdi.*

5. Badiiy uslub

Voqelikni badiiy obrazlar (timsollar) vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik jihatdan ta'sir qiluvchi uslub **badiiy uslub** deb ataladi. Badiiy asarlar (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi: *O'lkamizda fasllar kelinchagi bo'lmish bahor o'z sepini yoymoqda.* Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so'zlari, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi.

Badiiy uslub **aralash uslub** hisoblanadi, chunki bu uslubda so'zlashuv va kitobiy uslublarga xos o'rinlar ham uchraydi.

3-§. Nutq madaniyati haqida

Nutq to'g'ri, aniq va yoqimli bo'lishi lozim. To'g'ri, aniq va yoqimli gapirish uchun mantiqiy izchillikka va adabiy me'yorlarga rioya qilish kerak.

Nutq madaniyati deganda mantiqiy izchillikka, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri, aniq va yoqimli so'zlash tushuniladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Uslubiyat nima va bu bo'limda nimalar o'rganiladi?
2. Adabiy til uslubining ta'rifini ayting.
3. So'zlashuv uslubi haqida gapiring.
4. So'zlashuv uslubida ko'proq qanday gaplardan foydalaniladi?
5. Ilmiy uslub haqida gapiring.
6. Ilmiy uslubda ko'proq qanday til vositalaridan foydalaniladi?
7. Rasmiy-idoraviy uslubda nimalar yoziladi?
8. Rasmiy-idoraviy uslubda qanday gaplardan foydalaniladi?
9. Ommabop uslub haqida gapiring.
10. Ommabop uslubda qanday gap va til vositalaridan foydalaniladi?
11. Badiiy uslubning xususiyatlari haqida gapiring.
12. Badiiy uslub nega aralash uslub deyiladi?
13. Nima uchun ma'nodoshlik uslubiyatning asosi deyiladi?
14. To'liq sinonimlar haqida gapiring.
15. Ma'noviy sinonimlar haqida so'zlang.
16. Uslubiy sinonimlar haqida gapiring.
17. Frazelogik sinonimlar haqida gapiring.
18. Grammatik sinonimlar haqida so'zlang.
19. Qanday me'yorlar adabiy tilning hamma ko'rinishlari uchun xos?
20. Qanday me'yorlar adabiy tilning hamma ko'rinishlari uchun xos emas?
21. Nutq madaniyati haqida so'zlang.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Til vositalarining nutqda ishlatilish imkoniyatlari tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

- A) leksikologiyada
C) uslubiyatda

- B) grammatikada
D) dialektologiyada

2. Badiiy asar tilini qaysi fan tekshiradi?

- A) adabiyotshunoslik B) qiyosiy tilshunoslik
C) adabiy tanqidchilik D) tilshunoslik

3. Kishilik olmoshining 1-,2-shaxs ko‘pligi nutqda 1-,2-shaxs birligi o‘rnida qo‘llanganda qanday ma’no ifodalanadi?

- A) olmoshlarga xos bo‘lgan umumiy ma’no ifodalanadi B) uslubiy ma’no ifodalanadi
C) grammatik ma’no ifodalanadi D) leksik ma’no ifodalanadi

4. Uslubiy bo‘yoq, ta’sirchanlik mavjud bo‘lgan so‘zlarni aniqlang.

- A) qizgina, qizcha, onajon B) kitobcha, suv, gazetxon
C) bolagina, o‘quvchi, qushcha D) onajon, ko‘zim, bosh

5. Tilning uslubiy vositalari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

- A) sinonimlar, omonimlar B) polisemiya, metafora C) epitet, metonimiya, sinekdoxa D) barchasi to‘g‘ri.

6. Quyidagi sinonimik so‘zlarning qaysi biri so‘zlashuv uslubiga xos?

- A) qadrdon B) ahil C) totuv D) qalin

7. Quyidagi so‘zlarning qaysi biri faqat yozma nutqqa xos?

- A) ichmoq B) no‘sh etmoq C) ko‘tarmoq D) tortmoq

8. Quyidagi sinonimlardan rasmiy uslubga tegishli so‘zni belgilang?

- A) ketmoq B) tushmoq C) olinmoq D) ozod qilinmoq

9. So‘zlashuv uslubida qo‘llanadigan so‘zlar qatorini aniqlang.

- A) bashar, mozor, yaxshi, kasal B) ado etmoq, behuda, yopiq
C) rostdan, bo‘ldi, mayli D) voqea, barvasta, chiroyli

10. Quyidagi gaplardan ilmiy uslubga tegishlisini belgilang.

- A) Qani endi, barcha ham senga o‘xshasa. B) Mayin shamol daraxt yaproqlarini asta tortqilaydi. C) Mushfiq onaning hasratlari bir dunyo edi. D) Yonishning tashqi belgisi issiqlik va yorug‘lik chiqishidir.

11. Quyidagi sinonim so‘zlarning ko‘proq so‘zlashuv uslubiga tegishlisini belgilang.

- A) rohat B) huzur C) mazza D) lazzat

12. Quyidagi rang bildirgan so‘zlardan badiiy uslubga tegishlisini toping.

- A) ko‘k B) zangor C) moviy D) havo rang

13. Rasmiy uslubga xos xususiyatni belgilang.

- A) Ko‘p ma’noli so‘zlar ishlatiladi. B) Terminlar qo‘llanadi C) Ibora va jumlar ma’lum qolipda bo‘ladi D) shevaga xos so‘zlar faol qo‘llanadi

14. So‘zning o‘z ma’nosidan ko‘chishi qaysi uslubda uchraydi?

- A) rasmiy, ilmiy B) publitsistik, ilmiy
C) badiiy, so‘zlashuv D) rasmiy, publitsistik

15. Keltirilgan matnning uslubini toping. Ovijon, ovijon, boshginam og‘riydi-yo. (Qo‘shiqdan)

- A) so‘zlashuv B) rasmiy-idoraviy C) ilmiy D) publitsistik

16. Badiiy uslubga xos gapni aniqlang.

- A) Sen menga: “Ovqating undog‘, ovqating mundog‘” - degan gapni qilaverma. B) Stakanlarning ikkovida ham rangli eritma bor. C) Ma’lumotnoma tuman hokimiyatiga ko‘rsatilsin.

- D) Butun osmonni bulutlarning og‘ir, qalin, qoramtir namati qoplagan.

17. Quyidagi so‘zlarning qaysi biri faqat badiiy uslubga xos?

- A) kabi B) yanglig‘ C) misoli D) singari

18. Obrazlar, obrazli tasvirlar bilan emas, aniq ma’lumotlarning xolis, umumlashgan xususiyatlarini ta’rif-lash, tushunchalarga mos keladigan atamalar bilan ish ko‘radigan uslubdir. Ushbu ta’rif qaysi uslubga mos keladi?

- A) badiiy B) ilmiy C) rasmiy-idoraviy D) publitsistik

19. Ilmiy uslubga xos asosiy belgilardan biri noto‘g‘ri bayon qilingan qatorni belgilang.

A) undalmali gaplar, his-hayajonli gaplar deyarli qo'llanmaydi B) tilning tasviriy-ta'siriy vositalari ishlatilmaydi C) Shartli belgilar qo'llanmaydi. D) matn monologik nutq tarzida bo'lib, dialoglar bo'lmaydi

20. Rasmiy uslubda ko'pincha qanday gaplardan foydalaniladi?

A) faqat darak gaplardan B) asosan buyruq gaplardan C) asosan buyruq va his-hayajon gaplardan D) asosan darak va buyruq gaplardan

21. Ayni kuz vaqti. Mayin shabada esadi. Yaproqlar oltin rangda. Dala va bog'larda ish qizg'in. Dehqon bog'da anor ko'myapti. U kuchli qadoq qo'llari bilan anorning tikanli tanasini, hurpaygan novdalarini bog'layapti. Anor tupini poxolga o'rab, tuproq bilan ko'myapti. Yuqoridagi badiiy tasvirdan asosiy fikr ifodalangan gapni toping.

A) U kuchli qadoq qo'llari bilan anorning tikanli tanasini, hurpaygan novdalarini bog'layapti B) Dala va bog'larda ish qizg'in C) Dehqon bog'da anor ko'myapti. D) Ayni kuz vaqti. Mayin shabada esadi. Yaproqlar oltin rangda.

22. Quyidagi matn qaysi uslubga xos?

17-modda. Fuqarolarning huquq layoqati. Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlarga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi.

Fuqaroning huquq layoqati tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

A) badiiy B) ilmiy C) rasmiy D) publitsistik

23. Quyidagi matn qaysi uslub namunasi hisoblanadi?

Yomg'ir - suyuq tomchi holiday atmosfera yog'ini. Tomchining diametri 0,50,6 mm bo'ladi. Yomg'ir bulutdagi mayda suv zarralarining qo'shib yiriklashuvidan hosil bo'ladi. yomg'ir ikki xildir: jala yomg'ir, shivalama yomg'ir. Shivalama yomg'irning yog'ish miqdori intensivligi soatiga 0,25 mm gacha, jala yomg'irniki esa 100 mm gacha bo'lishi mumkin.

A) rasmiy uslub B) ommabop uslub
C) publitsistik uslub D) ilmiy uslub.

24. Qaysi uslub turida tilning tasviriy-ta'siriy vositalari yordami bilan obrazlar vositasida kishiga estetik ta'sir ko'rsatiladi?

A) publitsistik uslubda B) badiiy uslubda
C) ilmiy uslubda D) rasmiy uslubda

25. Asosan qanday uslubda so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanmaydi?

A) ilmiy uslubda B) rasmiy ish uslubida
C) so'zlashuv uslubida D) A, B.

26. Jonli so'zlashuv nutqida o'zlari olmoshi kishilik olmoshlarining qay biri o'rnida qo'llanishi mumkin?

A) 2- va 3-shaxs o'rnida B) 2-shaxs ko'plik o'rnida
C) 2-shaxs birlik o'rnida D) 1-shaxs birlik o'rnida

27. Asosan badiiy uslubga xos bo'lgan izn (izn bermoq) so'zining sinonimini toping.

A) ixtiyor B) ijozat C) erk D) nishona

28. Qisqalik, aniqlik, soddalik, shuningdek, ibora va jumalarning bir qolipda bo'lishi asosan qaysi uslubga xos?

A) so'zlashuv uslubiga B) ilmiy uslubga
C) ommabop uslubga D) badiiy uslubga

29. "O'rtoq rafiqam! Ruxsat bersangiz turmush qurganimizga bir yil to'lishi munosabati bilan sizni tabrik qilishga!" Ushbu gap qaysi uslubga misol bo'la oladi?

A) rasmiy B) ilmiy C) ommabop D) badiiy

30. Borolmadim: ishim chiqib qoldi. Erta boraman gaplari qaysi uslubga xos?

A) badiiy B) so'zlashuv C) rasmiy D) ilmiy

31. Ushbu matn qaysi uslubga tegishli? Bodom fevral oyida gullaydi. Qayrag'och - qurilish materiali, shuningdek, mebel korxonalarini uchun qimmatli xom ashyo.

A) ilmiy B) badiiy C) so'zlashuv D) publitsistik

32. Quyidagi matn qaysi uslubga tegishli? Jo‘yaklarda suv bir hovuch ko‘z yoshiday miltirab oqib turibdi. Quyosh qaymoq surtilgan shirmon nondek ufqga qizarib bota boshladi.

A) rasmiy B) publitsistik C) badiiy D) so‘zlashuv

33. “Biz ushbu dalolatnomani tuzuvchilar...”, “Arizani yozishdan maqsadim shuki...” kabi birikmalar qaysi uslubda ishlatiladi?

A) badiiy B) rasmiy C) ilmiy D) publitsistik

34. Hurmat ayla oq sut bergan onangni gapi qaysi uslubga xos?

A) ilmiy B) so‘zlashuv C) badiiy D) publitsistik

35. Quyidagi sinonimik qatorlardan oddiy so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarni toping. 1) yolg‘onchi, kazzob, aldamchi; 2) to‘zim, bardosh, matonat, chidam; 3) tanovul qilmoq, oshamoq, emoq; 4) achchiq, jahl, qahr.

A) aldamchi, to‘zim, oshamoq, achchiq B) kazzob, to‘zim, oshamoq, achchiq C) yolg‘onchi, bardosh, emoq, jahl D) yolg‘onchi, chidam, oshamoq, achchiq

36. Odatda rasmiy uslubda qanday gaplardan foydalanilmaydi?

A) so‘roq va buyruq gaplardan B) his-hayajon gaplardan

C) buyruq gaplardan D) darak gaplardan

USLUBIYAT TURLARI

1-§. Yozma va og‘zaki nutq me‘yorlari haqida

Lug‘aviy, grammatik, uslubiy me‘yorlar adabiy tilning h a m m a ko‘rinishlari uchun xarakterli, imlo va tinish belgilarga oid me‘yorlar adabiy tilning faqat y o z m a shakli uchun, to‘g‘ri talaffuz me‘yorlari esa faqat o g‘z a k i nutq shakli uchun xosdir.

2-§. Leksik uslubiyat

1. Omonimlarning uslubiy xususiyatlari. Nutqda omonimlardan foydalangan holda turli so‘z o‘yinlari hosil qilinadi: *Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, YAxshilik qil, bolam, yomonlikni ot, Nasihatim yod qilib ol, farzandim, YOLg‘iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.* Bu o‘rinda *ot* omonim so‘zlari turlicha ma‘nolarni ifodalayapti. Omonim so‘zlardan foydalangan holda so‘z o‘yinlarini yaratish **tajnis (jinos)** san‘ati deyiladi. Badiiy adabiyotda shu badiiy san‘at qo‘llanib yaratilgan to‘rt qator she‘r esa **tuyuq** deb ataladi.

2. Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari. Sinonimlarni qo‘llashda hissiy-ta‘siriy bo‘yoq mavjudligi jihatidan farqlanadi: *yuz, aft, bashara, bet, chehra, jamol, ruxsor, diydor* sinonimik qatoridagi *yuz* so‘zi ma‘nosi betaraf so‘z bo‘lsa, *bet, aft* so‘zlari salbiy bo‘yoqqa ega, *bashara* so‘zida esa salbiy bo‘yoq yanada kuchli, *turq* so‘zida *bashara* so‘ziga nisbatan ham kuchliroqdir; *chehra* ijobiy bo‘yoqqa ega, *jamol* so‘zida bu bo‘yoq yanada kuchli. SHuningdek, sinonimlarning ishlatilish doirasi chegaralangan yoki chegaralanmagan bo‘lishi mumkin: *keksa, qari, oqsoqol, nuroniy, mo‘ysafid* sinonimik qatoridagi *qari* so‘zining ishlatilish doirasi keng, qolganlariniki esa chegaralangan. Sinonimlarni o‘rinsiz ishlatish oqibatida turli uslubiy xatolar kelib chiqadi: *Buldozer ko‘chamizda yiqilay deb turgan devorlarni bir chekkaga surib yo‘l ochar edi* gapida *yiqilay* so‘zi noo‘rin

qo‘llangan, chunki bu so‘z odamlarga nisbatan ishlatiladi; bu gapda devorga nisbatan *qulamoq* so‘zi ishlatilishi kerak edi.

3. Antonimlarning uslubiy xususiyatlari. Antonimlardan to‘g‘ri foydalana olmaslik ham uslubiy xatoliklarni keltirib chiqaradi: *CHoyxona mudiri YUsuffjon Nozimov turmushning issiq-chuchugini totigan kishiga o‘xshaydi.* Bu gapdagi *issiq-chuchugini* juftligi o‘rnida *achchiq-chuchugini* juftligi ishlatilishi kerak edi. Antonimlardan foydalangan holda yaratiladigan badiiy san‘at **tazod (antiteza)** deb ataladi.

4. Paronimlarning uslubiy xususiyatlari. Paronimlarni to‘g‘ri qo‘llamaslik natijasida ham xatoliklar kelib chiqadi: *CHanoqlardagi lo‘ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi.* Bu gapdagi *toblanadi* so‘zi o‘rnida *tovlanadi* so‘zi ishlatilishi kerak edi.

5. Turli sabablarga ko‘ra qo‘llanishi chegaralangan so‘zlarning uslubiy xususiyatlari. Bunday so‘zlarga eskirgan va yangi so‘zlar, sheva, kasb-hunarga oid so‘zlar, atamalar, jargonlar kiradi. Nutqda bu kabi so‘zlar ham muhim uslubiy vazifalar bajaradi. Arxaizmlardan badiiy yoki ommabop asarlarda nutqqa kinoya, hajv ruhini kiritish uchun foydalanilsa, tarixiy so‘zlardan o‘tmish voqeligini ifodalash maqsadida foydalaniladi. Sheva so‘zlari mahalliy ruhni ifodalashda ishlatilsa, atamalar ilmiy va badiiy asarlarda fan-texnikaga oid tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi, jargonlar esa ma‘lum toifaga mansub kishilar nutqini berish uchun zarurdir.

Albatta, bu guruh so‘zlardan foydalanganda, chegaradan chiqmaslik lozim, aks holda nutqda g‘alizlik paydo bo‘ladi:

1. *Terilgan paxtani tashib turish uchun ko‘tarimchi ajratildi.*

2. *Buning ustiga tokarlik stanogining reztsoderjateli o‘rniga maxsus moslama tayyorlanib unga grebenlarni tozalovchi frez o‘rnatildi.* Birinchi gapda *ko‘tarimchi* degan o‘rinsiz yasalgan yangi so‘z ishlatilgan bo‘lsa, ikkinchi gapda atamalar me‘yordan ortiq ishlatilgan.

Nutqda ibora, tasviriy ifoda va maqollar ham ma‘lum uslubiy vazifa bajaradi. Iboralardagi omonimlik, sinonimlik, antonimlik xususiyatlari, tasviriy ifodalardagi balandparvoqlik, maqollardagi mazmuniy ixchamlik katta uslubiy imkoniyatlar yaratadi: *Bir yoqadan bosh chiqarmoq* iborasi badiiy nutqqa mansub bo‘lsa, *bir jon, bir tan bo‘lmoq* iborasi umumnutqqa xosdir. YOzuvchi va shoirlarimiz ham ibora va maqollar ijod qilishadi: *O‘likning yog‘ini, tirikning tirnog‘ini eydi bu.* (Abdulla Qahhor) *O‘qsiz soldat – qilichsiz qin.* (Oybek)

6. Mubolag‘a (yoki **giperbola**) uslubiy vosita bo‘lib, ifodalangan tushunchaning ko‘pirtirib, orttirilib tasvirlanishidir. Mubolag‘a xalq dostonlarida, ertaklarda, aytishuv va loflarda faol ishlatiladi: *To‘qson molning terisidan kavushi...* (“Alpomish” dostonidan)

7. Sifatlash (yoki **epitet**) narsa, shaxs, hodisalarning belgisini ifodalash vositasidir. Bu vazifada tilimizdagi belgi bildiruvchi so‘z turkumlari (asosan, sifatlar) qo‘llanadi: **Zolim** jallod, bilmaganim bildirgin... (“Kuntug‘ mish” dostonidan)

3-§. Fonetik uslubiyat

1. Nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari

1) *asir, devon* kabi soʻzlardagi tovushlarning notoʻgʻ ri (*asr, divan* kabi) talaffuz qilinishi oqibatida nutqda tushunmovchilik yuzaga keladi.

2) *-da, -va, -qa (yoki -q)* kabi boʻgʻ inlardan keyin yana shunday tovushlar bilan boshlanadigan soʻzlarni keltirish nutqiy gʻ alizlikni keltirib chiqaradi: *Soʻzlarning gapda qoʻllanishi va vazifalari...*

2. Urgʻ uning uslubiy xususiyatlari

Soʻz urgʻ usining koʻchishi shu soʻz maʼnosini oʻzgartirishi mumkin: *yangʻ u kiyim*(sifat) - *yangi damlandi* (ravish). Gapda ohangning oʻzgarishi ham yangi uslubiy mazmun paydo boʻlishiga olib keladi: *Siz ahmoq odam emassiz* jumlasida **ahmoq** soʻzidan keyin toʻxtam (pauza) qilinsa, fikr qaratilgan shaxsning ham ahmoq, ham odam emasligi ifodalanishi mumkin: *Siz ahmoq, odam emassiz.*

GRAMMATIK USLUBIYAT. MORFOLOGIK USLUBIYAT

1-§. Ot turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

1. Kelishik qoʻshimchalarining uslubiy xususiyatlari.

Kelishik qoʻshimchalari oʻzaro almashib qoʻllanishi mumkin:

1) *-ni* va *-dan* qoʻshimchalari almashib qoʻllanishi mumkin: *Qani, oshdan (ni) oling, mehmon.*

2) *-ni* va *-ga* qoʻshimchalari almashib qoʻllanishi mumkin: *Gapingizga (gapingizni) tushunmadim.*

3) *-ni* va *-da* qoʻshimchalari almashib qoʻllanishi mumkin: *Dalani (da) aylandim.*

4) *-ning* va *-dan* qoʻshimchalari almashib qoʻllanishi mumkin: *kelganlarning biri – kelganlardan biri.*

5) kelishik qoʻshimchalari va koʻmakchilar almashib qoʻllanadi:

a) *-ga* qoʻshimchasi oʻrnida **uchun** koʻmakchisi qoʻllanadi: *Ukamga oldim – Ukam uchun oldim.*

b) *-da* qoʻshimchasi oʻrnida **bilan** koʻmakchisi qoʻllanadi: *Xatni qalamda yozdi – Xatni qalam bilan yozdi.*

v) *-dan* qoʻshimchasi oʻrnida **orqali** koʻmakchisi qoʻllanadi: *Xabarni radiodan eshitdik – Xabarni radio orqali eshitdik.*

g) *-ni* qoʻshimchasi oʻrnida **haqida** koʻmakchisi qoʻllanadi: *Akasi kelganini gapirdi – Akasi kelgani haqida gapirdi.*

2. Egalik qoʻshimchalarining uslubiy xususiyatlari.

1) otlarda qoʻllangan egalik qoʻshimchasi qaratqich kelishigi qoʻshimchasining mavjudligini, qaratqich kelishigi qoʻshimchasi esa egalik qoʻshimchasining mavjudligini koʻrsatib turadi: *maktab hovlisi, bizning maktab.*

2) egalik (qarashlilik ma'nosi) –*niki* qo'shimchasi yordamida ham ifodalanishi ham mumkin, faqat bu qo'shimcha shaxs-son ko'rsatmaydi: *Bizning maktab – maktab bizniki*.

3) qaratqichli birikmalarda shaxs almashib qo'llanishi ham mumkin: *Mening uyim shu erda – Kaminaning uyi shu erda*.

3. **Ot yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari.** Bu qo'shimchalar orasida o'zaro sinonim bo'lgan qo'shimchalar ham uchraydi: *adabiyotshunos – adabiyotchi, mehnatkash – mehnatchi*.

2-§. Sifat turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

1. Sifatlardagi qiyosiy darajani yasovchi –*roq* qo'shimchasi o'rnida –*mtir*, –*imtil*, –*ish* qo'shimchalari qo'llanishi mumkin: *ko'kroq – ko'kish, qoraroq – qoramtir*.

2. Sifat yasovchi qo'shimchalar orasida sinonimlik hodisasi ko'plab uchraydi: *aybdor – aybli, serg'ayrat – g'ayratli, chopqir – chopag'on, beg'ubor – g'uborsiz, bama'ni – ma'nili*.

3. Bu qo'shimchalar orasida antonimlik hodisasi ham uchraydi: *suvli – suvsiz*.

3-§. Olmosh turkumiga xos uslubiy xususiyatlar

1. *U, bu, shu* olmoshlari o'rnida *bir* so'zi (yoki *bir xil* so'zlari) qo'llanadi: *Bir (shunday) chamanki, atrofida bulbullar giryon. Bir xil (shunday) odamlar tushunmaydi*.

2. *Men* olmoshi o'rnida *kamina* so'zi, *siz* o'rnida *o'zlari* so'zi qo'llanadi: *Bu ishda kaminaning zarracha tajribasi yo'q. Siz va'da bergan edingiz – O'zlari va'da bergan edilar*.

3. Ilmiy ishlarda, rasmiy hujjatlarda, yig'ilishlarda *men* olmoshining o'rnida *biz* olmoshi ishlatiladi: *Bizning (mening) bu ilmiy ishimizda ko'rsatish olmoshlarining xususiyatlari haqida so'z yuritiladi*.

4. Hurmatni ifodalash uchun *sen* olmoshi o'rnida *siz* olmoshi ishlatiladi. *Siz bugun kelasizmi?* Aksincha hurmatsizlikni ifodalash uchun esa *sen* olmoshiga ko'plik qo'shimchasi qo'shiladi: *Senlar buni tushunmaysanlar*.

5. Ko'rsatish olmoshlari ta'kidlash, ajratish ma'nolarini ifodalaydi: *Kitob – bu dono maslahatchi*.

4-§. Fe'llarga xos uslubiy xususiyatlar

1. SHaxs-son qo'shimchalarining sinonimiyasi:

1) fe'lning 2-shaxs birlik qo'shimchasi o'rnida 2-shaxs ko'plik qo'shimchasi qo'llanadi: *Amaki, ertaga kelasizmi?*

2) fe'lning 1-shaxs birlik qo'shimchasi o'rnida 2-shaxs birlik qo'shimchasi ishlatiladi: *Tabiatning ishlariga hayron qolasan kishi*.

3) 2-shaxs ko'plik o'rnida 1-shaxs ko'plik qo'shimchasi qo'llanadi: *Bolalar, bugun diktant yozamiz*.

4) 2-shaxs ko'plik o'rnida 3-shaxs birlik qo'shimchasi ishlatiladi: *U norozi ohangda dedi: - SHunaqa ish bilan hazillashib bo'ladimi?*

2. Zamon qo'shimchalarining sinonimiyasi:

1) hozirgi zamon davom fe'li o'rnida hozirgi-kelasi zamon shakli qo'llanadi: *Butun qishloq ular haqida gaplashishadi (gaplashishyapti).*

2) kelasi zamon o'rnida hozirgi zamon shakli qo'llanadi: *Ertaga terimga tushyapmiz.*

3) hozirgi zamon o'rnida o'tgan zamon shakli keladi: *Qarasam, yugurib kelayotibdi.*

3. Mayl qo'shimchalari sinonimiyasi:

1) ijro maylidagi fe'l buyruq mayli o'rnida keladi: *Qani, ketdik, bolalar.*

2) ijro mayli shart mayli o'rnida keladi: *Kelaman dedingmi, kelish kerak.*

4. Nisbat qo'shimchalari sinonimiyasi:

1) birgalik nisbati qo'shimchasi ko'plik qo'shimchasiga sinonimdir: *Ular kelishdi – Ular keldilar.*

2) nisbat qo'shimchalari ichida o'zaro sinonimlikni hosil qiladiganlari ham bor: *-l, il, -n, -in, -sh, -ish; -t, -tir, -dir, -ir, -giz; -kiz, -kaz, -qiz, -qaz.*

5. Fe'l yasovchi qo'shimchalar sinonimiyasi:

1) ba'zi yasama fe'llar iboralarga sinonim bo'ladi: *gulladi – gulga kirdi.*

2) qo'shimcha yordamida yasalgan fe'llar qo'shma fe'llarga sinonim bo'ladi: *himoyaladi – himoya qildi.*

3) fe'l yasovchilar o'zaro sinonim bo'ladi: *sizlamoq – sizsiramog, suvsamog-suvsiramog.*

SINTAKTIK USLUBIYAT

1-§. Gap bo'laklarining uslubiy xususiyatlari

1) **sifatlovchi aniqlovchilar** ot bilan ifodalansa, majoziy ma'no ifodalaydigan bo'lib qoladi: *Kumush choyshab yopib dalalar, qor qo'ynida uxlab yotadi. (Uyg'un)*

2) **sifatlovchi aniqlovchilar** turli so'z turkumlaridan tuzilib, sifatlash vazifasini bajaragan ibora va so'z birikmalari bilan ifodalanadi: *Osmon o'par tog'lar, bag' ri keng inson, cheki yo'q qirlar, fikri tiniq insonlar.*

3) **sifatlovchi-aniqlovchi** takroriy so'zlar bilan ifodalanganda ma'no kuchayishi yuz beradi: *Baland-baland binolar tez uchray boshladi.*

4) **izohlovchi** ham uslubiy vazifa bajaradi. Ma'lumki, izohlovchi laqab, qarindoshlik, o'xshatish kabi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda ma'lum shaxsga nisbatan munosabat seziladi, ya'ni uslubiy ma'no yuzaga keladi: *Mamajon quruq, Ali tajang, Soli sovuq* va h. O'xshashlik ma'nosidagi izohlovchi jumлага ko'tarinkilik(pafos) xususiyatini kiritadi: *ona-Vatan, gulchalar-qizchalar.*

5) **ajratilgan bo'laklar** jumla tarkibidagi ayrim bo'laklarga urg'u berish, ularni alohida ajratib ko'rsatish, shaxs va narsa haqida qo'shimcha ma'lumot berish, belgi-xususitlarni ta'kidlash kabi vazifalarni bajaradi: *Biz, yoshlar, ota-bobolarimiz merosini ko'z qorachig'iday asrashimiz lozim.*

6) undalmalar ham turli uslubiy vazifalarni bajaradi. Ular gap boshida va o'rtasida kelsa, chaqiriq va murojaatni ifodalaydi: *Uka, mening yo'qligimni bilintirma.* Gap oxirida kelgan undalma tinglovchiga nisbatan hurmat, muhabbatni ifodalaydi: *Tuproq'ingni zar bilarman, ona-Vatanim!* Bulardan tashqari undalmalar iltimosni, so'zlovchining his-tuyg'usini, kuchli ehtirosini, ko'tarinki holatni, piching va kinoyani ifodalash uchun ham xizmat qiladi.

7) **kirish so'z** va **kirish birikmalar** so'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini bildiradi. Bu munosabat sifat, son, olmosh, fe'l va modal so'zlar yordamida ifodalanib, gumon, tasdiq, inkor, fikr tartibi, fikr izohi, e'tiborni tortish, xulosa, ikki fikrni o'zaro bog'lash kabi ma'nolarni aks ettiradi: *U bugun kelmaydi, shekilli.*

2-§. Ayrim gap turlari o'rtasidagi sinonimiya

1) ayni bir fikr gapning har xil turlari bilan ifodalanadi:

a) sodda gap bilan: *Har kim ekanini o'radi.* b) qo'shma gap bilan: *Kim nimani eksa, shuni o'radi.*

2) bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar o'zaro sinonim bo'ladi: *Bugun ketamiz – Biz bugun ketamiz.*

3) darak va so'roq gap sinonim bo'ladi: *Vatanni kim sevmaydi – Vatanni hamma sevadi.*

3-§. Qo'shma gaplarning uslubiy xususiyatlari

1) bog'langan qo'shma gaplar tarkibida biriktiruv va zidlov bog'lovchilari o'rnida *-u, -yu, -da* yuklamalari sinonim holatda qo'llanishi mumkin: *Havo bulutlashdi va yomg'ir yog'a boshladi. Havo bulutlashdi-yu, yomg'ir yog'a boshladi.*

2) ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar sodda gaplarga sinonim bo'ladi: *Shunisi aniqki, biz bugun yo'lga chiqa olmaymiz - Bizning bugun yo'lga chiqa olmasligimiz aniq.*

3) sabab, maqsad, o'xshatish ergash gaplarning kesimlari sifatdosh, harakat nomi, ot bilan ifodalansa, sodda gaplarga sinonim bo'ladi: *Tog' etagi juda go'zal edi, go'yo chiroyli gilam to'shalganday – CHiroyli gilam to'shalganday tog' etagi juda go'zal edi.*

4) payt, sabab, shart, to'siqsiz, natija, ravish ergash gaplarni o'z doirasida sinonimlari bilan almashtirish mumkin:

U kelsa (kelgan paytda, kelar ekan), hamma ketib bo'libdi.

5) bog'lovchisiz qo'shma gaplar bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarga sinonim bo'ladi: *Qor yog'di – don yog'di (Qor yog'sa, don yog'adi. Qor yog'di-yu, don yog'di).*

4-§. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari

Birovlarning hech o'zgarishsiz berilgan gapi (ko'chirma gap) o'zgalarning mazmuni saqlanib, shakli o'zgartirilgan holda berilgan gapi (o'zga gap) bilan

sinonimik holatda bo‘ladi: *O‘qituvchimiz dedi: “Topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarang” – O‘qituvchimiz topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish lozimligi haqida gapirdi.*

Ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda quyidagi o‘zgarishlar yuz beradi:

1. Ko‘chirma gap birikmali to‘ldiruvchiga aylanadi: *“Hamma yig‘ildi”, - dedi navbatchi. Navbatchi hammaning yig‘ilganini aytdi.*
2. Ko‘chirma gap tarkibidagi undalma vositali to‘ldiruvchiga aylanadi: *“Rasulbek, biz bilan yuring”, - deb taklif qildi do‘sti. Rasulbekka do‘sti o‘zlari bilan yurishni taklif qildi.*
3. Ko‘chirma gap tarkibida kirish so‘z vazifasida kelgan undovlar, taqlid so‘zlar tushiriladi: *“Voy, qo‘rqib ketyapman”, - dedi xotini. Xotini qo‘rqib ketayotganini aytdi.*

Takrorlash uchun savollar:

- | | |
|--|--|
| 1. Omonimlarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. | 11. Sifatning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. |
| 2. Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. | 12. Olmoshning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. |
| 3. Antonimlarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. | 13. SHaxs-son qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. |
| 4. Paronimlarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. | 14. Mayl qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. |
| 5. Turli sabablarga ko‘ra qo‘llanishi chegaralangan so‘zlarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. | 15. Nisbat qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. |
| 6. Nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. | 16. Fe‘l yasovchi qo‘shimchalarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. |
| 7. Urjuning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. | 17. Gap bo‘laklarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. |
| 8. Kelishik qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. | 18. Ayrim gap bo‘laklari o‘rtasidagi sinonimiya haqida gapiring. |
| 9. Egallik qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. | 19. Qo‘shma gaplarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. |
| 10. Ot yasovchi qo‘shimchalarning uslubiy xususiyatlari haqida gapiring. | |

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Qaysi gapda grammatik me‘yor buzilgan?

A) *Ko‘zining oq-u qorasi bo‘lgan Otabekning holi nima kechdi?* B) *To‘lqinning xayolini yana qo‘shnining qizi bo‘ldi.* C) *Umrini tog‘larda o‘tkazgan odamning tabiat tilini bilmaydi deyish qiyin.* D) *Institutga yaqinroq bog‘lardan birontasiga borib dars tayyorlamoqchi bo‘ldi.*

2. Qanday so‘zlar uslubiy betaraf so‘zlar hisoblanadi?

A) *shevaga xos so‘zlar* B) *ma‘lum uslublargagina xos so‘zlar* C) *faqat so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlar* D) *barcha uslublarda ishlatiladigan so‘zlar.*

3. Adabiy tilning faqat yozma shakli uchun xos bo‘lgan me‘yorlar qaysi qatordagi javobda ifodalangan?

A) *lug‘aviy va grammatik me‘yor* B) *orfografik me‘yor*
C) *punktuatsion me‘yor* D) *B, C.*

4. Qaysi me‘yorlar adabiy tilning hamma shakli uchun xos?

A) *to‘g‘ri talaffuz me‘yorlari* B) *lug‘aviy, grammatik me‘yorlar.* C) *lug‘aviy, grammatik, uslubiy me‘yorlar* D) *imlo va tinish belgilariga oid me‘yorlar*

5. Tilning uslubiy vositalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) sinonimlar, omonimlar B) polisemiya, metafora C) epitet, metonimiya, sinekdoxa D) barchasi to'g'ri.

6. Fikr hissiy-ta'siriy bo'yoq bilan ifodalangan qatorni aniqlang.

A) Bu o'ylardan Sayyoraning boshi g'ovlab ketdi. B) Ultarmalik Asrorqul Haydar otaning qadrdon oshnasi bo'ladi. C) Bolalar behad quvonib, Yo'lchining bo'yniga osilishdi D) Men sizga aytsam, odamning yomoni bo'lmaydi.

7. Qaysi qatordagi gap uslubiy jihatdan xato qo'llangan?

A) Hazm bo'lmagan taom uni egan odamning o'zini eydi
B) E, Ruzvon buvi, buyam sizga o'xshash yotig'i bilan gapirsa ekan. C) Har narsaning ozi shirin bo'lganidek, gurunchlik ovqatlarni iste'mol qilishni ham me'yoridan oshirmang.
D) Navro'z bayrami tantanalari televidenie orqali namoyish qilindi.

8. Bir sinonimik qatorga mansub quyidagi so'zlarning ijobiy ma'noga egasini belgilang.

A) bet B) aft C) bashara D) chehra

9. Ushbu gaplardan qay birida so'z qo'llashda uslubiy xatolik mavjud?

A) Chiroyli ashulalar eshitib dam oldik. B) Zumradning oqilaligi, zukkoligi va suluvligiga katta-kichik maftun bo'ldi.

C) Bu o'rinda sukut saqlash insofdan emas D) Anvar uydan chiqib, to'g'ri saroy tomonga ketdi.

10. Usluban noto'g'ri qo'llangan so'z qaysi qatorda berilgan?

A) paxta gulladi B) shohona kiyim
C) salohiyatli olim D) bahorni sevasan

11. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A) Ahmad Husayn raso ochiqqan ekan. B) Yomon yo'ldosh yov bo'lur, rovon yo'lda g'ov bo'lur.
C) Paxta terimi tez suratlar bilan bormoqda. D) Berilgan gaplarning barchasida so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud.

12. Uslubiy jihatdan betaraf so'zlar qatorini belgilang.

A) ajoyib, ajib, dushvor, udum B) iltijo, chehra, zurriyod, hozirlamoq C) aytmog, odat, odam, yorug' D) mushkul, bashara, sohib, xasta

13. Boringlar va borlaring so'zlari o'rtasida qanday uslubiy farq bor?

A) uslubiy farq yo'q B) birinchisi kitobiy uslubga xos C) birinchisi hurmatni, ikkinchisi sof ko'plikni bildiradi D) birinchisi mo'tadil (neytral) so'z, ikkinchisi salbiy bo'yoqqa ega.

14. Quyidagi gaplarning qaysi birida ko'plik qo'shimchasi ortiqcha?

A) Bizning gilmoyalar Rossiya gilmoyalaridan tarkib jihatidan farq qiladilar. B) Tantanaga o'zlari ham tashrif buyuribdilar-da. C) Dam olish kunlari dadamlar bizni sirkka yoki hayvonot bog'iga olib boradilar. D) Olimlarimiz paxtaning tezpishar va kasallikka chidamli navlarini yaratish ustida ish olib bormoqdalar.

15. Quyidagi gaplarning qaysi birida so'z qo'llash bilan bog'liq nuqson bor?

A) Dasht havosi musaffo, engil shabada kishiga orom beradi. B) U shahar tashqarisida bahaybatli dala hovli ham qurgan ekan. C) Qoratepa guzari dam olish kunlari juda gavjum edi.
D) Cho'l qovunlari pishay-pishay deb turibdi.

16. Qaysi qatordagi gap uslubiy jihatdan xato qo'llangan?

A) Do'stlikni ardoqlash kerak. B) Bolalik uy bozor, bolasiz uy mozor. C) Eshik ochiq bo'lsa ham, so'rab kir. D) Yoqimli shamol esa boshladi.

17. Quyidagi gapda yo'l qo'yilgan uslubiy xatoning qaysi nisbatga aloqadorligini belgilang.

Bu maqolada Turkiston xalqlarining birligi aniq misollar bilan asoslanib berilgan.

A) Aniqlik nisbat bilan o'zlik nisbatiga B) o'zlik nisbati bilan birgalik nisbatiga C) Aniqlik nisbat bilan majhul nisbatga D) majhul nisbat bilan o'zlik nisbatiga

18. Gaplarning qay birida uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan?

A) Tilingni asra, boshing ketmasin. B) Sening Toshkentda o'qishing kerak. C) Bu dunyoning ishlari qiziq: goh quvonasan, goh xafa bo'lasan. D) Til – madaniyatimiz ko'zgusi.

19. Qaratqich o'rnida tushum kelishigi qo'shimchasi noto'g'ri qo'llangan gapni aniqlang.

A) Paxtani viltga chidamli xillarini yaratish ustida tajriba olib borayotgan olimlarni ko'rdik. B) Yaxshini maqtasang yarashur, yomonni maqtagan adashur. C) Ongni eskirgan, g'arazli maqsadlardan tozalash zarur. D) Otdan tushib, jilovini Ortiqqa berdi-yu, o'zi direktorni molxonalar tomonga boshlab ketdi.

20. Quyidagi gaplarning qay birida qo'shimcha qo'llashda xatolik mavjud?

A) Ibrohimning gunohini hammamizning gardanimizga yuklama. B) Men sizga aytsam, odamning yomoni bo'lmaydi. C) Ibn Sinoga kasalning joni chiqmagan bo'lsa bas, uni tuzatar edi. D) Radio karnayi orqali chaqirilib, bir necha yoshlar imtihon zaliga kirib ketishdi.

21. Qaysi qatordagi gapda o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini ko'makchi bilan almashtirish mumkin emas?

A) Qishdan ming mashaqqatda chiqib olishdi. B) Xatni qizil siyohda yozgan edi. C) Kecha poezdda kelibdi. D) Xalq maqollarida chuqur zukkolik bor.

22. Qaysi gapda ko'plik qo'shimchasi ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan?

A) Sodatning qo'llari chaqqon harakat qilar edi. B) Tumanli kunlarda muzlar erib, suvlar oqa boshladi. C) Yo'q, akamdan naq balolarga qolaman. D) Ot turkumidagi so'zlar birlik va ko'plik sonda qo'llanadi.

23. Qaysi qatordagi gapda o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini ko'makchiga almashtirish mumkin?

A) Yurakda jaranglar kuyi, ohangi. B) Biz paxtakormiz, suyagimiz mehnatda qotgan. C) Hali butun qishloq vazmin uyquda. D) Mayning to'qqizida gilos pishdi.

24. Qaysi gapga quyilmog fe'li uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan?

A) Bir kunda ikki ming dona g'isht quyildi. B) Bulutlar tobora quyilib, qorayib borardi. C) Simyog'ochlardagi chiroqlar nuri erga sutday quyilib turardi. D) Sirdaryo Orol dengiziga quyiladi.

25. Gapning davomini mantiqiy jihatdan eng muvofiq tarzda tugallaydigan qatorni toping? Pul topishning turli yo'llariga kirish bilan...

A) teatrning shuhratini darrov tiklab bo'lmaydi. B) teatrning shuhratini ertaga tiklab bo'lmaydi. C) teatrning shuhratini tezda tiklab bo'lmaydi. D) teatrning shuhratini aslo tiklab bo'lmaydi.

26. Qaysi gapda qaratqich-aniqlovchi belgisi qo'llanishi kerak?

A) Jarang-jurung qadah ovozlari yangradi. B) Eski uyimiz yonida uch xonali yangi uy qurib oldik. C) Maktab binosi oldida to'xtadik. D) Keksalar oppoq soqollari namlangan edi.

27. Quyidagi gaplarning qaysi birida mantiqiy nomuvofiqlik bor?

A) Bemorga uch mahal dori berib turdim. B) Dasht o'rtasida bir tog' cho'qqisi ko'rindi. C) Bir burda non bir-birisiz tomog'idan o'tmasdi. D) Bir og'iz gapim bor, shuni aytmoqchi edim.

28. U sofdilligi, ko'ngilchanligi tufayli beixtiyor bu nokasga barini aytdi. Shuni aytadilarida ... deb. Nuqtalar o'rniga quyidagi maqollardan qaysi birini qo'yish mumkin?

1) rostga zavol yo'q; 2) dilda bo'lsa, tilga kelar; 3) dili pokning ishi pok; 4) dili bo'shning tili bo'sh 5) betga aytganning zahri yo'q; 6) o'zi to'g'rining so'zi to'g'ri.

A) 4,6 B) 4 C) 1,2,3,4,6 D) 2,3,5,6

29. Quyidagi birikuvlardan qaysi biri noto'g'ri?

1) kamchilikka erishmoq; 2) muvaffaqiyatsizlikka erishmoq;

3) mutlaqo to'g'ri; 4) shirin xotira.

A) 1,2,3 B) 2,3,4 C) 1 D) 1,2

30. Qaysi qatordagi gap uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan?

A) Hovlimizda olma va pomidorlar g'arq pishdi. B) Lo'ppi-lo'ppi ko'saklar ko'zga ochiq tashlanadi. C) Katta ko'chadan tinimsiz odamlar oqimi o'tardi. D) A, B, C.

31. So'z va gaplarning uslubiy bo'yog'ini ochish uchun qo'llanadigan sintaktik va boshqa vositalar berilgan qatorni ko'rsating.

A) qo'shma gaplar, so'z birikmalari, ko'chirma gaplar B) xalq maqollari, matallar, iboralar C) ritorik gaplar, izohlovchilar, sifatlashlar. D) A, B, C

32. Lo'ppi-lo'ppi ko'saklar ochiq ko'zga tashlanadi. Ushbu gap uslubiy jihatdan adabiy me'yorga javob beradimi?

A) Gapda soʻz tartibi bilan bogʻliq xato bor. B) Gapda soʻz qoʻllash bilan bogʻliq xato bor C) Gapda qoʻshimcha qoʻllash bilan bogʻliq xato bor. D) Berilgan gapda adabiy meʼyor buzilmagan

33. Uyushiq boʻlaklar qatori xato tuzilgan gaplarni aniqlang.

A) Undan sal nordon va shirin hid kelardi. B) Isteʼdodli adib koʻp asarlar va dramalar yozdi. C) Gullagan vodiy va kishnagan toying goʻzal. D) A,B,C

34. Qaratqich oʻrnida sifatlovchi aniqlovchi qoʻllangan qatorni toping.

A) Onalar poyiga tiz choʻk oʻshal on B) Bahordagi sarin ellar yosh qalblarda chuqur iz qoldiradi. C) Kishiga barcha narsani hayot oʻrgatadi. D) Koʻngilni ochish uchun tez-tez lola sayliga chiqib turish lozim.

35. Tovushlar va qoʻshimchalar, lugʻatning hamma qatlami nimada maʼlum bir maʼno ifodalaydi?

A) soʻz birikmasida B) jumlada C) matnda D) A, B.

36. Soʻz va grammatik shaklning gap ichida ravshanlashadigan tomonlarini aniqlang.

A) maʼnosi B) A,C. C) ijtimoiy qimmatini D) aloqasi

ISHORAT QOIDALARI (PUNKTUATSIYA)

Tinish belgilari va ularning yozma nutqda qoʻllanishini oʻrganadigan boʻlim **puntuatsiya** deb yuritiladi.

1-§. Nuqta

Nuqta quyidagi oʻrinlarda qoʻyiladi:

1. Tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq va undov (his-hayajon) gaplardan keyin: *Oltin kuz fasli kirib keldi. Darslarni oʻz vaqtida tayyorlab yuring. Koshki uning kuchi etsa.*

2. Birinchi qismida nuqta, koʻp nuqta, undov yoki soʻroq belgisi boʻlgan koʻchirma gap oʻrtasida kelgan muallif gapidan soʻng: *"Men hozir joʻnayman, - dedi u. – Siz esa yarim soatlardan keyin yoʻlga chiqing".*

3. Qisqartirilgan ism va familiyalarning birinchi harfi yoki qismidan keyin: *M.Ism. (Mirzakalon Ismoilij)*

4. Sanash yoki ayrim fikrning qismlarini ifodalagan va oy, kun, yillarni bir-biridan ajratish uchun qoʻllangan raqam yoki harflardan keyin: *27.09.2007 kabi.*

<p>D i q q a t ! Qavsga olingan manbadan oldingi gap oxiridagi tinish belgilari oʻz oʻrnida saqlanadi va qavsdan keyin hech qanday tinish belgisi qoʻyilmaydi: <i>Ketdi. (A.Q.)</i> Shuningdek, sarlavhalardan keyin (darak gap boʻlsa) nuqta qoʻyilmaydi.</p>

2-§. Soʻroq belgisi

1. Soʻroq belgisi soʻroq gaplardan keyin qoʻyiladi: *Ishga tayyormisiz?*

2. Soʻroq gaplar bittadan ortiq boʻlib kelishi mumkin: Bunday paytlarda soʻroq belgisi quyidagicha qoʻyiladi:

1) so‘roq gaplarning har biriga ahamiyat berish lozim topilsa yoki har qaysi so‘roq gap mazmuniga ko‘ra mustaqil bo‘lsa, har biridan so‘ng so‘roq belgisi qo‘yiladi: *Qishloqlar qanday? Og‘aynilar yaxshi yurishibdimi?*

2) agar so‘roq gaplar mazmunan umumiy bir fikrni ifodalasa, so‘roq belgisi eng so‘nggi so‘roq gapdan keyin qo‘yiladi: - *Tag‘in mehmon boshlab keldingmi? Kim kelyapti: Savrimi, Rahbarmi, yo akangning bolalarini etaklab kelyapsanmi? (G‘.G‘.)*

3. So‘z yoki ibora noaniq bo‘lsa, unda gumon ifodalansa, so‘roq belgisi qo‘yiladi: *Bu ishlarning hammasini yarim soat (?) ichida bir o‘zi bajardimikin?*

D i q q a t ! Ba‘zan qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplardan biri so‘roq gap shaklida, ikkinchisi esa uning izohi sifatida kelishi mumkin, bunday holatda ular orasiga vergul yoki tire qo‘yilishi mumkin: *U ertaga keladimi, kelmaydimi, bu men uchun qorong‘i.*

3-§. Undov belgisi

Undov belgisi quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Kuchli his-hayajonni ifodalagan gaplardan so‘ng: *YOshligimizda naqadar baxtiyor edik!*

2. Buyurish, tilak, orzu ma‘nolarini ifodalagan gaplardan so‘ng: *Hoziroq bularni ko‘zimdan yo‘qot! Qani endi qush kabi osmonda parvoz qilsa!*

3. Gap boshida kelib, kuchli his-hayajon ifodalagan undalmalardan, undov hamda **ha** va **yo‘q** so‘zlaridan so‘ng: *Yo‘q! Rustam bunday qabihlikka bormaydi hech qachon! Azizlar! Sizni mustaqillik bayrami bilan tabriklayman!*

4-§. Ko‘p nuqta

Ko‘p nuqta quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Fikrning tugallanmaganligi, so‘zlovchining hayajonlanib yana nimadir aytmoqchi ekanligini ko‘rsatish uchun: *Agar hozir gapingizni to‘xtatmasangiz...*

2. Ba‘zan ko‘p nuqta so‘zlovchining o‘ylashi, mulohaza qilishini ko‘rsatadi: *Bugun... bugun oldingizga o‘tsam bo‘ladimi?*

3. Ba‘zan kimningdir savolga javob bermay indamay turganini ko‘rsatish uchun ham ko‘p nuqta qo‘yiladi:

- *Mendan rozimassiz, bilaman, kechirmaysiz...*

- ...

4. Biror so‘z yoki gapning tushirilganini ko‘rsatish uchun: *Bugun ettinchi bo‘limga kelib, ... fig‘oni oshdi.(T.Malik)*

5-§. Ko‘p nuqta, undov va so‘roq belgilarning birikkan holda kelishi

1. So‘roq mazmuniga qaraganda his-hayajon kuchli bo‘lgan so‘roq gaplardan keyin undov va so‘roq belgisi birikkan holda (!?) qo‘yiladi: *Go‘zallik olamni qutqarishiga kim ishonmaydi!?*

2. Kuchli his-hayajon bilan berilgan savolni ifodalaydigan so‘roq gaplardan so‘ng so‘roq va undov belgisi birikkan holda qo‘yiladi: - A?! – *Xonkeldieva turgan erida surat bo‘lib qoldi. - Direktorimiz-a?! (H.G‘ .)*

3. Kuchli his-hayajon ifodalangan va mazmunan tugallanmagan gaplardan keyin undov belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda (!..) qo‘llanadi: -*Nafisa!.. Nafisaoy!.. – dedi Aziz o‘pkasi yumshab, ko‘zlariga qaynoq yosh keldi.(H.G‘ .)*

4. Mazmunan tugallanmagan so‘roq gaplardan so‘ng so‘roq belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda (?..) ishlatiladi: - *Nima dedingiz? Bularning hammasi men uchun?...*

6-§. Vergul

Vergul quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Uyushiq bo‘laklar orasida:

1) bog‘lovchisiz birikkan uyushiq bo‘laklar orasida *Andijon, Namangan, Qo‘qon, Marg‘ilon – O‘zbekning chamani, bog‘u bo‘stoni. (G‘ .G‘ .)* 2) takrorlanuvchi bog‘lovchilar bilan birikkan uyushiq bo‘laklar orasiga: *U goh kulimsiraydi, goh chuqur o‘yga toladi.* 3) zidlovchi bog‘lovchilar yordamida birikkan uyushiq bo‘laklar orasiga: *Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. (P.Q.)*

2. Undalmalarni ajratish uchun: *Ertaga, azizim, toqqa jo‘naymiz.*

3. Kirish so‘zlarni va tuzilishiga ko‘ra murakkab bo‘lmagan kirish gaplarni ajratish uchun: *Xullas, ertaga shu erda yig‘iladigan bo‘ldilar. Men sizga aytsam, odamning yomoni bo‘lmaydi.*

4. *Ha* va *yo‘q* so‘zlarini gap bo‘laklaridan ajratish uchun: *Ha, bu gapingiz to‘g‘ri. Yo‘q, ertaga kela olmayman.*

5. Gapning ajratilgan bo‘laklarini ayirib ko‘rsatish uchun: *"Biz, yoshlar, otabobolarimiz qoldirgan bebaho merosni ko‘z qorachig‘iday asrashimiz kerak".*

6. Bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplarda: *Eshik ochildi, ichkariga muzday havo yopirilib kirdi.*

7. *Va, ham, hamda, yoki* (yolg‘iz kelgan) bog‘lovchilaridan boshqa bog‘lovchilar bilan bog‘langan qo‘shma gaplarda: *Hamma gapirdi, lekin u bir chekkada xomush o‘tirar edi.*

8. Ergash gapni bosh gaplardan ajratish uchun: *Hamma yig‘ilgach, majlis boshlandi.*

9. Muallif gapini ko‘chirma gapdan ajratish mumkin:

- *Bugungi qilgan ezgu ishlarimiz, - dedi ota, - kelajak uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.*

7-§. Nuqtali vergul

Nuqtali vergul quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. O‘z ichida vergul bo‘lgan yoyiq uyushiq bo‘laklar orasida:

Mehnat, ijod, odam sharafi;

Dil yorug‘i, hayot quvonchi

Hammasining asli manbai

Sen, Vatanim - tinchlik tayanchi. (S.Nazar)

2. O‘z ichida verguli bo‘lgan, mazmunan ma’lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagi gaplarni o‘z ichiga olgan qo‘shma gaplarda: *Daraxtlar, butalar shitirladi; kuzning salqin nafasi yuziga urildi.*

8-§. Ikki nuqta

1. Uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan so‘ng: *Yig‘ilishda tajribali ishchilar: Salim aka, Abdukarim aka va Sobirjonlar so‘zga chiqishdi.*

E s l a t m a : Ba‘zan umumlashtiruvchi so‘z yashirinishi mumkin, lekin ikki nuqta qo‘yilaveradi: *Qilinishi kerak: traktorlar ta‘mirdan chiqarilsin, ishchilarga etarli sharoit yaratilsin.*

2. Quyidagi ma‘nolarni ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda: 1) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko‘rsatsa: *U ikariga shoshib kirib ketdi: telefon anchadan beri jiringlayotgan ekan.*

2) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko‘rsatsa: *SHamol juda zo‘raydi: daraxtlarning ancha-munchasi sinib tushdi.*

3) agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to‘ldirsa yoki izohlasa: *Vazifangiz shu: bironta odam bu xonaga kirmasligi kerak.*

3. Ko‘chirma gapdan oldin, muallif gapidan so‘ng: *U baland ovozda so‘radi: - Kim bor?*

9-§. Tire

Tire quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalanib, kesim bilan bog‘lamasiz birikkan ega va kesim orasiga: *O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent. Ikki o‘n besh – bir o‘ttiz. Bularni amalga oshiradigan – siz. O‘qish – hayotni uqish.*

2. Uyushiq bo‘laklardan so‘ng kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin: *Akam, opam va singlim – barchasi meni kutib o‘tirishgan ekan.*

3. Ajratilgan bo‘lak bilan izohlanmish bo‘lak orasiga: *Men – Valiev Mahmud, 1954 yilda Toshkentda tug‘ilganman.*

4. Kirish gap bilan gap bo‘laklari orasiga: *Tunov kungi ovchi – men uni o‘rmonda uchratib qoldim – menga qiziq bir voqeani so‘zlab berdi.*

5. Muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida: - *Bugun kelasizmi? – so‘radi qizi.*

6. Dialog tipidagi ko‘chirma gaplarda: - *Keldimi? - Keldi.*

7. Kutilmagan voqea-hodisalarni ifodalagan gaplardan oldin: *Kecha sizlarnikiga borgan edim – Asqarjon kelibdi!*

8. Zid ma‘noli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida: *Jismimiz yo‘qolur - o‘chmas nomimiz.*

10-§. Qavs

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo‘lagiga qo‘shimcha izoh beruvchi so‘z yoki iboralar qavsga olinadi: *Karimjon (sinfimizning a‘lochisi) oliy o‘quv yurtiga kiribdi.*

Eslatma: Qavsdan oldingi tinish belgilari (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire) qavsdan keyinga ko‘chiriladi: *CHavandoz bu gaplarni Ertoevga aytishni ham, aytmaslikni ham bilmay (aytsa Ertoev xafa bo‘ladi, aytmasa bar joydan chatog‘i chiqishi mumkin), boshi qotib ... turganda... Gulchehra mojarosi chiqsa bo‘ladimi? (O.YO.)*

2. Kirish gaplar yoki remarkalar qavs bilan beriladi: *Ukam (sen uni taniysan) bu yil maktabni bitirdi. A z i z K a m o l (xayol og‘ushida). Vatanimizga qarshi ko‘tarilgan ruhiy va iqtisodiy hujum shu kunlarda cho‘qqisiga chiqdi. (S.Az.)*

3. Misol yoki ko‘chirmaning manbai: *...Eshik qars etib yopildi.(O.YO.)*

4. Kirish so‘z yoki iboraga oid tinish belgilar qavsning ichiga olinadi: *To‘satdan uning xayoliga akasining bundan besh-olti oy oldin... yozgan xati (o‘shandan beri undan dom-darak yo‘q!) ... tushdi. (O.Y.)*

11-§. Qo‘shirnoq

1. Ko‘chirma gaplarni ajratib ko‘rsatish uchun: *"Ertaga kelaman", - dedi.*

2. Ko‘chma ma‘nodagi, shartli nom yoki taxallus ma‘nosidagi ayrim so‘z va so‘z birikmalari ham qo‘shirnoqqa olinishi mumkin: *"Tog‘ asali" sotadigan yigit ... dovonning nariyog‘iga o‘tib ketgan. (S.Ahm.)*

E s l a t m a : Qo‘shirnoqqa olinishi kerak bo‘lgan so‘zlarda turlovchi (kelishik) qo‘shimchalar mavjud bo‘lsa, bu qo‘shimchalar qo‘shirnoqdan keyin qo‘yiladi: *Bularni ko‘rgan Aziz o‘zi haydab kelayotgan «GAZ-69” yurishini tezlatib, yo‘lga chiqdi-da, "Jiguli" tomonga burildi. (H.G‘.)*

Takrorlash uchun savollar:

1. O‘zbek tilida jami nechta tinish belgisi bor?
2. Nuqta qaysi o‘rinlarda qo‘yiladi?
3. So‘roq belgisining qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
4. Undov belgisining qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
5. Ko‘p nuqta qaysi o‘rinlarda qo‘yiladi?
6. Tinish belgilarining birikkan holda ishlatilishi haqida gapiring.
7. Vergulning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
8. Nuqtali vergulning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
9. Ikki nuqtaning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
10. Tirening qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
11. Qavsning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
12. Qo‘shirnoqning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
13. Qaysi tinish belgisi nisbatan ko‘p qo‘llanadi?
14. Qaysi o‘rinlarda vergul doimo ikki marta qo‘llanadi?
15. Qaysi o‘rinlarda tire doimo ikki marta qo‘llanadi?
16. Qaysi tinish belgilari juft(takroriy) ko‘rinishga ega?
17. Qaysi tinish belgilari qisqartirilgan so‘zlar bilan qo‘llanadi?
18. Inson ruhiyati bilan bo‘jliq o‘rinlarda ishlatiladigan tinish belgilarini sanab ko‘rsating.
19. Izoh ma‘nosi ifodalangan o‘rinlarda ishlatiladigan tinish belgilarini sanab ko‘rsating.
20. Raqamlar bilan birga ishlatiladigan tinish belgilarini sanab ko‘rsating.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Jismimiz yo‘qolur // o‘chmas nomimiz, (G‘. G‘ulom). Ushbu gapdagi // belgisi o‘rnida qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

- A) vergul B) undov belgisi C) ko'p nuqta D) tire
- 2. Undashni kuchaytirish uchun undalmadan oldin kelgan undov so'zdan so'ng qanday tinish belgisi qo'yiladi?**
A) undov belgisi B) vergul C) chiziqcha D) nuqtali vergul
- 3. Gapda tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmasa, gap qaysi jihatdan o'zgarishi mumkin?**
A) faqat mazmuni o'zgaradi B) faqat sintaktik tuzilishi o'zgaradi C) mazmuni va sintaktik tuzilishi o'zgaradi
D) mazmuni va sintaktik tuzilishi o'zgarmaydi
- 4. Qo'shma gap qismlari oralig'ida yoki bog'lovchisi yolg'iz holda qo'llanganda, bog'lovchidan oldin qanday tinish belgisi qo'yiladi?**
A) vergul qo'yiladi B) ikki nuqta qo'yiladi
C) tire qo'yiladi D) nuqtali vergul qo'yiladi
- 5. Tire noto'g'ri qo'llangan qatorni aniqlang.**
A) O'zbekiston – mustaqil davlat B) Til –millatning boyligi va bebaho mulki. C) Men – o'qituvchiman D) Ona erim – oltin tuprog'im.
- 6. Qaysi qatorda tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan?**
A) - Xo'sh, qanday yangiliklar bor? - dedi O'ktam. B) - Xo'sh, qanday yangiliklar bor - dedi O'ktam. C) - Xo'sh qanday yangiliklar bor?- dedi O'ktam. D) - Xo'sh qanday yangiliklar bor! - dedi O'ktam.
- 7. Qaysi gap tarkibida tire (–) ishlatilishi kerak?**
A) Men uchuvchiman. B) Do'stlik o'lkamizning qudrati, shoni. C) Bilim baxt belgisidir. D) Ishning boshi boshlangunchadir.
- 8. Takrorlangan yo, yoki, goh, dam, ba'zan bog'lovchilari yordamida bog'langan uyushiq bo'laklar orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?**
A) nuqtali vergul B) tire C) ikki nuqta D) vergul
- 9. Bugun havo ochiq // derazalarni lang ochib ko'ysa ham bo'ladi. Ushbu gapdagi // belgisi o'rnida qanday tinish belgisi qo'yish kerak?**
A) tire B) vergul C) nuqtali vergul D) ko'p nuqta
- 10. Aytilgan so'z // otilgan o'q. (Maqol) Ushbu gapdagi // belgisi o'rnida qanday tinish belgisi qo'yiladi?**
A) ikki nuqta B) nuqtali vergul C) vergul D) tire
- 11. - Hafizaxon, tog'angizga Mavlon akaga havasim keladi. Ushbu gapda Mavlon akaga bo'lagi ikki tomondan qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?**
A) qavs va qavs B) tire va tire
C) vergul va vergul D) tire va vergul
- 12. Fikrning tugallanmaganligi ko'rsatish uchun yozuvda qanday tinish belgisi ishlatiladi?**
A) undov va so'roq belgilari B) nuqtali vergul
C) ikki nuqta D) ko'p nuqta
- 13. Qaysi gapda tinish belgisi noto'g'ri qo'llangan?**
A) -Bu Nazarovdan chiqqan aql emas, - dedi Qalandarov. B) Bir kuni rais kelib qurtini ko'zdan kechirdi-da: - Yashasin havaskor kampirlarimiz! - deb qichqirdi. C) -Sen ham bitirding, shekilli, - so'radi ikkinchi yigit. D) - Voy, Huriniso opa, kelin qildingizmi? - dedi Tojixon.
- 14. Yaxshi so'z // jon ozig'i, yomon so'z// bosh qozig'i (Maqol) Ushbu gapda // belgilari o'rnida qanday tinish belgilar qo'yish kerak?**
A) vergul va tire B) ikki nuqta va ikki nuqta C) vergul va vergul D) tire va tire
- 15. Quyidagi qaysi gapda ega bilan ot kesim orasida tire ishlatilishi lozim?**
A) Qo'shnilarim ham halol odamlar. B) Hamma yoq top-toza, yovvoyi o'tlar yo'q. C) O'g'limdan umidim ko'p. D) Yaxshi qiz yoqadagi qunduz, yaxshi o'g'il ko'kdagi yulduz.
- 16. Qaysi qatordagi gapda ega bilan ot kesim orasida tire noto'g'ri qo'yilgan?**
A) Otalar so'zi – aqlning ko'zi. B) Ginali do'st –adovatli dushman C) Men ham – kichik paxtakor. D) B, C

17. Ha va yo'q so'zlari gap boshida kelib, his-hayajon bilan aytilsa, ulardan so'ng qanday tinish belgilari qo'yiladi?

- A) vergul B) undov belgisi
C) ko'p nuqta D) so'roq va undov belgisi

18. Ajratilgan bo'laklar gap o'rtasida kelsa, ularning ikki tomoniga nima qo'yiladi?

- A) tire va tire B) qavs va qavs
C) tire va vergul D) vergul va vergul

19. Umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan oldin joylashgan bo'lsa, undan so'ng qanday tinish belgi qo'yiladi?

- A) ko'p nuqta B) ikki nuqta C) tire D) nuqtali vergul

20. Hozirgina bo'lgan voqeani unutib, childirmani qo'lga olib, «Ho-hoy bola»ga o'yin qilishyaptimi? Mazkur gapdagi «Ho-hoy bola» so'z qo'shilmasi nima sababdan qo'shtirnoqqa olingan?

- A) o'zgalarning kulgi bilan aytilgan gapi bo'lgan uchun
B) o'zgalarning kinoya bilan aytilgan gapi bo'lgani uchun
C) asar nomini bildiruvchi atoqli ot bo'lgani uchun
D) ko'chirma gapni muallif gapidan ajratib ko'rsatish uchun

21. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuni bir-biriga zid bo'lsa, ular orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul B) nuqtali vergul C) tire D) ikki nuqta

22. Gazetachilikning bitta yomon tomoni bor ishda tartib bo'lmaydi. Yordamchilarsiz bog'langan bu qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasiga tinish belgilardan qaysi biri qo'yiladi?

- A) nuqtali vergul B) vergul C) ikki nuqta D) tire

23. Tinish belgilari noto'g'ri qo'llangan qatorni aniqlang.

- A) Karim otani necha yillardan buyon katta-kichik ajoyib bog'bon sifatida, mehribon ota sifatida taniydi. B) Otam Ne'mat Anorboev qalbi pok, bilimli inson edilar. C) Mashhur bastakorning, G'anjimon Toshmatovning shogirdi bo'lganimdan behad xursandman. D) Taniqli bolalar shoiri Quddus Muhammadiy bir necha marta maktabimizga tashrif buyurganlar.

24. Qaysi gapda tinish belgi noto'g'ri qo'llangan?

- A) Uy, buyum, mol-hol, hammasi senga qolsin. B) Ulardan uchtasini: Sayyorani, G'ayratni, Shavkatni ko'rib turamiz. C) Anvar har bir kishidagi shunday xislatni: odamoxunlik, mehmondo'st, ochiq chehralikni yoqtiradi. D) Qayoqdan keldi shuncha olomon: bolalar, xotinlar, chollar?

25. Qo'shtirnoq noto'g'ri qo'llangan gapni toping.

- A) Erining "kirdikori" dan xabardor bo'lganday o'smoqchiladi Shakarxon. B) Gul - dedi: "Ayt, nechun ketolmaysan yonimdan?" C) A.Qahhorning "Bemor" asari realistik asardir. D) Sirdaryo qirg'og'ida "Mingbuloq" degan so'lim bir qishloq bor.

26. Faqat bitta iltimos // ishda tartib bo'lsin. Ushbu gapda // o'rnida qanday tinish belgisi ishlatiladi?

- A) vergul B) tire C) ko'p nuqta D) ikki nuqta.

27. Andijon, Namangan, Oo'qon, Marg'ilon // O'zbekning chamani, bog'u bo'stoni. (G'.G'.) // belgisi o'rniga qanday tinish belgisini qo'yish kerak?

- A) vergul B) nuqtali vergul C) tire D) ko'p nuqta.

28. "O, Alisher // xush kelibsiz, ichkariga marhamat!" gapidagi // belgisi o'rnida qanday tinish belgilari bo'lishi zarur?

- A) vergul, nuqta B) vergul, undov belgisi C) undov belgisi, nuqta D) ikki o'rinda ham undov belgisi

29. "Do'stim, senga takror, takror aytaman // Bilakni shimarib ishga tush, ishga!" (U.) Bu erda // belgilari o'rnida qaysi tinish belgisi zarur?

- A) vergul, undov belgisi B) ikki nuqta, undov belgisi
C) vergul, nuqta D) tire, undov belgisi

30. Yarim qavs bilan ajratilgan raqam yoki harflardan keyingi gaplar oxiriga nima qo'yiladi?

- A) nuqta B) vergul C) qavs D) nuqtali vergul

31. Ko'p nuqtaning qo'yilish o'rinlarini aniqlang.

- A) fikr tugallamaganda B) jumlar qisqartirilganda C) kuchli hayajon anglashilgan ifodalarda D) A, B, C.

32. Qaysi qatorda tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan?

- A) Bu yil o'qishni "a'lo" baholarga bitirishim shubhasiz. B) Barcha qatordagi gaplarda to'g'ri qo'yilgan. C) Jahon kitobxonlari qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovni yaxshi bilishadi. D) Men har gal qishloqqa borganimda hozir u er shahar tipidagi tuman, o'sha jonajon tepalikka intilaman.

33. Mammunlik ma'nosi ifodalangan quyidagi gapdan so'ng qanday tinish belgisi qo'yiladi? Unday bo'lsa, juda yaxshi

- A) undov B) ko'p nuqta C) nuqta D) so'roq

34. Gazetachilikning bir yomon tomoni bor: ishda tartib bo'lmaydi. Gapda nima uchun ikki nuqta qo'yilgan?

- A) umumlashtiruvchi so'z bo'lgani uchun B) uyushiq bo'lakli gap bo'lgani uchun C) qo'shma gap bo'lgani uchun D) yordamchilarsiz bog'langan qo'shma gap bo'lib, uning tarkibidagi keyingi sodda gap oldingi sodda gapdan anglashilgan fikrni izohlab kelgani uchun.

35. Tire noto'g'ri qo'llangan gapni toping.

- A) Beodoblik – johillik urug'i. B) Ota-onaga muhabbat – barcha yaxshi fazilatlarining asosi. C) Inson – nomi bo'la turib, o'zini tiya bilmasa, uyat. D) 8-mart – xotin qizlar bayrami.

ILOVALAR

I. O'ZBEK TILIDAGI QO'SHIMCHA TURLARI

1. SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

Ot yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar			
-chi	<u>suvchi</u>	-do'z	<u>etikdo'z</u>
-dosh.	<u>sinfdosh</u>	-soz	<u>aravaso</u>
-kor	<u>paxtakor</u>	-xo'r	<u>choyxo'r</u>
-kar	<u>miskar</u>		
-gar	<u>zargar</u>		
-gor	<u>talabgor,</u>		
-kash	<u>Aravakash</u>	-go'y	<u>Duogo'y</u>
-dor	<u>CHorvador</u>	-parast	<u>shaxsiyatparast</u>
-bon	<u>Saroybon</u>	-furus	<u>mevafurus,</u>
-boz	<u>dorboz,</u>	-vachcha	<u>Tog'avachcha</u>
-paz	<u>Oshpaz</u>	-(u)vchi	<u>yo</u> <u>zuvchi</u> , <u>uchuvchi</u>
-xon	<u>Gazetxon</u>	-(o)vchi	<u>tingloychi,</u>
-shunos	<u>tilshunos,</u>	ham-	<u>ham</u> <u>suhbat</u>
-sil	<u>yo'qsil</u> (arx.)		
Narsa-buyum oti yasovchi qo'shimchalar			

-gich -kich -qich -g'ich	tishkovlag <u>ich</u> , ko'rsat <u>kich</u> , qisq <u>ich</u> , chizg' <u>ich</u> .	-gi -ki -qi -g'i -g'u	supurg <u>i</u> , tepk <u>i</u> , tutatq <u>i</u> , chalg' <u>i</u> , tuyg' <u>u</u>
-dak -doq -	yugurd <u>ak</u> , qovurd <u>oq</u> .	-iq, -ik	topshir <u>iq</u> , teshik <u>.</u>
-ma	to'q <u>ima</u> ,	-uq	uch <u>uq</u> , yutu <u>q</u> .
-m, -im	to'pl <u>am</u> , kiyim,	-q, -oq	taroq, o'roq
-um	un <u>um</u> , uy+ <u>um</u> – uyum	-don	qalam <u>don</u> , tuz <u>don</u>
-t -it -at -ot	qurt(quri+t), chiqit, ko'ch <u>at</u> , siz <u>ot</u> .	-qin -qun -g'in -g'un	to'lqin uchqun yong' <u>in</u> yulg' <u>un</u>
--in -un -on	Yig' <u>in</u> tugun to'z <u>on</u>	-qoq -kak -gak	Botqoq Eshk <u>ak</u> Ilg <u>ak</u> .
-k, -ak	kur <u>ak</u> , varrak <u>.</u>	-(i) sh	quril <u>ish</u> , turlan <u>ish</u> .
-(u)v, -(o v	yoz <u>uv</u> , sayloy.	-ak -oq	Qarsak qaldiroq
-ildoq	shaqild <u>oq</u> .	-a	sharshara, jizza.
-os	gulduros	-(i)ndi	chir <u>indi</u> , cho'k <u>indi</u>
-poya	bedap <u>oya</u> , g' o'zap <u>oya</u> .		
machoq-	bekinmachoq,	-chiq	yopin <u>chiq</u> , suyanch <u>iq</u> .
-chak	burchak, kemirchak.	-iz	bo'g'iz
-miq	bulam <u>iq</u>	-noma	taklifn <u>oma</u>
-mish	o'tm <u>ish</u> , qilm <u>ish</u> .		
-kilik -gilik	Ichk <u>ilik</u> ko'rg <u>ilik</u> .	-moq -mak	Quymoq chertm <u>ak</u> (o'yin turi)
-cha	qizil <u>cha</u> , olacha.	-ka	yo'l <u>ka</u>
O'rin-joy otini yasovchi qo'shimchalar			
-zor	gulz <u>or</u> , paxtaz <u>or</u> ,	-iston	O'zbek <u>iston</u> , gul <u>iston</u> .
-loq	o'tloq, toshloq.	-goh	saylg <u>oh</u> , o'ying <u>oh</u> .
-xona	oshx <u>ona</u> , choyx <u>ona</u> .	-obod	YUnus <u>obod</u> , YAngi <u>obod</u> .
Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar			
-chilik	dehqonch <u>ilik</u> , tirikch <u>ilik</u> .	-lik -liq	bolal <u>ik</u> , borliq
-ot- at	targ'ibot madaniyat	-ch	sevin <u>ch</u> , quvon <u>ch</u>
garchilik	odamgarch <u>ilik</u> , og'aynigarch <u>ilik</u> .	-sh -ish	o'qish tuzil <u>ish</u>
-(u)v	undov, uquv	-i	suyunch <u>i</u>

Sifat yasovchi qo‘shimchalar

Qo‘shimch a	Misollar	Qo‘shimcha	Misollar
1. Otdan sifat yasovchi qo‘shimchalar			
-li	<i>kuch<u>li</u></i>	-lik	<i>toshkent<u>lik</u> (bola)</i>
-siz	<i>tuz<u>siz</u></i>	-iy, -viy	<i>tarbiyavi<u>y</u> soat, devori<u>y</u> gazeta</i>
-gi -ki -qi	<i>bahor<u>gi</u> ishlar qish<u>ki</u> kiyim pisto<u>qi</u></i>	-aki	<i>jizz<u>aki</u> dahan<u>aki</u> og‘<u>zaki</u></i>
-yi	<i>havoy<u>i</u></i>	-chan	<i>ish<u>chan</u> bola</i>
ser-	<i>ser<u>hosil</u></i>	ba-	<i>ba<u>davlat</u></i>
be-	<i>be<u>g‘ubor</u>, be<u>xabar</u></i>	-simon	<i>shars<u>simon</u></i>
-dor	<i>vafod<u>or</u></i>	-kor, -gar	<i>isyon<u>kor</u>, ig‘<u>vogar</u></i>
-i	<i>qishlo<u>qi</u></i>	-cha	<i>arab<u>cha</u> (o‘yin)</i>
-namo	<i>darvesh<u>namo</u></i>	-parvar	<i>xalq<u>parvar</u>,</i>
-dek -day	<i>muz<u>dek</u> (suv) jo‘jabir<u>day</u> (jon)</i>	--lik, -liq	<i>ko‘ylak<u>lik</u> (chit), bolal<u>lik</u> (chog‘lar)</i>
-shumul	<i>olam<u>shumul</u>,</i>	-mand	<i>kasal<u>mand</u></i>
-don	<i>gap<u>don</u>, bilim<u>don</u></i>	-kash	<i>dilk<u>kash</u>, hazil<u>kash</u></i>
-bop	<i>palov<u>bop</u>, qish<u>bop</u></i>	xush-	<i>xush<u>fe‘l</u>, xush<u>havo</u></i>
-in	<i>erkin<u>,</u> otash<u>in</u></i>	bar-	<i>bar<u>hayot</u></i>
-parast	<i>mansab<u>parast</u>, maishat<u>parast</u></i>	-vor	<i>devon<u>avor</u>, afson<u>avor</u></i>
-chil	<i>xalq<u>chil</u>, iz<u>chil</u>.</i>	bad-	<i>bad<u>baxt</u>, bad<u>nafs</u></i>
-i	<i>jannati<u> (kampir)</u></i>	-loq	<i>baqal<u>oq</u></i>
-kor	<i>fusun<u>kor</u> (husn)</i>	-kash	<i>zahmat<u>kash</u> (odam)</i>
-chi	<i>vahim<u>chi</u> (odam)</i>	-von	<i>zo‘rayon<u> (kishi)</u></i>
-qa:	<i>loy<u>qa</u> (suv)</i>	-omuz	<i>hazil<u>omuz</u> (gap)</i>
-xo‘r	<i>g‘am<u>xo‘r</u> (odam)</i>	-soz	<i>soat<u>soz</u> (usta)</i>
Fe‘ldan sifat yasovchi qo‘shimchalar			
-gir	<i>sez<u>gir</u>,</i>	-kun	<i>tush<u>kun</u></i>
-g‘ir	<i>olg‘<u>ir</u></i>	-qin	<i>jo‘sh<u>qin</u></i>
-kir	<i>o‘tk<u>ir</u>,</i>	-g‘in	<i>ozg‘<u>in</u></i>
-qir	<i>top<u>qir</u>,</i>	-g‘un	<i>turg‘<u>un</u></i>
-qur	<i>uch<u>qur</u></i>	-qun	<i>tut<u>qun</u></i>
-choq	<i>Maqtan<u>choq</u></i>	-k	<i>chirik<u></u></i>
-chak	<i>Kuyun<u>chak</u></i>	-ik	<i>teshik<u></u></i>
-chiq	<i>qizg‘an<u>chiq</u></i>	-uk	<i>tuzuk<u></u></i>
		-ak	<i>g‘alvir<u>ak</u></i>
-q	<i>ili<u>q</u></i>	-qoq	<i>tirish<u>qoq</u> toyg‘<u>oq</u></i>
-uq	<i>buzu<u>q</u></i>	-g‘oq	
-iq	<i>sini<u>q</u></i>		

-qi	sayro <u>qi</u> qush	-oq	qo <u>choq</u>
-ag'on	bilag'on, chopag'on	-mon	bilar <u>mon</u> ,
-ma	bur <u>ma</u> ko'ylak	-(a)rli	etar <u>li</u> , zerika <u>rli</u>
-ch	tin <u>ch</u> , jirkanch	-g'ich	yulg' <u>ich</u> (odam)
-ong'ich	tepong' <u>ich</u> , suzong' <u>ich</u>	-ovuch	hurkov <u>uch</u> , iskov <u>uch</u>
-mas	o' <u>mas</u> (pichoq)	-(i)ndi	asra <u>ndi</u> (bola)
-a	ko'tar <u>a</u> (savdo)	-msiq	qarim <u>siq</u> , achim <u>siq</u>
3. Sifat, ravish, taqlid so'zlardan sifat yasovchi qo'shimchalar			
-gi	kechag <u>i</u> , dastlab <u>ki</u>	no-	<u>noma</u> 'lum
-lom	sog' <u>lom</u>	-ildoq	bijil <u>doq</u>

Fe'l yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-la	ish <u>la</u> , oq <u>la</u> , sekin <u>lamoq</u> , shivir <u>la</u> , chuh <u>lamoq</u> , sen <u>lamoq</u> ,	-lan -lash	faxr <u>landi</u> , ikkil <u>landi</u> , ko'mak <u>lashdi</u> , suhbat <u>lashdi</u> .
-illa	chir <u>qilla</u>	-ira	yarqir <u>adi</u> ,
-a	tun <u>a</u> , bo'sh <u>a</u> , o'yin+a-o'yn <u>a</u> .	-sira -sa	sen <u>sira</u> suvs <u>a</u>
-(a)r	qisqar <u>r</u> , ko'kar <u>r</u>	-(a)y	qoray, kuchay,
-(i)k -(i)q	birik <u>moq</u> yo'liq <u>moq</u>	-(i,o) t	yo'qot, to'lat, berkit
-i	boyi, tinchi	-ir	gapir, tupir.

Ravish yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-cha	qisqacha, o'zicha, boshqacha, eskicha	-larcha	qardoshlarcha, o'rtoqlarcha.
-dek -day	o'qdek qushday	-siga	tikkasiga, yalpisiga.
-ligicha	xomligicha, tirikligicha, butunligicha, ho'lligicha	-chasiga	yangichasiga, toshkentchasiga, dehqonchasiga
-lab	ertalab, ko'plab.	-ona	do'stona,
-an	majburan	-gacha	kechgacha,
-simon	hazilsimon.	-namo	uyalgannamo
-lay(in)	butunlay, tiriklayin.	-siz, be-	to'xtovsiz, beixtiyor.
-incha	ko'pincha, aksincha.	-chang	ko'ylakchang
-in	oldin		

2. SO‘Z O‘ZGARTUVCHI QO‘SHIMCHALAR

Otlardagi kelishik qo‘shimchalari

№	Kelishik nomi	qo‘shimchasi	savollari
1.	<i>Bosh kelishik</i>	-	<i>kim? nima?</i>
2.	<i>Qaratqich kelishik</i>	<i>-ning , -n</i>	<i>kimning? nimaning</i>
3.	<i>Tushum kelishik</i>	<i>-ni, -n, -i</i>	<i>kimni? nimani? kimimi?</i>
4.	<i>Jo‘nalish kelishik</i>	<i>-ga, -ka, -qa, -na, -a</i>	<i>kimga? nimaga?</i>
5.	<i>O‘rin-payt kelishik</i>	<i>-da</i>	<i>kimda? nimada?</i>
6.	<i>CHiqish kelishik</i>	<i>-dan</i>	<i>kimdan? nimadan?</i>

Otlardagi egalik qo‘shimchalari

shaxs	Birlik	Ko‘plik
<i>1-shaxs</i>	<i>dalam<u>im</u>, kitob<u>im</u></i>	<i>dalam<u>imiz</u>, kitob<u>imiz</u></i>
<i>2-shaxs</i>	<i>dalang<u>ing</u>, kitob<u>ing</u></i>	<i>dalang<u>ingiz</u>, kitob<u>ingiz</u></i>
<i>3-shaxs</i>	<i>dala<u>si</u>, kitob<u>i</u></i>	<i>dala<u>lari</u>, kitob<u>lari</u></i>

Fe‘llardagi shaxs-son qo‘shimchalari

shaxs	birlik	ko‘plik
<i>1-shaxs</i>	<i>yoz<u>dim</u>, yozaman,</i> <i>yozay(<u>in</u>)</i>	<i>yozdik, yozam<u>iz</u>, yozaylik</i>
<i>2-shaxs</i>	<i>yozding, yozasan,</i> <i>yoz(<u>gin</u>)</i>	<i>yozdingiz, yozasiz, yozing(<u>iz</u>)</i>
<i>3-shaxs</i>	<i>yozdi, yozadi, yoz<u>sin</u></i>	<i>yozdi(<u>lar</u>), yozadi(<u>lar</u>), yozsin(<u>lar</u>)</i>

3. SO‘Z SHAKLI YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

№	Qo‘shimcha	Misollar	Xususiyati
1.	-a I	<i>bur<u>amoq</u>, chop<u>a</u>-chop,</i> <i>qasira-qasir.</i>	Ma‘noni kuchaytiradi
2.	-a II	<i>yugura<u>a</u>-yugura, ola</i> <i>boshladi</i>	ravishdosh shaklini yasaydi
3.	-ajak	<i>kelajak, borajak</i>	sifatdosh shaklini yasaydi
4.	-ala	<i>uchala, o‘nala.</i>	jamlovchi son shaklini yasaydi
5.	-alak	<i>do‘ngalak,</i>	kichraytirish ma‘nosini hosil qiladi
6.	alla-	<i>allakim, allanima.</i>	gumon olmoshini yasaydi
7.	-asi	<i>kelasi (yil).</i>	sifatdosh shaklini yasaydi
8.	-b yoki -ib	<i>o‘qib, borib.</i>	ravishdosh shaklini yasaydi

9.	-gan, -kan -qan	<i>borgan, tekkan, chiqqan.</i>	fe'ning o'tgan zamon sifatdoshi shaklini hosil qiladi
10.	-gaz, -kaz, -qaz,-giz, -qiz	<i>ko'rgaz, o'tkaz, tutqaz, yotqiz.</i>	orttirma daraja shaklini yasaydi
11.	-gani -kani, -qani	<i>o'qigani, ekkani, tuqqani.</i>	kelasi zamon maqsad ma'nosidagi ravishdosh shaklini hosil qiladi:
12.	-gan<u>cha</u>	<i>yugurgan<u>cha</u> ketdi, shu ketgan<u>cha</u> qaytmadi</i>	holat yoki payt ravishdosh-larini hosil qiladi
13.	-gach -kach, -qach	<i>U kelgach, biz ketdik (payt). U kelmagach, biz bordik (sabab)</i>	payt yoki sabab ravishdoshlarini yasash uchun xizmat qiladi
14.	-gi I	<i>borgim keldi.</i>	egalik qo'shimchalari bilan birgalikda xohish, istak ma'nosini ifodalaydi
15.	-gi (-g'i) II	<i>yugurgilamoq, to'zg'imoq.</i>	fe'lga qo'shib, takroriylik, davomlilik ma'nolarini ifodalaydi
16.	-giz, -iz, - kaz, qaz, - g'az, -g'iz	<i>yurgizmoq, o'tkazmoq, yutqizmoq, turg'azmoq, oqizmoq.</i>	fe'llardagi orttirma nisbatni hosil qiladi
17.	-gil, -gin	<i>borgin, kelgil.</i>	fe'llardagi buyruq-istak maylini hosil qiladi
18.	-gina -kina -qina	<i>Qizginam balandgina, oppoqqina tuzukkina</i>	a) otlardagi erkalash-kichraytirish, achinish ma'nosini ifodalaydi b) sifatlardagi ozaytirma darajani hosil qiladi
19.	-guncha -kuncha -quncha	<i>kelguncha, tekkuncha, chiqquncha.</i>	payt ravishdoshlarini hosil qiladi:
20.	-gur	<i>qurmagur.</i>	fe'llardagi istak ma'nosini ifodalaydi
21.	-gusi (- g'usi)	<i>borgusi, bo'lg'usi.</i>	eskirgan qo'shimcha bo'lib, kelasi zamon sifatdoshini hosil qiladi
22.	-di	<i>yozdi.</i>	yaqin o'tgan zamon fe'lini hosil qiladi
23.	-dir I	<i>Kitob bilim manbaidir.</i>	kesimlik qo'shimchasi, ya'ni ot-kesimni ega bilan bog'lovchi vosita (bog'lamaning bir turi)
24.	-dir II	<i>kimdir, nimadir.</i>	gumon olmoshini hosil qiladi:
25.	-dir III	<i>yozdir sezdir.,</i>	orttirma daraja hosil qiluvchi

	<i>yoki -tir</i>		qo‘shimcha:
26.	-digan	<i>keladigan</i>	kelasi zamon sifatdoshini hosil qiladi
27.	-yotgan	<i>ko‘rayotgan</i>	sifatdosh shaklini hosil qiladi
28.	-yotir	<i>borayotir.</i>	hozirgi zamon davom fe‘lini hosil qiladi
29.	-jon	<i>karimjon</i>	otlardagi hurmat ma‘nosini hosil qiladi
30.	-i	<i>to‘zimoq.</i>	fe‘llardagi ma‘noni kuchaytiruvchi qo‘shimcha
31.	-b (-ib)	<i>borib, o‘qib</i>	holat ravishdoshlarini hosil qiladi
32.	-imtir yoki -mtir	<i>ko‘kimtir, qoramtir</i>	sifatlardagi ozaytirma darajani hosil qiladi
33.	-in I (yoki -n)	<i>kiyinmoq (o‘zlik), olinmoq (majhul)</i>	o‘zlik yoki majhul nisbat yasovchi qo‘shimcha
34.	-in II	<i>borayin.</i>	fe‘llardagi ma‘noni kuchaytiruvchi qo‘shimcha hisoblanadi
35.	-inchi yoki -nchi	<i>uchinchi, oltinchi</i>	tartib son yasovchi qo‘shimcha
36.	-ir	<i>toshirmoq.</i>	fe‘llardagi orttirma nisbat qo‘shimchasi
37.	-ish yoki -sh I	<i>borish, o‘qish</i>	fe‘llarning harakat nomi shaklini yasovchi qo‘shimcha
38.	-ish yoki -sh II	<i>yozishdi, to‘qishyapti</i>	fe‘lning birgalik nisbat qo‘shimchasi:
39.	-ish III	<i>Ko‘kish</i>	sifatlardagi ozaytirma daraja hosil qiluvchi qo‘shimcha
40.	-ish IV	<i>to‘lishdi</i>	Kuchsiz harakatni ifodalaydi
41.	-iq	<i>oshiqmoq, toliqmoq</i>	fe‘lning o‘zlik nisbatini hosil qiluvchi qo‘shimcha:
42.	-y I	<i>o‘qiy boshladi.</i>	ravishdosh hosil qiluvchi qo‘shimcha
43.	-y yoki -ay II	<i>to‘qiy, boray, kelay.</i>	fe‘lning buyruq-istak mayli shaklini yasaydi
44.	-ka	<i>surkamoq,</i>	fe‘lning kuchaytirma shaklini hosil qiladi
45.	-l yoki -il	<i>Ishga qattiq berildi (o‘zl. nisb.) Navbat berildi (maj. nisbat).</i>	fe‘lning o‘zlik yoki majhul darajasini hosil qiladi
46.	-la	<i>quvlamoq, savalamoq</i>	fe‘llarning kuchaytirish shaklini yasaydi
47.	-lar I	<i>uylar</i>	ko‘plik ma‘nosini hosil qiladi

48.	lar II	<i>onamlar</i>	hurmat ma'nosini hosil qiladi
49.	-lik	<i>aytmoqlik.</i>	harakat nomiga qo'shib, ma'noni kuchaytiradi
50.	loq yoki -aloh	<i>qizaloh, bo'taloh.</i>	kichraytirish va erkalash ma'nosini hosil qiladi
51.	-ma	<i>yurma, kelma.</i>	fe'lning bo'lishsiz shaklini hosil qiladi
52.	-mish	<i>kelmish, olmish.</i>	eskirgan shakl bo'lib, o'tgan zamon sifat-doshini hosil qilgan
53.	-moq	<i>bormoq, qolmoq</i>	harakat nomini hosil qiladi
54.	-moqda	<i>kelmoqda, yozmoqda.</i>	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi
55.	-moqchi	<i>o'qimoqchi</i>	kelasi zamon maqsad fe'llarini yasaydi
56.	-niki	<i>kitobniki, meniki</i>	qarashlilik shaklini hosil qiladi
57.	-ov	<i>ikkov, uchov</i>	jamlovchi son hosil qiluvchi qo'shimcha
58.	-ovlan	<i>Beshovlan</i>	xuddi shunday jamlovchi sonlarni yasaydi
59.	-oy	<i>Barchinoy, Hulkaroy</i>	ayol ismlariga qo'shiladi va erkalash-hurmatlash ma'nolarin ifodalaydi
60.	-on	<i>boribon, kelibon</i>	eskirgan qo'shimcha bo'lib, ravishdosh shaklini hosil qilgan
61.	-roq	<i>kattaroq, oqroq</i>	sifatlarning qiyosiy daraja shaklini hosil qiladi
62.	-r yoki -ar	<i> -: borar, o'qir</i>	kelasi zamon sifat-doshini yasaydi
63.	-sa	<i>- borsa</i>	fe'llardagi shart mayli shaklini hosil qiladi:
64.	-sin	<i>olsin</i>	fe'llardagi buyruq-istak maylini yasaydi
65.	-t -	<i>o'qit</i>	fe'llardagi ortirma nisbatni hosil qiladi
66.	-ta	<i>beshta, o'nta.</i>	dona son shaklini hosil qiladi
67.	-tacha	<i>beshtacha, o'ntacha.</i>	chama son shaklini hosil qiladi
68.	-uv	<i>boruv, keluv.</i>	fe'lning harakat nomi shaklini hosil qiladi
69.	-xon	<i>Karimaxon.</i>	odam ismlariga qo'shib, hurmat ma'nosini hosil qiladi
70.	-cha	<i>qushcha, kitobcha</i>	otlardagi kichraytirish-erkalash ma'nosini ifodalaydi:
71.	-chak	<i>kelinchak, tugunchak.</i>	otlardagi kichraytirish ma'nosini ifodalaydi

72.	-choq	<i>toychoq, qo'zichoq.</i>	otlardagi kichraytirish-erkalash ma'nosini ifodalaydi
73.	-yap	<i>ketyapman.</i>	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi

4. Ko'p ma'noli qo'shimchalar

Qo'shimchalar	Misollar
-li	aqlli(mavjudlik ma'n.), yog'li (ortiqlik ma'n.), o'tirishli (moslik)
-ma	qovurma (harakat natijasi), burama (odatdagi xususiyat)
-la	moyla(ega holatlik), randala(vosita), bolala (paydo qilish)
-chi	chorvachi (kasbga mansublik), bo'yoqchi (aniq sohaga tegishlilik),
-chilik	paxtachilik(soha), to'kinchilik(mavjudlik), tirikchilik (holat),
-dor	aybdor (mavjudlik ma'n.), bo'ydor (ortiqlik ma'n.)
no-	noumid (ega emaslik), nomard (qarama-qarshilik ma'n.)
be-	beg'ubor (yo'qlik ma'n.), beg'am (kamlik ma'n.)
-siz	asossiz (ega emaslik ma'n.), madorsiz (kamlik ma'n.)
-lik	otalik (qarindoshlik), bolalik (holat), mudirlik (kasb, hunar)
-sa	Bersa, eyman (shart); Qani o'qishga kirsas (orzu)

5. Sinonim qo'shimchalar

Qo'shimchalar	Misollar	Qo'shimchalar	Misollar
-dan/-ni	oshdan oling – oshni oling	no-/-siz	noo'rin – o'rinsiz
-dan/-ga	eshikdan sig' madi – eshikka sig' madi	-ona/- larcha	mardona - mardlarcha
-dan/-ning	ulardan biri - ularning biri	-sa/-sira	suv samoq - suvsiramoq
-ga/-ni	bunga tushunmadi-buni tushunmadi	-chi/-shunos	tilchi - tilshunos
-digan/-ar	ko'radigan ko'z - ko'rar ko'z	-lab/-dan	saharlab - sahardan
don/-li	bilimdon - bilimli	-(u)v/-(i)sh	o'quv - o'qish
ser/-li	sersuv-suvli	be/-siz	bemaza – mazasiz
ba/-li	bahaybat - haybatli	-qir/-ag' on	chopqir - chopag'on
-do'z/-chi	etikdo'z - etikchi		
-yotir -moqda -yapti	kelyapti – kelayotir – kelmoqda	-imtir/-ish/--roq	oqish – oqimtir - oqroq
-loq/-zor	o'tloq - o'tzor	-iz/-dir	tomiz - tomdir
-ish/-lar	kelishdi - keldilar	-li/-dor	unumli - unumdor

-soz/-chi	kemasoz - kemachi	-larcha/- chasiga	mardlarcha - mardchasiga
lay/-ligicha	ho'llay - ho'lligicha		

6. Omonim qo'shimchalar

№	Qo'shim -chalar	Ot	Sifat	Fe'l	Ravish	Yuklama Bog'lovchi
1	-a	jizza (s/y)	ko'tara (savdo)	qona (s/y) bora (sh/y) bura (sh/y)	-	sen-a
2	-ay	-	-	kuchay (s/y) boray (sh/y)	-	-
3	-ak	g'ijjak (s/y)	qirmizak (s/y)	-	-	-
4	-ar	-	-	ko'kar (s/y) kelar (sh/y)	-	-
5	-ga	bolaga (s/o')	-	surgamoq (sh/y)	-	-
6	-gi	supurgi (s/y)	yozi (s/y)	borgim (sh/y)	-	-
7	-gina	qizgina (sh/y)	-	-	-	qizimgina
8	-da	uyda (s/o')	-	undamoq (s/y)	tezda (sh/y)	kel- di-da
9	-day	-	kaftday (s/y)	-	o'qday (s/y)	-
10	-dir	-	-	sezdir (sh/y)	-	Kelgandir
11	-don	kuldun (s/y)	qadrnun (s/y)	-	-	-
12	-dor	chorvador	puldor (s/y)	-	-	-
13	-i	oti (s/o')	jannati (s /ya)	tinchi (s/y) to'zi (sh/y)	-	-
14	-ik	ko'rik (s/y)	egik (s/y)	birik (s/y)	-	-
15	-il	-	-	egildi (o'zl. n.) ichildi (maj. nisb.)	-	-
16	-in	ekin (s/y)	sog'in (sigir)	ko'rin (sh/y)	oldin (s/y)	-
17	-im	uyim (s/o') bilim (s/y)	ayrim (s/ya)	-	chekim (s/y)	-
18	-ing	uying (s/o')	-	oching (s/o')	-	-
19	-ingiz	uyingiz (s/o')	-	ochingiz (s/o')	-	-
20	-ir	-	-	gapir (s/y) o'chir (sh/y)	-	-

21	-ish	-	ko'k <u>ish</u> (sh/y)	yozi <u>sh</u> (sh/y) oli <u>sh</u> di (sh/y)	-	-
22	-iq	chizi <u>q</u> (s/y)	ochi <u>q</u> (s/y)	yo'li <u>q</u> (s/y) sini <u>q</u> moq (sh/y)	-	-
23	-y	-	-	qoray <u>di</u> (s/y) o'qi <u>y</u> (sh/y)	-	-
24	-k	to'sh <u>ak</u> (s/y)	chiri <u>k</u> (s/y)	bordi <u>k</u> (s/o')	-	-
25	-ka	yo'l <u>ka</u> (sh/y) etik <u>ka</u> (s/o')	-	is <u>ka</u> (s/y) sur <u>ka</u> (sh/y)	-	-
26	-kash	xas <u>kash</u> (s/y)	nos <u>kash</u> (s/y)	-	-	-
27	-ki	tep <u>ki</u> (s/y)	kech <u>ki</u> (s/y)	-	-	demak <u>ki</u> biladi <u>ki</u>
28	-kin	ep <u>kin</u> (s/y)	kes <u>kin</u> (s/y)	to'k <u>kin</u> (sh/y)	-	-
29	-kor	paxta <u>kor</u>	fusun <u>kor</u> (s/y)	-	-	-
30	-la	-	-	ishla (s/y) quv <u>la</u> (sh/y)	-	-
31	-lik	ochli <u>k</u> (s/y)	o'shli <u>k</u> (s/y)	-	-	-
32	-m	chida <u>m</u> (s/y) uka <u>m</u> (s/o')	-	yozd <u>im</u> (s/o')	-	-
33	-ma	tug <u>ma</u> (s/y)	yas <u>ma</u> (s/y)	kel <u>ma</u> (sh/y)	yon <u>ma</u> - yon (sh/ya)	-
34	-miz	onam <u>miz</u> (s/o')	-	olam <u>miz</u> (s/o')	-	-
35	-moq	quym <u>oq</u>	-	ich <u>moq</u> (sh/y)	-	-
36	-n	o'zin(i) s/o'	-	yasan <u>moq</u> (sh/y)	-	-
37	-on	to'zo <u>n</u> (s/y)	shodon <u>o</u> (s/y)	-	-	-
38	-oq	o'ro <u>q</u> (s/y)	qo'r <u>oq</u> (s/y)	-	-	kelibo <u>q</u>
39	-sa	-	-	suv <u>sadi</u> (s/y) kelsa (sh/y)	-	-
40	-si	otasi(s/o')	-	garangsi <u>moq</u> (sh/y)	-	-
41	-siz	-	ishs <u>iz</u> (s/y)	ichas <u>iz</u> (s/o')	to'xtov- s <u>iz</u> (s/y)	-
42	-t	-	-	to'lat <u>di</u> (s/y) o'qit <u>di</u> (sh/y)	-	-
43	-xon	kitob <u>xon</u> s/y otax <u>on</u> (sh/y)	-	-	-	-
44	-ch	quvon <u>ch</u> (s/y)	tin <u>ch</u> (s/y)	-	-	-
45	-cha	qizil <u>cha</u> /s/y	farg' onacha (s/y)	-	o'z <u>icha</u> (s/y)	-
46	-chak	kelin <u>chak</u>	kuyun <u>chak</u>	-	-	-

		(sh/y)	(s/y)			
47	-chan	-	yashov <u>chan</u> (s/y)	-	mahsich <u>an</u> (s/ya)	-
48	-chi	ish <u>chi</u> (s/y)	ayirmach <u>chi</u> (s/y)	-	-	kel- <u>chi</u>
49	-chiq	qop <u>chiq</u> (sh/y a)	sirpanch <u>chiq</u> (s/y)	-	-	-
50	-choq	toy <u>choq</u> (sh/y)	maqtanch <u>choq</u> (s/y)	-	-	-
51	-q	tar <u>q</u> (s/y)	yumsho <u>q</u> (s/ya)	-	-	-
52	-qa	o'q <u>qa</u> (s/o')	qis <u>qa</u> (s/y)	chay <u>qa</u> (sh/y)	-	-
53	-qi	chop <u>qi</u> (s/y)	sayro <u>qi</u> (s/y)	-	-	-
54	-qin	to'l <u>qin</u> (s/y)	sot <u>qin</u> (s/y)	boq <u>qin</u> (s/o')	-	-
55	-qoq	tut <u>qoq</u> (s/y)	yopish <u>qoq</u> (s/y)	-	-	-
56	-g' oq	to'l <u>g' oq</u> (s/y)	toy <u>g' oq</u> (s/y)	-	-	-

Shartli qisqartmalar:

s/y – so‘z yasovchi; s/o‘ – so‘z o‘zgartuvchi; sh/y – shakl yasovchi.

VARIANTDOSH SO‘ZLAR

So‘zlar	Varianti	So‘zlar	Varianti
Adab	<i>Odob</i>	Karta	<i>Qarta</i>
Ajdaho	<i>Ajdarho</i>	Oyoq osti	<i>Oyog‘ osti</i>
Ayqirmoq	<i>Hayqirmoq</i>	Podsho	<i>Podshoh</i>
Alifbo	<i>Alfavit</i>	So‘lqilloq	<i>So‘lqildoq</i>
Arava	<i>Aroba</i>	Suyunish	<i>Sevinish</i>
Aso	<i>Hassa</i>	Suymoq	<i>Sevmoq</i>
Asta	<i>Ohista</i>	San-man	<i>Sen-men</i>
Assalomalaykum	<i>Assalomu alaykum</i>	Sabo	<i>Saboh</i>
Astag‘ firulloh	<i>Astafirullo</i>	Tegizmoq	<i>Tekkizmoq</i>
Ash-pash	<i>Hash-pash</i>	Teva	<i>Tuya</i>
Baayni	<i>Baaynihi</i>	Terrarium	<i>Terrariy</i>
Badtar	<i>Battar</i>	Tupuk	<i>Tupuruk</i>
Bayir	<i>Bayri</i>	To‘nka	<i>To‘ngak</i>
Baytulhazan	<i>Baytulhazan</i>	Toychoq	<i>Toychiq</i>
Bama‘ni	<i>Bama‘no</i>	Xayolat	<i>Xayolot</i>
Baravar	<i>Barobar</i>	Chuchuk	<i>Suchuk</i>
Barahman	<i>Braxman</i>	Taqillamoq	<i>Taqirlamoq</i>
Benihoya	<i>Benihoyat</i>	Teravermoq	<i>Tera bermoq</i>

Bekinmoq	<i>Berkinmoq</i>	To'lg'azmoq	<i>To'lg'izmoq</i>
Boykot	<i>Boyqut</i>	Faylasuf	<i>Filosof</i>
Bolgar	<i>Bulg'or</i>	Chivin	<i>Chibin</i>
Boobro'	<i>Boobro'y</i>	Shahanshoh	<i>Shohanshoh</i>
Bosh barmoq	<i>Boshmaldoq</i>	Shohtut	<i>Shotut</i>
Buzurg	<i>Buzruk</i>	Shundoqqina	<i>Shundaygina</i>
Bugun	<i>Bukun</i>	Yugan	<i>Jugan</i>
Valiyulloh	<i>Valiulloh</i>	Yung	<i>Jun</i>
Vajh	<i>Vaj</i>	Yuravermoq	<i>Yura bermoq</i>
Valangor	<i>Valangir</i>	Yuqa	<i>Yupqa</i>
Gavhar	<i>Guhar</i>	O'tirish	<i>O'ltirish</i>
Gado	<i>Gadoy</i>	O'tirg'ich	<i>O'ltirg'ich</i>
Dumaloq	<i>Yumaloq</i>	Qabariq	<i>Qavariq</i>
Etkaz	<i>Etkiz</i>	Qabat	<i>Qavat</i>
YOvon	<i>Yobon</i>	Qaynona	<i>Qaynana</i>
Isirg'a	<i>Sirg'a</i>	Qaynota	<i>Qaynata</i>
Kaptar	<i>Kabutar</i>	Qaytaga	<i>Qaytanga</i>
Korol	<i>Qirol</i>	Qaytadan	<i>Qaytatdan</i>
Machit	<i>Masjid</i>	Quvalamoq	<i>Quvlamoq</i>
Moh	<i>Mah</i>	G'azinador	<i>Xazinador</i>

QISQACHA IBORALAR LUG'ATI

Ibora	Ma'nosi
Alamini olmoq	<i>Alamini tarqatish uchun zulm qilmoq</i>
Arpasini kim xom o'ribdi	<i>Nima yomonlik qilibdi?</i>
Aqli kirdi (aqlini tanimoq)	<i>Es-hushli bo'lmoq;</i>
Baloga qolmoq	<i>jazoga duchor bo'lmoq</i>
Bag'ri tosh	<i>Bemehr, iltifoti yo'q</i>
Belni bog'lamoq	<i>1) shaylanmoq; 2) astoydil kirishmoq.</i>
Boshi ko'kka yetdi (terisiga sig' may ketmoq, og'zining tanobi qochdib qo'yi mingga etmoq)	<i>Behad sevinmoq;</i>
Burni ko'tarilgan	<i>Gerdaygan, kibrlanmoq</i>
Gap(lar)i bir joydan chiqdi	<i>Fikr-o'ylari mos keldi</i>
Gah desa qo'liga qo'nadi	<i>Juda itoatkor</i>
Do'ppisini osmonga otmoq	<i>Juda quvonmoq</i>
Etti o'lchab bir kesdi	<i>Nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rmoq</i>
YOg' tushsa yalagudek	<i>Nihoyat darajada toza, orasta</i>
Jag'i ochildi	<i>Ko'p gapirdi</i>
Joni halqumiga keldi	<i>O'lar holatga kelidi</i>
Ilonning yog'ini yalagan	<i>O'ta ayyor, mug'ambir, quv</i>
Kalavanning uchini topdi	<i>Jumboqni hal qilish yo'lini topdi</i>
Kapalagi uchdi	<i>Nihoyatda qattiq cho'chimoq</i>
Ko'ziga issiq ko'rindi	<i>Tanish tuyilmoq</i>

Ko'zi ochilmoq
 Ko'zi to'rt bo'ldi
 Ko'kka ko'tarmoq
 Ko'ngli ko'tarildi
 Ko'ngli oq
 Ko'ngli to'ldi
 Ko'ngli yumshoq (ko'ngli bo'sh)
 Lafzi halol
 Lom-mim demadi
 Mazasi qochdi
 Misi chiqdi
 Mum tishlab qoldi
 Nomi chiqdi
 Oyog'ini qo'liga olib keldi
 Oralaridan qil o'tmaydi
 Og'zi qulog'iga etgan
 Oq-qorani tanidi
 Terisiga sig' may ketdi
 Tili bir qarich
 Tili shirin (tilidan bol tomadi)
 Tilining uchida turmoq
 Tirnoq ostidan kir qidirmoq
 Tishining kavagida saqlamoq
 Toqatlari toq bo'ldi
 Xo'rliqi keldi
 CHEhrasi ochildi
 Esi chiqib ketdi
 YUlduzni benarvon uradi
 Qo'y og'zidan cho'p olmagan
 Qo'li kaltalik qildi
 Hafsalasi pir bo'ldi

Yaxshi –yomonni tushunadigan bo'lmoq
Intizor bo'lmoq
Nihoyatda maqtamoq
Ruhlandi
Samimiy
Mamnun bo'ldi
Rahmdil
Va'dasida turadigan
1) gapirmadi;2) e'tiroz qilmadi.
Sog'ligi yomonlashdi
Asl qiyofasi fosh bo'ldi
Gapirmoy qoldi
Mashhur bo'ldi
Tez keldi
Juda inoq, ahil
Juda xursand
Hayot tajribasiga ega bo'ldi
Juda quvondi
Maqtanishga haqli bo'ldi
Yoqimli gapiradigan
Xotirasida tiklab ayta olmaslik
Yomon niyat bilan aybni qidirish
O'ta ehtiyot bilan
Sabr-chidami tugadi
O'ksinib yig'lashga tayyor
Xafagarchiligi tugadi
Nihoyatda qattiq qo'rqmodi
O'ta abjir, chaqqon, chapdast
O'ta yuvosh
Imkoniyati cheklangan
Biror ishni qilishga istak-intilishi yo'qoldi

QISQACHA PARONIMLAR LUG'ATI

•

A

Abadiy – mangu
Abro' – qosh
Abzal – ot, eshak egar-jabdug'i
Abgor – nochor, xarob
Adib – yozuvchi
Adl – adolat, odillik
Adresat – xat, telegramma oluvchi
Azm – qat'iy qaror, jazm
Ayon – ma'lum, ravshan
Alamon – olomon

Adabiy – badiiy adabiyotga oid
Obro' – e'tibor, hurmat
Afzal – a'lo, yaxshi
Afkor – fikrlar
Adip – ko'rpa, to'n chetidagi mag'iz
Adil – tik, egilmagan
Adresant – xat, telegramma yuboruvchi
Azim – g'oyat katta, ulkan
A'yon – amaldorlar
Al'amon – omonlik uchun murojaat

Alo – ustiga: “Nur alo nur”
Alam – jismoniy og‘riq
Alpoz – ahvol, vaziyat, holat
Amr – buyruq, farmon
Ariq – suv oqadigan joy
Artish – tozalash
Asl – tub, negiz, haqiqiy
Ato – in‘om, sovg‘a
Achipti – oshiq o‘yini turi
Ahil – totuv, inoq

A‘lo – eng yuqori, eng yaxshi
A‘lam – diniy arbob, bosh mufti
Alfoz – lafzlar, so‘zlar, iboralar
Amir – podsho, xon (qad. Buxoroda)
Oriq – ozg‘in
Archish – po‘stlog‘idan ajratish
Asil – a‘lo sifatli, eng yaxshi, toza
Ota – farzandli er kishi
Achibdi – (qatiq) achibdi
Ahl – bir soha odamlari

B

Bad – yomon, yaramas
Badnafs – nafsi buzuq
Bayon – yozma ish
Bazur – bahuzur, bemalol
Bakor – koriga yaramoq
Bal – raqs kechasi
Band – modda, paragraf; mashg‘ul
Barmoq – a‘zo
Biyron – so‘zamol, gapdon
Bikr – iffatli qiz, bokira
Birov – kimdir
Bob – kitobning qismlari
Bod – kasallik
Borlik – majudlik
Boshda – avval
Bog‘li – bog‘i bor
Bud – bor-yo‘q narsa
Burj – 12 ta yulduz turkumi
Buril – burilmoq
Burg‘i – parma
Buqa – yosh erkak qoramol

Ba‘d – keyin, so‘ng
Badnafas – nafasi sovuq
Bayan – musiqa asbobi
Bazo‘r – zo‘rg‘a
Bekor – ishsiz
Ball – baho o‘lchovi birligi
Bant – sochga taqiladigan lenta
Bormoq – borish
Biron - biror
Bikir – pishiq, baquvvat
Burov – burash, buramoq
Bop - munosib
Bot – tez; botmoq
Borliq – mavjudot
Boshida – yonida, oldida
Bog‘liq – bog‘langan
But – to‘liq, bekamu ko‘st
Burch – majburiyat
Burul – xoldor, ko‘kish (ot)
Burg‘u – qadimgi cholg‘u asbobi
Buq‘a – madrasadagi hujra

V

Vaqf – diniy muassasa mulki
Voqe – sodir(bo‘lmoq)

Voqif – xabardor
Voqea – hodisa

G

Ganj – boylik, xazina
Gilos – meva

Ganch – suvoq materiali, alebastr
Go‘los – to‘q jigar rang

D

Davo – dori-darmon

Da‘vo – arz, talab

Davr – vaqt oralig‘i	Dovur – ot yopinchiq‘i
Dadil – dovyurak	Dalil – isbot
Dala – ekin ekiladigan joy, maydon	Dara – ikki tog‘ oralig‘idagi jarlik
Darz – yoriq, yorilgan	Dars – mashg‘ulot, saboq
Dazmol –kiyim tekislaydigan asbob	Dastmol – qozon yuvq‘ich
Daha – shaharning ma‘muriy bo‘linishi	Daho – kuchli zehn va iste‘dod
Devon – shoirning she‘rlari to‘plami	Divan – yumshoq mebel turi
Diplomat – davlat xizmatchisi	Diplomant – diplom yozuvchi kishi
Dub – daraxt	Dup – tovushga taqlid bild. so‘z
•	J

Jodi – o‘t qirqadigan asbob	Jodu – sehr
Juda – eng, g‘oyat	Judo - ayriliq
•	Z

Zafar – g‘alaba	Za‘far – sap-sariq rang
•	I

Ilk – avvalgi	Ilik – suyak ichidagi yog‘ simon modda
•	K

Kampaniya – ma‘lum ishlar tizimi	Kompaniya – korxonona, birlashma
Kaft – qo‘lning qismi	Kift - elka
Kat – yog‘ och karavot	Kart – kart dumba
Kvadrat – teng yoqli to‘rtburchak	Kvadrant – doiraning choragi
Kontakt – aloqa, bog‘lanish	Kontrakt – shartnoma
Kuyindi – kuyishdan qolgan iz	Kuyundi – kuyunmoq

Lahm – suyaksiz go‘sh	Lahim – erosti yo‘li
Lop – birdan	Lof – mubolag‘a
•	M

Matal – hikmatli so‘zlar	Ma‘tal – kutib qolgan, muntazir
Metr – uzunlik o‘lchovi: 100 sm.	Metr –hurmat bildiruvchi so‘z (frants.)
•	N

Nasha – narkotik modda	Nash‘a – estetik lazzat, huzur
Naq – xuddi, ayni	Naqd – puli darhol to‘lanadigan
Nufuz – obro‘, e‘tibor	Nufus – aholi
•	O

Olu – olxo‘ri	Oluv – olish
Ora –o‘rta	Oro – pardozi

Oxir – chegara, poyon
Oqlik – oq ranglik
Orasida – o‘rtasida, ichida

Oxur – hayvonlarga em solinadigan joy
Oqliq – sut mahsulotlari
Orasta – bezatilgan, yasatilgan

S

Sada – daraxt turi
Sayd – ov

Sayl - bayram
Sanat – sanatmoq
Saqov – ot,eshaklar kasalligi
Suyilmoq – sevilmoq
Surat – rasm
Surgin – surmoq

Sado – ovoz, tovush, aks-sado
Sayid – Muhammad payg‘ambar avlodlari
Sayr – sayr qilmoq
San‘at – badiiy ijodiyot turi
Soqov – gung, tilsiz
Suyulmoq – suyuqlashmoq
Sur‘at - tezlik, temp
Surgun - badarg‘a

T

Tab – taft, harorat
Talat – talatmoq
Tambur – vagon kiraverishidagi bo‘lma
Tana – gavda
Tarif – baholar ko‘rsatkichi
Tasir – tasir-tusur
Taqib – taqib qo‘ydi
Tib – meditsina
Tub – tag, ost
Tutin – tutinmoq

Ta‘b – kishining ichki tabiati; mijoz
Tal‘at – yuz, chehra
Tanbur – cholg‘u asbobi

Ta‘na – gina, kudurat
Ta‘rif – tavsif, tasvir
Ta‘sir – tazyiq
Ta‘qib – yashirincha kuzatish
Tip – toifa
Tip – o‘simlik, daraxtning har donasi
Tutun – olov tutuni

U

Uzik - uzilgan
Uyim - mening uyim
Ulish - ulimoq(it,bo‘ri)
Unim - (mening) unim
Urish - urmoq

Uzuk - taqinchoq
Uyum - to‘da
Ulush - bo‘lak, hissa
Unum - hosil, baraka
Urush – jang

F

Faqir – kambag‘al

Paqir - chelak

X

Xayoli – o‘yi, fikri
Xalq – el,ulus
Xam – egik, quyi solingan
Xar – eshak
Xiyol – sal, ozgina
Xiyla – ancha

Hayoli – iffatli
Halq - halqum
Ham – (men) ham
Har – har kim
Xayol – o‘y, fikr
Hiyla – makr, firib

Xil-xil - turli-tuman
Xirs – ayiq
Xol – badandagi qora tug‘ ma dog‘
Xoli – yolg‘iz, bo‘sh, band emas
Xosiyat – xoslik holati
Xur – tovush: xur-xur
Xush – yaxshi, ma‘qul, durust

•

Hil-hil - hil-hil (pishgan)
Hirs – kuchli istak, intilish
Hol – ahvol
Holi - ahvoli
Hosiyat – his etish
Hur – erkin, ozod
Hush – ong, aql, idrok, es-hush

SH

Sher – hayvon: arslon
Shox – daraxt yoki hayvon shoxi
Shuba – mo‘ynali qishki kiyim

•

She‘r – vazn, qofiyali kichik badiiy asar
Shoh – podsho
Shu‘ba bo‘lim, idora

E

Ellik – son
Esiz – attang, afsus
Ehzon – qayg‘u hukm surgan kulba

•

Enlik - ikki enlik (xat)
Essiz – esi yo‘q, nodon
Ehson – xayrli ish, ezgulik

Y

Yetdi – etib bordi
Yagana – ekinni siyraklatish
Yetdi – etib bordi
Yuvindi - suv bilan tozalandi
Yolqin - o‘lov yolqini
Yondash – yaqinlash
Yoriq – yorilgan
Yolqin - o‘lov yolqini
Yondash – yaqinlash
Yoriq – yorilgan

•

Yetti – son
Yagona – yakka, tanho, yolg‘iz
Yetti – son
Yuvindi – iflos suv
Yorqin – o‘ta yorug‘
Yondosh – yonidagi
Yorug‘ – nur
Yorqin – o‘ta yorug‘
Yondosh – yonidagi
Yorug‘ – nur

Q

Qad – qomat
Qayd – ta‘kid
Qala – o‘tinni taxla
Qalmoq – millat
Qarz – qaytariladigan pul, buyum
Qari – kekxa, mo‘ysafid
Qat‘i – qat‘i nazar
Qiyq – tovush: qiyq etdi
Qiyamat – baho
Qirlik – qirda turuvchi
Qism – bo‘lak
Qolib – qolmoq
Quyildi – oqdi
Qura – qura boshladi

Qat – qavat, qatlam
Qayt – o‘qchish, qusish
Qal‘a – shahar
Qolmoq - qolish
Qars – tovush: qars etdi
Qa‘ri – chuqur eri, osti, ichi
Qat‘iy – uzil-kesil
Qiyiq – qiyilgan; ro‘mol
Qimmat – narxi baland
Qirliq – jun qaychi
Qisim – siqim
Qolip – oyoq kiyimi moslamasi
Quyuldi – quyushlashdi
Qur‘a - chek

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.Karimov. Barkamol avlod - O‘zbekitson taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997.
2. A.Nurmonov,
B. Yo‘ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –T.: 2001,
3. A.Hojiev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2002,
4. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - T.: “Talqin” nashriyoti. 2005,
5. G‘.Abdurahmonov, A. Sulaymonov, X. Xoliyorov, J. Omonturdiev Hozirgi o‘zbek adabiy tili “O‘qituvchi” T.,1979, Sintaksis.
6. A. Abduazizov. O‘zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi, Toshkent, 1992-yil.
7. H. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Kirish. Fonetika va fonologiya. Grafika va orfografiya) Toshkent. 2000-yil. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. “Fan” nashriyoti, T., 1988 y.
8. E. Begmatov, A. Boboeva, M. Asomiddinova B.Umirqulov
9. M.Mirzaev, S.Usmonov, I.Rasulov O‘zbek tili. T., “O‘qituvchi” 1978 yil
10. M. Asqarova. Hozirgi uzbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent. 2000-yil
11. U.Tursunov . Hozirgi o‘zbek adabiy tili T.,”O‘qituvchi” 1979 yil
12. SH. SHOabdurahmonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. T., “O‘qituvchi” 1980 yil
13. M.Asqarova, A. Xojiev I.Rasulov, X.Doniyorov
14. A.SHomaqsudov, I.Rasulov O‘zbek tili stilistikasi. T., “O‘qituvchi” 1983 yil
15. R.Qo‘ng‘urov, X.Rustamov Hozirgi o‘zbek adabiy tili. «O‘zbekitson», Toshkent. 1992-yil
16. U. Tursunov, J.Muxtorov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. «O‘zbekitson», Toshkent. 1992-yil
17. Sh. Rahmatullaev..
18. A.G‘ulomov, .N.Tixonov, O‘zbek tili morfem lug‘ati. T., “O‘qituvchi”, 1977 y.
19. R.Qo‘ng‘urov T., “Fan” nashriyoti 1976 yil
20. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. T., “Fan” 1975 yil. 1-qism
- O‘zbek tili grammatikasi. T., “Fan” 1976 yil 2-qism
- O‘zbek tili grammatikasi. T., “Fan” 1976 yil 2-qism
- O‘zbek tilining imlo lug‘ati. T., “O‘qituvchi”, 1995- yil.
- R. Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma'ruza

- matnlari (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Toshkent, 2000-yil.
21. Q. Safaev, R. Yunusov Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent. 2000.
22. M. Sodiqova. Usmonova. O'zbek tilining orfoepik lug'ati. T., 1977-yil.
23. D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, M. Maqsudova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Toshkent. 2001-yil.
24. R. Ikromova, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, M. Maqsudova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya.). Toshkent. 2001-yil.
25. R. Ikromova D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent. 2001-yil.
26. M.A. Hamroev O'zbek tilidan ma'ruzalar majmasi. T., 2007-yil.
27. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-2 tom. Moskva. 1981-yil
28. A. Hojiev O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent. 1974-yil
29. A. G'ulomov, A.N. Tixonov, R. Qo'ng'urov. O'zbek tili morfem lug'ati. Toshkent. 1977-yil.
30. "Qalqon" jurnali. 2004 yil, 7-son.
31. Sh. Rahmatullaev. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. T., 1980-yil.
32. Sh. Rahmatullaev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T., 1978-yil.
33. Sh. Rahmatullaev. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. T., 1984-yil.
32. SH. Rahmatullaev Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T., "Universitet", 2006.
33. R. Sayfullaeva va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. –T., 2006
34. "Qalqon" jurnali. 2004-yil, 7-son.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	5
Tilshunoslik haqida umumiy aʼlumot	6
1-§ Tilshunoslik fani haqida maʼlumot	6
2-§ Til ijtimoiy hodisadir	6
3-§ Tilning tuzilishi	7
4-§ Til – taraqqiy qilib, oʻzgarib boruvchi hodisa	7
5-§ Milliy til va uning tarkibiy qismlari	8
6-§ Tillarning tasnifi	10
7-§ Tillarning geneologik tasnifi	11
8-§ Tillarning morfologik tasnifi	12
FONETIKA	16
1-§ Fonetika va fonologiya haqida umumiy maʼlumot	16
2-§ Tovush va fonema	17
3-§ Fonetik akustika	18
4-§ Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi	18
5-§ Oʻzbek tilining fonetik vositalari	19
6-§ Nutq tovushlarining tasnifi	21
7-§ Unli tovushlar va ularning tasnifi	22
8-§ Ayrim unli tovushlar tavsifi	23
9-§ Undosh tovushlar va ularning tasnifi	23
10-§ Undosh tovushlar tavsifi	24
11-§ Til undoshlari	28
12-§ Qoʻsh tovushlar va ularning qoʻllanilishi	30
13-§ Nutqning asosiy fonetik birliklari	30
14-§ Urgʻu	32
15-§ Nutq tovushlarining oʻzgarishi	34
16-§ Til va yozuv	37
17-§ Kirill grafikasi asosidagi oʻzbek yozuvi	38
18-§ Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalar	39
19-§ Orfografiya (imlo)	40
LEKSIKOLOGIYA	48
1-§ Leksikologiya haqida umumiy maʼlumot	48
2-§ Soʻzning leksik va grammatik maʼnolari	49
3-§ Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar	50
4-§ Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari	52
5-§ Oʻzbek tilining lugʻat tarkibi	54
6-§ Oʻzbek tili leksikasida oʻz va oʻzlashgan qatlam	56
7-§ Oʻzbek tili leksikasining ishlatilish doirasi	58
8-§ Tarixiy jihatdan oʻzbek tili leksikasi	60
9-§ Oʻzbek tili leksikasining boyish manbalari	62
10-§ Frazologiya	63

11-§ Leksikografiya	64
SO‘Z YASALISHI	68
GRAMMATIKA	70
1-§ Grammatika haqida umumiy ma’lumot	70
2-§ So‘z shakl va grammatik ma’no	70
3-§ Grammatik ma’noni ifodalash vosita va usullari	71
4-§ So‘zning grammatik shakli	71
5-§ Grammatik kategoriya	73
6-§ So‘z turkumlari	73
OT	78
1-§ Otning leksik-grammatik xususiyatlari	78
2-§ Otlarning ma’no turlari	79
3-§ Otlarda son kategoriyasi	81
4-§ Otlarda egalik kategoriyasi	82
5-§ Otlarda kelishik kategoriyasi	84
6-§ Otlarning yasalishi	89
7-§ Otlarda modal shakl yasalishi	93
8-§ Otlarning tuzilish jihatdan turlari	94
SIFAT	99
1-§ Sifatning leksik-grammatik xususiyatlari	99
2-§ Sifat darajalari	100
3-§ Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar	100
4-§ Sifatlarning otlashishi	102
5-§ Sifatlarning yasalishi	102
6-§ Sifatlarning tuzilish turlari	105
SON	109
1-§ Sonning leksik-grammatik xususiyatlari	109
2-§ Sonning ma’no turlari	111
3-§ <i>Bir</i> sonining o‘ziga xos grammatik xususiyatlari	114
4-§ Sonlarning otlashishi	115
5-§ Sonlarning tuzilish jihatdan turlari	115
OLMOSH	119
1-§ Olmoshning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari	119
2-§ Olmoshlarning ma’no turlari	119
3-§ Boshqa turkumga oid so‘zlarning olmoshga ko‘chishi	122
4-§ Olmoshlarning tuzilish turlari	122
FE‘L	126
1-§ Fe‘lning leksik-grammatik xususiyatlari	126
2-§ O‘timli va o‘timsiz fe‘llar	127
3-§ Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar	128
4-§ Fe‘l nisbatlari	130
5-§ Fe‘lning vazifadosh shakllari	132
6-§ Fe‘llarning tuslanishi(shaxs-son kategoriyasi)	139
7-§ Fe‘l zamonlari	141
8-§ Fe‘l mayllari	147

9-§ Fe'llarning yasalishi	148
10-§ Fe'lning modal ma'no ifodalovchi shakllari	150
11-§ To'liqsiz fe'llar	151
RAVISH	155
1-§ Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari	155
2-§ Ravishlarning ma'no turlari	157
3-§ Ravishlarning yasalishi	158
4-§ Ravishlarning tuzilishi jihatdan turlari	160
YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI	163
1-§ Ko'makchi haqida ma'lumot	163
2-§ Bog'lovchi	164
2-§ Yuklama	167
ALOHIDA OLINGAN SO'ZLAR GURUHI	172
1-§ Modal so'zlar	172
2-§ Undov so'zlar haqida ma'lumot	173
3-§ Taqlid so'zlar	174
SINTAKSIS	178
1-§ Sintaksis haqida umumiy ma'lumot	178
2-§ Sintaktik aloqa turlari	178
3-§ Boshqaruv	179
4-§ Bitishuv	179
5-§ Moslashuv (muvofiqlashuv)	180
6-§ So'zlarning o'zaro sintaktik munosabatga kirishuvi	180
7-§ So'z birikmasi	181
8-§ So'z birikmalarining tasnifi	182
GAP	183
1-§ Gap va uning belgilari	183
2-§ Gapning turlari	184
3-§ Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari	185
4-§ Gapning emotsionallikka ko'ra turlari	187
GAPLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI	190
1-§ Sodda gap turlari	190
2-§ Ikki bosh bo'lakli gapning tuzilishi	191
3-§ Bir bosh bo'lakli gaplar	192
GAP BO'LAKLARI	198
1-§ Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot	198
2-§ Gapning bosh bo'laklari	199
3-§ Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi	203
GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI	203
1-§ Ainqlovchi	203
2-§ To'ldiruvchi	206
3-§ Hol	208
4-§ Gap bo'laklarining joylashish tartibi	211
GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI	218
1-§ Uyushiq bo'laklar haqida umumiy ma'lumot	218

2-§ Uyushiq qator a'zolarining o'zaro aloqaga kirishuvi	219
3-§ Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlantiruvchi birliklar	220
GAPNING AJRATILGAN BO'LAKLARI	221
1-§ Ajratilgan bo'laklar haqida umumiy ma'lumot	221
2-§ Ajratilgan to'ldiruvchilar	222
3-§ Ajratilgan aniqlovchilar	222
4-§ Ajratilgan izohlovchilar	223
5-§ Ajratilgan hollar	223
GAP BO'LAKLARI SANALMAYDIGAN BIRLIKLAR	227
1-§ Undalma	227
2-§ Kirish so'z va kirish birikma	228
3-§ Kiritma gap	229
QO'SHMA GAP	232
1-§ Qo'shma gap turlari haqida ma'lumot	232
2-§ Bog'langan qo'shma gap	232
3-§ Bog'langan qo'shma gapda tinish belgilarining ishlatilishi	234
4-§ Ergashgan qo'shma gap	234
5-§ Bog'lovchisiz qo'shma gap	241
6-§ Bog'lovchisiz qo'shma gapning turlari	242
7-§ Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi	243
8-§ Murakkab qo'shma gap haqida ma'lumot	244
O'ZGALARNING NUTQINI IFODALASH USULLARI	252
1-§ Ko'chirma gap	252
2-§ Ko'chirma gapda tinish belgilarining ishlatilishi	252
3-§ O'zlashtirma gap	253
4-§ Ko'chirma va unda ishlatiladigan tinish belgilari	254
5-§ Dialog	254
USLUBIYAT (STILISTIKA). NUTQ USLUBLARI	257
1-§ Usulbiyat haqida umumiy ma'lumot	257
2-§ Nutq uslublari	257
3-§ Nutq madaniyati haqida	259
USLUBIYAT TURLARI	262
1-§ Yozma va og'zaki nutq me'yorlari haqida	262
2-§ Leksik uslubiyat	262
3-§ Fonetik uslubiyat	264
GRAMMATIK USLUBIYAT. MORFOLOGIK USLUBIYAT	264
1-§ Ot turkumiga xos uslubiy xususiyatlar	264
2-§ Sifat turkumiga xos uslubiy xususiyatlar	265
3-§ Olmosh turkumiga xos uslubiy xususiyatlar	265
4-§ Fe'llarga xos uslubiy xususiyatlar	265
SINTAKTIK USLUBIYAT	266
1-§ Gap bo'laklarining uslubiy xususiyatlari	266
2-§ Ayrim gap turlari o'rtasidagi sinonimiya	267
3-§ Qo'shma gaplarning uslubiy xususiyatlari	267
4-§ Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari	267

ISHORAT QOIDALARI (PUNKTUATSIYA)	271
1-§ Nuqta	271
2-§ So‘roq belgisi	271
3-§ Undov belgisi	272
4-§ Ko‘p nuqta	272
5-§ Ko‘p nuqta, undov, so‘roq belgilarning birikkan holda kelishi	272
6-§ Vergul	273
7-§ Nuqtali vergul	273
8-§ Ikki nuqta	274
9-§ Tire	274
10-§ Qavs	274
11-§ Qo‘shirnoq	275
ILOVALAR	278
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	295

I. O‘ZBEK TILIDAGI QO‘SHIMCHA TURLARI

1. SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

Ot yasovchi qo‘shimchalar

Qo‘shimcha	Misollar	Qo‘shimcha	Misollar
Shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar			
-chi	<i>suv<u>chi</u></i>	-do‘z	<i>etikdo‘z</i>
-dosh.	<i>sin<u>fdosh</u></i>	-soz	<i>aravaso<u>z</u></i>
-kor	<i>paxta<u>kor</u></i>	-xo‘r	<i>choyxo‘<u>r</u></i>
-kar	<i>miska<u>kar</u></i>		
-gar	<i>zarga<u>gar</u></i>		
-gor	<i>talab<u>gor</u></i>		
-kash	<i>Arava<u>kash</u></i>	-go‘y	<i>Duogo‘<u>y</u></i>
-dor	<i>CHorva<u>dor</u></i>	-parast	<i>shaxsiyat<u>parast</u></i>
-bon	<i>Saroy<u>bon</u></i>	-furush	<i>meva<u>furush</u></i>
-boz	<i>dor<u>boz</u></i>	-vachcha	<i>Tog‘<u>avachcha</u></i>
-paz	<i>Osh<u>paz</u></i>	-(u)vchi	<i>yoz<u>uvchi</u>, uchuvchi</i>
-xon	<i>Gazet<u>xon</u></i>	-(o)vchi	<i>tingloy<u>chi</u></i>
-shunos	<i>tilshunos</i>	ham-	<i><u>ham</u>suhbat</i>
-sil	<i>yo‘qsil (arx.)</i>		
Narsa-buyum oti yasovchi qo‘shimchalar			
-gich	<i>tishkovla<u>gich</u>, ko‘rsat<u>kich</u>,</i>	-gi	<i>supur<u>gi</u>,</i>
-kich	<i>qisq<u>ich</u>,</i>	-ki	<i>tep<u>ki</u>,</i>
-qich	<i>chizg‘<u>ich</u>.</i>	-qi	<i>tutat<u>qi</u>,</i>
-g‘ich		-g‘i	<i>chalg‘<u>i</u>,</i>
		-g‘u	<i>tuyg‘<u>u</u></i>
-dak	<i>yugur<u>dak</u>,</i>	-iq,	<i>topshiri<u>q</u>,</i>
-doq -	<i>qovur<u>doq</u>.</i>	-ik	<i>teshi<u>k</u>.</i>
-ma	<i>to‘q<u>ima</u>,</i>	-uq	<i>uch<u>uq</u>, yutu<u>q</u>.</i>
-m, -im	<i>to‘pl<u>am</u>, kiy<u>im</u>,</i>	-q, -oq	<i>taro<u>q</u>, o‘ro<u>q</u></i>
-um	<i>un<u>um</u>, uy+<u>um</u> – uyum</i>	-don	<i>qalam<u>don</u>, tuz<u>don</u></i>
-t	<i>qurt(quri+t),</i>	-qin	<i>to‘l<u>qin</u></i>
-it	<i>chiq<u>it</u>,</i>	-qun	<i>uch<u>qun</u></i>
-at	<i>ko‘cha<u>t</u>,</i>	-g‘in	<i>yong‘<u>in</u></i>
-ot	<i>siz<u>ot</u>.</i>	-g‘un	<i>yulg‘<u>un</u></i>
--in	<i>Yig‘<u>in</u></i>	-qoq	<i>Bot<u>qoq</u></i>
-un	<i>tug<u>un</u></i>	-kak	<i>Esh<u>kak</u></i>
-on	<i>to‘z<u>on</u></i>	-gak	<i>Ilg<u>ak</u>.</i>
-k, -ak	<i>kur<u>ak</u>, varra<u>ak</u>.</i>	-(i) sh	<i>quril<u>ish</u>, turlan<u>ish</u>.</i>
-(u)v,	<i>yoz<u>uv</u>,</i>	-ak	<i>Qarsa<u>ak</u></i>
-(o v	<i>sayloy<u>u</u>.</i>	-oq	<i>qaldir<u>oq</u></i>

-ildoq	<i>shaqildoq.</i>	-a	<i>sharshara, jizza.</i>
-os	<i>gulduros</i>	-(i)ndi	<i>chirindi, cho'kindi</i>
-poya	<i>bedapoya, g' o'zapoya.</i>		
machoq-	<i>bekinmachoq,</i>	-chiq	<i>yopinchiq, suyanchiq.</i>
-chak	<i>burchak, kemirchak.</i>	-iz	<i>bo'g'iz</i>
-miq	<i>bulamiq</i>	-noma	<i>taklifnoma</i>
-mish	<i>o'tmish, qilmish.</i>		
-kilik	<i>Ichkilik</i>	-moq	<i>Quymoq</i>
-gilik	<i>ko'rgilik.</i>	-mak	<i>chertmak (o'yin turi)</i>
-cha	<i>qizilcha, olacha.</i>	-ka	<i>yo'lka</i>
O'rin-joy otini yasovchi qo'shimchalar			
-zor	<i>gulzor, paxtazor,</i>	-iston	<i>O'zbekiston, guliston.</i>
-loq	<i>o'tloq, toshloq.</i>	-goh	<i>saylgoh, o'yingoh.</i>
-xona	<i>oshxona, choyxona.</i>	-obod	<i>YUnusobod, YAngiobod.</i>
Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar			
-chilik	<i>dehqonchilik, tirikchilik.</i>	-lik -liq	<i>bolalik, borliq</i>
-ot- -at	<i>targ'ibot madaniyat</i>	-ch	<i>sevinch, quvonch</i>
garchilik	<i>odamgarchilik, og'aynigarchilik.</i>	-sh -ish	<i>o'qish tuzilish</i>
-(u)v	<i>undov, uquv</i>	-i	<i>suyunchi</i>

Sifat yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimch a	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
1. Otdan sifat yasovchi qo'shimchalar			
-li	<i>kuchli</i>	-lik	<i>toshkentlik (bola)</i>
-siz	<i>tuzsiz</i>	-iy, -viy	<i>tarbiyaviy soat, devoriy gazeta</i>
-gi -ki -qi	<i>bahorgi ishlar qishki kiyim pistoqi</i>	-aki	<i>jizzaki dahanaki og'zaki</i>
-yi	<i>havoyi</i>	-chan	<i>ishchan bola</i>
ser-	<i>serhosil</i>	ba-	<i>badavlat</i>
be-	<i>beg'ubor, bexabar</i>	-simon	<i>sharsimon</i>
-dor	<i>vafodor</i>	-kor, -gar	<i>isyonkor, ig' vogar</i>
-i	<i>qishloqi</i>	-cha	<i>arabcha (o'yin)</i>
-namo	<i>darveshnamo</i>	-parvar	<i>xalqparvar,</i>
-dek -day	<i>muzdek (suv) jo'jabirday (jon)</i>	--lik, -liq	<i>ko'ylaklik (chit), bolalik (chog'lar)</i>
-shumul	<i>olamshumul,</i>	-mand	<i>kasalmand</i>
-don	<i>gapdon, bilimdon</i>	-kash	<i>dilkash, hazilkash</i>
-bop	<i>palovbop, qishbop</i>	xush-	<i>xushfe'l, xushhavo</i>

-in	<i>erkin, otashin</i>	bar-	<i>barhayot</i>
-parast	<i>mansabparast, maishatparast</i>	-vor	<i>devonavor, afsonavor</i>
-chil	<i>xalqchil, izchil.</i>	bad-	<i>badbaxt, badnafis</i>
-i	<i>jannati (kampir)</i>	-loq	<i>baqaloq</i>
-kor	<i>fusunkor(husn)</i>	-kash	<i>zahmatkash(odam)</i>
-chi	<i>vahimachi(odam)</i>	-von	<i>zo'rayon(kishi)</i>
-qa:	<i>loyqa(suv)</i>	-omuz	<i>hazilomuz(gap)</i>
-xo'r	<i>g'amxo'r(odam)</i>	-soz	<i>soatsoz(usta)</i>
Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar			
-gir	<i>sezgir,</i>	-kun	<i>tushkun</i>
-g'ir	<i>olg'ir</i>	-qin	<i>jo'shqin</i>
-kir	<i>o'tkir,</i>	-g'in	<i>ozg'in</i>
-qir	<i>topqir,</i>	-g'un	<i>turg'un</i>
-qur	<i>uchqur</i>	-qun	<i>tutqun</i>
-choq	<i>Maqtanchoq</i>	-k	<i>chirik</i>
-chak	<i>Kuyunchak</i>	-ik	<i>teshik</i>
-chiq	<i>qizg'anchiq</i>	-uk	<i>tuzuk</i>
		-ak	<i>g'alvirak</i>
-q	<i>iliq</i>	-qoq	<i>tirishqoq toyg'oq</i>
-uq	<i>buzuq</i>	-g'oq	
-iq	<i>siniq</i>		
-qi	<i>sayroqi qush</i>	-oq	<i>qochoq</i>
-ag'on	<i>bilag'on, chopag'on</i>	-mon	<i>bilarmon,</i>
-ma	<i>burma ko'ylak</i>	-(a)rli	<i>etarli, zerikarli</i>
-ch	<i>tinch, jirkanch</i>	-g'ich	<i>yulg'ich(odam)</i>
-ong'ich	<i>tepong'ich, suzong'ich</i>	-ovuch	<i>hurkovuch, iskovuch</i>
-mas	<i>o'tmas(pichoq)</i>	-(i)ndi	<i>asrandi (bola)</i>
-a	<i>ko'tara (savdo)</i>	-msiq	<i>qarimsiq, achimsiq</i>
3. Sifat, ravish, taqlid so'zlardan sifat yasovchi qo'shimchalar			
-gi	<i>kechagi, dastlabki</i>	no-	<i>noma'lum</i>
-lom	<i>sog'lom</i>	-ildoq	<i>bijildoq</i>

Fe'l yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-la	<i>ishla, oqla, sekinlamoq, shivirla, chuhlamoq, senlamoq,</i>	-lan -lash	<i>faxrlandi, ikkilandi, ko'maklashdi, suhbatlashdi.</i>
-illa	<i>chirqilla</i>	-ira	<i>yarqiradi,</i>
-a	<i>tuna, bo'sha, o'yin+a-o'yna.</i>	-sira -sa	<i>sensira suvsa</i>

-(a)r	<i>qisqar</i> , ko'kar	-(a)y	<i>qoray</i> , kuchay,
-(i)k	<i>birik</i> moq yo'liqmoq	-(i,o) t	yo'qot, to'lat, berkit
-(i)q			
-i	<i>boyi</i> , tinchi	-ir	<i>gapir</i> , tupir.

Ravish yasovchi qo'shimchalar

Qo'shimcha	Misollar	Qo'shimcha	Misollar
-cha	<i>qisqacha</i> , o'zicha, <i>boshqacha</i> , eskicha	-larcha	<i>qardoshlarcha</i> , o'rtoqlarcha.
-dek	<i>o'qdek</i>	-siga	<i>tikkasiga</i> , yalpisiga.
-day	<i>qushday</i>		
-ligicha	<i>xomligicha</i> , tirikligicha, <i>butunligicha</i> , ho'lligicha	-chasiga	<i>yangichasiga</i> , <i>toshkentchasiga</i> , <i>dehqonchasiga</i>
-lab	<i>ertalab</i> , ko'plab.	-ona	<i>do'stona</i> ,
-an	<i>majburan</i>	-gacha	<i>kechgacha</i> ,
-simon	<i>hazilsimon</i> .	-namo	<i>uyalgannamo</i>
-lay(in)	<i>butunlay</i> , tiriklayin.	-siz, be-	<i>to'xtovsiz</i> , <i>beixtiyor</i> .
-incha	<i>ko'pincha</i> , aksincha.	-chang	<i>ko'ylakchang</i>
-in	<i>oldin</i>		

2. SO'Z O'ZGARTUVCHI QO'SHIMCHALAR

Otlardagi kelishik qo'shimchalari

№	Kelishik nomi	qo'shimchasi	savollari
1.	Bosh kelishik	-	kim? nima?
2.	Qaratqich kelishik	-ning, -n	kimning? nimaning
3.	Tushum kelishik	-ni, -n, -i	kimni? nimani? kimimi?
4.	Jo'nalish kelishik	-ga, -ka, -qa, -na, -a	kimga? nimaga?
5.	O'rin-payt kelishik	-da	kimda? nimada?
6.	CHiqish kelishik	-dan	kimdan? nimadan?

Otlardagi egalik qo'shimchalari

shaxs	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	<i>dalam</i> , kitobim	<i>dalamiz</i> , kitobimiz
2-shaxs	<i>dalang</i> , kitobing	<i>dalangiz</i> , kitobingiz
3-shaxs	<i>dalasi</i> , kitobi	<i>dalalari</i> , kitoblari

Fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalari

shaxs	birlik	ko'plik
-------	--------	---------

1-shaxs	yo <u>zdim</u> , yo <u>zay(in)</u>	yo <u>zaman</u> ,	yo <u>zdik</u> , yo <u>zamiz</u> , yo <u>zaylik</u>
2-shaxs	yo <u>zding</u> , yo <u>z(gin)</u>	yo <u>zasan</u> ,	yo <u>zdingiz</u> , yo <u>zasiz</u> , yo <u>zing(iz)</u>
3-shaxs	yo <u>zdi</u> , yo <u>zadi</u> , yo <u>zsin</u>		yo <u>zdi(lar)</u> , yo <u>zadi(lar)</u> , yo <u>zsin(lar)</u>

3. SO‘Z SHAKLI YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

№	Qo‘shimcha	Misollar	Xususiyati
1.	-a I	<i>bu<u>ramoq</u>, cho<u>pa</u>-cho<u>p</u>, qas<u>ira</u>-qas<u>ir</u>.</i>	Ma‘noni kuchaytiradi
2.	-a II	<i>yug<u>ura</u>-yug<u>ura</u>, o<u>la</u> bo<u>shladi</u></i>	ravishdosh shaklini yasaydi
3.	-ajak	<i>kel<u>ajak</u>, bor<u>ajak</u></i>	sifatdosh shaklini yasaydi
4.	-ala	<i>uch<u>ala</u>, o‘n<u>ala</u>.</i>	jamlovchi son shaklini yasaydi
5.	-alak	<i>do‘ng<u>alak</u>,</i>	kichraytirish ma‘nosini hosil qiladi
6.	alla-	<i>all<u>akim</u>, all<u>anima</u>.</i>	gumon olmoshini yasaydi
7.	-asi	<i>kel<u>asi</u> (yil).</i>	sifatdosh shaklini yasaydi
8.	-b yoki -ib	<i>o‘q<u>ib</u>, bor<u>ib</u>.</i>	ravishdosh shaklini yasaydi
9.	-gan, -kan -qan	<i>bor<u>gan</u>, tek<u>kan</u>, chiq<u>qan</u>.</i>	fe‘lning o‘tgan zamon sifatdoshi shaklini hosil qiladi
10.	-gaz, -kaz, -qaz,-giz, -qiz	<i>ko‘r<u>gaz</u>, o‘tk<u>az</u>, tut<u>qaz</u>, yot<u>qiz</u>.</i>	ortirma daraja shaklini yasaydi
11.	-gani -kani, -qani	<i>o‘q<u>igani</u>, ekk<u>ani</u>, tuqq<u>ani</u>.</i>	kelasi zamon maqsad ma‘nosidagi ravishdosh shaklini hosil qiladi:
12.	-gancha	<i>yugur<u>gancha</u> ketdi, shu ket<u>gancha</u> qaytmadi</i>	holat yoki payt ravishdosh-larini hosil qiladi
13.	-gach -kach, -qach	<i>U kel<u>gach</u>, biz ketdik (payt). U kel<u>magach</u>, biz bordik (sabab)</i>	payt yoki sabab ravishdoshlarini yasash uchun xizmat qiladi
14.	-gi I	<i>bor<u>gin</u> keldi.</i>	egalik qo‘shimchalari bilan birgalikda xohish, istak ma‘nosini ifodalaydi
15.	-gi (-g‘i) II	<i>yugur<u>gilamoq</u>, to‘zg‘<u>imoq</u>.</i>	fe‘lga qo‘shilib, takroriylik, davomlilik ma‘nolarini ifodalaydi
16.	-giz, -iz, - kaz, qaz, - g‘az, -g‘iz	<i>yur<u>gizmoq</u>, o‘tk<u>azmoq</u>, yut<u>qizmoq</u>, tur<u>g‘azmoq</u>, oq<u>izmoq</u>.</i>	fe‘llardagi ortirma nisbatni hosil qiladi
17.	-gil, -gin	<i>bor<u>gin</u>, kel<u>gil</u>.</i>	fe‘llardagi buyruq-istak maylini

			hosil qiladi
18.	-gina -kina -qina	<i>Qizginam</i> <i>balandgina, oppoqqina tuzukkina</i>	a) otlardagi erkalash- kichraytirish, achinish ma'nosini ifodalaydi b) sifatlardagi ozaytirma darajani hosil qiladi
19.	-guncha -kuncha -quncha	<i>kelguncha, tekkuncha, chiqquncha.</i>	payt ravishdoshlarini hosil qiladi:
20.	-gur	<i>qurmagur.</i>	fe'llardagi istak ma'nosini ifodalaydi
21.	-gusi (- g'usi)	<i>borgusi, bo'lg'usi.</i>	eskirgan qo'shimcha bo'lib, kelasi zamon sifatdoshini hosil qiladi
22.	-di	<i>yozdi.</i>	yaqin o'tgan zamon fe'lini hosil qiladi
23.	-dir I	<i>Kitob bilim manbaidir.</i>	kesimlik qo'shimchasi, ya'ni ot- kesimni ega bilan bog'lovchi vosita (bog'lamaning bir turi)
24.	-dir II	<i>kimdir, nimadir.</i>	gumon olmoshini hosil qiladi:
25.	-dir III yoki -tir	<i>yozdir sezdir.,</i>	orttirma daraja hosil qiluvchi qo'shimcha:
26.	-digan	<i>keladigan</i>	kelasi zamon sifatdoshini hosil qiladi
27.	-yotgan	<i>ko'rayotgan</i>	sifatdosh shaklini hosil qiladi
28.	-yotir	<i>borayotir.</i>	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi
29.	-jon	<i>karimjon</i>	otlardagi hurmat ma'nosini hosil qiladi
30.	-i	<i>to'zimoq.</i>	fe'llardagi ma'noni kuchaytiruvchi qo'shimcha
31.	-b (-ib)	<i>borib, o'qib</i>	holat ravishdoshlarini hosil qiladi
32.	-imtir yoki -mtir	<i>ko'kimtir, qoramtir</i>	sifatlardagi ozaytirma darajani hosil qiladi
33.	-in I (yoki - n)	<i>kiyinmoq (o'zlik), olinmoq (majhul)</i>	o'zlik yoki majhul nisbat yasovchi qo'shimcha
34.	-in II	<i>borayin.</i>	fe'llardagi ma'noni kuchaytiruvchi qo'shimcha hisoblanadi
35.	-inchi yoki -nchi	<i>uchinchi, oltinchi</i>	tartib son yasovchi qo'shimcha
36.	-ir	<i>toshirmoq.</i>	fe'llardagi orttirma nisbat qo'shimchasi

37.	-ish yoki -sh I	<i>borish, o'qish</i>	fe'llarning harakat nomi shaklini yasovchi qo'shimcha
38.	-ish yoki -sh II	<i>yozishdi, to'qishyapti</i>	fe'lning birgalik nisbat qo'shimchasi:
39.	-ish III	<i>Ko'kish</i>	sifatlardagi ozaytirma daraja hosil qiluvchi qo'shimcha
40.	-ish IV	<i>to'lishdi</i>	Kuchsiz harakatni ifodalaydi
41.	-iq	<i>oshiqmoq, toliqmoq</i>	fe'lning o'zlik nisbatini hosil qiluvchi qo'shimcha:
42.	-y I	<i>o'qiy boshladi.</i>	ravishdosh hosil qiluvchi qo'shimcha
43.	-y yoki -ay II	<i>to'qiy, boray, kelay.</i>	fe'lning buyruq-istak mayli shaklini yasaydi
44.	-ka	<i>surkamoq,</i>	fe'lning kuchaytirma shaklini hosil qiladi
45.	-l yoki -il	<i>Ishga qattiq berildi (o'zl. nisb.) Navbat berildi (maj. nisbat).</i>	fe'lning o'zlik yoki majhul darajasini hosil qiladi
46.	-la	<i>quvlamoq, savalamoq</i>	fe'llarning kuchaytirish shaklini yasaydi
47.	-lar I	<i>uylar</i>	ko'plik ma'nosini hosil qiladi
48.	lar II	<i>onamlar</i>	hurmat ma'nosini hosil qiladi
49.	-lik	<i>aytmoqlik.</i>	harakat nomiga qo'shib, ma'noni kuchaytiradi
50.	loq yoki -aloz	<i>qizaloq, bo'taloq.</i>	kichraytirish va erkalash ma'nosini hosil qiladi
51.	-ma	<i>yurma, kelma.</i>	fe'lning bo'lishsiz shaklini hosil qiladi
52.	-mish	<i>kelmish, olmish.</i>	eskirgan shakl bo'lib, o'tgan zamon sifatdoshini hosil qilgan
53.	-moq	<i>bormoq, qolmoq</i>	harakat nomini hosil qiladi
54.	-moqda	<i>kelmoqda, yozmoqda.</i>	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi
55.	-moqchi	<i>o'qimoqchi</i>	kelasi zamon maqsad fe'llarini yasaydi
56.	-niki	<i>kitobniki, meniki</i>	qarashlilik shaklini hosil qiladi
57.	-ov	<i>ikkov, uchov</i>	jamlovchi son hosil qiluvchi qo'shimcha
58.	-ovlan	<i>Beshovlan</i>	xuddi shunday jamlovchi sonlarni yasaydi
59.	-oy	<i>Barchinoy, Hulkaroy</i>	ayol ismlariga qo'shiladi va erkalash-hurmatlash ma'nolarin ifodalaydi
60.	-on	<i>boribon, kelibon</i>	eskirgan qo'shimcha bo'lib,

			ravishdosh shaklini hosil qilgan
61.	-roq	<i>kattaroq, oqroq</i>	sifatlarning qiyosiy daraja shaklini hosil qiladi
62.	-r yoki -ar	<i>-: borar, o'qir</i>	kelasi zamon sifatdoshini yasaydi
63.	-sa	<i>- borsa</i>	fe'llardagi shart mayli shaklini hosil qiladi:
64.	-sin	<i>olsin</i>	fe'llardagi buyruq-istak maylini yasaydi
65.	-t -	<i>o'qit</i>	fe'llardagi orttirma nisbatni hosil qiladi
66.	-ta	<i>beshta, o'nta.</i>	dona son shaklini hosil qiladi
67.	-tacha	<i>beshtacha, o'ntacha.</i>	chama son shaklini hosil qiladi
68.	-uv	<i>boruv, keluv.</i>	fe'lning harakat nomi shaklini hosil qiladi
69.	-xon	<i>Karimaxon.</i>	odam ismlariga qo'shib, hurmat ma'nosini hosil qiladi
70.	-cha	<i>qushcha, kitobcha</i>	otlardagi kichraytirish-erkalash ma'nosini ifodalaydi:
71.	-chak	<i>kelinchak, tugunchak.</i>	otlardagi kichraytirish ma'nosini ifodalaydi
72.	-choq	<i>toychoq, qo'zichoq.</i>	otlardagi kichraytirish-erkalash ma'nosini ifodalaydi
73.	-yap	<i>ketyapman.</i>	hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi

4. Ko'p ma'noli qo'shimchalar

Qo'shimchalar	Misollar
-li	<u>aqli</u> (mavjudlik ma'n.), yog' <u>li</u> (ortqlik ma'n.), o'tirish <u>li</u> (moslik)
-ma	qovur <u>ma</u> (harakat natijasi), bur <u>ma</u> (odatdagi xususiyat)
-la	moy <u>la</u> (ega holatlik), randal <u>la</u> (vosita), bolal <u>la</u> (paydo qilish)
-chi	chorv <u>chi</u> (kasbga mansublik), bo'y <u>ochi</u> (aniq sohaga tegishlilik),
-chilik	paxt <u>chilik</u> (soha), to'kin <u>chilik</u> (mavjudlik), tirik <u>chilik</u> (holat),
-dor	ayb <u>dor</u> (mavjudlik ma'n.), bo'y <u>dor</u> (ortqlik ma'n.)
no-	<u>no</u> mid (ega emaslik), <u>no</u> mard (qarama-qarshilik ma'n.)
be-	<u>be</u> g'ubor (yo'qlik ma'n.), <u>be</u> g'am (kamlik ma'n.)
-siz	asoss <u>iz</u> (ega emaslik ma'n.), madors <u>iz</u> (kamlik ma'n.)
-lik	otal <u>lik</u> (qarindoshlik), bolal <u>lik</u> (holat), mudir <u>lik</u> (kasb, hunar)
-sa	Bers <u>a</u> , eyman (shart); Qani o'qishga kir <u>sa</u> (orzu)

5. Sinonim qo'shimchalar

Qo'shimchalar	Misollar	Qo'shimchalar	Misollar
-dan/-ni	osh <u>dan</u> oling – osh <u>ni</u> oling	no/-siz	<u>no</u> ‘rin – o‘rins <u>iz</u>
-dan/-ga	eshik <u>dan</u> sig‘ madi – eshik <u>ka</u> sig‘ madi	-ona/- larcha	mard <u>ona</u> - mard <u>larcha</u>
-dan/-ning	ular <u>dan</u> biri - ular <u>ning</u> biri	-sa/-sira	suvs <u>sa</u> moq - suvs <u>sira</u> moq
-ga/-ni	bunga tushunmadi-bu <u>ni</u> tushunmadi	-chi/-shunos	til <u>chi</u> - til <u>shunos</u>
-digan/-ar	ko‘ra <u>digan</u> ko‘z - ko‘ra <u>r</u> ko‘z	-lab/-dan	sahar <u>lab</u> - sahar <u>dan</u>
don/-li	bilim <u>don</u> - bilim <u>li</u>	-(u)v/-(i)sh	o‘qu <u>v</u> - o‘q <u>ish</u>
ser/-li	<u>ser</u> suv-suv <u>li</u>	be/-siz	<u>be</u> maza – maza <u>siz</u>
ba/-li	<u>ba</u> haybat - haybat <u>li</u>	-qir/-ag‘ on	chop <u>qir</u> - chop <u>ag‘ on</u>
-do‘z/-chi	etik <u>do‘z</u> - etik <u>chi</u>		
-yotir -moqda -yapti	kely <u>yapti</u> – kelay <u>yotir</u> – kel <u>moqda</u>	-imtir/-ish/-- roq	oq <u>ish</u> – oq <u>imtir</u> - oq <u>roq</u>
-loq/-zor	o‘t <u>loq</u> - o‘t <u>zor</u>	-iz/-dir	tom <u>iz</u> - tom <u>dir</u>
-ish/-lar	kel <u>ish</u> di - keldi <u>lar</u>	-li/-dor	unum <u>li</u> - unum <u>dor</u>
-soz/-chi	kema <u>soz</u> - kema <u>chi</u>	-larcha/- chasiga	mard <u>larcha</u> - mard <u>chasiga</u>
lay/-ligicha	ho‘l <u>lay</u> - ho‘l <u>ligicha</u>		

6. Omonim qo'shimchalar

№	Qo'shimchalar	Ot	Sifat	Fe'l	Ravish	Yuklama Bog'lovchi
1	-a	jizza (s/y)	ko'tara (savdo)	qona (s/y) bora (sh/y) bura (sh/y)	-	sen-a
2	-ay	-	-	kuchay (s/y) boray (sh/y)	-	-
3	-ak	g'ijjak (s/y)	qirmizak (s/y)	-	-	-
4	-ar	-	-	ko'kar (s/y) kelar (sh/y)	-	-
5	-ga	bolaga (s/o')	-	surgamoq (sh/y)	-	-
6	-gi	supurgi (s/y)	yozi (s/y)	borgim (sh/y)	-	-
7	-gina	qizgina (sh/y)	-	-	-	qizimgina

8	-da	uy <u>da</u> (s/o')	-	und <u>amoq</u> (s/y)	tez <u>da</u> (sh/y)	kel-di- <u>da</u>
9	-day	-	kaft <u>day</u> (s/y)	-	o'q <u>day</u> (s/y)	-
10	-dir	-	-	sez <u>dir</u> (sh/y)	-	Kelgand <u>ir</u>
11	-don	kul <u>don</u> (s/y)	qadr <u>don</u> (s/y)	-	-	-
12	-dor	chorva <u>dor</u>	pul <u>dor</u> (s/y)	-	-	-
13	-i	oti (s/o')	jannati (s/ya)	tinchi (s/y) to'zi (sh/y)	-	-
14	-ik	ko'ri <u>k</u> (s/y)	egi <u>k</u> (s/y)	bir <u>ik</u> (s/y)	-	-
15	-il	-	-	egi <u>ldi</u> (o'zl. n.) ichi <u>ldi</u> (maj. nisb.)	-	-
16	-in	eki <u>n</u> (s/y)	sog'in <u>n</u> (sigir)	ko'ri <u>n</u> (sh/y)	old <u>in</u> (s/y)	-
17	-im	uyi <u>m</u> (s/o') bili <u>m</u> (s/y)	ayri <u>m</u> (s/ya)	-	cheki <u>m</u> (s/y)	-
18	-ing	uyi <u>ng</u> (s/o')	-	ochi <u>ng</u> (s/o')	-	-
19	-ingiz	uyi <u>ngiz</u> (s/o')	-	ochi <u>ngiz</u> (s/o')	-	-
20	-ir	-	-	gapi <u>r</u> (s/y) o'chi <u>r</u> (sh/y)	-	-
21	-ish	-	ko'ki <u>sh</u> (sh/y)	yoz <u>ish</u> (sh/y) oli <u>sh</u> di (sh/y)	-	-
22	-iq	chizi <u>q</u> (s/y)	ochi <u>q</u> (s/y)	yo'li <u>q</u> (s/y) sini <u>q</u> moq (sh/y)	-	-
23	-y	-	-	qoray <u>di</u> (s/y) o'qi <u>y</u> (sh/y)	-	-
24	-k	to'sha <u>k</u> (s/y)	chiri <u>k</u> (s/y)	bordi <u>k</u> (s/o')	-	-
25	-ka	yo'lka (sh/y) etikka (s/o')	-	iska (s/y) surka (sh/y)	-	-
26	-kash	xask <u>ash</u> (s/y)	nosk <u>ash</u> (s/y)	-	-	-
27	-ki	tepk <u>i</u> (s/y)	kech <u>ki</u> (s/y)	-	-	demak <u>ki</u> biladi <u>ki</u>
28	-kin	epk <u>in</u> (s/y)	kesk <u>in</u> (s/y)	to'kk <u>in</u> (sh/y)	-	-
29	-kor	paxtak <u>or</u>	fusunk <u>or</u> (s/y)	-	-	-
30	-la	-	-	ishla (s/y) quvla (sh/y)	-	-
31	-lik	ochli <u>k</u> (s/y)	o'shli <u>k</u> (s/y)	-	-	-
32	-m	chidam (s/y) ukam (s/o')	-	yozdi <u>m</u> (s/o')	-	-
33	-ma	tug <u>ma</u> (s/y)	yasama (s/y)	kel <u>ma</u> (sh/y)	yon <u>ma</u> -	-

					yon (sh/ya)	
34	-miz	onam <u>miz</u> (s/o‘)	-	olam <u>miz</u> (s/o‘)	-	-
35	-moq	quy <u>moq</u>	-	ich <u>moq</u> (sh/y)	-	-
36	-n	o‘zi <u>n</u> (i) s/o‘	-	yasa <u>n</u> moq (sh/y)	-	-
37	-on	to‘zo <u>n</u> (s/y)	shod <u>on</u> (s/y)	-	-	-
38	-oq	o‘ro <u>q</u> (s/y)	qo‘rq <u>oq</u> (s/y)	-	-	kelib <u>oq</u>
39	-sa	-	-	suv <u>s</u> adi (s/y) kelsa (sh/y)	-	-
40	-si	otasi <u>i</u> (s/o‘)	-	garangsi <u>m</u> oq (sh/y)		
41	-siz		ishs <u>iz</u> (s/y)	ichas <u>iz</u> (s/o‘)	to‘xtov- s <u>iz</u> (s/y)	
42	-t	-	-	to‘lat <u>t</u> di (s/y) o‘qit <u>t</u> di (sh/y)	-	-
43	-xon	kitob <u>x</u> on(s/y) otax <u>o</u> n(sh/y)	-	-	-	-
44	-ch	quvon <u>ch</u> (s/y)	tin <u>ch</u> (s/y)	-		-
45	-cha	qizil <u>cha</u> (s/y)	farg‘ on <u>acha</u> (s/y)	-	o‘zi <u>cha</u> (s/y)	-
46	-chak	kelin <u>chak</u> (sh/y)	kuyun <u>chak</u> (s/y)	-		-
47	-chan	-	yashov <u>chan</u> (s/y)	-	mahs <u>ich</u> <u>an</u> (s/ya)	-
48	-chi	ish <u>chi</u> (s/y)	ayirm <u>achi</u> (s/y)	-	-	kel- <u>chi</u>
49	-chiq	qop <u>chiq</u> (sh/y a)	sirpan <u>chiq</u> (s/y)	-	-	-
50	-choq	toy <u>choq</u> (sh/y)	maqtan <u>choq</u> (s/y)	-	-	-
51	-q	taro <u>q</u> (s/y)	yumsho <u>q</u> (s/ya)	-	-	-
52	-qa	o‘q <u>qa</u> (s/o‘)	qis <u>qa</u> (s/y)	chay <u>qa</u> (sh/y)	-	-
53	-qi	chop <u>qi</u> (s/y)	sayro <u>qi</u> (s/y)	-	-	-
54	-qin	to‘l <u>qin</u> (s/y)	sot <u>qin</u> (s/y)	boq <u>qin</u> (s/o‘)	-	-
55	-qoq	tut <u>qoq</u> (s/y)	yopish <u>qoq</u> (s/y)	-	-	-
56	-g‘ oq	to‘l <u>g‘ oq</u> (s/y)	toy <u>g‘ oq</u> (s/y)	-	-	-

Shartli qisqartmalar:

s/y – so‘z yasovchi; s/o‘ – so‘z o‘zgartuvchi; sh/y – shakl yasovchi.

